O'ZBEKISTON
FANLAR AKADEMIYASI
TARIX INSTITUTI

MILLIY
ARXEOLOGIYA
MARKAZI

CHDPU

CHIRCHIQ SHAHAR HOKIMLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

TOSHKENT VOHASI TARIXIGA DOIR ZAMONAVIY TADQIQOTLAR

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2025-yil 29-30-may

Chirchiq - 2025

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA GUMANITAR FANLAR FAKULTETI TARIX KAFEDRASI

TOSHKENT VOHASI TARIXIGA DOIR ZAMONAVIY TADQIQOTLAR

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2025-yil 29-30-may

3-KITOB

Chirchiq– 2025

Toshkent vohasi tarixiga doir zamonaviy tadqiqotlar. Respublika ilmiy amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent: «Zebo print », 2025. 452 b.

Mas’ul muharrir:

G.I.Muxamedov – kimyo fanlari doktori, professor

Tahrir hay’ati:

R.A.Ikramov - yuridik fanlari nomzodi, professor

Y.X.Gaffarov – tarix fanlari nomzodi, professor

D.B.Axmadjanov - pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

O.M.Normatov - tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Sh.B.Jumayeva - tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

O.H.Jaynarov - tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

S.A.Toshtemirova - pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

O.A.Maxmudov - tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

I.S.Joldasov - pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

A. N. Gorin - tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

S.A.Toshev – katta o‘qituvchi

Sh.A. Sulaymonova – katta o‘qituvchi

Z. N. Xaydarova - katta o‘qituvchi

F.B.Kamoliddinov - o‘qituvchi

Sh. Sh. Parmonov - o‘qituvchi

A. X.Nigmatov - o‘qituvchi

A. M.Toshtemirov - o‘qituvchi

Ushbu to‘plamda Qadimgi va o‘rta asrlarda Toshkent vohasi, XIX – XX asrlarda Toshkent vohasi:zamonaviy tadqiqotlar va yondashuvlar, mustaqillik yillarida Toshkentning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot tarixi, Toshkent vohasi arxeologiyasi va etnologiyasi bo’yicha tadqiqotlar va ularning yo’nalishlari, Chirchiq shahri tarixi, buguni va istiqbollari, O‘zbekiston tarixining dolzarb masalalariga bag‘ishlangan ilmiy maqola va tezislar o‘rin olgan.

Mazkur to‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlar to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

© Chirchiq davlat universiteti, 2025.

© «Zebo print» nashriyoti, 2025.

SO‘Z BOSHI

Toshkent vohasi - o‘zining qadimiy va boy tarixiy merosi, betakror tabiiy- iqlimiy sharoitlari, madaniy xilma - xilligi va strategik geografik joylashuvi bilan nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi rivojida alohida o‘rin egallagan mintaqalardan biri hisoblanadi.

Hududning tabiiy resurslarga boyligi, unumdor yerlar, serhosil vodiysi, tog‘ etaklaridagi muhofazali hududlar, shuningdek, o‘ziga xos flora va fauna tizimi qadimdan voha aholisi hayot tarzining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Bu yerda asrlar davomida chorvachilik va dehqonchilik bilan bog‘liq iqtisodiy faoliyat uyg‘unlashib borar, ijtimoiy- iqtisodiy tizim o‘ziga xos shaklga ega bo‘lgan.

Toshkent vohasi - tarixiy jarayonlar chorrahasida joylashgan bo‘lib, Buyuk Ipak yo‘lining muhim nuqtalaridan biri sifatida qadimdan savdo, madaniyat va siyosiy aloqalarning markazi bo‘lib xizmat qilgan. Bu voha orqali o‘tgan karvon yo‘llari Sharq va G‘arb o‘rtasida nafaqat tovarlar almashinuvi, balki g‘oyalar, dinlar, texnologiyalar va ilm- fan rivoji uchun ham zamin yaratgan. Hududda joylashgan qadimiy shaharlar, qo‘rg‘onlar, me’moriy yodgorliklar va arxeologik topilmalar bugungi kunda nafaqat milliy, balki jahon tarixchiligining e’tibor markazida turibdi. Toshkent vohasi tarixini o‘rganish - o‘z navbatida, butun Markaziy Osiyo sivilizatsiyaviy taraqqiyotini chuqur anglash uchun mustahkam ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bois, Toshkent vohasi faqat tarixiy o‘tmish nuqtai nazaridan emas, balki bugungi kunda ham ilmiy izlanishlar, arxeologik tadqiqotlar va madaniy merosni saqlab qolish sohasida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi konferensiyamizning asosiy maqsadi - Toshkent viloyati tarixini ilmiy asosda chuqur tadqiq etish, so‘nggi yillarda amalga oshirilgan izlanishlar va ularning natijalarini muhokama qilish hamda istiqboldagi ilmiy yo‘nalishlar va vazifalarni belgilab olishdan iborat. Shu munosabat bilan biz, tarix sohasida izlanish olib borayotgan yetuk olimlar va yosh tadqiqotchilarni ushbu anjumanga taklif etdik.

Mazkur anjuman tarix fanining nazariy va amaliy jihatlarini uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. U zamonaviy ilmiy metodologiyalar asosida olib borilayotgan tadqiqotlar, innovatsion yondashuvlar va xalqaro ilmiy hamkorlikning istiqbolli yo‘nalishlarini muhokama qilish uchun qulay maydon yaratadi.

Shu o‘rinda, ushbu konferensiyaning tashkiliy ishlarida faol ishtirok etgan barcha professor- o‘qituvchilarga, talabalarga, hamkor tashkilotlarga

chuqur minnatdorchilik bildiraman. Sizlarning fidokorona mehnatingiz tufayli ushbu tadbirni yuqori saviyada o‘tkazishga erishmoqdamiz.

Barchangizga ilmiy izlanishlaringizda ulkan zafarlar tilayman va bugungi konferensiya mazmunli, samarali hamda ilhomlantiruvchi bo‘lishiga ishonch bildiraman..

Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori, kimyo fanlari doktori, professor G.I.Muxamedov

“FARNKAS” YOXUD PARKENT TOPONIMIKASIGA DOIR BA’ZI MULOHAZALAR

Shoaslonova Zuxra Qurbonboy qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Gumanitar fanlar fakulteti
Tarix 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Joldasov Ixtiyar Suyundikovich
shoaslonovazuxra@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola Toshkent viloyatining so’lim va qadimiy o’lkalaridan biri, “Farnkas” nomi bilan ulug’langan-Parkent tumani tarixi va istiqbol yillari to’g’risida ma’lumot beradi.

Kalit so’zlar*: Parkent, Farankat, Bars, Zarankent, Boburnoma, Hudud ul-olam, iqtisodlashuv, “Katta*

Toshkent viloyati o’zining serhashamligi, salobati hamda so’lim go’shalari bilan boshqa viloyatlardan ajralib turadi. Ma’lumki mazkur viloyat maydoni 15,3 ming kv.km ni tashkil etib, tarkibiga 14 ta tuman, 4 shahar, hamda 152 ta qishloq fuqarolar yig’inini qamrab oladi. Har bir tuman va shahar o’zining yaqin va uzoq o’tmishli tarixiga ega. Hamda vohaning har bir tuman, shaharchasi hozirgi kunda iqtisodiy ta’minotning asosini tashkil etadi. Toshkent viloyatining bir qancha e’tiborga sazovor so’lim o’lkalari mavjud. Ulardan biri tarixda dastlab “Farnkas” nomi ila ulug’langan-ko’hna Parkentdir.

Parkent tumani - Toshkent viloyatidagi tuman sifatida 1926-yil sentabrda tashkil qilingan. Maydoni 1,08 ming km^2 hisoblanib, 150 mingga yaqin aholisi mavjud. Tuman markazi Parkent shahridir. Tumanga bir qancha qishloq fuqaolar yig’ini qarashli bo’lib ularga; Boshqizilsoy, Bo’ston-chotqol Qirg’izovul, Zarkent, Parkent Nomdanak, So’qoq, Hisarak, Nevich, Changi hamda Qoraqalpoq kabi qishloqlar kiradi.

Parkent qadimiy shaharlardan biri ekanligi haqida yuqorida bejizga ta’kidlamadik. Parkent so’zi qadimda hozirgi shaklda talaffuz qilinmay tarix zarvaraqlariga “Farankat, Farnkas, Barskent” kabi bir qancha nomlar bilan kiritilgan. Xususan IX asrda yozilgan muallifi no’malum bo’lgan “Hudud ul-olam” asarida Parkent atamasini “Farnkas” shaklida uchratishimiz mumkin. Unda “Farnkas” hozirgi Parkent shahri va uning atrofidagi hududlar ekanligi ta’kidlanadi. Tarixchi olim V.V Bartlod asarlarida ham mazkur hududga toponomik izoh berilganligini ko’rishimiz mumkin. Jumladan; Parkent shahri

nomini olim aslida Barskent-“bars” qoplon, “kent” shahar, ya’ni “qoplonlar shahri” nomidan kelib chiqqan deya aytib o’tadi.

Toponomik olim S. Qorayev esa bu talqinni noto’g’ri deb hisoblab, joy nomi tarkibidagi “par” so’zi eroniy tillarda “yuqori”, kent, kat-aholi punkti, shahar ya’ni “yuqori shahar” degan ma’nodan kelib chiqqan deya ta’riflaydi[1][1] Yana bir tarixiy qarashlarga ko’ra Parkent so’zining kelib chiqishi “Farankat” nomidan olingan bo’lib eroniy tillarda “farn”-qut-baraka, shon-sharaf shahri deya talqin qilinadi. Umuman olganda qomusiy sarkarda Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida ham mazkur hudud haqida izohli yozilgan jumlalarni ham uchratishimiz mumkin. Qisqa qilib aytganda Parkent nomi ulug’ hamda salobatli, qadimiy o’lkalardan biridir.

Parkent tumaniga bir qancha qishloqlar qarashli bo’lib, ularning har birini o’ziga yarasha mahobati va tarixi mavjud. Quyida ulardan aksariyatining kelib chiqish tarixiga yuzlanamiz. Jumladan;

Parkent tumaniga qarashli Nevich qishlog’i nomining kelib chiqishini mahalliy aholi fors-tojik tilida “new”-“dich” ya’ni “Yangi qal’a” nomidan kelib chiqqan deya ta’riflaydilar. Mazkur qishloq Chotqol tog’ tizmasiga yaqin hududda joylashganligi uning tarixiyligini yanada oshiradi. Xususan arxeolog J. Kabirov tomonidan Chotqol tog’ tizmalari hududlaridagi qoyatoshlarda qadimiy piktografik yozuvlar topib o’rganilgan. Boshqizilsoy yaqinida joylashgan mazkur yozuvlar etnik davrning ibtidosi bo’lib, unda dastlabgi diniy marosimlar, xususan; qurbonlik marosimlari, ovchilik, termachilik, hamda samoviy timsollar tasvirlari saqlanib qolgan[[2]2] Ushbu yozuvlar xronologik jihatdan mil.avv VII-II asrlarga tegishliligi aniqlangan.

Zarkent-qadimda “zarankat” deb atalib ko’pchilik olimlar “zar”, “zarin” oltin, “oltindan bo’lgan shahar” degan ma’nolarni bildiradi deya ta’riflaydilar. Zarkent qishlog’i hozirgi kunda Parkent tumanining hushmanzara joylaridan biri hisoblanib, mazkur hudud nafaqat go’zal tabiati balki muqaddas qadamjolari bilan fayzlanib turadi. Gap shundaki, Zarkent qishlog’ida “Zarkent ota” madaniy merosiy obyekti saqlanib qolgan. Uni mahalliy aholi “Qush qo’nmas avliyo” ziyoratgohi deb ham atashadi. Ziyoratgoh hududida tabiiy buloq hosil bo’lgan bo’lib, mahalliy aholini necha asrlardan beri toza buloq suvi bilan ta’minlab kelmoqda. Mazkur qadamjo VII-XIII asrlarga tegishli bo’lib O’zbekiston Respublikasini Mahkamasining qarori bilan 2019-yil 4-

[1] Q,M. Hakimov, M.T. Mirkamilov. TOPONOMIKA darslik, Toshkentn “Tafakkur avlodi” 2020. 128b

[2] TOSHKENT VILOYATI TAMADDUM VA ISTIQBOLLARI ENSKLOPEDIYA; Toshkent “MA’NAVIYAT” 2014.36b.

oktabrda “Moddiy madaniy merosning ko’chmas mulk obyekti milliy ro’yxatiga kiritilib davlat muhofazasiga olingan.[3][3]

Nomdanak qishlog’i nomining kelib chiqishini har kim har hil talqin qilishadi. Ba’zi aholi qatlami uni Bobur Mirzoning sayohati bilan bog’lab, u kelgan vaqt o’rik hosil berganligi hamda mevaning dokanlari yarim holatda bo’lganidan dastlab “nim”, “nim donak” deb atalib keyinchalik xalq shevasida “Nomdanak” tarzida o’zgarganligini aytsalar, ba’zi aholi qatlami bu atamani “namadvonak” so’zidan kelib chiqqan deya ta’rif beradilar.

Hisarak so’zi ham ayrim manbalarda “fors-tojik” tilidan kelib chiqqan atama bo’lib, “his-bis” ya’ni “bis” tojikcha yigirma, “sarak” saroy-“yigirma saroyli o’lka” ma’nolarini bildiradi degan tahminlar mavjud. Hisarak qishlog’i asosan tog’li hudud bo’lganligi uchun havosining musaffoligi bo’yicha tumanda ajralib turadi. Undan tashqari “Katta Quyosh pechi” deb nomlangan avtomat boshqaruv tizimiga ega murakkab optik-mexanik stansiyaviy qurilma ham aynan Hisarak hududida joylashgan. Bunday inshoot dunyoda faqatgina ikkita bo‘lib, Fransiya va O‘zbekistonda mavjud. Changi qishlog’I nomining kelib chiqishi tarixiga yuzlansak, mazkur atama “chang” musiqiy asbobi nomidan kelib chiqqan degan qarashlar mavjud. Umuman olganda tumanning har bir qishlog’ining o’z tarixi saqlanib qolgan.

Parkent tumanining sharafini oshirgan yana bir jihatlaridan biri bu bog’dorchilik hamda uzumchilikdir. Parkent uzumlari shirasi va sifatiga ko’ra nafaqat O’zbekiston balki O’rta Osiyoga ham dong’i ketgan desak mubolag’a bo’lmaydi. Hatto Parkentda yetishtiriladigan uzum naviga “Parkati”, “Pushti Parkati” deya alohida nom qo’yilishi va sifati yuqori baholanishi fikrimizning yaqqol dalilidir. Parkent tumanida faqatgina agrar xo’jalik rivojlanmasdan ishlab chiqarishning yangi sohalari ham keng miqdorda taraqqiy etgan. Xususan birgina Qoraqopoq qishlog’ining o’zida o’nlab gektar hududlarni egallagan “med zona” lari alohida e’tiborga molik. Tadbirkorlik uchun doimo qulay sharoit yaratilganligi aholini har vaqt o’ziga jalb qilib kelgan.

Xulosa qilib shuni aytish joizki Toshkent viloyatining bir qismini tashkil qilgan mazkur hudud isti qlol yillarida ham iqtisodiy ham agrar o’sishni taraqqiy ettirdi. Aholiga yaratilgan qulay shart-sharoitlar hamda qurilishning tez suratda amalga oshirilishi bir yilning o’zida misli ko’rilmagan darajada rivojlanishga sabab bo’ldi. Bularning barchasi mehnatsevar xalqning tinimsiz haratakati, hamda duoga ochilgan sabr qo’llarining totli mevasidir.

[3] „Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktyabrdagi 846-sonli qarori“

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Q,M. Hakimov, M.T. Mirkamilov. TOPONOMIKA darslik, Toshkentn “Tafakkur avlodi” 2020. 128b
2. TOSHKENT VILOYATI TAMADDUM VA ISTIQBOLLARI ENSKLOPEDIYA; Toshkent “MA’NAVIYAT” 2014.36b.
3. S.Qoraev O'zbekiston viloyatlari toponimikasi. - T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2005.
4. H Hasanov. O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan. - Toshkent: Fan, 1965.
5. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'atit turk. "Fan" T.: 1967
6. F. Boboyev Choch tarixidan lavhalar. - Toshkent: Yangi nashr, 2010.

XVIII-XIX ASRLARDA QO‘QON XONLIGI

Mirtazoqulova Bahora
ChDPU talabasi
Ilmiy rahbar. Parmonov Sh.Sh

Annotatsiya: Ushbu maqolada XVIII-XIX asrlarda Farg’ona vodiysida hukmronlik qilgan Qo’qon xonligining tashkil topishi, taraqqiyot davri, ijtimoiy-siyosiy tuzumi, iqtisodiy va madaniy hayoti, shuningdek, xonlikning inqirozi va Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi masalalari yoritilgan. Xonlikning Markaziy Osiyo mintaqasidagi o’rni va tarixiy ahamiyati tahlil qilingan

Kalit so’zlar: Qo’qon xonligi, Ming sulolasi, Farg’ona vodiysi, Shohruhbiy, Olimxon, Umarxon, Muhammadalixon, Xudoyorxon, ma’muriy boshqaruv, madaniy hayot, savdo-sotiq, Rossiya imperiyasi, bosqinchilik, Po’latxon qo’zg’oloni.

XVIII-XIX asrlar davomida Markaziy Osiyoning siyosiy xaritasida muhim o’rin tutgan Qo’qon xonligi o’zining boy tarixi, madaniyati va geosiyosiy ahamiyati bilan alohida diqqatga sazovordir. Ushbu maqolada Qo’qon xonligining tashkil topishi, rivojlanishi, yuksalishi va inqirozi davrlari, shuningdek, xonlikning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy hayotining o’ziga xos jihatlari yoritiladi.

Qo’qon xonligining tashkil topishi

Qo’qon xonligi XVIII asrning birinchi yarmida, aniqrog’i 1709-yilda Ming urug’ining vakili Shohruhbiy tomonidan tashkil topgan. Dastlab Farg’ona vodiysi hududida kichik bir davlat sifatida shakllangan bu xonlik keyinchalik o’z hududlarini kengaytirib, Markaziy Osiyoning eng qudratli davlatlaridan biriga aylandi.

Qo’qon xonligi tashkil topishining asosiy sabablari quyidagilar edi:

- Buxoro xonligining zaiflashuvi
- Ming urug’ining siyosiy ta’sirining oshishi
- Farg’ona vodiysining iqtisodiy salohiyati
- Mintaqada vujudga kelgan siyosiy bo’shliq

Shohruhbiy (1709-1721) davrida xonlikning asosi qo’yilgan bo’lsa, uning vorislari davrida, ayniqsa Omxon (1800-1810) va Umarxon (1810-1822) hukmronligi davrida xonlik o’zining eng yuqori qudrat cho’qqisiga erishdi.

Qo’qon xonligining taraqqiyot davri

Qo’qon xonligining eng gullab-yashnagan davri XIX asrning birinchi yarmiga to’g’ri keladi. Bu davrda:

Siyosiy va harbiy sohadagi yutuqlar

Olimxon hukmronligi davrida xonlik tashqi siyosatda faol bo’lib, o’z chegaralarini Toshkent, Turkiston va Chimkentgacha kengaytirdi. Umarxon davrida esa xonlik Qashqar va Yettisuv hududlarini ham o’z tasarrufiga oldi, natijada xonlik hududi shimolda Sirdaryo va Tyan-Shan tog’laridan janubda Hisor tizmasigacha, sharqda Qashqardan g’arbda Jizzaxgacha cho’zilgan edi.

Muhammadalixon (1822-1842) davrida ham xonlikning harbiy qudrati saqlanib qoldi, biroq ichki ziddiyatlar kuchaya boshladi.

Qo’qon xonligi qishloq xo’jaligi, hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlangan mintaqa edi. Xonlikning asosiy boylik manbalari:

- Paxta, sholi va g’alla yetishtirish
- Ipakchilik va bog’dorchilik
- Hunarmandchilik (to’qimachilik, kulolchilik, zargarlik)
- Ichki va tashqi savdo aloqalari

Xonlik hududidan o’tgan Buyuk Ipak yo’li tijorat rivojiga katta ta’sir ko’rsatgan. Qo’qon, Marg’ilon, Andijon, Namangan, Toshkent shaharlari muhim savdo markazlari sifatida rivojlangan.

Madaniy hayot

Qo’qon xonligi madaniy va ma’naviy hayotda ham katta yutuqlarga erishdi:

- Adabiyot va san’at ravnaqi (Umarxon o’zi ham “Amiriy” taxallusi bilan ijod qilgan)

- Nodira, Uvaysiy, Mahzuna, Dilshod kabi ayol shoiralarning ijodi

- Fazliy Namangoniy rahbarligida “Majmuai shoiron” adabiy to’garagi faoliyati

- Me’morchilik va hunarmandchilikning rivojlanishi

- Madrasa va masjidlar qurilishi

- Kutubxonalar va qo’lyozma asarlar to’plami

Ayniqsa Umarxon va uning rafiqasi Nodira saroyida adabiyot va san’at homiylik qilingan, ko’plab shoirlar, olimlar va san’atkorlar faoliyat yuritgan.

Qo’qon xonligining ijtimoiy-siyosiy tuzumi

Qo’qon xonligida hokimiyat tizimi quyidagicha tashkil topgan edi:

1. Xon - mutlaq hokimiyat egasi, barcha davlat ishlarining boshlig’i
2. Mingboshi - bosh vazir, harbiy va fuqarolik ishlarini nazorat qilgan
3. Qushbegi - saroy ishlarini boshqargan
4. Shayxulislom va qozikalon- din va shariat ishlarini nazorat qilgan
5. Parvonachi- xon farmonlarini yetkizuvchi
6. Dodxoh, yasovulboshi, to’qsabo - harbiy va ma’muriy mansablar

Xonlikda markaziy boshqaruv bilan bir qatorda, viloyatlar bekliklar, shaharlar hokimliklar tomonidan boshqarilgan. Qo’qon xonligining ma’muriy tuzilishida avtonom hududlar ham bo’lgan (masalan, Qirg’iz va qozoq juzlari).

Qo’qon xonligining inqirozi va Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi

XIX asrning o’rtalarida Qo’qon xonligi inqirozga yuz tutdi. Buning bir necha sabablari bor edi:

- Ichki nizolar va saroy fitnalari

- Xudoyorxon (1845-1875 yillarda uch marta taxtga chiqib, uch marta ag’darilgan) davrida hokimiyat kurashining kuchayishi

- Ijtimoiy-iqtisodiy muammolar

- Tashqi tahdidlar, ayniqsa Rossiya imperiyasining bosqini

1850-1860-yillarda Rossiya imperiyasi Qo’qon xonligi hududlariga bosqinni boshladi. 1853-yilda Oq-Masjid (hozirgi Qizilo’rda), 1864-yilda Chimkent va Turkiston, 1865-yilda Toshkent bosib olindi.

1868-yilda Qo’qon xonligi Rossiya bilan shartnoma tuzishga majbur bo’ldi va unga tobe davlatga aylandi. 1873-1875-yillarda Xudoyorxonga qarshi qo’zg’olon ko’tarildi, natijada u taxtdan qochishga majbur bo’ldi. Uning o’rniga o’g’li Nasriddinbek xon qilib ko’tarildi.

1875-yilda Qo’qon xonligida Po’latxon boshchiligida katta qo’zg’olon ko’tarildi. Bu qo’zg’olonni bostirishni bahona qilgan Rossiya imperiyasi 1876-yil 19-fevralda Qo’qon xonligini butunlay tugatib, uning hududida Farg’ona viloyatini tashkil qildi.

Qo’qon xonligining tarixi va madaniyatidagi ahamiyati

Qo’qon xonligi o’zining 167 yillik mavjudligi davomida:

- O’zbek davlatchiligi tarixida muhim o’rin tutdi
- Farg’ona vodiysining iqtisodiy va madaniy rivojiga katta hissa qo’shdi
- O’zbek adabiyoti va san’ati taraqqiyotiga turtki berdi
- Ko’plab tarixiy inshootlar, madaniy yodgorliklar qoldirildi (Xudoyorxon saroyi, Norbutabiy madrasasi, Jome masjidi kabilar)
- Madaniyatlararo aloqalarni rivojlantirdi

Bugungi kunda ham Qo’qon shahri va Farg’ona vodiysida xonlik davridan qolgan tarixiy va madaniy yodgorliklar saqlanib qolingan, ular milliy merosimizning ajralmas qismi hisoblanadi.

Xulosa

XVIII-XIX asrlarda mavjud bo’lgan Qo’qon xonligi o’zbek davlatchiligi tarixida o’ziga xos o’rin tutadi. U mustaqil davlat sifatida nisbatan qisqa davr mavjud bo’lgan bo’lsa-da, Markaziy Osiyo mintaqasida siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan katta ahamiyatga ega bo’lgan. Qo’qon xonligi tarixi, uning yuksalishi va inqirozi davrlari bugungi kunda ham o’rganish uchun muhim manba bo’lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Beysembiev T.K. “Kokandskaya istoriografiya”. Almati, 2009.
2. Nabiev R.N. “Iz istorii Kokandskogo xanstva”. Toshkent, 1973.
3. Bobobekov H. “Qo’qon tarixi”. Toshkent, 1996.
4. Rajabov Q., Hayitov S. “O’zbekiston tarixi (XVIII asr – XIX asrning birinchi yarmi)”. Toshkent, 2012.
5. Usmonov B. “Qo’qon xonligi tarixi (yangi manbalar asosida)”. Toshkent, 2016.

MUSTAQILLIKDAN KEYINGI DAVRDA O‘ZBEKISTON OZARBAYJON MUNOSABTLARI. TA’LIM SOHASIDAGI KELISHUVLAR

Madrahimov Yangiboy Sobir o‘g‘li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada mustaqillikdan keying davrda O‘zbekiston Ozarbayjon munosabatlari qanday darajada bo‘lganligi, shuningdek, bu ikki davlat o‘rtasida iqtisodiy, ijtimoiy sohadagi kelishuvlar haqida fikr mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Diplomatiya, turkey xalqlar, qardosh, sheriklik, Alisher Navoiy, Nizomiy Ganjaviy, kapital, delegatsiya;

Ozarbayjon 1991-yil 28-dekabrda O‘zbekiston mustaqilligini tan oldi, 1995-yil 2-oktyabrda mamlakatlarimiz o‘rtasida diplomatiya munosabatlari o‘rnatildi. O‘zbekiston va Ozarbayjon xalqlarining o‘zaro aloqalari asrlar davomida shakllangan va rivojlangan. Ushbu ikki davlat turkiy xalqlar oilasiga mansub bo‘lib, ularni birlashtirib turgan tarixiy, madaniy va diniy jihatlar yillar osha mustahkamlangan. Hozirgi kunda O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘z mustaqilliklarini mustahkamlab, zamonaviy dunyoda yaqin sheriklik munosabatlarini rivojlantirishga intilmoqda. Ushbu esseda ikki davlat o‘rtasidagi umumiy tarixiy taqdir va zamonaviy hamkorlikning ahamiyati tahlil qilinadi. O‘zbekiston va Ozarbayjon xalqlarining tarixiy taqdiri ko‘p jihatdan mushtarakdir. Ikkala xalq ham Buyuk Ipak yo‘lining muhim markazlarida joylashgan bo‘lib, qadimiy davrlardan boshlab savdo, ilmfan va madaniyat markazlari sifatida tanilgan. O‘zbekistonning Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlari hamda Ozarbayjonning Baku, Ganja va Sheki kabi shaharlarida o‘sha davrda xalqaro savdo va madaniy aloqalar rivojlangan. Turkiy xalqlarning birligi Movarounnahr va Kavkaz hududlarida yashagan xalqlarning umumiy madaniyati va tilida namoyon bo‘ladi[1, 45]. Amir Temur davridan boshlab ushbu mintaqalarning bir-biriga bo‘lgan ta’siri kuchaygan, Temuriylar sulolasi davrida madaniy va ilmiy aloqalar yuqori cho‘qqiga chiqqan. Bu davrda o‘zbek va ozarbayjon yozuvchilari, olimlari va san’atkorlari bir-birining madaniyatiga hissa qo‘shgan. Masalan, Alisher Navoiy va Nizomiy Ganjaviy ijodi o‘zbek va ozarbayjon madaniy merosining bir bo‘lagi sifatida qaraladi.

Ta’kidlash joizki, ikki davlat o‘rtasida diplomatik munosabatlar 1995-yil 2-oktabrda o‘rnatilgan bo‘lib, 1996-yil o‘rtalarida O‘zbekiston Respublikasida Ozarbayjon davlatining elchixonasi o‘z faoliyatini boshlagan bo‘lsa, 1998-yil may oyidan boshlab Ozarbayjonda O‘zbekiston elchixonasi o‘z faoliyatini boshladi. Ozarbayjon va O‘zbekiston elchixonalarining har ikki davlat hududida ochilishi bu davlatlarning mintaqadagi o‘rni, o‘zaro munosabatlarini yanada kengaytirishi va takomillashtirishidan dalolatdir. Ma’lumki, davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni yo‘lga qo‘yishda avvalo davlat rahbarlarining amaliy tashriflari muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimovning 1996-yil 26-27-may kunlari Ozarbayjonga qilgan ilk rasmiy tashrifini amalga oshirganligini va tashrif chog‘ida o‘zaro hamjihatlik va do‘stlik muhitida ikki davlat o‘rtasida 19 ta shartnomani o‘z ichiga olgan hujjatlar to‘plami imzolanganligini qayd etish lozim[2]. Ushbu hujjatlar ikki tomonlama munosabatlarning ko‘plab sohalarida hamkorlik qilishni o‘z ichiga olgan edi. Shuningdek, 1996-yil 21-22-oktabr kunlari Ozarbayjon Prezidenti Haydar Aliyev Turkiy tilli davlatlar rahbarlarining IV forumida va atoqli davlat arbobi Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag‘ishlangan yubiley tadbirida ishtirok etish uchun Toshkentda bo‘lgan edi.

Bugungi kunda O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasida tarixan shakllangan yaqin do‘stona munosabatlar o‘z taraqqiyotining sifat jihatidan yangi bosqichiga ko‘tarilgan. Oliy darajadagi muntazam va samarali muloqot tufayli O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasidagi strategik sheriklik hamda ko‘p qirrali hamkorlik munosabatlari barcha yo‘nalishlarda jadal ravnaq topmoqda. Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyevning 2022-yil 21-22-iyun kunlari O‘zbekistonga davlat tashrifi ikki tomonlama munosabatlar tarixida muhim voqea bo‘ldi, chunki unda ikki davlat o‘rtasida Strategik sheriklikni chuqurlashtirish va har tomonlama hamkorlikni rivojlantirish to‘g‘risidagi deklaratsiya qabul qilindi. O‘zbekiston va Ozarbayjon rahbarlari 2022-yil sentyabr oyida Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT) Davlat rahbarlari kengashining yig‘ilishi doirasida Samarqand shahrida ham uchrashdilar, unda raislik qilayotgan mamlakatning faxriy mehmoni sifatida Prezident Ilhom Aliyev ishtirok etdi. O‘sha yili 10-11-noyabr kunlari Prezident Ilhom Aliyev rafiqasi, birinchi vitse-prezident Mehribon Aliyeva bilan birgalikda Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) Davlat rahbarlari kengashi yig‘ilishida ishtirok etish uchun Samarqand shahriga tashrif buyurdi. Joriy yil 1-2-mart kunlari bo‘lib o‘tgan Qo‘shilmaslik harakati sammitidagi ishtiroki doirasida ikki mamlakat

Prezidentlari Bokuda uchrashdilar. 2017-yildan buyon oliy darajadagi muloqotning faollashuvi delegatsiyalar almashuvi jadallashishiga koʻmaklashmoqda. 6 yil davomida tomonlarning 70 dan ortiq yuqori darajadagi tashrif almashuvi boʻlib oʻtdi.Parlamentlararo hamkorlik ham faol rivojlanmoqda. 2020-yili ikki mamlakat qonun chiqaruvchi organlari – Oʻzbekiston Oliy Majlisi va Ozarbayjon Milliy Majlisida parlamentlararo hamkorlik guruhlari tuzildi. 2022-yilda ikki mamlakat parlamentlari palatalarining raislari va spikerlarining qator oʻzaro tashriflari boʻlib oʻtdi, tashriflar davomida ular Oʻzbekiston Prezidenti va Ozarbayjon Prezidenti tomonidan ham qabul qilindi. Parlamentlar vakillari Oʻzbekiston va Ozarbayjonda boʻlib oʻtgan Prezident va parlament saylovlarida xalqaro kuzatuvchi sifatida, shuningdek, xalqaro ahamiyatga molik turli tadbirlarda muntazam ravishda ishtirok etib kelishmoqda. 2016-yil sentyabr oyidan buyon ikki mamlakat tashqi siyosat idoralari rahbarlari darajasida yettita uchrashuv oʻtkazildi.

2022-yil 1-avgust kuni Toshkentda Oʻzbekiston, Ozarbayjon va Turkiya tashqi ishlar, iqtisodiyot va transport vazirlarining birinchi uch tomonlama yigʻilishi tashkil etildi, uning yakunlari boʻyicha Toshkent deklaratsiyasi qabul qilindi. Oʻzbekiston va Ozarbayjon BMT, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, MDH va Qoʻshilmaslik harakati doirasida yaqindan hamkorlik qilayotgani barobarida bir-birining tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlamoqda. Oʻzbekiston va Ozarbayjon BMTning xalqaro kun tartibidagi asosiy masalalar, jumladan, xavfsizlikka zamonaviy tahdid va xavf-xatarlarga qarshi kurashish, yadro qurolini tarqatmaslik rejimini mustahkamlash, inson huquqlari himoyasi, Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish va boshqa yoʻnalishlar boʻyicha oʻxshash nuqtayi nazarlarga ega. Ozarbayjon Oʻzbekiston tashabbusi bilan Markaziy Osiyoda hamkorlikni mustahkamlash (2018), diniy bagʻrikenglik (2018), sayyohlikni rivojlantirish (2019), Orolboʻyi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi deb e'lon qilish (2021), Markaziy va Janubiy Osiyo oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni mustahkamlash (2022), Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadallashtirishda parlamentlarning rolini kuchaytirish (2022) boʻyicha qabul qilingan rezolyutsiyalarni qoʻllab-quvvatladi va hammuallif boʻldi. Shuningdek, Ozarbayjon Jahon sayyohlik tashkiloti (YUNVTO) Bosh Assambleyasi 25-sessiyasi 2023-yilda Samarqand shahri oʻtkazilishi uchun uning nomzodini qoʻllab-quvvatladi[3]. Darhaqiqat, Oʻzbekiston va Ozarbayjon mamlakatlarini

uzoq tarixi, tili, dini, urf-odat va an'analari, o'zaro do'stlik va qardoshlik rishtalari bog'lab turadi. Bugun ikki davlat yetakchilarining o'zaro ishonchga asoslangan munosabatlari tufayli O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi hamkorlik yuksak darajaga chiqib, ijobiy va barqaror rivojlanish sur'atini namoyon etmoqda.

Birgina iqtisodiy aloqalarni oladigan bo'lsak, 2022-yilda o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 53 foizga o'sganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin[4]. Oldinda turgan muhim vazifalardan biri bu o'zaro savdo aylanmasini 1 milliard dollarga yetkazishdan iborat. Boisi, mamlakatlarimizda savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni chuqurlashtirish, talabga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish va ularni istiqbolli bozorlarga olib chiqish maqsadida sanoat kooperatsiyasini kengaytirishda katta salohiyat mavjud. Bu borada neft-kimyo, oziq-ovqat, to'qimachilik, farmatsevtika, mexanika va elektrotexnika uskunalarini ko'paytirish tarmoqlari yetakchi. Aslida, mamlakatlarimiz o'rtasida yildan-yilga o'zaro manfaatli aloqalar mustahkamlanib borayotganligining asosini ikki davlat rahbarlarining do'stona munosabatlari, o'zaro tashriflar chog'ida erishilgan hujjatlar, ularda belgilangan maqsad va vazifalar tashkil etadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda Ozarbayjon kapitali ishtirokidagi 203 ta korxona faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning asosiy faoliyat yo'nalishlari savdo, mashinasozlik, metallga ishlov berish, moliya va sug'urta, ko'chmas mulk, energetika, xizmatlar, zargarlik buyumlari ishlab chiqarish, oziq-ovqat va yengil sanoatni qamrab olgan. Mamlakatlar mustaqillikning dastlabki yillarida diplomatik munosabatlar o'rnatgan bo'lsa, o'shandan buyon 13 marta oliy darajadagi o'zaro tashriflar amalga oshirildi. 2017-yildan boshlab oliy darajadagi muloqot faollashgani delegatsiyalar almashinuvining kuchayishiga xizmat qildi – 6 yil davomida 70 dan ortiq oliy darajadagi tashriflar amalga oshirildi. Shuningdek, 2017-yildan buyon mamlakatlar rahbarlari o'rtasida 9 ta telefon suhbatlari bo'lib o'tdi. Bundan tashqari, xalqaro tashkilotlarning yuqori darajadagi uchrashuvlari o'tkazilmoqda. Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning taklifiga binoan Prezidentimizning shu yil 22-23 avgust kunlari ushbu davlatga tashrifi ikki tomonlama aloqalarni butunlay yangi bosqichga ko'taradi. Ushbu tashrifni strategik sherikligimizni mustahkamlash yo'lida tashlangan yana bir muhim qadam, deyish mumkin. Tashrif doirasida energetika, mashinasozlik, metallurgiya, shaharsozlik, qishloq xo'jaligi, foydali qazilmalar, to'qimachilik, ipakchilik, farmatsevtika, elektrotexnika va boshqa tarmoqlarda sanoat kooperatsiyasini kengaytirish

istiqbollari muhokama qilindi. Ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalari ishtirokida kengaytirilgan tarkibda davom etgan muzokaralar chog‘ida O‘zbekiston — Ozarbayjon strategik sheriklik munosabatlarini yanada chuqurlashtirish va ko‘p qirrali hamkorlikni, eng avvalo, siyosiy, savdo, iqtisodiy, transport-kommunikatsiyaviy va madaniy-gumanitar sohalarda rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki mustaqillikdan keyingi davrda O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasidagi munosabatlar jadal sur’atlar bilan rivojlanib, bugungi kunda strategik hamkorlik darajasiga ko‘tarilgan. Ikkala davlat ham o‘z milliy manfaatlarini himoya qilgan holda, o‘zaro ishonch va hurmat asosida siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy sohalarda yaqin aloqalarni yo‘lga qo‘ydi. Ayniqsa, ikki tomonlama tashriflar, xalqaro doiralardagi qo‘llab-quvvatlovlar, parlamentlararo muloqotlar hamda xalq diplomatiyasi orqali aloqalar yangi bosqichga chiqmoqda. Iqtisodiy jihatdan, savdo-iqtisodiy hamkorlik, transport va energetika yo‘nalishlaridagi loyihalar, qo‘shma korxonalar sonining ortib borishi ikki mamlakat manfaatlariga xizmat qilmoqda. Ozarbayjonning Kaspiy dengizi orqali O‘zbekiston uchun tranzit imkoniyatlari yaratishi mintaqaviy integratsiyani kuchaytiradi. Madaniy-gumanitar sohada esa, umumiy turkiy ildizlarga tayangan holda, do‘stona aloqalar madaniy almashinuvlar, san’at festivallari, ta’lim dasturlari orqali mustahkamlanmoqda. Bugungi global muammolar fonida O‘zbekiston va Ozarbayjonning bir-birini xalqaro maydonlarda qo‘llab-quvvatlashi, yagona pozitsiyalarga ega bo‘lishi ham ikki davlat o‘rtasidagi ishonchli va barqaror hamkorlik belgilaridandir. Umuman olganda, mustaqillik yillarida shakllangan ushbu aloqalar nafaqat ikki tomon manfaatiga, balki butun Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqasida tinchlik va barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Ushbu do‘stona aloqalarni yanada mustahkamlash, ularni yangi bosqichlarga olib chiqish zamon talabi bo‘lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Qobilov, S. “Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqasidagi strategik hamkorlik”. Toshkent: Sharq, 2015.- 45 b.
2. Саидов. И. М. УЗБЕКСКО-АЗЕРБАЙДЖАНСКИЕ ОТНОШЕНИЯ. http://www.anl.az/down/meqale/qafqazshunasliq/2021/01/780872(meqale).pdf https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston--ozarbayjon-ikki-qardosh-xalq-farovonligi-yolidagi-mustahkam-sheriklik
3. https://www.uwed.uz/en/news/115

MAKEDONIYALIK ALEKSANDR YURISHLARI: TARIXIY AHAMIYATI VA MADANIY TA’SIRI

Odilov Azimjon Hasanboy o’g’li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi
azimjonodilov340@gmail.com
93 913 82 28
Ilmiy rahbar: Haydarova Zilola

Annotatsiya: Ushbu maqola Makedoniyalik Aleksandrning Sharqqa qilgan yurishlari, uning tarixiy ahamiyati hamda G‘arb va Sharq madaniyatlari o‘rtasidagi aloqalarni qanday mustahkamlab berganini tahlil qiladi. Aleksandr yurishlari nafaqat harbiy g‘alabalar, balki sivilizatsiyalar o‘rtasida madaniy almashinuv, ilm-fan, san’at va siyosatdagi taraqqiyotga ham asos soldi. Bu yurishlar natijasida ellinistik davr shakllandi va o‘sha davr ilm-fani, falsafasi butun dunyo tarixiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: Aleksandr, ellinistik davr, madaniyat, imperiya, tarixiy ta’sir, G‘arb va Sharq.

Tarixda buyuk sarkardalar ko‘p bo‘lgan bo‘lsa-da, Makedoniyalik Aleksandr (Iskandar Zulqarnayn) o‘zining qisqa, ammo juda ta’sirli hayoti bilan ajralib turadi. Miloddan avvalgi 4-asrda yashagan Aleksandr o‘z davrining eng yirik imperiyalaridan birini yaratishga erishdi. U G‘arb va Sharq o‘rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlab, yangi davr — ellinistik davrni boshlab berdi.

Aleksandr shaxsiyati va siyosiy maqsadi

Aleksandr Makedoniya podshosi Filipp II ning o‘g‘li edi. U Aristotel kabi buyuk faylasufdan ta’lim olgan. Bu esa uning fikrlashida nafaqat harbiy, balki falsafiy va madaniy yondashuvni ham shakllantirgan. Aleksandrning asosiy maqsadi — dunyoni yagona imperiyaga birlashtirish, Sharq va G‘arbni yagona siyosiy va madaniy tizimda bog‘lash edi.

Sharqqa yurishlar

Aleksandr mil.avv. 334-yilda Fors imperiyasiga qarshi yurishni boshladi. U Granik daryosidagi g‘alabadan so‘ng, kichik Osiyo, Misr va nihoyat Erondagi Ahamoniylar imperiyasini tor-mor etdi. Mil.avv. 331-yilda Gavgamela jangida Doro III ustidan qozonilgan g‘alaba Fors saltanati tarixidagi eng muhim burilish nuqtasiga aylandi. So‘ngra u Hindistonga qadar yurishni davom ettirdi.

Madaniy almashinuv va ellinistik davr

Aleksandr yurishlari natijasida turli madaniyatlar bir-biriga singishdi. Yunon tili, san'ati, arxitekturasi va falsafasi Sharq mamlakatlariga tarqaldi. Boshqa tomondan esa, Sharqning diniy e'tiqodlari, urf-odatlari G'arbda o'z o'rnini topdi. Ayniqsa, Iskandariya (Misr) va boshqa shaharlarda fan, medicina va geometriya rivojlandi. Bu holat ellinistik davr deb ataluvchi madaniy uyg'onishni yuzaga keltirdi.

Siyosiy va ijtimoiy ta'siri

Aleksandr o'z imperiyasida mahalliy xalqlar urf-odatlariga hurmat bilan qaragan. U Fors zodagonlarini lavozimlarga tayinlagan va ularning madaniyatini tan olgan. Bu yondashuv Sharq xalqlari orasida Aleksandrga nisbatan ijobiy munosabat uyg'otgan. Shu bilan birga, u grek va mahalliy xalqlarni o'zaro turmush qurishga da'vat etib, imperiyani birlashtirishga harakat qilgan.

Ilm-fan va falsafaga ta'siri

Aleksandr tomonidan asos solingan shaharlarda kutubxonalar va ilmiy markazlar tashkil etildi. Eng mashhuri — Iskandariya kutubxonasi bo'lib, u o'sha davrning eng katta bilim markaziga aylandi. Bu maskan ellinistik davr olimlarining faoliyat yuritishiga katta imkoniyat yaratdi.

Xulosa

Makedoniyalik Aleksandrning yurishlari harbiy g'alabalardan iboratgina bo'lmay, u dunyo tarixida madaniy uyg'onish, xalqlar o'rtasida o'zaro anglashuv va hamkorlikning poydevorini yaratdi. Uning yurishlari natijasida ellinistik davr yuzaga kelib, bu davr nafaqat G'arb va Sharqni bog'ladi, balki ularning kelajak taraqqiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bosworth A.B., Conquest and Empire: The Reign of Alexander the Great, Cambridge University Press.

2. Green P., Alexander of Macedon, University of California Press.

3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Makedoniyalik_Aleksandr

4. https://historytoday.com/archive/alexander-great-conqueror-and-culture

5. https://www.britannica.com/biography/Alexander-the-Great

SALIB YURISHLARI VA ULARNING YAQIN SHARQ TARIXIGA TA’SIRI

Xudaynazarov Nazarbek.
CHirchiq davlat pedogogika unversiteti
Gumanitar fanlar fakuteti
tarix yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada 11–13-asrlar oralig‘ida Yevropada boshlangan Salib yurishlari sabablari, ularning harbiy va siyosiy natijalari, hamda Yaqin Sharq mintaqasiga ko‘rsatgan ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy ta’siri tahlil qilinadi. Salibchilar va musulmonlar o‘rtasidagi tarixiy to‘qnashuvlar nafaqat o‘sha davrda, balki keyingi asrlarda ham ikki sivilizatsiya o‘rtasidagi munosabatlarga kuchli ta’sir o‘tkazgan. Maqolada ushbu yurishlarning qisqa va uzoq muddatli oqibatlari, ayniqsa, Yaqin Sharqdagi siyosiy tuzilmalarga, madaniy merosga va xalqlararo munosabatlarga ta’siri yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Salib yurishlari, Yaqin Sharq, Quddus, Salohiddin Ayyubiy, musulmonlar, nasroniylik, siyosiy ta’sir, madaniy almashinuv.

Annotation: This article analyzes the causes and objectives of the Crusades launched in Europe during the 11th to 13th centuries, their military and political outcomes, and their social, cultural, and economic impact on the Middle East. The historical conflicts between the Crusaders and Muslims not only influenced the era in which they occurred but also significantly shaped the relationship between Western and Eastern civilizations in subsequent centuries. The article explores both the short-term and long-term consequences of the Crusades, particularly in terms of political structures, cultural heritage, and interethnic relations in the Middle East.

Аннотация: В данной статье анализируются причины и цели Крестовых походов, начавшихся в Европе в XI–XIII веках, их военные и политические итоги, а также социальное, культурное и экономическое влияние на Ближний Восток. Исторические столкновения между крестоносцами и мусульманами оказали значительное влияние не только на эпоху, в которой они происходили, но и на отношения между западной и восточной цивилизациями в последующие века. В статье рассматриваются как краткосрочные, так и долгосрочные последствия походов, особенно в контексте политических структур, культурного наследия и межэтнических отношений на Ближнем Востоке.

Salib yurishlari — Yevropa tarixining o‘rta asrlarida sodir bo‘lgan eng muhim harbiy-diniy harakatlardan biri hisoblanadi. Bu yurishlar Rim Papasi

Urban II tomonidan 1095-yilda Klermon soborida e'lon qilingan nutqdan so'ng boshlangan va deyarli ikki asr davom etgan. Yurishlarning asosiy maqsadi nasroniylar uchun muqaddas hisoblangan Quddus shahrini musulmonlar qo'lidan ozod qilish edi. Biroq, bu yurishlar o'z ichida murakkab va ko'p qatlamli sabablarni mujassam etgan: diniy e'tiqod, siyosiy raqobat, iqtisodiy manfaatlar va madaniy ziddiyatlar.

Diniy sabablar: Salib yurishlari rasmiy ravishda diniy asosga ega edi. Rim papasi va cherkov rasmiylari musulmonlar tomonidan egallab olingan Quddus shahrini "nasroniylarning muqaddas yeri" sifatida ozod qilishni talqin qilganlar. Bu yurishlar orqali harbiylar "gunohlaridan xalos bo'lish" va jannatga erishishlariga ishontirilgan.

Siyosiy sabablar: Yevropada o'sha davrda kuchli markazlashgan davlatlar yo'q edi, ko'plab ritsarlar va knyazlar o'z kuchlarini sinab ko'rish, hokimiyatni kengaytirish uchun imkon izlar edi. Papa esa bu yurishlar orqali Yevropadagi ichki nizolarni kamaytirish va o'z hokimiyatini mustahkamlashga intilgan.

Iqtisodiy sabablar: Salib yurishlari Yevropa savdogarlari uchun Sharq savdo yo'llariga chiqish, yangi bozorlar, boyliklar, yerlar topish uchun katta imkoniyat edi. Ayniqsa, Italiya shahar-davlatlari — Genuya, Venetsiya va Piza — Salib yurishlari orqali savdo imperiyalarini kengaytirdilar.

Birinchi Salib yurishi (1096–1099). Bu yurish eng muvaffaqiyatlisi bo'ldi. Salibchilar Quddus shahrini egallab, 1099-yilda "Quddus qirolligi"ni tuzdilar. Bu yurishda nasroniylar ko'plab musulmon aholini qirg'in qilishdi. Ikkinchi Salib yurishi (1147–1149) Yurish musulmonlar tomonidan qayta bosib olingan Edessa shahrini qaytarib olish uchun tashkil etilgan edi. Biroq frantsuz va nemis qo'shinlari yengildi, yurish muvaffaqiyatsiz tugadi. Uchinchi Salib yurishi (1189–1192)

Musulmon sarkardasi Salohiddin Ayyubiy 1187-yilda Quddusni qayta egalladi. Yevropadan Angliya qiroli Richard I (Sher Yurak), Frantsiya qiroli Filipp II va imperator Fridrix Barbarossa yetakchiligida yurish boshlangan. Ular Quddusni qayta ola olishmagan, ammo musulmonlar bilan sulh tuzilgan. To'rtinchi yurish va keyingilari (1202–1272). Bu yurishlar diniy maqsadlarga emas, balki ko'proq siyosiy va iqtisodiy manfaatlarga yo'naltirilgan edi. To'rtinchi yurish davomida Salibchilar Konstantinopolni egallab, uni talon-taroj qilishdi. Bu Vizantiya imperiyasining zaiflashishiga olib keldi.

Siyosiy ta'sir: Salib yurishlari natijasida musulmonlar orasida birlashuv kuchaydi. Salohiddin Ayyubiy va uning vorislari siyosiy jihatdan kuchli tuzilmalarni yaratdilar. Shu bilan birga, G'arb nasroniylari tomonidan Yaqin Sharqda tuzilgan Salibchi davlatlar uzoq yashamadi, ammo ular Yaqin Sharq siyosatida vaqtinchalik muhim rol o'ynadi.

Ijtimoiy va madaniy ta'sirSalib yurishlari natijasida G'arb va Sharq o'rtasida madaniy almashinuv kuchaydi. Yevropaliklar musulmon dunyosidan tibbiyot, matematika, falsafa, arxitektura kabi ko'plab sohalarda bilim oldilar. Shu tariqa, Salib yurishlari Yevropaning Uyg'onish davriga tayyorgarlik bosqichi bo'lib xizmat qildi.

Iqtisodiy ta'sir: Salib yurishlari savdo aloqalarining rivojlanishiga xizmat qildi. O'rta yer dengizi bo'ylab Yevropa va Sharq o'rtasida yangi savdo yo'llari ochildi. Ayniqsa, Venetsiya, Genuya, Marsel kabi port shaharlari katta foyda ko'rdi.

Diniy va mafkuraviy oqibatlar: Ushbu yurishlar natijasida islom va nasroniy dunyosi o'rtasida uzoq yillik dushmanlik va ishonchsizlik muhitining shakllanishiga sabab bo'ldi. Garchi madaniy almashinuv mavjud bo'lgan bo'lsa-da, bu yurishlar ikki diniy sivilizatsiya o'rtasida chuqur yoriq hosil qildi.

Salib yurishlari o'rta asrlar tarixida G'arb va Sharq o'rtasidagi eng keskin, ammo tarixiy jihatdan muhim to'qnashuvlardan biridir. Ular qisqa muddatda musulmonlar va nasroniylar o'rtasida keng ko'lamli urushlarga sabab bo'ldi, biroq uzoq muddatda madaniy almashinuv, savdo-sotiq rivoji va ilmiy taraqqiyot uchun zamin yaratdi. Yaqin Sharq mintaqasining bugungi tarixiy va siyosiy holatiga ham ushbu yurishlarning aks-sadosi seziladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Riley-Smith, Jonathan. The Crusades: A History. Yale University Press, 2005.
2. Maalouf, Amin. The Crusades Through Arab Eyes. Saqi Books, 2001.
3. Tyerman, Christopher. God's War: A New History of the Crusades. Harvard University Press, 2006.
4. Gibb, H.A.R. The Arab Conquests in Central Asia. AMS Press, 1970.
5. Asimov, M.S. Tarixiy-siyosiy nazariyalar. Toshkent, 1998.
6. Xaydarov, M. Jahon tarixi: O'rta asrlar. Toshkent: "O'zbekiston", 2004.
7. Nasriddinov, Sh. O'rta asrlar jahon tarixi. Samarqand, 2010.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA YANGI O‘ZBEKISTON: YANGICHA YONDASHUV VA HUQUQIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Nabiyev Sherzod Baxrom O’g’li
Chirchiq Davlat pedagogika universiteti I-bosqich talabasi
E-*mail:* bunyoddavlatov3@gmail.com Tel: 93 118 11 50

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashuv sharoitida Yangi O‘zbekistonda huquqiy davlatning rivojlanishi, zamon talablariga mos ravishda yangicha yondashuvlar va tendensiyalar haqida ma’lumotlar berilgan. O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi bilan uning davlat va huquq tizimining rivojlanishi ham yangi bosqichga o‘tganligi va bu jarayonlar, globallashuv ta'siri ostida yanada rivojlanayotganligi, O‘zbekistonning geosiyosiy ahamiyati, iqtisodiy resurslari va inson kapitali bilan bog‘liq ravishda, davlat va huquq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida so‘z yuritilagan.

Kalit so‘zlar: globallashuv, jarayonlar, demokratik qadriyatlar, xalqaro aloqa, xalqaro tashkilotlar, investitsiya, huquq, madaniy meros, UNESCO, tendensiya.

Yangi O‘zbekiston davlatining huquqiy tizimi, xalqaro standartlar va normativlarga mos ravishda yangilanmoqda. Bu jarayonlar, O‘zbekistonning ichki va tashqi siyosatida o‘z o‘rnini mustahkamlashga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan farmonlar, qonunlar va dasturlar, davlat boshqaruvini takomillashtirish, inson huquqlarini himoya qilish va demokratik qadriyatlarni rivojlantirishga qaratilgan. Bu borada, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik, O‘zbekistonning huquqiy tizimining zamonaviylashtirilishida muhim rol o‘ynaydi. Globallashuv sharoitida, O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi ham yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. O‘zbekistonning iqtisodiy siyosati, investitsiyalarni jalb qilish, eksportni oshirish va ichki bozorni rivojlantirishga qaratilgan. Bu jarayonlar, O‘zbekistonning huquqiy tizimida yangi qonunlar va normativ hujjatlarni ishlab chiqishni talab etmoqda. Tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan qonunlar, xorijiy investorlarga qulay sharoitlar yaratish va raqobatbardosh muhitni ta'minlashga qaratilgan.[1]

Ijtimoiy hayotda globallashuvning ta'siri sezilarli. O‘zbekistonning yosh avlodi, global axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalaridan faol foydalanmoqda. Bu esa, ta'lim tizimida yangicha yondashuvlar va

innovatsiyalarni joriy etishni talab etadi. Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, yoshlarni zamonaviy bilim va koʻnikmalar bilan ta'minlashga qaratilgan. Shuningdek, Oʻzbekistonning ta'lim tizimi, xalqaro ta'lim standartlariga mos ravishda yangilanmoqda, bu esa talabalar va oʻqituvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Madaniyat va san'at sohalarida ham globallashuv jarayonlari oʻz aksini topmoqda. Oʻzbekistonning madaniy merosi, xalqaro miqyosda tan olinmoqda va bu Oʻzbekistonning global maydondagi obroʻsini oshirishga yordam bermoqda. Madaniyat sohasida xalqaro aloqalarni rivojlantirish, Oʻzbekistonning madaniy merosini saqlash va rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirishni talab etadi. Bu borada, madaniy tadbirlar, festivallar va koʻrgazmalar, Oʻzbekistonning madaniy merosini tanitishda muhim rol oʻynaydi. Bundan tashqari, Oʻzbekistonning tashqi siyosati ham globallashuv sharoitida yangicha yondashuvlar bilan boyitilmoqda. Oʻzbekiston, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash va global muammolarni hal etishda faol ishtirok etishga intilmoqda. Bu jarayonlar, Oʻzbekistonning diplomatik aloqalarini kengaytirish va xalqaro maydonda oʻz oʻrnini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Oʻzbekistonning tashqi siyosati, koʻp tomonlama hamkorlikka asoslangan boʻlib, mintaqaviy va global xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan.[2]

Oʻzbekistonning huquq tizimida gender tenglikni ta'minlash va ayollarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan farmonlar va dasturlar, ayollarning ijtimoiy-siyosiy hayotda faol ishtirok etishini ragʻbatlantiradi. Bu esa, Oʻzbekistonning huquqiy tizimining yanada takomillashtirilishi va ijtimoiy adolatni ta'minlashga xizmat qiladi. Gender tenglikni ta'minlash, nafaqat ayollar huquqlarini himoya qilish, balki jamiyatning barcha qatlamlarida adolat va tenglikni ta'minlashga qaratilgan.[3]

Oʻzbekistonning ekologik muammolari ham globallashuv jarayonlarida muhim ahamiyatga ega. Ekologik barqarorlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan qonunlar va dasturlar ishlab chiqilmoqda. Bu borada, Oʻzbekistonning xalqaro ekologik tashkilotlar bilan hamkorligi, ekologik muammolarni hal etishda samarali yechimlar topishga yordam beradi. Oʻzbekiston, oʻzining tabiiy boyliklarini saqlab qolish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga intilmoqda. Globallashuv sharoitida Yangi Oʻzbekiston davlati va huquqining rivojlanishi, zamonaviy

dunyoning talablariga javob beradigan, demokratik qadriyatlarni rivojlantiradigan va inson huquqlarini himoya qiladigan yondashuvlarni talab etadi. O‘zbekiston, o‘zining tarixiy tajribasidan kelib chiqqan holda, yangi davrga mos keladigan huquqiy tizimni shakllantirishga intilmoqda. Bu jarayonlar, O‘zbekistonning kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.[4]

O‘zbekiston, o‘zining boy madaniy merosi bilan dunyo miqyosida ajralib turadi. Tarixiy yodgorliklar, an'anaviy san'at turlari, xalq urf-odatlari va til merosi O‘zbekistonning madaniy boyligini tashkil etadi. Biroq, globalizatsiya jarayonlari va zamonaviy hayot sharoitlari madaniy merosni saqlash va rivojlantirishda muayyan xavflarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun, O‘zbekiston hukumati va jamiyat madaniy merosini saqlash, tiklash va rivojlantirishga qaratilgan bir qator muhim ishlarni amalga oshirmoqda. Avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining madaniy merosni saqlash va rivojlantirishga qaratilgan farmonlari va qarorlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu hujjatlar orqali madaniy merosni himoya qilish, uni o‘rganish va yosh avlodga yetkazish bo‘yicha aniq dasturlar ishlab chiqilgan. Madaniy merosni saqlash bo‘yicha davlat dasturlari, tarixiy yodgorliklarni restavratsiya qilish, ularni saqlab qolish va o‘rganish uchun zarur resurslarni ajratish kabi masalalarni o‘z ichiga oladi. O‘zbekistonning madaniy merosini saqlashda xalqaro hamkorlik ham muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston, UNESCO va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan yaqin hamkorlikda ishlamoqda. UNESCOning Jahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan O‘zbekistonning tarixiy yodgorliklari, masalan, Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlaridagi muhim obidalar, mamlakatning madaniy merosini saqlashda xalqaro e'tiborni jalb etmoqda. Bunday yodgorliklar, nafaqat O‘zbekiston, balki butun insoniyat uchun qadrli boylikdir. O‘zbekistonning madaniy merosini saqlashga qaratilgan xalqaro loyihalar va dasturlar, mamlakatning tarixiy va madaniy merosini yanada kengroq tanitishga xizmat qiladi. Shuningdek, O‘zbekistonning madaniy merosini saqlashda mahalliy jamoatchilik va nodavlat tashkilotlarining roli ham muhimdir. Mahalliy aholi va jamoatchilik, o‘zlarining madaniy meroslarini saqlash va rivojlantirishda faol ishtirok etmoqda. An'anaviy san'at va hunarmandchilikni rivojlantirish, xalq urf-odatlarini saqlash va yosh avlodga yetkazish borasida ko‘plab tadbirlar o‘tkazilmoqda. Mahalliy festivallar, ko‘rgazmalar va tadbirlar, O‘zbekistonning madaniy merosini tanitishda muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston madaniy merosini saqlashda ilmiy tadqiqotlar ham muhim rol o‘ynaydi. Tarixiy

obidalar, an'anaviy san'at va madaniyatni o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu tadqiqotlar, madaniy merosni saqlash va rivojlantirishda yangi yondashuvlarni ishlab chiqishga yordam beradi. O‘zbekistonning tarixiy va madaniy merosi bo‘yicha ilmiy konferensiyalar, seminarlar va simpoziumlar o‘tkazish, olimlar va tadqiqotchilarni bir joyga to‘plab, madaniy merosni o‘rganish va saqlash borasidagi tajribalarni almashish imkonini beradi. Bundan tashqari, O‘zbekistonda madaniy merosni saqlash va rivojlantirishda ta'lim tizimi ham muhim ahamiyatga ega. Ta'lim muassasalarida madaniy merosni o‘rganish, tarixiy obidalar va an'anaviy san'at turlarini o‘qitish bo‘yicha maxsus dasturlar ishlab chiqilgan. Yosh avlodni madaniy meros bilan tanishtirish, ularni o‘z tarixiga va madaniyatiga hurmat bilan qarashga o‘rgatish, kelajakda madaniy merosni saqlashda muhim omil bo‘ladi. O‘zbekistonning ta'lim tizimida madaniy merosni o‘rganishga qaratilgan fanlar, o‘quv dasturlarida alohida o‘rin egallaydi. O‘zbekistonning madaniy merosini saqlashda axborot texnologiyalaridan foydalanish ham muhimdir. Raqamli texnologiyalar yordamida tarixiy obidalar, an'anaviy san'at va madaniyatni raqamlashtirish, ularni keng jamoatchilikka taqdim etish imkonini beradi. Internet orqali madaniy merosni targ‘ib qilish, xalqaro miqyosda O‘zbekistonning madaniy boyliklarini tanitishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Raqamli platformalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali madaniy merosga qiziqish uyg‘otish, yosh avlodni madaniyatga jalb etish va ularni o‘z tarixiga qiziqtirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, O‘zbekistonning madaniy merosini saqlashda ekologik muammolarni hisobga olish ham zarur. Tabiiy ofatlar, iqlim o‘zgarishlari va atrof-muhitning ifloslanishi, madaniy merosga zarar yetkazishi mumkin. Shuning uchun, madaniy merosni saqlashda ekologik barqarorlikni ta'minlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish zarur. Madaniy va ekologik merosni birlashtirish, O‘zbekistonning madaniy boyliklarini saqlashda yangi yondashuvlarni talab etadi. O‘zbekistonda madaniy merosini saqlashda olib borilayotgan ishlar keng qamrovli va ko‘p jihatdan muhim ahamiyatga ega. Davlat va jamoatchilik, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda, madaniy merosni saqlash, rivojlantirish va yosh avlodga yetkazish borasida bir qator muhim ishlarni amalga oshirmoqda. Madaniy merosni saqlash, nafaqat O‘zbekistonning o‘ziga, balki butun insoniyatga qadrli boylikni saqlash va kelajak avlodlarga yetkazishdir. O‘zbekistonning madaniy merosi, uning tarixiy, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi va bu merosni saqlash, har birimizning burchimizdir.[5]

Xulosa qilib aytganda, globallashuv sharoitida Yangi O‘zbekiston davlati va huquqining rivojlanishi, yangicha yondashuvlar va tendensiyalarni talab etadi. O‘zbekiston, o‘zining boy tarixi va madaniy merosi bilan birga, zamonaviy dunyoda o‘z o‘rnini mustahkamlashga intilmoqda. Bu jarayonlar, O‘zbekistonning kelajagi uchun yangi imkoniyatlar yaratadi va mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. O‘zbekistonning davlat va huquq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, xalqaro standartlarga mos keladigan, shaffof va samarali boshqaruvni ta'minlashga qaratilgan. Bu borada, O‘zbekistonning davlat idoralari va tashkilotlari, xalqaro tajribani o‘rganish va joriy etishga e'tibor qaratmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev, Sh. (2022). "O‘zbekistonning globalizatsiya jarayonidagi o‘rni va yangi yondashuvlar." Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi.
2. Karimov, I. (2021). "Yangi O‘zbekiston: siyosiy va iqtisodiy islohotlar." Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Noshirlik uyi.
3. Abduqodirov, S. (2020). "O‘zbekistonning yangi huquqiy taraqqiyoti: muammo va yechimlar." Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligi.
4. Murodov, A. (2021). "Davlat va huquq nazariyasi: Yangi O‘zbekiston sharoitida." Toshkent: O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti.
5. Tashkentov, A. (2023). "Yangi O‘zbekistonning huquqiy tizimini rivojlantirish: tendensiyalar va istiqbollar." Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.
6. Xudoyberdiyev, A. (2020). "Globallashuv va O‘zbekiston: yangi iqtisodiy yondashuvlar." Toshkent: O‘zbekiston iqtisodiyoti va tadbirkorlik universiteti.
7. Yusupov, R. (2022). "O‘zbekistonning siyosiy va huquqiy islohotlari: yangi yondashuvlar." Toshkent: O‘zbekiston davlat universiteti.
8. Zokirov, D. (2021). "Yangi O‘zbekiston: ijtimoiy va huquqiy o‘zgarishlar." Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Ijtimoiy fanlar akademiyasi.
9. Normurodovna, H. Z. (2024). Building Digital Literacy As An Editorial Problem. Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments, 2(4), 56-64

10. Haydarova, Z. N. (2023). MAKTAB O ‘QUVCHILARIGA RAQAMLI O ‘RGANISH KO ‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI. Academic research in educational sciences, 4(CSPU Conference 1), 1008-1013.

SALIB YURISHLARI VA ULARNING YAQIN SHARQ TARIXIGA TA'SIRI

Bozorov Bekzod

Chirchiq Davlat Pedagogika Uneverseteti bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada XI–XIII-asrlar oralig'ida Yevropada boshlangan Salib yurishlari sabablari, ularning harbiy va siyosiy natijalari, hamda Yaqin Sharq mintaqasiga ko'rsatgan ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy ta'siri tahlil qilinadi. Salibchilar va musulmonlar o'rtasidagi tarixiy to'qnashuvlar nafaqat o'sha davrda, balki keyingi asrlarda ham ikki sivilizatsiya o'rtasidagi munosabatlarga kuchli ta'sir o'tkazgan. Maqolada ushbu yurishlarning qisqa va uzoq muddatli oqibatlari, ayniqsa, Yaqin Sharqdagi siyosiy tuzilmalarga, madaniy merosga va xalqlararo munosabatlarga ta'siri yoritiladi.

Annotation: This article analyzes the causes and objectives of the Crusades launched in Europe during the XIth to XIII th centuries, their military and political outcomes, and their social, cultural, and economic impact on the Middle East. The historical conflicts between the Crusaders and Muslims not only influenced the era in which they occurred but also significantly shaped the relationship between Western and Eastern civilizations in subsequent centuries. The article explores both the short-term and long-term consequences of the Crusades, particularly in terms of political structures, cultural heritage, and interethnic relations in the Middle East.

Аннотация: В данной статье анализируются причины и цели Крестовых походов, начавшихся в Европе в XI–XIII веках, их военные и политические итоги, а также социальное, культурное и экономическое влияние на Ближний Восток. Исторические столкновения между крестоносцами и мусульманами оказали значительное влияние не только на эпоху, в которой они происходили, но и на отношения между западной и восточной цивилизациями в последующие века. В статье рассматриваются как краткосрочные, так и долгосрочные последствия походов, особенно в контексте политических структур, культурного наследия и межэтнических отношений на Ближнем Востоке.

Kalit so'zlar: Salib yurishlari, Yaqin Sharq, Quddus, Salohiddin Ayyubiy, musulmonlar, nasroniylik, siyosiy ta'sir, madaniy almashinuv.

Salib yurishlari — Yevropa tarixining o'rta asrlarida sodir bo'lgan eng muhim harbiy-diniy harakatlardan biri hisoblanadi. Bu yurishlar Rim Papasi

Urban II tomonidan 1095-yilda Klermon soborida e'lon qilingan nutqdan so'ng boshlangan va deyarli ikki asr davom etgan. Yurishlarning asosiy maqsadi nasroniylar uchun muqaddas hisoblangan Quddus shahrini musulmonlar qo'lidan ozod qilish edi. Biroq, bu yurishlar o'z ichida murakkab va ko'p qatlamli sabablarni mujassam etgan: diniy e'tiqod, siyosiy raqobat, iqtisodiy manfaatlar va madaniy ziddiyatlar.

Diniy sabablar: Salib yurishlari rasmiy ravishda diniy asosga ega edi. Rim papasi va cherkov rasmiylari musulmonlar tomonidan egallab olingan Quddus shahrini "nasroniylarning muqaddas yeri" sifatida ozod qilishni talqin qilganlar. Bu yurishlar orqali harbiylar "gunohlaridan xalos bo'lish" va jannatga erishishlariga ishontirilgan.

Siyosiy sabablar: Yevropada o'sha davrda kuchli markazlashgan davlatlar yo'q edi, ko'plab ritsarlar va knyazlar o'z kuchlarini sinab ko'rish, hokimiyatni kengaytirish uchun imkon izlar edi. Papa esa bu yurishlar orqali Yevropadagi ichki nizolarni kamaytirish va o'z hokimiyatini mustahkamlashga intilgan.

Iqtisodiy sabablar: Salib yurishlari Yevropa savdogarlari uchun Sharq savdo yo'llariga chiqish, yangi bozorlar, boyliklar, yerlar topish uchun katta imkoniyat edi. Ayniqsa, Italiya shahar-davlatlari — Genuya, Venetsiya va Piza — Salib yurishlari orqali savdo imperiyalarini kengaytirdilar.

Birinchi Salib yurishi (1096–1099). Bu yurish eng muvaffaqiyatlisi bo'ldi. Salibchilar Quddus shahrini egallab, 1099-yilda "Quddus qirolligi"ni tuzdilar. Bu yurishda nasroniylar ko'plab musulmon aholini qirg'in qilishdi.

Ikkinchi Salib yurishi (1147–1149). Yurish musulmonlar tomonidan qayta bosib olingan Edessa shahrini qaytarib olish uchun tashkil etilgan edi. Biroq frantsuz va nemis qo'shinlari yengildi, yurish muvaffaqiyatsiz tugadi.

Uchinchi Salib yurishi (1189–1192). Musulmon sarkardasi Salohiddin Ayyubiy 1187-yilda Quddusni qayta egalladi. Yevropadan Angliya qiroli Richard I (Sher Yurak), Frantsiya qiroli Filipp II va imperator Fridrix Barbarossa yetakchiligida yurish boshlangan. Ular Quddusni qayta ola olishmagan, ammo musulmonlar bilan sulh tuzilgan.

To'rtinchi yurish va keyingilari (1202–1272) . Bu yurishlar diniy maqsadlarga emas, balki ko'proq siyosiy va iqtisodiy manfaatlarga yo'naltirilgan edi. To'rtinchi yurish davomida Salibchilar Konstantinopolni egallab, uni talon-taroj qilishdi. Bu Vizantiya imperiyasining zaiflashishiga olib keldi.

Salib yurishlari natijasida musulmonlar orasida birlashuv kuchaydi. Salohiddin Ayyubiy va uning vorislari siyosiy jihatdan kuchli tuzilmalarni yaratdilar. Shu bilan birga, G‘arb nasroniylari tomonidan Yaqin Sharqda tuzilgan Salibchi davlatlar uzoq yashamadi, ammo ular Yaqin Sharq siyosatida vaqtinchalik muhim rol o‘ynadi.

Ijtimoiy va madaniy ta’sirSalib yurishlari natijasida G‘arb va Sharq o‘rtasida madaniy almashinuv kuchaydi. Yevropaliklar musulmon dunyosidan tibbiyot, matematika, falsafa, arxitektura kabi ko‘plab sohalarda bilim oldilar. Shu tariqa, Salib yurishlari Yevropaning Uyg‘onish davriga tayyorgarlik bosqichi bo‘lib xizmat qildi.

Salib yurishlari savdo aloqalarining rivojlanishiga xizmat qildi. O‘rta yer dengizi bo‘ylab Yevropa va Sharq o‘rtasida yangi savdo yo‘llari ochildi. Ayniqsa, Venetsiya, Genuya, Marsel kabi port shaharlari katta foyda ko‘rdi.

Ushbu yurishlar natijasida islom va nasroniy dunyosi o‘rtasida uzoq yillik dushmanlik va ishonchsizlik muhitining shakllanishiga sabab bo‘ldi. Garchi madaniy almashinuv mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, bu yurishlar ikki diniy sivilizatsiya o‘rtasida chuqur yoriq hosil qildi.

Salib yurishlari o‘rta asrlar tarixida G‘arb va Sharq o‘rtasidagi eng keskin, ammo tarixiy jihatdan muhim to‘qnashuvlardan biridir. Ular qisqa muddatda musulmonlar va nasroniylar o‘rtasida keng ko‘lamli urushlarga sabab bo‘ldi, biroq uzoq muddatda madaniy almashinuv, savdo-sotiq rivoji va ilmiy taraqqiyot uchun zamin yaratdi. Yaqin Sharq mintaqasining bugungi tarixiy va siyosiy holatiga ham ushbu yurishlarning aks-sadosi seziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Riley-Smith, Jonathan. The Crusades: A History. Yale University Press, 2005.

2. Maalouf, Amin. The Crusades Through Arab Eyes. Saqi Books, 2001.

3. Tyerman, Christopher. God’s War: A New History of the Crusades. Harvard University Press, 2006.

4. Gibb, H.A.R. The Arab Conquests in Central Asia. AMS Press, 1970.

5. Asimov, M.S. Tarixiy-siyosiy nazariyalar. Toshkent, 1998.

6. Xaydarov, M. Jahon tarixi: O‘rta asrlar. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2004.

7. Nasriddinov, Sh. O‘rta asrlar jahon tarixi. Samarqand, 2010.

BO'STONLIQ TUMANI XO'JAKENT MANZILGOHINING QADIMIY-TARIXIY O'RGANILISHI

Rixsiboyeva Muazzam Mohirjon qizi,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti I - bosqich talabasi
E-*mail:* otabekrixsiboyev341@gmail.com Tel: 88 013 11 06

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respubloikasi Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanining tarixiy shakllanish jarayoni, geografik xususiyatlari tahlil qilinib, tumanda joylashgan qadimiy Xo'jakent manzilgohining arxeologik ahamiyati, olib borilgan qazishma ishlari va topilgan madaniy qatlamlar haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlar keltirilagan. Shuningdek, maqolada Xo'jakent manzilgohi qadimdan O'rta Osiyo tarixida muhim o'rin tutib kelgan hududlar sifatida o'rganilganligi, milliy va mintaqaviy tarixiy jarayonlar bilan bog'liq o'zgarishlar yoritilganligi, hamda madaniy aloqalari haqida tahliliy mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Vegetatsiya davri, seysmik zona, Bo'stonliq, Xo'jakent, O'rta paleolit, Mustye madaniyati, Burchmulla, Iskandar, Qoronqul, Qurbonov, Qo'shqo'rg'on, Soyliq, Sari Qanli, Sobir Rahimov, Talpin, Tulabe, Uyenqulsoy, Xo'ja, Xumsan, Chorvoq, Chinor, Abay, Ozodbosh, Qo'qon xonli, Turkiston general-gubernatorli, tarixiy geografiya, Tyan-Shan, Qorjontov, Piskom, Ugom, Chatqol, Yuqori Chirchiq, RSFSR, GES, Rossiya imperiyasi, Okladnikov, Parfenov, Turkiston general-gubernatorligi, Chorvoq suv ombori, qadimgi madaniyat.

O'zbekistonda shunday bir hududlar borki, hali hamon o'rganilish ishlari olib boriladi. Shunday hududlardan biri Toshkent viloyatida joylashgan Bo'stonliq tumani hisoblanadi. Bo'stonliq tumani tarixiga nazar solsak azal-azaldan mavjud bo'lgan hududdir. Tarixiga qiziqishingiz bormi? Keling endi biroz bo'lsa ham tarixi bilan tanishamiz.

Bo'stonliq tumani O'zbekiston Respublikasi Toshkent viloyatida joylashgan. Ma'muriy markazi G'azalkent shahri. Dastavval Bo'stonliq tumani hududi 1876-yilgacha Qo'qon xonligi tarkibida bo'lgan. Qo'qon xonligi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan so'ng uning hududlari yangi tuzilgan Turkiston general-gubernatorligining Sirdaryo viloyati tarkibiga kiritiladi. 1917-yil 27-noyabrdan 1928-yil22-fevralgacha Turkiston general-

gubernatorligining sharqiy qismi Turkiston Muxtoriyati tarkibida bo'lgan. Rossiya imperiyasi parchalanib, sovet hokimiyati o'rnatilgach, Turkiston general-gubernatorligi hududining bir qismi Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi tarkibiga kiritilgan[1, 187-189-b].

1924-yil oktyabrda SSSR tomonidan O'rta Osiyoning milliy-hududiy chegaralanishini amalga oshiriladi. Buning natijasida Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasida turli darajadagi 5 ta ma'muriy birlik tashkil topadi.Bu chegaralanish natijasida hozirgi Bo'stonliq tumani hududi RSFSR tarkibidagi Qirg'iz Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasiga o'tkazilgan. 1929-yilda bu yerda Bo'stonliq qo'zg'oloni bo'lgan. 1936-yilda tugatilgan Qirg'iz ASSR o'rnida Qozog'iston SSR tashkil topgandan so'ng tuman Bostandiq tumani nomi bilan Janubiy Qozog'iston viloyati tarkibiga o'tkazilgan. 1956-yil 13-fevralda tuman [Qozog'iston SSR] tarkibidan O'zbekiston SSRning Toshkent viloyati tarkibiga o'tkaziladi va nomi Bo'stonliq tumani deb o'zgartiriladi. 1962-yil 24-dekabrda tuman Yuqori Chirchiq tumani tarkibiga kiritilgan, 1968 yil 25-dekabrda esa yana Bo'stonliq tumaniga aylantirilgan[2, 112-114-b].

Bo'stonliq tumani Toshkent viloyatining shimoli-sharqiy qismida joylashgan. Shimoldan Qozog'iston Respublikasi, shimoli-sharqdan va sharqdan Qirg'iziston Respublikasi, janubi-g'arbdan Qibray tumani, janubdan Parkent va Ohangaron tumanlari, janubi-sharqdan Namangan viloyatining Pop tumani bilan chegaradosh. Tumanning maydoni 4940 km² (Toshkent viloyatidagi eng katta tuman). Bo'stonliq tumani hududi O'zbekistonning eng baland tog'li hududlaridan biri hisoblanadi. Tuman hududida sharqiy Tyan-Shan, Qorjontov, Piskom, Ugom va Chatqol tog' tizmalari joylashgan. Iqlimi mo'tadil kontinental, havosi yozda issiq va qishda ancha sovuq bo'ladi. Yillik o'rtacha harorat +15,0 °C; yanvarning o'rtacha temperaturasi −9,0°, iyulniki +21,0°. Mutlaq minimal harorat −26 °C, mutlaq maksimal harorat + 46 °C. Tumanda yiliga o'rtacha 500-600 mm yog'in tushadi (yog'inning asosiy qismi bahor va kuzda sodir bo'ladi). Vegetatsiya davri 210-215 kun davom etadi. Bu o'lkaning tuproqlari bo'z tuproqlar va tog' jigarrang tuproq, baland tog' och qo'ng'ir o'tloqi-dasht tuproqlar tashkil etadi. Bo'stonliq tumanining relyefi nisbatan bir xil bo'lib, asosan adirlar, tog'lar va baland tog'lardan iborat. Tumanning g'arbiy va qisman janubiy qismlarida pasttekisliklar keng tarqalgan. Faqat baland tog'lar joylashgan shimoliy qismidan tashqari, adirlar hamma joyda uchraydi. Tumanning deyarli butun qismini sharqiy Tyan-Shan,

Qorjontov, Piskom, Ugom va Chatqol tog‘ tizmalari joylashgan tog‘lar egallagan. Tumandagi tepaliklar g‘arbdan sharqqa va janubdan shimolga qarab ko‘tarilgan. Tumanning janubiy va g‘arbiy qismlari dengiz sathidan o‘rtacha 1000 metr balandlikda joylashgan. Tumanning tog‘li hududlari ustunlik qiladigan qolgan qismi esa dengiz sathidan 1200 metrdan 4000 metrgacha balandlikda joylashgan. Tumanning eng baland nuqtasi balandligi 4301 metr bo‘lgan Piskom tizmasining Adelunga cho‘qqisi hisoblanadi. Balandligi bo‘yicha 2-o‘rinda Piskom tizmasining yana bir cho‘qqisi balandligi 4299 metr bo‘lgan Beshtor turadi. Qayd etulgan cho‘qqilardan tashqari yana ko‘plab baland tog‘lar va cho‘qqilar mavjud bo‘lib, ular dengiz sathidan 1000 metrdan 4000 metrgacha balandlikda joylashgan. Tumanning eng yirik va ahamiyatli cho‘qqilari Oqtosh, Katta Chimyon, Qizilnura, Mingbuloq, Po‘latxon kabilardir. Ko‘plab baland tog‘lardagi dovonlardan avtomobil yo‘llari o‘tgan. Adirlar, asosan, qumtosh va lyosslardan tashkil topgan. Ko‘pgina tog‘larning asosi slanets va granitdan iborat. Tuman hududi har yili 5 balldan 8 ballgacha yoki undan ko‘p darkada kuchli zilzilalar sodir bo‘ladigan seysmik zonaga kiradi. Deyarli barcha tog‘ tizmalaridan soylar o‘tgan, ularning ba’zilari daryolarga aylanadi. Soy va ochiq suv oqimlarining asosiy qismini Chirchiq daryosining irmoqlari tashkil etadi. Ulardan eng yiriklari Beldorsoy, Piskom, Ugom, Ko‘ksuv, Chimyonsoy kabilardir. Tuman hududidan ba’zi hollarda Chirchiq daryosining chap qismi hisoblanadigan yana bir daryo Chatqol oqib o‘tadi. Deyarli barcha daryolarning suvlari suv omborlariga, jumladan, Chorboq suv omboriga quyiladi. Ko‘pgina daryolarning suvlaridan tog‘ etaklaridagi yerlarda sug‘orma dehqonchilik qilishda foydalaniladi. Tumanda yer osti suvlari ham mavjud. Asosan, ular 2-3 metrdan 6-20 metrgacha chuqurlikda joylashgan. O‘zbekistondagi eng yirik gidroelektr stansiyasi Chorvoq GES Bo‘stonliq tumani hududida joylashgan. Yillik elektr energiyasi ishlab chiqarish 2 megavatt-soatni tashkil qiladi. Chorvoq GES tumandagi boshqa gidroelektr stansiyalar singari O‘rta Osiyodagi eng yirik gidroelektr stansiyalardan biri Chirchiq-Bo‘zsuv suvenergetika trakti tarkibiga kiradi. Tumanda yulg‘un, astragalus glycyphyllos, shuvoq va boshqa dorivor tog‘ o‘simliklari keng tarqalgan. Tog‘li hududlarda olma, archa, yong‘oq, pista, bodom, na’matak, zirk va boshqa o‘simliklar yovvoyi holatda o‘sadi. Tumanda sut emizuvchilardan qo‘ng‘ir ayiq, bo‘ri, tulki, to‘ng‘iz, arxar va boshqa turdagi tog‘ echkisi va qo‘ylar, quyon, bo‘rsiqlar yashaydi. Tumanning shimoli va sharqida qor qoplonlari kuzatilgani haqida bir necha bor xabarlar berilgan. Echkemar,

boshqa turdagi kaltakesaklar va ilonlar keng tarqalgan. Bu yerda qushlardan burgut (lotincha: Aquila chrysaetos) va boshqa turdagi burgutlar, kalxat, o‘rdak, kaklik, zag‘izg‘on kabilar ko‘p uchraydi[2]. Tumanning ma’muriy markazi G‘azalkent shahri bo‘lib, 25 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladi va ayni paytda tumanda shahar maqomiga ega bo‘lgan yagona aholi punkti ham bo‘lib qolmoqda.

Tuman tarkibi quyidagilardan iborat: Burchmulla, Iskandar, Qoronqul, Qurbonov nomli shaharcha, Qo’shqo’rg’on, Soyliq, Sari Qanli, Sobir Rahimov nomli shaharcha, Talpin, Tulabe, Uyenqulsoy, Xo’jakent, Xo’ja, Xumsan, Chorvoq, Chinor kabilardan iborat. Hamda 24 ta qishloq fuqarolar yig’inidan iborat. Bular : Abay, Ozodbosh, Aydarali, Bog’iston, Bo’stonliq, G’azalkent, Jahonobod, Dumalak, Qoramanas, Qo’shqo’rg’on, Qiziltuv, Pargos, Soyliq, Sijjak, Tovoqsoy, Toshpo’lat Dadaboyev nomidagi, Xondoyliq, Xo’jakent, Xumsan, Chimboylik, Chimyon, Yumalak, Yangiovul. Hududda ko’plab kichik qishloqlar ham mavjud bo’lib, ularning ba’zilari boorish qiyin bo’lgan baland tog’larda joylashgan[4, 215-217-b]. Tuman aholisi 2023-yil mart oyi ma’lumotlariga ko’ra, tumanda 175 724 ming kishi yashaydi. 2013-yil holatiga ko’ra, bu tumanda taxminan 160 000 kishi yashagan. Tuman aholisining 60 foizdan ortig‘i qishloqlarda istiqomat qiladi. 2002-yilgi ma’lumotlarga asosan tumanda 72 ming o‘zbek istiqomat qilgan, ular aholining 45,1 foizini tashkil etgan. Qolgan millatlar esa qozoqlar 42 300 (26,5%), tojiklar 27 100 (17,0%), ruslar 12 000 (7,5%), shuningdek, ukrainlar, tatarlar, koreyslar va boshqa millatlarning diasporalari ham istiqomat qilgan bo‘lib, ular aholining deyarli 4% ni tashkil qilishgan. Tumanning umumiy yer fondi 479 ming gektarni tashkil etadi. Shundan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish uchun 209 ming 900 gektar, ko‘p yillik daraxtlar yetishtirish uchun 6,8 ming gektar, yaylovlar uchun 190 ming gektar yer ajratilgan[3].

Bo‘stonliq tumanida asosan qishloq xo‘jaligi tarmoqlari: chorvachilik, dehqonchilik (paxtachilik, sabzavotchilik, polizchilik, bog‘dorchilik, uzumchilik) rivojlangan. Chorvachilik, parrandachilik, asalarichilik, g‘allachilik, paxtachilik va sabzavotchilikka ixtisoslashgan 22 shirkat xo‘jaliklari mavjud. Fermer xo‘jaliklarining umumiy soni 140 tadan oshadi. Tumanda yiliga o‘rtacha 7 ming tonna g‘alla yetishtiriladi. Bu ko‘rsatkich bilan tuman Toshkent viloyatida g‘alla yetkazib beruvchi asosiy hududlardan biri hisoblanadi. Xususiy va davlat mulkida jami 25 100 bosh qoramol, 67

800 bosh mayda shoxli chorva (qo‘y va echki), 18 000 bosh parranda, 4 800 bosh yilqilar uyuri mavjud. Fermer xo‘jaliklarining umumiy soni 140 tadan oshadi. Tumanda yiliga o‘rtacha 7 ming tonna g‘alla yetishtiriladi. Bu ko‘rsatkich bilan tuman Toshkent viloyatida g‘alla yetkazib beruvchi asosiy hududlardan biri hisoblanadi. Xususiy va davlat mulkida jami 25 100 bosh qoramol, 67 800 bosh mayda shoxli chorva (qo‘y va echki), 18 000 bosh parranda, 4 800 bosh yilqilar uyuri mavjud. Tumanning o‘rmon xo‘jaligi 23 ming 100 gektar yerni egallaydi. O‘rmon xo‘jaligida, asosan, o‘rmon yong‘og‘i o‘stiriladi. Xo‘jalik aholiga yiliga 3 ming tupga yaqin yong‘oq ko‘chati, biroz kamroq uzum yetkazib bermoqda. O‘rmon xo‘jaligida yana dorivor tog‘ o‘simliklari yig‘ib olinadi. Bo‘stonliq tumani iqtisodiyoti va sanoati bo‘yicha Toshkent viloyatida eng rivojlangan tumanlardan biri bo‘lib, Qibray tumanidan keyin 2-o‘rinda turadi.

Tumanda oltin, qo‘ng‘ir ko‘mir, mis, marmar, granit va slanets konlari mavjud. Bu konlarni o‘zlashtirish asosan ochiq usulda qazib olish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Shuningdek, marmar va paxtani qayta ishlash korxonalari, g‘isht, beton plitalar, ichimliklar, qandolat, sut mahsulotlari, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyat yuritadi. Tumanda 2 540 dan ortig‘i kichik biznes subyektlari, 30 dan ortiq turli korxona, shundan 22 tasi qo‘shma korxonalar, xususan, „G‘azalkent oyna“ (shisha ishlab chiqarish), „O‘zborn tekstil“ (to‘qimachilik), „Konvin“ (alkogol), „Agromir Gazalkent“ (konserva), „Bo‘stonliqsut“ (sut mahsulotlari) korxonalari) kabilar ham o‘z faoliyati olib borishadi. 2011-yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 102,6 milliard so‘mga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmi esa 208,7 milliard so‘mga yetgan[4, 215-217-b]

Xo’jakent manzilgohi Toshkent viloyatining Bo’stobliq tumanida, Chirchiq daryosining chap sohilida joylashgan qadimiy arxeologik yodgorlikdir. Bu manzilgoh O’rta paleolit davriga (taxminan 120-40-ming yil avval) oid bo’lib, Mustye madaniyatiga mansubdir. 1959-yilda akademik A.P.Okladnikov rahbarligida olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida bu hududda ibtidoiy odamlar yashaganligi aniqlangan. Bu hudud aniq joylashuvi Toshkent shahridan 80 km shimoli-sharqda, Xo’jakent qishlog’I yaqinida joylashgan. G’orning balandligi 2,5 m, kengligi 6 m, chuqurligi 4 m dir. Qazuv ishlari jarayonida bu yerda 21 ta madaniy qatlam aniqlangan. Ko’plab tosh qurollar (nukleuslar, qo’l chopqilari, parrakchalar, teshgichlar), hayvon suyakalri, gulxan va kul qoldiqlari topilgan. Olimlarning fikricha, bu

yodgorlikda yashagan odamalr asosan termachilik va ovchilik bilan shug'ullanganlar[5, 85-90-b]. Bu yodgorlikni bugungi kundagi ilmiy ahamiyati Markaizy Osiyodagi O'rta paleolit davri madaniyatlarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Bu yodgorlik Obirahmat, Teshiktosh, Ko'lbuloq kabi boshqa mahshur paleolit yodgorliklari bilan bir qatorda o'rganilgan. Topilgan tosh qurollar Obirahmat va Poltov g'orlarida topilgan qurollarga o'xshash bo'lib, bu hududlar o'rtasida madaniy aloqalar mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. Bu manzilgohda asosan 1959-yilda A.P.Okladnikov arxeologik qazishma ishlarini olib brogan. 1957-yilda G.V.Parfenov g'orning pastki qismida joylashgan qoyatoshlarda aks etgan petrogliflarni o'rganib, ularning davrini aniqlagan[6, 45-50-b].

Hozirgi kunda, Xo'jakent manzilgohi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktyabrdagi 846-sonli qarori bilan milliy ro'yxatdan joy olgan va moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyekti sifatida davlat kadastriga kiritilgan. Ushbu yodgorlik davlat muhofazasiga olingan[7].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "O'zbekiston tarixi"(Akademik nashr), 2-jild, 187-189-betlar.

2. "O'zbekiston SSRning ma'muriy-hududiy bo'linishi tarixi", Toshkent, 1987, 112-114-betlar.

3. Toshkent viloyati statistika boshqarmasi sayti.

4. "O'zbekiston geografiyasi"(Oliy o'quv yurtlari uchun darslik), 3-jild, 215-217-betlar.

5. Okladnikov A.P. "Paleolit Sredney Azii"- Moskva:Nauka 1966. 85-90-betlar.

6. G.V.Parfenov "Peshterniye petroglifi Uzbekistana."- Toshkent:FAN, 1962. 45-50-betlar.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori "O'zbekiston Respublikasi hududidagi moddiy madaniy meros ob'ektlari ro'yxati to'g'risida qaror."(846-sonli, 2019-yil 4-oktabr).

8. XZ Normurodovna (2025). DIGITIZATION IS A MODERN APPROACH TO THE EDUCATIONAL SYSTEM, THE NATIONAL TEACHING SYSTEM. Educator Insights: Journal of Teaching Theory and Practice, 1(Vol. 1 No), 279-287.

9. Normurodovna, H. Z. (2024). Building Digital Literacy As An Editorial Problem. Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments, 2(4), 56-64

11. Haydarova, Z. N. (2023). MAKTAB O ‘QUVCHILARIGA RAQAMLI O ‘RGANISH KO ‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI. Academic research in educational sciences, 4(CSPU Conference 1), 1008-1013.

12. Haydarova, Z. N. (2024). INNOVATIVE METHODS AND PEDAGOGICAL–PSYCHOLOGICAL APPROACH TO THE FORMATION OF DIGITAL LITERACY IN MODERN STUDENTS. Western European Journal of Historical Events and Social Science, 2(10), 27-31

13. Haydarova, Z. N. (2024). MOTIV VA MOTIVATSIYA - O„QUVCHINING QIZIQISHLARI, BILISH DARAJASI HAMDA IJTIMOIY MUHIT TA’SIRIDA SHAKLLANADIGAN OMIL SIFATIDA. SOHIBQIRON YULDUZI Ijtimoiy-tarixiy, tarixiy va ommabop jurnal, № 1-Maxsus son 2024 yil, 29-36.

14. Haydarova, Z. N., Husaynova, O.O‘. (2024). RAQAMLI O‘RGANISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA FAN O‘QITUVCHILARIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR. Zamonaviy ta’lim va ma’naviy-axloqiy tarbiyaning dolzarb masalalari mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2024 yil. 17-oktyabr.,

15. Haydarova, Z. N. (2024). Individual yondashuv asosida hozirgi zamon o‘quvchilarida raqamli savodxonlikni shakllantirish. Mug'allim, 3(3), 199-206.

16. Haydarova, Z. N. (2024). Ta’limda raqamli savodxonlikni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari. Raqamli transformatsiya, 1(1), 502-512.

17. Haydarova, Z. N. (2023). Innovative Methods of Forming Students' Digital Learning Skills. International Journal on Integrated Education, 6(12), 37-42.

18. Haydarova, Z. N. (2023). Ta’lim sohasida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish zarurati. UzMU xabarlari, 1(10), 225-227.

O‘RTA OSIYOGA KO‘CHIRIB KELTIRILGAN SANOAT KORXONALARI VA UNING O‘ZBEKISTONGA TA’SIRI

Dadoyev Nurangiz Shavkatovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Tarix yo‘nalishi talabasi
Ilmiy rahbar: **Sh.A.Sulaymanova**

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘rta Osiyoga ko‘chirib keltirilgan sanoat korxonalari va uning O‘zbekistonga ta’siri boyicha fikrlar yuritilgan bo‘lib, ikkinchi jahon urushi tufayli kochirilishga majbur bo‘lgan sanoat korxnonalari O‘zbekistonda qayta ishga tushurilganligi haqida ma’lumotlar berib o‘tilgan.

Kalit so‘z: “Россельмаш”, evakuatsiya, “Kommunar”, Ohunboboyev nomli tikuvchilik fabrikasi, front “Katyusha”

1941 yilning so‘nggi ikki oyi SSSR sanoati tarixidagi eng og‘ir va iqtisodiyot jihatdan ham muhim davr bo‘ldi deb aytishimiz mumkin. Sababi ushbu davrda mahsulot ishlab chiqarish to‘xtagan, ba’zi bir mintaqalarda korxonalar hali ham tiklanib ulgurmagan edi. Aynan mana shu davrda bir qancha korxona va zavodlar evakuatsiya qilingan edi. Urush bo‘layotgan va dushman yaqinlashib kelayotgan hududlardan muhim sanoat korxonalarini, kolxoz, sovxoz va MTS larning mulklarini, madaniy boyliklar va o‘quv yurtlarini Sharqqa, jumladan, O‘zbekistonga zudlik bilan ko‘chirib keltirish, joylashtirish ishlari boshlanib ketdi.

Fashistlar tomonidan vayron qilingan shaharlar va qishloqlarning aholisi, ota-onalari halok bo‘lgan bolalar, million-million kishilar ulkan oqim bo‘lib ko‘chib kela boshladilar.

O‘zbekistonda yuzga yaqin sanoat korxonasi, jumladan, 48 ta mashinasozlik, metall ishlash, kimyo va boshqa harbiy texnika va mahsulotlar ishlab chiqaruvchi yirik zavodlarning asbobuskunalari ko‘chirib keltirildi. Zudlik bilan barpo etilgan binolarga joylashtirildi va montaj qilindi. Ishchi, xomashyo jihozlari bilan ta’minlandi va front uchun mahsulotlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Toshkentda joylashtirilgan Rostselmash zavodi

“Katyusha” va minomyot snaryadlari, aviatsiya zavodi jangovar samolyotlar yetkazib bera boshladi[4].

Sanoat korxonalari qisqa vaqt ichida harbiylashtirilib, minomyot va avtomatlar, samolyot va tanklar uchun ham ehtiyot qismlari va boshqa harbiy qurollar ishlab chiqara boshladilar. Andijondagi “Kommunar”, “Stroymashina” zavodlarida samolyot va tanklarga kerakli mahsulotlar, Qo‘qon shahridagi Ohunboboyev nomli tikuvchilik fabrikasi harbiy kiyimlar ishlab chiqarishga iqtisoslashtirildi. 1941 yil dekabrigacha Toshkentdagi 137 sanoat korxonalarining 64 tasi qurol-yarog‘lar va front uchun zarur mahsulotlar ishlab chiqarishga kirishdi[5].

Ko‘chirib keltirilgan sanoat korxonalarini joylashtirish, montaj qilish va qisqa fursatda ishga tushirish uchun juda katta kuch-g‘ayrat sarf qilingan. Mazkur zavod va fabrikalarni tiklashda talabalar, o‘qituvchilar, uy bekalari, fan va madaniyat xodimlari, xizmatchilar va kolxozchilar qatnashganlar. Urushdan oldingi vaqtda yillar mobaynida qilinadigan ishlar bu vaqtda kunlar va oylar mobaynida bajarilgan.

Urush davrida O‘zbekistonga 104 ta zavod va fabrika evakuatsiya qilingan bo‘lib, ular orasida Leningrad to‘qimachilik mashinalari, “Россельмаш”, Rostovdan keltirilgan “Красный Аксай”, Sumsk zavodlari, Moskvadagi “Электрокабель” va “подьёмник” zavodlari, Temir yo‘llar xalq komissarligining mashinasozlik zavodi, eng yiriklari Chkalov nomli 84-aviatsiya zavodi, “Красный пут” zavodi, Kiyevdagi “Трассигнал” zavodi, Stalingrad kimyo kombinati[6] va boshqa zavod, fabrikalar joy olgan edi.

Mana shu ko‘chirib keltirilgan korxonalarning ko‘pchiligi Toshkent shahriga joylashtirilgani sababli ham bu shahar SSSRning eng katta sanoat markazlaridan biri bo‘lib qoldi. Respublika sanoat korxonalari quvvatlarining kengayishi, ko‘chirib keltirilgan zavodlarning ishga tushishi birinchi navbatda elektr energiyasi va yoqilg‘i ishlab chiqarishni keskin oshirishni talab qildi, mavjud energetika quvvatlari bunday talabga javob berolmas edi.

1944-yil yanvaridayoq Gorkiy va Stalinogorsk kimyo kombinatlaridan ko‘chirib keltirilgan uskunalar asosida qurilgan Chirchiq elektrokimyo

[4] O‘zbckiston tarixi: Oliy o‘quv yurtlari barcha bakalavr yo‘nalishlari uchun (tarix yo‘nalishidan tashqari) darslik/Q. Usmonov, M. Sodiqov, S. Burxonova; O‘zR oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.-T: “IQTISODIYOT MOLIYA”, 2006, 354-b.

[5] Неру Д. Взгляд на всемирную историю. Т. 2. — М.: Прогресс, 1989. С. 354.

[6] O‘zbekiston xalqining fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga qo‘shgan hissasi[Matn]. S. Saidolimov, M. Rahimov, K. Sadullayev, R. Nazarov, X. Babadjonov. –Toshkent: “O”zbekiston” NMIU,2020, 166-b

kombinatining ikkinchi navbati ham muhim kimyo mahsuloti ammiak ishlab chiqara boshladi. 1943-yilda Quvasoy kimyo zavodi, Qo‘qon superfosfat zavodi, Farg‘ona gidroliz zavodi qurilib ishga tushirildi. Kimyo sanoati mahsulotlari salmog‘i 1940-yilga nisbatan 1945-yilda 6,1 baravarga ko‘paydi[7].

Urush yillarida qurilish materiallari sanoati, to‘qimachilik va poyabzal sanoati, oziq-ovqat sanoati, mahalliy sanoat tarmoqlarini rivojlantirish tadbirlari amalga oshirildi. Sanoat korxonalarining kengayishi, yangi qurilgan zavod-fabrikalarning ishi, muvaffaqiyati ularni malakali ishchilar bilan ta’minlashga bog‘liq edi. Yuz minglab kishilarning, xususan, tajribali xodimlarning frontga safarbar etilishi katta qiyinchiliklar tug‘dirardi. Keksalar, ayollar, ayniqsa armiyaga chaqirish yoshiga yetmagan o‘smirlar va qizlar korxonalarga jalb etildi.1941–1942-yillarda respublikaga evakuatsiya qilingan korxonalar bazasida 16 ta yirik mashinasozlik zavodlari tashkil etildi. Mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoat tarmoqlarining yuqori sur’atlar bilan rivojlanishi metallurgiya ishlab chiqarish bazasini barpo etishni talab qilayotgan edi[8].

Birgina urushning dastlabki uch oyida 1523 yirik korxona evakuatsiya qilindi, shundan 1360 tasi harbiy ahamiyatga ega edi. Evakuatsiya muddati juda qattiq va qisqa edi. Masalan, 1941 yil avgust oyining oxiriga kelib Leningraddan mamlakat orqa tomoniga 100 ga yaqin yirik korxonalar yuborildi va bu zavod korxonalarning 226 tasi Volga mintaqasiga, 667 tasi Uralga, 244 tasi G‘arbiy Sibirga, 78 tasi Sharqiy Sibirga, 308 tasi Qozog‘iston va O‘rta Osiyoga yuborilgan. 10 milliondan ortiq odam temir yo‘l orqali, 2 milliondan ortiq odam suv yo‘li bilan tashilgan[9].

Xulosa qilib aytganda Ko‘chirib keltirilgan sanoat korxonalarini joylashtirish, montaj qilish va qisqa fursatda ishga tushirish uchun juda katta kuch-g‘ayrat sarf qilingan. Hattoki, bu zavod va fabrikalarda ayollar va qizlar, talabalar, uy bekalari, fan hodimlari, xizmatchi va kalxoschi ayollarning hissasi juda katta bo‘ldi. Shu kabi ko‘chirib keltirilgan korxonalar tarixda misli ko‘rilmagan qisqa muddatlarda 4-5 oyda, ayrimlari hatto 1-2 oy davomida qurib bitkazilib, front uchun harbiy mahsulotlar bera boshladilar. Bu esa avvalambor O‘zbekistonga juda kata o‘z ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmadi.

---

[7] O‘zbekiston tarixi (1917-1991-yillar): Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari 1-bosqich o‘quvchilari uchun darslik / Mas’ul muharrir: Q. Rajabov.- T.: “Sharq”, 2010, 150-b.

[8] Vatan tarixi (Uchinchi kitob); R.Shamsutdinov, Sh.Karimov. -T.: “Sharq”, 2010, 166-167-b.

[9] Зоркальцев В.И., Харитонова В.Н. Борис Павлович Орлов — экономист и историк. // Наука Сибири. — 2012. 26-b.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

[1] O‘zbckiston tarixi: Oliy o‘quv yurtlari barcha bakalavr yo‘nalishlari uchun (tarix yo‘nalishidan tashqari) darslik/Q. Usmonov, M. Sodiqov, S. Burxonova; O‘zR oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.-T: “IQTISODIYOT MOLIYA”, 2006, 354-b.

[2] Неру Д. Взгляд на всемирную историю. Т. 2. — М.: Прогресс, 1989. С. 354.

[3] O‘zbekiston xalqining fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga qo‘shgan hissasi[Matn]. S. Saidolimov, M. Rahimov, K. Sadullayev, R. Nazarov, X. Babadjonov. –Toshkent: “O”zbekiston” NMIU,2020, 166-b

[4] O‘zbekiston tarixi (1917-1991-yillar): Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari 1-bosqich o‘quvchilari uchun darslik / Mas’ul muharrir: Q. Rajabov.- T.: “Sharq”, 2010, 150-b.

[5] Vatan tarixi (Uchinchi kitob); R.Shamsutdinov, Sh.Karimov. -T.: “Sharq”, 2010, 166-167-b.

ТАРИХИ ДАРСЛАРИДА КОМПЬЮТЕР ВОСИТАЛАРИНИ ҚЎЛЛАШНИНГ МЕТОДИК ТАЛАБЛАРИ

Xolmurodov Jonibek Muxiddin o'g'li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
***Ilmiy rahbar:* Sulaymanova Shoxsanam Absamatovna**

Аннотация. Ушбу мақолада Ўзбекистон тарихи дарсларида ўқувчиларнинг фаоллигини ошириш, дарс жараёнида ахборот-коммуникацион ва педагогик технологиялардан фойдаланишнинг муҳим жиҳатлари ҳамда билимларнинг ўқувчилар томонидан мақсадли ва самарали ўзлаштирилишига хизмат қилувчи методлар ёритиб берилган.

Калит сўзлар: ахборот-коммуникацион технологиялар, электрон дарслик, мультимедиа**,** медиатаълим, медиапедагог, фасилитатор, ахборот хавфсизлиги.

2020 йил 24 январ куни Ўзбекистон Республикаси Президентининг парламентга расмий мурожаатномасида илм-маърифат ва технологиялар ривожига алоҳида аҳамият қаратилди. «Шарқ

донишмандлари айтганидек, «Энг катта бойлик – бу ақл-заковат ва илм, Энг катта мерос – бу яхши тарбия, Энг катта қашшоқлик – бу билимсизликдир!» Шу сабабли, ҳаммамиз учун замонавий билимларни ўзлаштириш, чинакам маърифат ва юксак маданият эгаси бўлиш, узлуксиз ҳаётий эҳтиёжга айланиши керак.

Бугунги кунда умумий ўрта таълим мактабларида ўқув-тарбия жараёнини юқори сифатли ўқув адабиётлари билан таъминлаш, таълим жараёнига илғор педагогик технологияларни жалб этиш ҳамда таълим тизимини ахборотлаштиришга алоҳида аҳамият берилмоқда. Ахборот технологиялардан ўқув-тарбия жараёнида мақсадли фойдаланиш дарс машғулотларига сезиларли ижобий самара беради. Ахборот-коммуникация технологиялари таълим моделида педагоглар фасилитатор, тьютор, медиапедагог, модератор каби вазифаларни бажарадилар. Ўқитувчининг ахборот-коммуникацион ва педагогик технологияларни дарсда мақсадли қўллаши вақтдан унумли фойдаланиш, мукаммаллик, кетма-кетлик, мослашувчанлик, ривожланиш, кенг кўламлилик, кўргазмалилик каби имкониятларни очиб бериш билан бир қаторда мавзуга оид ўқув материалларини ўқувчилар тўлақонли ўзлаштиришларига замин яратади. Ўқитувчи дарсда иштирок этаётган ҳар бир ўқувчининг диққатини мавзуга қарата олади, уларнинг фаоллигини таъминлайди.

Дарсда ахборот-коммуникацион технологияларнинг қўлланилиши электрон дарсликлар, электрон қўлланма, қўшимча манбалар, электрон топшириқлар ва мультимедиали маълумотлардан кенг қамровли фойдаланиш имконини беради. Интернет тармоғи ўқувчиларга мавзуга оид энг янги манбаларни қисқа фурсатда топиб ўқиш ва мустақил ишлаш имкониятини бериш билан бир қаторда ўқувчиларда замон билан ҳамнафас яшаш, ҳар бир ўқув материалининг туб моҳиятига етиш, манба ва маълумотлар устида мустақил ишлаш, қиёсий таққослаш қобилиятлари шаклланишига замин яратади. Бугунги кунда тарих фани ўқитувчилари медиапедагог (медиа таълими берувчи педагог, техника воситаларини бошқара олиш, намойиш этиш ва мулоқотга киришиш) ва фасилатор (компьютер технологиялари асосида таълим беришда педагог фасилитатор, яъни жараёнда асосий ёрдамчи) вазифаларини бажариш қобилиятига эга бўлишлари лозим. Медиа таълими бугунги кунда таълимнинг муҳим соҳасидир. Ўқувчиларга индивидуал таъсир этадиган усул сифатида медиатаълим жадал суръатлар билан таълим

жараёнига кириб келмоқда. Медиа таълими ўқувчиларни мустақил фикр юритишга, ижодкорлик фаолиятларини ривожлантиришга, ахборот олиш, уни қайта ишлаш, умумлаштириш, хулоса чиқаришга ўргатади. Дарсларда бир неча ахборот манбаларининг бир мавзудаги медиаматнларини ўрганиш орқали ҳар бир ахборотни тарихий маълумот сифатида қабул қилиш кўникмалари ҳосил бўлади. Бу таълим турининг педагогик стратегияси таҳлил қила олиш, унга талқин қилиш асосида баҳо беришдан иборат бўлиб, таълимнинг марказида ўқувчи шахси туради, унинг қизиқиши, хоҳиш, истакларини ҳисобга олиш, олинган ахборот воситасида танқидий фикрлашга ўргатади. Шунингдек, ўқувчилар бу жараёнда ахборот билан ишлаш, ахборот қидириш, керакли ахборотларни ажрата билиш, қайта ишлаш, тартибга келтириш, ахборот мазмунини тушуниш ва мантиқий яқинларини ажратишни ўрганади. Таълим жараёнида ўқитувчи мобил телефон ёки бўлмасам компьютер ёрдамида мавзуга оид электрон таълим ресурсларидан кенг қамровли фойдаланиши мумкин.

Бугунги кун ўқитувчиси ўзининг педагогик маҳоратини намоён этган ҳолда дарс давомида бевосита мавзуга оид қўшимча электрон маълумотларнинг интернет манзили (ҳаволаси)ни ўқувчиларга фойдаланиш учун тақдим этиши керак. Ўқитувчининг ахборот-коммуникацион ва педагогик технологияларни уйғунлашган ҳолда қўллаб дарс ўтишида анъанавий усулдаги дарсдан фарқли равишда улкан маълумотлар омборининг мавжудлиги ҳамда ўқувчилар ҳаракатининг фаоллиги билан ажралиб туради.

Агарда аудиторияда WI-FI тармоғи мавжуд бўлса, имкониятларимиз чексиздир. Умумий ўрта таълим мактабларида 11-синф Ўзбекистон тарихи дарсида (15-мавзу) Ўзбекистонда маънавий ва тарихий мероснинг тикланиши мавзусида ўқувчиларга янада кўпроқ дарсликдан ташқари маълумот тақдим этишда ўқитувчи бевосита компьютер ёки мобил телефон ёрдамида meros.uz сайтига мурожаат этиши мумкин. Сайтда Ўзбекистон Республикасининг барча вилоятларидаги бугунги кунда мавжуд бўлган меъморчилик иншоотлари, археологик ёдгорликлар, техник иншоотлар, зиёратгоҳлар ва музейлар ҳақида бирламчи маълумотлар олиш имконияти мавжуд. Масалан, ушбу сайт орқали ўқитувчи видеопроектор ёрдамида Тошкент телеминораси ҳақида умумий маълумот, унинг тарихи ва фото расмларини намойиш қилиши мумкин.

Дарс жараёнида интерфаол дастурий воситалардан фойдаланиш, интернетдаги мавжуд ҳавола, электрон харита ва виртуал музейларга кириш ўқувчиларда ахборот билан ишлаш компетенцияларини шакллантиради. Виртуал музейларнинг ҳаволаси орқали ўқувчилар, республикамизда жойлашган ва жаҳондаги машҳур музейларга саёҳат қилишлари учун барча имкониятлар яратилган. Ўқувчиларнинг мавзуга оид эгаллаган билимлари ва компетентлигини баҳолаш учун ilm.uz сайти орқали электрон тарзда “Тарих” фанидан мавзули тест саволларини онлайн тарзда ечиш ҳамда ўқувчиларнинг тест саволига берган жавобларининг тўғри ёки хатолигини қисқа муддатда аниқлаш имкониятини беради. Онлайн тарзда тест ечишнинг афзаллик томонлари шундаки, қоғоз ва принтерда нашр ишларига маблағ сарфланмаслиги билан бир қаторда ўқитувчи тест саволларининг жавобини текширишга вақт ажратмайди. Энг асосийси ўқувчилар ўзларининг билим савияларига ўзлари баҳо берадилар. Бу жараёнда юқори синф ўқувчиларида смартфон, мобил телефон, планшет, ноутбук бўлиши мумкин, лекин 6,7,8-синфларда аксарият ҳолларда мобил қурилмалар бўлмаслиги мумкин. Ўқувчининг уй вазифасини бажариш учун сарф этадиган вақти, унинг натижалари ҳам дарс самарадорлигини педагогик жиҳатдан тўғри ташкил этишга бевосита боғлиқдир.

Ўқувчиларнинг билим олишлари учун қўшимча имкониятлар яратиш мақсадида таълим муассасасининг ахборот ресурс маркази доимий интернет тармоғига уланган бўлиши ҳамда ўқувчилар дарс машғулотларидан сўнг таълим муассасаси маъмуриятининг белгиланган графиги асосида интернет хизматидан фойдаланиш имкониятига эга бўлишлари керак.

Ёшлар орасида мобил қурилмалардан фойдаланиш кўникмасига эга бўлмаган ўқувчилар камдан-кам учрайди. Ўсмирлар дарсдан бўш вақтларида асосан интернет тармоғи орқали ҳар хил кўнгилочар сайтлардан фойдаланиб, қимматли вақтларини беҳуда ўтказадилар. Таълим олувчилар ўқишдан чалғиб, илм олишга енгил-елпи ёндашмоқдалар. Билим манбаи бўлмиш китоблардан чалғиб, интернет тизимидан тайёр маълумотларни кўчириб олиш орқали топшириқларни изланишларсиз бажаришга ўрганмоқдалар. Ўз навбатида бу жараёнда таълим олувчиларнинг китобга бўлган меҳрини сўниши табиий ҳол. Мобил телефон орқали ёшлар турли қизиқарли ўйинлар ва ранг-баранг маълумотларга қизиқишлари кучайиб, билим

олишга бўлган муносабатлари салбий томонга ўзгармоқда. Бугунги кун ўқитувчиси таълим жараёнида ўқувчига бўлган ёндашувини тубдан ўзгартириб, фан ўқитиш методикасида бир қолипга тушиб қолмаслиги, янгича индивидуал самарали педагог механизмларни ишлаб чиқиши ва таълимга янги инновацион ғоялари билан кириши лозим. Мобил қурилмаларнинг имкониятларидан таълим-тарбия жараёнини самарали ташкил этишда фойдаланиб, таълим самарадорлигини кўтариш ҳамда ўқувчиларнинг бўш вақтларини мазмунли ўтказишни масофадан туриб бошқариш имконияти мавжуд. Ўзбекистон тарихи фанидан ўқувчиларнинг дарсдан ташқари бўш вақтларини самарали ташкил этиш мақсадида уйга вазифа сифатида интернет тармоғида мавжуд бўлган таълимий сайтлар ёрдамида мустақил топшириқ вазифаларини бажаришга ўқувчиларни жалб этиш орқали ижобий натижаларга эришиш мумкин.

Ўқувчиларнинг дарсдан кейинги бўш вақтларида Ўзбекистон тарихи фанидан мустақил топшириқ вазифаларини бажаришларини самарали ташкил этиш мақсадида фан ўқитувчиси телеграм ижтимоий тармоғида махсус гуруҳ ташкил этиши, махсус гуруҳга юқори синф ўқувчилари ёки бўлмасам ўқувчиларнинг ота-оналарини аъзоликка қабул қилиши, мунтазам равишда фанга оид янгиликлар, мустақил топшириқларнинг электрон варианти, телеграм ижтимоий тармоғининг махсус имкониятларидан кенг фойдаланиб, аноним сўровнома, тест саволлари юбориш тизимини йўлга қўйиши ҳамда онлайн тарзда билимлар беллашувини (телеграм ижтимоий тармоғида Quiz Bot ёрдамида) ўтказиши мумкин. Телеграм гуруҳида ўқитувчи доимий равишда ўқувчиларнинг тест саволларга берган жавобларига қараб, уларнинг ўзлаштириш даражасини кузатиб бориши мумкин. Шунингдек, тарихий жараён, тарихий ходисалар ҳақида матн юбориш орқали, ўқувчиларнинг тарихий жараёнга бўлган муносабатлари, шарҳларини ёзиб юборишлари учун шарт-шароит яратиши мумкин. Мобил телефон–ўзида ўқув ахборотидан таркиб топган товушли, матнли, видео ва графикли файлларни ижро қилиш учун восита ҳам ҳисобланади. Бу борада Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2012 йил 21 майдаги “Ўзбекистон Республикаси таълим муассасаларида мобил телефонлардан фойдаланишни тартибга солиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 139-сонли қарори ҳамда Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлигининг 2012 йил 25 майдаги

“Таълим муассасаларида мобил телефонлардан фойдаланишни тартибга солиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 165-сонли буйруғида белгилаб қўйилган тартиб асосида мобил телефондан фойдаланишга риоя қилиниши шартлигини унутмаслигимиз керак.

Мобиль қурилмаларнинг имконияти нафақат қўнғироқ қилиш ёки хабар алмашиш учун, балки ундан кенгроқ вазифаларни бажаришга мўлжалланган. Бугунги кунда бу қурилмалар кўпгина фойдаланувчилар учун ахборот олиш, билимларни шакллантириш, фикр алмашиш имкониятларини тақдим этмоқда. Дарҳақиқат, бугунги кунда мобиль таълим ёки m-learning ҳақида таърифлар кўп келтирилган. Бу воситалар ўқувчиларнинг маълумотлар олишида асосий воситалардан бири бўлиб қолмоқда. Ўқувчилар смартфон ёки планшетларда таълим ресурсларига доимо эга бўлишни хоҳлашади. Баъзи ўқувчилар дарслик тўлиқ матнини ҳам мобил телефонига жойлаштириб, танаффус вақтларида фан бўйича тегишли мавзуни ўқиб, дарсга тайёргарлик кўришлари, қўшимча маълумотлар ҳисобланувчи фото, видео, аудио маълумотларни кўришлари ва тинглашлари мумкин. Лекин энг ачинарлиси назорат саволларига жавоб ёзишда, ҳеч қандай тайёргарликсиз, мобил телефон ёрдамида кўчирмачилик асосида жавоб ёзишдир. Бундай вазиятда ўқитувчи ўқувчиларга тўғри йўналиш бериши, яъни баҳо рамзий маънога эга бўлиб, ўқувчининг бундай кўчирмачилик асосида назорат саволларига жавоб ёзиши, келажакда унинг иш фаолиятига салбий таъсир қилиши мумкинлигини тушунтириши лозим.

Тажрибамизга таянган ҳолда, медиа таълими ва мобил ўқитиш ўқувчиларга бериладиган билим, кўникмаларнинг аниқ, тушунарли ва хотирада сақланишини таъминловчи таълим усули деб эътироф этилса муболаға бўлмайди. Ўқитувчининг оғзаки маърузасидан кўра, ўқувчи кўргазмали воситалар, замонавий технологиялар ёрдамида ўтилган дарсда ўзи учун керакли билимлар захирасига эга бўлади.

Хулоса қилиб айтганда дарс жараёнига ахборот-коммуникацион технологиялар, яъни медиа таълими, мобил ўқитиш тизимини жорий этилиши натижасида ёшларни мустақил ижодий ишлаш, эркин фикрлашга ўргатиш қобилиятлари шаклланади. Бугунги кунда педагогика соҳасидаги энг янги тажриба маҳсулларини таълимга интеграциялашуви давр талаби экан, унинг таълим-тарбия билан узвийлигини таъминлаш педагогларимизнинг бирламчи вазифасидир.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. (2020 йил 25 январь.) Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисига мурожаатномаси. Халқ сўзи газетаси. №19 (7490).

2. С.А. Хайдаров. (2020). Ўзбекистон тарихини ўқитишда “Зафарнома”дан фойдаланишни имкониятлари. Science and Education. 1(7). 192-198

3. С.А. Хайдаров. (2020). Педагог-ўқитувчиларда ахборот-коммуникация кўникмасини шакллантириш асослари. "Science and Education." Scientific journal. 1(7). 610-617

4. Сулаймон Амирқулович Ҳайдаров. (2020). Тарих дарсларида интеграциялашган технологиялардан фойдаланиш. Science and Education. 1(8). 666-671

5. Ҳайдаров С. (2020). Ўзбекистон тарихи дарсларида педагогик технологияларни уйғунлашган ҳолда қўллашнинг методик талаблари. Academic Research in Educational Sciences. 1 (3). 1313-1321.

6. Ҳайдаров Сулаймон Амирқулович. (2020). Тарих фанини ўқитишга оид экологик муаммолар масаласи «Scientific Progress» Scientific journal 1(1). 12-17.

7. Сулаймон Хайдаров. (2020). Ўзбекистон тарихи фани дарслари самарадорлигини оширишда тасвирий санъат воситаларининг роли. Science and Education, 1(6), 174-179.

8. С.А. Хайдаров. (2020). Тарих дарсларида тасвирий санъат асарларидан фойдаланиш. Science and Education. 1(9). 458-461.

9. Ҳайдаров Сулаймон Амирқулович. (2021). Ўзбекистон тарихи фанини ўқитишда тасвирий санъат асарларидан фойдаланишнинг ўзига хослиги «Scientific Progress» Scientific journal 1(3). 9-14.

АМИР ТЕМУР ЎГИТЛАРИНИНГ-ШАХС МАЪНАВИЙ КАМОЛОТИДАГИ ЎРНИ

Usanov Azizbek Ahmadaliyevich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
***Ilmiy rahbar:* Sulaymanova Shoxsanam Absamatovna**

Ўзбекистонда юз бераётган тарихий ўзгаришлар, тарихий меросга қизиқишнинг кучайиши, Амир Темур фаолиятидаги кўплаб жиҳатларни синчковлик билан ўрганишни тақозо этади. Ундан ташқари, Амир Темур фаолиятининг кўпгина қирраларидан ижтимоий-иқтисодий, сиёсий ва маданий ҳаётда намуна олиш, унинг тажрибаларидан фойдаланиш баркамол авлодни тарбиялашда муҳим аҳамият касб этади.

Амир Темур давлатчилигида юксак ахлоқ устуворлик қилган. Бу аввало унинг шахсидаги фазилатларнинг давлатчиликдаги инъикоси эди. Соҳибқирон биринчи навбатда кучли билим эгаси бўлган. У илм аҳлини севган, доимо фозил кишиларнинг ҳурматини жойига қўйган, умрининг сўнгги дамларига қадар илм ўрганишдан тўхтамаган, ўз устида тинимсиз ишлаган. Шунинг учун ҳам у кўпинча ўз даврининг энг билимли олимлари билан бўлган баҳс-мунозараларда, кучли саркардалар билан жангда ғолиб чиққан[10].

Амир Темур ўз «Тузуклар»ида айтадики «Қай бир мамлакатда шариат заифлашган бўлса, Оллоҳ улуғ қилган нарсаларни хор тутсалар ва худонинг хос бандаларини ранжитсалар, чинакам жаҳонгир султон, ҳазрати Муҳаммад

(с.а.в.) дини ва шариатига ривож бериш учун ўша мамлакатга кирсин»[11], шу сўзларга амал қилган ҳолда у Ҳиндистонга юриш қилади.

Амир Темурнинг фикрича, қайси ислом мамлакатида диндан қайтишлик, худосизлик ёки динга ишонмаслик кучайса, аҳолиси турли маслакка берилиб, иттифоқлари бузилса, бундай давлатни албатта ҳалокат кутарди. Чинакам жаҳонгир бундай юрт устига юриш қилиши лозим, деб таъкидлайди. У қаерда, қандай вазиятда бўлмасин, устозу пирларининг маслаҳатига амал қилади.

[10] Хидиров А. Соҳибқироннинг умрбоқий қадриятлари. //"Ҳуқуқ" газетаси, 2008 йил 3 апрель.
[11] Темур тузуклари. Т., Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991, 91-бет.

Амир Темур салтанатни бошқаришда саййидлар, уламолар ва фузалолар ҳурматини жойига қўйиб, уларни эъзозлаш билан чекланмай, ўзи забт этган вилоят, мамлакатлардаги саййидлар, уламолар, шайхлар, мошойихлар, фузало, акобир ва ашрофларни ҳам ҳурматларини жойига қўйиш, азиз тутишларини салтанат амалдорларидан талаб қилади. Бундан ташқари, барча мамлакатлардаги зиёлиларнинг, дин пешволарининг мозорларини, мақбараларини таъмирлаб туриш, уларни қўриқлаш учун вақф ҳисобидан маблағ ажратишни ҳам амр этади. Биринчи навбатда у амир ул-мўминин, мардлар шоҳи Али Ибн Толибнинг муқаддас қабрларини яхши сақлашни буюради. Чунки у ислом тарихида тўғри йўл кўрсатувчи халифа номини олган эди. Темур авлиёлар улуғи шайх Абдулқодир Жилонийнинг муқаддас қабрини ҳурматлашни талаб қилади. Чунки у киши йирик сўфий бўлиб, Қадрият тариқатининг асосчиси эди. Имоми Аъзам Абу Ҳанифанинг мақбарасини ҳам эъзозлашни буюради. Чунки у Ҳанафий мазҳабига асос солган зот эди. Шу билан бирга Бағдодда дафн этилган кўпгина машойихлар, дин пешволари ва акобирлардан ҳар бирининг мозорларини яхши сақлаш учун маблағ ажратишни буюради[12].

Шунингдек, Темур Мовароуннаҳрдан ташқари Табризда масжид, Шерозда сарой, Бағдодда мадраса, Туркистонда Аҳмад Яссавий мақбарасини қурдирди. Соҳибқирон турли ўлкаларда карвонсаройлар, сув иншооатлари, жамоат бинолари бино қилдирди. Озарбайжон заминидаги Байлакан шаҳрида катта бир ариқ қаздириб сув чиқаради ва унга барлос ариқ дея ном беради. Амир Темур доно сиёсатчи сифатида ҳар бир ишни маслаҳату машварат билан амалга оширади, қонунлар барчага тенг бўлган, яъни давлат томонидан қайсидир миллий маданият, тил зўрлик билан бошқа ҳудудларга олиб кирилмаган. Ўрта Осиёда туркий тил анъаналарини ривожлантиришга алоҳида эътибор берилган.[13]

Амир Темурнинг буюклиги шунда эдики, у мазҳаб ажратишни билмас эди. Ислом динидаги барча мазҳабларни, агар у Худо йўлидан кетаётган бўлса, ҳурмат қиларди. Шиаларнинг еттинчи имоми – Имом Мусо Козим, шиаларнинг тўққизинчи имоми – Имом Муҳаммад тақи,[14] Муҳаммад пайғамбар (с.а.в)нинг эронлик саҳобаси Салмон Форсий, саккизинчи Имом Али ибн Мусоларнинг қабрларини эъзозлаш ва

[12] Азимов Э. Амир Темур салтанати. Т., Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991, 24-бет.
[13] Мўминов Т., Мўминов А. Соҳибқирон – адолат тимсоли
[14] Тузуклар, 97-бет.

уларни покиза сақлашни буюради. Эрон ва Турондаги шайхларнинг мозорлари ва қабрлари учун ҳар назру вақфлар ажратишни топширади.

Ислом дини анъаналарига риоя қилиш Амир Темурнинг кундалик одатига айланган эди. У қаерда ва қандай вазиятда бўлмасин, беш вақт намозни канда қилмасди. Айниқса, шайхлар, лашкар бошлиқлари, ўғиллари, набиралари, қариндош, яқин мулозимлари билан ҳар бир жанг олдидан намоз, зафар фотиҳасини ўқиш соҳибқирон учун одат тусини олган эди. Ҳаддан ташқари чарчаганига қарамай, эрта тонгда, баъзан эса тунлари туриб намоз ўқирди. Масъулиятли жанглар олдидан у тунлари бедор ўтказар, узоқ мушоҳадага берилиб, бўлажак жангни кўз олдига келтирар ва Қуръон оятларини ўқиб, мувафаққият қозонмоқ учун Худодан ёрдам сўрайди. Буни билган жангчилар жангга ишонч билан киришиб, албатта зафар қучишарди.

Ислом таълимоти Амир Темур салтанатининг таянчи эди. Соҳибқирон саройида Қуръон оятларини қироат билан ўқиш мақсадида тез-тез мусобақалар бўлиб турарди. Қуръони Каримни ёд биладиган ва уни бир неча марта хатм қилган қариялар кўп эди. Шунинг учун ҳам Амир Темур даврида хушовоз қорилар, ҳофизлар танлашга алоҳида аҳамият берилган. Чунки Қуръон оятларининг ҳикматли сатрларини баланд овоз билан ширали ўқиш мусулмон аҳлининг бу динга бўлган муҳаббатини яна ҳам оширишга даъват этарди. Мавлоно Фахруддин, Абдулатиф-ад-Димғоний, Мавлоно Асадуддин, Шариф Ҳофиз Ҳусайний, Маҳмуд Мухриқ ал-Хоразмий ва Жамолуддин Аҳмад ал-Хоразмийлар шундай кишилар сирасидан эди.[15]

Амир Темурнинг ўз шайхи бор эди. У шайх Алоуддин ал-Бухорий бўлиб, ислом оламининг кўзга кўринган вакилларидан ҳисобланарди. Бундан ташқари, соҳибқироннинг шахсий имоми ҳам бўлиб, у самарқандлик машҳур аллома Абдужаббор эди.

Ислом дини Амир Темурнинг эътиқоди ва имони эди. У ислом динини ўз салтанатининг асосий қонуни сифатида қабул қилади ва шариат қонун-қоидалари асосида давлатни бошқаради. Шунинг учун ҳам Амир Темур давлати ўз даври учун катта намуна бўладиган даражага кўтарилди. Амир Темур: “Мен ўзимни Оллоҳнинг ердаги энг биринчи итоаткор бандаси деб билдим ва амрисиз бирор ишга қўл

[15] Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи. 2-китоб, Т., “Меҳнат” нашриёти, 1992, 86-бет.

урмадим. Парвардигорнинг амрисиз ерда яшаётган халқларнинг бирортасига зиён етказмадим", - дейди.[16]

Амир Темур Қуръонни ёд билган, айрим сура ва оятларнинг мазмунидан келиб чиқиб, олдиндан бўлажак ишларни айтиб берган ва тўғри хулоса чиқара олган. Доим Оллоҳ таолога ёлвориб, илтижо қилиб, ёрдам сўраган ҳолда яшаган ва ҳаракат қилган. Азиз-авлиёлар ҳам унга ёрдам қўлини чўзганлар. Ҳарбий юриш қилиш олдидан ўғиллари, набиралари ва амирлари билан кенгашади. Кенгаш вақтида соҳибқиронни қўллаганлар ҳам, эътироз билдирганлар ҳам бўлади. Шунда у "Жанг қилиш ёки қилмаслик ҳақида Қуръондан йўл топайлик, Тангри таоло нима буюрса шунга амал қилгаймиз" дейди. У ҳар бир жангда: "Ғолиб бўлмоқлик (Тангрининг) мадади ва бандасининг тадбири биландир"[17], - дейди.

Амир Темур кароматгўйлиги турли йўллар билан баён этилган: бир томондан Қуръон оятларини таҳлил қилиш орқали бўлса, иккинчи томондан кўрган тушини таҳлил қилиш натижасида чиқарган мантиқий хулосалари орқали содир бўлган. Соҳибқирон дарахтларнинг ҳавода учиб юрган барглари тўкилиши – яъни ерга тушишига қараб башорат қилиши ҳам диққатга сазовор эди. Дарахт шохларидан узилиб, тўғри ҳовузга учиб тушган барг ўлимдан дарак беради. Агарда у йўл устига учиб тушса, ҳаётнинг давомийлигини, бир дарахтнинг барги бошқа бир дарахт устига учиб тушса, ғалабанинг нишонаси эди[18]. Амир Темур Хитой юришига отланар экан, шундай туш кўради: у катта йўлдан кетатуриб, отдан тушади. Бошида катта идишда сув бор эмиш, шу идишдаги сув ерга тушиб тўкилади. Шу пайт отаси амир тарағай пайдо бўлиб, соҳибқирон етаклаб кетаётган отнинг жиловини бир қўлига олади, иккинчи қўли билан Амир Темурни ушлаб, боғ томон ушлаб кетади. Боғда отаси кўздан ғойиб бўлади. Муннажжимлар яхшилик аломати деб талқин қилсада, ўзи умри тугаб бораётганлигини ҳис қилади.

Соҳибқирон ҳаётида туш билан боғлиқ кўплаб воқеалар содир бўлган. Ҳали 22 ёшда пайтида Бухорони забт этиб, қайтганидан сўнг қизиқ туш кўради ва ғойибдан бир овоз келади: "Ёдингда тут, илм эгаларини, шоирларни, ҳунармандларни қадрла, ҳифзу ҳимоянгга ол. Агар улар рақиб кайфиятида бўлсалар ҳам – ранжитма. Динингни қабул

[16] Аҳмедов А. Амир Темур ҳақида ҳақиқат. //"Фан ва турмуш" журнали, 1990, 9-сон, 8-бет.
[17] Тузуклар, 21-бет.
[18] Черевенский В. Амир Темур. Т., "Ёзувчи" нашриёти, 1993, 172-бет.

қилмасалар ҳам ранжитма", - дейди. Шу тушдан сўнг ўтган 48 йил давомида тўсиқларга дуч келиб, муаммолар гирдобида қолсада, жангоҳларда 172 марта жароҳатлансада, бирор марта муваффақиятсизликка учрамади. Тўсиқ ва қийинчиликлардан идрок билан, тадбир ила чиқиб кетди.

Ўтган шу вақт ичида кўп ўлкаларни қадам-бақадам босиб ўтди. Кўп юртларда бўлди, кўп одамларни кўрди, кўп олимлар билан суҳбат қурди. Тушда кўрган ҳосиятларга амал қилиб илм эгалари, шоирларни доимо ўзига яқин олди. Душман кайфиятида бўлганларига ҳам ҳомийлик қилди. Шундайлардан бири Шамсиддин Муҳаммад Шерозийдир.

Амир Темур Шерозни ишғол қилгач, олимларни тўплашдан аввал ҳузурига Ҳофиз Шерозийни олиб келишларини буюради. Кексайиб, қомати букчайиб қолган шоирни олиб келганларида Темур унинг ғазалидан бир байт мисол келтириб, изоҳ беришини сўрайди. Ҳофизнинг изоҳидан қониқмасада ўз фикрида қолади. Кейин: "Самарқанд ва Бухоро шаҳарларини кўришни хоҳлайсизми, ахир шеърларингизда бу шаҳарлар номини бот-бот тилга оласиз-ку" – дейди. Ҳофиз Шерозий кексайиб қолганлиги учун Самарқандга боришга иштиёқ билдирмайди. Гарчи дунёқарашлари турлича бўлсада, Соҳибқирон уни хафа қилмади. Кексалик чоғида йўқчиликдан азият чекмасин деб, шоирга минг олтин динор ҳадя қилади.

Франциялик темуршунослар ёзган асарлар ичида профессор Марсель Брионнинг китоблари алоҳида ўрин тутади. Унинг асарларида Соҳибқирон Амир Темур бобомиз шахси, ҳаётий фаолияти, сиёсий ва ҳарбий соҳаларда тутган йўлига оид маълумотлар ўрин олган. Бундай муфассал маълумотлар бошқа насрий манбаларда кам учрайди. Воқеалар Амир Темур номидан ҳикоя қилиниб, оммабоп услубда ёзилган.

Айниқса муаллиф Амир Темурнинг ҳукмдорлик салоҳияти ва одоби хусусида келтирган маълумотлари диққатга сазавордир. Табриз жангида Озарбойжон ҳукмдори Султон Аҳмад андишасизлик билан Амир Темурнинг оқсоқлигини айтганида Соҳибқирон бобомиз: «Тарбияли одамлар қаршисидаги одамнинг жисмоний камчилигини кўпнинг олдида тилга олмайдилар, гарчи буни ҳамма кўриб турган бўлса ҳам», - дея жавоб қайтаради унга.

Меранда шаҳри аҳолиси Соҳибқирон қаршисига ёш болаларини кўтариб чиқиб, қурбонлик қилмоқчи эканликларини, Султон Аҳмад

зулмидан қутқаришини сўрашади. Амир Темур болаларни қурбонликка аташларини қатъиян ман қилади. Шаҳарнинг эътиборли кишилари Амир Темурни қаршилаб пешвоз чиқди, улар Султон Аҳмад Илқонининг фақат сўзда мусулмон эканини, унинг жирканч ишлари шариат қоидаларига сира тўғри келмаслигини сўзлайдилар. Солиқ тўлашга қурби етмаган одамларнинг ўғил-қизлари Султон Аҳмаднинг буйруғи билан қул қилиб сотилган, агар ўғил-қизи бўлмаса кўзи ўйиб олинган. Бу гапларни эшитган Амир Темур жуда қаттиқ таъсирланиб: «Менинг қўл остимдаги мамлакатларда ҳам қурғоқчилик ёки бошқа бир сабаб билан одамлар солиқ тўлай олмаган пайтлар бўлган. Мен ўшандай кезлари одамларни солиқлардан озод қилганман. Қолаверса шариатда, муҳтожлар Аллоҳнинг ҳимоясидадирлар», - дейди.

Шабистар шаҳри аҳолиси ҳам Амир Темурни қаршилаб пешвоз чиқади. Темур Шайх Муҳаммад Шабистари («Сирлар денгизи» китоби муаллифи) қабрини зиёрат қилади. Шайхнинг мозори жуда хароб аҳволда эканини кўриб, зудлик билан қабр устига даҳма қуришларини буюради. Амир Темур Шайх Шабистарининг набираси Шайх Маъсуд Шабистарийга, агар бир киши эзгу ишларга қўл урса, унинг бу ишидан, нафақат келажак авлодларга, балки қавмдошларига ҳам наф етиши ҳақида сўзлайди. Шайх Маъсуд бунинг маъносини сўрайди, шунда Амир Темур: «Сенга Шабистарининг набираси бўлганинг учун минг олтин динор ҳадя қиламан, шабистарликларга эса беш олтин динордан улашаман – буларнинг барчаси бобонг Муҳаммад Шабистарининг хизмати учун»[19], - дейди ва ғазначига айтилган маблағларни эгаларига етказишни буюриб, ўзи шаҳарни тарк этади.

Соҳибқирон ёшлигида Фирдавсийнинг шеърларини мутолаа қилган, шоирга ҳурмати баланд эди. Шунинг учун Тусда Фирдавсий қабрини зиёрат қилишга боради, шоир қабри ташландиқ жойга айланиб қолганини кўриб, изтиробли кечинмалар уммонига шўнғийди. Зиёратдан қайта туриб Фирдавсийнинг мозорига қабр тоши ўрнатишларини амр қилади. Кейинги сафар борганида қабрни яна бориб кўради. Фирдавсийнинг хоки туроби барҳақ бўлган боғда сархил гуллар очилиб ётганини кўриб кўнгли тоғдек кўтарилади.

Манбаларда Амир Темур кучли характер соҳиби, моҳир сиёсатчи ва лашкарбоши, илмли инсон сифатида таърифланади. Тарихчилар Амир Темур ўз даврида араб-форс дунёсининг энг пешқадам

[19] Марсель Брион. Менким, соҳибқирон – жаҳонгир Темур. –Т.: “Янги аср авлоди”, 2011, 557-бет.

кишиларидан бири бўлганлигини айтиб, унинг турк ва форс тилида ҳам бирдек мулоқот қила олиши, олимлар билан мунозарага кира олишдек илми борлиги, ўзи юриш қилган ерларни аввалдан тўлиқ ўрганганлиги, ўз даврининг машҳур олими Ибн Халдун билан бўлган мунозараси ҳақида тўхталиб, кўпинча баҳс мунозараларда унинг илми баланд келганлигини айтиб ўтган[20].

Амир Темур бўш вақтларини мақсадли ташкил этган. Ортиқча бабдабаю кайф сафога берилмаган. Унинг бўш вақтларда шуғулланадиган энг севимли машғулоти шатранж ўйини эди. У ҳатто шатранж ўйинига ўзгартиришлар киритиб, унинг доналарини икки баробарга кўпайтирган. Бундан мақсад сиёсат майдонида ғолибона тадбирлар қўллаш, вақтни чўзиш эди. Шунингдек соҳибқирон ўз даврида мавжуд бўлган халқ ўйинлари ва спортнинг барча турларини мукаммал ўзлаштириб, уларга муҳим ўзгартиришлар киритган. Унинг фаолиятидан ва сиёсатидан комил, ҳам жисман, ҳам маънан етук инсонни тарбиялаш мақсади устувор эканлигини англаш мумкин.

Амир Темурнинг шахс сифатидаги фаолиятини ўрганиш наинки ёшларимизга, балки ҳар биримизга зарур. Чунки, бугунги шароитда тараққиёт, тинчлик ва фаровонлик кўпинча кишиларнинг сиёсий илми, ақл-заковати, адолати, ҳушёрлиги ва бошқа аҳлоқий сифатларига боғлиқ бўлиб, уларга путур етган тақдирда жамиятда маънавий бўшлиқ келиб чиқиши мумкин. Чунончи, бугунги кун кишиси юксак ахлоқий сифатлар эгаси, нозиктаъб, сезгир, тезкор ҳаракатлана оладиган, ҳар қандай вазиятларда ҳам адолат билан ўз мақсадларини амалга ошира оладиган, низо ва камчиликларни Амир Темур каби вақтдан ютиш, рақибга имкон бериш, низоларни имконият даражасида тинчлик билан бартараф этадиган, эзгу сифатларига эга бўлган, инсонинг руҳиятини англай оладиган, иродали ва бошқарув илмини пухта эгаллаган бўлиши керак.

Амир Темур айниқса вазирлар масаласида адашмасликка интилган. У ўзининг тузган “Темур тузиклари” асарида “ҳушёр подшоҳ қошида адолатли вазирлар тутсин, токи подшоҳ зулм қилгудек бўлса, одил вазир унинг чорасини топсин. Агарда вазир золим бўлса, кўп ўтмай салтанат уйи қулайди” деб таълим берган.

[20] Ўлжаева Ш. Амир Тему рва Темурийлар даврида миллий давлатчиликнинг ривожланиши. Т., “Фан”, 2005, 47-бет.

Соҳибқиронинг “Темур тузиклари” таълимоти бизга ҳар ишдан огоҳ ҳамда хушёр бўлиш лозимлигини англатади, чунки бу тинчлик ва фаровонлигимизнинг таъминлашга таъсир кўрсатади. Лоқайдлик, совуққонлик, ўз ишини бошқаларга ишониб топшириб қўйиш кишининг ҳалокатига сабаб бўлиши мумкин.

Амир Темур ўз халқининг моддий аҳволини яхшилашни ҳукмдорнинг муқаддас бурчларидан бири деб билган. У борада шундай деган: “Қайси бир подшоҳ ўз раияти ва аркони давлати молига тамаъ қилса, у девор устида туриб, ўзи турган деворнинг остини ковлаб бўшатган кишига ўхшайди. Агар девор қуласа, у кишининг ҳалок бўлиш хавфи бордир”.

У подшоҳ қудратини Мовароуннаҳр узра ёзилган улкан бир чодирга ўхшатган. “Бу чодирни кўтариб турувчи устунлари - адолатдир; чодирни тортиб турган арқонлар - инсофдир; чодирни мустаҳкам тутиб турган қозиқлар эса - ҳақиқатдир. Худди қозиқлар ва арқонлар чодирни тутиб турганидек, ҳукмдор шу уч сифати билан қудратини тиклаб турмоғи керак”, - деб билган. Демак унинг шахси ва фаолиятида **адолат, инсоф ва ҳақиқат** каби тушунчалар устинлик қилган. Бу эса фуқаролар ва унинг душманлари олдида катта ҳурмат қозонишига сабаб бўлган. Демакки, Амир Темурнинг шахсида адолат, инсоф, ҳақиқат бир-бирини тўлдирувчи ва давлат бошқарувининг асосини ташкил этувчи таянч ҳисобланган.

Адабиётлар рўйхати:

1. Каримов И.А. Амир Темур – фахримиз, ғуруримиз. Т., “Ўзбекистон”, 1996, 28-бет.

2. Темур тузуклари. Т., Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991, 91-бет.

3. Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи. 2-китоб, Т., “Меҳнат” нашриёти, 1992, 86-бет.

4. Марсель Брион. Менким, соҳибқирон – жаҳонгир Темур. –Т.: “Янги аср авлоди”, 2011, 557-бет.

5. Азимов Э. Амир Темур салтанати. Т., Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991, 24-бет.

6. Черевенский В. Амир Темур. Т., “Ёзувчи” нашриёти, 1993, 172-бет.

7. Ўлжаева Ш. Амир Тему рва Темурийлар даврида миллий давлатчиликнинг ривожланиши. Т., “Фан”, 2005, 47-бет.

8. Аҳмедов А. Амир Темур ҳақида ҳақиқат. //”Фан ва турмуш” журнали, 1990, 9-сон, 8-бет.

9. Хидиров А. Соҳибқироннинг умрбоқий қадриятлари. //”Ҳуқуқ” газетаси, 2008 йил 3 апрель

TOSHKENT VOHASI – BUYUK IPAK YO’LI CHORRAHASIDA

Xurramov Boburmirzo
Chirchiq davlat pedagogika universiteti I-bosqich talabasi
F-*mail:* @bxurramov855@gmail.com Tel: 94 216 68 06,

Annotatsiya: Mazkur maqolada Toshkent vohasining geosiyosiy va madaniy tarixidagi o‘rni Buyuk Ipak yo‘li kontekstida tahlil etiladi. Toshkent vohasi qadim zamonlardan boshlab Yevropa bilan Osiyo o‘rtasidagi savdo yo‘llarining chorrahasida joylashgani bois, nafaqat iqtisodiy, balki madaniy, ilmiy va diplomatik almashinuvlarning muhim markazlaridan biri bo‘lgan. Maqolada voha hududidan o‘tgan asosiy karvon yo‘llari, savdo-sotiq markazlari, shaharlarning rivojlanishi, madaniy integratsiya jarayonlari va xalqlararo aloqalar tarixiy manbalar asosida yoritiladi. Shuningdek, Toshkent vohasining strategik joylashuvi unga doimo harbiy-siyosiy jihatdan katta ahamiyat berilishiga olib kelgani ta’kidlanadi. Vohadagi madaniyatlar uyg‘unligi, hunarmandchilik va ilm-fan rivojidagi o‘rni ham alohida o‘rganiladi. Ushbu maqola Toshkent vohasining mintaqaviy va global tarixdagi tutgan o‘rni haqida yanada chuqurroq tasavvur hosil qilishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Toshkent vohasi, Buyuk Ipak yo‘li, savdo yo‘llari, karvon yo‘li, tarixiy shaharlar, madaniy aloqalar, xalqaro savdo, hunarmandchilik, ilm-fan, sivilizatsiyalar chorrahasi, geosiyosiy ahamiyat, xalqlararo muloqot, tarixiy meros.

Annotation: This article analyzes the geopolitical and cultural significance of the Tashkent Oasis in the context of the Great Silk Road. Due to its strategic location at the crossroads of trade routes between Europe and Asia since ancient times, the Tashkent Oasis became a vital center not only for commerce but also for cultural, scientific, and diplomatic exchanges. The article explores the main caravan routes passing through the region, trade centers, urban development, processes of cultural integration, and interethnic relations based on historical sources. It also emphasizes the military-political

importance of the region throughout history. The oasis's role in fostering cultural harmony, craftsmanship, and scientific advancement is examined in detail. This study contributes to a deeper understanding of the Tashkent Oasis's role in both regional and global history.

Keywords: Tashkent Oasis, Great Silk Road, trade routes, caravan route, historical cities, cultural exchange, international trade, craftsmanship, science, crossroads of civilizations, geopolitical significance, interethnic dialogue, historical heritage.

Аннотация: В данной статье рассматривается геополитическое и культурное значение Ташкентского оазиса в контексте Великого шелкового пути. Благодаря своему стратегическому расположению на пересечении торговых путей между Европой и Азией, Ташкентский оазис с древнейших времен играл важную роль не только как торговый центр, но и как место культурного, научного и дипломатического обмена. В статье освещаются основные караванные маршруты, проходившие через регион, торговые центры, развитие городов, процессы культурной интеграции и межэтнические связи на основе исторических источников. Также подчёркивается военно-политическое значение региона на протяжении истории. Особое внимание уделяется вкладу оазиса в развитие ремесел, науки и культурной гармонии. Данное исследование способствует более глубокому пониманию роли Ташкентского оазиса в региональной и мировой истории.

Ключевые слова: Ташкентский оазис, Великий шелковый путь, торговые маршруты, караванные пути, исторические города, культурный обмен, международная торговля, ремесленничество, наука, перекрёсток цивилизаций, геополитическое значение, межэтнический диалог, историческое наследие.

Toshkent vohasi O‘rta Osiyoning eng qadimiy va boy tarixga ega hududlaridan biri hisoblanadi. Uning strategik joylashuvi — qadimda Yevropa va Osiyo o‘rtasida o‘tgan yirik savdo yo‘llarining kesishgan nuqtasida joylashgani — bu mintaqani nafaqat iqtisodiy, balki madaniy, siyosiy va sivilizatsiyaviy nuqtayi nazardan ham muhim markazga aylantirgan. Ayniqsa, Buyuk Ipak yo‘lining shakllanishi va rivojlanishida Toshkent vohasi muhim o‘rin tutgan. Bu voha orqali o‘tgan karvon yo‘llari orqali Sharq va G‘arb o‘rtasida mahsulotlar almashinuvi, diniy va madaniy g‘oyalar, ilm-fan yutuqlari va texnologiyalar tarqalgan. Buyuk Ipak yo‘li nafaqat savdo-sotiq

tarmog‘i, balki tamaddunlar o‘rtasidagi muloqot ko‘prigi bo‘lib xizmat qilgan. Toshkent vohasi esa bu muloqotlar chorrahasida joylashgan holda, o‘ziga xos madaniyat, til, urf-odat va diniy qadriyatlarning shakllanishiga sabab bo‘lgan. Tarixiy manbalarda Toshkent vohasining qadimiy shaharlaridan biri — Shosh shahri miloddan avvalgi IV asrlarda mavjud bo‘lganligi qayd etilgan bo‘lib, bu yerda ishlab chiqarish, hunarmandchilik, yozuv va davlat boshqaruvi tizimlari ilgari rivojlanganini ko‘rsatadi[21].

Toshkent vohasi orqali o‘tgan yo‘llar Choch, Samarqand, Buxoro, Xiva va boshqa shaharlar bilan bog‘langan bo‘lib, bu hududda doimiy savdo, diplomatik aloqalar, ilmiy va madaniy almashinuvlar amalga oshib turgan. Ayniqsa, Islom davrida bu voha yirik ilmiy va diniy markazlardan biriga aylangan[22]. Vohaning bunday tarixiy o‘rni, uning Buyuk Ipak yo‘li kontekstida naqadar muhim bo‘lganini ko‘rsatadi. Ushbu maqolada Toshkent vohasining mazkur yo‘ldagi geosiyosiy va madaniy o‘rni, tarixiy shaharlarning rivoji, madaniyatlararo aloqalar, iqtisodiy faoliyat va ilm-fan almashinuvi jarayonlari tahlil qilinadi.

Toshkent vohasi O‘rta Osiyoning markaziy qismida, Chirchiq va Ohangaron daryolari havzasida joylashgan bo‘lib, tabiiy resurslarga boyligi, unumdor yerlarining kengligi va suv manbalarining yetarliligi uni qadim zamonlardan boshlab aholi zich yashaydigan hududga aylantirgan[23]. Vohaning tabiiy-iqlimiy sharoitlari bu yerda sug‘oriladigan dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikning erta rivojlanishiga zamin yaratdi. Bu holat esa, uni karvonlar to‘xtaydigan, dam oladigan va savdo qiladigan muhim manzilga aylantirdi.

Buyuk Ipak yo‘li eramizdan avvalgi II asrda Xitoy imperatori U-di davrida faoliyati boshlanganidan so‘ng, Sharq va G‘arbni bog‘laydigan yirik tarmoq sifatida rivojlandi. Toshkent vohasi bu yo‘lning muhim chorrahalaridan biri sifatida ko‘plab karvonlar, sayyohlar, elchilar va olimlar o‘tgan maskanga aylandi[24]. Xitoy ipaklari, Hindiston ziravorlari, Eron gilamlari, Arab qo‘lyozmalari va Yevropa metall buyumlari Toshkent orqali almashilgan.

Bu hududda joylashgan qadimiy Choch (Toshkent) shahri savdo-sotiq, hunarmandchilik, va diplomatiya sohalarida rivojlangan markaz sifatida

[21] Avezov, M. O‘rta Osiyoning qadimiy shahar madaniyati, Toshkent: Fan, 1985. – B. 44–45.
[22] Karimov, S. Islom sivilizatsiyasi va Markaziy Osiyo, Toshkent: Sharq, 2002. – B. 88–90.

[23] Axmedov, R. Toshkent vohasining qadimiy tarixi, Toshkent: Fan, 1992. – B. 12–15.
[24] Hill, J.E. The Silk Road: A New History, Princeton University Press, 2009. – P. 97–99.

tanilgan. Arab tarixchilari va geograflari al-Istaxriy, al-Maqdisiy va Ibn Havqal asarlarida Choch shahri haqida atroflicha ma'lumotlar berilgan[25]. Ularning guvohliklariga ko‘ra, bu shahar savdogarlar va sayohatchilar uchun xavfsiz va boy madaniyatga ega nuqta bo‘lgan.

Buyuk Ipak yo‘li faqatgina tovarlar emas, balki g‘oyalar, tillar, diniy qarashlar, texnologiyalar va san’at shakllarining yoyilishi uchun ham vosita bo‘lgan. Toshkent vohasida zardushtiylik, buddaviylik, nasroniylik va keyinchalik islom dini tarqalgan. Bu esa vohaga diniy bag‘rikenglik, madaniyatlar uyg‘unligi va ilmiy-falsafiy fikrlarning shakllanishini olib kelgan[26].

Islom davrida Toshkent vohasida madrasalar, kutubxonalar va masjidlar faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, bu yerda ko‘plab ulamolar yetishib chiqqan. Jumladan, Abu Bakr Qaffol Shoshiy (IX asr) bu vohaning diniy-ma’naviy taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan. Uning faoliyati Toshkent vohasini diniy markazlardan biriga aylantirgan[27].

Toshkent vohasi Buyuk Ipak yo‘li orqali o‘tgan karvonlar uchun zarur mahsulotlar – keramika, metall buyumlar, ipak matolar, yog‘och va to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqargan hunarmandchilik markaziga aylangan. Arxeologik tadqiqotlar Toshkentning qadimiy hududlarida topilgan kulolchilik buyumlari, tangalar, zargarlik ashyolari bu yerda yuksak madaniyat bo‘lganini tasdiqlaydi[28]. Vohaning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi va xavfsiz savdo muhiti karvonlarning ushbu hududda to‘xtashi, bozorlar va rabotlarning rivojlanishiga olib kelgan. Bu esa Toshkent vohasining iqtisodiy jihatdan doimiy faol bo‘lishini ta’minlagan.

Toshkent vohasi tarixiy jarayonlar davomida O‘rta Osiyo sivilizatsiyalarining yuragi, madaniyatlar kesishgan nuqtasi va xalqaro savdo aloqalarining markazlaridan biri bo‘lib xizmat qilgan. Uning Buyuk Ipak yo‘li chorrahasida joylashgani vohani o‘z davrining eng muhim iqtisodiy, madaniy va siyosiy markazlaridan biriga aylantirgan. Vohadan o‘tgan karvon yo‘llari orqali nafaqat tovarlar, balki diniy-falsafiy g‘oyalar, ilm-fan yutuqlari va san’at an’analari ham keng tarqalgan. Bu esa Toshkent vohasida ko‘p asrlik boy madaniyat va ko‘p qatlamli tarixiy meros shakllanishiga zamin yaratgan.

[25] Barthold, V.V. Turkestan v epokhu mongolskogo nashestviya, Moskva: Nauka, 1965. – S. 58–60.
[26] Beruni, A. Osor-ul-boqiya, tarjima: Qayumov S., Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1990. – B. 174.
[27] Islomov, A. Toshkent vohasining diniy ulamolari tarixi, Toshkent: Sharq, 2004. – B. 54–56.
[28] Kadirov, N. O‘zbekistonda arxeologik yodgorliklar, Toshkent: Fan, 1980. – B. 67–70.

Savdo-sotiqning rivojlanishi, hunarmandchilik markazlarining paydo bo‘lishi, ilmiy va diniy markazlarning shakllanishi — bularning barchasi Toshkent vohasining Buyuk Ipak yo‘lidagi ahamiyatini tasdiqlovchi omillardir. Ayniqsa, vohaning o‘zaro madaniy aloqalarga ochiqligi va geosiyosiy qulay joylashuvi uni doimiy harakatdagi va rivojlanib boruvchi makonga aylantirgan. Bugungi kunda ham Toshkent vohasining tarixiy ahamiyatini chuqur o‘rganish mintaqaning sivilizatsiyaviy taraqqiyotidagi o‘rnini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ashirov A.A. O‘zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlari. –T., 2009.

2. Toshkent viloyati., O‘z ME. T-harfi., Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

3. Воронец М.Э. Браслеты бронзовой эпохи Музея истории АН УзССР. Труды., Ташкент., 1948.

4. Кузмина Е.Е. Арии-путь на юг. М., “Летний сад”,2008.

5. Оболдуева Т.Г. Погребения эпохи бронзы в Ташкентской области. КСИИМК, Вып. №59.

6. Normurodovna, H. Z. (2024). Building Digital Literacy As An Editorial Problem. Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments, 2(4), 56-64

7. Haydarova, Z. N. (2023). MAKTAB O ‘QUVCHILARIGA RAQAMLI O ‘RGANISH KO ‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI. Academic research in educational sciences, 4(CSPU Conference 1), 1008-1013.

8. Haydarova, Z. N. (2024). INNOVATIVE METHODS AND PEDAGOGICAL–PSYCHOLOGICAL APPROACH TO THE FORMATION OF DIGITAL LITERACY IN MODERN STUDENTS. Western European Journal of Historical Events and Social Science, 2(10), 27-31

9. Haydarova, Z. N. (2024). MOTIV VA MOTIVATSIYA - O„QUVCHINING QIZIQISHLARI, BILISH DARAJASI HAMDA IJTIMOIY MUHIT TA’SIRIDA SHAKLLANADIGAN OMIL SIFATIDA. SOHIBQIRON YULDUZI Ijtimoiy-tarixiy, tarixiy va ommabop jurnal, № 1-Maxsus son 2024 yil, 29-36.

19. Haydarova, Z. N. (2024). Individual yondashuv asosida hozirgi zamon o‘quvchilarida raqamli savodxonlikni shakllantirish. Mug'allim, 3(3), 199-206.

20. Haydarova, Z. N. (2023). Innovative Methods of Forming Students' Digital Learning Skills. International Journal on Integrated Education, 6(12), 37-42.

21. Haydarova, Z. N. (2023). Ta'lim sohasida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish zarurati. UzMU xabarlari, 1(10), 225-227.

22. XZ Normurodovna (2025). DIGITIZATION IS A MODERN APPROACH TO THE EDUCATIONAL SYSTEM, THE NATIONAL TEACHING SYSTEM. Educator Insights: Journal of Teaching Theory and Practice, 1(Vol. 1 No), 279-287.

ЎЗБЕКИСТОНДА АМАЛГА ОШИРИЛГАН МАЪМУРИЙ-ҲУДУДИЙ ИСЛОҲОТЛАР НАТИЖАСИ

To'rayeva Dilafro'z Rahmonberdi qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
***Ilmiy rahbar:* Sulaymanova Shoxsanam Absamatovna**

АННОТАЦИЯ. *Ушбу мақолада, XX асрнинг биринчи чорагида Ўрта Осиёда амалга оширилган районлаштириш жараёнлари ва бу ҳудудда янги ташкил этилган республикалар ва мухтор вилоятлар тараққиётида ўзига хос ўринга эгалиги турли-хил манбалар асосида ёритилинган. Ўлкадаги ижтимоий-сиёсий, маъмурий-иқтисодий умумий ҳолатлар хусусида хам ҳақида сўз юритилади.*

Калит сўзлар: *маъмурий-ҳудудий ўзгариш, Ўзбекистон ССР вилоятлари ва районлари, комиссия, маъмурий ҳудудлар, бошқарув тизими, округ, аҳолининг этник таркиби, ирригация соҳаси.*

Ўрта Осиёда XX асрнинг 20 йилларида янгидан барпо этилган республикалардаги маъмурий бирликлар, уларнинг чегаралари ва ҳудудини аниқлаш бўйича тайёргарлик кўрилиш жараёнлари, хусусан, Ўзбекистон ССРда ўтказилган маъмурий ва иқтисодий районлаштириш, республикада биринчи марта ташкил топган районлар, бир томондан халқ хўжалиги тараққиёти ва иқтисодиёти учун, иккинчи томондан, янги маъмурий ҳудудларга бўлиш ва бошқарув тизимида муҳим аҳамият касб этганлигини тарихий манбалардан кузатиш мумкин.

Ўзбекистон ССР территориясида ягона маъмурий бўлиниш: вилоят, уезд, волость ва қишлоқ советларига ажратиш жорий қилинди. Ўзбекистонда дастлаб етита вилоят: Зарафшон, Қашқадарё, Самарқанд,

Сурхондарё, Тошкент, Фарғона, Хоразм, марказдан бошқариладиган битта автоном район (Конимех райони) ташкил қилинади. Бу пайтда Ўзбекистонда 23 та уезд ва 240 та волость бўлган. Шунингдек, Тожикистон АССР ҳам Ўзбекистон таркибига кирган. *Ўзбекистон ССР* ташкил топган 1925 йилда унинг майдони 184 836 км^2 ёки 164 150 вёрст кв^2 бўлган. Бу пайтда Ўзбекистон ССР аҳолиси 4 058 500 кишидан иборат эди[1: –С. 91.]

Ўзбекистон ССР Марказий ревкомининг қарори қабул қилиниб, Ўзбекистондаги вилоятлар, улар таркибидаги уездларнинг маъмурий марказлари белгиланди ва шаҳарлар рўйхати тасдиқланди.

Ўзбекистон ССР вилоятлари:

1. Зарафшон вилояти таркибида 4 та уезд, улар 23 та волостга бўлинган. Маркази – Бухоро шаҳри.

2. Самарқанд вилояти таркибида 4 та уезд, улар 57 та волостга бўлинган. Маркази – Самарқанд шаҳри.

3. Сурхондарё вилояти таркибида 3 та уезд, уездлар 10 та волостга бўлинган. Маркази – Шеробод шаҳри.

4. Тошкент вилояти таркибида 2 та уезд, улар 26 та волостга бўлинган. Маркази – Тошкент шаҳри.

5. Фарғона вилояти таркибига қуйидаги 4 та уезд, улар 72 та волостга бўлинган. Маркази – Қўқон шаҳри.

6. Хоразм вилояти таркибида 3 та уезд, улар 23 та волостга бўлинган. Маркази – Хива шаҳри.

7. Қашқадарё вилояти таркибида 3 та уезд, улар 13 та волостга бўлинган. Маркази – Беҳбудий (ҳозирги Қарши) шаҳри [1: –С. 90,547].

Ўзбекистонда ҳам районлаштириш сиёсатини узил-кесил ўтказишга 1926 йили жиддий киришилди. 1926 йил март ойи бошларида Ўзбекистон Компартияси МК ҳузурида районлаштириш бўйича Марказий сиёсий комиссия ташкил қилинди. Комиссия таркибига 16 нафар киши киритилиб, унга Ўзбекистон ССР Ишчи-Деҳқон инспекцияси халқ комиссари Ахмадбек Мавлонбеков раис қилиб тайинланди. Марказий сиёсий комиссия томонидан ўз навбатида 4 та кичик комиссия: техникавий, илмий, совет қурилиши ва молиявий-иқтисодий каби кичик комиссияларни ташкил қилди. Техникавий кичик комиссия харита ва материаллар тайёрлаш, текшириш ва бошқа ишларни ташкил қилиш билан шуғулланди. Илмий кичик комиссия иқтисод, география, этнография фанлари ҳамда табиий-тарихий шарт-

шароит ва хусусиятларни яхши биладиган илмий ва практик ходимларни ўз атрофига тўплади ва хўжалик, сув тизими, алоқа йўллари ҳамда алоҳида районлар аҳоли таркибини жиддий ўрганиб, бу материаллар асосида районлаштиришнинг метод ва принципларини белгилади ва уларни муҳокама қилишга киришди. Совет қурилиши бўйича кичик комиссияси Советларнинг келгуси бошқарув системасини ҳал қилиши, мавжуд бўлган тўрт поғонали бошқарув бўғинини уч поғонали бошқарувга алмаштириши керак эди.

1926 йил 14 мартда бўлган Ўзбекистон Компартияси МК Ижроия бюроси мажлисида районлаштириш бўйича Марказий сиёсий комиссиянинг иш режаси тасдиқланди. Режага кўра комиссия фаолияти 1926 йил 1 апрель – 10 май кунлари Ўзбекистондаги барча областларда тавсифий текшириш ишларини ўтказиш билан бошланиши керак эди. Қарорда таъкидланишича, Ўзбекистонда районлаштириш ишларини 1926 йили якунлаш лозим эди. Бунинг учун 15-25 март кунларида жойларда область ва уезд сиёсий комиссиялари тузилиб, унинг таркибига обком секретари, облиспалком ва облплан раиси, уезд секретари, шунингдек, уезд исполкоми, область ер бошқармаси, сув хўжалиги бошқармаси, пахта комитети область конторaси раислари, қўшчи уюшмаси вакили ва бошқалар киритилди.

1926 йил май ойида бўлиб ўтган районлаштириш бўйича Марказий сиёсий комиссиянинг пленуми, Ўзбекистон Компартияси МК 2-чақириқ III пленуми ва бошқа мажлисларда ҳам районлаштириш масаласи асосий кун тартибида бўлди. Бу масала бўйича қилинган А. Мавлонбеков маърузалари ва қабул қилинган резолюцияларда районлаштириш сиёсатининг моҳияти кўрсатилган.

1926 йил 10 июнда Ўзбекистон ССР Советлари Марказий Ижроия Комитетининг биринчи чақириқ IV сессияси районлаштириш бўйича Марказий сиёсий комиссиянинг раиси А.Мавлонбековнинг асосий маърузасини [2.] тинглаб, эски маъмурий бўлинишнинг яшаб келаётган қолдиқларини тугатиш мақсадида, шунингдек, совет аппаратини оммага яқинлаштириш манфаатини кўзлаб, Ўзбекистон ССРда районлаштириш ўтказишга қарор қилди. Амалда бўлган 4 поғонали (қишлоқ совети, волость, уезд, вилоят) ўрнига маъмурий бўлинишдан 3 поғонали (қишлоқ совети, район, округ) маъмурий бўлинишга ўтиш, волостлар ва уездлар ортиқча бўлгани учун уларни тугатишга ва ўрнига зарурий сондаги маъмурий-иқтисодий марказлар барпо этишга қарор

қилинди; янгидан барпо этиладиган районлар бир-бири билан иқтисодий томондан яқинлашиши ва хўжалик томондан округларнинг қатъий тизимига бирлаштирилиши керак эди.

Умуман олганда, Ўрта Осиёда районлаштиришнинг, жумладан, Ўзбекистонда ҳам аҳолининг миллий таркиби, ирригация тизимининг узвийлиги, айрим районлар хўжалик шаклларининг йўналиши, аҳолининг иқтисодий алоқалари ва хўжалик ҳамда маданий ҳаётнинг бошқа муҳим омилларини ҳисобга олган ҳолда ўтказиш керак эди.

Хуллас, республика Марказий Ижроия Комитети кўрсатмаси асосида Ўзбекистонни районлаштириш комиссияси янги районлаштириш лойиҳасини ишлаб чиқди. Лойиҳа кенг омма томнидан муҳокама қилинди. Хусусан, қишлоқ советларининг ҳудуди ва чегарасини аниқлаш юзасидан бир қатор тузатишлар киритилди[3: – С. VI.].

Янги маъмурий бўлиниш лойиҳаси бўйича Ўзбекистон ССРда собиқ 7 та вилоят ўрнига 10 та округ: Андижон, Бухоро, Зарафшон [Ўрта Зарафшон], Қашқадарё, Самарқанд, Сурхондарё, Тошкент, Фарғона, Хўжанд ва Хоразм округлари барпо этилди [Тожикистон АССРдан ташқари]. Собиқ 23 та уезд ўрнига дастлабки 87 та район (туман) ташкил этилди. Республикада 239 та волость тугатилди, қишлоқ советларининг миқдори 1152 тадан 1720 тагача кўпайди, яъни 43,3% ошди. Бу пайтда Ўзбекистон ССР таркибида бўлган Тожикистон АССР ҳудуди алоҳида Тожикистон миллий округига ажратилди. У 12 та район ва 306 та миллий советлардан ташкил қилиниши кўрсатилди [3: – С. VI – VII.].

Ўзбекистон ССР Советлари МИК Президиумининг 1926 йил 19 июндаги қарори билан Ўз ССР Марказий районлаштириш комиссияси таркибини 40 кишидан иборат тасдиқлади: Ахмадбек Мавлонбеков (комиссия раиси), Е.Зелькина ва Каценнеленбоген (раис ўринбосарлари), Корастелев (масъул секретарь ва Президиум аъзоси) [4.]. Марказий комиссия томонидан 25 июнь – 7 июль кунларида ҳар бир вилоятдаги районлаштириш комиссияси маърузасини эшитиб, уларнинг мулоҳазаларини ва тайёрлаган лойиҳаларини Марказий комиссиянинг лойиҳаси билан солиштирди. 1926 йил 10 июлдан 12 августгача ишчи ва деҳқонлар томонидан охирги лойиҳа кенг муҳокама қилинди[5: – С.346 – 347.].

Районлаштиришнинг мақсад ва вазифалари аниқ бўлиб, кўзда тутилган барча ишлар амалга оширилгач, районлаштириш бўйича Ўрта Осиё комиссияси Президиумининг 1926 йил 19 августдаги қарорига биноан Ўз ССР Советлари МИК ҳузуридаги районлаштириш бўйича Марказий комиссия жойларга директива жўнатиб, районлаштириш масаласи бўйича тушунтириш, жумладан, қишлоқ советлари ҳақидаги фикрлар Советларга ўтказилаётган навбатдаги қайта сайловларгача давом этишини маълум қилди[6.]. (Ўзбекистон ССРда қишлоқ советларига қайта сайловлар 1926 йил 13 декабрда бўлиб ўтди. Сайловда 1144 та қишлоқ советларига раис ва аъзолар сайланди.)

1926 йил 16 сентябрда Ўрта Осиё районлаштириш комиссияси пленумида Ўзбекистон, Қирғизистон ва қисман Туркманистонда районлаштириш масалаларини ўтказиш кўриб чиқилди.

1926 йил 25 – 29 сентябрда Самарқандда Ўзбекистон ССР Советлари Марказий Ижроия Қўмитасининг V сессияси бўлиб, унда районлаштириш лойиҳаси, давлат бюджети ва иқтисодиёт аҳволи каби масалалар кўриб чиқилди ва тасдиқлади. Сессиянинг биринчи мажлисида районлаштириш лойиҳаси ҳақида Ўзбекистон ССР Марказий Ижроия Қўмитаси Президиуми раиси Йўлдош Охунбобоев маъруза қилди. У ўз маърузасида Ўзбекистон хўжалигидаги иқтисодий ҳолатни таҳлил қилиб, районлаштириш масаласи республиканинг келгуси тараққиёти учун муҳим роль ўйнашини таъкидлади. Й.Охунбобоев маърузаси юзасидан сессияда 14 нафар нотиқ гапирди. Бу масала сессиянинг ўзида ҳам кескин мунозара ва тортишувларга сабаб бўлди. Масалан, лойиҳада Сурхондарё округининг маркази сифатида кўрсатилган Шеробод ўрнига Қумқўрғон, Ўрта Зарафшон округининг маркази сифатида ёзилган Кармана ўрнига Мирбозор ёки Каттақўрғон шаҳарларини белгилаш, Нов районини Тошкентга эмас, балки Хўжанд округига киритиш, алоҳида Исфара районини ташкил қилиш каби масалаларда мунозара қизиб кетди. Комиссия томонидан бу фикрлар сўнгги марта ўрганилгач, районлаштириш ҳақидаги қарорининг асосий охирги лойиҳаси тайёрланиб, у 29 сентябрда сессия қатнашчилари ихтиёрига ҳавола қилинди. V сессия 1926 йил 29 сентябрь куни районлаштириш тўғрисида тарихий қарор қабул қилди. Бу қарор 1926 йил 18 октябрда “Қизил Ўзбекистон” ва “Правда Востока” газеталарида чоп этилди[7.]. Бу қарорга кўра Ўзбекистон ССРда маъмурий-иқтисодий районлаштириш амалга оширилди ҳамда вилоятлар, уездлар ва

волостлар тугатилди. Бу пайтда Ўзбекистон ССРда мавжуд бўлган 7 та вилоят, алоҳида Конимех қозоқ райони, 23 та уезд, 241 та волость ва 1163 та қишлоқ жамоаси ўрнига янги маъмурий бирликлар: 10 та округ, 87 та туман ва 1720 та қишлоқ шўроси (сельсовет) тузилди[3.].

Районлаштириш тўғрисидаги қарорнинг бошланиш қисмидан кейин Ўзбекистонда янги ташкил қилинган 10 та округ ва 87 та район (туман) номлари қуйидаги тартибда келтирилади:

Ўзбекистон ССР таркибидаги округлар ва районлар:

1. Хоразм округи – маркази Хива шаҳри; бутун Хоразм вилояти асосида; 10 та район (туман)дан иборат.

2. Бухоро округи – маркази Эски Бухоро шаҳри; тўлиқ Бухоро ва Ғиждувон уездлари асосида; 7 та райондан иборат.

3. Ўрта Зарафшон округи – муваққат маркази Кармана шаҳри; тўлиқ Кармана, қисман Нурота, Жиззах, Каттақўрғон уездлари ва Каттақўрғон шаҳри асосида; 6 та райондан иборат.

4. Самарқанд округи – маркази Самарқанд шаҳри; тўлиқ Самарқанд уезди, қисман Жиззах, Каттақўрғон, Нурота уездлари асосида; 10 та райондан иборат.

5. Тошкент округи – маркази Тошкент шаҳри; бутун Тошкент вилояти асосида; 11 та райондан иборат.

6. Хўжанд округи – маркази Хўжанд шаҳри; Наманган, Конибодом, Хўжанд уездлари асосида; 4 та райондан иборат.

7. Қўқон округи – маркази Қўқон шаҳри; тўлиқ Қўқон уезди; қисман Наманган, Фарғона (Марғилон) уездлари асосида; 11 та райондан иборат.

8. Андижон округи – маркази Андижон шаҳри; тўлиқ Андижон уезди, қисман Фарғона (Марғилон), Наманган, Қўқон уездлари; 12 та райондан иборат.

9. Сурхондарё округи – муваққат маркази Шеробод шаҳри; бутун Сурхондарё вилояти асосида; 6 та райондан иборат.

10. Қашқадарё округи – маркази Беҳбудий [ҳозирги - Қарши] шаҳри; бутун Қашқадарё вилояти асосида; 8 та райондан иборат.

11. Алоҳида Конимех тумани – маркази Конимех; собиқ Бешработ, Аю-Терен, Бойметантек ва Тошқудуқ волостлари асосида тузилган[8.].

Қарорда Ўзбекистон ССР Советлари МИК Президиумига лойиҳада кўзда тутилган қишлоқ советларининг сони ва таркиби масаласи 2 ҳафта муддат ичида ҳал қилиниши ҳамда аҳоли пунктлари билан

биргаликда уларнинг номлари матбуотда эълон қилиниши ҳақида сўз боради. Хуллас, Ўзбекистонда ўтказилган районлаштириш амалга 1927 йил февраль ойи ўрталарида якунланди[9.].

1926 йилда ўтказилган районлаштириш бу ҳудудда янги тузилган республикалар ва автоном областлар тараққиётида ўзига хос ўрин тутади. Хусусан, Ўзбекистон ССРда 1926 йил сентябрда ўтказилган маъмурий ва иқтисодий районлаштириш, республикада биринчи марта ташкил топган 87 та район (туман), бир томондан халқ хўжалиги тараққиёти ва иқтисодиёти учун, иккинчи томондан, янги маъмурий ҳудудларга бўлиш ва бошқарув тизимида муҳим аҳамият касб этди.

Хулоса қилиб айтганда, Ўзбекистон ССРни янги округлар ва районларга ажратиш Совет аппарати ишларини яхшилашга, уни аҳолига яқинлаштиришга, бошқарув идораларига сарф этиладиган маблағни камайтиришга имкон берди ва республика ишлаб чиқариш кучларининг ривожланишини таъминлади. Шунингдек, Ўрта Осиёда ўтказилган ҳам иқтисодий, ҳам маъмурий районлаштириш сиёсати Марказ манфаатларига хизмат қилди. Совет ҳокимияти ва большевиклар районлаштириш натижаларидан ўз мақсадлари йўлида фойдаланишга уриндилар.

Адабиёт ва манбалар рўйхати:

1. Вся Средняя Азия. Справочная книга на 1926 хоз. год. С приложением схематической карты Средней Азии. – Ташкент: 1926. – С. 90.; NO Maxamatjonovich. ZONING POLITICS AND CONSEQUENCES IN UZBEKISTAN. Journal of Ethics and Diversity in International Communication, Volume:1Issue: 5, October -2021.-Pp.62-66. www.openaccessjournals.eu.

2. А.Мавлонбеков “Ўз ССРда районлаштириш тўғрисида”ги // “Правда Востока” газетаси, 1926 йил 25 июнь.; О.М.Норматов. Туркистон Республикасида районлаштириш сиёсати ўтказилиши // Ўтмишга назар. – Т. 2020 й. 2- МАХСУС СОН – Б. 261-267.

3. Материалы по районированию Узбекистана. Выпуск I. Краткая характеристика проектируемых округов и районов. – Самарканд: Издание ЦКР Уз, 1926. – С. VI.; Normatov Otabek Maxamatjonovich, Arslon Nafasov. (2021). About the History of the Tashkent District. Journal of Ethics and Diversity in International Communication. . www.openaccessjournals.eu

4. Вся Средняя Азия. Справочная книга на 1926 хоз. год. – Ташкент: Изд. Средне – Азиатского отделения Российско – Восточной торговой палаты, 1926;

5. Хакимов М.Х. Развитие национальной советской государственности в Узбекистане в период перехода к социализму. Основные проблемы. – Ташкент: “Наука”, 1965

TURKISTON, BUXORO VA XORAZM RESPUBLIKALARIDAGI AYRIM IJTIMOIY-SIYOSIY JARAYONLAR XUSUSIDA

Sharofova Fayyoza Nuriddin qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
***Ilmiy rahbar:* Sulaymanova Shoxsanam Absamatovna**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiston mintaqasida sovet hokimiyatining o‘rnatilishi arafasidagi va undan keyin dastlabki davrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar haqida so‘z yuritiladi. Bundan tashqari dastlabki sovet hokimiyatining Buxoro va Xorazmda ham qaror topish jarayonlari turli-tuman manbalar asosida yoritilingan.

Kalit so‘zlar: Turkiston Muxtoriyati, Turkiston ASSR, BXSR, XXSR, Yosh xivaliklar, Yosh buxoroliklar, Turkiston Iqtisodiy Kengashi, siyosiy o‘zgarishlar

Turkiston o‘lkasining yirik shaharlari bo‘lgan Toshkent, Samarqand, Skobelev (hozirgi Farg‘ona), Andijon va boshqa katta shaharlarda 1917 yil noyabrda sovet hokimiyati o‘rnatildi. Bolsheviklar va so‘l eserlar xuddi Rossiyaning markaziy shaharlari bo‘lgan Petrograd va Moskvada bo‘lgani singari Turkistonda ham hokimiyatni zo‘ravonlik bilan bosib oldilar. 1917 yil 15 – 22 noyabrda Toshkentda bo‘lib o‘tgan Turkiston Sovetlari ishchi, soldat va krestyan deputatlarining III o‘lka s’ezdida F.Kolesov boshchiligida Turkiston o‘lka Xalq Komissarlari Soveti tashkil qilindi. Biroq o‘lkadagi dastlabki sovet hukumati tarkibiga saylangan 15 nafar “xalq komissarlari” tarkibida birorta ham mahalliy aholi vakillari kiritilmadi.

Bu holdan qattiq norozi bo‘lgan Turkiston taraqqiyparvarlari va jadidlari hamda demokratik kayfiyatdagi milliy siyosiy tashkilotlarning vakillari, xususan, “Sho‘roi Islomiya” hamda Turkiston o‘lka Musulmonlari Sho‘rosi (Milliy Markaz) vakillarining katta qismi Toshkentdan Farg‘ona vodiysining muhim siyosiy va madaniy markazi Qo‘qon shahriga kelib joylashdilar. Ular safida Mustafo Cho‘qay va Mahmudxo‘ja Behbudiy singari taniqli siyosiy arboblar bor edi.

Qo‘qon shahrida 1917 yil 26 – 28 noyabrda (yangi hisob bilan 9 – 11 dekabrda) bo‘lgan Butunturkiston musulmonlarining favqulodda IV qurultoyida Turkiston Muxtoriyati hukumati tashkil qilindi. Turkiston Muxtoriyati hukumatining Bosh vaziri lavozimida avval Muhammadjon Tinishboev, so‘ngra Mustafo Cho‘qay samarali faoliyat ko‘rsatdi. Biroq muxtoriyat hukumatining faoliyati Toshkentda hokimiyatni zo‘ravonlik bilan egallagan bolsheviklar va so‘l eserlar hokimiyatiga yoqmadi. Ular 1918 yil yanvar oyi oxiri va fevral oyi boshlarida Toshkent, Qizil O‘rda, Samarqand va boshqa yirik shaharlardan qurolli otryadlar (ular asosan qizil gvardiyachilar, dashnoq drujinalari va boshqalardan iborat bo‘lgan) jo‘natib, 1918 yil 22 fevralda Qo‘qon shahrini bosib olishdi hamda Turkiston Muxtoriyati hukumatini tugatishdi[1.]. Qo‘qon shahri va atroflari talon-toroj qilindi, o‘n mingdan ortiq tinch aholi o‘ldirildi. Musulmonlar ommaviy ravishda qirg‘in qilindi[2.].

Turkiston Muxtoriyati hukumati ag‘darib tashlangach, milliy taraqqiyparvarlar va istiqlolchilar qo‘lga qurol olib, sovet rejimi va bolsheviklarga qarshi qurolli harakatni boshlab yubordilar. Ular mustaqillikni faqat qo‘lga qurol yordamida qo‘lga kiritilishiga umid bog‘ladilar. Sovet hokimiyati yillarida “bosmachilar” deb qoralangan bu halq farzandlari aslida istiqlolchilar edi.

Bundan tashqari 1918 yil boshlaridan boshlab Turor Risqulov, Toshxo‘ja Ashurxo‘jaev, Nazir To‘raqulov, Nizomiddin Xo‘jaev, Sultonxo‘ja Qosimxo‘jaev singari bir gurux mahalliy millat vakillari sovet hokimiyati tomoniga o‘tib, bolsheviklar partiyasiga a’zo bo‘lishdi. Keyinchalik tarixiy adabiyotlarda “milliy kommunistlar” nomi bilan tilga olingan bu milliy rahbar xodimlar sovet hokimiyati idoralarida turli lavozimlarda faoliyat ko‘rsatishdi.

1918 yil 20 aprel – 1 mayda bo‘lib o‘tgan Turkiston o‘lka Sovetlarini V s’ezdida RSFSR tarkibida Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi (TASSR) tuzildi[3.]. S’ezd delegatlari sovet davlati va bolsheviklar partiyasining rahbarlari V.I.Lenin va I.V.Stalinning ko‘rsatmasi asosida 30 aprelda “Rossiya Sovet Federatsiyasining Turkiston Sovet Respublikasi haqidagi Nizom”ni qabul qildilar. Ushbu Nizom Turkistonda avtonom respublika tuzilganligini e’lon qildi.

Mazkur s’ezdda Turkiston ASSRning qonun chiqaruvchi organi – 36 kishidan iborat (18 nafardan bolsheviklar va so‘l eserlar kirgan) Markaziy Ijroiya Komitetini saylanadi. Turkiston ASSR MIK raisi qilib Markazdan yuborilgan favqulodda komissar L.A.Kobozev va ham rais qilib A.Solkin

saylandi. Shuningdek, Turkiston ASSR Xalq Komissarlari Soveti tarkibiga 16 nafar kishi (9 nafar bolshevik va 7 nafar so‘l eser) kiritildi. F.Kolesov Turkiston ASSR XKS raisi qilib saylandi. Turkistondagi sovet hokimiyati organlari tarkibiga birinchi marta mahalliy millat vakillaridan 4 kishi: Safo Jo‘raboev, Sobir Yusupov, Sh.Ostonboev, S.Azimboev Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya Komiteti a’zoligiga saylandi hamda Sa’dullaxo‘ja Tursunxo‘jaev (Sog‘liqni saqlash xalq komissari) va Toshxo‘ja Ashurxo‘jaev (Milliy ishlar xalq komissari) Turkiston ASSR Xalq Komissarlari Soveti tarkibiga hukumat a’zosi sifatida kiritildi[4.].

1917 – 1918 yillarda Rossiya va Turkistonda yuz bergan siyosiy o‘zgarishlar Xiva xonligi va Buxoro amirligi hududiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmadi. Yosh xivaliklar va Yosh buxoroliklar bu hududlarda siyosiy hokimiyatni egallash, monarxiyaga asoslangan podsholik tuzumi o‘rniga avval konstitutsiyaviy monarxiya, so‘ngra demokratik xalq respublikasi o‘rnatish fikri bilan chiqib, Sovet Rossiyasi va Turkiston ASSRdagi bolsheviklar bilan hamkorlik qildilar.

Xivada 1920 yil fevral oyi boshlarida kommunist Mulla Jumaniyoz Sultonmurodov raisligida 5 kishidan iborat Muvaqqat hukumat tashkil qilindi. Bu paytda asosan Toshkentda bo‘lgan Polvonniyoz Hoji Yusupov boshchiligidagi Yosh xivaliklar inqilobiy komitetixonlik tuzumi ag‘darilgandan so‘ng Xivaga qaytib keldi. 1920 yil 27 – 30 aprelda Xivada bo‘lib o‘tgan Butunxorazm xalq vakillarining I qurultoyida Xiva xonligi bekor qilindi hamda Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tuzilganligi e’lon qilindi. Qurultoyda Polvonniyoz Hoji Yusupov boshchiligida Xorazm Xalq Nozirlar Sho‘rosi tashkil qilindi. Hukumat tarkibiga o‘zbeklardan tashqari turkman, qoraqalpoq, qozoq va tatarlar ham kiritildi. Unda XXSRning muvaqqat konstitutsiyasi qabul qilindi[5.].

Sovet hukumati va bolsheviklar Xiva xonligini bosib olgach, asosiy e’tiborlarini mintaqadagi so‘nggi milliy davlat – Buxoro amirligini tugatishga qaratdilar. M.V.Frunze qo‘mondonligidagi Turkiston fronti jangchilari amirlik hududiga yaqin joylashtirilib, butun harbiy kuchlar 1920 yil avgust oyida Buxoroga hujum qilishga tayyorlab qo‘yildi.

1920 yil yozida Buxoro amirligida siyosiy vaziyat juda ham keskinlashdi. 25 avgustda qo‘mondon M.Frunze Turkiston fronti qo‘shinlariga “qo‘zg‘olon ko‘targan Buxoro mehnatkashlariga yordam ko‘rsatish to‘g‘risida” buyruq berdi. Jang harakatlariga siyosiy jihatdan rahbarlik qilish uchun Yangi Buxoro (hozirgi Kogon) shahriga Turkiston komissiyasi a’zosi va yangi tashkil

topgan RKP(b) MK Turkiston byurosi raisining o‘rinbosari Georgiy Safarov jo‘natildi. Qizil armiya tomonidan Buxoro shahriga hujum ham 29 avgustga o‘tar kechasi boshlandi. Hal qiluvchi janglar poytaxt Buxoro shahri darvozalari yaqinida ro‘y berdi[6.].

Xullas, 1920 yil 2 sentabrda Turkiston fronti qo‘shinlari qattiq janglardan so‘ng Buxoro shahrini egallashdi. 1920 yil 14 sentabrda bo‘lgan Xalq Nozirlar Sho‘rosi, Inqilobiy qo‘mita va Buxoro Kommunistik partiyasi Markaziy Komitetining umumiy yig‘ilishida Abdulqodir Muhitdinov raisligida 9 kishidan iborat Butunbuxoro Inqilobiy Qo‘mitasi (Markaziy revkom) hamda Fayzulla Xo‘jaev raisligida 11 kishidan tashkil topgan respublika hukumati – Xalq Nozirlar Sho‘rosi tashkil topdi[7.].

1920 yil 6 – 8 oktabrda Buxoro amirining yozgi saroyi Sitorai Mohi Xosada Butunbuxoro xalq vakillarining I qurultoyi bo‘ldi. Unda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashkil topganligi qonuniy tasdiqlandi.

1920 yil 13 sentabrda Moskvada RSFSR bilan XXSR (Xorazm Xalq Sovet Respublikasi) o‘rtasida Ittifoq shartnomasi, shuningdek, harbiy-siyosiy va iqtisodiy bitimlar tuzildi[8.]. Bu hujjatlar, bir tomondan, mamlakatdagi to‘ntarish natijasida o‘rnatilgan tuzumni mustahkamlashgan yordam bergan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, uning RSFSRga to‘liq qaramligini qonunlashtirdi.

1921 yil 4 martda Moskvada BXSR (Buxoro Xalq Sovet Respublikasi) bilan RSFSR o‘rtasida Ittifoq shartnomasi va iqtisodiy bitim tuzildi[9.]. Bu hujjatlar XXSR singari Buxoro Xalq Sovet Respublikasini ham RSFSRga harbiy, siyosiy va iqtisodiy jihatdan qaram bo‘lganligini qonun yo‘li bilan mustahkamladi[5.].

1920 – 1924 yillarda Turkiston ASSR, BXSR va XXSR sovet respublikalari sifatida faoliyat ko‘rsatdilar. Bu paytda Turkiston ASSR RSFSR tarkibiga avtonom respublika sifatida kirgan bo‘lsa, Buxoro va Xorazm respublikalari mustaqil davlat sifatida avval RSFSR va so‘ngra 1922 yil 30 dekabrda SSSR tuzilgach, u bilan o‘zaro munosabatga kirishdilar.

BXSRning tashqi siyosatida RSFSR bilan amalga oshirilgan hamkorlik munosabatlari xarakterlidir. RSFSR hukumati ikki o‘rtada tuzilgan shartnomalar, shuningdek, Buxorodagi muxtor vakillar orqali BXSR tashqi siyosatini nazorat qildi. Turkiston komissiyasining 1920 yil 10 sentabrda bo‘lib o‘tgan yig‘ilishida RSFSR hukumatining BXSRga nisbatan tutadigan siyosatining asosiy yo‘nalishlari deyarli belgilab berilgan edi. Yig‘ilishda har ikki mamlakat o‘rtasida mavjud bo‘lgan bojxona chegaralarini oldingi tartibda saqlab qolish, Buxorodan moddiy boyliklarni olib chiqib ketish, Buxoro

hududida mavjud bo‘lgan temiryo‘l tarmoqlarining BXSR ixtiyoriga o‘tishiga yo‘l qo‘ymaslik, barcha eski vakolatxonalarni tugatish, Buxoro va Xiva o‘rtasida o‘zaro vakillar ayirboshlashni yo‘lga qo‘yish, har ikki tomon vakolatxonalari ustidan RSFSR vakilining rahbarligini o‘rnatish, RSFSR manfaatlarini hisobga olgan holda Buxoroning Afg‘oniston bilan diplomatik munosabatlari saqlab qolinadi deb qaror qabul qilindi. 1920 yil 6 noyabrda RSFSR bilan BXSR o‘rtasida Ittifoq shartnomasi[9.], 1921 yil 4 mart kuni esa har ikki davlat o‘rtasida muvaqqat harbiy – siyosiy shartnoma tuzildi. Yuqoridagi shartnomalar BXSRning mustaqil tashqi siyosat yuritishini cheklashga qaratilgan edi. RSFSR vakillari Buxoroni moliyaviy tomondan ham o‘z nazoratlari ostida ushlab turishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirdilar. Bundan tashqari BXSRning tashqi bozordagi faoliyati masalasi ham RSFSR savdo tashkilotlari tomonidan nazorat qilinadigan bo‘ldi. Yirik miqdorda savdo ishlari olib boriladigan mamlakatlarda RSFSR savdo vakolatxonalari qoshida BXSRning vakolatxonalari ochilishiga ruxsat berildi.

Har ikki davlat o‘rtasida 1922 yil 9 avgustda bojxona bitimi imzolandi[10.]. Davlatlar o‘rtasida tuzilgan ushbu bojxona bitimi ham huquqiy jihatdan BXSR mustaqilligini cheklashga qaratilgan edi.

BXSR hukumati o‘z qo‘shnilari Turkiston ASSR va XXSR bilan o‘zaro tinchlik asosida hamkorlik munosabatlarini o‘rnatish tarafdori bo‘lgan edi. BXSR hukumati Turkistonda bosh konsullik, Xorazmda o‘z vakolatxonalarini tashkil qiladi. BXSR va XXSR o‘rtasida 1922 yil fevralda tuzilgan 15 moddadan iborat shartnoma har ikki mamlakat manfaatlarini aks ettirgan[11.]. Har ikki respublika o‘rtasida o‘zaro vakillar almashtirildi. Biroq BXSRning Turkiston bilan munosabatlari RSFSR organlarining ishtirokida olib borildi. 1921 yil 30 iyunda Buxorodan Turkistonga 500 000 pud g‘alla jo‘natish, uning 30 000 pudini darhol Farg‘ona viloyatiga yetkazib berish haqida Turkiston komissiyasi qaror qabul qilgan edi. Buxorodan Turkiston va Rossiyaga jo‘natilgan katta miqdordagi g‘alla mahsulotlari Farg‘ona va Samarqand viloyatlarida davom etayotgan ocharchilikni tugatishga xizmat qildi. Shuningdek,BXSR bilan Turkistonda faoliyat olib borgan “Xleboprodukt”, “Turkvino” va boshqa tashkilotlar bilan savdo-sotiq munosabatlari yo‘lga qo‘yildi.

Sovet hokimiyati va bolsheviklar mintaqani sovetlashtirish jarayonida turli iqtisodiy kengashlar va komissiyalar tuzishga alohida e’tibor qaratdi. Ana shunday iqtisodiy kengashlarning dastlabkisi 1921 yil fevral oyida Toshkentda tashkil etilgan Turkiston Iqtisodiy Kengashi (Turk EKOSO)

hisoblanadi. Turkiston ASSR viloyatlarida esa viloyat iqtisodiy kengashlari tuzildi. 1921 yil 6 oktabrda Turkiston ASSR MIK va XKS uning faoliyatini kuchaytirish maqsadida Nizom qabul qilindi. Nizomda Turkiston Iqtisodiy Kengashi Turkiston ASSRda oliy xo‘jalik organi bo‘lib, u o‘z faoliyatida Turkiston XKS va MIK oldida mas’ul ekanligi va uning barcha ko‘rsatma va qarorlari xalq komissarliklari va tashkilotlari uchun bajarilishi shart ekanligi ko‘rsatib o‘tildi[12.].

1921 yil 12 martda Buxoro Iqtisodiy Kengashihamda 1921 yil may oyida Xorazm Iqtisodiy Kengashi tashkil qilindi. Turkiston Iqtisodiy Kengashiga Nikolay Paskuskiy, Buxoro Iqtisodiy Kengashiga Muhitdin Mansurov va Xorazm Iqtisodiy Kengashiga Shokir Siddiqov rais qilib tayinlandi. RKP (b) Markaziy Komiteti hali 1921 yil oktabr oyidayoq Turkiston, Buxoro va Xorazm respublikalarini xo‘jalik tomonidan qayta tuzilishini, bu respublikalar bilan sovet Rossiyasining xo‘jalik kurslarini birlashtirish kerakligini zarur deb topgan edi. 1922 yil 13 fevralda RKP(b) MK Turkiston, Buxoro va Xorazm respublikalarini iqtisodiy birlashtirish to‘g‘risida qaror qabul qildi[13.].

1923 yil 5 – 9 martda Toshkent shahrida O‘rta Osiyo respublikalari – Turkiston, Buxoro va Xorazmning I iqtisodiy konferensiyasi chaqirildi. Konferensiyaning 1923 yil 9 martda bo‘lgan oxirgi majlisida Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm Xalq Sovet Respublikalarini iqtisodiy jihatdan birlashtirish to‘g‘risida qaror qabul qilinib, O‘rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi tashkil qilindi. Konferensiyada 10 nafar kishidan iborat O‘rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi Prezidiumi tuzilib, unga RSFSRdan 1 vakil (Lyubimov), Turkistondan 4 vakil (Xidiraliev, Paskuskiy, Pribitkov, Risqulov), Buxorodan 3 vakil (Otaxo‘jaev va b.), Xorazmdan 2 nafar vakil (Yakubov, Sarsenbaev) saylandi. O‘rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi raisi qilib Turk EKOSOning boshlig‘i N.Paskuskiy tayinlandi[14].

Markazlashgan yagona iqtisodiy kengashning tuzilishi bilan bolsheviklar va sovet hukumati mintaqani sovetlashtirish jarayonini avj oldirishdi. Iqtisodiy kengash tashkil qilingandan so‘ng oradan ko‘p o‘tmay, avval Buxoro, so‘ngra Xorazm sovet xalq respublikalari bu maqomdan mahrum qilinib, ular sun’iy tarzda sotsialistik respublikalarga aylantirildi. BXSR va XXSR tobora Markazga qaram bo‘la boshladi. 1923 yil 11 sentabrda BXSRning Toshkentdagi bosh konsulligini tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Bunday qarorlar orqali Markaz tobora tezroq Buxoro va Xorazm respublikalari iqtisodiyotini ham o‘ziga bo‘ysundirishga harakat qildi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati:

1. Аъзамхўжаев С. Туркистон Мухторияти: миллий-демократик давлатчилик қурилиши тажрибаси: –Тошкент: “Маънавият”, 2000.
2. Ражабов Қ., Қандов Б., Ражабова С. Ўзбекистон тарихининг муҳим саналари (Энг қадимги даврлардан бугунги кунгача). Тўлдирилган ва қайта ишланган олтинчи нашр. – Тошкент: “O’zbekiston”, 2015.
3. Гордиенко А.А. Образование Туркестанской АССР. – Москва: “Юридическая литература”, 1968.
4. Ражабов Қ. Ҳайдаров М. Туркистон тарихи (1971 – 1924 й.). – Тошкент: “ Университет”, 2002.
5. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Илмий муҳаррир: М.Жўраев. – Т.: Шарқ, 2000.
6. Ражабов Қ. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш: тарих ҳақиқати (1920 – 1924 й.). – Тошкент: “Маънавият”, 2002. – Б.12.

ЎЗБЕК ХАЛҚИНИНГ ДАВЮРАК ФАРЗАНДИ

Raximqulova Perizat Baktibay qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Ilmiy rahbar:* Sulaymanova Shoxsanam Absamatovna

Қадим юртимиз ўзининг минглаб мард ўғлонлари ва ботир йигитлари билан одамни лол қолдирган диёрдир. Ана шундай ботир пахлавонлардан бири, буюк Турон юртининг элпарвар ва жасур ҳимоячиси Жалолиддин Мангуберди Хоразм давлати ҳукмдори Муҳаммад Хоразмшоҳнинг тўнғич ўғли бўлиб, тахминан 1198 йилда таваллуд топган. Жалолиддин хоразмлик туркманлардан бўлган Ойчечак бегимдан туғилган бўлиб, унинг жасорати ва мардлиги мўғул босқинчиларига қарши курашда ёрқин кўзга ташланди.

Жалолиддин Мангуберди чавандозликка иштиёқи баланд, ақли расо, соғлом ва чаққон йигит бўлиб ўсди. Отаси Муҳаммад Хоразмшох уни кўриб хурсанд бўлар ва унга жуда катта умид кўзи билан қарар эди. Ўз даврида Хоразмшоҳлар тарихини ёзиб қолдирган тарихчиларнинг шоҳидлик беришича, у қорачадан келган, равон сўзловчи, ўзи туркий бўлса-да, форс тилида бемалол сўзлай оладиган, шер мисол довюрак инсон бўлган.

Падари бузруквори уни ҳурмат қилар ва онаси Турконхотуннинг катта қаршилигига қарамасдан, Жалолиддинни тахт вориси деб эълон қилган, катта-катта базмларда, давлат йиғинларига унга “Янги Буюк Искандар” дея мурожаат қилар эди.

Жалолиддин Хўжанд ҳокими Темур Малик билан қиёматли дўст ва қадрдон эди. У билан неча бор жангларда иштирок этиб, жуда катта ғалабаларни қўлга киритган эдики, бу ҳолат унга бутун аркони давлат, шунингдек, халқ олдида юксак обрў-эътибор олиб келган эди. Унинг бу обрўйи бувиси Турконхотунга ёқмас, у нима қилиб бўлса ҳам, ўз уруғидан туғилган Ўзлиқшоҳнинг ҳукмдор бўлишига эришиш пайида эди.

Беш ёшни тўлдириб, олти ёшга қадам қўйган тўнғич ўғил – Жалолиддин Муҳаммад Хоразмшоҳ томонидан валиаҳд этиб тайинланади. Аммо Турконхотун набирасини бу ҳуқуқдан маҳрум этишга киришади. Муҳаммад Хоразмшоҳ даврида онасининг ҳукми уникидан бирмунча устун эди. Шундан фойдаланган Турконхотун ўғли Муҳаммад Хоразмшоҳни ўз фармонини бекор қилишга ундади ва тахминан 1210 йилда Жалолиддин тахт ворислигидан маҳрум этилди. Орадан етти йил ўтгач, яъни 1217 йил бошида Турконхотуннинг қистови ва таъсири билан Хоразмшоҳ Ўзлиқшоҳни Хоразм давлатининг тахт вориси этиб тайинлашга фармон берди.

1220 йилнинг ўрталаридаёқ Мовароуннаҳрнинг марказий ва шарқий ҳудудларига мўғуллар ҳужуми уюштирилди ва ваҳшиёна босиб олинди. Ҳоразмшоҳ мўғулларнинг калиф ва Анхуд деган жойларда берган қақшатқич зарбасига учрайди. Жалолиддин неча бор отасига чекинмаслик таклифини берган бўлса-да, Муҳаммад Хоразмшоҳ саросимага тушиб, Хоразмни ташлаб, Каспий денгизидаги Ашур Орда оролида яширинади. Зотилжам касалига чалинган шоҳ 1220 йил 25 декабрда ўлими олдидан Ўзлиқшоҳ ва Оқшоҳлар иштирокида ўз хатосини тузатиб, Жалолиддин Мангубердининг аввалги ҳуқуқини тиклайди. Кўп ўтмай, Муҳаммад Хоразмшоҳ шу оролда вафот этади ва дафн этилади. 1221 йил январида Жалолиддин укалари Ўзлиқшоҳ ва яқинлари, кам сонли қўшини билан Ашур Ордадан чиқиб, Урганчга қайтади. Дарҳол йиғин ўтказиб, отасининг ўлими хабарини етказади. Аммо Турконхотун тарафдорлари Жалолиддин билан келиша олмайдилар. Шундан сўнг у Темур Малик, Шаҳобиддин Муҳаммад ан-Насафий ва уч юз навкари, шунингдек, онаси, хотин-болалари билан

шаҳарни ташлаб чиқиб кетади. Мўғуллар ҳужумини эшитиб, укалари ҳам эшитиб, укалари ҳам Урганчни ташлаб қочадилар. Мўғуллар шаҳарни етти ой қамал қилиб, ниҳоят эгаллайдилар ва аёвсиз ғорат қиладилар.

Жалолиддин Мангуберди отасининг икки катта хатога йўл қўйганлигини англар эди. Биринчидан отаси 400 минг кишилик қўшинни Сирдарё бўйларига йиғиб, яхлит ҳужум уюштиришни таклиф этган Шаҳобиддин Абусаид ибн Имроннинг фикрига қўшилмай, аксинча қўшинни бўлакларга бўлиб, шаҳарлар ҳимоясига тарқатган эди. Жумладан, Самарқанд ҳимоясига 20 минга яқин қўшин ажратилган эди. Кўп ўтмай, Султон иккинчи хатога йўл қўяди. Унинг амри билан мамлакатдаги 17 ёшдан 47 ёшгача бўлган эркаклар жангга тайёрланиши керак эди. Фармонда ҳар бир кунгиллининг ўз от-улови ёки туяси, қилич ёки найзаси, камон, ўқ ёйи, асбоб-анжоми, чодири, бегиз, ип-игна, шилим ва яраларни боғлаш учун бўзи бўлиши, олти ойга мўлжалланган майиз, туршак, қовунқоқи, жийда мағизи, тутмайиз, қурут каби қуруқ мевалардан иборат егуликлар олиши айтилган эди.

Фармон бўйича ҳар бир қишлоқ оқсоқоли йигитларни улов, эгар-жабдуқ, ҳатто егулик билан таъминлаши, мамлакатнинг иккинчи пойтахти – Самарқанд сари жўнатиши керак эди. Улар шундай қилишди ҳам. Лекин душман ҳужумидан ваҳимага тушган Султон Муҳаммад Хоразмшоҳ фармонининг натижасини кутиб утирмай, хазинадаги бойликларини олиб, 50 минг кишилик лашкари билан қочади. Жонидан, бола-чақасидан, мол-мулкидан кечиб жангга отланган минглаб кўнгиллилар қаерга боришларини, кимга қўшилишларини билмай, йўлларда сарсон-саргардон бўлиб қоладилар. Кўплари эса жамланган егуликлари тугагач, орқаларига қайтадилар. Бу хатоларни англаб етган Жалолиддин Мангуберди барчани ўз қўл остига тўплай олди ва кўп минг кишилик лашкарга эга бўлди. Бу билан жуда катта куч-қудратга эга бўлган Чингизхонга қарши тура олди ва босқинчиларга қақшатқич зарбалар берди.

У мўғулларни вахимага солар, қаттиқ қаршилик кўрсатар, бу ҳол бутун бошли душманни, жумладан, Чингизхонни ҳайратга солар эди. Жалолиддин Нисо яқинида кам сонли йигитлари билан 700 кишилик мўғул қўшинини бутунлай тор-мор этади. Душманнинг бир неча аскари зўрға омон қолиб, Чингизхонга мағлубият хабарини етказади. Ана шу жангда, тарихчилар эътироф этганидек, мусулмон қиличи лик бор

мўғуллар қонига бўялади. Шу ғалабадан сўнг Жалолиддин қўшинлари кун сайин кўпайиб, 30 минг кишига етади ва Ғазнага қараб юриш қилади. Ғазналиклар ҳам қўшилиб, саркарда армияси сон жиҳатдан ошади. Қўшин орасидаги айрим низоларни бартараф қила олган Жалолиддин армияси қисқа муддат ичида 100 минг кишига етади. Ҳужумга тайёрланаётган Жалолиддин қўшинлари 1221 йил ўрталарида Валиён қалъасини қамал қилаётган мўғулларга қарши ҳужумга ўтадилар. Уч кунлик жангда мингдан ортиқ мўғул қўшинлари ҳалок бўлади. Омон қолганлари, Панж дарёсидан зўрға ўтиб, Чингизхонга мағлубият хабарини етказадилар. Кўп ўтмай, душманнинг 45-50 минг кишилик қўшини етиб келади ва Панжшер водийсида қаттиқ жанг бўлади. Бунда ҳам мўғуллар тор-мор қилинади. Бу ғалаба Жалолиддин армиясини янада мустаҳкамлайди. Шундан сўнггина Чингизхоннинг ўзи уни йўқотишга киришади.

Ғалабалар сўнгида қўлга киритилган бойлик учун Жалолиддин армияси орасида нифоқ пайдо бўлади. Баъзи бир лашкарбошилар ўз қўшинларини олиб, Жалолиддиндан айриладилар. Буни кутиб турган айёр Чингизхон уларга Ғазна яқинида зарба беради. Ажралган қўшинлар шу тариқа тор-мор этилади.

Чингизхон қўшинлари Мангуберди изидан тушиб, унга такрор-такрор ҳужум қилади. Жалолиддин ҳеч иккиланмай, тўсатдан мўғалларга ҳужум қилар ва уларни мағлуб этар эди. Ниҳоят Чингизхон янги ёрдам кучларини олгач, уни яна таъқиб этади, Синд дарёси соҳилида жуда катта жангга киради. Уч кунлик жанг давомида, яъни 1221 йил 24 ноябрда Жалолиддин қўшинлари Чингизхон отлиқ қўшинларига аёвсиз зарба беради. Аммо Чингизхоннинг пистирмадаги 10 минг кишилик отлиқ армияси ҳужумга ўтади ва натижада Жалолиддин армияси енгилади.

Аризамас бойлик учун Жалолиддин армиясидаги лашкарбошилар ўртасида келиб чиққан тортишувлар Чингизхон ғалабасини нақд қилиб қўяётган эди. Жумладан, лашкарбошилардан бири Тожиддин Муҳаммад ўзига яқин кишилар билан Чингизхон томонга қочиб ўтади ва Жалолиддин Мангубердининг сўл қанот лашкарбоши Амин Маликни йўқ қилиш билан унга кучли зарба бериш мумкинлигини хоинларча маълум қилади.

Чунки Амин Малик жасурлиги, душманга зарба беришдаги маҳорати, талвасага тушиб қолган жангчиларни руҳлантириб, ўз

кетидан эргаштира олиш қобилияти билан саркардалар орасида жаралиб турар эди. Сўл қанотга қуюндай ёриб кирган мўғуллар Амин Маликнинг бошини танасидан жудо қилишади ва саркардаларидан айрилиб, талвасага тушиб қолган жангчиларни ҳеч бир қаршиликсиз мағлуб этишади.

Чингизхон навкарларига зудлик билан фармон беради: "Аҳвол қанчалик танг ва мушкул бўлишидан қатъий назар Султон Жалолиддин тирик ҳолда, зиён-заҳматсиз қўлга олинсин!" Султон Жалолиддин учун таваккал қилишдан ўзга чора қолмайди. У саркардаларини уч бўлакка бўлиб, Темур Малик бошлиқ қўшинларни чапга – Синд дарёси орқали Ҳиротга, Оловуддин Муҳаммад Ибн Мавдуд бошлиқ қўшинларни ўнгга – Ҳиндистон томонга юборади. Ўзи эса озгина қўшин билан олдга – Синд дарёси бўйлаб Ғазна сари кетишни мўлжаллайди.

Таъқиб этиб келаётган Чингизхон навкарлари ўртасидаги масофа дақиқа сайин қисқариб борарди. Султон Жалолиддин отининг бошини шартта чапга буради ав тўдадан ажралиб, дарё қирғоғига туташ дара томон ўқдай учади. Чингизхон кўзларига ишонмайди: дарё билан дара ўртасидаги баландликни шошиб чамаларкан, юз қулочча келадиган бундай масофадан сакрашга журъат этган Султон Жалолиддин Мангубердининг иродасини тасаввурига сиғдиролмайди. Ортидан ҳайрат ва ҳавас билан термулиб, беихтиёр қўйидаги сўзларни айтади: "Тангри ҳар кимсага ҳам шундай ўғлон ато этсин! Қани энди менинг ўғилларим ҳам шундай бўлишса..."

Тарихий манбалар гувоҳлик беришича Чингизхон даврида машҳур кишилар ҳақида каталог тузилган. Ана шу рўйхатда Ўрта Осиёдан Жалолиддин ҳақида унинг қадами етган Кичик осиё, Яқин Шарқ, Ҳинд ва Афғонистонда, Эронда, Шимолий Кавказу Гуржистонда кўплаб ривоятлар тўқилганки, бу унинг жуда катта жасорат эгаси бўлганлигидан далолат беради.

Зотан, халқимизнинг буюк фарзанди Жалолиддин Хоарзмшоҳ нафақат ўз она-юрти, балки Яқин Шарқ, Ҳиндистон, Афғонистон, Кичик Осиё ва Кавказ халқлари учун ҳам мисли кўрилмаган хизматлар қилган. Тарихчиларнинг эътироф этишича, Жалолиддин Мангуберди ҳаётлигида мўғул босқинчилари бу ҳудудларни босиб олиш у ёқда турсин, балки бу ерларга ҳужум қилиш ҳақида ҳам ўйлашдан чўчишган.

Жумладан, 1226 йил 9 мартда Жалолиддин Талисни ишғол қилиб, 1226 йил охиригача Озарбайжон ва бошқа жойларни ҳам қўлга

киритган. 1227 йил бошида бу ҳудудларга ҳужум уюштирган мўғул босқинчиларига қарш қақшатқич зарбалар беради ва уларн тор-мор этади. Шундан кейин Жалолиддин Хоразмшоҳ мусулмон давлатларнинг мўғулларга қарши бирлашмасини тузишга кўп ҳаракат қилади, аммо унинг бу саъй – ҳаракатлари зое кетади. Чунки қўшни мусулмон давлатлар подшоҳлари Жалолиддинни тўғри тушунмайдилар, аксинча унга қарши жанг қиладилар.

1230 йил август ойининг бошида Жалолиддин Хоразмшоҳ қўшини билан иттифоқчилар лашкарлари ўртасида ҳал қилувчи жанг бўлади. Бунда Жалолиддин армияси мағлуб бўлади. Натижада у қолган қўшинини Озарбайжон ҳудудига олиб ўтишга мажбур бўлади.

Хуллас, Жалолиддин Мангуберди 1231 йил ўрталаригача эрон, озарбайжон, Шарқий Арманистон, Ширвон ва Грузияда ҳукм суради ва ўзининг кучли давлатини тузишга эришади. 1231 йил 17 августда чодирда ухлаб ётган Жалолиддинга аламзада курд йигити найза санчиб, уни оғир ярадор қилади. Жалолиддин Мангуберди 1231 йил 20 августда 32 ёшида ҳаёт билан видолашади.

Ўзбекистон ҳукумати Жалолиддин Мангубердининг мўғул босқинчиларига қарши курашида кўрсатган мислсиз жасорати, Ватанга ўз халқига садоқат ва чексиз муҳаббатини қадрлаш ва унинг порлоқ руҳини абадийлаштиш мақсадида “Жалолиддин Мангуберди таваллудининг 800 йиллигини нишонлаш ҳақида” қарор қабул қилди (1998). Қарорга кўра, унинг юрти Хоразмда буюк қаҳрамонга маҳобатли ҳайкал ўрнатилиди,йирик кўча, майдон, корхоналар ва бошқаларга унинг табаррук номи қўйилди. Жалолиддин Мангуберди ҳақида видеофильм, достон, пьеса ва бошқалар яратилди. “Жалолиддин Мангуберди ордни” таьсис этилди, (2000) йил 30 август).

Хуллас давюрак саркарда, буюк ватандошимиз, ўзбек халқнинг жасур ўғлони Жалолиддин Мангубердининг сиймоси мардлик ва жасорат тимсолига айланди.

Адабиётлар

Шаҳобиддин Муҳаммад ал-Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаёти тафсилоти Тошкент, 1999 .

Жалолиддин Мангуберди (ўзбек, инглиз, рус-тилида) Тошкент,1999.

Жалолиддин Мангуберди. Ватан, юрт ҳимоячиси Тошкент, 1999.

Буниётов З.Ануштагин Хоразмшоҳлар давлати (1097-1231) Тошкент, 1998.

Тошев Н. Жалолиддин Мангуберди Тошкент,1999.

Бўриев О, Тошевь Н. Жалолиддин Мангуберди Тошкент,1999.

Томарий О. Жалолиддин Хоразмшоҳ ва унинг даври Тошкент,1999.

XX АСРНИНГ 20-30-ЙИЛЛАРИДА ТАЪЛИМ ТИЗИМИДАГИ КАДРЛАР МАСАЛАСИ

Safartosheva Mo'tabar Lazizjon qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
***Ilmiy rahbar:* Sulaymanova Shoxsanam Absamatovna**

Калит сўзлар: Коммунистик мафкура, совет ҳокимияти, “саводсизликни тугатиш”, совет мактаблари, миллийликнинг чекланиши, кадрлар муаммоси, “таълим тизимини тозалаш”, “маҳаллийлаштириш”.

Ўзбекистонда олиб борилаётган таълим соҳасидаги ислоҳотларнинг асосий мақсади юртимизда соғлом, баркамол, билимли ва юксак маънавий–аҳлоқий фазилатларга эга бўлган ёш авлодни тарбиялашдан иборатдир.

Республикамизда бугунги кунда янгича ёндашувлар асосида ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Ушбу ислоҳотлар натижасида таълим тизимида янги давр бошланди. Бундан ташқари ушбу ислоҳотлар Ўзбекистон таълим соҳасини ривожлантиришда муҳим омил бўлиб хизмат қилмоқда.

Ижтимоий ҳаётнинг таркибий қисмларидан бири бўлган таълим тизими жамият тараққиётининг ҳар қайси даврида ўзига хос тарзда яратилади. Ҳар бир давр маданияти, илм–фани, таълим тизими ҳақида фикр юритилганда, энг аввало ўша жамиятда илм-фан, адабиёт, санъат, маданият ва таълим тизимига муносабатдан келиб чиқиб таҳлил қилинса мақсадга мувофиқ бўлади. Чунки, ҳар бир тарихий даврда илм-фан, маданият ва таълим тизимига муносабат ҳар хил бўлган. Бинобарин, биз яқин ўтмишнинг, яъни совет ҳукумати ҳукмронлиги

даври XX асрнинг 20–30 йилларига назар ташласак, бу давр ўзининг мураккаблиги ва зиддиятлиги билан ажралиб туради.

Мазкур йилларда таълим тизимидаги ҳолат, таълим тизимидаги кадрлар масаласи, тизимни кадрлар билан таъминлашдаги муаммолар, зиддиятлар, таълимга мустабид совет тузумининг ҳар томонлама таъсирини ҳамда унинг оқибатларини очиб бериш, холисона таҳлил қилиш асосий мақсад ва вазифалардан биридир.

Совет даврида Ўзбекистонда таълим масалаларига доир олиб борилган тадқиқотлар, чоп этилган адабиётларнинг алоҳида ажралиб турадиган хусусияти шундаки, уларнинг аксарияти кучли мафкуравий тазйиқ ва коммунистик ғоя таъсири остида яратилган бўлиб, уларда амалга оширилган барча ишлар "октябрь инқилоби" нинг маҳсули сифатида баҳоланган. Гарчи бу адабиётларда илк бор архив ҳужжатларидан фойдаланилганига қарамай, улардан ҳукмрон партия манфаатини кўзловчи хулосалар чиқарилган[1]. Мазкур асарларнинг илмий таҳлили шуни кўрсатадики, аксарият муаллифлар таълим тизимини ёритар эканлар асосан мактаблар, ўрта махсус ва олий ўқув юртлари ва улардаги ўқувчилар, талабалар ҳамда таълим тизимида фаолият олиб бораётган ўқитувчилар сонининг ўсишини Республика миқёсида умумлаштириб берганлар ҳамда масаланинг иккинчи томони яъни ўқув юртларида олиб борилаётган таълим–тарбиянинг сифатини, ўқитувчиларнинг билим савиясини, кадрлар муаммосини, унинг моҳиятини тахлил қилишга, айниқса, қишлоқ мактабларининг ночор аҳволини адолат нуқтаи назаридан ёритишга ҳаракат қилмаганлар. Бундан ташқари, Совет даврида яратилган асарларда ўша даврда ҳукмрон бўлган коммунистик мафкура талабларидан келиб чиққан ҳолда таълим соҳасидаги ўзгаришларда коммунистик партиянинг роли алоҳида кўрсатиб ўтилган. Ушбу тадқиқот ва адабиётларда Ўзбекистонда олий, ўрта махсус ўқув юртлари, мактабларнинг ташкил топиши, уларнинг мутахассислар тайёрлашдаги аҳамияти каби масалалар хақида умумий маълумотлар келтирилиб, миллий таълим тарихи ва фаолияти, кадрлар тайёрлашдаги муаммо ва зиддиятлар чуқур ўрганилмаган. Бу тадқиқотларнинг аксариятида кўплаб фактик материаллар, қимматли манбалар мавжуд бўлиб, бу ҳужжатлар истеъмолга киритилсада, асосий эътибор Ўзбекистонда совет ҳокимиятининг ўрнатилиши ва унинг фаолияти ҳамда тарихий жараёнлар фақат бир томонлама ёритилган.

Истиқлолга эришгандан кейин чуқур мулоҳаза билан холисона фикр юритиш шароити вужудга келди.

Мустақиллик даврида совет тузуми йилларидаги таълим тизими масаласини холисона ёритган илмий–тадқиқот ишлари юзага келди[2]. Мазкур тадқиқотларда совет тузуми даврида таълим тизими, педагогик кадрлар тайёрлашдаги, мактаб ва ўрта махсус билим юртларини ташкил этишдаги, кадрлар етишмаслиги ҳамда кадрлар тайёрлашдаги муаммолар кўрсатиб берилган ҳамда янгича талқинда таълим соҳаси ўрганилган.

Советлар ижтимоий ҳаётнинг барча жабҳалари қаторида таълим соҳасига ҳам катта эътибор қаратди. Бу соҳада халқни коммунистик мафкура руҳида қайта тарбиялашда муҳим восита бўлган совет таълим тизимни яратиш ва ривожлантириш учун иш олиб боришди.

Совет ҳокимияти ўрнатилган дастлабки йилларданоқ маданият, таълим соҳасида ҳукмрон давлат мафкурасига мос ўзгаришларни амалга оширишга киришилди. XX аср 20–йилларидан бошлаб Ўзбекистон ҳудудида таълим тизимида ҳам комммунистик мафкурага хос кўриниш қарор топа бошлади.

Мазкур йилларда коммунистик мафкура асосида советлар ўзининг сиёсатини ҳаётга тадбиқ қилиш учун “шаклан миллий, мазмунан социалистик” ғоясини тарғиб қилувчи “маданий инқилоб” тадбирларини ишлаб чиқди ва уни шошилинч тарзда амалга оширишга киришди. Ўз навбатида жамият ижтимоий ҳаётининг бир бўлаги бўлган таълим тизимида ҳам мафкуравий таъсирини ўтказиб борди. Совет ҳокимияти таълим соҳасида “маданий инқилоб” тадбирлари асосида дастлаб бошланғич мактаблар ва “саводсизликни тугатиш” курсларини ташкил қилишди. Ўз навбатида асосий масала бу кадрлар масаласи эди. Кадрлар большевистик сиёсатни қўллаб–қувватлайдиган совет мафкураси асосида иш олиб борадиган кадрлар бўлиши керак эди. Ушбу жараёнда ўқитувчиларни тайёрлайдиган қисқа муддатли курслар ҳам ташкил қилинди. 1925 йилда фаолият олиб бораётган ўқитувчиларнинг 80 % қисқа муддатли курсларни ўқиб тугатишди[3].

1930–йилларда Ўзбекистонда олий ўқув юртларининг сони кўпайиб бориши натижасида халқ таълими соҳасида ҳам кадрлар сони бирмунча кўпайди. 1924–1925 ўқув йилида Республикада мактаб ўқитувчилари 2748 кишини ташкил қилган бўлса, 1929–1930 ўқув йилида мактаб ўқитувчилари сони 7464 тага, 1934–1935 ўқув йилида

18136 кишига, 1940–1941 ўқув йилига келиб ўқитувчилар сони 35060 кишига етди[4].

Совет давлатининг статистик маълумотларида кўрсатилишича XX асрнинг 20–30 йилларида мактаблар, ўрта махсус ҳамда олий ўқув юртлари сони ҳам йил сайин ортиб борган. 1924–1925 ўқув йилида Ўзбекистонда 160 та ташкил этилиб, унда 17209 нафар ўқувчи таълим олган бўлса, 1941 йилда мактаблар сони 5504 тага ва ундаги ўқувчилар сони 1 млн 315 мингтага[5] етганлиги қайд этилган. Ўрта махсус ва олий ўқув юртларининг сони ҳам мазкур йилларда ошиб борганлигини кўришимиз мумкин. 1924 – 1925 ўқув йилида республикада 2 та олий ўқув юрти, 23 та ўрта махсус ўқув юртлари бўлиб, уларда 66 минг талаба таҳсил олган бўлса, 1940 – 1941 ўқув йилига келиб, 44 минг талаба таҳсил олаётган 30 та олий ва 98 та ўрта махсус ўқув юртлари фаолият олиб борган[6].

Бу даврга келиб ўрта махсус ва олий таълимни битириб чиққанлар сони бир неча баравар кўпайиб борган. Мазкур мутахассислар халқ хўжалигининг барча соҳалари билан бир қаторда таълим тизимига ҳам келиб қўшилдилар. Лекин мутахассис тайёрлашда асосан сонига катта эътибор қаратилди. Гарчи ушбу йилларда Ўзбекистонда олий ўқув юртлари сони, ундаги талабалар ҳамда битирувчилар сони ортиб борган бўлсада, таълим тизимини малакали кадрлар билан таъминлаш, моддий–техника базасини яхшилаш каби бир қатор масалалар ҳамон муаммолигича қолмоқда эди.

1925 йил феврал ойида Ўзбекистон Компартиясининг I съездида ҳам совет мактаблари сонини ошириш, катта ёшли аҳоли учун эса саводсизликни тугатиш мактабларини кенгайтириш борасида чора-тадбирлар кўриб чиқилиб, ташкил этилаётган совет типидаги мактаблар учун маблағлар ҳам ажратилиши кўрсатиб ўтилади[7]. Таълим тизими учун маблағлар ҳам ажратиб борилган. Лекин ажратилган маблағлар таълим муассасалари ташкил қилиш, улар учун зарур бўлган дарсликлар, керакли асбоб–ускуналарни таъминлаб беришга, ўз навбатида таълим муассасаларини ташкил қилишга етмас эди.

Совет тузуми умумий ўрта таълим мактаблари, “саводсизликни тугатиш” мактаблари, техникум ва билим юртлари, олий ўқув юртлари ташкил этар экан, таълим муассасаларида ўқиётганларнинг ҳудудий–анъанавий миллий хусусиятларига, уларнинг миллий маънавиятини

шакллантиришга жиддий эътибор қаратилмади. Сифат ўрнига сон кетидан қувиш ҳолатлари устунлик қилди. Гарчи таълим муассасалари сони кўпайиб борган бўлсада ушбу муассасалар республика вилоят ва туманлари эҳтиёжлари учун етарли даражада эмас эди. Таълим муассасалари моддий–техника билан, дасрликлар, ўқув адабиётлари, дарс жараёнида керакли бўлган жиҳозлар билан етарли даражада таъминланмаганди.

Бу даврда Ўзбекистонда мактаблар, ўрта махсус ва олий ўқув юртлари сони кўпайиб бориши, саводхонликнинг ортиши, аҳоли умумий савиясининг юксалишини кузатиш мумкин. Бироқ XX аср 20–йилларининг иккинчи ярмидан бошлаб ижтимоий ҳаётда ҳам маъмурий–буйруқбозлик тизимининг кучайиб бориши таълим соҳасига ҳам ўзининг салбий таъсирини кўрсатиб борди. Гарчи бу йилларда олий ва ўрта махсус ўқув юртларида малакали кадрлар тайёрлаш учун кўп ишлар қилинган бўлсада, республиканинг олй ва ўрта малакали кадрларга бўлган эҳтиёжини мутлақо қондира олмасди. Бундан ташқари кадрлар муаммосининг юзага келишига олиб борилган таълимни “синфий душман”дан тозалаш, таълим тизими ходимларини пролетарлаштириш каби советлар томонидан олиб борилган сиёсат ҳам сабаб бўлди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Сербов П.И., Никифоров А.Д., Народное просвещение в Узбекистане. – Т.,1927; Қориниёзов Т.Н. Совет Ўзбекистони маданияти тарихидан очерклар. – Т.,1956; Ражабов С. Ўзбекистонда Совет мактабига доир. – Т.,1957; Кадиров И. Успехи народного образования в Узбекской ССР за 40 лет. – Т.,1957; Очилов М. Ўзбекистон комсомолининг умумий – мажбурий таълим учун кураши (1930–1941йй) – Т., “Ўздавнашр”, 1958; Шарипов Ф. Народное образование в Узбекистане. – Т., 1977. Содиқов С. Ўзбекистонда олий таълимнинг ривожи. – Т., 1986. ва бошқалар.

2. Турсунов И.И. Ўзбекистон маорифчиларининг истиқлол йўлидаги кураши тарихидан (1917–1989 йй.). – Т., 1995; Чориев А. Проблемы нароного образования и подготовки педагогических кадров Узбекистана. – Т., “Фан”, 1997; Тўраева М.Ҳ. Ўзбекистонда маданий ҳаёт: муаммо ва оқибатлар (1920–1940 йй.) (Жанубий вилоятлар мисолида). Т.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Т., 2001. ва бошқалар.

3. Ўзбекистон Республикаси Марказий давлат архиви. Фонд – 94, рўйхат № 1, йиғма жилд 333, 114 – варақ.

4. Қодиров Э.Қ. Ўзбекистон умумтаълим мактабларининг ривожланиш тарихидан. Т.: “Ўқитувчи”. 1979. 56,71,96 бетлар.

5. Народное образование в Узбекистане. Т.; 1947. стр. 18-19.

6. Народное хозяйство УзССР за 50 лет (1924 – 1974 гг.). Т.; 1974. стр. 256–260.

7. Абдурахманова Жуммагул Номазовна XX аср 20–30 йилларида Ўзбекистоннинг жанубий вилоятлари таълим тизимидаги ҳолат. // Маданият чорраҳалари. 2020. № 4 (2). Б-38.

МАРКАЗИЙ ОСИЁ ХАЛҚЛАРИ ТУРМУШ ТАРЗИДА ЗИЁРАТГОҲЛАРНИНГ ЎРНИ

Yestayeva Akmaral Abdiazim qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
***Ilmiy rahbar:* Sulaymanova Shoxsanam Absamatovna**

АННОТАЦИЯ: Ушбу мақола бугунги кунда долзарб масалалардан бири-Марказий Осиё халқларининг турмуш тарзида зиёратгоҳларнинг аҳамиятига қаратилган бўлиб, муаллиф томонидан зиёратгоҳларнинг вужудга келиши, классификацияси ҳамда Марказий Осиёдаги машҳур зиёратгоҳлар тўғрисида маълумот берилган.

Калит сўзлар: Зиёратгоҳ, менталитет, миллий қадрият, ислом дини, муқаддас қадамжо, Занги ота, ватанпарварлик, маданият, маросим, табиат.

Марказий Осиё ҳалқлари ўзининг буюк тарихи ва ўтмиши, бой маданий мероси, бетакрор урф одат ва анъаналари билан ажралиб туради. Асрлар давомида шаклланиб, сайқал топган моддий ва маънавий бойликлар инсон ақл-идроки ва тафаккурининг буюк ютуғидир. Жумладан, зиёратгоҳлар, зиёрат маросимлари ва урф-одатлари ҳам мана шу заминда яшаб келаётган халқларнинг диний дунёқараши асосида шаклланиб, Марказий Осиё халқлари менталитетининг ажралмас қисмига айланган десак хато бўлмайди. Зиёратгоҳлар, мақбаралар ва қабристонлар оммавий эътиқодни ифода этувчи муқаддас жойлар маънавий озуқа берувчи омиллар бўлибгина қолмай, узоқ-яқиндан зиёрат қилиш учун келган инсонларнинг

учрашиш, маданият алмашиш маркази сифатида ва ёш авлод тарбиясида олий туйғуларни шакллантиришда жуда муҳим роль ўйнайди.

Зиёрат – диний маданиятнинг ўзига хос кўриниши бўлиб, барча динларда асрлар давомида сақланиб келаётган диний маросимлардан бири ҳисобланади. Масалан, христианлар Фаластинда жойлашган муқаддас жойларни, мусулмон зиёратчилар Маккани, Будда динига эътиқод қилувчилар баланд тоғли Лхасани зиёрат қилишади. Дунё бўйлаб муқаддас қадамжо ва зиёратгоҳлар кенг тарқалган.

“Зиёрат”, “Зиёратгоҳ” атамалари арабча сўз бўлиб, “бирор ерга бориш” маъносини билдиради. Зиёрат Ислом динида муқаддаслаштирилган мозорлар ва қадамжоларга бориб сиғиниш демакдир [1]. Зиёратгоҳларнинг барчаси олдин қайсидир авлиёнинг қабри (мақбараси) ёки “қадамжой” (Авлиёни қадами етган жой) ҳисобланган, халқ бу муқаддас жойларга эътиқод қилиб, зиёрат қилиши натижасида аста-секин аҳолининг муқаддас зиёратгоҳларига айланган .

Илмий тадқиқотларда зиёратгоҳлар шаклланишига кўра 2 турга бўлинади:

1. Табиий равишда мавжуд бўлган зиёратгоҳлар.
2. Антропоген, яъни инсон қўли билан яратилган, меҳнати орқали вужудга келган муқаддас жойлар [2].

Мовароуннаҳрда VIII асрга келиб Ислом динининг қарор топиши муҳим сиёсий, ижтимоий ўзгаришларни вужудга келтирди. Чунки ислом динининг кириб келиши ўзи билан янги мафкурани ҳам олиб келган. Натижада аҳоли ўртасида мавжуд бўлган диний қарашлар, урф-одатлар исломий удумлар билан қоришиб кетган.

Марказий Осиёда жойлашган ислом дини билан боғлиқ “муқаддас” жойлар антропологлар, тарихчилар ва исломшунослар томонидан ўрганилиб, классификация қилинган. Илк бор, 1969 йилда совет этнографи Г.П.Снесарев Марказий Осиёда жойлашган зиёратгоҳларни авлиёлар билан боғлиқ афсона ва ривоятларга кўра тўртта гуруҳга ажратган:

1. “Тасвири, туғилган жойи ва исми тўлиқ аниқ бўлмаган авлиёлар” билан боғлиқ зиёратгоҳлар;
2. “Библия–Қуръонда келтирилган илоҳий шахслар, авлиёлар” ҳамда “исломдан олдин яшаган авлиёлар” билан боғлиқ зиёратгоҳлар;

3. “Ўрта асрлардаги суфизм авлиёлари”, маҳаллий ва умумэътироф этган суфизм номоёндалари билан боғлиқ зиёратгоҳлар;

4. “Маҳаллий ҳокимият вакилларининг авлиё даражасида улуғланиши”, улар вафотидан сўнг бунёд этиган мақбаралар [3].

Бухоро зиёратгоҳларини ўрганган Н.Йўлдошев зиёратгоҳларни қуйидаги гуруҳларга ажратган:

1.Исломгача бўлган оташпарастлик ва мажусийлик давридан қолган, ислом дини айрим руҳонийлар томонидан ўз манфаатларига мослаштирилган қадамжо, авлиё ва уларнинг мозорлари;

2.Сўфизм-тасаввуф диний оқим номояндаларини айримларини муқаддаслаштириш ва уларни қабрлари;

3.Айрим ҳукмдорлар ва уларнинг амалдорларини авлиё даражасига кўтариб, уларнинг мозорларида бунёд этилган мақбаралари;

4.Ҳунармандчилик билан шуғулланган, кейин “авлиё” даражасига кўтарилган кишиларнинг қабрлари;

5.Ҳукмронларнинг сиёсий-диний ҳокимиятига қарши кураш олиб борган кишиларни меҳнаткаш ҳалқ томонидан авлиё даражасига кўтарилиш тарихи ва уларнинг мозорлари [4].

1996 йил қозоғистонлик исломшунос А.Мўминов зиёратгоҳларни икки хусусиятига кўра–“машҳурлик даражаси” ва “таркибий қисми” қайсики, зиёратгоҳ атрофида жойлашган объектларга қараб классификациялаш таклифини киритди. Биринчи хусусиятига кўра:

1) Марказий Осиёга машҳур;

2) фақат вилоят ёки айнан бирор регионда машҳур;

3) фақат битта чекланган маҳаллий ҳудудга маълум.

Зиёратгоҳнинг таркибий қисмига кўра:

1) бир қисмли (фақат муқаддас жой-сув манбаи, дарахт, мўжизавий шакл ва хусусиятга эга тош);

2) икки қисмли (рамзий ёки хақиқий қабр билан);

3) мураккаб (мақбара билан);

4) хоноқо билан;

5) мақбара ва қабристон;

6) мақбара ва масжид билан;

7) мақбара масжид билан ҳамда вақфга эга мадраса билан [5].

Ўзбек этнографи И. Жабборов ўз асарларида авлиёлар культини тадқиқ қилар экан, жумладан шундай дейди: “Ўтган аждодлар арвоҳга

сажда қилиш, уларни хотирлаш, табиат кучларига сиғиниш натижасида жуда кўп муқаддас жойлар ва авлиёлар вужудга келган" [6].

Муқаддас мозорлар ва улар билан боғлиқ муқаддас буюмлар ҳақидаги қарашлар асрлар давомида бирга яшаб келаётган туркий халқларнинг диний ҳиссиётларининг шаклланишида муҳим аҳамият касб этган. Шу сабабли Марказий Осиё халқлари орасида орасида азалдан улуғ мозорларни зиёрат қилиш ярим ҳаж қилиш баробар сифатида қараб келинган. Жумладан, Самарқанддаги Қусам ибн Аббос қабрини зиёрат қилиш Каъба зиёрати билан тенглаштирилган. Шу сабабдан зиёратчилар Каъба атрофида етти марта айланганларидек, бу мозор атрофида етти бор айланганлар. Хуросонда эса Имом Ризо мозори, Қозоғистонда Хожа Аҳмад Яссавий мақбарсини зиёрат қилиш ҳаж билан тенглаштирилган.

Марказий Осиё халқлари ўртасида зиёратгоҳларга оид ўзига хос қарашлар ҳам шаклланган. Жумладан, қирғизлар "соғлиқ сўрасанг Иссиқ Отага, бойлик ва чорвага барака истасанг Чўпон Отага, фарзанд тиласанг Манжилли Отага бор" деб қадимдан ишонишган. Туркистон чорвадорлари "Арслонбоб мозорида тунаб, кейин Хўжа Аҳмаддан сўра" нақлига амал қилишган. Яъни биринчи Хўжа Ахмад Яссавийнинг устози Арслонбобни зиёрат қилиб, кейин Хўжа Аҳмад Яссавий мақбарасига бориш лозимлиги назарда тутилган. Хўжа Ахмад Яссавий мақбараси Марказий Осиёдаги энг машҳур зиёратгоҳлардан бири бўлиб, меъморий мажмуа Буюк Соҳибқирон Амир Темур томонидан бунёд этилган. Чорвадор қабилаларда қабила задогонларини вафотидан сўнг, машҳур авлиёлар дафн этилган мозорларга қўйиш одати мавжуд бўлган. Хўжа Ахмад Яссавий мақбарасига Амир Темур эвараси, Мирзо Улуғбекнинг қизи Робия Султон Бегим дафн этилиб, XV асрда "Робия Султон Бегим" мақбараси бунёд этилган. Қозоғистон тарихчилари фикрига кўра бу ерга кўплаб қозоқ хонлари, шунингдек таниқли давлат арбоблари дафн этилган. К.Байпаков таъкидлаганидек, Хўжа Ахмад Яссавий мақбараси "дунё мўжизаларидан бири бўлиб, мусулмонлар учун иккинчи Макка ҳисобланади" [7].

Марказий Осиёда муқаддас мозорлар ва зиёратгоҳлар савдо марказлари, халқ сайллари ўтказиладиган жой вазифасини ҳам бажарган. Сиёсий жиҳатдан эса, ҳалқ ва хон ўртасида мулоқот учун муносиб жой ҳисобланиб, хукмдорлар муқаддас жойларни зиёрат қилиш орқали жамиятда юқори мавқега эга бўлган дин пешволари ва халқнинг

ишончини қозонишга ҳаракат қилган. Шу сабабли зиёратгоҳларга берилган вақф ерлари хирож солиқларидан озод қилиниб, хонлар томонидан мозорлар ва зиёратгоҳларни таъмирлаш, хонақоҳлар қурилиши каби ишларга ҳомийлик қилинган. Айниқса, Қўқон хонлигида Умархон, Шералихон, Мадалихон, Худоёрхон ва Маллахонлар даврида Фарғона водийсидаги Подшоҳ Искандар, Сафед Булон, Ҳазрати али, Мўйи муборак, Ҳазрати Аюб, Хўжа Туроб, Тахти Сулаймон мозорларини зиёрат қилиш хонларнинг оилавий анъанасига айланган эди. Тарихий маълумотларга кўра, Сафед Булон зиёратгоҳида Шералихон (1842-1845)ни оқ кигизга ўтқазиб, оқ туя ва оқ от қурбонлик қилиб тахтга ўтқазиш маросими ўтказилган. Айнан шу жойда, 1873 йилда Пўлатхон Қўқон хони деб эълон қилинади [8].

Хива хонлигида ҳам зиёратгоҳлар ҳар бир тахтга чиққан хоннинг ҳаётида муҳим аҳамият касб этиб келган. Қолаверса, Паҳлавон Маҳмуд (1247–1326), Султон Увайс, Исмамут ота, Нажмиддин Кубро, Шайх Жалил ва Саид Моҳрўйи Жаҳон сингари зиёратгоҳлар ҳам сайилгоҳ сифатида маҳаллий халқни хонлар билан мулоқотда бўлиши учун ўзига хос қароргоҳ вазифасини ҳам ўтаган.

Марказий Осиёнинг қайси ҳудудига ташриф буюрманг, ўзига хос зиёратгоҳ ва муқаддас қадамжоларни кўриш мумкин. Қадамжо ва зиёратгоҳларнинг ҳар бири маҳаллий аҳоли турмушида ҳамда уларнинг диний қарашларини ифодаловчи маскан сифатида муҳим ўрин тутади. Аммо, Собиқ Иттифоқ даврида мавкуравий босим туфайли барча диний қарашлар ва урф-одатлар ҳаётга татбиқ этилмади: сиёсий ва ҳарбий жиҳатдан ўз мавқеини мустаҳкамлаб олган большевиклар динга қарши кенг қамровли ҳужум бошладилар. Кўп сонли мусулмон олимлар отиб ташландилар, Сибирь ёки собиқ Иттифоқнинг бошқа минтақаларига сургун қилдилар. Ўтган асрнинг 30-йилларида диний муассасаларнинг (мақбара, зиёратгоҳ, мадраса, масжид ва мактаблар) вақфлари тамомила тугатилди, уларнинг ўзлари эса тамомила ёпиб қўйилди. Бинолари эса турар жойлар, омборхоналар, устахоналар ва ҳоказоларга айлантирилди [9]. Мақбара ва зиёратгоҳларга диний эксплутация қуроли, хурофот ўчоғи сифатида қаралиши оқибатида қаровсиз ҳолатга келиб, тарихий-меъморий кўринишини йўқотди, айрим муқаддас жойлар вайрон қилиниб, халқ хотирасидан ўчириб юборишга ҳаракат қилинди. Биргина мисол: Самарқанддаги машҳур авлиёлар кўмилган “Чокардиза” қабристони ўтган асрнинг 40-йилларига қадар деярли тўлиқ сақланган.

Аммо 1946-1955 йилларда қабристон суриб ташланиб, уй-жой қуриш учун бериб юборилган. Айнан шунга ўхшаш даҳшатли воқеани Бухородаги “Гулобод” (Колобод) қабристонига бўлган муносабатда ҳам кўриш мумкин. Марказий Осиёда муҳим диний марказлардан бўлган Зангиота зиёратгоҳи фаолияти ҳам тўхтатилиб, атеистик музейга айлантирилди. 1957 йил ёзига келиб, Вазирлар Кенгаши ҳузуридаги Диний ишлар қўмитаси зиёрат анъаналарининг оммавий тусга киришини “дин пайдо бўлишининг хавфли белгилари” ва “диндорларнинг норасмий тўпланиши” деб баҳолаб, барча зиёрат объектларини ёпиш ҳақида расмий қарор чиқарилишига эришилди.

Сиёсий зуғум ва қувғинларга қарамасдан Марказий Осиё халқлари ота-боболаридан мерос анъана ва қадриятларни асраб-авайлаб, авлодларга етказиб бера олди. Совет давлатининг парчаланиши Марказий Осиё халқларига эътиқод эркинлигини қайтариб берди. Сунгги йилларда зиёратгоҳлар тарихини ўрганиш, қайта тиклаш борасида улкан ишлар амалга оширилиб, бу борада Ўзбекистон Республикаси етакчилик қилмоқда. Бу эса ўз навбатида Марказий Осиёда зиёрат туризмининг ривожланишига ижобий таъсир қилмоқда.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, Марказий Осиё халқлари турмуш тарзи, қадрият ва анъаналарида тизимида зиёратгоҳлар ҳамда муқаддас қадамжолар муҳим аҳамиятга эга. Айниқса, глобаллашув жараёнлари кучли кетаётган даврда зиёратгоҳлар миллий урф-одатлар ва маросимлар қўриқхонаси вазифасини бажариб келмоқда. Шу билан бирга сўнгги йилларда туризм соҳасининг ривожланиши, айниқса зиёрат туризми соҳаси доирасида зиёратгоҳлар янги қиёфа асосида зиёрат туризмининг объектига айланиб, мамлакат иқтисодий тараққиётига хизмат қилмоқда.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Усмонов М.А.Ислом.-Т.,”Шарқ”,1986. 85-бет.
2. Огудин В. Природные места поклонения в религиозных представлениях современного населения Ферганы: Автореф. дис... докт. истор. наук. – М., 2003.–С.6.
3. Г.Снесарев, Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма –М,1969. Сс.277-279
4. Йўлдошев Н. Бухородаги айрим авлиёлар тарихи.-Бухоро, 1993.10-б.

5. А.Мўминов. Святые места в Центральной Азии (Взаимодействие обще исламских и местных элементов), Маяк Востока.Т.1996.№1-2, с.15.

6. Жабборов И. Ўзбек ҳалқи этнографияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б. 236.

7. Байпаков К. Великий Шелковый путь (на территории Казахстана) / К. Байпаков. Алматы, 2007. С.477.

8.Кененсариев Т. Феномен Курбанджан датки... / Т. Кененсариев // Курбанджан датка – выдающийся политический и общественный деятель кыргызского народа. Материалы Международной научной конференции 25 октября 2011 г. Бишкек, 2011. С. 71.

9.Ислом ва ҳозирги замон.Ўқув қўлланма.Т. 2010. 35-36 б.

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVGA ASOSLANGAN TA`LIM STANDARTLARINI JORIY ETISH-ZAMONAVIY TA`LIM PARADIGMASI SIFATIDA

Karimova Dilbar Nurliboy qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Ilmiy rahbar: Sh.A.Sulaymanova

Annotasiya: Ushbu maqolada ta`lim tizimidagi kompetensiyaviy yondashuvning tendensiyalari, mavjud kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo`llari yoritilgan. Ta`lim tizimiga yangi amaliy paradigmalarni joriy etilayotagni bayon etiladi.

**Kalit so`zlar:** Milliy dastur, strategiya, kompetensiya, ta`lim standartlari, zamonaviy ta`lim

Maktablarni rivojlantirish, ta’limini isloh qilish bugungi kunning dolzarb mavzusidir. O`sib kelayotgan yangi avlodimiz 12 yillik majburiy ta’lim olish bilan birga aniq mutaxassislik va kasb-hunarga ega bo‘lishi ayniqsa qizlarimiz uchun muhimdir. Chunki yosh oilaning mustaxkamligi, qizlarning biror-bir mutaxassislikni egallab, hayotda o`zining mustaqil fikri va o‘rniga ega bo`lishi bilan bevosita bog‘liq. Davlat rahbari yangi maktablar va mavjud maktablarda qo‘shimcha o‘quv binolari qurish hisobiga maktab tizimining salohiyatini oshirish bo‘yicha topshiriqlar berdi. Davlat tomonidan ajratiladigan mablag‘lardan tashqari mahalliy byudjetga tushumning bir qismi ham

maktablarga yo‘naltiriladi. Har bir hududda pedagogika institutlari, oliy o‘quv yurtlari, akademik litseylar va ixtisoslashtirilgan maktablar o‘qituvchilaridan iborat “ko‘chma uslubiy guruhlar” tashkil etildi. O‘qituvchilar tayyorlash tizimini takomillashtirish doirasida Toshkent shahridagi 5 ta, viloyatlardagi 17 ta oliy o‘quv yurtlari maktablarga biriktiriladi. Talabalar birinchi kursdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri maktablarda tayyorlanadi. Bu talabalarning, maktab va universitet o‘qituvchilarining ham kasbiy mahoratini oshirishida klasserni yo`lga qo`yadi. Prezidentimiz maktablardagi o‘quv yuklamalari va darslar sonini qayta ko‘rib chiqish, bolalarni fikrlashga undaydigan usullarni joriy etish, ilg‘or tajribalar asosida darsliklarni to‘liq yangilash bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi. Davlat rahbari maktabni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish bo‘yicha topshiriq berdi[1]. Kam ta’minlangan oilalarning bolalari darsliklarni bepul olishlari mumkin. 2001-2013 yillar davomida o‘quvchilar va o‘qituvchilar soni o‘rtasidagi nisbat 14 dan 11 nafarga kamaydi. Davlat ta’lim standartlari ta’lim sohasidagi siyosatni amalga oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. Ularning umumta’lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari amaliyotiga joriy etilishi 1999-2000 o‘quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich amalga oshirildi. 2010-2012 yillar davomida xalqaro va milliy tajriba asosida umumta’lim fanlari bo`yicha 16 ta standart ishlab chiqildi. 2013-2014 o`quv yilidan 1-sinfdan boshlab chet tillarda (ingliz, nemis yoki fransuz) o‘qitishning, chet tillari bo`yicha Davlat ta’lim standartlari ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Maktab ta’limini rivojlantirish umummilliy Davlat dasturining (2004-2009 yy.) amalga oshirilishi va keyingi xalqaro taraqqiyot institutlari bilan xamkorlikda qabul qilinayotgan yillik investitsiya dasturlari natijasida sinflarning laboratoriyalar bilan jihozlanganligi daraja-sini ancha oshirishga erishildi. Mamlakatning barcha ta’lim muassasalari «ZiyoNET» jamoatchilik ta’lim axborot tarmog‘iga o`landi[2]. Islohot yillarida o‘qituvchilik kasbining roli va obro`sini oshirish, pedagoglarning o‘z kasbiy mahoratlarini muntazam oshirib borishdan manfaatdorliklarini ta’minlash borasida muhim chora-tadbirlar qabul qilindi: umumta’lim tizimida ishlovchilarning ish haqi xajmi bir necha martaga oshdi. Yurtimizda savodxonlikning yuqori darajasi saqlanmoqda. Umumta’lim maktablarida o‘zlashtirish ko‘rsatkichi monitoringining ko‘rsatishicha, o‘quvchilarning bilim va ko`nikmalari 2011-2013 yillar davrida ancha yaxshilandi. 16 ta fanlar bo`yicha baholar 2011 yildagi 100 balldan o‘rtacha miqdordagi 70,8 balldan 2013 yildagi 77,8 ballgacha yaxshilandi. Masalan, matematika bo`yicha Farg‘ona (90,5), Buxoro, Qashqadaryo, Navoiy viloyatlari

(86,8), Toshkent shahrida (86,3), Xorazm viloyatida (85,3) o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqori (100 dan) 80,2, Jizzax (62,3), Andijon (69,8), Namangan (74,8) va Toshkent viloyatlarida (74,3) bu ko`rsatkich o‘rtachadan past buldi [3]. 2005-2013 yillar davrida xalqaro o‘smirlar sport musobaqalarida qo‘lga kiritilgan medallar soni 1284 tani tashkil etdi. Xalqaro sport musobaqalarida g‘olib bo‘lgan qizlar soni 1991 yildagi 31 nafardan 2013 yildagi 213 nafarga qadar oshdi. 2003-2012 yillar davomida sport bilan shug‘ullanuvchi 6-15 yoshli bolalar soni Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Qashqadaryo, Farg‘ona, Andijon, Jizzax va Toshkent viloyatlarida deyarli ikki marta ko`paydi. Muntazam sport bilan shug‘ullanuvchi bolalar sonining ko`payishi bolalar salomatligining yaxshilanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. 2003-2013 yillar davomida sport bilan shug‘ullanuvchi 10-14 yoshli bolalar bo`yi o‘sishi yillik o‘rtacha 3,1 sm ga oshdi, qizlar uchun mazkur ko‘rsatkich 2,8 sm ni tashkil qildi. So‘nggi paytlarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev respublikamiz ta’lim tizimini isloh qilish borasida katta sa’y-harakatlarni amalga oshirib, ta’lim tizimining samaradorligini oshirish, uni yuksak rivojlangan davlatlar standartlariga yaqinlashtirish zarurligini doimiy ta’kidlab kelmoqda. Buning uchun respublikada ko‘p ishlar qilinmoqda zamonaviy maktablar qurilmoqda, ixtisoslashtirilgan maktablar (prezidentlik, xususiy, chet tillarda o‘qitiladigan maktablar) tashkil etilmoqda. Prezident tashabbusi bilan maktab o‘qituvchilari va oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilarining maoshlari oshirildi. 2025-yilga borib maktab o‘qituvchilarining maoshi 1000 dollarga yetkazilishi va’da qilingan va bu orqali Prezident o‘qituvchining obro‘-e’tiborini oshirish niyatida. O‘qituvchining yuksak obro‘-e’tibori o‘rta va oliy ta’lim uchun mutaxassislar tayyorlaydigan pedagogika va boshqa oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga kirishda yuqori tanlov o‘tkazish orqali o‘qituvchilarning o‘zlarini yuqori darajada tayyorlashni rag‘batlantiradi. Oliy ta`limning davlat standartlari Oliy va o‘rta maxsus talim vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Strukturaviy chora-tadbirlar bo‘yicha yangi Erasmus+ loyihalaridan biri “NURSLIN: Milliy malaka doirasi: malakalarni ishlab chiqish va tan olish bo‘yicha yo‘riqnoma” (561742-2015) malaka asoslari bo‘yicha Milliy qo‘mita tashkil etish va umumiy qoidalarni takomillashtirishga qaratilgan. Respublika hududlarida 6 ta filial va 6 ta xalqaro universitetlar. Respublika hududlarida filiallar 44ta, 36 ta MDH va boshqa vazirliklar institutlari, respublika hududlarida 7 ta filiallar va 1 ta xorijiy universitetlar. Bugungi kunda iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalar uchun 6 ta bilim yo‘nalishi bo‘yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanmoqda. Shu tariqa,

gumanitar soha uchun – 48ta, ijtimoiy soha, iqtisodiyot va huquq – 40, ishlab chiqarish-texnika sohasi – 24, qishloq va suv xo‘jaligi – 10, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot – 9ta kadrlar tayyorlash amalga oshirilmoqda, xizmat ko‘rsatish sohasi – 26 ta oliy ta’lim muassasasida. Respublikada Yevropa va Osiyoning 7 ta xalqaro universitetlari muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Ingliz tilida dars berish: Vestminster universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, Turin politexnika universiteti, Inha universiteti.

Rossiya neft va gaz universiteti, Moskva davlat universiteti, Rossiya iqtisodiyot universiteti ushbu universitetlar mehnat bozorida talab katta bo‘lgan mashinasozlik, neft va neft sanoati kabi kasblar bo‘yicha bakalavr va magistrlarni tayyorlaydi. Gaz, axborot texnologiyalari, iqtisodiyot va biznes boshqaruvi, moliyaviy menejment, tijorat huquqi, kompyuter injiniringi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan respublika davlat oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga kirish uchun test imtihonlari o‘tkaziladi; kadrlar tayyorlash sifati va o‘quv jarayoni samaradorligini xolis baholash ustidan nazoratni amalga oshiradi; o‘qituvchilar, professor-o‘qituvchilar va boshqaruv xodimlarini attestatsiyadan o‘tkazadi; nodavlat talim muassasalariga litsenziyalar beradi; xorijiy davlatlarda berilgan talim hujjatlarini ko‘rib chiqadi va nostrifikasiya qiladi. Prezidentimiz tashabbusi bilan so‘nggi ikki-uch yil ichida yuzlab qo‘lyozmalar respublikaga qaytarildi. Bu qo‘lyozmalarni tahlil qiladigan bo‘lsak, ularning aksariyati ilmiy asoslarga asoslanganligini, yani fundamental fanlarga: chizmachilik, matematika, biologiya, anatomiya, ilohiyotga taalluqli ekanligini ko‘rishimiz mumkin. 1994-yilda O‘zbekiston hukumati va YUNESKO tashabbusi bilan ushbu xalqaro tashkilotning Parijdagi qarorgohida Mirzo Ulug‘bek tavalludining 600 yilligi keng nishonlanganini alohida ta`kidlash joiz. Mustaqilligimizning ilk davrida ilk yirik xalqaro ilmiy anjumanga aylangan ushbu nufuzli tadbir misolida ham buyuk bobomizning ilmiy merosi jahonda yuksak e`tirof etilganiga ishonch hosil qilishimiz mumkin. Ajdodlarimizning bugungi kunda butun dunyoni lol qoldirayotgan ilmiy merosi nafaqat bir millat yoki xalqning, balki butun insoniyatning ma`naviy merosidir. Bebaho boylik kelajak avlodlar uchun donishmandlik va bilim manbai, eng muhimi, yangi kashfiyotlar uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilishi shubhasiz. Tarixiy haqiqat shundaki, hech bir davlatda jahon sivilizatsiyasiga hissa qo‘shgan olimlar soni unchalik ko‘p emas.

O‘zbekistonda yetishib chiqqan olimlar soni bilan faxrlanishga ma`naviy haqqimiz bor. Mamlakatimizda Imom Buxoriy, Imom Termiziy

va Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, Islom sivilizatsiyasi markazi, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi tashkil etilgan. Hududlarda Qur’on, aqida, so‘fiylik, fiqh va hadis ilmlarini o‘rganadigan maktablar ochildi. Keyingi to‘rt yil davomida O‘zbekiston jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘lidan borayotgani ajablanarli emas. Chunki innovatsiyalar kelajakdir. Hozirgi shiddatli davrda yangi fikrga, yangi g‘oyaga, demak, innovatsiyaga tayangan davlat g‘alaba qozonadi.

Bugun ana shu shoshilinch davatni inobatga olgan holda mamlakatimizning ko‘p qirrali rivojlanishiga xizmat qiluvchi yangi qonunlar, davlat dasturlari, “yo‘l xaritalari” ishlab chiqilmoqda:

2017 yilda Innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil etildi. Kafedra uchun Toshkent shahridagi fan va ta’lim markazi “Talabalar shaharchasi”da ilmiy-texnikaviy ijodkorlik uchun barcha shart-sharoitga ega noyob bino barpo etildi. Bir so‘z bilan aytganda, respublikani 2030-yilga borib, Global innovatsiyalar indeksi bo‘yicha yetakchi 50 davlat qatoriga kirishi uchun innovatsion rivojlanish yo‘lida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz takidlaganidek, O‘zbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat, zamonaviy kadrlar, yuqori texnologiyalar sohasida jahon miqyosida raqobatbardosh bo‘lishi kerak. Asosiy maqsad- mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalariga muvofiq kadrlar tayyorlash mazmunini qayta ko‘rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy malumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni taminlash belgilandi. Natijada keyingi to‘rt yilda mamlakatimizda 43 ta yangi oliy talim muassasasi tashkil etilib, ularning soni 121 taga yetdi. Joriy yilda bir yarim millionga yaqin yoshlar oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga kirish uchun hujjat topshirgan. Bu o‘tgan yilga nisbatan 40 foizga ko‘pdir. Yosh avlod tarbiyasida hal qiluvchi o‘rin tutadigan bog‘cha va maktablar tizimida ham ulkan o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Prezident, ixtisoslashtirilgan va ijodiy maktablar tashkil etish, “Zamonaviy maktab” dasturini joriy etish ishlari davom ettirilmoqda.– Maktab hayot-mamot masalasi, kelajagimiz, – dedi davlatimiz rahbari. Bu masalani hukumat va hokimlar bir o‘zi hal qila olmaydi. Bu butun jamiyatning ishi va burchiga aylanishi kerak. Maktabni o‘zgartirmay turib, insonni, jamiyatni o‘zgartirib bo‘lmaydi. Eng zamonaviy ta`lim maskanlarida tahsil oladigan yoshlar, davlatimiz rahbari tabiri bilan aytganda, O‘zbekistonning “oltin fondi”dir. Bu esa bizda yangi Xorazmiy, Ibn Sino, Ulug‘beklar shakllanishi

uchun hamma narsa borligini, shuning uchun O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davrining poydevori qo‘yilganligini ko‘rsatadi. Farzandlarimizning istedod va qobiliyatini, ezgu intilishlarini har tomonlama ro‘yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, hayotda munosib o‘rin topishi uchun zarur shart-sharoit yaratish O‘zbekistonda davlat va jamiyatning asosiy maqsadi bo‘lib qoladi[4]. Dual ta’lim ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni olishga qaratilgan bo‘lib, ularning nazariy qismi ta’lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta’lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi. Qonunchilikdagi yana bir yangilik oilada ta’lim olish va mustaqil ta’lim olish bilan bog‘liq. Bolalarning oilada ta’lim olishi va mustaqil ta’lim olish uslubiy va maslahat yordami ko‘rsatilgan holda tegishli o‘quv dasturlari bo‘yicha amalga oshiriladi. Oilada ta’lim olish va mustaqil ta’lim olish tartibi, shuningdek ta’lim oluvchilarning toifalari ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan belgilanadi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, yangi tahrirdagi qonunning quyidagi asosiy farqlari mavjud: birinchidan, ta’lim olish shakllarining tasnifi kengaytirilgan; ikkinchidan, Vazirlar Mahkamasi, Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi , Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi, shuningdek soha vazirliklari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari tafsilotlari bilan aniqlashtirilgan;

uchinchidan, ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarining huquqiy maqomi katta etibor qaratilgan;

to‘rtinchidan, davlat ta’lim standartlari va talablari, o‘quv jarayoniga o‘quv rejalari va dasturlarini, ta’lim sohasiga eksperimental va innovatsion faoliyat ta’limni joriy etish bilan bog‘liq masalalar tartibga solingan;

beshinchidan, ta’limga oid vakolatli organlar sanab ko‘rsatilgan va ularning vakolatlari, huquq va majburiyatlariga oid normalar belgilangan, ta’lim jarayonini davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilish mexanizmlari belgilangan[5]. So‘nggi yillarda mamlakatimizda Prezident, ijod va ixtisoslashgan maktablarining ochilishi, oliy ta’lim muassasalari sonini 141 taga yetkazilishi, qabul kvotalarini 3 barobar oshirilishi va bitiruvchini oliy ta’limga qamrab olish darajasini 9 foizdan 28 foizga ko‘tarilishi yoshlarga keng imkoniyatlar eshigini ochdi, bilimli yoshlar salmog‘i ortishiga zamin yaratdi. Bu imkoniyat va sharoitlar nafaqat yoshlarni, ilm-fan va ta’lim sohasi vakillarini, balki barcha xalqimizni birdek quvontirib kelmoqda.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan oqilona siyosat, yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar, fan va ta’lim ahlining jamiyatda tutgan mavqeyini oshirishga qaratilgan e’tiborlar

Yangi O‘zbekistonda farovon hayot barpo etishning asosiy omillaridan biriga aylandi. Bu e’tibor yangicha fikrlaydigan, mas’uliyatli, tashabbuskor, raqobatbardosh, vatanparvar va fidoyi yosh avlodni kamolga yetkazishga xizmat qiladi. Yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek: «Ma’naviy uyg‘oq jamiyatni, o‘z oldiga ulkan vazifalar qo‘yib, kelajak sari ishonch bilan borayotgan xalqni hech kim o‘z yo‘lidan to‘xtata olmaydi»[6]. Yani maktab, ta`lim, tarbiya bor joyda bolalar yomon yo‘ldan bormaydi, jinoyatga qo‘l urmaydi. Demak, qamoqxonalarga ehtiyoj qolmaydi. O‘zbekistonda 11 yillik maktab talimini tiklash bejis emas. Mamlakatimizda “Maktabgacha ta`lim – maktab ta`limi – oliy ta`lim” uzluksiz milliy ta`lim tizimi yaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati

1. Mahkamov S.T. Tarix ta’limida kurslararo uzviylikni ta’minlashning didaktik asoslari // ped. fanlari nomz. diss. – T.: 2005. –b. 180.
2. Botirov, I. Mesto interaktivnых metodov obucheniya i - kommunikatsionnых texnologiy v prepodavanii istorii Uzbekistana.2015. b. 29-31
3. O‘zbekistonda umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi sifatini oshirish masalalarinauchnoy stati po spesialnosti «Nauki ob obrazovanii».
4. Axunova Sh. https://cyberleninka.ru/article/n/kompetentsiyaviy-yondashuvga-asoslangan-davlat-talim-standartlarini-zhoriy-etish-zamonaviy-talim-paradigmasi-sifatida
5.Ta’lim islohotlari xalqaro standartlarga mosmi? Uzbekiston ovozi gazetasi. https://uza.uz/uz/posts/talim-islohotlari-xalqaro-standartlarga-mosmi_236932
6.O`zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risida”gi PF-5847-sonli Prezident farmoni. T. 8 oktyabr 2019 yil.

YOSH BUXOROLIKLAR FAOLIYATI

Dadajanova Gulnora Baxodirovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Ikkinchi Oliy Ta’lim talabasi
Ilmiy rahbar: Sh.A.Sulaymanova

Annotatsiya. *Ushbu maqolada “Yosh buxoroliklar” harakatining tashkil topishi va olib borgan faoliyati, BXSR tashkil etilishi, milliy-hududiy chegaralanish va bu holatlarga sovet hokimiyatining munosabati haqida so‘z*

yuritiladi. "Yosh buxoroliklar" harakatining faoliyati turli xil manbalar orqali yoritishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: *"Yosh buxoroliklar", inqilob, islohat, manifest, partiya, bolsheviklar, uyezd.*

Buxoro amirligi XIX asr ikkinchi yarmida yuz bergan Rossiya imperiyasi bosqinidan keyin o'z mustaqilligidan mahrum bo'ldi va Rossiya protektoratiga aylanib qolgandi. Ular ichki siyosatda nisbatan mustaqil bo'lsalar ham, ammo Buxoroning xorijiy davlatlar bilan siyosiy va savdo-tijorat aloqalari Rossiya hukumatining to'liq nazoratida amalga oshirilardi. Buxoro amirligining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-xo'jalik hayotida Rossiya mustamlakachiligi siyosatining kuchli ta'siri sezilib turardi. Buning ustiga mamlakatning hukumdor doiralari xalqqa keragidan ziyod jabr-zulm o'tkazib kelardilar. Shu voqealar sabab amirlikda ommaviy norozilik harakatlari to'xtovsiz yuzaga kelib, kuchayib bormoqda edi. 1917-yilgi fevral inqilobiy o'zgarishidan keyin Turkiston, Xivada bo'lgani singari Buxoroda ilg'or demokratik harakatlar avj oldi. Endilikda Buxoro amirligi fevral o'zgarishidan so'ng, o'zini Rossiya ta'siridan qutqarib, mustaqillikni qo'lga kiritishga intildi.

1917-yil boshida butun Rossiyada vaziyat juda yomonlashdi. Fevral oyida avjiga chiqqan ish tashlash va namoyishlar davlatga qarshi siyosiy harakatga aylandi. 1917-yil 27-fevralda isyonchilar g'alaba qozonishi bilan Rossiyada yangi davr boshlandi. Natijada Chor tuzumi 2-mart kuni podsho Nikolayning II ning o'rnini egalladi [1.213-b]. Bu voqealar natijasida Buxoroda ham siyosiy o'zgarishlar yuz berib siyosiy mustaqilik sari qadam qo'yilgan edi.

Turkistonda jadidchilik harakatining kuchayishi natijasida kuchayishi natijasida Buxoroda "Yosh buxoroliklar" (1910) va Xivada "Yosh xivaliklar" (1914) partiyalari ajralib chiqdi. Buxorodagi jadidchilik xarakati Turkiston o'lkasidagiga nisbatan og'ir ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda yuzga kelgan edi. Uning tarkibi asosan Buxorodagi shahar aholisining taraqqiyparvar qismi: ziyolilar, talabalar, mayda do'kondorlar, ma'murlar, hunarmandlar va savdogarlardan iborat [2.93-b]

XX asr boshlarida ilg'or, taraqqiyparvar ziyoli yoshlardan tashkil topgan Yosh buxoroliklar tashkiloti ham aynan shu maqsada faoliyat yuritardi. "Yosh buxoroliklar" harakati o'z saflarida Abduvohid Burhonov, Usmon Xo'jayev (Usmonxo'ja Po'latxo'jayev), Fayzulla Xo'jayev, Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy, Mirza Muhitdin Mansurov, Abdulqodir Muhitdinov va boshqa o'nlab ziyolilarni qamrab olgan edi.

Amir Abdulahatning harakati tufayli jadidchilik harakati Buxoroga kirib kelgan edi. Har bir sohada Rossiya bosimiga duch kelgan amir bu muammodan qutilish uchun, Rossiya va Turkiyaga talabalar jo‘natish bo‘yicha qushbegi va shayxulislomga ko‘rsatmalar berdi. Shunday qilib, til va huquq bo‘yicha ta’lim olish uchun Qarshibek, Mulla Karim, Mirzo Ahmat Haydarlar Rossiyaga yuborildi. O‘qishni tamomlab, Buxoroga qaytgach ular amir xizmatiga kirdilar. Bundan tashqari, 1884-yildan beri Usmon Xo‘ja, Mirzo Abdulahad, Ahmat Maxdum, Mirzo Hasan, Hoshim Shayiq, qori Sirojiddin, Qosimxon, Mirzo Nazarulloh, Habibulloh, Mirzoshoh Fayz, Rofi Maxdum va Abdurrauf Fitrat kabi yoshlar Istanbulga (Usmonli imperiyasi) yuborilgan edi. Bu yoshlar o‘qishni tamomlab, o‘z mamlakatlariga qaytadilar. Ular mamlakatning siyosiy va madaniy hayotida juda muhim rol o‘ynadi. Usmonlilar imperiyasiga bu yuborilgan talabalarning umumiy soni 200 kishi bo'lib, ular ruslardan yashirincha jo‘natilgan edi. Barcha harajatlarni amirning o‘zi qoplagan [3.20-b]. Shu tariqa bo‘lajak “Yosh buxoroliklar” harakatining ildizlari paydo bo‘lgandi.

O‘lka jadidlari har qancha qarshiliklarga qaramasdan 1905-yilgi inqilobdan so‘ng Rossiya hududidagi butun turkiy qavmdagi xalqlar bilan, Turkiya mamlakati bilan yaqindan aloqa qilishga intiladilar. O‘z davrida turk dunyosi markazlari bo'lgan Qrim, Qozon, Istanbulda chop etilgan jadidchilik ruhidagi adabiyotlar Turkistonga tez kirib, keng yoyila boshlaydi. Istanbulda tashkil topgan “Jamiyati xayriya”, “Nashriyot shirkatlari” kabi ijtimoiy tashkilotlar Buxoro va Xivada ham maydonga keladi. Bu jamiyatlar ichida kamol topgan jadidchilik harakati o‘sib, 1908-yilgi Turkiya inqilobi tufayli yuzaga kelgan “Yosh turklar” harakatiga taqlid qilgan. Xivada “Yosh xivaliklar”, Buxoroda “Yosh buxoroliklar” jamiyatlarini yuzaga keltiradi. Bu jamiyatlar oxir-oqibatda siyosiy partiyalar maqomini oladilar. Bunday jadidchilik harakatining siyosiy tashkilotlari, jamiyatlari qisqa vaqt ichida Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo‘qon, Andijon kabi Markaziy Osiyoning yirik shaharlarida nufuzli tashkilotlarga ega bo‘ladi [4.287-b].

1916-1917-yillar oralig‘ida yashirin “Yosh buxoroliklar” firqasiva uning 12 kishilik markaziy qo‘mitasi tashkil topdi. Bu siyosiy partiyaning tashkil topishida “Yosh turklar”ning “ittihodi va taraqqiy” firqasi, Rossiya va Turkistondagi sotsial-demokratik firqalarning ta’sirikatta bo‘ldi. “Yosh buxoroliklar” firqasining Markaziy Qo‘mitasi raisi Abduvohid Burhonov, kotibi Usmon Xo‘ja (Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev), xazinador Muso Saidjonov edi. Bulardan tashqari firqaning tashkil topib mustahkamlanishida Abdurauf

Fitrat (1886–1938), Ota Xo‘jayev (1894–1938), Mirkomil Burhonov, Fayzulla Xo‘jayev (1896–1938), Sadriddin Ayniy (1870–1954), Fazlitdin Maxsum, Abdurahim Yusuf Zoda (1880–1937) va boshqalarning hissasi katta bo‘ldi. “Yosh buxoroliklar” firqasining dastlabki faoliyatiga oid tarixiy hujjatlardan biri Buxoroda o‘tkazilishi zarur bo‘lgan islohot loyihasidir. Uni 1917-yilda firqa markaziy qo‘mitasi nomidan Abdurauf Fitrat yozgan. U, “Yosh buxoroliklar” partiyasi, “Yosh buxoroliklar qo‘mitasining Buxoroda islohot o‘tkazish loyihasi” deb nomlandi [5.162-b]

Yosh buxoroliklar partiyasi vakillari Turkiya, Afg‘oniston, Hindiston, Eron, Misr mamlakatlaridagi yoshlar harakatlari vakillari bilan o‘zoro aloqda bo‘lishdan cheklanmasdan, Rossiya imperiyasida mavjud bo‘lgan turli musulmon pariyalari va tashkilotlari bilan ham munosabat o‘rnatishgan [2.94-b]

Buxoro jadidlari 1917yil inqilobiy voqealaridan foydalanib keng xalq manfaatlari foydasiga muhim siyosiy o‘zgarishlarni ro‘yobga chiqarishga harakat qildilar. Ayniqsa, bunda amirga shartlar qo‘yib, uni xalqqa ko‘p masalalarda yon berishga, siyosiy tuzumni o‘zgartirishga, xususan, konstitutsion monarxiya joriy etishga undadilar. Yosh buxoroliklar rahbarlari ishlab chiqqan islohotlar loyihasida, amir huzurida va joylarda xalq vakillari bo‘lishi, ma’muriyat yaxshilanishi, u xalq vakilligi nazoratida bo‘lishi, amaldagi soliqlardan tashqari boshqa soliqlar bekor qilinishi, maktab va matbuot erkinligi, amirning amaldorlaridan ba’zilarini o‘zgartirish talablari ko‘rsatilgan edi.

1917-yil 7-aprelda amir Said Olimxon xalqning istagi va Yosh buxoroliklarning islohiy talablari asosida Manifest e’lon qilishga majbur bo‘ladi. Unda amirlik tuzumining ba’zi sohalarida bir qator demokratik o‘zgarishlar o‘tkazish nazarda tutilgandi. Soliqlarni tartibga solish, turli ijtimoiy tabaqalar vakillaridan iborat Majlis tashkil qilish, maorif, tibbiyot, sud tizimi faoliyatini yaxshilash, ma’muriy boshqarish ishlarini takomillashtirishkabilar mavjud edi. Amir manifesti Yosh buxoroliklar tomonidan ma’qullanib kutib olindi, biroq hukmron doira a’zolaridan buni istamaganlar va qarshi bo‘lganlar ham mavjud bo‘lib, ular namoyishga chiqqan islohot tarafdorlariga hujum qilib, poytaxtda qonli qirg‘inlar uyushtirdilar. Yosh buxoroliklarni ta’qib qilish shu tariqa vujudga keldi. Shu sababli yosh buxoroliklarning ko‘pchiligi qo‘shni Turkiston ASSR ga ketishga majbur bo‘ldi. Islohiy harakatlarning birinchi bosqichi g‘alabasiz yakun topdi.

Buxoroda sodir bo‘lgan bu qancha minglab begunoh insonlarhqonining behuda to‘kilishiga sabab bo‘ldi bu esa bolsheviklarning buzg‘unchilik siyosati amalga oshirishiga zamin yaratgan edi. Bundan tashqari Rossiya shaharlariga yuborilgan mahsulotlar sotilmay qolib ketdi. Buning hisobiga Rossiyadan keltiriladigan mahsulotlar kelishi uzilib qoldi. Buxoroning Rossiya bilan savdo-sotiq, aloqalaridagi bu muammolar davlat va aholining iqtisodiy hayotiga va turmush darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Bu esa xalq orasida ham norozilik kayfiyati paydo bo‘lishiga va norozilik harakatlarining kuchayishiga olib keldi. Buxoro Amirining o‘z davlatiga nisbatan tahdid va hujum xavfiborligini taxmin qilgan holda harbiy qo‘shinini doimiy ravishda ko‘paytirishga urinishi aholi yelkasiga tushayotgan yukni ko‘paytirayotgandi. Bu vaziyatdan esa Turkistonning sovet mutasaddilari foydalanib qoldilar. Ular Buxorodan kelgan inqilobiy harakatdagi kuchlarni ishga solishga inildilar, ularning tashkilotlarining tuzilishiga yordam berib, “Buxoro inqilobi”ni tayyorlab bordilar.

1920-yilning yanvarida Toshkentda F.Xo‘jayev boshchiligida Yosh buxoroliklar inqilobchilar partiyasining Turkiston markaziy Buyrosi tashkil etilib, Turkkomissiya va RSFSR hukumati tomonidan e’tirof etildi. “Yosh buxoroliklar” partiyasi dasturi va 1920-yil iyundan chiqa boshlagan “Uchqun” gazetasi sahifalarida Buxoroda amirlikni tugatish, xalq manfaatini ko‘zlab bir qator demoktarik o‘zgarishlar qilish g‘oyalari ilgari surilgan edi [6.320-b]

1920-yil sentabrda M.Frunze boshliq Qizil armiya qo‘shinlari 24 yashar Fayzulla Xo‘jayev rahbarlik qilayotgan “Yosh Buxoroliklar”ga “yordam berish” maqsadida Buxoro amirligiga qurolli bosqin uyushtirdi. Natijada amirlik quladi, xazina talon-taroj qilindi, Buxoro shahri qisman vayron qilindi [7.8-b].

Amirlik hududida Buxoro Xalq Sho‘ro Jumhuriyati e’lon qilindi. 1921-yilda BXShJ Konstitutsiyasi qabul qilindi. Umumbuxoro inqilobiy qo‘mitasiga A.Muxitdinov, Nozirlar kengashiga F.Xo‘jayev rahbarlik qildi. Har ikkisi ham so‘l jadidlarning turli buxorolik guruhlari vakili edi. Hukumat tarkibiga boshqa ko‘plab ko‘zga ko‘ringan jadidlar kiritildi. Jadidlar partiyasi Turkiyadagi islohotlar misoliga ochiq e’tibor qarata boshladi: respublikada ish yuritish turkiy tilga o‘tkazildi, ko‘plab turkiy madaniy dasturlar ko‘chirildi va hokazo. Yangi Buxoro hukumati faoliyatida turklar ham, tatar-boshqird siyosatchilari ham faol ishtirok etdilar. Umumturkiston g‘oyasini amalga oshirish yo‘lida yangi markaz maqomiga endi Buxoro ham da’vo qila boshladi [8.114-b].

Bolsheviklar Ulug‘ Turkiston g‘oyasi tarafdorlariga qarshi kurashda Usmonli turk davlatida hokimiyatga kelgan “Yosh turklar” harakati yetakchilarining o‘lkadagi mavqe’yidan foydalanishga harakat qilishdi. Turkiyadan sultonning kuyovi Anvar Poshshoning Sharqiy Buxoroga kelishi ayni muddao edi [9.24-b]. O‘lka aholisi qo‘rboshilarga qaraganda Anvar Poshshoga ihlosi baland edi. Lekin 1921-yilga kelib va’ziyat o‘zgardi, endilikda Anvar Poshsho tarafdorlari bolsheviklar uchun muxolifatchi va dushman kuch sifatida jiddiy muammoga aylandi. Avvallari sovetlar ittifoqchisi sifatida qayd etilgan Anvar Poshsho Turkistonda bolsheviklarga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib bordi. Hattoki bolsheviklar unga Sharqiy Buxoroda uning hokimiyatini tan olishlari evaziga kurashni to‘xtaib sulh tuzishni taklif qilishgan. Lekin u rozi bo‘lmagan, hamda 1921-yilning fevralida Dushanbe shahrini Qizil armiyadan ozod qilib, Buxoro shahrini qamal qilgan.

Bolsheviklar Anvar poshshoga qarshi kata kuchlarni tashlab, keng miqyosli harbiy operatsiya uyushtirishdi. 1922-yilning yozida Qizil Armiya bilan janglardan birida Anvar poshsho halok bo‘ldi. Uning o‘rniga turk Salim Poshsho bosh qo‘mondon bo‘ldi. 1923-yilda Qizil Armiya va Basmachilar o‘rtasida shiddatli janglar bo‘lib o‘tdi. Salim Posho qo‘shinlari mag‘lubiyatga uchrab Afg‘onistonga ketishga majbur bo‘ldi.

Ana shu voqealarning barchasi fonida 1924-yilning boshidayoq KP (b) MQ Turkiston, Buxoro va Xorazmni milliy-hududiy chegaralash masalasini yana bir bor ko‘tardi. Bahorda bu qaror Buxoro va Turkiston elitasi tomonidan faol muhokama qilindi. O‘lkadagi mavjud uchta davlat – Turkiston Muhtor Sho‘ro Jumhuriyati, Buxoro Xalq Sho‘ro Jumhuriyati hamda Xorazm Xalq Sho‘rolar Jumhuriyati o‘rnida uchta milliy respublika – o‘zbek, turkman va qirg‘iz (qozoq) respublikalarini yaratish rejasi vujudga keldi, to‘g‘rirog‘i, qayta tiklandi. Faqat bu safargi islohot Turkistondan tashqari, Buxoro va Xorazm ham qamrab olinishi kerak edi.

Milliy hududiy chegaralanishdan ko‘proq RSFSR bolsheviklar hukumati manfaatdor edi [9.118-121-b]. Sababi:

Yagona davlatdan ko‘ra, parchalangan “milliy” kuchlarga qarshi kurashish osonroq edi;

Ulug‘ Turkiston g‘oyasi amalga oshsa, RSFSRning hududiy yaxlitligiga dahl qilishi mumkin edi (tatar, musulmon xalqlarining ozodlik kurashiga yordam qilish ehtimoli mavjud edi);

Janubga – Hindistonga chiqish hamda u tarafdan keladigan xavf-xatarga qarshi turish uchun Turkiston o‘lkasi forpost sifatida kerak edi;

Milliy-hududiy chegaralash orqali, o‘lkadagi barcha iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy muammolardan millaatlar o‘rtasida o‘zaro adovat tarqatish yo‘lida foydalanish mumkin edi.

Bolsheviklar hokimiyat tepasiga kelgach, milliy siyosat Sovet hokimiyatini saqlash va mustahkamlash vazifasiga bo‘ysundirildi. Turkkomissiya yordami bilan bolsheviklar rahbariyati Turkiston milliy muxtoriyatining o‘sha davrda Sovet davlati manfaatlari uchun maqbul bo‘lgan modelini yaratishga muvaffaq bo‘ldi, Sovet Rossiyasi mintaqaning milliy mustahkamlanish jarayonini turkiy millatning siyosiy shakllanishi, musulmon kommunistlari orasida keng tarqalgan Ulug‘ Turkiston tuyg‘ularini rag‘batlantirish yo‘lidan emas, balki aholining etnik-madaniy o‘z taqdirini o‘zi belgilashi yo‘nalishiga yo‘naltirishi ma'qul ko‘rdi.

Turkiston Muxtor Sovet Sotsialistik Respublikasi Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining 1924-yil 16-sentabrda bo‘lib o‘tgan favqulodda sessiyasida O‘rta Osiyoda milliy hududiy chegaralanish o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Sentyabrda V Butun Buxoro xalq deputatlari qurultoyida, oktyabrda esa V Butun Xorazm Xalq deputatlari qurultoyida bu masala ko‘rib chiqilib “ma’qullandi” [11.24-25-b].

Milliy-hududiy chegaralanish natijasida yangi ashkil etilgan O‘zbekiston SSR tarkibiga sobiq Turkiston ASSRdan 9ta uyezd, 133 ta tuman va 7ta qishloq hududi kirgan bo‘lsa, BXSRdan 9-ta viloyat hamda Xorazm respublikasidan esa 23-ta tuman kiritildi [12.56-b].

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, “Yosh buxoroliklar” harakati negizida demokratik g‘oyalar yotar edi. Ular dunyoda bo‘layotgan o‘zgarishlarni o‘z yurtlarida ham bo‘lishini istar edilar. Ammo harakat ichida bo‘linish yuz bergani, va islohatlar uchun tanlangan yo‘l keyinchalik sodir bo‘lgan daxshatli voqealarda sabab bo‘ldi. Bu voqealarning ashaddiy aybdorlari sifatida “Yosh buxoroliklar” harakatining xolisona hurlik g‘oyalaridan o‘z maqsadlari yo‘lida foydalangan bolsheviklarni ko‘rsatish mumkin. 1924-yilgi Turkiston o‘lkasida o‘tkazilgan milliy-hududiy chegaralash siyosati mahalliy aholi o‘rtasidagi nizolarni bartaraf qilish, ijtimoiy-iqtisodiy adolat o‘rnatish niqobi ostida o‘tkazilgan bo‘lsada, aslida bolsheviklarning maqsadi butunlay aksi edi. Ularning asosiy maqsadi o‘lkadagi tarixiy davlatlar – Buxoro va Xivani siyosiy jihatdan tugatish va boyliklarini talash, hamda Ulug‘ Turkiston g‘oyasini yakson qilish edi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

[1].Akdes Nimet Kurat, Rusya Tarihi: Başlangıçtan 1917'ye Kadar, TTK Yayınları, Ankara1993, s.434.
[2]. L.Asrorova. Buxoro madrasalari tarixidan. Toshkent 2016y. 93-94-bet
[3].Muhammed Ekber Âşık Kabili, Tarih-i Hüzni'l Milel-i Buhara, W.U.F.A Yayınları, Peşaver 1992, s.20
[4]. R.Shamsutdinov , Sh.Karimov. Vatan tarix II kitob.Toshkent 2010y.20-bet
[5]. R.Shamsutdinov , Sh.Karimov. Vatan tarix III kitob.Toshkent 2010y.287-bet
[6]. Q.Ergashev, H.Homidov. O'zbekiston tarixi. Toshkent -2015.320-bet
[7]. *Арапов А. В.* Файзулла Ходжаев -бухарский путь в революцию. На правах рукописи. Стр 8.
[8]. Сергей Абашин, НАЦИЕСТРОИТЕЛЬСТВО И НАЦИОНАЛИЗМ: СРЕДНЯЯ АЗИЯ. «Вестник Российской нации», 2009 г. №3(5). Стр 114
[9]. И.Б. Бочкарева. Национально-территориальное размежевание в Средней Азии в 1924 г.: причины и влияние на этнополитические процессы в регионе. Известия АлтГУ. Исторические науки и археология. 2019. №2 (106) .Стр 24
[10].Сергей Абашин, НАЦИЕСТРОИТЕЛЬСТВО И НАЦИОНАЛИЗМ: СРЕДНЯЯ АЗИЯ. «Вестник Российской нации», 2009 г., №3(5). Стр 118-121
[11].Усубалиев Э.История национально-государствен-ного размежевания СреднейАзии[Электронныйресурс].URL:http://easttime.ru/reganalitic/1/27.html/ (дата обраще-ния: 14.08.2018).
[12]. И.Б. Бочкарева. Национально-территориальное размежевание в Средней Азии в 1924 г.: причины и влияние на этнополитические процессы в регионе. Известия АлтГУ. Исторические науки и археология. 2019. №2 (106).
Стр 24-25.
[13].Узбекская Советская Социалистическая Республика: Энциклопедия в одном томе / Гл. ред. акад. АН УзССР К. А. Зуфаров. Ташкент: Главная редакция УзСЭ, 1981. Стр.56

ILK O‘RTA ASRLAR BUXORO TARIXIDAN

Abduvaliyeva Asiya Mamirjon qizi,
Chirchiq Davlat pedagogika Universiteti
Tarix yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
asiyaabduvaliyeva@gmail.com
Ilmiy rahbar:katta o‘qituvchi ***Sh.A.Sulaymanova***

Jahon ilm fani, sivilizatsiyasi va taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan shaharlarimiz orasida Buxoro ham alohida o‘rin tutadi.Qariyb,uch mingyillik tarixga ega bu maskan haqida turli xil davrlarga oid ma’lumotlar yozilgan. Shahar Zarafshon daryosining quyi oqimida, uning irmoqlaridan biri - Shahrud (shahar ichidagi daryo) kanali bo‘ylab joylashgan, azal-azaldan mintaqa siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida muhim rol o‘ynagan. Tadqiqotchilar Buxoroni mintaqani tarixiy va madaniy birlashtirgan G‘arbiy yoki Buxoro so‘g‘diylari manzili, deb ham atagan.

Ilk O‘rta asr boshlarida Xitoy solnomalarida qayd etilganidek, 40 ga yaqin yirik shahar va mingta ishonchli qal'a Buxoro mulkida bo‘lgan. Vohaning poytaxti besh qavat devor va daryo bilan o‘ralgan29. Tarixiy manbalarda guvohlik berishicha, Buxoro vohasidagi Boykand shahri Eftaliylar davlatining poytaxti bo‘lgan. Buni Narshaxiyning Boykand va uning ijtimoiy-siyosiy mavqei to‘g‘risidagi ma’lumotlari, qolaversa arxeologlar tomonidan uzoq yillardan beri amalga oshirib kelinayotgan arxeologik tadqiqotlar buni tasdiqlaydi.Eftaliylar poytaxti bo‘lgan Boykand o‘z davrining eng chiroyli, obod Shaharlaridan biri sanalgan. Bu yerda savdo -sotiq, hunarmandchilik,qurilish ishlari ham ancha rivojlangan. Bundan tashqari, Shaharning Buyuk ipak yo‘lida joylashganligi unda mahalliy va xalqaro ahamiyatga molik savdo stiq, hunarmandchilikning rivojlanishiga keng imkon ochgan.vohaning muhim iqtisodiy, siyosiy va madaniy ahamiyatga sazovor shaharlaridan yana biri - bu Buxoro shahri edi. Turk xoqonligi davrida Buxoro muhim ahamiyat kasb etgan shaharlardan sanalgan. Xoqonlikka qarshi qaratilgan xalq harakatlari orasida VI asrning 80-yillarida Buxoro vohasida Abruy boshchiligida ko‘tarilgan qo‘zg‘olon alohida ajralib turadi. Bu harakat Buxoro vohasidagi jamoa erlarida yashagan kadivarlarning yirik er egalariga

29 https://dunyo.info sayti “Toshkent”Islom olami madaniyati poytaxti” Toshkent 2020

qarshi isyon koʻtarib, ularning hovli-joylariga hujum qilish, erlarini tortib olish, oʻzlarini esa quvgin qilish bilan xarakterlidir30. Buxoro vohasida roʻy bergan xalq qoʻzgʻolonlaridan biri Turk xoqonligining xonadonidan boʻlmish Abruy ustamonlik bilan foydalanishga harakat qilgan. Abruy Turk xoqoni Moxonning oʻgʻli boʻlib, u otasining oʻlimidan keyin boshqa shahzodalar qatori otasining taxtiga da'vogarlik qiladi. Ammo taxt uchun kurashda muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Shundan keyin u oʻziga sadoqatli kishilar bilan xoqonlik markazidan qochib, Buxoro vohasiga kelib qoladi.Buxoroda Abruyga qarshi xalq harakatlari boshlanadi. Bu haqda Narshaxiy oʻzining "Buxoro tarixi" kitobida ushbu hodisa toʻgʻrisida quyidagilarni yozadi: "Soʻngra Buxoroda qolgan kishilar oʻzlarining (qochib ketgan) sarkardalariga odam yuborib, Abruyning jabrzulmidan qutqarishni soʻradilar. Shunda sarkardalar va dehqonlar turklar podshohining oldiga bordilar, u podshohning nomi Qarojurin turk boʻlib, ulugʻligi sababli unga Biyogʻu deb laqab bergan edilar va Biyogʻudan arz-dodlarini eshitishni iltimos qildilar. Biyogʻu Sheri Kishvar nomli oʻz oʻgʻlini koʻp lashkar bilan yubordi. Sheri Kishvar Buxoroga kelgach, Baykandda Abruyni tutib band qildi. Uning farmoni bilan bir katta qopni qovoq ariga toʻlgʻizib, Abruyni shu qopga soldilar va u qop ichida oʻldi. Sheri Kishvarga bu viloyat yoqib qolib, otasiga xat yubordi va undan bu viloyatni talab qilib, Buxoroda turishi uchun ruxsat berishini iltimos qildi. Biyogʻudan: «u viloyatni senga bagʻishladim», degan javob kelgach, Sheri Kishvar Hamuketga odam yuborib, Buxorodan qochib ketgan kishilarni xotin va bolachaqalari bilan Buxoroga oldirib keldi va oʻsha vaqtdayoq yana:

«Ham u ketidan kelgan har bir kishi (amirning) yaqin kishilaridin boʻladi» degan buyruq boʻldi. Buning sababi, kimki boy va katta dehqon boʻlgan boʻlsa, Buxorodan qochib ketgan, kambagʻal va bechoralar esa Buxoroda qolgan edilar. Qochib ketgan kishilar qaytib kelgach, chorasiz (Buxoroda) qolgan (kambagʻal)lar ularga xizmatkor boʻldilar. Buxoroga qaytib kelgan guruh orasida bir katta dehqon bor edi, u qadimiy dehqonzoda va koʻproq daromadli erlar uniki boʻlganligidan uni «Buxorxudot» der edilar va (Buxoroda qolganlarning) koʻplari uning kadivarlari va xizmatkorlari edilar. Sheri Kishvar Buxoro shahristonini qurdi hamda Mamostin, Saqmatin, Samtin va Farab qishloqlarini bino qildi. U yigirma yil podshoh boʻlib turdi. Undan keyin boʻlgan boshqa podshoh Iskajkat, Sharg' vaRomtin qishloqlarini bino

2 Hakim Toʻrayev Buxoro tarixi oʻquv qoʻllanma "Durdona"nashriyoti 2020-yil 71-bet

qildi, so‘ngra Faraxshiy qishlog‘iga asos soldi”31.Arablar Buxoroda boshqargan hukmdorlarni o‘z tillariga Moslashtirib “Buxorxudotlar”, «Buxor-xudo» (Buxoro hokimi) deb nomlaganlar. Buxorxudotlarning hududi Buxoro viloyatining Buxoro, Vobkent, Kogon, Romitan, Jondor va Qorako‘l tumanlari yerlaridan iborat bo‘lgan. Arablar Buxoroni fath etgandan keyingi dastlabki yillarda hokimiyatni buxorxudotlar bilan birgalikda boshqarganlar. 715-yili Xuroson noibi Qutayba ibn Muslim o‘ldirilgach, buxorxudotlar Buxoroni bir yil davomida mustaqil idora qilganlar xalos.782-yil so‘nggi buxorxudot Bunyod Muqanna qo‘zg‘olonini qo‘llab-quvvatlaganligi uchun arablar tomonidan qatl etilgan.Buxoro egalangandan kiyin asta sekin islom dinini markazlaridan biriga aylana boshlaydi va turli xil nomlar bilan atalgan.

Xulosa qiladigan bo’lsak, VIII asr boshlarida Buxoroga islom dini kirib kelishi bilan u sharif shaharga – islom olamining mashhur manzillaridan biriga aylandi va Qubbat ul islom yani Islom dining gumbazi hamda Buxoroyi Sharif deb atala boshlaydi. Arablar fathi Markaziy Osiyo, jumladan, Buxoro tarixida ham burilish davri bo‘ldi desak adashmagan bo‘lamiz. Islom dini mintaqa hayotiga kirib keldi va bu yerda mustahkam ildiz otdi. Hozirgi kunda ham Buxoro Islom dinini yirik markazlaridan biri bo‘lib kelmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

32 https://dunyo.info sayti “Toshkent”Islom olami madaniyati poytaxti” Toshkent 2020

2 Hakim To‘rayev Buxoro tarixi o‘quv qo‘llanma “Durdona”nashriyoti 2020-yil 71-bet

3 Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар ан-Наршахий. Бухоро тарихи. – Тошкент: Шарқ машъалига илова, 1993. –Б.16-17.

3 Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар ан-Наршахий. Бухоро тарихи. –Тошкент: Шарқ машъалига илова, 1993. – Б.16-17.

[32] Karimov A. “Toshkent tarixidan lavhalar.” – Toshkent: Fan, 2001. – B. 37.

O‘QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA BIOLOGIYA FANINING ROLI

Abduxoshimova Dilshoda Rahimjon qizi
Abdinazarov Abdilaziz Faxriddin o‘g‘li
Pirjanova Xurshidabonu Murodbek qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Biologiya yo‘nalishi 3-bosqich talabalari

Annotatsiya: *ushbu maqolada o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda biologiya fanining ahamiyati tahlil qilinadi. Biologiya fani o‘zining ko‘p qirrali mazmuni va amaliy tajriba imkoniyatlari bilan o‘quvchilarda ilmiy fikrlashni, muammoli va ijodiy yondashuvni shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Maqolada biologiya darslarida tanqidiy fikrlashni rag‘batlantirish uchun qo‘llaniladigan pedagogik metodlar, o‘quvchilarning mustaqil fikr yuritish va tahlil qilish ko‘nikmalarini oshirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda biologiya fanining o‘quv jarayonidagi o‘rni va unga bo‘lgan talablar yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *tanqidiy fikrlash, biologiya fani, o‘quvchilar, ta’lim metodikalari, bilim va ko‘nikmalar, ilmiy fikrlash, muammoli o‘qitish, ijodiy yondashuv.*

O‘zbekiston uchun mustaqil, erkin va tanqidiy fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalash bugungi kunning eng muhim va dolzarb vazifalaridan biridir. Shu bois, maktablar, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, texnikumlar hamda oliy o‘quv yurtlarida ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish orqali o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, ularning mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tizimli ravishda rivojlantirish zarur. Tanqidiy fikrlash o‘z-o‘zidan hosil bo‘ladigan ko‘nikma emas, balki muntazam mashq qilish, mantiqiy fikrlash va axborotni chuqur tahlil qilish orqali shakllanadigan murakkab jarayondir. Shu sababli, o‘quvchilarga foydali ma’lumotlarni olish, ularni baholash va mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini berish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon orqali yoshlar nafaqat bilimlarni egallash, balki kelajakda jamiyatning faol va mas’uliyatli a’zolari sifatida mustaqil qaror qabul qila olish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Shunday qilib, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish — yurtimizning barqaror taraqqiyoti va ijtimoiy rivojlanishi uchun poydevor yaratishdir.

Tanqidiy fikrlash — bu oddiy bilim yoki ma’lumotlarni yod olish emas, balki o‘rganilgan axborotni chuqur tahlil qilish, baholash, boshqa fikrlar bilan

taqqoslash va yangi g‘oyalarni ilgari surish orqali shakllanadigan yuqori darajadagi tafakkur ko‘nikmasidir[1].

AQSh pedagog olimi R.Ennis ta’kidlaganidek, tanqidiy fikrlash bu — “qaror qabul qilish va e’tiqod hosil qilishda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadigan oqilona, faol va maqsadli fikrlashdir”[2]. Bu ko‘nikma o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi, balki izchil, tizimli va interfaol metodlarga asoslangan o‘qitish orqali shakllanadi. Shu jihatdan, tanqidiy fikrlash o‘quv predmeti emas, balki ta’lim jarayonining mantiqiy natijasi sifatida qaraladi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jarayoni bir necha bosqichdan iborat bo‘lib, ulardan **birinchisi — da’vat bosqichi** deb yuritiladi. Bu bosqichda o‘quvchilarni ***yangi mavzuga tayyorlash, ularning bilim darajasini faollashtirish, ilgari o‘zlashtirgan tushunchalarni esga tushirish hamda mavzuga nisbatan qiziqish uyg‘otish*** asosiy maqsad hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bu bosqichda turli interfaol usullardan foydalanishni tavsiya qiladi. Jumladan, “Aqliy hujum” (brainstorming) metodi — o‘quvchilarda mavjud bilimlarni safarbar etish, erkin fikr bildirish va muammoni turli nuqtai nazardan ko‘rib chiqish imkonini beradi.

“Aqliy hujum” usuli dastlab yakka tartibda amalga oshiriladi: har bir o‘quvchi o‘zi bilgan yoki bilaman deb o‘ylagan fakt va g‘oyalarni mustaqil yozib chiqadi. Keyinchalik, bu fikrlar juftlikda, so‘ng guruh yoki sinf miqyosida muhokama qilinadi. Har qanday fikr — to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligidan qat’i nazar — erkin bildiriladi va doskaga yoziladi. Muhimi, bu jarayonda o‘qituvchi o‘z nutqini minimal darajada saqlagan holda, o‘quvchilarga erkin fikr yuritish uchun imkon yaratadi. Shu orqali o‘quvchilarda o‘z fikrini asoslash, boshqalar nuqtai nazarini inobatga olish va muhokama qilish madaniyati shakllanadi.

Da’vat bosqichida o‘quvchilar faolligini oshirish bilan birga, lider o‘quvchilar faoliyatini yo‘lga qo‘yish ham muhimdir. Ular guruhni muhokama jarayonida boshqarib boradi, sust faol o‘quvchilarni jalb etadi, ularning fikrlariga quloq tutadi va rag‘batlantiradi. Shu tariqa, bu bosqich o‘quvchilarning mavjud bilimlarini tahlil qilish, yangi mavzu yuzasidan o‘z pozitsiyasini aniqlash va keyingi bosqichlarga puxta tayyorlanishiga xizmat qiladi.

Pedagogik tajribalar ko‘rsatadiki, da’vat bosqichida tashkil etilgan faoliyat nafaqat tanqidiy fikrlashni, balki muloqot, hamkorlik, tinglay olish va fikrni asoslab berish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi[3]. Shu bois, bu bosqichni o‘quv jarayonining faqat kirish qismi deb emas, balki o‘quvchini fikrlashga undovchi asosiy platforma sifatida baholash lozim.

Shuni unutmaslik kerakki, agar yangi axborot oʻquvchi-talabaning mavjud bilimlari bilan bogʻlanmasdan taqdim etilsa, u tez orada unutiladi. Zero, ta'lim — bu mavjud bilimlar asosida yangi bilimlarni egallash va tizimlashtirish jarayonidir[4].

Ikkinchi bosqich – anglash. Bu bosqichda oʻquvchi-talaba ***yangi axborot bilan bevosita muloqotga kirishadi.*** Muloqot shakllari turlicha boʻlishi mumkin: matn oʻqish, ma'ruza tinglash, videomateriallar koʻrish, laboratoriya tajribalarini kuzatish yoki bevosita bajarish. Bu bosqichda oʻqituvchining roli sezilarli darajada pasayadi, chunki asosiy faoliyat oʻquvchilarning oʻzlari tomonidan amalga oshiriladi. Ularning anglash darajasi, yangi ma'lumotni oʻzlashtirishga boʻlgan tayyorgarligi va faol ishtiroki ushbu bosqichning samaradorligini belgilaydi.

Bu bosqichda tanqidiy fikrlashni ragʻbatlantirish uchun samarali texnologiyalardan biri — INSERT (Interactive Notation System for Effective Reading and Thinking) metodidir. Ushbu usul 1986-yilda Vogan va Estes tomonidan ishlab chiqilgan boʻlib, oʻquvchilar matn bilan ishlagan vaqtida oʻz fikrlarini belgilar yordamida izchil tarzda qayd etadi: + (bilaman), – (qarshi fikr), ? (savol), ! (qiziq) kabi belgilar orqali oʻqish jarayoni interaktiv tus oladi. INSERT usuli oʻquvchilarda metakognitiv (fikrlash haqida fikrlash) faollikni kuchaytiradi va ularni oʻrganilgan ma'lumotlar ustida chuqurroq oʻylashga undaydi (Vaughan & Estes, 1986).

Anglash bosqichining asosiy vazifasi — oʻquvchilar tomonidan yangi bilimlarni idrok etish, ularni avvalgi bilimlar bilan bogʻlash va mustaqil tahlil qilish asosida tushunchalarni shakllantirishdir. Bu bosqich ayniqsa fikrlash darajasi past boʻlgan oʻquvchilar uchun alohida e'tibor talab qiladi. Afsuski, an'anaviy ta'limda bu jihatlar yetarli darajada inobatga olinmaydi, natijada ularning faolligi va fikrlash salohiyati toʻliq ochilmaydi.

Uchinchi bosqich – fikrlash. Fikrlash bosqichi — tanqidiy fikrlashning asosiy mezoni hisoblanadi. Bu bosqichda oʻquvchilar ***ilgari anglagan va qabul qilgan yangi bilimlarni qayta ishlaydi, ularni oʻz soʻzlari orqali ifodalaydi, avvalgi bilimlari bilan bogʻlaydi va shaxsiy xulosalar chiqaradi.*** Bu — yangi tushunchalarni ongda shakllantirish, ularni baholash va muammolarga nisbatan mustaqil yondashuvni takomillashtirish bosqichidir.

Oʻquvchilarning yangi axborotni tahlil qilishi, u haqida mustaqil fikr bildirishga intilishi, boshqa fikrlar bilan taqqoslay olishi ularning tanqidiy fikrlash salohiyatini oshiradi. Shu bois, bu bosqichda oʻqituvchi oʻquvchilarga

savollar berish, munozaralar tashkil etish, esse yoki tahliliy matn yozdirish kabi metodlardan foydalangan holda ularni faol fikrlashga undashi lozim.

Pedagogik nazariyalarga koʻra, fikrlash bosqichida oʻzlashtirilgan bilimlar uzoq muddatli xotirada saqlanib qoladi va real hayotdagi vaziyatlarga tatbiq etish imkoniyati kuchayadi[5]. Aynan shu bosqichda tanqidiy fikrlashning mohiyati — fikrlarni tahlil qilish, mulohaza yuritish, asoslash va yangicha qarorlar qabul qilish koʻnikmalari shakllanadi.

Tanqidiy fikrlashni shakllantirish murakkab va izchil yondashuvni talab etadi. Buning uchun **quyidagi pedagogik shart-sharoitlar**ni yaratish muhim:

Oʻquvchilarga mustaqil fikr yuritish imkonini berish, ularni diqqat bilan tinglash madaniyatini rivojlantirish;

Har xil fikrlar va gʻoyalarni qabul qilish, ularni saralash va tahlil qilishga oʻrgatish;

Oʻquvchilarning oʻz fikrini ochiq bildirishiga zamin yaratish, tanqidiy fikrlari uchun kulgi yoki tanbeh emas, ragʻbat orqali javob berish;

Har bir oʻquvchiga tanqidiy fikrlashga qodir shaxs sifatida munosabatda boʻlish;

Tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi topshiriq, metod va muhitlar bilan oʻquv jarayonini boyitish.

Shunday qilib, tanqidiy fikrlash — zamonaviy ta’limning ajralmas elementi boʻlib, oʻquvchining nafaqat bilimli, balki fikrlay oladigan, tahlil qila oladigan va mustaqil qaror qabul qila oladigan shaxs sifatida shakllanishini ta’minlaydi. Bu esa yurt taraqqiyoti uchun intellektual salohiyati yuqori boʻlgan avlodni yetishtirishning asosi hisoblanadi.

Oʻzaro fikr almashish jarayonida oʻquvchilardan nafaqat oʻz fikrlarini erkin ifoda etish, balki boshqalarni diqqat bilan tinglash ham talab etiladi. Shu bilan birga, oʻz qarashlarini majburlab qabul ettirish yoki boshqalarni doimiy ravishda tuzatishga harakat qilishdan tiyilish muhimdir. Bunday yondashuv, pedagogik tadqiqotlar natijasida koʻrsatishicha, oʻquvchilar oʻrtasida konstruktiv munozaralar yuzaga kelishiga va oʻzaro hurmat tamoyilida fikr almashishga yordam beradi[6].

Munozaralarda keng doiradagi fikrlar va nuqtai nazarlarni tinglash oʻquvchilarga oʻz gʻoyalarini tanqidiy tahlil qilish imkonini beradi, shuningdek, boshqa fikrlar bilan solishtirish orqali ular oʻz qarashlarini yanada aniqlashtiradi va takomillashtiradi. Bu jarayon oʻquvchining tanqidiy fikrlash qobiliyatining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda samarali vositalardan biri — klasterlar tuzish usulidir. “Klaster” lotincha so‘z bo‘lib, “g‘uncha bog‘lam” degan ma’noni anglatadi. Klasterlar tuzish pedagogik strategiya sifatida o‘quvchining mavzu bo‘yicha erkin, keng va tizimli fikrlashini rag‘batlantiradi. Bu usul nafaqat fikrlarni tizimli shaklda tashkil etishga, balki ularning o‘zaro bog‘lanishini ham vizual tarzda ko‘rishga yordam beradi. Shu jihatdan klasterlar tuzish miyadagi ideyalarning faol bog‘lanishi va ular orasidagi munosabatlarni aniqlash jarayoni bilan chambarchas bog‘liqdir[7].

O‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish bugungi ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biridir. Bu jarayon uzluksiz va puxta rejalashtirilgan ta’limiy yondashuvni talab etadi. Tanqidiy fikrlash o‘z-o‘zidan shakllanmaydi — u samarali o‘qitish metodlari, faol va muhitga moslashtirilgan o‘quv jarayonlari orqali rivojlanadi. Ayniqsa, biologiya fanida interfaol metodlardan, xususan “Aqliy hujum”, “Insert” va “Klaster” usullaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning mustaqil fikr yuritish, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish va muammolarni turli nuqtai nazardan tahlil qilish ko‘nikmalari shakllanadi.

Shunday qilib, biologiya fanining o‘ziga xosliklari, tajriba va kuzatishga asoslanganligi, uni tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun qulay platformaga aylantiradi. Mazkur fan orqali o‘quvchilar nafaqat fanga oid bilimlarni egallaydi, balki hayotiy muammolarni tahlil qilish, asosli fikr bildirish va mas’uliyatli qarorlar qabul qilishga o‘rganadilar. Shu bois, tanqidiy fikrlovchi avlodni tarbiyalashda biologiya fanining didaktik imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. M.F.Dadaxodjayeva, O‘.A.Abdurazzaqova. O‘quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasi *(Maqola chop etilgan manzil ma’lumotlari keltirilmagan).*

2. Ennis, R. H. (1996). Critical Thinking. Prentice Hall.

3. Brookfield, S. D. (2012). Teaching for Critical Thinking: Tools and Techniques to Help Students Question Their Assumptions. Jossey-Bass.

4. Ausubel, D. P. (1968). Educational Psychology: A Cognitive View. Holt, Rinehart & Winston.

5. Bloom, B. S. (1956). Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. Longmans.

6. Brookfield, S. D., & Preskill, S. (2005). Discussion as a Way of Teaching: Tools and Techniques for Democratic Classrooms. Jossey-Bass.

BIOLOGIK TAJRIBALAR ORQALI O‘QUVCHILARDA ILMIY DUNYOQARASHNI RIVOJLANTIRISH

Asanova Diana Batirali qizi
Turg‘unov Arabboy Baxromjon o‘g‘li
Risqimboyev Fazliddin Ilhomjon o‘g‘li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Biologiya yo‘nalishi 3-bosqich talabalari

Annotatsiya: *Mazkur maqolada biologiya fanini o‘qitishda tajriba va amaliy mashg‘ulotlarning o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdagi roli yoritiladi. Biologik tajribalar nafaqat nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash, balki o‘quvchilarning kuzatuvchanlik, mantiqiy fikrlash va sabab-oqibat bog‘liqliklarini tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Tadqiqotda biologik tajribalarni tashkil etish metodikasi, dars jarayonida o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undovchi yondashuvlar hamda tajribalar asosida tanqidiy va ilmiy fikrlashni shakllantirish omillari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy ta’limda tajribaviy yondashuvning o‘rni va istiqbollari ham tahlil etiladi.*

Kalit so‘zlar: *biologik tajriba, ilmiy dunyoqarash, o‘quvchi faolligi, amaliy mashg‘ulot, kuzatish, eksperiment, tanqidiy fikrlash, tabiiy fanlar, metodika, motivatsiya.*

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirish muhim vazifalardan biridir. Biologiya fani, o‘zining tabiati va mazmuni bilan, o‘quvchilarda ilmiy fikrlash, kuzatish, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishda katta imkoniyatlarga ega. Xususan, biologik tajribalar orqali o‘quvchilar nazariy bilimlarni amaliyotda sinab ko‘rish, ilmiy metodlarni o‘zlashtirish va tabiat hodisalarini chuqurroq anglash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

1. Biologik tajribalar va ilmiy dunyoqarash. Biologik tajribalar o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Tajriba orqali o‘quvchilar nazariy bilimlarni amaliyotda sinab ko‘rish, kuzatish, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Bu esa ularning ilmiy fikrlash qobiliyatini oshiradi va tabiat hodisalariga ongli munosabatni shakllantiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, biologik tajribalar o‘quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

2. Biologik tajribalarning turlari va ularning ahamiyati. Biologik tajribalar turli shakllarda o‘tkazilishi mumkin: laboratoriya ishlaridan tortib dala ekskursiyalarigacha. Laboratoriya ishlarida o‘quvchilar mikroskop orqali hujayra tuzilishini o‘rganish, fermentlar faoliyatini kuzatish kabi amaliy mashg‘ulotlarni bajaradilar. Dala ekskursiyalarida esa o‘quvchilar tabiatdagi o‘simlik va hayvonot dunyosini bevosita kuzatish, ekologik tizimlarni o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu tajribalar o‘quvchilarning kuzatuvchanlik, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

3. Ilmiy metodlarni o‘rgatish va mustaqil tadqiqotlar. Biologik tajribalar orqali o‘quvchilarga ilmiy metodlarni o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilar tajriba o‘tkazish jarayonida muammo qo‘yish, gipoteza ilgari surish, tajriba rejasini tuzish, natijalarni tahlil qilish va xulosa chiqarish kabi ilmiy metodlarni o‘zlashtiradilar. Bu esa ularning mustaqil tadqiqot olib borish qobiliyatini rivojlantiradi va ilmiy tafakkurini shakllantiradi.

4. Biologik tajribalarning tarbiyaviy ahamiyati. Biologik tajribalar nafaqat ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishda, balki o‘quvchilarning tarbiyaviy jihatdan rivojlanishida ham muhim rol o‘ynaydi. Tajriba o‘tkazish jarayonida o‘quvchilar mehnatsevarlik, aniqlik, mas’uliyat, jamoada ishlash kabi sifatlarni o‘zlashtiradilar. Shuningdek, tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish, ekologik madaniyatni rivojlantirish kabi tarbiyaviy maqsadlar ham amalga oshiriladi.

5. Biologik tajribalarni o‘tkazishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish. Hozirgi kunda biologik tajribalarni o‘tkazishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi va ta’lim samaradorligini yuqori darajaga olib chiqadi. Masalan, virtual laboratoriyalar, interaktiv dasturlar, simulyatsiyalar orqali o‘quvchilar murakkab biologik jarayonlarni vizual tarzda o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa ularning ilmiy dunyoqarashini yanada chuqurlashtiradi.

Biologik tajribalar – bu faqatgina nazariy bilimlarni mustahkamlash vositasi emas, balki o‘quvchilarda chuqur ilmiy tafakkur, kuzatuvchanlik, tanqidiy fikrlash va ilmiy dunyoqarashni shakllantiradigan eng muhim pedagogik vositalardan biridir. Har qanday tajriba – bu o‘quvchini faoliyatga jalb etish, uni o‘ylashga, izlanishga, sabab-oqibat bog‘liqliklarini tushunishga undaydigan jarayon. Aynan shu xususiyatlari bois biologik tajribalar bugungi kunda fan asosida ta’lim berishga intilayotgan pedagoglar uchun beqiyos metodik imkoniyatlar yaratadi.

Tajriba o‘tkazish orqali o‘quvchi o‘z bilimini sinovdan o‘tkazadi, yangi bilimlarni mustaqil ravishda anglaydi va o‘z mulohazasini bildiradi. Bu esa faqat bilim darajasini emas, balki o‘quvchining tafakkur darajasini, ilmiy qarashlarini va shaxsiy intellektual o‘sishini ham belgilaydi. Ilmiy tajriba – bu faktlar asosida xulosa chiqarishni, shoshilinch va yuzaki fikrlardan qochishni, har bir dalilni asoslashni o‘rgatuvchi qudratli vositadir.

Bugungi raqamli davrda esa biologik tajribalarni tashkil etishda zamonaviy texnologiyalarning imkoniyatlaridan keng foydalanish ilmiy dunyoqarashni yanada chuqurroq shakllantirishga xizmat qilmoqda. Masalan, virtual laboratoriyalar, interaktiv simulyatsiyalar yoki mikroskopik suratlar orqali o‘tkazilgan tajribalar o‘quvchida nafaqat bilimga, balki fanga nisbatan qiziqish uyg‘otadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, biologik tajribalarni o‘quv jarayoniga sistematik va metodik jihatdan puxta integratsiya qilish orqali biz o‘quvchilarni nafaqat bilimdon, balki mustaqil fikrlovchi, ilmiy asosda qaror chiqaruvchi, ekologik madaniyatga ega va tabiatga mas’uliyat bilan yondashadigan zamonaviy shaxslar sifatida shakllantirishga erishamiz. Shuning uchun ham biologik tajribalar nafaqat darsning estetik yoki qiziqarli elementi, balki ta’lim va tarbiyaning fundamental asosi sifatida qaralishi zarur. O‘quvchi tajriba davomida o‘zini kichik olim sifatida his qilsa, demak u kelajakda fan bilan jiddiy shug‘ullanishga bir qadam yaqinlashgan bo‘ladi. Ana shunday yondashuvgina bizga haqiqiy ilmiy dunyoqarashga ega avlodni tarbiyalash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Avezova I.U., Xodjiyeva N.I., Rustamova S.I. (2022). Biologiyani o‘qitishda o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION.

2. Tolipova J., Ofurov A.G. (2020). Biologiya o‘qitish metodikasi. Ziyouz.com.

3. Rahmatova G. (2021). “Raqamli texnologiyalar asosida biologiya fanini o‘qitish metodikasi”. “Pedagogik ta’lim” ilmiy-amaliy jurnali, 3-son.

4. Sulliyeva S.X. (2023). Biologiyani o‘qitishda ta’lim-tarbiyaning uzviyligi va ta’lim – tarbiya masalalari. SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM.

STEAM YONDASHUVI ASOSIDA BIOLOGIYA DARSLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Boboyeva Moxiniso Zoirjon qizi
Xudoyberdiyeva Zulxumor Bunyod qizi
Qulmuxammadov Farrux Soxib o‘g‘li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Biologiya yo‘nalishi 3-bosqich talabalari

Annotatsiya: *ushbu maqolada STEAM yondashuvi asosida biologiya fanini o‘qitishning metodikasi ko‘rib chiqilgan. STEAM ta’limi fanlararo integratsiya orqali o‘quvchilarning kreativ fikrlashini, amaliy ko‘nikmalarini va ilmiy tadqiqotlarga qiziqishini oshirishga qaratilgan. Biologiya darslarida interaktiv va innovatsion usullarni qo‘llash orqali o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, muammoli vaziyatlarda mustaqil va jamoaviy faoliyatni rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Maqola ta’lim jarayonida STEAM prinsiplarini tatbiq etish orqali o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini yaxshilash, shuningdek, ularning ijodiy salohiyatini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.*

Kalit so‘zlar: *STEAM ta’limi, biologiya darsi, metodika, fanlararo integratsiya, innovatsion ta’lim, amaliy ko‘nikmalar, kreativ fikrlash, muammoli vaziyatlar, loyiha asosida o‘qitish, interaktiv usullar, ilmiy tadqiqotlar, ta’lim samaradorligi, o‘quv faoliyati, ijodiy yondashuv, texnologik vositalar.*

STEAM ta’limini joriy etishning asosiy maqsadi — o‘quvchilarning maktab yoshidan boshlab qiziqishlarini aniqlab, ularning iqtidor va ijodkorlik salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan. Shuningdek, yangiliklarni amaliyotga tatbiq etish orqali ilmiy izlanishlarga intiluvchi, yaratuvchan mutaxassislarni shakllantirishni ta’minlashdir. Bu yondashuv dunyoni tizimli o‘rganish, atrofdagi jarayonlarni mantiqiy tahlil qilish, ularning o‘zaro bog‘liqligini tushunish hamda o‘ziga yangi va qiziqarli bilimlarni kashf etish imkonini beradi.

Bugungi kunda texnika va axborot almashinuvi tez sur’atlarda rivojlanib, bolalar ham yanada zukko va bilimdon bo‘lib ulg‘aymoqda. Ular yangi avlod texnologiyalari bilan birga o‘sib, ta’lim jarayonida an’anaviy usullardan tashqari zamonaviy yondashuvlarga ehtiyoj sezilmoqda. Shu sababli, STEAM ta’lim tizimi kabi innovatsion usullar hozirgi davr talabi hisoblanadi. STEAM nima degan savolga javob beradigan bo‘lsak, bu atama beshta sohani o‘z ichiga oladi: S — Science (tabiiy fanlar), T — Technology

(texnologiyalar), E — Engineering (muhandislik), A — Art (san'at) va M — Mathematics (matematika). STEAM ta'limi fanlararo integratsiyaga asoslangan bo'lib, bu sohalarni birlashtirgan holda o'quv jarayonini tashkil etishga yo'naltirilgan.

Ta'lim sohasidagi yangi yondashuvlar nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish natijasida yuzaga kelgan. STEAM ta'lim tizimi AQShda shakllangan bo'lib, dastlab STEM konsepsiyasi (Science — tabiiy fanlar, Technology — texnologiya, Engineering — muhandislik, Mathematics — matematika) asosida rivojlangan. Ba'zi maktablar o'z bitiruvchilarining muvaffaqiyatlariga asoslanib, ushbu fanlarni integratsiyalash orqali ta'lim sifatini oshirishni maqsad qilganlar. Keyinchalik ta'lim tizimiga san'at (Art) elementi qo'shilib, STEAM shakllandi va uning to'liq ko'rinishi vujudga keldi. O'qituvchilar ta'kidlaydiki, ushbu fanlar bo'yicha beriladigan bilimlar talabalarni kelajakda yuqori malakali mutaxassis sifatida shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Natijada, o'quvchilar ilmiy bilimlarni nafaqat o'zlashtiradi, balki ularni amaliyotda qo'llashga intilishadi[1].

Jahon miqyosida rivojlanayotgan yangi va zamonaviy ta'lim tizimlaridan ortda qolmaslik maqsadida, yurtimizda ham STEAM ta'lim tizimi asta-sekin joriy qilinmoqda. Ushbu yondashuv maktab ta'limini yanada interaktiv, amaliy va fanlararo integratsiyalashgan shaklda tashkil etishga imkon beradi. STEAM ta'limi o'quvchilarning ijodkorligini, tanqidiy fikrlashini va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilib, ularni zamonaviy talablar darajasida tayyorlashga yordam beradi. Shu tariqa, STEAM yondashuvi yurtimiz ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirishda muhim qadam bo'lib xizmat qilmoqda.

STEM ta'limining asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

fanlarni alohida emas, balki mavzular bo'yicha kompleks tarzda o'qitish;

ilmiy va texnik bilimlarni amaliy hayotda qo'llash imkoniyati;

tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish;

texnika fanlariga bo'lgan qiziqishni oshirish;

har bir bolaning yoshiga va individual xususiyatlariga moslab, ularning faol ishtirokida texnik ijodkorlik motivatsiyasini rivojlantirish.

STEM ta'limida **quyidagi jihatlarga ham e'tibor berish** muhim hisoblanadi:

Loyihaviy faoliyatga asoslangan ta'lim: Biologiya darslarida STEAM yondashuvi doirasida o'quvchilarni real hayot muammolarini aniqlash va ularga yechim topishga yo'naltirilgan loyihalar yaratishga rag'batlantirish

muhim. Masalan, atrof-muhitni muhofaza qilish yoki sog‘lom ovqatlanish mavzularida amaliy tadqiqotlar o‘tkazish.

STEAM yondashuvi biologiya fanini o‘qitishda innovatsion va samarali metodika sifatida muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Fanlararo integratsiya asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarda biologiyaga bo‘lgan qiziqishni oshiradi, ularni amaliy ko‘nikmalar bilan boyitadi va zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan holda tayyorlaydi. Natijada, STEAM ta’limi orqali biologiya darslari nafaqat nazariy bilimlarni, balki hayotiy muammolarni hal etish ko‘nikmalarini shakllantirishga ham imkon beradi. Shu sababli, STEAM yondashuvini joriy etish maktab ta’limining sifatini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, STEAM ta’lim tizimi yangi metod va yondashuvlarga boy bo‘lib, o‘quvchilarni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Tabiiy fanlarni o‘qitishda innovatsion usullar qo‘llanilib, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlari oshiriladi va fanlarni osonroq egallashga imkon yaratiladi. Bugungi kunda yosh avlod texnologiyalarga katta qiziqish bilan qaraydi, shuning uchun STEAM ta’limi orqali ular qiziquvchanlik asosida samarali ta’lim olishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bybee, R. W. (2013). The Case for STEM Education: Challenges and Opportunities. NSTA Press.

2. Uzoqjonova D.M. Tabiiy fanlarni o‘qitishda STEAM ta’lim tizimi. “Science and education” scientific journal. 4(9). 344-347-bet.

3. Гуломов, Ш. Ж. (2020). STEAM таълими ва унинг мактаб таълим тизимида қўлланилиши. Тошкент: Ўзбекистон миллий университети нашриёти.

4. Ismailova, N. (2022). Integratsiyalashgan yondashuv asosida STEAM ta’limini rivojlantirish. Pedagogika va innovatsiyalar, 4(15), 112-118.

5. OECD. (2019). Future of Education and Skills 2030: OECD Learning Compass 2030. OECD Publishing.

6. Yakubov, M. R., & G‘ulomova, Z. T. (2023). Biologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va STEAM yondashuvi. Ilm-fan va innovatsiyalar, 2(5), 77–82.

7. Karimova, D. (2021). STEAM yondashuvi asosida ta’lim mazmunini yangilashning dolzarb masalalari. Ta’limda innovatsiyalar, 3(9), 45–49.

BIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA INTERAKTIV PLATFORMALAR (KAHOOT, QUIZLET, NEARPOD)DAN FOYDALANISH

Muhiddinov Bobur Utkir o‘g‘li
Turg‘unjonova Diyora Bahodir qizi
Risqimboyev Fazliddin Ilhomjon o‘g‘li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Biologiya yo‘nalishi 3-bosqich talabalari

Annotatsiya: *ushbu maqolada biologiya fanini o‘qitishda interaktiv platformalardan — xususan Kahoot, Quizlet va Nearpod dasturlaridan samarali foydalanish imkoniyatlari yoritiladi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida dars jarayonini jonlantirish, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish hamda mustahkam bilim hosil qilish uchun yaratilayotgan sharoitlar tahlil qilinadi. Maqolada interaktiv platformalarning afzalliklari, amaliyotda qo‘llanish usullari va ularning ta’lim sifati hamda o‘quvchilar bilim darajasiga ta’siri o‘rganiladi. Shuningdek, tajribali o‘qituvchilarning fikrlari va amaliy misollar orqali mavzuga yondashuv chuqurlashtirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Biologiya ta’limi, interaktiv platformalar, Kahoot, Quizlet, Nearpod, raqamli ta’lim, dars samaradorligi, innovatsion metodlar, o‘quvchilarning faolligi, interaktiv o‘qitish.*

Bugungi kunda ta’lim sohasida ro‘y berayotgan raqamli transformatsiya o‘quv jarayonlarini yanada interaktiv, samarali va o‘quvchiga yo‘naltirilgan holatga keltirish imkonini bermoqda. Ayniqsa, tabiiy fanlar qatoriga kiruvchi biologiya fanini o‘qitishda zamonaviy interaktiv platformalardan foydalanish dars sifatini oshirish, o‘quvchilarning faolligini kuchaytirish va bilimlarni mustahkamlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Kahoot, Quizlet, Nearpod kabi interaktiv ta’lim vositalari o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi samarali muloqotni ta’minlash, dars jarayonini qiziqarli va jonli shaklga keltirish imkonini beradi. Ushbu maqolada aynan ushbu platformalarning biologiya ta’limidagi o‘rni, ularning afzalliklari va ta’lim samaradorligiga ta’siri tahlil qilinadi.

1. Interaktiv platformalarning ta’limdagi o‘rni. Interaktiv platformalar o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshirish, bilimlarni mustahkamlash va o‘qitish jarayonini qiziqarli qilishda muhim rol o‘ynaydi. Bu platformalar orqali o‘qituvchilar darslarni vizual materiallar, testlar, viktorinalar va boshqa interaktiv faoliyatlar bilan boyitishlari mumkin.

2. Kahoot platformasi. Kahoot — bu o‘quvchilar uchun qiziqarli va raqobatbardosh muhitda testlar o‘tkazish imkonini beruvchi platformadir. Ushbu platforma orqali o‘qituvchilar biologiya faniga oid turli mavzularda testlar tayyorlab, o‘quvchilarning bilim darajasini baholashlari mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Kahoot o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ularning bilimlarini mustahkamlashda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

3. Quizlet platformasi. Quizlet — bu o‘quvchilarga flashkartalar, testlar va o‘yinlar orqali bilimlarni o‘zlashtirish imkonini beruvchi platformadir. Biologiya fanida terminlar, tushunchalar va jarayonlarni o‘rganishda Quizletning flashkarta funksiyasi juda foydali hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Quizlet o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi va ularning bilimlarini mustahkamlashda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

4. Nearpod platformasi. Nearpod — bu o‘qituvchilarga interaktiv taqdimotlar, testlar, so‘rovnomalar va boshqa faoliyatlar orqali darslarni tashkil etish imkonini beruvchi platformadir. Biologiya fanida Nearpod orqali laboratoriya tajribalari, 3D modellar va virtual ekskursiyalarni tashkil etish mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Nearpod o‘quvchilarning darsdagi ishtirokini oshiradi va ularning bilimlarini chuqurlashtirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar va interaktiv platformalardan foydalanish nafaqat metodik yondashuvlarni yangilaydi, balki o‘quvchilarning bilim olish jarayonini tubdan o‘zgartiradi. Ayniqsa, tabiiy fanlar ichida murakkab atamalar, biologik jarayonlar va tizimlarni o‘z ichiga olgan biologiya fanini samarali o‘qitish uchun innovatsion vositalar va ilg‘or texnologiyalar muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada tahlil qilinganidek, Kahoot, Quizlet va Nearpod kabi platformalar aynan shu maqsadga xizmat qiladi: ular biologiyani nafaqat o‘rganish, balki uni anglash, qo‘llash va amaliyotga tatbiq qilish imkonini kengaytiradi.

Kahoot platformasi raqobat va o‘yinga asoslangan yondashuvi bilan o‘quvchilarning darsga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi. O‘quvchilar ushbu platforma orqali bilimlarini sinab ko‘rish, noto‘g‘ri javoblar ustida ishlash va xatolarni tahlil qilish imkoniga ega bo‘ladilar. Bu esa reflektiv ta’limni rag‘batlantiradi va o‘quvchini faollikka undaydi.

Quizlet platformasi esa asosan mustaqil o‘rganish faoliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, biologiyada ko‘plab atamalar, lotincha

nomlar va tasnif tizimlari mavjud bo‘lgani sababli, o‘quvchilarning ularni yod olish va takrorlash imkoniyatini kengaytiruvchi flashkarta va test funksiyalari nihoyatda foydali. Bu o‘quvchilarning xotira va assotsiativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Nearpod esa murakkab mavzularni vizualizatsiya qilish, interaktiv laboratoriya tajribalari, 3D modellar orqali biologik tizimlarni tushuntirish imkonini yaratadi. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi real vaqtli interaktiv muloqot, natijalarni darhol baholash va muhokama qilish dars samaradorligini oshiradi. Bu esa nafaqat bilim olish, balki chuqur tushunishga ham olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Active and Interactive Learning Through Quizlet and Kahoot” — ResearchGate, 2020.

2. “ICT Tools for Assessing Tests and Student Performance” — Quizlet Study Guide, 2024.

3. “Using Nearpod to Promote Engagement in Online ESL Classes” — SpringerLink, 2023.

4. “Top 10 Student Assessment Apps for Teachers” — Formaloo Blog, 2024.

5. “Digital Tools to Engage Your Students in Fun Learning Activities” — Brittany Washburn Blog, 2024.

6. Qodirova Z. S., Xolmatov B. U. (2022). Biologiya fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: TDPU nashriyoti.

7. Rahmatova G. (2021). “Raqamli texnologiyalar asosida biologiya fanini o‘qitish metodikasi”. “Pedagogik ta’lim” ilmiy-amaliy jurnali, 3-son.

8. Abdullayeva M. (2020). “Biologiyada zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligi”. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi ilmiy-metodik axborotnomasi, 2-son.

BIOLOGIYADA “MUAMMOLI O‘QITISH” METODINING SAMARADORLIGI

Salomov Navro‘zbek Anvar o‘g‘li
Numonova Shahzoda Komiljon qizi
Fayzullayeva Zebo Abduvali qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Biologiya yo‘nalishi 3-bosqich talabalari

Annotatsiya: *ushbu maqolada biologiya fanida muammoli o‘qitish metodining samaradorligi tahlil qilinadi. Muammoli o‘qitishning ta’lim jarayonidagi roli, talabalar faoliyatiga ta’siri hamda ularning tanqidiy va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati o‘rganiladi. Tadqiqotda muammoli o‘qitish usullarining o‘quvchilar bilim darajasi va motivatsiyasiga ta’siri asoslangan. Shuningdek, muammoli o‘qitish metodining biologiya fanini o‘zlashtirishdagi samaradorligi, o‘quv jarayonini interfaol va qiziqarli qilishdagi imkoniyatlari ko‘rsatib o‘tiladi. Maqola pedagogik amaliyotda innovatsion yondashuvlarni qo‘llashga qaratilgan tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.*

Kalit so‘zlar: *“Muammoli” o‘qitish, biologiya ta’limi, pedagogik metodlar, tanqidiy fikrlash, amaliy mashg‘ulotlar, o‘quv motivatsiyasi, interaktiv metodlar, innovatsion ta’lim texnologiyalari, o‘quvchilar faolligi.*

Muammoli ta’lim deb, o‘qituvchi tomonidan pedagogik ta’sir ko‘rsatishning eng muqobil varianti yordamida, fikr yuritish qonuniyatlariga tayangan holda, o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va bilish ehtiyojini qondirish maqsadiga yo‘naltirilgan, shaxsning umumiy va maxsus rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan jarayonga aytiladi[1].

Muammoli ta’lim jarayonida o‘qituvchi rahbarligida o‘quvchilar oldida aniq va mantiqiy yechim talab qiluvchi muammoli vaziyatlar yaratiladi. Ushbu vaziyatlar o‘quvchilarning faol mustaqil izlanishlari orqali hal etiladi, natijada ular o‘zlarining bilim, ko‘nikma va malakalarini ijodiy usulda chuqurlashtiradi hamda aqliy faoliyatini rivojlantiradi[2;3] Muammoli ta’lim texnologiyalari o‘quvchilarni bilimlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va yangi axborotni sintez qilish jarayonlariga faol jalb etadi, bu esa ularning o‘zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshiradi[4]. O‘quvchilar ilgari egallagan bilim va ko‘nikmalarni yangi vaziyatlarda qo‘llash orqali bilimlarning mustahkamlanishi va kengayishi sodir bo‘ladi, bu esa ularning

tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish koʻnikmalarini rivojlantiradi[5]. Shuni ta'kidlash lozimki, bunday oʻrganish jarayonini faqat darsliklar yoki oʻqituvchining bevosita koʻrsatmalari orqali emas, balki oʻquvchilarning oʻzlari muammoli vaziyatlarga duch kelib, ularni yechishga intilishlari orqali samarali shakllantirish mumkin[6].

Oʻquvchilarda ijodiy va mantiqiy fikrlash koʻnikmalarini shakllantirish, aqliy faoliyat usullarini egallash, shuningdek, ilmiy, tanqidiy-tahliliy va mantiqiy fikrlash koʻnikmalarini rivojlantirish muammoli ta'limning asosiy vazifalaridan biridir. Muammoli ta'limning muvaffaqiyati quyidagi asosiy omillarga bogʻliq boʻladi:

Xulosa oʻrnida aytish mumkin-ki, Muammoli ta'lim metodlari biologiya fanini oʻqitishda talabalar faoliyatini faollashtirish, ularning tanqidiy va mantiqiy fikrlash koʻnikmalarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Muammoli vaziyatlar orqali oʻquvchilar mustaqil ravishda bilimlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va yangi ma'lumotlarni egallash imkoniyatiga ega boʻladi. Bu esa nafaqat oʻzlashtirish darajasini oshiradi, balki ijodiy yondashuv va mustaqil fikrlashni ragʻbatlantiradi. Shuningdek, muammoli ta'lim jarayoni oʻquvchilarda mustahkam bilimlar shakllanishiga, oʻqituvchilarda esa pedagogik mahoratning oshishiga xizmat qiladi. Shu bois, biologiya darslarida muammoli oʻqitish metodlarini tizimli ravishda joriy etish ta'lim sifatini oshirishda muhim omil vazifasini oʻtaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. J.O.Tolipova. Biologiyani oʻqitishda pedagogik texnologiyalar: oliy oʻquv yurtlari talabalari uchun darslik. - T.: Choʻlpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. - 160 s.

2. Dewey, J. (1938). Experience and Education. New York: Macmillan.

3. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.

4. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (1999). Learning Together and Alone: Cooperative, Competitive, and Individualistic Learning. Boston: Allyn and Bacon.

5. Bruner, J. S. (1961). The Act of Discovery. Harvard Educational Review, 31(1), 21-32.

6. Savinova, E. A. (2010). Problem-Based Learning in Higher Education. Moscow: Prosveshcheniye.

BIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA INTERAKTIV VOSITALAR: DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Sharafiddinova Chinora Erkin qizi
Ataxanov Diyorbek Baxtiyor o‘g‘li
Bozorboyeva Sevinchoy Dilshod qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Biologiya yo‘nalishi 3-bosqich talabalari

Annotatsiya: *bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim tizimining jadallik bilan rivojlanib borayotgan sharoitida biologiya fanini o‘qitishga ixtisoslashgan pedagog kadrlarni tayyorlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Biologiya fanining ilmiy yutuqlari hayotning turli jabhalarida o‘z aksini topmoqda va bu esa mazkur fandan ta’lim berish sifatiga bo‘lgan talabni oshirmoqda. Shu sababli, maktab ta’limida biologik bilimlarning o‘rni va roli kundan-kunga muhimlik kasb etmoqda.*

Kalit so‘zlar: *biologiya ta’limi, interaktiv vositalar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, dars samaradorligi, ta’lim sifati, raqamli ta’lim, multimedia vositalari, o‘quvchi faolligi, virtual laboratoriyalar, gamifikatsiya, vizual o‘qitish, interfaol metodlar, pedagogik innovatsiyalar.*

Davlatimiz rahbari “Darsliklarning sifati va mazmunini takomillashtirish, o‘quvchilarga zamonaviy bilimlarni yetkazish, aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda yangi yondashuvlarni joriy etish zarur” degan fikri har kungidan dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yosh mutaxassisni tayyorlash jarayonida o‘quvchi o‘qituvchining bevosita rahbarligida ta’limning m0azmuni, metodlari, vositalari va shakllari asosida organik olam qonuniyatlari, biologik hodisa va voqealarning mohiyati hamda ularning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganadi. Bu jarayonda o‘quvchi nazariy bilimlar bilan birga amaliy ko‘nikma va malakalarni egallab boradi. Ilmiy adabiyotlarda ta’kidlanishicha, o‘quv jarayoni — bu o‘quvchining bilish faoliyati bo‘lib, bunda u atrof-muhit to‘g‘risidagi tasavvurlarni shakllantirib boradi[2].

Shu jihatdan qaralganda, biologiya ta’limi o‘quvchining faqatgina fanga oid bilimlarni egallashi emas, balki uning tafakkuri, kuzatuvchanligi va ilmiy-tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi[3]. O‘qituvchi esa bu

jarayonda o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etuvchi va uni boshqaruvchi yetakchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. U nafaqat ta’limiy, balki tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarga erishish orqali shaxsning har tomonlama kamol topishiga imkon yaratadi.

Tadqiqotlar ko‘rsatmoqda-ki, ta’lim jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchining metodik tayyorgarligi, individual yondashuvi va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash darajasiga bog‘liq[4]. Shu bois, yosh mutaxassislarni tayyorlashda nazariy bilimlar bilan bir qatorda metodik kompetensiyalarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Ta’lim jarayoni — bu o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ikki tomonlama, murakkab, ijtimoiy-ma’naviy va aqliy jarayon bo‘lib, u o‘qituvchining kasbiy-pedagogik faoliyati asosida amalga oshiriladi. Bu faoliyat nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, muammoli vaziyatlarni hal qilishga, hamkorlikda ishlashga o‘rgatish vazifasini ham o‘z ichiga oladi. Shuning uchun ta’lim jarayoni faqat ma’lumot yetkazish emas, balki pedagogik jarayonni tahlil qilish, umumlashtirish va lozim bo‘lsa, uni takomillashtirishni talab etadi[5;6].

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarga ko‘ra, o‘qituvchi — o‘quv jarayonining yagona bilim manbai emas, balki o‘quvchini bilim olishga undovchi, yo‘l ko‘rsatuvchi, maslahat beruvchi, tahlilchi va motivator sifatida namoyon bo‘ladi [7;8]. Shu nuqtai nazardan qaralganda, o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va uni boshqarish o‘qituvchining asosiy metodik mahorat ko‘rsatkichlaridan biridir.

Bilish faoliyatini shakllantirish o‘quvchining motivatsiyasi, qiziqishi, aqliy faolligi va mustaqil izlanishga tayyorligiga bevosita bog‘liq. Bu esa, o‘z navbatida, darsning to‘g‘ri tashkil etilishi, didaktik materiallarning mazmuni, interfaol metodlar va zamonaviy texnologiyalarning qo‘llanishi bilan chambarchas bog‘liq. Xususan, muammoli ta’lim, loyihalash metodikasi, klasterlar, mantiqiy xaritalar, reflektiv savollar va baholash mezonlarining aniqligi o‘quvchilarni faol bilim egallashga undaydi [9].

Shuningdek, darsda o‘quvchilarning individual o‘ziga xosliklarini inobatga olgan holda differensial yondashuv, ta’limiy vazifalarning bosqichma-bosqich murakkablashuvi, o‘zaro hamkorlikda o‘rganish (kooperativ ta’lim) usullaridan foydalanish o‘quvchilarning bilish faoliyatini faol tashkil etishga xizmat qiladi[1].

Pedagogik jarayonni samarali boshqarish uchun o‘qituvchi quyidagilarga e’tibor qaratishi zarur:

darsning maqsad va vazifalarini aniq belgilash;
o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasini hisobga olish;
bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarga yo‘naltirilgan metodikani tanlash;
o‘z faoliyatini muntazam tahlil qilish va rivojlantirish.

Pedagogik faoliyatda doimiy refleksiya — ya’ni o‘z darslarini tahlil qilish, o‘quvchilarning fikrlarini inobatga olish va ulardan chiqadigan ehtiyojlar asosida yangicha yondashuvlar ishlab chiqish muhimdir. Bu jarayon o‘qituvchining professional rivojlanishi va pedagogik innovatsiyalarga ochiqligini belgilaydi.

Biologiya fani maktabda boshqa fanlardan farqli o‘laroq, tabiat hodisalarini tizimli va tarixiy yondashuv orqali o‘rganishni ta’minlaydi hamda bilimning chuqurligini oshirishga yordam beradi. Biologiyani o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning dialektik tafakkuri shakllantiriladi, ularga organik dunyoning ilmiy tasavvuri, hayotning tarixiy rivoji va uning harakat tizimidagi o‘rni, shuningdek, qarama-qarshi bilim olish usullari tushuntiriladi. Biologiya maktabda tabiatshunoslik siklining asosiy fanlaridan biri bo‘lib, shaxsning rivojlanishida va shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

“Keys-stadi” texnologiyasi *(inglizcha: case study — “case” — vaziyat, “study” — o‘rganish)* o‘quvchilarda haqiqiy yoki sun’iy muammoli vaziyatlarni tahlil qilib, eng samarali yechimlarni topish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metodikadir. Ushbu texnologiya o‘quvchilarga har qanday mazmundagi vaziyatni mustaqil o‘rganish va tahlil qilishni o‘rgatadi. Ta’lim jarayonida Keys-stadi texnologiyasining samaradorligi uning quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishiga bog‘liq:

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, biologiya fanini o‘qitishda interaktiv vositalardan foydalanish darslarning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Keys-stadi kabi texnologiyalar o‘quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy tafakkur va muammolarni tahlil qilish ko‘nikmalarini ham shakllantiradi. Tizimli va tarixiy yondashuv orqali tabiat hodisalarini o‘rganish, o‘quvchilarning dialektik fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va biologiyaning ta’lim jarayonidagi ahamiyatini yanada kuchaytiradi. Shuningdek, individual va jamoaviy ishlash shakllarini uyg‘un qo‘llash, o‘quvchilarni faol ishtirok etishga rag‘batlantiradi va o‘rganish jarayonini samarali qiladi. Shu bois, biologiya darslarida interaktiv metod va vositalarni keng joriy etish ta’lim sifatini yaxshilashda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Klarin, M.V. (1995). Innovatsionnie modeli obucheniya v zarubezhnoi pedagogike. Moskva: Pedagogika.

2. Qodirov S. (2021). Pedagogik texnologiyalar va innovatsion ta’lim. Toshkent: O‘zbekiston pedagogika nashriyoti.

3. Karimov B. (2019). Biologiya o‘qitish metodikasi asoslari. Samarqand: SamDU nashriyoti.

4. To‘xtayev H. (2020). “Zamonaviy biologiya ta’limida o‘qituvchining o‘rni”. Ta’lim va fan, 3(58), 45–50.

5. Xolmatov Sh. (2018). O‘qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammolari. Toshkent: TDPU ilmiy jurnali.

6. Turaev, X. (2021). Ta’lim sifatini oshirishda darsning zamonaviy modeli. // “Pedagogik ta’lim” ilmiy-amaliy jurnali, №4.

7. Dewey, J. (1938). Experience and Education. New York: Macmillan.

8. Kraevskiy, V.V. (2001). Pedagogika: Uchebnoe posobie dlya studentov pedagogicheskikh vuzov. Moskva: Akademiya.

9. Usmonboeva, A. (2020). Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Toshkent: TDPU.10.

O‘RTA ASRLARDA TOSHKENT VOHASINING SIYOSIY VA IQTISODIY AHAMIYATI

G’aybullayev Asilbek Bekmurod og’li

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Tarix yo‘nalishi 1- bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘rta asrlarda Toshkent vohasining siyosiy va iqtisodiy ahamiyati yoritilgan. Vohaning geografik joylashuvi, strategik ahamiyati, arablar istilosidan boshlab Temuriylar davrigacha bo‘lgan siyosiy o‘zgarishlari tahlil qilinadi. Shuningdek, vohadagi dehqonchilik, hunarmandchilik va xalqaro savdo munosabatlari kabi iqtisodiy faoliyatlar asosida Toshkentning Markaziy Osiyodagi yetakchi o‘rin egallaganligi ko‘rsatib o‘tiladi.*

Kalit so‘zlar: *Toshkent vohasi, o‘rta asrlar, siyosiy ahamiyat, iqtisodiyot, Buyuk Ipak yo‘li, savdo, hunarmandchilik, Temuriylar, Shosh, islom tarqalishi.*

Toshkent vohasi Markaziy Osiyoning eng qadimiy va sermahsul hududlaridan biri hisoblanadi. Uning geografik joylashuvi — Zarafshon va Chirchiq daryolari havzasida, qadimiy karvon yo‘llari chorrahasida

joylashganligi tufayli bu hudud tarix davomida koʻplab davlatlar va xalqlarning e'tibor markazida boʻlgan. Oʻrta asrlar Toshkent vohasining siyosiy kuchlar tomonidan boshqarilishi, turli davrlar mobaynida iqtisodiy va madaniy taraqqiyotda muhim rol oʻynagan.

Oʻrta asrlarda Toshkent vohasi turli sulolalar va davlatlar hukmronligida boʻlgan. VIII asrda arablar istilosi bilan vohada islom dini keng tarqala boshladi. Bu davrda Toshkent viloyati kengroq "Shosh" nomi bilan tanilgan. Arab xalifaligi davrida Shosh harbiy-siyosiy nuqtai nazardan muhim poytaxtlardan biri boʻlgan. Bu yerdagi qal'alar va mudofaa tizimlari hududni tashqi tahdidlardan himoya qilishga xizmat qilgan.

Keyinchalik Qarakxoniylar, Saljuqiylar va qoraxoniylar sulolalari davrida Toshkent yana muhim siyosiy markaz sifatida tanilgan. Ayniqsa, moʻgʻullar istilosi davrida (XIII asr) Toshkent qattiq vayron boʻlsa-da, keyingi asrlarda, xususan Temuriylar davrida qayta tiklanib, harbiy-siyosiy nuqtai nazardan muhim ahamiyat kasb etgan. Amir Temur Toshkentni oʻzining strategik hududi deb hisoblagan va bu yerda harbiy boshqaruvni mustahkamlagan.

Toshkent vohasi oʻrta asrlarda savdo va hunarmandchilik markazi boʻlib, Buyuk Ipak yoʻlining muhim boʻlagi sifatida faoliyat yuritgan. Bu hududda bozorlar, karvonsaroylar va zargarlik, kulolchilik, temirchilik kabi hunarmandchilik markazlari faol boʻlgan. Dehqonchilik va sugʻorma ekinlar Toshkent vohasining iqtisodiy qudratini belgilab bergan asosiy omillardan biri boʻlgan. Sugʻorish tizimlari — ariq va kanallar orqali yerlar unumdor holga keltirilib, qishloq xoʻjaligi rivojiga xizmat qilgan.

Ayniqsa XIV–XV asrlarda Toshkent vohasida ipak, charm, paxta mahsulotlari, meva-cheva va donli ekinlar eksporti ancha kuchli boʻlgan. Savdogarlar Hindiston, Xitoy, Eron, Arab mamlakatlari va Sharqiy Yevropa bilan faol aloqada boʻlgan. Toshkentning qadimiy bozorlarida turli mamlakatlardan kelgan savdogarlarning izlari hozirgi arxeologik topilmalarda ham koʻrinadi.

Xulosa. Oʻrta asrlarda Toshkent vohasi siyosiy jihatdan koʻplab davlatlarning e'tibor markazi, iqtisodiy jihatdan esa xalqaro savdo yoʻllarining muhim bogʻlovchi halqasi boʻlgan. Bu hududdagi rivojlangan dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo aloqalari vohani mintaqadagi eng muhim markazlardan biriga aylantirgan. Bugungi Toshkentning yirik iqtisodiy va siyosiy markaz sifatida shakllanishida oʻrta asrlar merosi beqiyos oʻrin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov A. “Toshkent tarixi”. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2002.
2. Qodirov R. “O‘zbekistonning o‘rta asrlar tarixi”. — Toshkent: Fan, 1999.
3. Bobojonov Sh. “Shosh va Toshkent vohasining qadimiy yodgorliklari”. — Toshkent, 2010.
4. Barthold V.V. “Turkiston islom davrida”. — Toshkent: Sharq, 1997.
5. Niyozmetov A. “O‘rta asrlar iqtisodiyoti va savdo yo‘llari”. — Samarqand, 2011.

G’ulomova Gulzoda G’afurjon qizi
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Gumanitar fanlar fakulteti 24/1 guruh talabasi

MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHKENT: IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY TARAQQIYOT TARIXI

Annotatsiya: *Mazkur ishda O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng Toshkent shahrida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Poytaxt sifatida Toshkentning yangi taraqqiyot bosqichlariga kirib borishi, zamonaviy infratuzilmaning rivojlanishi, aholining turmush darajasi, ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va san’at sohalaridagi yutuqlar yoritilgan. Shuningdek, Toshkentning xalqaro nufuzining oshishi va global integratsiyadagi o‘rni haqida ham so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Mustaqillik, Toshkent, ijtimoiy taraqqiyot, iqtisodiy o‘zgarishlar, madaniy rivojlanish, infratuzilma, ta’lim, sog‘liqni saqlash, san’at va madaniyat, xalqaro hamkorlik, global integratsiya*

O‘zbekiston Respublikasining 1991-yilda davlat mustaqilligiga erishishi mamlakat taraqqiyotida tub burilish nuqtasiga aylandi. Ushbu tarixiy voqea nafaqat siyosiy tizimning yangilanishi, balki ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarda ham keng ko‘lamli islohotlar boshlanishiga zamin yaratdi. Ayniqsa, yurtimiz poytaxti – Toshkent shahri mustaqillik davrida zamonaviy megapolis sifatida shakllanishda ulkan siljishlarni boshdan kechirdi. Toshkent – O‘zbekistonning yuragi, siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazi sifatida barcha yutuqlarning eng avvalo o‘zida namoyon bo‘ladigan hudud hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida Toshkent shahrida keng qamrovli qurilish va obodonlashtirish ishlari olib borildi, transport va kommunikatsiya tizimlari

zamonaviylashtirildi, yangi sanoat zonalari tashkil etildi. Aholining turmush darajasini oshirish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish, ta'lim, sog'liqni saqlash va madaniyat sohalarini isloh qilish borasida izchil choralar amalga oshirildi. Shuningdek, shaharning tarixiy merosini asrash bilan birga, zamonaviy arxitektura va urbanistik yechimlar uyg'unlashib, Toshkentga o'ziga xos qiyofa baxsh etdi.

Toshkent shahrining rivojlanishida xalqaro hamkorlik alohida ahamiyat kasb etdi. Chet ellik investorlar ishtirokidagi qo'shma korxonalar sonining ko'payishi, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilgan ijtimoiy dasturlar, shuningdek, shahar infrastrukturasi va xizmatlar sohasining jahon talablariga mos ravishda modernizatsiyalashuvi bu jarayonlarning yaqqol isbotidir. Toshkent bugungi kunda nafaqat O'zbekistonning, balki butun Markaziy Osiyoning muhim siyosiy-iqtisodiy va madaniy markaziga aylanib bormoqda.

Xalqaro aloqalar va integratsiya. **Toshkentning xalqaro maydondagi o'rni va nufuzi mustaqillik davrida sezilarli darajada oshdi. Xalqaro iqtisodiy aloqalar, diplomatik va madaniy o'zaro munosabatlarning rivojlanishi Toshkentning global integratsiyadagi o'rnini mustahkamladi. Bu borada, BMT, Jahon banki va Boshqirdiston kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan tayyorlangan tahliliy hisobotlar muhim manba sifatida foydalanildi. Toshkentda o'tkazilgan xalqaro sammitlar va konferensiyalar shaharni jahon siyosiy va iqtisodiy xaritasida yangi mavqega olib chiqdi.**

Iqtisodiy rivojlanish. ***Toshkent shahridagi iqtisodiy o'zgarishlar asosan sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarida yuz berdi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida shaharda yangi sanoat tarmoqlari tashkil etildi, kichik va o'rta biznes rivojlanishga, xususiy sektorga qaratilgan qo'llab-quvvatlash dasturlari amalga oshirildi. Sanoatning diversifikatsiyasi, ayniqsa, avtomobilsozlik, yengil sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarida o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Toshkentdagi transport infratuzilmasi ham yangilandi, shahar ichki transport tizimi va metro liniyalari kengaytirildi, bu esa poytaxtning iqtisodiy faoliyatini yanada qulaylashtirdi.***

Ijtimoiy farovonlik. Toshkentda ijtimoiy sohada muhim o‘zgarishlar amalga oshirildi. Aholining turmush darajasi sezilarli darajada oshdi. Ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlarining zamonaviylashtirilishi, yangi maktablar va tibbiyot muassasalarining barpo etilishi poytaxt aholisi uchun ijtimoiy xizmatlarning yaxshilanishiga olib keldi. Shahar iqtisodiyoti o‘sishida ijtimoiy infratuzilmaning muhim o‘rni borligi muhim fakt bo‘ldi.

1. Umurzakov, I. (2015). *O‘zbekiston iqtisodiyoti va Toshkent shahrining iqtisodiy rivojlanishi*. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Nashriyoti.
2. Abdullayev, S. (2018). *Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida Toshkent shahrining ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlari*. Toshkent: Ma’naviyat.
3. Qosimova, M. (2020). *Madaniyat va san’at sohasidagi o‘zgarishlar: Toshkentning rivojlanish tarixi*. Toshkent: G‘azal.
4. Saidova, G. (2019). *Toshkent shahrining madaniy hayoti va urbanizatsiya*. Toshkent: Yangi nashr.
5. Usmonov, R. (2021). *Toshkentning global integratsiyadagi roli*. Toshkent: Tashkent Publishing.
6. Vaxabov, A. (2017). *Toshkentning ijtimoiy rivojlanishi va turmush darajasining o‘sishi*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti.
7. Jahon Banki (2022). *Toshkent: Shahar rivojlanishi va ijtimoiy barqarorlik*. BMT va Jahon Banki Xalqaro Tadqiqotlar.
8. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi (2013). *Toshkent: Tarix va zamon*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
9. BMT va UNDP (2020). *Toshkent va Markaziy Osiyo iqtisodiy integratsiyasi*. YUNDP.
10. Toshkent shahar hokimligi (2021). *Toshkent shahrining ijtimoiy-iqtisodiy*

O’RTA ASRLARDA TOSHKENT VOHASI MADANIYATI

Ganibayeva Madina
ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti
Tarix yo’nalishi 23/2guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O’rta asrlarda Toshkent vohasi madaniyatining rivojlanishi, uning o’ziga xos xususiyatlari va mintaqa tarixidagi ahamiyati tahlil qilingan. Maqolada Toshkent vohasining savdo, me’morchilik, ilm-fan va san’at sohasidagi yutuqlari, hamda Buyuk Ipak yo’lidagi o’rni yoritilgan. Shuningdek, Choch va Iloq davlatlarining madaniy*

merosi, islom dinining tarqalishi va uning madaniyatga ta'siri, hunarmandchilik va amaliy san'at taraqqiyoti haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *Toshkent vohasi, Choch, Iloq, Orta asrlar madaniyati, me'morchilik, hunarmandchilik, Buyuk Ipak yo'li, islom madaniyati.*

O'rta asrlar davri O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, Toshkent vohasi aholisi hayotida muhim o'zgarishlar davri bo'lgan. Bu davrda mintaqada savdo-sotiq, hunarmandchilik, me'morchilik va madaniyatning boshqa sohalari rivoj topdi. Toshkent vohasi o'zining qulay geografik joylashuvi tufayli Sharq va G'arb o'rtasidagi savdo aloqalarida muhim o'rin tutgan. Buyuk Ipak yo'li chorrahasida joylashgan bu hudud turli madaniyatlar va an'analar chatishmasi natijasida o'ziga xos madaniy qiyofaga ega bo'lgan.

Toshkent vohasining tarixiy-geografik tavsifi

O'rta asrlarda Toshkent vohasi "Choch" yoki "Shosh" nomi bilan ma'lum bo'lgan. Arab manbalarida "ash-Shosh" deb yuritilgan bu hudud Sirdaryo havzasining o'rta qismida joylashgan bo'lib, sharqda Chotqol va G'arbiy Tyan-Shan tog'lari, g'arbda esa Qizilqum cho'li bilan chegaralangan. Toshkent vohasi shimoldan Chirchiq va janubdan Ohangaron daryolari oralig'ida joylashgan bo'lib, unumdor tuproq va qulay iqlimga ega edi.

VIII asrda arablar istilosi natijasida mintaqada islom dini tarqala boshladi. IX-X asrlarda Toshkent vohasi Somoniylar, keyinchalik esa Qoraxoniylar davlati tarkibiga kirdi. XII-XIII asrlarda esa Xorazmshohlar davlati tarkibida bo'lgan. 1220 yilda Mo'g'ul imperiyasi qo'shinlari tomonidan bosib olingan. XIV-XV asrlarda Amir Temur va Temuriylar davlati tarkibiga kirgan.

Toshkent vohasining Buyuk Ipak yo'lidagi o'rni

Toshkent vohasi Buyuk Ipak yo'lida joylashgan muhim savdo markazlaridan biri edi. Bu yerdan o'tgan karvonlar Xitoy, Hindiston, Eron, Vizantiya va boshqa mamlakatlar bilan savdo-sotiq aloqalarini amalga oshirgan. Savdo yo'llari chorrahasida joylashgan Toshkent vohasi nafaqat tovarlar almashinuvi, balki madaniyat, fan va texnologiyalar almashinuvi markazi sifatida ham muhim rol o'ynagan.

Toshkent vohasida qadimdan hunarmandchilik rivojlangan bo'lib, mahalliy ustalar metall, sopol, shisha, charm, yog'och va to'qimachilik sohasida yuqori mahorat namunalarini yaratganlar. Voha shaharlari o'z hunarmandchilik mahsulotlari bilan mashhur bo'lgan. Ayniqsa, kulolchilik, zargarlik, temirchilik va to'qimachilik mahsulotlari xalqaro savdoda muhim o'rin tutgan.

Shosh-Iloq madaniyati va shaharsozlik

O’rta asrlarda Toshkent vohasi hududida ikkita muhim tarixiy-madaniy mintaqa — Shosh (Choch) va Iloq mavjud bo’lgan. Shosh mintaqasi hozirgi Toshkent shahri atrofidagi yerlarni, Iloq esa Ohangaron vodiysi hududlarini o’z ichiga olgan.

Toshkent vohasi shaharlari o’ziga xos me’moriy qiyofaga ega bo’lgan. Shaharlar odatda ark (qal’a), shahriston (asosiy shahar qismi) va rabod (tashqi shahar) qismlaridan iborat bo’lgan. Orta asr shaharsozligining ushbu tizimi mintaqaning ko’plab shaharlarida kuzatilgan.

Arxeologik tadqiqotlar natijasida Toshkent vohasida Minguruk, Kanka, Shosh, Binkat, Tunket, Nuket kabi yirik shaharlar mavjud bo’lganligi aniqlangan. Bu shaharlar savdo-sotiq, hunarmandchilik va madaniy hayot markazlari sifatida faoliyat ko’rsatgan.

Islom madaniyatining ta’siri

VIII asrdan boshlab Toshkent vohasida islom dini tarqala boshlagan. Islom madaniyati mintaqaning ma’naviy va madaniy hayotiga chuqur ta’sir ko’rsatgan. Shaharlarda masjidlar, madrasalar, maqbaralar va boshqa islomiy inshootlar qurilgan. Islom dini bilan birga arab yozuvi ham keng tarqalgan, bu esa ilm-fan va adabiyot rivojiga turtki bo’lgan.

IX-XII asrlarda Toshkent vohasi ilm-fan va madaniyat markazlaridan biriga aylangan. Bu davrda ko’plab olimlar, faylasuflar, adiblar, me’morlar yetishib chiqqan. Madrasalarda diniy va dunyoviy fanlar o’qitilgan. Islom madaniyati ta’sirida xattotlik, miniatyura san’ati, naqqoshlik kabi san’at turlari rivojlangan.

O’rta asr me’morchiligi

O’rta asrlarda Toshkent vohasida me’morchilik san’ati yuksak darajada rivojlangan. Masjidlar, madrasalar, maqbaralar, saroylar, karvonsaroylar va hammomlar qurilgan. Me’morchilikda pishiq g’isht, ganch, yog’och va tosh asosiy qurilish materiallari sifatida ishlatilgan.

Me’moriy yodgorliklar orasida ayniksa masjid va madrasalar alohida o’rin tutgan. Ular nafaqat diniy, balki ilmiy va madaniy markazlar vazifasini ham bajargan. Ko’plab me’moriy inshootlar bezagida naqsh, girih, islimiy naqshlar, kaligrafiya namunalari qo’llanilgan.

Temuriylar davrida Toshkent vohasida me’morchilik san’ati yanada rivojlangan. Bu davrda qurilgan inshootlar o’zining hashamati, badiiy jihatdan mukammalligi bilan ajralib turgan.

O’rta asrlarda Toshkent vohasi madaniyati O’rta Osiyo mintaqasi tarixida muhim o’rin tutgan. Bu davrda voha hududida savdo-sotiq, hunarmandchilik, me’morchilik, ilm-fan va san’at rivojlangan. Buyuk Ipak yo’lida joylashgan Toshkent vohasi turli madaniyatlar va an’analar chatishuvi natijasida o’ziga xos madaniy qiyofaga ega bo’lgan.

Islom dini va madaniyatining ta’siri, hunarmandchilik va amaliy san’atning rivojlanishi, shaharsozlik va me’morchilik sohasidagi muvaffaqiyatlar Toshkent vohasi madaniyatining asosiy xususiyatlari hisoblanadi. Bu davr madaniy merosi O’zbekistonning bugungi madaniyati shakllanishiga asos bo’lgan va milliy qadriyatlar tizimida muhim o’rin tutadi.

O’rta asrlar davri madaniy an’analari, ilm-fan yutuqlari, me’moriy yodgorliklari va hunarmandchilik namunalari O’zbekiston xalqining bebaho ma’naviy boyligidir. Bu merosni o’rganish, saqlash va kelajak avlodlarga yetkazish muhim vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Asqarov A. O’zbekiston tarixi. – Toshkent: O’qituvchi, 2015.

2. Buryakov Yu.F. Genezis i etapi razvitiya gorodskoy kulturi Tashkentskogo oazisa. – Tashkent: Fan, 1982.

3. Filanovich M.I. Tashkent. Zarojdenie i razvitie goroda i gorodskoy kulturi. – Tashkent: Fan, 1983.

4. Masson M.E. K istorii chernoy metallurgii Uzbekistana. – Tashkent, 1947.

5. Rtveladze E.V. Drevnie moneti Sredney Azii. – Tashkent, 1987.

6. Toshtemirova M. Orta asrlarda Toshkent vohasida hunarmandchilik. – Toshkent, 2007.

7. Xo’jaev A. Buyuk Ipak yo’li: munosabatlar va taqdirlar. – Toshkent: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007.

8. Ziyaev H. O’zbekistonning XVI-XIX asrlardagi shahar va qishloqlari tarixi. – Toshkent, 2009.

JADIDCHILIK HARAKATI VA UNING O‘ZBEKISTON TARIXIDAGI O‘RNI

G’aybullayev Asilbek Bekmurod o’g’li
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Gumanitar Fanlar Fakulteti
Tarix yunalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘rta Osiyoda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida shakllangan jadidchilik harakatining kelib chiqish sabablari, asosiy g‘oyalari va uning O‘zbekiston tarixidagi o‘rni tahlil qilinadi. Jadidlar faoliyatining ta’lim, matbuot va madaniyat sohalaridagi ta’siri, ularning milliy ongni shakllantirishdagi roli ochib beriladi. Shuningdek, jadidlar merosining hozirgi davrdagi ahamiyati ham yoritiladi.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, milliy uyg‘onish, Mahmudxo‘ja Behbudiy, ta’lim islohoti, jadid matbuoti, ma’rifatparvarlik.

O‘zbek xalqining tarixida jadidchilik harakati o‘ziga xos bosqich bo‘lib, u faqatgina madaniy-ma’rifiy yangilanish emas, balki millatning uyg‘onish davri sifatida namoyon bo‘ldi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida boshlangan bu harakat mustamlakachilik zulmiga qarshi intellektual va ijtimoiy kurash shaklida rivojlandi. Jadidlar xalqni jaholatdan chiqarish, dunyoviy ilm-fan asosida yangi jamiyat qurish g‘oyasini ilgari surdilar. Bu maqolada jadidchilik harakatining mohiyati, asosiy vakillari va O‘zbekiston tarixidagi o‘rni haqida fikr yurtiladi.

XIX asr oxirlariga kelib, O‘rta Osiyo xalqlari Rossiya imperiyasi tarkibida o‘z mustaqilligini yo‘qotgan edi. Mustamlaka siyosati natijasida mahalliy xalqlarning siyosiy va madaniy hayoti to‘liq nazorat ostiga olingan, maktablar eskicha usulda faoliyat yuritgan, ilm-fan va texnik taraqqiyotdan orqada qolgan edi. Jadidlar bu holatga qarshi turib, xalqni uyg‘otish va zamonaviy bilimlar orqali taraqqiyotga yetaklashga intildilar.

Jadidchilikning yirik namoyandalari – Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy va Munavvarqori Abdurashidxonovlar o‘z faoliyati orqali xalqda milliy ongni uyg‘otishga harakat qildilar. Ular yangi usul maktablarini tashkil etdilar, gazeta-jurnallar nashr qildilar, darsliklar yozdilar, sahna asarlari orqali ommani targ‘ibotga jalb etdilar. Masalan, Behbudiyning “Padarkush” dramasi hamon xalqni hushyorlikka chaqiruvchi asar sifatida qadrlanadi.

O‘lka jadidlari har qancha qarshiliklarga qaramasdan 1905- yilgi inqilobdan so‘ng Rossiya hududidagi butun turkiy qavmdagi xalqlar bilan, Turkiya mamlakati bilan yaqindan aloqa qilishga intiladilar. O‘z davrida turk dunyosi markazlari bo‘lgan Qrim, Qozon, Istanbulda chop etilgan jadidchilik ruhidagi adabiyotlar Turkistonga tez kirib, keng yoyila boshlaydi. Istanbulda tashkil topgan «Jamiyati xayriya», «Nashriyot shirkatlari» kabi ijtimoiy tashkilotlar Buxoro va Xivada ham maydonga keladi. Bu jamiyatlar ichida kamol topgan jadidchilik harakati o‘sib, 1908- yilgi Turkiya inqilobi tufayli yuzaga kelgan «Yosh turklar» harakatiga taqlid qilgan. Xivada «Yosh xivaliklar», Buxoroda «Yosh buxoroliklar» jamiyatlarini yuzaga keltiradi. Bu jamiyatlar oxir-oqibatda siyosiy partiyalar maqomini oladilar. Bunday jadidchilik harakatining siyosiy tashkilotlari, jamiyatlari qisqa vaqt ichida Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo‘qon, Andijon kabi Markaziy Osiyoning yirik shaharlarida nufuzli tashkilotlarga ega bo‘ladi. Jadidchilik harakati muhitida jadidchilik adabiyoti ham yuzaga keladi, mukammal bir shaklga kiradi. Ham nasrda, ham nazmda yangilanish, qoloqlik va jaholatdan qutulish, rus istilosiga qarshi kurash, ma’rifat va hurriyatga erishish, istiqlolni qo‘lga kiritish g‘oyalari bilan to‘lib-toshgan yangi bir adabiyot shakllanadi. Behbudiy bunday adabiyotning ilk namunalarini yaratadi

Jadidlar milliy uyg‘onish g‘oyasini targ‘ib qilibgina qolmay, amalda xalq ta’limini modernizatsiyalash, milliy matbuotni rivojlantirish va yangi intellektual muhitni shakllantirishda katta hissa qo‘shdilar. Ularning ko‘pchiligi 1930-yillardagi qatag‘onlarda halok bo‘lishiga qaramay, ularning merosi mustaqillik davrida qayta tiklandi. Bugungi kunda ularning nomi maktablar, kutubxonalar va ilmiy muassasalarga berilgan, asarlari yangidan nashr qilinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimova D. Jadidchilik harakati: tarix va tahlil. – Toshkent: Fan, 2017.

2. Salohiy M. O‘zbek jadidchiligi: g‘oya va meros. – Toshkent: Ma’naviyat, 2021.

3.Abdug‘aniyeva G. “Jadidlar ta’lim tizimida: tarixiy tahlil”. // Tarix va xotira jurnali, 2020.

4. Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi (XVI–XX asr boshlari); K.2. - T.: «Sharq», 2010, 368 b

TOSHKENT VILOYATIDAGI ZIYOLILARNING QATAG‘ONGA UCHRASHI: ELBEK, OLTOY VA XOLID SAID MISOLIDA

Gulyamov Dostonbek Umid o‘g‘li
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Tarix yo‘nalishi talabasi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Sovet tuzumi davrida olib borilgan qatag‘on siyosatining borishi va uning ayanchli oqibatlari Toshkent viloyati misolida tahlil qilingan. Bunda Elbek, Oltoy va Xolid Said hayotiga qisqacha to‘xtalib o‘tilgan. Ularning hayoti va ijodiga tegishli ayrim mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Qatag‘on, sovetlar, shoir, Oltoy, Xolid Said, Elbek, repressiya, surgun.

Ma’lumki, qatag‘on yillarida xalqimizning minglab farzandlari sovetlarning vahshiy siyosatining qurboni bo‘lishdi. O‘zlari to‘qigan uydirmalarni, nohaq ayblovlarni asosan xalqimizning ziyoli qatlamining bo‘yniga qo‘yishdi. Bundan ko‘zlangan maqsad esa xalqning ma’naviyatini yo‘qotish edi. Ma’naviyatsiz, ilm-ma’rifatdan yiroqda bo‘lgan millatni esa boshqarish oson. 1930-yillarda sobiq Sovet Ittifoqi hududida amalga oshirilgan qatag‘on siyosati o‘zining eng og‘ir, ayovsiz ko‘rinishini O‘zbekistonda, xususan, Toshkent viloyatida namoyon etdi.

Sovetlar qilgan nohaqliklarni oddiygina sud jarayonlarining o‘zi ham tasdiqlaydi. “Yuqoridagilar”ning qarori bilan aybdor deb topilganlarning ro‘yxati shakllantirilib, undagi shaxslar kategoriyalarga ajratilgan. Birinchi kategoriyaga jazoning oliy chorasi, ikkinchi kategoriyaga 10 yildan 15 yilgacha turma qamog‘iga yoki mehnat tuzatuv lageriga (MTL) yuborilgan va uchinchi kategoriyaga 5 yildan 8 yilgacha MTLga hukm qilinadiganlar kiritilgan. Siyosiy byuro a’zolari imzolagan ro‘yxatlar oliy sud harbiy kollegiyasiga berilgan.[1. 29-30-b.]

Sud marosimi rasmiy tartib chegarasi yo‘q darajada yuzaki o‘tkazilgan. Ishlar guvohlarsiz 5-10 daqiqa muddatda ko‘rib chiqilgan, ayrim holatlardagina yarim soatgacha cho‘zilib ketgan. Shu vaqt ichida sudlardan uchtasi «sudlanuvchiga uning huquqlarini tushuntirib berishlari, ayblov xulosalarini o‘qib eshittirishi, ayblov mohiyatini tushuntirishi, ayblanuvchini «sodir etgan jinoyatga nisbatan munosabatini aniqlashi, uning ko‘rsatmalarini

va so‘nggi so‘zini eshitishi, maslahatchi xonada bo‘lishi, u yerda hukmni yozishi, sud yig‘ilishi zaliga qaytib kirishi, hukmi e’lon qilishi amalga oshirilgan. O‘lim hukmlari sudlanuvchiga e’lon qilinmagan, ular o‘z taqdirlarini bevosita qatl qilinishi oldidangina bilib qolganlar. Quyida mazkur vahshiy siyosatning qurboniga aylangan ayrim ajdodlarimizning ayanchli qismatiga to‘xtalamiz.

Bois Qoriyev. Bois Qoriyev 1903-yil Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumanida tug‘ilgan. U XX asrning 20-30-yillarida “Oltoy” taxallusi bilan ijot qilgan shoir va jurnalist. Lev Tolstoy bilan uchrashgan taniqli ulamo Abduvohid Qoriyevning o‘g‘li. 1924-yil o‘zbek bilim yurtini tugatadi, shu o‘quv yurtida pedagog bo‘lib ishlagan. Fitrat va Cho‘lpon kabi shoirlarga yaqinlashib, she’rlar yoza boshlagan. 1925-yilda “Yosh leninchi” gazetasiga muharrir etib tayinlangan. Shu yillarda “Qizil qalam” jamiyatining rahbarlaridan biri bo‘lgan. 1929-yilda Maorif xalq komissarligiga ishga o‘tgan va ko‘p o‘tmay, xalq komissarligi tizimidagi xodimlarning katta bir guruhi, shu jumladan, Bois Qoriyev ham qamoqqa olingan. U dastlab oliy jazoga hukm qilingan, keyin jazo 10 yillik qamoqqa muddati bilan almashtirilgan. 1940-yilda o‘lim lagerlaridan qaytib kelgan Bois Qoriyev yana bir necha marta qayta qamoqqa olinib, Stalin vafotidan keyin, 1955-yil mart oyida ozodlikka erishgan. Oltoy 1959-1966-yillarda O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Til va adabiyot institutida, 1966-1975-yillarda Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyida ilmiy xodim bo‘lib ishlagan. 1963-yilda filologiya fanlar nomzodi. 1975-yilda O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi bo‘ladi.[2. 149-151-b.]

Xolid Said Xo‘jayev — tilshunos olim. Xolid Said Xo‘jayev 1888-yilda Toshkent viloyati Baytqo‘rg‘on qishlog‘i tavallud topgan va Boku shahrida 1937-yilda hibsga olingan va o‘sha yilning 12-oktyabr kuni otib o‘ldirilgan.

U dastlabki bilimlarini Qo‘shqo‘rg‘on qishlog‘idagi boshlang‘ich maktabda olib uni tugatgach, Toshkentdagi madrasalarning birida tahsil olgan. Turkiyaga borib, Istanbul universitetining tibbiyot fakultetini bitirgan (1911-1913), so‘ngra tarix va adabiyot (1914-1918) fakultetida ta’lim olgan. 1918 yili Istanbul universiteti talabalari bilan birga turk armiyasiga olinib, Nuri Posha qo‘mondonlik qilgan harbiy qism tarkibida Ozarbayjonga yuborilgan. Xolid Said xizmat qilgan qism turk armiyasi uchun aholidan oziq-ovqat solig‘ini undirish bilan shug‘ullangan. Oradan 1 yarim yil o‘tgach, armiya Ozarbayjondan chiqarib yuborilgan va u Qirovobodda o‘qituvchi bo‘lib ishlagan. 1920-yilda Toshkentga kelib, o‘qituvchilik faoliyatini davom ettirgan. 1937-yilda hibsga olingunga qadar Ozarbayjon pedagogika institutida

oʻqituvchi, SSSR FA Ozarbayjon filialida ilmiy xodim boʻlib xizmat qilgan. Xolid Said 1926-yilda Bokuda boʻlib oʻtgan turkologlar syezdida qatnashib, turkiy tillarning lotin yozuviga oʻtishi masalalari bilan mashgʻul boʻlgan. U-124 nomdagi kitob, risola va maqolalar muallifi. Afsuski, bu asarlarning aksari, xususan, M.Qoshgʻariy "Devonu lugʻotit turk" asarining Xolid Said tomonidan amalga oshirilgan turkiy tilga tarjimasi (izohlar bilan) tintuv paytida olib ketilib, yondirib tashlangan. Uning "Usmonli, oʻzbek, qozoq tillarining qiyosi grammatikasi" (1926) shu sohadagi dastlabki ilmiy asarlardan biri sifatida ahamiyatga molik. Xolid Saidning bizgacha yetib kelmagan tadqiqotlari orasida "Stilistika nazariyasi", "Turkiy tilning tarixiy grammatikasi", "Chigʻatoy adabiyoti toʻgʻrisida mulohazalar", "Turkiy adabiyot nazariyasi", "Turkiston tarixining qisqacha ocherki", "Urxun yozuvlarining izohli tadqiqi" singari ilmiy asarlar boʻlgan. Uning "TBG" da chop etilgan "Julqunboy bilan mubohasa" degan maqolasi (1914), adib dunyoqarashining endigina shakllanib kelayotganidan darak beruvchi hujjat sifatida ahamiyatga boʻlgan.[2. 231-232-b.] Xolid Said 1920-yilda, manbalarda aytilishicha, Toshkentdagi "oliy pedagogika maktabi"ga mudirlik qilgan. Bokuga koʻchib borganidan keyin 1922-1926 yillarda Oʻzbekistonning Ozarbayjondagi vakili boʻlib ishlagan va oʻsha yillarda Bokuga oʻqishga yuborilgan talabalarga yaqindan yordam koʻrsatgan. Xolid Said ilmiy-pedagogik faoliyatdan tashqari, badiiy tarjima bilan ham shugʻullangan. U Qamchinbek bilan birga Qodiriyning "Oʻtkan kunlar" romanini ozarbayjon tiliga tarjima qilib, 1928-yilda nashr etilgan.

Xolid Saidning rafiqasi Roza xonim Stalinning oʻlimidan keyin 1955-yil 16-aprel kuni huquq-tartibot idoralari rahbarlari va siyosiy arboblardan erining ishini qayta koʻrib chiqish kerakligini soʻragan. Xolid Said SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasining 1957-yil 16-may kuni chiqargan qaroriga muvofiq toʻliq oqlangan.

Elbek taxallusi bilan oʻz ijodini olib borgan yana bir adabiyimiz Mashriq Yunusov. Elbek Shoir, tilshunos va folklorshunos boʻlib, U 1898-yil Toshkent viloyati Boʻstonlik tumani Xumson qishlogʻida dehqon oilasida tugʻilgan. 1905-yilda qishloq maktabida 4 yil oʻqib, oʻqishni va yozuvni oʻrgangan. Otasi koʻp bolali oilasini boqa olmaganligi uchun 1911-yilda Toshkentga kelib, qarol boʻlib ishlagan, ammo zulm uni boy uyidan qochishga majbur etgan va Elbek shu yili Devonbegi mahallasidagi "Xoniy" maktabiga oʻqishga kirgan. Bolaligi ogʻir iqtisodiy sharoitda kechgan shoir 1914-yili, sarson-sargardonlik yillaridan keyin, Shayxontohur dahasidagi 7 yillik maktabning 6-sinfiga oʻqishga kirgan va 2 yillik tahsildan soʻng muallimlik qila boshlagan. Elbek shu

yillarda koʻp oʻqib, oʻzida adabiyotga, badiiy ijodga mayl uygʻona boshlaganligini sezgan. Elbek 1919-yilda Fitrat rahbarlik qilgan “Chigʻatoy gurungi” tashkiloti yigʻilishlarida faol qatnashadi. 1920-yilda Narimov nomidagi ta’lim va tarbiya texnikumida pedagogik faoliyat bilan shugʻullanadi. MXK qoshidagi Ilmiy kengashning a’zosi sifatida tilshunos va folklorshunoslik yoʻnalishlarida samarali mehnat qiladi. 1932-1934-yillarda esa Madaniy qoʻrilish ilmiy-tekshirish institutida xodim boʻlib ishlaydi. Uning “Armugʻon” degan ilk masallar toʻplami 1921-yilda nashr etiladi. Elbek, boshqa qalamkash zamondoshlari singari, tarixning burilish davrida yashadi. 20-yillarda bolsheviklar boshlagan yoʻlning xalq va mamlakatni qayerga olib borishi, ularning esa qanday karomat koʻrsatishlari noma’lum edi. Shuning uchun Elbek singari shoir va yozuvchilar 1917-yildan keyingi hayotni “yangi hayot sifatida” qabul qilib, avvalgi turmushni esa “qora oʻtmish” sifatida tasvirlay boshlaydi. Afsuski, shoirning ijod chashmasi avji qaynab-joʻshib turgan bir vaqtda “xalq dushmani” sifatida ayblanib, 1937-yilda qamoqqa olinadi va NKVD “uchligi”ning 1938-yili 4-oktyabrdagi qaroriga koʻra, 12 yillik jazo muddatini oʻtash uchun Qolimaga yuboriladi. Xulosa qilib aytganda, Toshkent viloyatida qatagʻon siyosati Xolid Saidov, Bois Qoriyev va Elbek kabi shaxslar taqdiri orqali Toshkent viloyatida amalga oshirilgan qatagʻon siyosatining ayrim ayanchli taqdirlarini koʻrish mumkin. Bu siyosat nafaqat siyosiy raqiblarni, balki ilm, adabiyot, madaniyat va jamoatchilikning eng ilgʻor vakillarini yoʻq qilishga qaratilgan edi. Natijada butun bir avlod ziyolilari, ijodkorlari va islohotchilar yoʻq qilindi, jamiyat intellektual salohiyatidan ayrildi, mustaqil fikrga boʻlgan har qanday urinish esa jazolandi. Bugun ushbu tarixiy voqealarni chuqur oʻrganish va yodda saqlash, qatagʻon qurbonlarini xotirlash va ularning orzularini roʻyobga chiqarish har bir ongli fuqaroning burchidir. Bu oʻtmishdan saboq olish, kelajakda bunday zulmga yoʻl qoʻymaslik uchun muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Shamsutdinov R. Oʻzbekistonda sovetlarning qatagʻon siyosati va uning oqibatlari. (birinchi kitob)-Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2012

2.Karimov N. Abdulla Qodiriyning zamondoshlari.- Toshkent: “Akademnashr” nashriyoti, 2020.

3.Рустамбек Шамсутдинов Ўзбекистонда советларнинг қатағон сиёсати ва унинг оқибатлари (Биринчи китоб) «SHARQ» НАШРИЁТ-МАТБАА АКЦИЯДОРЛИК КОМПАНИЯСИ БОШ ТАҲРИРИЯТИ ТОШКЕНТ – 2012.

MO‘G‘ULLAR DAVRIDA TOSHKENT SHAHRI ETNOLOGIYASI

Gulzira Juraqulova
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Tarix yo’nalishi talabasi

Toshkent shahri, Markaziy Osiyoning qadimiy va strategik jihatdan muhim markazlaridan biri sifatida, tarix davomida ko‘plab siyosiy va madaniy o‘zgarishlarga guvoh bo‘lgan. XIII asrda Chingizxon boshchiligidagi mo‘g‘ullar istilosi tufayli bu hudud ham ulkan geosiyosiy silkinishlarga uchradi. Mazkur maqolada aynan Mo‘g‘ullar hukmronligi davrida Toshkent shahrining etnologik tarkibi, aholi qatlamlari, urf-odatlari, madaniy hayoti va ijtimoiy tizimdagi o‘zgarishlar xolis tarixiy manbalar asosida yoritiladi.

Geografik jihatdan juda qulay, iqlimi mo‘tadil bo‘lgan Chirchiq va Ohangaron vodiylarida uzoq o‘tmishdayoq chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullangan aholi yashagan. Arxeologik yodgorliklarnint guvohlik berishicha, miloddan avvvalgi Ikkinchi ming yillikning oxiri va birinchi ming yillikning boshlarida ko‘chmanchi chorvador aholining o‘troqlashuvi kuchayib, dehqonchilik kengaya boshlagan.

Bizning hududni Mo‘g‘ullar istilosi faqatgina harbiy bosib olish emas, balki etnik aralashuv, iqtisodiy tuzum va madaniyatda ham chuqur o‘zgarishlarga olib keldi. Ayniqsa, Toshkent kabi markaziy shaharlarda bu o‘zgarishlar aniq sezilgan. Shu sababli, bu maqola tarixiy-etnografik tadqiqotlarga tayangan holda Toshkent shahrining XIII–XIV asrlardagi etnologik manzarasini yoritishga qaratiladi.

Mo‘g‘ullar istilosidan avval Toshkent va uning atrofida asosan turkiy qabilalar yashar edi. Bu yerlar O‘rta Osiyodagi qadimiy aholi guruhlarining — sog‘diylar, xorazmiylar, va keyinchalik ko‘chib kelgan qang‘li va qarluq kabi turkiy qabilalarning makoni bo‘lgan. Islom dini bu yerda VIII asrdan boshlab keng tarqalgan, va arab istilosidan so‘ng Toshkent aholisi diniy va madaniy jihatdan islomiy sivilizatsiyaga singib ketgan edi. Mo‘g‘ullar bosqinidan so‘ng esa aholi tarkibida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y berdi.

Chingizxonning 1219–1221 yillardagi yurishlari davomida Toshkent shahri ham boshqa ko‘plab shaharlardek qattiq vayron qilindi. Aholining katta qismi qirib tashlandi yoki asir qilindi. Shu bilan birga, bu istilolar natijasida mo‘g‘ul harbiy aristokratiyasi va ularga bog‘liq etnik guruhlar bu hududlarga

joylashtirildi. Moʻgʻul qoʻmondonlari va ularning oilalari, harbiy askarlar va ularning xizmatkorlari Yettisuv, Sharqiy Turkiston va Moʻgʻuliston hududlaridan kelib Toshkent atrofida joylashdilar.

Ammo vaqt oʻtishi bilan koʻchib kelgan moʻgʻul zodagonlari va askarlari mahalliy aholiga singa boshladi. Bu holatni tarixchilarning "moʻgʻullar turkchalanishi" deb atashi bejiz emas. Mahalliy turkiy aholi, ayniqsa qarluq va qangʻli kabi qabilalar, moʻgʻullarga nisbatan koʻproq son jihatdan ustun boʻlgan va ular oʻz tillari, urf-odatlari va hayot tarzini saqlab qolganlar. Shu sababli, XIII asr oxirlariga kelib, Toshkentda yashovchi moʻgʻullar tobora turkiylashib bordi.

Bundan tashqari, moʻgʻullar bosqinidan keyin Toshkentga boshqa etnik guruhlar ham kelib joylashdi. Misol uchun, savdo yoʻllarining tiklanishi va Paxlavon Mahmud Gʻaznaviy, Temuriylar davrida bu hududga fors, arab va hatto hind savdogarlari kelib, muqim joylashganlar. Shuningdek, urushlar natijasida koʻchirilgan hunarmandlar, dehqonlar va zargarlar ham shaharning etnik rang-barangligini oshirdi.

Toshkentdagi mahalliy sogʻdiy elementlar esa moʻgʻullar davrida butkul singib ketgan boʻlishi mumkin. Ularning tili va madaniyati XI asr oxirlaridan boshlab allaqachon turkiylashtirilgan edi. Moʻgʻullar davrida esa ularning soʻnggi izlari ham turkiy islomiy muhitga qoʻshilib ketdi.

Shunday qilib, moʻgʻullar istilosi Toshkent shahrining etnik tarkibida sezilarli oʻzgarishlar yuzaga keltirgan boʻlsa-da, vaqt oʻtishi bilan bu oʻzgarishlar mahalliy madaniyat va til ta'sirida singib ketdi. Moʻgʻullar asosan boshqaruvda va harbiy qatlamda yetakchi rol oʻynagan boʻlsalar-da, etnik jihatdan ular mahalliy turkiy aholiga koʻproq moslashganlar.

Moʻgʻullar davrida Toshkent shahri etnologiyasi mavzusi — Markaziy Osiyoning siyosiy, madaniy va demografik jarayonlarini oʻrganishda muhim masalalardan biridir. Quyida sizga bu davrga oid asosiy ma'lumotlar va foydalanishingiz mumkin boʻlgan adabiyotlar roʻyxatini taqdim etaman.

Moʻgʻul istilosi Toshkentga 1219–1220-yillarda yetib kelgan. Chingizxon qoʻshinlari Xorazmshohlar davlatini bosib olayotganda Toshkent ham bu istilolardan zarar koʻrdi.

Shahar vayron qilindi, aholisi kamaydi, iqtisodiy hayot tanazzulga yuz tutdi. Moʻgʻullar istilosidan keyin Toshkent Chigʻatoy ulusi tarkibida boʻldi. Moʻgʻullar davrida hududga koʻchmanchi turkiy va moʻgʻul qabilalari joylashtirilgan.Aholining asosiy qismini turkiy tilli dehqonlar, hunarmandlar va shaharliklar tashkil qilgan. Moʻgʻul qoʻshinlari bilan kelgan ba'zi moʻgʻul

zodagonlari mahalliy aholiga singib ketgan, ammo etnik jihatdan ustun guruh bo‘lmagan.

Asta-sekinlik bilan turkiy til va islom dini ustunlikka erishib, etnik jihatdan mahalliylashuv (assimilyatsiya) kuchaydi. Ijtimoiy tuzilma va madaniyat Mo‘g‘ullar harbiy-boshqaruv tizimini joriy qilgan: no‘yonlar, mingboshilar, yuzboshilar hokimiyatni boshqargan. Mahalliy zodagonlar mo‘g‘ul ma’murlariga bo‘ysunishga majbur bo‘lgan. Islom dini yashashda davom etgan bo‘lsa-da, mo‘g‘ullar dastlab diniy jihatdan betaraf bo‘lgan, keyinchalik esa islomni qabul qilgan.

Mahalliy aholining turmush tarzi, kiyim-kechak, urf-odatlariga mo‘g‘ul madaniyati uncha katta ta’sir ko‘rsatmagan. Etnologik natijalar Mo‘g‘ullar davri etnik jihatdan aralashuv, lekin asosan turkiylashtirishning davomiy bosqichi sifatida qaraladi. Toshkent aholisi bu davrda asosan turkiy tilli va musulmon bo‘lib qolgan, lekin siyosiy jihatdan mo‘g‘ul hukmronligi ostida bo‘lgan. Bu davrda shakllangan ijtimoiy qatlamlar (masalan, zodagonlar, ruhoniylar, hunarmandlar) keyingi asrlarda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Barthold, V. V. Turkistan v epokhu mongol'skogo nashestviya. Moskva: Nauka, 1963. (O‘zbek tiliga tarjimalari mavjud)

2. Bobojonov, Sh. O‘zbekiston tarixi (Qadimgi davrdan XV asr boshigacha). Toshkent: “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” nashriyoti, 2002.

3. Ziyayev, H. O‘zbekistonning qadimgi va o‘rta asrlar tarixi. Toshkent: Fan, 1997.

4. Allambergenov, A. Toshkent tarixi sahifalari. Toshkent: Fan, 1981.

5. Bregel, Yuri. An Historical Atlas of Central Asia. Brill, 2003.

MILODDAN AVVALGI III-I ASRLARDA TOSHKENT VOHASIDAGI KECHGAN SIYOSIY JARAYONLAR

Hamidov Jahongir Mansurbek o‘g‘li
Chirchiq Davlat pedagogika universiteti
Tarix yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada miloddan avvalgi III-I asrda Toshkent vohasidagi siyosiy jarayonlar atroflicha o’rganilgan.Toshkent vohasida mavjud bo’lgan davlatlar va undagi hukmdorlarning boshqaruv tizimi o’rganilgan.Tarixiy manbalar asosida vohaning o‘sha davrdagi rivojlanish*

xususiyatlari va mintaqadagi o‘rni ko‘rsatib berilgan. Voha hayotiga tashqi kuchlarning ta’siri , ichki kurashlar va savdo yo’llarining ahamiyati yoritilgan.

***Kalit so‘zlar**: Toshkent vohasi, Markaziy Osiyo, Choch, o‘rta asrlar, madaniy taraqqiyot, shahar madaniyati, Buyuk Ipak yo‘li, arxeologik topilmalar.*

Miloddan avvalgi III asrda Toshkent vohasi ko‘plab kichik qabilalar va urug‘larning yashash hududi bo‘lib, ularning orasida ko‘pchilik sug‘diylar va sak-massagetlar ajralib turgan. Toshkent vohasida dastlabki shaharlar va qishloq markazlari shakllangan, ularning boshida qabila boshliqlari yoki mahalliy hukmdorlar turgan. Bu esa keyinchalik mustahkam siyosiy birliklarning paydo bo‘lishiga zamin yaratgan.Siyosiy jihatdan ular mustaqil yoki yarim mustaqil tarzda mavjud bo‘lgan.Toshkent vohasi siyosiy jihatdan mozaikaga o‘xshagan: turli qabila ittifoqlari, tashqi bosimlar va ichki kurashlar bilan ajralib turgan. Bu davrda voha nafaqat mahalliy darajada, balki butun Markaziy Osiyo savdo va siyosiy hayotida muhim o‘rin egallagan.Ba’zan mahalliy urug‘lar o‘rtasida hokimiyat uchun kurashlar bo‘lgan, tashqi bosqinchilar to‘qnashuvlar ham sodir bo‘lgan. Bu holat vohaning siyosiy xaritasini o‘zgarishlarga olib kelgan.

Miloddan avvalgi III–I asrlar davrida Toshkent vohasi Buyuk Ipak yo‘lining muhim qismlaridan biri sifatida rivojlangan. Karvonlar Sharqdan G‘arbga va Shimoldan Janubga o‘tgan, Toshkent vohasi esa ularning to‘xtash va savdo qiladigan asosiy nuqtalaridan biri bo‘lgan.

Savdoning rivojlanishi bilan siyosiy aloqalar ham kengaygan, voha hukmdorlari ko‘pincha o‘z hududlarini savdo yo‘llarini nazorat qilish orqali mustahkamlashga intilganlar.

Qang' davlati sharqda Farg'ona (Davan, Dayyuan), shimoli-sharqda Usun(Uyshun) davlatlari, shimoli- g'arbda Sirdaryoning quyi oqimi bilan chegaralangan. Xitoy manbalariga ko'ra, Qang' davlati hududiga Toshkent vohasi, Talas va Chu daryolari vodiysi kirgan. Ayrim davrlarda hozirgi Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Kattaqo'rg'on, Urganch shahri va atroflari ham qaragan bo'lib, chegarasi Amudaryogacha borgan. Aholisi esa taxminan 120 ming oila yoki 600 ming kishidan iborat bo'lgan. Ba'zi manbalarda u Kengaras davlati ham deb qayd etilgan. Ammo olimlar bu so'z "Qang'ar-as", ya'ni Qang' davlati ahli degan ma'noni bildiradi, deydilar. O'zbek urug'lari ichidagi "kenagas"lar nomi o'sha qabila nomi bilan bog'liq, degan taxminlar bor. Ko'k tangriga e'tiqod qilgan bu davlat aholisini asosan qang’li, kengaras, gipchoq, bajnoq urug'lari tashkil etgan. Shuningdek, bu hududda qarluq va o'g'uz qabilalari ham yashagan. Turkiy yozuv amalda bo'lgan.

Bu davrda Toshkent vohasi Qang‘ davlatining ta’siri ostida bo‘lgan, lekin aniq hukmdorlarning ismlari tarixiy manbalarda ko‘rsatilmagan. Ularning hukmdorlari “Qang‘ shan-yusi” (ya’ni Qang‘ podshosi) deb atalgan.

Kushon davlati bu davrda eng gullagan va hududlari juda ham kengaygan davrni o‘z boshidan kechiradi. Kanishka budda dinini rasmiy ravishda davlat dini deb e’lon qiladi. Buddizmni qabul kilib, uning saltanat miqyosidagi tashviqotchisi va himoyachisiga aylanadi. Kanishka davlat poytaxtini Dalvarzindan Peshovarga ko‘chiradi.

Milodning I asr 70-80-yilarida Sharqiy Turkiston yerlari masalasida Xitoy-Kushonlar xitoyliklarning Sharqiy Turkistondagi yerlarini egallash uchun qilgan harbiy harakatlarga xayrixoh bo‘lganlar. Hatto ular 84 yilda Xitoylarga qarshi kurashish uchun Qashqarga yuborilgan Qang‘uy qo‘shinini tezda chaqirib olishni Qang‘uy podsxosidan talab ham qiladi. Natijada Qang‘uy podsxosi o‘z ko‘shinini chaqirib oladi. Qashg‘ar hokimligi esa xitoyliklarga taslim bo‘ladi. Shundan so‘ng kushonlar Xitoyga Turfonni bosib olishga yordam berdi. Buning sababi Kushon elchisi katta sovg‘alar bilan Xitoy hukmdorining qizini Kushonlar podsxosiga uylantirish maqsadida Xitoyga borgan edi.

Xitoy hukmdori uni qamoqqa oladi. Natijada ikki o‘rtaga sovuqchilik tushadi. O‘zini haqoratlangan deb hisoblagan Kushon hukmdori 70000 kishilik qo‘shin bilan Xitoyga qarshi yurish qiladi. O‘zaro kurashda u yengilib, Sharqiy Turkistondan qochishga majbur bo‘ladi. Kushonlar Sharqiy Turkistonda o‘z hukmronliklarini o‘rnata olmagan bo‘lsalarda, Hindiston yilnomalarida Kanishkaning Tarim havzasini bosib olganligi haqida ma’lumotlar berilgan. Xullas, Kanishka podsholik qilgan 23 yillik davrda Kushonlar davlati hududlari juda ham kengaygan.

Miloddan avvalgi III–I asrlarda Toshkent vohasi murakkab siyosiy jarayonlarga guvoh bo‘lgan. Turli qabila va urug‘larning siyosiy o‘zaro ta’siri, tashqi bosqinchilik va savdo aloqalarining rivojlanishi natijasida vohada mustahkam siyosiy birliklarning shakllanishi uchun asos yaratilgan. Toshkent vohasi o‘sha davrda Markaziy Osiyoning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida muhim o‘rin tutgan. Keyinchalik bu jarayonlar Toshkent shahrining shakllanishiga va uning yirik siyosiy markazga aylanishiga zamin tayyorlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. Asqarov – "*O‘zbek xalqining ilk tarixi*" – Toshkent: Fan,2007
2. *"O‘zbekiston tarixi"* (I jild) – Toahkent:Akademik nashri,2014
3. K.Shoniyazov – "*Qang’ davlati va qang’lilar*" – Toshkent:Fan, 1990
4. S.Raxmonov "*Toshkent tarixining qadimgi davrlari"* – Toshkent: Fan,2017 5. Sh.Saidov – "*Markaziy Osiyo xalqlari tarixi"* – Toshkent:Fan, 2010

QADIMGI DAVRLARDA TOSHKENT VOHASI: TARIXIY, ARXEOLOGIK VA MADANIY MEROS

Hamidov Jahongir Mansurbek o‘g‘li
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Tarix yo‘nalishi 1- bosqich talabasi

Anotatsiya*:Mazkur maqolada Toshkent vohasining qadimgi davrlardagi tarixi, arxeologik yodgorliklari va bu hududda shakllangan ilk madaniyatlar o‘rganilgan. Ilmiy manbalar, arxeologik topilmalar va yozma tarixiy ma'lumotlar asosida vohaning eng qadimgi davrlaridan to ilk o‘rta asrlargacha bo‘lgan jarayonlar yoritiladi. Shuningdek, Toshkent vohasining Markaziy Osiyo sivilizatsiyasidagi o‘rni, qadimiy shaharlar va aholi punktlari, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, diniy e’tiqodlar va madaniy taraqqiyot masalalari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Toshkent vohasi, qadimgi tarix, arxeologiya, Shoshtepa, Mingurіktepa, Kushonlar, dehqonchilik, hunarmandchilik, qadimgi shaharlar, Buyuk Ipak yo‘li, diniy e’tiqodlar, Zaratushtiylik, buddizm, arxeologik*

Toshkent vohasi O‘zbekistonning markaziy qismida joylashgan bo‘lib, tarixan muhim strategik va madaniy hudud hisoblanadi. Uning geografik joylashuvi, tabiiy resurslari va iqlimi qadimdan insonlar uchun qulay yashash manzili bo‘lgan. Bu maqolada aynan vohaning eng qadimgi davrlardagi tarixi, arxeologik izlanishlar va topilmalar asosida tahlil qilinadi.

Toshkent vohasi Zarafshon va Sirdaryo daryolari orasida joylashgan bo‘lib, unumdor yerlar va boy suv resurslari bilan ajralib turgan. Tog‘lar, vodiylar va cho‘llar o‘rtasida joylashgan bu hudud qadimda chorvachilik, dehqonchilik, ovchilik bilan shug‘ullanuvchi qabilalarning markaziga aylangan.

Arxeologik topilmalar Toshkent vohasida neolit davridan boshlab odamlar yashaganini ko‘rsatadi. Oltintoptiq, Xo‘jakent, Shoshtepa,

Qovunchitepa kabi yodgorliklar bu hududda miloddan avvalgi IV-II ming yilliklarda yashagan qadimgi jamiyatlar to‘g‘risida ma’lumot beradi.

Qadimgi dehqonchilik va hunarmandchilik madaniyati

Qadimiy Toshkent vohasida dehqonchilik asosiy xo‘jalik tarmog‘i bo‘lib, sug‘orma dehqonchilik tizimi rivojlangan. Suv chiqarish tizimlari, ariq va kanal qoldiqlari bu hududda murakkab irrigatsiya tizimlari mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Shuningdek, kulolchilik, to‘qimachilik, metall ishlash kabi hunarmandchilik ham keng tarqalgan edi.

Shosh (hozirgi Toshkent) shahri va uning atrofidagi manzilgohlar qadimdan yirik ijtimoiy-iqtisodiy markaz bo‘lgan. Arxeologik qazilmalar natijasida aniqlangan Shoshtepa, Minguriktepa, Aktepa yodgorliklari shaharsozlik madaniyatining rivojlanganini tasdiqlaydi.

Toshkent vohasi qadimgi davrlarda Ko‘k Turon, So‘g‘d, Baqtriya va Kushonlar imperiyasi kabi yirik davlatlar bilan aloqada bo‘lgan. Ayniqsa Kushonlar davrida bu hududda yirik madaniy va iqtisodiy o‘sish kuzatilgan. Toshkent vohasi Buyuk Ipak yo‘li orqali savdo-sotiq markaziga aylangan.

Qadimgi Toshkent vohasida diniy e’tiqodlar xilma-xilligi kuzatilgan. Zaratushtiylik, buddizm, so‘ngra esa manixeylik va boshqa e’tiqodlar bu yerda tarqalgan. Diniy yodgorliklar, ibodatxonalar, haykallar bu vohada ruhiy hayotning rivojlanganidan dalolat beradi.

Miloddan avvalgi III asr – milodiy III asrlar oralig‘ida Toshkent vohasi Qang‘ (Kangyuy) davlatining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan. Qang‘ davlati bu davrda O‘rta Osiyoning kuchli harbiy-siyosiy kuchlaridan biri hisoblangan. Toshkent vohasi bu davlat tarkibida iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan rivojlanishda davom etgan.

Shosh (hozirgi Toshkent) shahri va uning atrofidagi manzilgohlar qadimdan yirik ijtimoiy-iqtisodiy markaz bo‘lgan. Arxeologik qazilmalar natijasida aniqlangan Shoshtepa, Minguriktepa, Aktepa yodgorliklari shaharsozlik madaniyatining rivojlanganini tasdiqlaydi.

Toshkent vohasi qadimgi davrlarda Ko‘k Turon, So‘g‘d, Baqtriya va Kushonlar imperiyasi kabi yirik davlatlar bilan aloqada bo‘lgan. Ayniqsa Kushonlar davrida bu hududda yirik madaniy va iqtisodiy o‘sish kuzatilgan. Toshkent vohasi Buyuk Ipak yo‘li orqali savdo-sotiq markaziga aylangan.

Qadimgi Toshkent vohasida diniy e’tiqodlar xilma-xilligi kuzatilgan. Zaratushtiylik, buddizm, so‘ngra esa manixeylik va boshqa e’tiqodlar bu yerda tarqalgan. Diniy yodgorliklar, ibodatxonalar, haykallar bu vohada ruhiy hayotning rivojlanganidan dalolat beradi.

20–21-asrlarda olib borilgan arxeologik qazishmalar Toshkent vohasining qadimiy tarixini ilmiy asosda yoritishga xizmat qildi. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, Toshkent davlat universiteti va boshqa ilmiy markazlar bu borada katta ish olib bordilar.

Toshkent vohasi qadimiy davrlarda faqatgina yashash uchun emas, balki madaniyatlararo aloqalar, savdo yo‘llari, ma’naviy almashuvlar nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etgan. Bu yerda yashagan xalqlar va madaniyatlar Markaziy Osiyo tarixining ajralmas qismi bo‘lgan.

Qadimgi merosni asrash va o‘rganish zarurati

Bugungi kunda Toshkent vohasining qadimiy yodgorliklari ko‘plab tahdidlarga duch kelmoqda. Shaharsozlik, qurilish ishlari natijasida tarixiy joylar yo‘qolib ketmoqda. Shu sababli bu merosni asrab-avaylash, o‘rganish va keng targ‘ib qilish juda muhim.

Toshkent vohasi qadim zamonlardan buyon o‘ziga xos madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy markaz bo‘lib kelgan. Arxeologik va tarixiy manbalar asosida bu hududning o‘ziga xos sivilizatsiyasi shakllangani ayon bo‘ladi. Bu merosni chuqur o‘rganish nafaqat o‘tmishni anglash, balki bugungi kun va kelajak uchun muhim tarixiy saboqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asqarov A.A. “O‘zbekistonning qadimgi madaniyati”.– Toshkent: Fan, 2001.
2. Berdimuradov A. “Toshkent vohasining qadimgi yodgorliklari.” – Toshkent: O‘zbekiston, 1998.
3. Jalilov E. “Toshkent tarixidan lavhalar.” – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2012.
4. Rahmonov A. “O‘zbekiston arxeologiyasi asoslari”. – Toshkent: Fan, 2006.
5. Mavlonov O. “Shosh vohasi va uning tarixiy yodgorliklari”. – Toshkent: Akademnashr, 2015.
6. Berdiev O. “O‘zbekistonning eng qadimgi davrlari tarixi”. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
7. Gulyamov Ya.G. “Drevniy Tashkent (Shash) i ego okrestnosti.” – Tashkent: Fan, 1971.
8. Litvinskiy B.A., Zeimal E.V. “Kultura drevnego Tashkenta”. – Moskva: Nauka, 1983.
9. Bobomurodov Sh. “Toshkent tarixi qadimgi manbalarda”. – Toshkent: Sharq, 2010.

TOSHKENT VOHASIDA YASHOVCHI ETNIK GURUHLAR: TARIXIY SHAKLLANISH VA ZAMONAVIY HOLAT

Hayitboyev Azamat Davlatboy o'g'li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Tarix yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Toshkent vohasida yashovchi etnik guruhlarning tarixiy shakllanish jarayonlari, ularning mintaqadagi o'rni, madaniy xususiyatlari va bugungi kundagi ijtimoiy holati har tomonlama yoritiladi. Tarixiy manbalar va zamonaviy statistik ma'lumotlar asosida vohada yashovchi o'zbeklar, tojiklar, qozoqlar, tatarlar, ruslar, koreyslar kabi etnik guruhlarning kelib chiqishi, migratsiya jarayonlari va etnik mozaikadagi o'zaro aloqalari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, etnik guruhlarning mahalliy jamiyatga integratsiyasi, an'ana va urf-odatlarini saqlab qolish borasidagi sa'y-harakatlari hamda ularning madaniy merosga qo'shayotgan hissasi ham e'tibordan chetda qolmaydi. Maqola Toshkent vohasi etnik tarkibining tarixiy va zamonaviy dinamikasini chuqur tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, hozirgi globallashuv sharoitida milliy identitet va madaniy xilma-xillik masalalarini muhokama qiladi.*

Kalit so'zlar: *etnik guruhlar, Toshkent vohasi, tarixiy shakllanish, migratsiya, madaniy meros, milliy identitet, integratsiya, urf-odatlar.*

Toshkent vohasi — Markaziy Osiyoning eng qadimiy va tarixiy jihatdan muhim hududlaridan biri sifatida ajralib turadi. Bu voha qadimdan ko'plab etnik guruhlarning yashash joyi, savdo yo'llari chorrahasi, madaniyatlar chorrahasi bo'lib kelgan. Aynan shu omillar tufayli Toshkent vohasi o'zining rang-barang etnik tarkibi, boy madaniy merosi va ko'p qirrali tarixiy jarayonlari bilan e'tiborni tortadi. Tarixiy manbalarga ko'ra, hozirgi Toshkent hududida qadimda sug'diylar, so'g'diyona va Baqtriya xalqlari yashagan, keyinchalik esa arablar, mo'g'ullar, temuriylar va boshqa siyosiy kuchlarning kirib kelishi bilan hududning etnik ko'rinishi o'zgarib bordi[1]. Toshkent vohasi, ayniqsa, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi va keyinchalik Sovet Ittifoqi davrida katta migratsion oqimlarni boshdan kechirdi. Bu jarayon natijasida hududga ruslar, tatarlar, koreyslar, ukrainlar, yahudiylar va boshqa ko'plab guruhlar joylashdi[1].

Maqolada Toshkent vohasidagi etnik guruhlarning shakllanish jarayonlari, ularning tarixiy ildizlari, ijtimoiy-siyosiy integratsiyasi va

zamonaviy holati xolis tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu guruhlarning madaniy merosga qo‘shgan hissasi, milliy identitetni saqlab qolish borasidagi sa’y-harakatlari va davlat siyosatidagi o‘rni haqida ham fikr yuritiladi.

Toshkent vohasining ilk aholisi haqida yozilgan eng qadimgi ma’lumotlar qadimgi Sug‘diyona va Baqtriya sivilizatsiyalariga taalluqlidir. Bu hududlarda miloddan avvalgi II–I ming yilliklarda yer haydash, hunarmandchilik va savdo-sotiq faoliyatlari rivojlangan bo‘lib, ular turli elatlar bilan aloqada bo‘lgan[1]. Islom davridan boshlab arablar, keyinroq esa mo‘g‘ullar va temuriylar hukmronligi ostida etnik jihatdan murakkab ijtimoiy tuzilmalar shakllandi. Aytish joizki, XVI–XVII asrlarda Toshkent mustaqil shahar-davlat maqomida bo‘lgan va mahalliy turkiy aholi bilan birga tojik, forsiy tilli elatlar ham yashagan[1]. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Rossiya imperiyasi tomonidan Toshkentning bosib olinishi va u yerda yangi ma’muriy tuzilmalar barpo etilishi natijasida vohaning etnik tarkibi sezilarli darajada o‘zgardi. Ayniqsa, ruslar, ukrainlar va yahudiylar, keyinchalik esa koreyslar bu hududga ko‘chib kelganlar.

1920–1930 yillarda Stalin siyosati tufayli ko‘plab millat vakillari majburiy deportatsiya qilingan. Masalan, Koreyslar 1937-yilda Uzoq Sharqdan O‘zbekistonga, xususan Toshkent vohasiga ko‘chirib keltirilganlar.[1] Hozirgi kunda Toshkent vohasida o‘zbeklar bilan bir qatorda tojiklar, qozoqlar, tatarlar, ruslar, koreyslar, ukrainlar, yahudiylar kabi etnik guruhlar ham yashamoqda. Bu guruhlarning aksariyati o‘z milliy urf-odatlari, tili, dini va madaniy qadriyatlarini saqlab qolish yo‘lida faoliyat olib bormoqda. Masalan, Toshkentda koreyslar tomonidan faoliyat yuritadigan “Koreys madaniyat markazi”, yahudiylar sinagogasi, rus pravoslav cherkovi va boshqa etnik markazlar mavjud. O‘zbekiston hukumati tomonidan 1992-yildan buyon milliy va etnik guruhlarning huquqlari qonuniy himoyaga olingan. Bu holat etnik guruhlarning o‘z madaniy merosini rivojlantirish va milliy identitetni asrashida muhim omil bo‘lmoqda[1].

Zamonaviy Toshkent vohasida yashovchi etnik guruhlarning mahalliy jamiyatga integratsiyasi nisbatan muvaffaqiyatli kechmoqda. Biroq bu jarayonda ayrim muammolar ham mavjud — xususan, kichik guruhlarning tillarini yo‘qotish xavfi, madaniy assimilyatsiya va ijtimoiy tazyiqlar. Shu bilan birga, har yili o‘tkaziladigan “Do‘stlik bayramlari”, madaniy ko‘rgazmalar va millatlararo forumlar orqali ijobiy ko‘rinishlar ham kuzatilmoqda.

Toshkent vohasida yashovchi etnik guruhlarning shakllanishi va bugungi holatini o‘rganish – nafaqat tarixiy jarayonlarni anglash, balki

jamiyatdagi millatlararo totuvlik, madaniyatlararo muloqot va fuqarolik birdamligini mustahkamlash nuqtayi nazaridan ham muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqot davomida Toshkent vohasi qadimdan etnosiyosiy jihatdan murakkab, lekin barqaror mintaqa bo‘lib kelgani aniqlandi. Bu hududda o‘zaro totuv yashash tajribasi asrlar davomida shakllangan. Tarixiy manbalar asosida aniqlanishicha, vohada mavjud bo‘lgan etnik guruhlar – o‘zbeklar, tojiklar, qozoqlar, tatarlar, ruslar, koreyslar va boshqalar – o‘z kelib chiqishi, madaniyati va ijtimoiy faoliyati bilan mintaqaning etnik mozaikasiga muhim hissa qo‘shgan. Ayniqsa, XX asrda yuz bergan majburiy migratsiyalar va ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar vohaning etnik tarkibiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Zamonaviy Toshkent vohasi aholisi turli millat vakillaridan iborat bo‘lsa-da, ular o‘rtasida ijtimoiy moslashuv, madaniy integratsiya va umumiy fuqarolik identitetining shakllanishi kuzatilmoqda. Biroq bu jarayon o‘z ichida ba’zi muammolarni ham saqlab qolgan: kichik etnik guruhlarning madaniy identiteti yo‘qolish xavfi, tillarning so‘nib borishi, vaqti-vaqti bilan yuzaga keladigan madaniyatlararo anglashmovchiliklar shular jumlasidandir.

Shunga qaramay, O‘zbekiston Respublikasining millatlararo totuvlik siyosati, fuqarolik tengligi tamoyillari va etnik guruhlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi qonunchilik bazasi orqali Toshkent vohasidagi etnik xilma-xillikni barqarorlikka xizmat qiladigan omilga aylantirish imkoniyatlari mavjud. Jumladan, O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan milliy madaniy markazlar, turli festival va ilmiy-ma’rifiy tadbirlar bu yo‘nalishda muhim ijtimoiy institutlar vazifasini bajarmoqda.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Toshkent vohasi O‘zbekistonning ko‘p millatli jamiyat qurilishidagi noyob namunasi bo‘lib, uning tarixiy tajribasi va zamonaviy etnosiyosiy holati boshqa hududlar uchun ham ilmiy, ham amaliy saboq bo‘la oladi. Kelgusida bu boradagi tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish, etnografik kuzatuvlar va sotsiologik so‘rovlar orqali holatni mukammal o‘rganish muhim hisoblanadi. Shu tariqa, Toshkent vohasidagi etnik guruhlarning tinch-totuv yashashi – nafaqat o‘zbek jamiyatining, balki butun mintaqaviy barqarorlikning garovidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Karimov A. Toshkent tarixidan lavhalar. – Toshkent: Fan, 2001. – 212 b.
2. Ziyayeva G. Etnik tarkib va demografik jarayonlar // O‘zbekiston tarixi jurnali. – 2018. – №2. – B. 50–57.7
3. Berdikulov M. Sug‘diyona va Baqtriya: qadimgi sivilizatsiyalar. – Samarqand: Imkon, 1999. – 176 b.

4. Yunusov U. Toshkent shahri va uning davlat tuzilishi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – 143 b.
5. Park V. Koreyslar O‘zbekistonda: tarixiy o‘rganish // O‘zbek-Koreys ilmiy aloqalari to‘plami. – Toshkent, 2010. – B. 25–35.
6. Abdullaev R., Karimova N. O‘zbekiston etnologiyasi asoslari. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2015. – 198 b.
7. Qosimova N. Toshkent vohasida etnik guruhlarning tarixiy shakllanishi // Ijtimoiy fanlar. – 2020. – №1. – B. 34–40.
8. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2022.

UCHINCHI RENESSANSNING MUSTAHKAM POYDEVORINI YARATISHDA TA’LIM TARBIYANING ROLI

Hayitboyeva Farzona Rayxonjon qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekistonda Uchinchi Renessans davrida ta’lim va tarbiyaning roli, uyg‘onish davri bilan ta’limning uzviy bog‘liqligi, Uchinchi Renessansning poydevorini yaratishda ta'lim islohotlariga beriladigan e’tibor haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *yangi taraqqiyot, Uyo‘onish davri, Renessans, milliy o‘oya, murojaat, o‘qituvchi, islohot, poydevor.*

O‘zbekiston xalqining ko‘p asrlik boy tarixiga nazar tashlar ekanmiz, unda taraqqiyot cho‘qqilarini zabt etishning mashaqqatli bosqichlarini ko‘rish mumkin. Bu bosqichlarda davlatchiligimizning shakllanishi, jamiyatda ilmu fan, san'at va madaniyatning yuksalishi, buyuk siymolarning o‘z ijodida erishgan yutuqlari jahon tamaddunining rivojiga hissa qo‘shishdek iftixorli jarayonlar gavdalanadi.

O‘zbekiston tarixining birinchi Renessansi - Somoniylar davriga to‘o‘ri kelib, ushbu davrda buyuk ajdodlarimizning yaratgan ilmiy-falsafiy asarlari va olamshumul kashfiyotlari islom sivilizatsiyasiga tamal toshi bo‘ldi. Ijtimoiy sohaning har tomonlama rivojlanishi, jamiyatdagi munosabatlarning muayyan tartib-tamoyillar asosida qurilishi, shaharu viloyatlarning iqtisodiy-madaniy rivojlanishi, ilmu ma'rifatning markazlashuvi singari muhim jarayonlar o‘rta asrlarda yurtimizda davlatchilikning o‘ziga xosligini belgilovchi tamoyillardir.

Ikkinchi Renessans – Amir Temur va Temuriylar davriga to‘o‘ri kelib, nafaqat Movaraunnahr, balki butun Markaziy Osiyo o‘lkalari o‘z taraqqiyotining yangi poo‘onasiga ko‘tariladi. Bu davrda davlatchilik asoslari takomillashib, shaharsozlik va me'morchilik avj oldi, xalqaro savdo va

diplomatik aloqalar jadallashdi. Shuningdek, bu davrda fan, madaniyat va san'at sohalarining rivojlanishi hamda tafakkur doirasining yuksalishi namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 29 yillik tantanalarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining: «Xalqimizning uluo‘vor qudrati jo‘sh urgan hozirgi zamonda O‘zbekistonda yangi bir uyo‘onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda», - degan so‘zi yangradi. Nihoyatda jozibali mazkur strategik o‘oya o‘zining uluo‘vorligi, milliy yuksalish barcha jabhalarda qanday umumiy maqsadni ko‘zlamoo‘i zarurligini ko‘rsatadi. Amalda davlat rahbari taraqqiyotning hozirgi bosqichida O‘zbekiston milliy o‘oyasining yangi va aniqlashtirilgan mazmunini ifodaladi. Uchinchi Renessans o‘oyasini, avvalo, jamiyatimiz chuqur anglab olmoo‘i kerak. Har jabhada, sohada qiladigan ishlarimiz, rejay-u istiqbol dasturlarimiz, ta'lim-tarbiya va kadrlar siyosati, investitsion siyosat – barchasi unga sharoit va muhit yaratishga qaratilmoo‘i lozim.

«Renessans» luo‘aviy fransuzcha «qayta tuo‘ilish» degan ma'noni anglatadi. Atama sifatida uning mazmuni ancha keng: madaniyatda, ilm-fanda, san'atda, ta'lim- tarbiyada, umuman, jamiyat hayotida uzoq muddatli turo‘unlikdan keyin qayta jonlanib, tez rivojlanishni, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimi yangi sifat bosqichiga chiqishini bildiradi. Ilk bor atama Yevropada o‘rta asrlar mutaassibligidan keyin 15-16 asrlardagi rivojlanish davriga nisbatan qo‘llanilgan. Renessans atalmish mazkur ijtimoiy hodisa o‘zbek tiliga Uyo‘onish davri deb o‘girilgan.Renessans faqat Yevropaga oid hodisa emasligi, uni Sharq xalqlari yevropaliklarga nisbatan avvalroq boshdan kechirgani to‘o‘risidagi qarashlar va tadqiqotlar amalda o‘z ifodasini topgan. Rossiyalik buyuk sharqshunos akademik N.N. Konrad Renessans VII-VIII asrlarda Xitoyda boshlanib, VIII asrda Hindistonda davom etgani, undan IX-XII asrlarda islom mamlakatlari estafetani qabul qilgani, mo‘o‘ul istilosi tufayli ancha pasayib qolgan yuksalish Amir Temur va temuriylar davrida yana qayta gurkurab o‘sganini ta'kidlaydi. U O‘rta Sharq Uyo‘onish davrini Alisher Navoiy zamonasigacha cho‘zadi.

Renessansilm, fan va barcha sohlarda Uyo‘onish (yangilanish, yaratish, ixtiro qilish, kashfiyot va farovonlikni) tarkib toptirish demakdir. Renessans yurtimizda IX-XII asrlarda, ikkinchi Renessans XIV-XV asrlarda kechgan bo‘lsa, uchinchi Renessansni barpo etilishi XXI asrga to‘g‘ri kelmoqda Ta'lim sohasi – barpo etiladigan uchinchi Renessansning poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Renessans, ya'ni Uyo‘onish davrlarini e'lon qilar ekan, jadid ma'rifatparlari tomonidan 1900 – 1920 yillarda tamal toshi qo‘yilgan Uchinchi Renessans davrini davom ettirish va yakunlash vazifasini qo‘ydi.Biz esa Renessans davrini milliy davlatchilikni rivojlantirish deb bilishimiz, ilm-fan va texnologiya rivojiga erishish moddiy farovonlikning milliy shakli sifatida baholashimiz kerak.

Markaziy Osiyo hududi ya’ni qadimgi Movarounnahr va Xuroson hududlarida ham uyg‘onish davri ilmiy va amaliy jihatdan keng yoyilgan. Bu mutafakkirlar nomi hammaga tanish nazarimda. Ayni paytda, biz yoshlar Uchinchi Renessans poydevori quruvchilari sifatida ekanmiz bu mutafakkirlar ijodi va faoliyati bo‘yicha quyidagilarga e'tibor berishimiz lozim:

a)Mutafakkirlarning dunyoqarashi va faoliyatini o‘rganish;

b)Mazkur mutafakkirlarning asarlarini o‘qish va tahlil qilish;

Birinchi Renessansning yuzaga kelishida milliy davlatchilikning mavjudligi,ilm-fan rivoji, ta’lim taraqqiyoti alohida ahamiyatga ega bo‘lgan bo‘lsa biz ularni quyidagi allomalarimiz meroslari bilan baholaymiz.

Milliy davlatchilik bu-Amir Temur va temuriylar davlati (Movaraunnahr va Xuroson Hududida). Mashhur davlat boshliqlari: Amir Temur, uning o‘o‘li Shohruh Mirzo, uning o‘o‘li Mirzo Uluo‘bek va chevarasi Sulton Husayn Bayqaro. Davlatchilikning asosiy asari «Temur Tuzuklar» bilan belgilanadi. Ilm-fan rivoji esa buyuk mutafakkirlar: Qozizoda Rumiy (XV asr). Mirzo Uluo‘bek (XV asr), O‘iyosiddin Koshiy (XV asr), Ali Qushchi (XV asr), Sharofiddin Ali Yazdiy (XV asr) Mirxond (XVasr)va Xondamir (XV asr) ilmiy merosi bilan asoslanadi. Adabiyot va san'at taraqqiyoti mutafakkirlarimiz: Lutfiy (XV asr), Sakkokiy (XV asr), Hofiz Xorazmiy (XV asr), Abdurahmon Jomiy (XV asr), Alisher Navoiy (XV asr), Bobur Mirzo (XVI asr), Mahmud Muzahhib (XVasr), Kamoliddin Behzod (XVI asr) asarlari bilan o‘z taraqqiyotida erishgan.

Endi esa biz davlatimiz tomonidan ilgari surilayotgan Uchinchi Renessansga to‘xtalsak, har bir qurilayotgan osmono‘par binolar mustahkam poydevorga tayanadigan bo‘lsa, biz boshlagan Uchinchi Renessans poydevori sifatida ta’lim va tarbiyaga e’tibor qaratiladi.Shu o‘rinda esa ilm-fanning ikki turi e’tiborni tortadi.

1) Dunyoviy fanlar: «Muhammad Xorazmiy (IX asr), Ahmad Faro‘oniy (IX asr), Abu Rayhon Beruniy (XI asr). Abu Ali ibn Sino (XI asr) singari buyuk allomalarimizning jahonshumul ilmiy-ijodiy kashfiyotlari mumbashariyat taraqqiyoti rivoji ortidan borayotgan bo‘lsa;

2) Diniy fanlar: «Islom madaniyatining oltin davri» deb e'tirof etiladigan bu davrda Ona zaminimizdan yetishib chiqqan Imom Buxoriy (IX asr), Imom Termiziy (XI asr), Imom Motrudiy (X asr), Burhoniddin Mroʻiloniy (XII asr), Abul Mu'in Nasafiy (XII asr), Maxmud Zamaxshariy (XII asr) kabi uluoʻ ulamolar butun musulmon olamining faxr-u iftixori va cheksiz oʻururi hisoblanadi.

Asrlar osha xalqimiz tafakkuridan ta'lim va tarbiya ajralmasdir, degan oʻoya chuqur joy olgan. Ta'lim islohotlarida shakl va vositalarga emas, sifatning tub markazida yotuvchi mazmun-mohiyatga koʻproq e'tibor qaratish muvofiqdir. Zero, har maqsadga birimiz faqat oʻzimizning fikrimiz toʻoʻri, deb turib oladigan va ish qiladigan boʻlsak, umummilliy, umumxalq hayotiga doxil maqsadlarimizga erisha olmaymiz. Ta'lim-tarbiya sohasida tajribasizlik qilsak va xatoga yoʻl qoʻysak, kelajak avlodlar bizni kechirmasligi mumkin.

Shu bilan birga, ajdodlardan bizgacha yetib kelgan oʻoya, ilm, ma'naviyat haqidagi ulkan merosni toʻoʻridan-toʻoʻri hazm qilib ham boʻlmaydi. Bu holatni tarix saboqlaridan xulosa chiqargan holda, dunyo tajribasiga moslab amalga oshirish, juda zamonaviylashgan ta'lim- tarbiya dasturi hozirgi zamon shaxsiga mos kelmasligi mumkinligini e'tiborga olish lozim. Yoshlarning ongu ma'rifat asosida tarbiyalashni aylantirish eng tafakkurini shakllantirish muhim va vazifa masalasi yangi tahrirdagi «Ta'lim toʻoʻrisida»gi qonunimizda ham aks etgan.

Chunki yurtimizni taraqqiyotning yangi bosqichiga olib chiqish, barcha kuch-oʻayratni birlashtirish va fidokorona mehnat qilish orqali Yangi Oʻzbekistonni, pirovardida, Uchinchi Renessans poydevorini bunyod qilish mumkin.Ta'lim-tarbiya fundamental jarayonida bilimlar, nafaqat balki insoniylikning turli qirralari oʻrgatiladi. Shu bois, Sharqda ta'lim bilan tarbiya tushunchasi nutqda ham, amalda ham doimo birga ishlatilgan. Ikkisini barobar olib borish, uyoʻunlashtirish hamma davrlarda dolzarb masala boʻlib kelgan. Bugun ham ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan oʻzgarishlar aloqador oʻqitish ilm-fan, tizimidagi ta'lim-tarbiyaga muammolarni aniqlash, ommaga yetkazishni davrning oʻzi talab etmoqda.Bu jarayonda qator omillarni hisobga olishimiz darkor. Avvalo, hozirgi oʻziga xos tub yangilanishlar davrini e'tiborga olish, jumladan, muttasil oloʻa intilish, hayotni va tafakkurni isloh qilish, yangilanish tomon sobitqadamlik bilan borish zarur. Bu yoʻlda ma'naviy-ma'rifiy sohadagi islohotlar samaradorligini oshirish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish uchun vatandoshlarimizning xilma-xil oʻoyalari orasidan munosiblarini tanlab, ular mentalitetiga keladigan,

umumtarbiyaviy asosida xalqimiz tomonlama mos nazariy, ega har ommabop, ahamiyatga nazariyani ishlab chiqish vazifasi turibdi. Maqsadlarimiz roʻyobi uchun yurtdoshlarimizning oʻzini anglashiga xizmat qiluvchi, milliy va umumbashariy tamoyillarni taroʻib etuvchi, ibtidosidan intihosigacha falsafiy mazmunga boy ta'limotga ega boʻlish istagini hisobga olish kerak.Bu ishlarni amaliyotga tatbiq etishda islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab- avaylashga da'vat etishi kerak, degan oʻoyaga doim amal qilish ehtiyojini kuchaytirish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, xalqimiz ma'naviy merosiga daxldor, ming yillardan beri amaliyotda oʻz isbotini topib kelayotgan maqollar, hikmat va rivoyatlarda uluoʻlanayotgan eng katta boylik aql-zakovat va ilm ekani behuda emasligini farzandlarimizga misollar orqali tushuntirish mas'uliyati zimmamizda turibdi. Zero, tarbiyasizlik ma'naviy qashshoqlikni keltirib chiqaruvchi omil ekani, bilimsizlik oʻzbek xalqi va keluvchi qadriyatlariga mutlaqo zid axloqsizlik fenomeniga aylanayotganiga kunda-kunora guvoh boʻlyapmiz. Yangi Oʻzbekistonda mutanosibligini ta'lim-tarbiya ta'minlashda qator omillarni nazarda tutish lozim.Fuqarolik mas'uliyati va zamonaviy dunyoqarashga ega barkamol avlodni tarbiyalash birinchi oʻrinda turadi. Mana shu maqsad bizni taraqqiyotning bosqichiga eltadi. Zotan, navbatdagi Uchinchi Renessans poydevorini yaratish oʻoyasi ham tasodifiy emas, balki tub tarixiy qiyofamizni dunyoga namoyon qiluvchi omil ekanini unutmaslik darkor. Shu bilan birga, ta'lim-tarbiya uzviyligini ta'minlashda ilm, ma'rifiy makon va zamonning oʻrni hamda ahamiyatini koʻrib chiqish, uning oʻzagini tashkil qiluvchi tarixiy-ma'naviy omillarni sanab oʻtish oʻrinli.

Xalqimizning ulkan madaniy merosi, intellektual salohiyati, zaminimizning azaldan buyuk allomalar va tarixiy shaxslar yurti boʻlgani fikrimiz tasdioʻidir. Hozirgi zamon talablariga muvofiq, ilm, ma'rifiy makon e'tirofida va zamon uyoʻunligi Oʻzbekistonga umumbashariy daxldor masalalarga va alohida uroʻu berish kerak. Xususan, yurtimizdagi eng muhim tarbiya oʻchooʻi boʻlgan mahalla tizimi, ommaviy axborot vositalari orqali raqamli iqtisodiyot, «Bir million dasturchi» loyihasi, robototexnika va IT parklar, sooʻlom turmush tarzi, maktab faqatgina ta'lim beradigan maskan emas, barchamiz uchun yuksak ma'naviyat beshigiga, farzandlarimizni bolalikdan boshlab kasbga oʻrgatuvchi dargohga aylanishiga doir muhim ma'lumotlarni yetkazish, yangilab borish talab etiladi. Asrlar osha xalqimiz tafakkuridan ta'lim va tarbiya ajralmasdir, degan oʻoya chuqur joy olgan. Ta'lim islohotlarida shakl va vositalarga emas, sifatning tub markazida

yotuvchi mazmun-mohiyatga koʻproq e'tibor muvofiqdir.Ta'lim-tarbiya sohasida tajribasizlik qilsak va xatoga yoʻl qoʻysak, kelajak avlodlar bizni kechirmasligi mumkin.

Shu bilan birga, ajdodlardan bizgacha yetib kelgan oʻoya, ilm, ma'naviyat haqidagi ulkan merosni toʻoʻridan-toʻoʻri hazm qilib ham boʻlmaydi. Bu holatni tarix saboqlaridan xulosa chiqargan holda, dunyo tajribasiga moslab amalga oshirish, juda zamonaviylashgan ta'lim-tarbiya dasturi hozirgi zamon shaxsiga mos kelmasligi mumkinligini e'tiborga olish lozim.

Xulosa qilib aytganda, davlatimiz tashabbusi bilan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ta'lim muassasalari oʻquvchilari hamda jamoa a'zolari oʻrtasida oʻquvchi-yoshlarni intellektual salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda olib borilayotgan islohotlarga tuyoʻusini ularning daxldorlik kuchaytirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, pedagoglarning ijtimoiy- siyosiy jarayonlardagi faolligini oshirish, ilmiy- tadqiqot ishlariga jalb qilish maqsadida iqtidorli oʻquvchilar va pedagoglarni ragʻbatlantirish maqsadida tashkil etilgan «Uchinchi Renessans yoshlar nigohida» tanlovi ham boshlangan islohotlar samarasidir.Prezidentimizning nutqlaridan birida quyidagi muhim da'vatkor fikr bildirildi: «Biz oʻz oldimizga mamlakatimizda poydevorini Uchinchi Renessansnk barpo etishdek uluoʻ maqsadni qoʻygan ekanmiz, buning uchun yangi xorazmiylar, beruniylar, ibn sinolar, uluoʻbeklar, Navoiy va boburlarni tarbiyalab beradigan muhit sharoitlarni yaratishimiz kerak».

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1.Oʻzbekiston Respublikasining «Ta'lim toʻoʻrisida»gi OʻRQ 637 sonli Qonuni.2020 yil 23 sentabr.

2.Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq soʻzi. 2020 yil 30 dekabr. No276. 2-bet.

3.Qurbonova M.F. (2020). Yoshlarda kreativ tafakkurni shakllantirishning pedagogik asoslari. Xalq ta’limi.

4. Jahon falsafasi qomusi «Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti. - Toshkent: 1916. 2-jild, 510-bet.

4. Ma’naviyat yulduzlari. Mas’ul muharrir: M.M.Xayrullaev. T.: A.Qodiriy nomilagi xalq merosi nashriyoti, 1999., 321-b.

MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHKENT VILOYATI IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY TARAQQIYOT: XAYRIDDIN SULTONOV IJODIY FAOLIYATI

Haytboyeva Fazilat Qurolboy qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Gumanitar fanlar fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillik yillarida Toshkent viloyatida ijodiy va mehnat faoliyatini yuritgan davlat va jamiyat arbobi, publitsist, yozuvchi Xayriddin Sultonov hayoti va ijodi keng yoritiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbek adabiyoti, mustaqillik davri adabiyoti, Toshkent viloyati ijodkori, adabiy-estetik tafakkur, badiiy tafsir, milliy g‘oya va ma’naviyat, Vatanparvarlik motivlari, adabiy jarayon.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, barcha sohalarda bo‘lganidek, madaniyat va san’at sohasida ham tub islohotlar amalga oshirildi. Toshkent viloyatida bu jarayonlar ayniqsa sezilarli bo‘ldi. Viloyat madaniy hayotining rivojida yangi bosqich boshlandi — zamonaviy infratuzilma yaratildi, ijodkorlar uchun keng imkoniyatlar eshigi ochildi. Madaniy taraqqiyotning asosiy ko‘rinishlaridan biri — viloyatdagi madaniyat muassasalarining qayta tashkil etilishi va zamonaviylashtirilishidir. Har bir tuman va shaharda madaniyat va istirohat bog‘lari, san’at maktablari, kutubxonalar faoliyati yangicha asosda yo‘lga qo‘yildi. Ayniqsa, bolalar musiqa va san’at maktablari, teatrlar, muzeylar faoliyati kengaydi. Bu maskanlar nafaqat yosh avlodni ma’naviy tarbiyalashga, balki ijodiy salohiyatni ro‘yobga chiqarishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, yozuvchi va shoirlar uchun ham yangi ijodiy sharoitlar yaratildi. Mustaqillik yillarida ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning asarlarini chop etish, adabiy tanlovlar va ko‘rik-festivallar tashkil etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Toshkent viloyati bo‘ylab “Yosh ijodkorlar” uchrashuvlari, “Adabiyot va san’at haftaligi”, “Zamon shoirlari” kabi tadbirlar muntazam o‘tkazilib kelinmoqda. Bu anjumanlar yosh ijodkorlarning kamol topishida, ularning asarlarini targ‘ib qilishda muhim o‘rin tutmoqda. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Toshkent viloyati bo‘limi ham o‘z faoliyatini jonlantirib, ijodkorlar bilan samarali ishlashga e’tibor qaratdi. Ijodiy uchrashuvlar, mahorat darslari, nashriyotlar bilan hamkorlik ishlari orqali adabiy jarayon faollashdi. Shu bilan birga, yozuvchilar va shoirlarga mukofotlar, stipendiyalar, tavsiyanomalar berilishi ularning ijtimoiy hayotda munosib o‘rin egallashiga zamin yaratdi. Umuman olganda,

mustaqillik yillarida Toshkent viloyatida madaniy taraqqiyotning yangi bosqichi shakllandi. Bu taraqqiyot nafaqat moddiy jihatdan, balki ma'naviy-mafkuraviy jihatdan ham katta yutuqlarga erishishga xizmat qildi. Yaratilgan imkoniyatlar tufayli bugun Toshkent viloyati adabiyoti va madaniy hayoti yangi avlod ijodkorlari bilan boyib bormoqda. Xayriddin Sultonov 1956-yil 15-yanvarda Toshkent viloyatining Qibray tumanida tug‘ilgan. U 1973-1978-yillarda Toshkent davlat universitetining jurnalistika fakultetida tahsil olgan va o‘qish davomida ijodiy faoliyatini boshlagan. Talabalik yillarida yozuvchilikka bo‘lgan qiziqishi yanada oshib, u “Guliston” jurnalida ilk bor yozuvchilik faoliyatini boshladi. 1980-yildan 1985-yilgacha "Yoshlik" jurnalida ishlagan, shuningdek, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida muharrirlik vazifasini bajarib, yozuvchilarning asarlarini chop etishda faol ishtirok etdi.

Xayriddin Sultonovning ijodi o‘zbek adabiyotida muhim o‘rin tutadi. Bugungi o‘zbek nasrida o‘ziga xos ovoz, o‘ziga xos yo‘l bilan borayotgan yozuvchilardan biri bu - Xayriddin Sultonovdir. Xayriddin Sultonov ijodining boshidanoq adabiyotga dadil qadamlar bilan kirib keldi. U nafaqat nasr yozuvchisi, balki publitsist va dramaturg sifatida ham tanilgan. Adibning birinchi hikoyasi, “Chol”, 1970-yillarda "Toshkent oqshomi" gazetasida chop etilgan. Keyinchalik uning “Quyosh barchaga barobar” (1980), “Bir oqshom ertagi” (1983), “Onamning yurti” (1987), “Umr esa o‘tmoqda” (1988), “Boburning tushlari” (1992), “Yo‘qchilik va to‘qchilik” (1995), “Boburiynoma” kabi qissa va romanlari yuzlab o‘quvchilarni maftun etdi. Sultonovning asarlarida kishilarning ichki kechinmalari, hayotdagi murakkab vaziyatlar va tarixiy haqiqatlar badiiy tarzda aks ettiriladi. U, odatda, o‘z asarlarida o‘rta asrlar va zamonaviy davrni uyg‘unlashtirib, o‘quvchilarga murakkab insoniy his-tuyg‘ularni, ijtimoiy muammolarni tasvirlab beradi. Xayriddin Sultonov o‘z faoliyati davomida ko‘plab mukofotlar va sovrinlarga sazovor bo‘lgan. U Mehnat shuhrati ordeni bilan taqdirlangan. Uning ijodi nafaqat adabiy tanqidchilar tomonidan, balki keng jamoatchilik tomonidan ham yuqori baholanadi. Bugungi kunda Xayriddin Sultonovning asarlari o‘zbek adabiyotining eng yorqin namunalari sifatida qadrlanadi va ularning ahamiyati hali ham davom etmoqda. Ijodkorning asarlari o‘zining zamonaviyligini, tarixiy haqiqatga bo‘lgan ehtirosini va insoniy qadriyatlarni ulug‘lashdagi yuksak mahoratini namoyon etadi. Adibning ilk hikoyalari talabalik yillarida matbuotda bosilib chiqqan. “Toshkent oqshomi” gazetasida e’lon qilingan “Mikrarim chol” hikoyasini yozuvchi o‘zining matbuotda e’lon

qilingan birinchi asari eb dhisoblaydi. Yozuvchining qissa, hikoyalarida qalamga olingan voqealar hayotdagi hodisalarga oʻxshaydi. Ulardagi qahramonlar xuddi hayotdagi odamlar kabi koʻrinadi. Bu qahramonlarning oʻy-kechinmalari, dard-tashvishlari hech kimni befarq qoldirmaydi. Xayriddin Sultonov asarlarida hayotdagi oddiy hodisalar qalamga olinadi. Kishilarning kundalik hayoti, tashvishi, intilishlari, oʻzaro munosabatlari haqida hikoya qilinadi. Yozuvchi qissa, hikoyalar uchun, asosan, oddiy odamlarni qahramon qilib oladi. Ularnng ruhiy kechinmalarini ishonarli tasvirlash orqali muallifga muvaffaqiyat nasib etadi. “Yonbosh qishloqqa kuz erta tushdi” hikoyasida muallif bunday tasvirlaydi: “Yonbosh qishloqqa kuz erta tushdi. Kechagi yashilligidan ajrilgan zaʼfaron barglar mungli shivirlab, soʻngsiz hasratini ifoda qilmoqchiday qoʻnimsiz tentiraydi. Achchiq izgʻirin allaqayerdan qor sharpasini haydab keldi, gʻofil kimsalarni qilichini koʻtarib qish kelayotganidan ogoh etgan kabi birdan qora sovuq tushdi. Odamlar oʻtin-koʻmir, issiq kiyim ilinijda yugurib qolishdi, allanechuk yuvosh tortgan nozik-nihol kishilarning tashvishi kuchaydi: seryogʻin, namchil havo koʻp dardlarni yangilab yubordi” [Sultonov, 1983, 38].Yozuvchi qahramonlari harakat-holatini ularni qurshab turgan tabiatdagi oʻzgarishlar bilan bogʻliq holda tasvirlaydi. “Nomus” hikoyasidagi mana bunday oʻrinlar eʼtiborni tortadi: “Kun peshindan oqqan, quyoshning zabti pasaygan edi. Tuya oʻrkachiga oʻxshash suyri adirlar etagiga toʻshalgan soyalar tobora uzaya boshladi. Chol hamon surgalib yurar, sochilgan oʻtlarni sabr-toqat bilan bir joyga yigʻar, bogʻlar va oʻzini, xuddi shu ishlarni qilmasa, qolgan besh kunlik umrida muhim bir narsa yetishmaydigandek his qilar edi. Qosh qorayib, horiʻgʻin quyosh ufqning bagʻrini doʻlgʻalarcha bepa-yon zamin-u boʻsyunmas odamlarqa mayus termulganchaa koʻyi botib borarkan, tishlari mahkam qisilgan, oʻzi singari gʻarib chol aslida hanuz kuymanib yurgan jonsarak bir cholga qarab bosh chayqadi” [Sultonov, 1980, 27].Xayriddin Sultonov hikoyalarida qisqa vaqt oraligʻida roʻy bergan voqea-hodisalarni shu tarzda jonli gavdalantiradi.

Xayriddin Sultonov oʻzbek adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri sifatida mustaqillik yillarida adabiyotga katta hissa qoʻshgan ijodkordir. Uning asarlarida hayotning murakkab va koʻp qirrali jihatlari tasvirlanib, oʻquvchilarni chuqur fikrga chorlaydi. Xayriddin Sultonovning badiiy asarlari oʻzining tarixiy, ijtimoiy va insoniy jihatlari bilan nafaqat oʻz davrida, balki kelajakda ham oʻqish va oʻrganish uchun muhim manba boʻlib qoladi. Adibning ijodi oʻzining chinakam insonparvarligi, xalqchilligi va zamon

ta’sirida yuzaga kelgan fikrlar bilan ajralib turadi. Uning asarlaridagi zamonaviylik va tarixiy haqiqatni uyg‘unlashtirish, kishilarning ichki dunyosini tasvirlash orqali o‘quvchiga haqiqiy ma’naviy quvonch baxsh etadi. Xayriddin Sultonovning yozuvchilik faoliyati, shubhasiz, o‘zbek adabiyotining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sultonov, X. (1990). Bir oqshom ertagi. Toshkent: Adabiyot nashriyoti.
2. Sultonov, X. (1985). Onamning yurti. Toshkent: O‘zbekiston.
3. Sultonov, X. (2000). Yo‘qchilik va to‘qchilik. Toshkent: Yoshlar nashriyoti.
4. Sultonov, X. (2010). Boburiynoma. Toshkent: O‘zbekiston.
5.https://uz.wikipedia.org/wiki/Xayriddin_Sultonov
6. www.ziyouz.com
7. inlibrary.uz

MA’RIFATPARVAR ZIYOLIY, SHOIR VA TARBIYACHI

Homidjonov Nodir Bahodir o’g’li
CHDPU Gumnitar fanlar fakulteti
1-bosqich magistri.

Annotatsiya: Abdulla Avloniy o‘zbek ma’rifatparvar adibi, pedagog, dramaturg va jamoat arbobi bo‘lib, jadidchilik harakatining yirik vakillaridan biridir. U xalqni ilm-fanga, ma’rifatga da’vat etuvchi asarlari, darsliklari hamda matbuot faoliyati orqali zamonaviy o‘qituvchilik va milliy uyg‘onish g‘oyalarini targ‘ib qildi. Avloniy ijodi o‘zbek adabiyotida ma’rifiy ruh va ijtimoiy ong uyg‘onishining yorqin namunalaridandir.

Kalit so’z: Abdulla Avloniy, Toshkent, Mergancha, Turkiy guliston yoxud axloq, Turon, Botkin.

XX asr boshlarida O’rta Osiyoda boshlangan ma’rifatparvarlik harakati — jadidchilikning eng porloq siymolaridan biri bu — Abdulla Avloniydir. U o’z hayotini xalqni ilm-ma’rifatga chorlash, bolalarni tarbiyalash, zamonaviy o’quv tizimini joriy etish, sahna san’atini rivojlantirishga bag’ishladi. Avloniy nafaqat shoir, balki pedagog, jurnalist, noshir, teatr tashkilotchisi va milliy uyg’onish g’oyasining faol targ’ibotchisi edi.

Abdulla Avloniy 1878-yil 12-iyul kuni Toshkent shahrining Mergancha mahallasida to’quvchilar oilasida tug’ilgan. Abdulla Avloniy bolaligida avvaliga

mahalla maktabida ta’lim oldi. Bu maktablar odatda diniy asosda olib borilar, darslar asosan Qur’on o’qish va yodlash, diniy matnlar bilan cheklanardi. Ammo yosh Avloniyda o’qishga qiziqish nihoyatda kuchli bo’lib, u o’zining ko’proq bilim olish istagini erta namoyon eta boshladi.

Shuningdek, u mustaqil ravishda arab va fors tillarini erta yoshda o’rgandi, o’zbek xalq og’zaki ijodiga, dostonlarga qiziqdi, o’sha paytda mavjud bo’lgan eski kitoblarni mutola qildi.

Avloniy yoshlik yillarida Toshkentdagi ijtimoiy tengsizlik, xalqning og’ir yashash sharoitlari, ayollar o’qimaganligi, bolalar savodsizligi kabi muammolarni bevosita ko’rdi. Shu jarayonda unda kuchli ijtimoiy adolatparvarlik tuyg’usi shakllana boshladi. Bu holat keyinchalik uning butun ijodi va pedagogik faoliyatiga asos bo’ldi[1].

Yosh Abdulla she’r va maqolalar yozishni erta boshlagan. Uning dastlabki asarlarida Vatan tuyg’usi, Bilim va ma’rifatga intilish, Johillikka qarshi kurash g’oyalari aks etgan. Uning yoshligida yozgan ilk she’rlari orasida “Ey millatim” kabi milliy uyg’onishga da’vat etuvchi asarlar alohida o’rin tutadi.

Avloniy o’spirinlik chog’idayoq o’z xalqining savodsizligidan, johillikdan aziyat chekayotganini chuqur his etgan. Shu sababdan u yoshligidanoq ma’rifatparvarlik ruhida yashadi. 1904-yilga kelib u Toshkentda yangi usul maktabi tashkil etdi. Bu uning hayotidagi ilk katta qadamlardan biri bo’ldi. U ochgan maktab Toshkentning Sebzor dahasida joylashgan bo’lib, u yerda o’zi muallimlik qilgan. Maktab oddiy xonadan iborat bo’lib, moliyaviy jihatdan xususiy mablag’lar hisobiga yuritilgan. Bu maktabda o’zi yozgan darsliklar asosida o’quvchilarga, ona tili, axloq, tarix, geografiya, matematika fanlari, arab va rus tillari, vatanparvarlik va milliy g’urur darslari o’tilgan. Avloniy o’quvchilarga o’zi yozgan yoki tarjima qilgan darsliklar asosida saboq bergan. Jumladan “Maktab gulistoni” — bolalar uchun o’qish kitobi, “Turkiy guliston yoxud axloq” — axloqiy tarbiya asoslari, “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” — o’zbek adabiyoti namunalaridan tashkil topgan. Avloniy maktabida quyidagi ilg’or metodlar qo’llangan. Usuli savtiya (ovoz chiqarib o’qish), savol-javob orqali tafakkurni ochish, ko’rgazmali vositalardan foydalanish, yozma mashqlar, insholar yozish, axloqiy, vatanparvarlik suhbatlari kabi usullardan foydalangan.

Avloniy o’z maktabida qiz bolalarning o’qitilishi masalasini ustuvor deb bildi. U “Agar bir millatning ayoli savodsiz bo’lsa, u millat yuksalmaydi,” – deb

ta’limda ayollar o’rnini ta’kidlagan. U ayollar uchun alohida sinflar tashkil etishga urindi, o’qituvchi ayollar yetishtirishga ahamiyat berdi.

Avloniy maktabi qisqa fursatda mahallada ma’rifat, tartib va ijobiy o’zgarishlarga sabab bo’ldi. O’quvchilar savodli, ma’naviyatli, vatanparvar bo’lib yetishdi, Maktab boshqa jadid maktablari uchun namunaviy modelga aylandi, Maktabni bitirganlar orasida keyinchalik o’qituvchi, jurnalist, yozuvchi bo’lganlar yetishib chiqdi.

1920-yillarda Sovet hokimiyati maktablar tizimini ijtimoiylashtira boshlagan paytda, jadid maktablar bosim ostida qoldi. Avloniy maktabi ham sovet dasturlariga bo’ysundirilgan, Avloniy pedagogik tizimdan chetlatilgan, 1930-yillarda esa umuman yopilgan.

Avloniy ochgan maktab quyidagi jihatlari bilan tarixda muhim iz qoldirdi. O’zbek tilida zamonaviy ta’lim berilgan ilk maktablardan biri va mahalliy darsliklar asosida milliy ta’lim yo’lga qo’yilgan, jamiyatni uyg’otish va o’zgartirishga real hissa qo’shgan. Qisqa qilib aytadigan bo’lsak bugungi ta’lim islohotlari uchun tarixiy ibrat manbai bo’lib xizmat qiladi. Uning fikricha, ilmga asoslangan axloqiy tarbiya — eng kuchli quroldir. Avloniy bolani “kelajak egasi” sifatida tarbiyalashni asosiy maqsad qilib qo’ygan.

Abdulla Avloniyning eng yorqin asarlaridan hisoblangan “Turkiy guliston yoxud axloq” asari 1913-yilda Toshkentda nashr etilgan. Bu vaqt jadidchilik harakati o’zining eng faol bosqichida bo’lib, ma’rifatparvarlar xalqni uyg’otish, savodsizlikka barham berish, axloqiy tarbiyani tiklash uchun jonbozlik ko’rsatayotgan davr edi. Abdulla Avloniy bu asarni yozishdan maqsad qilib, quyidagilarni ko’zlagan bo’lishi mumkin yoshlarda axloqiy ongni shakllantirish, yaxshi va yomon xulq-atvorni ajratishni o’rgatish, tarbiya orqali jamiyatni isloh qilish, ilm va odobni bir-biridan ajratmaslik. Asar axloqiy-tarbiyaviy darslik bo’lib, o’zbek tilida yozilgan. U adabiy-badiiy shaklda, xalq uchun tushunarli va yod olishga yengil uslubda yozilgan. Asarda she’riy va nasriy parchalar, misollar, maqollar, ibratli hikoyalar mavjud.

Asarda quyidagi asosiy mavzular ilm va tarbiyaning ahamiyati, halollik va poklik, hurmat, sadoqat va sabr, ota-onani e’zozlash, vatanparvarlik, savodsizlik va nodonlikka qarshi fikrlar, ayollarni o’qitish zarurati, odob-axloq, muomala madaniyati kabilar yoritilgan

Avloniy o’z asarida axloqni ilm bilan uyg’unlikda ko’radi. Uning fikricha: “Ilmsiz axloq – kuchsiz, axloqsiz ilm – xavfli” degan jumlasini keltirib o’tadi.

Shuningdek, u maktabdagi ta’limning maqsadi faqat bilim emas, balki tarbiya, odob va milliy g’ururni shakllantirish ekanligini ta’kidlaydi. Asarda

o’quvchi o’zini tanishi, jamiyatdagi o’rnini anglashi, axloqiy tanlovlar qilishga o’rganishi kerak, degan g’oya ustuvor ahamiyatga egaligi takidlanadi.

“Turkiy guliston yoxud axloq” nafaqat pedagogik, balki adabiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Asar tilining soddaligi va jonli xalqona bo’lishi, poetika va hikoyachilik san’atidan foydalanganligi, didaktik uslubning zamonaviy ma’rifat bilan uyg’unlashuvi ahamiyatlidir. Asarda ko’plab aforizmlar, maqollar va she’rlar orqali muallif o’z fikrlarini yanada ta’sirli ifoda etgan.

“Turkiy guliston yoxud axloq” o’z vaqtida jadid maktablarining asosiy axloqiy darsligi bo’lgan. Ko’plab o’qituvchilar tomonidan amaliy vosita sifatida qo’llanilgan. Yuzlab maktab o’quvchilari ushbu asarni mutolaa qilib ulg’aygan. Mustaqillik yillarida asar qayta nashr qilinib, pedagogika tarixi, milliy tarbiya, axloqshunoslik yo’nalishlarida o’quv qo’llanmasi sifatida qadrlanmoqda.

“Turkiy guliston yoxud axloq” – o’zbek milliy pedagogikasining ilk yozma durdonalaridan biri bo’lib, xalqni tarbiyalash, axloqiy yuksaltirish, ma’naviyatni tiklash yo’lida yozilgan bebaho asardir. Unda Avloniy nafaqat muallim, balki ruhshunos, jamiyatshunos va fidoyi vatanparvar sifatida namoyon bo’lgan.

1914-yilda Toshkentda “Turon” teatr truppasini tashkil etdi. Jadid dramalari orqali savodsizlik, nodonlik, xotin-qizlarning ezilishi, zo’ravonlik illatlarini tanqid qildi. Sahnalashtirgan pyesalari ko’plab shahar va qishloqlarda qo’yildi. Abdulla Avloniy tomonidan sahnalashtirilgan“Adabiyot qurboni” “Zaharli hayot” “Turon fojiasi” kabi sahnalar keng jamoatchilik ko’nglidan o’rin oldi.

Abdulla Avloniy 1917-yilda “Turon” gazetasini nashr etdi. Gazeta o’z faoliyatini “Yashasin xalq jumhuriyati!” degan shior ostida boshladi va o’z maqsadini “Musulmonlar orasida ko’p yillardan beri davom etayotgan umumiy zo’rlik, bid’at va odatlarni tugatish, kelajakda bo’ladigan jumhuriy idoraga xalqni tayyorlash” deb belgiladi.

Biroq, gazeta faoliyati davomida ko’plab to’siqlar bilan yuzlashdi. Masalan, 2-sonida Mirmuhsinning bir maqolasi atrofida jan-jal chiqdi, muharrir vazifasidan chetlatildi, va eskiparast ulamolar matbaa egalarining uylariga vakillar yuborib, “agar-da siz Avloniy gazetasin matbaangizga bossangiz, o’lsangiz sizga janoza o’qutmasmiz” deb qo’rqitib, gazetani yakkalab qo’yishdi. Natijada, Avloniy Tiflisdan “Mulla Nasriddin” matbaasidan harf va harf teruvchi olib kelishga majbur bo’ldi, ammo baribir yo’l bermadilar, va u gazeta faoliyatini to’xtatishga majbur bo’ldi.

Umrining so'ngi yillarida 1930-1934-yillarda O'rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) da til va adabiyot kafedrasi mudiri bo'li ishladi. Avloniy Toshkentda 1934-yil 25-avgustda 56 yoshida vafot etdi va Botkin ko'chasidagi qabristonga dafn qilindi.

Mustaqillikdan keyin Abdulla Avloniy nomi miliy-tadqiqot intitutiga berildi. Toshkentdagi Adiblar xiyobonida Avloniy haykali o'rnatildi. 2017-yilda "Abdulla Avloniy ijod maktabi" tashkil etildi, 2020-yilda "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlandi. Asarlari qayta nashr qilinmoqda, pedagoglar faol foydalanmoqda.

Xulosa qilib aytadiga bo'lsak Abdulla Avloniy — o'zbek milliy uyg'onish davrining buyuk vakili, ilg'or pedagog, vatanparvar shoir, adib va jamoat arbobi. Uning ilm-ma'rifat, tarbiya, axloq va erkinlik yo'lidagi fidoyiligi zamonaviy O'zbekiston taraqqiyotiga mustahkam zamin yaratgan. Avloniy asarlari bugun ham ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishimizga xizmat qilmoqda. U bizga "Millatni saqlamoq uchun, avvalo uning ilm, til va axloqini asramoq lozim", degan o'lmas haqiqatni meros qoldirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avloniy, A. (1913). Turkiy Guliston yoxud axloq. Toshkent: Matbaa-i Istiqbol.
2. Avloniy, A. (1917). Gulistoni maktab. Toshkent: Matbaa-i Jadid.
3. Avloniy, A. (1909–1916). Adabiyot yoxud milliy she'rlar (6 qism). Toshkent.
4. Qodirov, T. (2008). Abdulla Avloniy hayoti va ijodi. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti.
5. Xudoyberdiyev, A. (2001). Ma'rifatparvar adiblar. Toshkent: O'qituvchi.
6. To'xliyev N. va boshqalar. Toshkent ensiklopediyasi. Toshkent: „O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2009 — 784-bet.
7. Oltinbek Olim. Jadid adabiyoti namoyondalari: Abdulla Avloniy. „Zabarjad media", 2022.

ROBINDRANAT TAGORNING "XOTINNING XATI" HIKOYASIDA AYOL OBRAZI

Hoshimova Shohsanam Bahrom qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ayollarning huquqlari cheklanganligi, gender tengsizlik, patriarxal jamiyatning ta'siri, o'sha davrdagi ayyollarga bo'lgan e'tiborsizlikning yuqori darajada ekanligi batafsil yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Ayol, gender tengsizlik, ijtimoiy hayot, jamiyat, huquqlar, erkinlik, ijtimoiy adolat.*

Hindistonning mashhur yozuvchisi, shoir, dramaturg va faylasufi Robindranat Tagor Hindiston madaniyati va adabiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatgan. Uning eng mashhur asarlaridan biri 1914-yilda yozilgan "Xotinning xati" hikoyasidir. "Xotinning xati" – Tagorning ijtimoiy va psixologik muammolarni yorituvchi asarlaridan biri bo‘lib, unda ayol qahramonning ichki dunyosi va jamiyatning unga bo‘lgan munosabati chuqur yoritilgan. Ushbu asar, xususan, an’anaviy gender rollari va oilaviy munosabatlarni tahlil qilishda muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, bu asar Hind jamiyatining mustamlaka davridagi ijtimoiy va madaniy holatini aks ettiradi.

"Xotinning xati" asari maktub shaklida yozilgan bo‘lib, u bosh qahramon ayolning ichki dunyosi va hissiyotlarini o‘z ichiga oladi. Ayol maktub orqali eri bilan bo‘lgan munosabatlarini qayta tahlil qiladi. U o‘zining sevgi, tushunmovchilik va yolg‘izlik haqidagi his-tuyg‘ularini ochib beradi. Ayolning hayoti, uning orzu-umidlari va jamiyat bosimi bilan kurashlari asar mazmunining asosini tashkil qiladi.

1914-yil Hindiston o'zining mustamlaka davrini boshdan kechirayotgan bir paytda, ijtimoiy holat o'ta murakkab edi. Hindiston Britaniya imperiyasining mustamlakasi bo'lib, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy jihatdan turli muammolarni o'z ichiga olgan bu davrda aynan shu asar dunyo yuzini ko'rdi.

Muallif bu asarni yozish orqali ijtimoiy hayotdagi ayollar mavzusini yoritishga urg'u bergan. Bu paytdagi ijtimoiy holatda ayollarning maqomi juda past baholangan. Ular ko'pincha erkinlikdan mahrum bo'lib, turli ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy huquqlardan cheklangan edi. Ayollar uchun turmush o'rtog'ini tanlash, ta'lim olish, ishlash kabi huquqlar ko'pincha cheklangan. Shu bilan birga, ba'zi ijtimoiy islohotlar, masalan, ayollarga ta'lim berish va yoshi kattalarga turmushga chiqishni taqiqlash bo'yicha boshlanayotgan harakatlar mavjud edi. Asarda tasvirlangan ayollarning ham turmush

o'rtog'ini tanlash, ta'lim olish huquqlari cheklangan edi. Asar qahramoni Bindu ham bunday jamiyat bilan kurasholmaydi: "Opa, nega meni erga berish zarur bo'lib qoldi".

Asarning asosiy mavzusi insoniy sevgi va oʻzlikni anglashdir. Ayol qahramon oʻz maktubi orqali jamiyatdagi oʻz oʻrnini qayta baholaydi va haqiqiy erkinlik haqida oʻylaydi. Tagor ushbu asarida ayolni shaxs sifatida tasvirlashga intiladi. Bu gʻoya faqat oʻsha davr Hindiston jamiyati uchun emas, balki bugungi kunda ham dolzarbdir. Asar orqali muallif insonning ichki kechinmalarini, jamiyat bosimi va shaxsiy erkinlik oʻrtasidagi ziddiyatni tasvirlaydi. Hikoya bosh qahramoni Mrinala shunday vaziyatga duch keladi. U o'z uyida ham, kelinlik uyida ham o'z erkiga, huquqlariga ega bo'lmaydi. Oilasidagi uning fikriga qiziqishmaydi, uni inson o'rnida ko'rishmaydi. Mrinala ham bunday jamiyatga taslim bo'ladi. Ular bilan kuarshishdan charchaydi. Shu kabi adolatsizliklardan, ayniqsa, Binduga qilingan nohaqliklardan so'ng, suyak borib pichoqqa qadaladi. Oxir-oqibat u ham o'zi va o'ziga o'xshash ayollar haq-huquqlari uchun ham kurashishni boshlaydi. Shu o'rinda asardagi fikrlarni keltirib o'tamiz: "Bilmadim bu jasorat qayerdan paydo bo'ldi: ammo men politsiyadan qo'rqib, mendan najot istab kelgan odamni jallod qo'liga topshirishni istamas edim".

Bundan tashqari asarda yana ayollarni yerga urish, kamsitish o'rinlari uchraydi: "Yoshligimda ukam bilan ikkalamiz qattiq bezgakka mubtalo bo'ldik. Ukam o'ldi, men tuzaldim. Shunda qishloqning hamma xotinlari:

Mrinala qiz bola bo'lgani uchun tuzaldi, o'g'il bola bo'lganda, sog'aymas edi - dedilar. Darhaqiqat, o'lim tangrisi Yamo o'z ishini juda yaxshi biladi: nimaiki qimmatli bo'lsa, o'shanigina tanlab oladi". Bu fikrlardan anglashiladigan ma'no shuki, Mrinala qiz bola bo'lganligi uchun tirik qoldi. Agar ota-onasi u tug'ilganda ham ukasi tug'ilganchalik xursand bo'lganida, nafaqat, ota-onasi balki butun jamiyat uchun ham qiz bola o'g'il bolachalik qadrli bo'lganida o'lim tangrisi uni ham o'ldirgan bo'lardi. Bu fikrlardan so'ng, ko'z oldimizga beixtiyor johiliya davri keladi. Ota-onalar tug'ilajak farzandlarini o'g'il bo'lishini istashlari, qizlardan ko'ra o'g'il bolalarni ardoqlashlari, bordi-yu qiz tug'ilganda otalari tomonidan tiriklayin ko'mib yuborishlari johiliya davri voqealaridandir. Ayollarning bunchalik xo'rlanishlariga Hindistondagi bir qonunni isbot sifatida keltirishimiz mumkin. Agar bir ayolning eri vafot etsa, uning qancha bolasi bo'lishidan qat'i nazar xotini ham u bilan birga yoqib yuboriladi. Bu qonun, yaxshiyamki, Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan bekor qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. ROBINDRANAT TAGOR DINIY-FALSAFIY QARASHLARIDA INSONNI ILOHIYLASHTIRISH VA XUDONI INSONIYLASHTIRISH MASALALARI Nuridinov Javohir Izomovich TDIU “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi tayanch doktorati (PhD).

2. Robindranat Tagor. Xotinning xati. Hikoya.

3. https://arxiv.uz.

4. https://ziyouz.com.

5. https://www.oriens.uz.

TOSHKENT VILOYATIDAGI MOZAIKALAR: TURIZM SALOHIYATI VA MADANIY MEROS

Husaynova Orzigul
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Toshkent viloyatida joylashgan mozaik asarlarni nafaqat badiiy yoki estetik nuqtayi nazardan, balki ularning madaniy-tarixiy meros sifatidagi ahamiyati va turizm salohiyati nuqtayi nazaridan ham o‘rganishni ko‘zda tutadi. Mozaikalar – o‘z zamonasining badiiy ifodasi, ideologiyasi va hayot tarzining aksidir. Bugungi kunda ularni turizm infratuzilmasiga integratsiya qilish orqali ichki va tashqi turizmni rivojlantirish, mahalliy aholining madaniy ongini oshirish va madaniy merosni asrab-avaylash mumkin.*

Kalit so‘zlar: *Toshkent viloyati, mozaika, madaniy meros, turizm salohiyati, monumental san’at, mozaika panno, restavratsiya, Ginnes rekordi, Toshkent mozaikalari, sayyohlik.*

Toshkent vohasi O‘zbekistonning qadimiy va zamonaviy tarixida muhim o‘rin tutadi. Bu hududda tarixiy yodgorliklar va zamonaviy arxitektura uyg‘unligi mavjud bo‘lib, shahar urbanistik transformatsiyasi jarayonida tarixiy merosni saqlab qolish dolzarb masalaga aylangan.

Mashhur nemis arxitektori Flipp Mozerov Toshkent dunyodagi eng chiroyli beton turar joylarga egaligini aytadi. “Hech qaysi possovet yoki Yevropa davlatlaridagi turar joylarda quyoshdan saqlovchi elementlar yoki bir-birini takrorlamaydigan mozaikalarni uchratmaysiz. Ular nostalgik kayfiyat uchunligi emas, aksincha bir guruh shaxslar ikkinchi guruhga maksimal qulay bo‘lishi

uchun qurib bergan uylar bo‘lgani uchun ham diqqatga sazovor. Ularni shunchaki buzish yoki yo‘qotish kerak emas. Har doim aytaman, buzishdan ko‘ra saqlab qolish osonroq. Arxitektura qoidalariga mos ravishda saqlab qolgan yaxshiroq”, — deydi u.

The Mag jurnalining yozishicha, birinchi mozaik panno Muqimiy ko‘chasidagi 9 qavatli turar joy binosida o‘rnatilgan. Keyin Pyotr Jarskiyning ishi me’morlar orasida mashhur bo‘ldi. Dastlab yangi ko‘p qavatli binolar uchun mo‘ljallangan san’at keyinchalik kirish eshiklarida, favvoralar, gumbazlar va hatto metro stansiyalarida paydo bo‘la boshladi.

Toshkentdagi ko‘p qavatli uylardagi bir-biridan farqli, rang-barang mozaikalarni ko‘rgan bo‘lsangiz kerak. Ular allaqachon Toshkentning tashrif qog‘oziga aylangan – turistlar uchun ular qiziqarli san’at asarlaridir. Mozaikalar 1966 yildagi dahshatli zilziladan keyin vujudga kelgan – sobiq SSSR davlatlari bu san’at namunalarini birgalikda yaratgan. . Zilziladan so`ng 700ga yaqin savdo va umumiy ovqatlanish shoxobchalari va mingga yaqin boshqa binolar zarar ko‘radi. Talafotdan keyin Toshkentni qayta barpo etish va juda ko‘p aholi turar joylarini qurish kerak edi. Arxitektura fanlari nomzodi, professor Abdumannop Ziyoyevning aytishicha, zilziladan keyin yangi Toshkent vujudga kelgan.

“Zilzila oqibatida shaharda shaharsozlik jihatdan salbiy oqibatlar ham bo‘lgan, ammo yangi Toshkent vujudga kelgan. Shaharning sharqiy qismida joylashgan binolar juda ko‘p shikastlangan. Sobiq SSSR tarkibidagi 15ta davlatning barchasi Toshkentga o‘z quruvchilarini yuborgan. Bosh reja bo‘yicha hududlar bo‘lingan, har bir respublika kuchiga qarab joy olgan. Kuchli qurilish bazasiga ega respublikalar markaziy joylarni qayta tiklagan. Ular o‘zlari qurgan binolarni abadiylashtirishni xohlashgan. Qozog‘iston qurgan turar joylardan birida keksa kishi va yonida raqsga tushayotgan ayol tasvirlangan mozaikalar bor. Ayrim joylarda Ukraina quruvchilari 110-maktabda Taras Shevchenko haykali bilan uyg‘unlashtirgan holda mozaikasini qurib qo‘yishgan. Hozirgi kunda bular ham madaniy meros hisoblanadi. Lekin har bittasi (respublika) o‘zini tarixda qoldirishga harakat qilgan”.

Arxitektura fanlari nomzodi, professor Abdumannop Ziyoyevning aytishicha, o‘zbekistonliklar mozaikalarga e’tiborli bo‘lmasa-da, chet elliklar ularni juda ahamiyatli, boshqa joylarda uchratish qiyin bo‘lgan bebaho arxitektura namunasi deb biladi. “Bizda O‘rta Osiyoda sirli bezak bilan binolarni yasatish an’anasi bor. Chet elliklar devorlarni ham shunday

bezatganingiz yaxshi bo‘lgan, ularda o‘ziga xoslik bor deyishadi” , — deydi professor.

Ma’lumotlarga ko‘ra, hozir Toshkentdagi 150ta binoning fasad qismida tarixiy-badiiy ahamiyatga ega mozaikalar bor. Xo‘sh, butun shaharning qiyofasiga ko‘rk bo‘lib turgan mozaikalar qanday paydo bo‘lgan?

Aslida, ular seysmik modernizm namunalari bo‘lib, Toshkent zilzilasidan keyin vujudga kelgan, Mozaikalar arxitektorlarning ajoyib topilmasi bo‘lib qolmay, ular sobiq SSSR davlatlarining birgalikda yaratgan san’at asari hamdir. 700ga yaqin savdo va umumiy ovqatlanish shoxobchalari va mingga yaqin boshqa binolar zarar ko‘radi. Talafotdan keyin Toshkentni qayta barpo etish va juda ko‘p aholi turar joylarini qurish kerak edi. Arxitektura fanlari nomzodi, professor Abdumannop Ziyoyevning aytishicha, zilziladan keyin yangi Toshkent vujudga kelgan.

Toshkent mozaikalari an’anasiga kim asos solgan?

Toshkentdagi deyarli har bir to‘qqiz va besh qavatli binoning devorlari sharqona, ornamental uslubdagi ulkan mozaik panellar bilan bezatilgan. Toshkentdagi ko‘p qavatli uylarga mos bu xususiyatini e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi.

Labzak ko‘chasida joylashgan turar-joylardagi mozaika. (Foto: fotograf Nikita Perfilev) Bu mozaik pannolar an’anasiga aka-uka arxitektorlar – Pyotr va Nikolay Jarskiylar asos solgan. Ular Fransiyada rossiyalik muhojirlar oilasida tug‘ilgan. 1947 yilda butun oila Rossiyaga qaytadi. Leningrad rassomlik universitetini tugatgan aka-ukalar 1966 yilda Toshkentni qayta tiklashga yuborilgan.

Nikolay Jarkiy Toshkentga kelishini shunday eslaydi:

“Piter bilan 1966 yilda kuchli zilziladan keyin shaharni tiklash uchun Toshkentga kelib, temir-beton buyumlar zavodiga rassom bo‘lib ishga joylashdik. Besh va to‘qqiz qavatli binolarda bizning eskizlarimiz bo‘yicha

190ga yaqin savdo va umumiy ovqatlanish shoxobchalari va mingga yaqin boshqa binolar zarar ko‘radi. Talafotdan keyin Toshkentni qayta barpo etish va juda ko‘p aholi turar joylarini qurish kerak edi.

Mozaikalarga munosabat: ularni qanday asrash kerak?

Afsuski, so‘nggi yillarda Toshkentdagi mozaikalarga nisbatan yomon munosabatga guvoh bo‘ldik. Ularning bir qismi bo‘yab tashlandi. Jamoatchilikning e’tirozlaridan keyin mozaikalarni bo‘yash to‘xtatildi.Arxitektor Ravshan To‘xtayevning fikricha, biror mozaikali bino investorga sotilganda uning zimmasiga mozaikani asrab qolish yoki boshqa

joyga ko‘chirib o‘tkazishni yuklash kerak.U yaqinda buzilish xavfi ostida qolgan “matbuotchi” mozaikasi haqida gapirarkan, unga ham shunday munosabatda bo‘lish kerakligini aytadi.

Aleksandr Fedorov esa mozaikalar qurilganidan beri hech kim ularga qayg‘urmagani va ta’mirlamaganini aytadi. Uning fikricha, davlat tomonidan qilinishi kerak bo‘lgan yagona ish ularni buzish, teginish, har xil reklamalarni ilishni taqiqlash bo‘ladi.

“Mozaikalarni tozalash, yuvib turish kerak, yaxshiroq e’tibor berish kerak. Bu birinchi qadam, ikkinchisi – mozaikalarni ehtiyotkorlik bilan bo‘yash lozim. Aynan shu masalada ishlaydigan mutaxassislar bor, ular restavratsiyaga yordam beradi.

Mozaikalarni tunda yoritish kerak, ular bo‘rtib chiqqani uchun har xil rangda tovlanadi, kerakli burchakdan ko‘rinadigan qilish kerak, xolos. Ularni yoritishga rag‘bat uyg‘otish uchun, tadbirkorlarni jalb qilsa bo‘ladi. Masalan, mozaikalarni yoritish xarajatlarini ko‘tarayotgan kompaniya binoning bir burchagiga o‘zining reklamasini qo‘ysa bo‘ladi. Bu biznesga ham reklama va ham shaharning ko‘rki ochiladi, odamlar esa bundan bahra oladi. Mozaikalar asrlar davomida turadi. Davlat kamroq pul sarflab, biznes o‘zini reklama qilish orqali ularga e’tibor qaratishi kerak – shu eng to‘g‘ri yo‘li”, — deydi Aleksandr.

O‘zbekistonga kelgan turistlar uchun poytaxt mozaikalari shu qadar o‘ziga xoski, bunday arxitektura namunalarini boshqa shaharlarda uchratish qiyin deyishadi. Ular mozaikalar bilan bezalgan uylar yonida albatta rasmga tushib ketadi.

Arxitektura fanlari nomzodi, professor Abdumannop Ziyoyevning aytishicha, o‘zbekistonliklar mozaikalarga e’tiborli bo‘lmasa-da, chet elliklar ularni juda ahamiyatli, boshqa joylarda uchratish qiyin bo‘lgan bebaho arxitektura namunasi deb biladi. “Bizda O‘rta Osiyoda sirli bezak bilan binolarni yasatish an’anasi bor. Chet elliklar devorlarni ham shunday bezatganingiz yaxshi bo‘lgan, ularda o‘ziga xoslik bor deyishadi” , — deydi professor.

Toshkentda tarixiy yodgorliklarni saqlash va tiklash bo‘yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Masalan, ko‘p qavatli uylardagi mozaikalarga madaniy-tarixiy meros maqomi berish taklif qilinmoqda. Shuningdek, XX asr modernizm arxitekturasini saqlash bo‘yicha loyihalar amalga oshirilmoqda.

Toshkent shahar hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi ko‘p qavatli uylar yon devorlaridagi mozaikalarga madaniy-tarixiy meros maqomi berishni taklif qilmoqda

Bu haqda Toshkent shahar hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining 16-iyunda o‘tkazilgan navbatdagi majlisida ma’lum qilingan. Majlisda bir necha masalalar, shu jumladan, ko‘p qavatli uylar yon devorlaridagi mozaikaning ustidan bo‘yalishi masalasi muhokama qilingan.

“Podrobno.uz”ning qayd etishicha, so‘nggi yillarda tuman obodonlashtirish boshqarmalari sovet davridagi ushbu noyob madaniy merosni asta-sekin yo‘q qilmoqda. Aksariyat mozaika pannolari allaqachon yo‘q qilib bo‘lingan yoki ayanchli ahvolda. Shaharda ushbu noyob asarlarni saqlab qolish va qayta tiklash bilan davlat darajasida shug‘ullanadigan mutaxassislar yo‘q.

Poytaxt hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi Tarixiy meros departamentiga shahar mozaikasiga madaniy-tarixiy meros maqomini berish taklifini yo‘llashga qaror qilgan.

2019-yilda Chilonzor tumanidagi uylardan birida belaruslik quruvchilar tomonidan yaratilgan mozaika bo‘yalgani haqida tarqalgan xabarlardan so‘ng Toshkent shahar hokimligi tomonidan uni tiklash chorasi ko‘rilgandi. Undan bir yil avval Toshkent shahri hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi Parkent Plaza jamoasi bilan birgalikda Yunusobod tumanidagi uylarning birida bo‘yoq surilgan mozaikani to‘g‘rilash va qayta tiklash ishlarini amalga oshirgandi.

O‘zbekistonning Britaniyadagi turizm elchisi Sofi Ibotson: “Toshkentda taraqqiyot uchun joy kam emas, lekin shahar jozibador me’moriy yodgorliklarni, jumladan, “Sharq” binosini ham yo‘qotish xavfi ostida”, deydi.

Toshkent qadimiylik va zamonaviylikning ajoyib uyg‘unligini namoyon etadi. Eski shahar hududida mintaqaning chuqur an’analari va boy madaniy rang-barangligini aks ettiruvchi noyob me’moriy yodgorliklar saqlanib qolgan. Tor ko‘chalar va jonli bozorlar qurshovida joylashgan bu inshootlar maftunkor muhit yaratib, asrlar davomida shakllangan an’analarga cho‘mdiradi. Bunga qarama-qarshi o‘laroq, zamonaviy Toshkent o‘zining baland binolari, zamonaviy biznes markazlari va rivojlangan infratuzilmasi bilan hayratda qoldiradi. Bular mustaqillikka erishgandan so‘ng jadal sur’atlarda rivojlana boshlagan. Yangi texnologiyalar va me’moriy yechimlarning tez o‘sishi shaharning tarixiy meros bilan yaqqol farq qiluvchi innovatsiya va taraqqiyotga intilishini ko‘rsatib turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. “Toshkentning tashrif qog‘ozi – poytaxt mozaikalari qanday paydo bo‘lgan?” – Kun.uz, 2021.
2. “Abadiy megapolis: madaniy evolyutsiya.Toshkent tarixi.Zamonaviy va qadimiy uyg‘unlik” – Uzbekistan Travel.
3. “Boshqacha Toshkent: City'lar qurshovidagi Eski shahar (fotojamlanma)” – Kun.uz, 2019.
4. “Sharq: Madaniy yodgorliklar yashirincha vayron qilinmoqda - faollar” – Ozodlik, 2021.
5. “Toshkentdagi ko‘p qavatli uylardagi mozaikalarga madaniy-tarixiy meros maqomi berilishi mumkin” – Daryo.uz, 2021.

6 Xidoyatov, N. (2008). O‘zbekiston arxitekturasi. T.: O‘zbekiston.

7.. Raximov, A. (2010). Toshkentning tarixiy yodgorliklari. T.: Sharq.

МЕТАКОГНИТИВНЫЕ СТРАТЕГИИ В РАЗВИТИИ НАВЫКОВ АКАДЕМИЧЕСКОГО ПИСЬМА У СТУДЕНТОВ

Ахмедов Хусен Узаирович

Чирчикский государственный педагогическийуниверси

Аннотация: *Метакогнитивные стратегии в развитии навыков академического письма у студентов играют ключевую роль в повышении качества их работы и способности к самостоятельному обучению. Эти стратегии помогают студентам не только осваивать технические аспекты письма, но и развивать более глубокое понимание учебного материала, что в свою очередь способствует формированию критического и аналитического мышления.*

Метакогнитивные стратегии — это способы осознания, мониторинга и регулирования собственных мыслительных процессов, направленные на улучшение учебной деятельности. В сущности, это «мышление о мышлении». Они помогают человеку осознать, как он учится, какие способы познания применяет и какие стратегии работают для решения конкретных задач. Метакогниция (от греч. meta — «о», «после» и cognitio — «познание») относится к умению контролировать и управлять своими когнитивными процессами (например, вниманием, памятью, восприятием, решением проблем). Метакогнитивные стратегии включают как осознание своих сильных и слабых сторон в

обучении, так и умение выбирать наиболее эффективные методы работы с информацией. Компоненты метакогнитивных стратегий Осознание (метапознание): это понимание того, как именно мы воспринимаем, обрабатываем и усваиваем информацию. Студент может осознавать, что ему трудно запомнить определенные факты или что он плохо понимает материал, и в зависимости от этого принимать решение, какие подходы применить. Планирование: это выбор стратегии и методов работы, определение целей, задач и временных рамок для выполнения учебной работы. Например, студент решает, как организовать время для написания реферата или какой литературой воспользоваться для подготовки к экзамену. Мониторинг: это процесс наблюдения за собственным прогрессом, оценка того, как идет выполнение задачи. Например, студент может следить за тем, насколько эффективно он усваивает материал, корректировать свою работу по мере возникновения трудностей. Оценка и рефлексия: это процесс анализа и оценки своей работы по завершении учебной задачи. Студент оценивает, насколько успешно он достиг поставленных целей, и решает, что можно улучшить в будущем.Примеры метакогнитивных стратегий Самоконтроль и саморегуляция: студент проверяет, правильно ли он понял материал, задает себе вопросы, делает паузы, чтобы обдумать информацию или улучшить результаты работы. Например, при написании эссе он может регулярно проверять, насколько его аргументы логичны и последовательны. Использование планов и списков: создание плана, контроль за выполнением задач, использование чек-листов или схем для того, чтобы структурировать процесс обучения или работы. Переформулирование: повторное изложение материала своими словами для лучшего усвоения. Это может быть полезным для закрепления информации, в том числе при подготовке к экзаменам. Использование различных источников: анализ разных точек зрения на проблему, использование разных методов поиска информации и их комбинирование. Обратная связь: получение и анализ внешней обратной связи для того, чтобы улучшить процесс работы. Например, работа с наставником или коллегами, обсуждение проблемы для получения новых идей. Зачем метакогнитивные стратегии важны? Метакогнитивные стратегии помогают человеку: Эффективно учиться. Они позволяют студентам осознать, какие методы учебы наиболее эффективны для них и как оптимально подходить к

решению задач. Развивать критическое мышление. Метакогниция помогает студентам развивать способности к саморефлексии и анализу, что важно для создания обоснованных, логичных и аргументированных выводов. Становиться более независимыми. С помощью метакогнитивных стратегий человек может самостоятельно управлять своим обучением, планировать и адаптировать свои действия, что способствует независимости в учебе и жизни. Метакогнитивные стратегии являются важнейшей составляющей успешного обучения и работы, так как они помогают эффективно управлять своим познавательным процессом и достигать лучших результатов. Метакогнитивные стратегии относятся к процессам осознания и регулирования собственных мыслительных процессов. В контексте академического письма это означает способность студентов: осознавать, что они уже знают и что им нужно узнать, планировать, как будут писать, какие стратегии использовать, контролировать и корректировать свою работу в процессе написания, рефлексировать над собственным письмом и анализировать его на предмет улучшений. Метакогнитивные стратегии можно разделить на три основных этапа: Предписывающее планирование – на этом этапе студент осознает задачу, определяет цели написания, выделяет ключевые аспекты работы и решает, какие ресурсы и методы будут использованы для написания. Мониторинг – студент отслеживает свой процесс написания, оценивает, насколько он движется в правильном направлении, и вносит корректировки в случае необходимости. Оценка и рефлексия – по завершению работы студент анализирует полученный результат, оценивает его на основе заранее установленных критериев и рефлексирует над тем, что могло бы быть улучшено. Применение метакогнитивных стратегий в академическом письме Развитие осознания собственных сильных и слабых сторон в письме. Студенты могут применять метакогнитивные стратегии для оценки своих навыков, что помогает выделять слабые места в написании текстов и искать способы их улучшить. Например, они могут осознавать, что им трудно правильно формулировать аргументы, и решать уделить больше внимания этой части работы. Использование стратегий самоконтроля и саморегуляции. Студенты могут регулярно останавливать себя во время написания и проверять, соответствуют ли их идеи и аргументы основной теме. Это помогает избегать отклонений от темы и улучшать

логическую структуру текста. Рефлексия над результатами. После написания текста студенты могут сравнивать свою работу с оригинальной целью, анализировать, насколько удачно они выразили свои мысли, насколько логично и убедительно построена структура, и искать способы для дальнейшего улучшения. Развитие критического мышления. Метакогнитивные стратегии способствуют развитию способности к анализу и оценке информации, что является важным для написания качественных академических текстов. Студенты учатся не только приводить аргументы, но и оценивать их значимость и убедительность. Примеры метакогнитивных стратегий в академическом письме Подготовка плана работы. Это поможет студенту четко определить структуру текста и основные моменты, которые необходимо осветить в статье. Например, на этапе планирования можно прописать основные разделы работы: введение, цели, задачи, методы исследования, выводы. Использование чек-листов для самопроверки. Студенты могут создать чек-лист с ключевыми аспектами академического письма, такими как наличие логической структуры, корректное использование источников, соответствие требованиям стиля цитирования и так далее. Чтение работы вслух. Это помогает лучше выявить недостатки в логике текста, ошибки в грамматике и стилевых нарушениях. Обсуждение работы с коллегами или преподавателем. Внешняя обратная связь помогает студенту взглянуть на свою работу с другой точки зрения и улучшить ее. Влияние метакогнитивных стратегий на качество академического письма Использование метакогнитивных стратегий значительно повышает не только качество текста, но и способность студента к обучению. Это помогает ему развивать: Самостоятельность: студент учится быть более автономным в процессе написания, что является важным навыком в академической среде. Гибкость: способность адаптировать и менять подходы к написанию в зависимости от различных задач. Критическое осмысление: более глубокая рефлексия над результатом и понимание того, какие моменты можно было бы улучшить. Метакогнитивные стратегии играют ключевую роль в улучшении качества академического письма. Их использование способствует не только повышению качества написанных текстов, но и развитию у студентов навыков самоконтроля, саморегуляции и критического осмысления. Давайте подробнее рассмотрим, как метакогнитивные стратегии влияют на различные

аспекты академического письма. Повышение осознания структуры и логики текста Один из важнейших аспектов академического письма — это чёткая структура и логика изложения. Метакогнитивные стратегии помогают студентам планировать и организовывать свой текст, контролируя, чтобы все части работы (введение, основная часть, заключение) логически связывались друг с другом и соответствовали теме. Планирование текста: Студент осознаёт, какие идеи и аргументы нужно включить в работу, как их структурировать, какие разделы и подразделы должны быть в тексте. Мониторинг: Студент периодически проверяет, соблюдается ли логика изложения, и, если необходимо, вносит корректировки. Оценка: После завершения работы студент анализирует, насколько убедительно он представил свои аргументы и достиг ли цели, поставленной в начале. Пример: Студент пишет статью, и на этапе планирования он решает, как лучше представить информацию: начать с теории, а затем перейти к практическим примерам, или наоборот. В процессе написания он может периодически возвращаться к плану, проверяя, не отклонился ли он от основной идеи. Повышение качества аргументации и анализа Академическое письмо требует чёткого и убедительного представления аргументов. Метакогнитивные стратегии помогают студентам развить способность к самокритике и самопроверке, что важно для улучшения качества аргументации. Студенты учатся проверять, логично ли они формулируют аргументы, достаточны ли они для доказательства утверждения, есть ли альтернативные точки зрения, которые следует учесть. Рефлексия: После написания текста студент может вернуться к каждому аргументу и оценить его убедительность, задать себе вопросы: «Подтверждает ли этот аргумент мою гипотезу?» или «Какие могут быть возражения?» Студент, работающий над аргументированным эссе, может на каждом этапе задавать себе вопросы: «Достаточно ли убедительны мои доказательства?» или «Что можно добавить, чтобы аргумент стал более сильным и подкреплённым фактами?». Улучшение навыков редактирования и самопроверки Один из ключевых аспектов успешного академического письма — это способность к самооценке и редактированию текста. Метакогнитивные стратегии помогают студентам эффективно контролировать качество написания и устранять ошибки. Самопроверка: Студенты могут использовать различные методы для проверки своей работы, включая чтение вслух,

использование инструментов проверки орфографии и грамматики, а также применение чек-листов для самооценки. После завершения черновика студенты могут анализировать свой текст на предмет логических ошибок, дублирования идей или недостаточной чёткости. Студент после написания первой версии текста может перечитать его, чтобы убедиться, что в тексте нет повторений, и что каждый абзац связан с предыдущим и поддерживает общую аргументацию. Он может использовать метод чтения вслух, чтобы выявить неуклюжие формулировки или грамматические ошибки. Снижение стресса и повышение уверенности в собственных силах Метакогнитивные стратегии способствуют развитию у студентов уверенности в своих силах, так как они учат планировать и контролировать процесс работы. Это позволяет снизить тревогу и стресс, связанные с написанием академических текстов.

Планирование времени: Студенты учат себя распределять время на разные этапы написания работы, что позволяет избежать спешки и паники в последний момент. Осознание, что написание — это не один процесс, а последовательность шагов (сбор информации, создание плана, написание черновика, редактирование), помогает студентам более спокойно подходить к заданию. Студент заранее планирует, когда он будет собирать материалы для исследования, а когда начнёт писать, оставляя достаточно времени на редактирование и доработку работы. Развитие критического мышления Метакогнитивные стратегии способствуют развитию критического мышления, необходимого для успешного академического письма. Студенты учат себя не только усваивать информацию, но и анализировать её, выявлять возможные противоречия и оценивать источники. Студенты могут сравнивать различные точки зрения, анализировать источники и выстраивать собственные аргументы, которые не просто повторяют информацию, а добавляют новый взгляд на проблему. Студенты учат себя критически подходить к выбору источников, оценивать их авторитетность и применимость для своей работы. При написании реферата студент не просто переписывает информацию из нескольких источников, но и анализирует, насколько авторитетны эти источники, насколько они противоречат друг другу, и выстраивает на основе этого собственную аргументацию.

Список литературы :

1. Богатырева И.И., Антонов А.В., Курзинер Е.С. Гипертекст, контекст и подтекст в поисково-аналитической системе «Галактика-Zoom»//www.dialog21.ru/dialog2006 / materials/html/Bogatyreva.htm. С. 2. - 30.09.2008. 2 См., например: Залевская А.А. Понимание текста: Психолингвистический подход. Калинин, 1988; Рафикова Н.В. Динамика ядра и периферии семантического поля текста: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. Тверь, 1994.

2. Дейк Т.А. ван, Кинч В. Стратегия понимания связного текста// Новое в зарубежной лингвистике. М., 1988.

С. 175.

3. Залевская А.А. Некоторые проблемы понимания текста// Вопросы языкознания. 2002. № 3.С. 64.

4. Дейк Т.А. ван, Кинч В. Указ. соч. С. 175. 13 См.: Воскресенский И.В. Эффект обманутых ожиданий// Психолингвистические исследования слова и текста. Тверь, 2001. С. 132-139.

5. Богин Г.И. Школа рефлексии и рефлективности// Методология современной лингвистики: проблемы, поиски, перспективы. Барнаул, 2000. С. 43.

ADIDLARNING ZAMONAVIY MAKTAB MASALASIGA MUNOSABATI

Ibotova Muxlisa Sirojiddin qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Jadidlarimizni yoshlar uchun harakat qilgan bizni o'zligimizni saqlab qolish uchun harakat qilishgan. Undan tashqari ayollarimizni o'qishi uchun katta e'tibor bergan Ushbu maqolada jadidlarimiz haqida ularning faoliyatidagi ba'zi satrlari haqida to'g'risida keng ma'lumot olishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: jadidizm, Hoji Mu'in Shukrullo, "Oyina" jurnali, Ta'lim va tarbiya", Munavvar qori Abdurashidxonov.

Jadidchilik yoki jadidizm (arabcha: jadid - yangi) – XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim va Tatariston ziyolilari hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakat. Dastlab jadidchilik XIX asrning 80-yillarida Qrimda vujudga keldi. XIX asrning 90-yillaridan O'rta Osiyoda tarqaldi.Jadidchilik avval madaniyat sohasidagi harakat sifatida

faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni oʻrganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan. Keyinchalik jadidchilar panturkizm gʻoyalarini targʻib qilishgan[1,7-12].

Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va oʻz vatanlarini mustaqil koʻrishni orzu qildilar va shu yoʻlda kurashdilar. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yoʻnalishlar ustuvor edi:yangi usul maktablari tarmogʻini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga oʻqishga yuborish; turli ma'rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop qilish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurishdek ijtimoiy gʻoyalar mavjud edi.Ulardan biri jadid maktablari haqida koʻplab xitoblar qilgan masalan: "Millatning taraqqiysi aning avvali muntazam maktablaridan boshlanur. Agarda biz dinimizni, millatimizni yaxshi koʻrub, muhofaza qilmoqchi boʻlsak, avval saodat eshigi boʻlgan maktabimizni zamongʻa muvofiq isloh qilish kerak", - deb yozgan edi turkistonlik jadidlardan biri Hoji Mu'in Shukrullo. Haqiqatan ham, maktablar islohi masalasi jadid matbuotining keng va qamrovli munozaralariga sabab boʻldi. Turkiston maktablari qanday boʻlishi kerak, ular qaysi yoʻnalishda rivojlanishi zarur, kabi muammolar oʻz davri mualliflarining diqqat markazida boʻldi.

Munavvar qori Abdurashidxonov asrlar davomida hukm surib kelgan maktab va madrasalardagi oʻqitish tizimini isloh etishni ilgari suradi. Maktablarda hali asl mazmuni va ma'nosini tushunishdan yiroq bolalarga Fuzuliy, Navoiy, Xoʻja Hofiz, Bedilning muhabbat haqidagi she'rlari oʻqitiladi va uningcha: "bir bolaga Fuzuliy oʻrniga ilmi qiroat, Navoiy oʻrniga masoili e'tiqodiya, Xoʻja Hofiz joyiga masoili amaliyot, Bedil badaligʻa ilmi hisob oʻqitilsa, din va dunyosi uchun qancha foydalar hosil qilib, musulmon oʻlur. Balogʻatga etmagan bolalar ulardagi falsafiy ma'noni uqmagan, hatto ularni oʻqiyotgan domlasi ham tushunmagan holda "johil domlalarni ta'limi falonni qoshi qora, koʻzi qora, yuzi oq, soʻzi shirin, deb bolalarni fasod axloqigʻa birinchi sabab oʻladurgʻon" asarlarga aylanayotganligini ta'kidlagan muallif, bularningoʻrniga matematika, geografiya, islom tarixi kabi dunyoviy ham diniy ilmlarni oʻqitish foydali, degan fikrda edi. "Ibtidoiy maktablarimizning tartibsizligi yohud taraqqiyning yoʻli" maqolasining muallifi Niyoziy Rajabzoda oʻlkadagi boshlangʻich maktablarning zamon talabiga javob bera

olmayotganligini dalillar bilan keltiradi: “ xoh Buxoro, Samarqand, Toshkand, xullas, umum Turkiston shaharlarinda bo‘lgan musulmon qarindoshlarimiz insof ila fikr qilsalar, maktablarimizni ko‘p parishon va beintizom holatda ko‘rarlar. Muddati tahsil ko‘p uzoq bo‘lganligi uchun ko‘p kishilar bolalarini 8-10 yil maktabga qo‘yolmaydurlar. Chunki qudrati iste'dodlari etmaydir. Shuninguchun maktabda yurgan bolalarimizdan 10 yo 8 nafardan 2 yo 3 nafar ahli savod bo‘lub chiqadurlar[2.5].

“Oyina” jurnali o‘zining 1914 yil 27-sonida hukumat statistik ma'lumotlari asosida Samarqand viloyati shaharlari bo‘yicha aholi, madrasa, maktab va talabalar soni keltirilgan jadvalni chop etadi. Ma'lum bo‘ladiki, mahalliy aholining har yuzdan uch nafari, rus millatining har yuzdan 16 nafari o‘qishga jalb etilgan. Ushbu vaziyatni muallif “hazrati Payg‘ambarimizning “Ilm Xitoyda bo‘lsa-da talab qilingiz”, “Talabi ilm har musulmon er va xotung‘a farzdur”, “Ilmni beshikdan qabrg‘acha talab qilingiz” degan amri shariflarig‘a bo‘yin qo‘ymaganimiz ma'lum bo‘lur. Va bul o‘qumaslikning oxiri dunyo oxiri va oxiratda rasvolik bo‘lur”, deb baholaydi. “Agarda har millatning istiqbolini bilmak xohlansa ul millatni bolalarig‘a nazar va. Alarming sihhatlariga va husni tarbiya va ta'limlarig‘a” katta E’tibor zarurligi Abdusalom Azimiyning “Ta’lim va tarbiya” maqolasining bosh mavzusi bo‘ldi. Uning “bolag‘a ona birinchi omil va murabbiydir. Onani ta'siri bolag‘a, otani ta'siridan ziyodadir” fikri hamma davr uchun birdek katta ahamiyatga ega. Zotan, “Agarda onalar johila bo‘lmay, balki oqila, muhazzaba, mutaallama va odobi sahihalarga dono bo‘lsalar va bolani o‘z tarbiyasiga muvofiq bo‘luvini tushunsa, hifzi sihhat va odobga rioya etsa va nobajo bo‘lunmog‘idan to‘xtatsa va odibi islomiya va axloqi marziya birla tarbiyat etsa, albatta, ul Bolani oqil va halim bo‘lmog‘iga shak va shubha yo‘qdur[3.25].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sirojiddin. R. Qahramon. "Jadidchilik". O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent: 2005
2. Ражабзода Ниёзий. Ибтидоий мактабларимизнинг тартибсизлиги ёҳуд тараққийнинг йўли // Ойина (1914-1915й.). Тошкент, 2001
3. Самарқанд вилоятининг нуфуси ҳукуматнинг санаи холиядаги ҳисоби бўйунча//Ойина (1914-1915й.). Тошкент, 2001.

TOSHKENTNING QADIMGI MANZILGOHLARI

Ibragimova Nazmi Abdalim qizi,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti I - bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada poytaxtimiz Toshkentning arxeologlar tomonidan o'rganilgan eng qadimgi manzilgohlari aks ettirilgan bo'lib keng mulohazalar bilan yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Choch, Mingo'rik, dehqonchilik, shahriston, ark, robot, madanyat, Arxeologiya, Choch, poytaxt, Ohangaron, iqlim, Yaksart, Burg'uliq, Qanqa, Afrosyob, yodgorlik, madanyat.*

O'zbekiston diyori qulay geografik o'rni, fusunkor tabiati, boy hayvonot olami, anvoyi yer osti boyliklari tufayli bundan million yil ilgariyoq odamlarni o'ziga jalb qila boshlagan.Qadimiy dehqonchilik madanyati, barq urib rivojlangan shaharsozlik, yuksak moddiy va ma'naviy madanyatda tamaddun shakllangan bu o'lkada Baqtrya, Sug'd, Xorazm va Farg'ona singari shaharlashgan tarixiy madaniy mintaqalar ravnaq topgan. Toshkent ana shunday mintaqalar sirasiga kiradi, Qadimgi Choch davlati aynan shu vohada shakllangan.

Toshkent vohasining tarixi va madanyati qazib ochilgan yodgorliklarda, arxeoligik obidalarda o'z aksini topgan.Voha arxeoligiyasi X|Xasrning ikkinchi yarmidan o'rganila boshlangan.Natijada arxeologlar xilma xil materiallar mintaqaning qadimgi davridan XV asrigacha bo'lgan tarixi va madanyatini qayta tiklash imkonini berdi. Geografk jihatdan juda qulay, iqlimi mo'tadil bo'lgan Chirchiq va Ohangaron vodiylarida uzoq o'tmshdayoq chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullangan aholi yashagan.Arxeologik yodgorliklarning guvohlik berishcha, miloddan avvalgi || mingyillikning oxiri va birinchi mingyillikning boshlarida ko'chmanchi chorvodor aholining o'troqlashuvi kuchayib, dehqonchilik kengaya boshlagan. Sirdaryo shimolidagi eng shaharlashgan tarixiy va madaniy mintaqalardan biri Qadimgi Choch mulki bo'lgan.Bu hududda shahar madanyati o'troq qishloq xo'jaligi iqtisodyoti asosida shakllangan So'g'd va Baqtrya kabi qadimiy dehqonchilik mintaqalaridan farqli o'laroq, o'ziga xos iqtisodyot va madanyatga ega bo'lgan. Chochning katta mulki Sirdaryo havzasidagi dehqonlar va dasht ko'chmanchilar o'rtasidagi aloqalar hududida shakllangan.

Sharq geograf va sayyohlarning ma'lumotlarida Sirdaryo "Injuli daryo", "Yaksart", "Choch daryosi" deb keltirilgan. Uning suvi Turon tekisliklaridagi

daryo va kanallarga tarqalgan va Oks –Amudaryoning kanallari bilan birga millionlab gektar yerlarni dehqonchilik va yaylov chorvachiligini rivojlantirish uchun juda qulay yerga aylantirilgan.U o'troq voha aholisi va dasht kochmanchi qabilalarning o'zoro madaniy, iqtisodiy va etnik jihatdan o'zoro bog'lovchi tabiiy vosita vazifasini o'tab kelgan. Iqlim qurg'oqlashib, ushbu daryolarning suvi pasayishi, o'zanlarning qurib qolishi natijasida aholi Sirdaryo- Yaksartning yuqori oqimidagi sersuv o'lkalarga qarab ko'cha boshlaganlar. Ular qulay joylarni izlab Choch, Fatg'ona va Qashqadaryo vohalarigacha faol kirib borib, ushbu hududlar aholisi hayoti madanyati va etnik tarkibiga ta'sir ko'rsatgan. Arxeologik tatqiqotlarga ko'ra Toshkent vohasida miloddan avvalgi XIV-XVI asrlardan boshlab qishloqlar paydo bo'lgan. Ana shunday qishloq xarobalarida olib borilgan arxeologik tatqiqotlar so'nggi bronza va ilk temir davridan boshlab Toshkent vohasida sodda sug'orish –suvni ekinga bostirib quyish usuliga hamda sug'orma dehqonchilikka ixtisoslashganligi va qishloqlar paydo bo'lganligini ko'rsatgan. Jumladan, ushbu vohada 25 dan ortiq ana shunday dehqonchilik xo'jaligiga ixtisoslashgan qishloqlar mavjudligi aniqlangan.

Toshkent tarixini o'rganar ekanmiz, arxeologlar tomonidan ochilgan va ko'plab sirlarni o'z ichiga olgan manzilgohlarga duch kelamiz. Ushbu manzilgohlar hozirgi Toshkentning shakllanishida, qolaversa taraqqiy etishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Qazishma ishlari natijasida ko'plab qabrlar, shahatlar hayotini eslatuvchi diniy istehkomlar topilgan. Bu jihatlarni o'rganar ekanmiz, albatta manbalarga murojat etish joiz. Zero, manbalar orqali haqqoniy tarix yoritiladi va kelajak avlod bahramand bo'ladi.

Toshkent vohasida qo'shni Farg'ona vodiysiga o'xshagan yodgorliklar silsilasi mavjud. Ular bir umumiy nom bilan Burg'uluq madanyati yodgorliklari deb yuritiladi. Ilk topilmalar 1934 – yili G.V.Grigoryev tomonidan Qovunchi yodgorliklarida olib borilgan arxeologik ishlar paytida aniqlangan. 1940- yili Terenojkin Ohangaron daryosining o'rta oqimidagi Burg'uliqsoy havzasi bo'ylab bir necha arxeologik yodgorliklarni qazib o'rganadi va ularning barchasini Burg'uluq madanyatiga birlashtiradi. Bu madanyat Toshkent vohasidagi ilk dehqonlarga taaluqli bo'lib, keyinchalik yana bir necha joylarda bu madanyatga mansub yodgorliklar o'rganildi.

Burg'uluq madanytiga mansub uy joylar yaxshi saqlanmagan va bizgacha yetib kelmagan. Shunga qaramay, ular to'g'risida ayrim ma'lumotlar qo'lga kiritilgan. Bu madanyat Toshkent vohasidagi ilk dehqonlarga taaluqli bo'lib, hududda urbanizarsiya jarayonining keying rivojida muhim rol

o’ynaydi.Burg’uluq yodgorliklari Chust, Eylaton madanyatlari bilan solishtirilganda, ularda umumiy jihatlarni kuzatish mumkin. Burg’uluq madanyatining kelib chiqishida mahalliy chorvadorlarning asta –sekin dehqonchilikka o’tishi hal qiluvchi ro’l o’ynagan, ya’ni chorvador qabilalar qulay geogrfik sharoit bo’lgan joylarda dehqonchilikka o’tganlar.

Qanqa shahri Toshkent vohasining eng katta va eng qadlmgi shahri hisoblanadi. U Chochning birinchi poytaxti- uning xarobalari Toshkentdan 70 km janubi g’arbda , eski Ohangaron o’zanining chap qirg’og’ida joylashgan. Shahar miloddan avvalgi IV asr oxiridan to milodning XII asrigacha mavjud bolib, uni tatqiqotchilar Yaksartorti, Antioxiy, Shi, Chjeshi, Choch va Xarashkent degan nom ostida eslaganlar. Yodgorlikda dastlab 1898 - yilda Turkiston Arxeologiya instuti tomonidan tatqiqot ishi olib borildi. Qanqa to’g’rito’rtburchak shaklida qurilib, umumiy maydoni 200 ga. Bir necha qator mudofaa devoiri va xandaqlar bilan o’ralgan. Shahar ark, uchta shahriston rabotdan iborat. U yeda kumush va mis tangalar, sopol haykalchalar, ostodon, mehnat qurollari va devoriy suratlar topilgan. Mlodning XII asrida Ohangaron daryosi o’zanining o’zgarishi tufayli suvsiz qolib harobaga aylangan. Banokat-Shoxruxiya arxeologik yodgorligi – Sirdaryoning o’rta oqimi o’ng qirg’og’ida, sharqdagi Chotqol va Qurama tog’ tizmalaridan boshlanib, g’arbga tomon oqadigan Ohangaron daryosining Sirdaryoga quyilish joyi yaqinida, Toshkent viloyati, Oqqo’rg’on tumaning ‘’Shoxruxiya’’ mahalla fuqoralari yig’ini hududida joylashgan.

Banokat – Shoxruxiya yodgorligining qoldqlari Sirdaryoning o’ng qirg’og’idagi tabiiy sof tuproqli tepalikning ustida, shimol va sharq tomonidan kesib o’tgan qadimiy kanallar va xandaqlar orasida aniq bilinib turadi.

Milloddan avvalgi II asrdan to XVIII asrlarga qadar yondosh bo’lgan shahar va qishloqlaraholisini savdo- sotiq bilan birga bog’lash vazifasini bajarib kelgan Banokat- Shohruxiya shahrini to’liq yoritib beradigan yozma manbalar bo’lmasada, uning qayerda joylashganligi, u qanday vazifani bajarganligi haqida qisqa ma’lumotlar bor. Bunday ma’lumotlarning dastlabkisi IX- XII asrlarga oid arab va fors tillarida yozilgan asarlarda qayd qilingan. Bu manbalarda Shohruxiya o’rni Banokat nomi bilan keltirilgan bo’lib, Banikat tavsifi Sirdaryo tavsifi bilan qo’shilib ketgan.Manbalarda Banokatning daryodan kechib o’tiladigan savdo yo’lida o’rnashganligi, u Chochning qadimiy yirik shahar markazlaridan biri bo’lganligi, uning yonidan oqib o’tadigan daryo ‘’Banokat daryosi’’ nomi bilan yuritilishi qayd etilgan. Jumladan, ibn Xurdodbeh, Istaxriy, Muqaddasiy, Beruniy ma’lumotlarida va

muallifi no'malum bo'lgan ''Hudud ul –olam '' asrida Banokat Shoshga kelinadaigan yo'ldagi birinchi nuqta ekanligi, u Sirdaryoning o'ng sohilida joylashganligi keltirilgan.

1974- yildayodgorlikning shimoliy qismida, Bahorsoy qirg'og'I yaqinida dala ishlri olib borilayotgan paytda qishloq kutubxonachisi B.Qodirov 670 dona mis tangadan iborat xazina topib olgan va ularni arxeolog Y. F. Buryakov boshchiligidagi guruhga sovg'a qilgan.Zudlik bilan ushbu tangalar topilgan joyda qayta tekshirish o'tkazish natijaida o'sha hududdan yana 1300 dan ortiq mis tangalar topilgan. Mimgo'rik ko'hna shahri Toshkent hududidagi antik hamda ilk o'rta asr davrining eng yirik arxeologik yodgorliklardan biridir, u chamasi, Toshkentning qadimiy yadrosi nisoblangan. Ko'hna shahar hozirgi Toshkentning markaziy qismida, Salor kanalining shimolida, Shimoliy vakzal yonida joylashgan. O'tgan asrning 20 yillarida M. E. Masson mazkur ko'hna shaharni bir sidra tekshirib ko'rgan edi. 1871- yilda tuzilgan xaritada umumiy maydoni 35 gadan iborat qal'a shaxristondan tashkil yopilganligini ko'rish mumkin. Mingo'rik ko'hna shahar hududi zamonaviy qurilishlar bilan egallangan va uning kichik bir qismi- uchburchak shakldagi 42 x 30 m o'lchamli, balandligi 15 metrkli tepalikkina saqlanib qolgan, unga shimol tomondan uzunligi qariyb 80m va 3-4 m bo'lgan kichik shleyf tutashgan. G'arb va janub tomondan esa tepalik qariyb etagiga qarab qirqilgan.

Mingo'rik nomi qadimiy obidaga nisbatan X|X asrda berilgan. Ilgarilari uni mahalliy aholi Afrosiyob nomi bilan atagan. Arab yozma manbalarida bu shahar "Madinat ash- Shosh" nomi bilan tilga olinsa, boshqa yozma manbalarda "Choch", xitoy yozma manbalarda "Dje- She" va "Shi" deb nomlangan. Shaharga milloddan avvalgi | asrning oxiri va milodning | asrning boshlarida asos solingan. Shu vaqtda uning dastlabki mudofaa devoir tiklangan.Xom g'ishtdan tiklangan devorning qalinligi 9 metrni tashkil etgan. Lekin shaharning tez o'sib borishi uning hududining kengayishiga olib kelgan. Natijada milodning |V asriga kelib, Mingo'rik shahri Toshkentning ilk o'ra aslar davri shaharlaridan biriga aylangan va bu yerda shahar hokimining qarorgohi – qasri bunyod etilgan. G. I. Bogomolov va S. R, Ilyasovlar fikricha, ochilgan bino shahar qurilishi shakllanishining dastlabki bosqichlaridan birini aks ettiradi. Ichki tomonida uchta parallel xonalarga bo'lingan,tomonlardan har birining markazida yarm cho'ziq minorali kvadrat tarzida bino qurishning tarixiy prinsipi Choch uchun o'ziga xos hisoblanadi, lekin bunday yo'lakli – taroqsimon tarh uzoq qadim inshotlarda yaxshi ma'lum va bu hol, odatda inshootning maishiy xususyatga ega ekanidan darak beradi. Ya'ni, umuman,

Mingo'rik kvadrat yadroli, xochsimon joylashgan minorali muxtasham bino tomonlaridan har birining markazida yarm cho'ziq birmuncha g'ayrioddiytarzida joylashgan kvadrat shaklidagi ikki qavat qal'adan iborat.

Keltirilgan dalillardan ko'rinib turibdiki Toshkent go'zal boy va takrorlanmas tarixga ega. Shuning uchun ko'hna shahar poytaxt maqomini olgan.Bugungi kunda Toshkent shahrida ko;plap tantanalar, anjumanlar va qolaversa, davlatlar o'rtasidagi diplomatik munosabatlar o'tkazilmoqda.Poytaxt dunyo tan olgan eng yaxshi markaz shaharlaridan biriga aylanmoqda. Islom poytaxti deb e'tirof etilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ashirov A.A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. –T., 2009.
2. Toshkent viloyati., O'z ME. T-harfi., Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. Воронец М.Э. Браслеты бронзовой эпохи Музея истории АН УзССР. Труды., Ташкент., 1948.
4. Кузмина Е.Е. Арии-путь на юг. М., "Летний сад",2008.
5. Оболдуева Т.Г. Погребения эпохи бронзы в Ташкентской области. КСИИМК, Вып. №59.

QADIMGI TOSHKENT - XITOY MANBALARIDA

Ibragimova Nazmi Abdalim qizi
Chirchiq davlat Pedagogika universiteti
Tarix yo'nalishi 1 -bosqich talabasi

Annatatsiya: *Ushbu maqolada Toshkent haqidagi, xususan Toshkent hududida mavjud bo'lgan davlatlar yoki Toshkentning qadimgi nomlari to'g'risidagi aosiy ma'lumotlar Xitoy manbalarida keltirilishi to'g'risida fikrlar bildirilgan.*

Kalit so'zlar: *Qang', aloqalar, Xitoy, O'rta Osiyo, Sharq, yozma manbalar, oqsoqollar kengahi, Toshkent raqsi, turkiy til, arxeologik yodgorliklar, Choch, iqlim, ko'chmanchlar, ilk o'rta asrlar, Ban Gu, Toshkent vohasi, Xan sulolasi.*

Qadimdan O'rta Osiyo o'zining boy tabiati, go'zal iqlimi, ma'daniy merosi, dunyo tan olgan tamaddun o'lkasi ekanligi, yillar silsilasida tarixchilar nigohida bo'lganligi, bu hududarnig takror va takror o'rganilishiga sabab bo'lgan. Shu jihatlarni hisobga oladigan bo'lsak, O'rta Osiyon sivilizatsitsiya beshiklaridan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Ko'chmanchi udumlari asosida

vujudga kelgan davlat va davlat birlashmalarining taraqqiy etilishida ozmuncha mehnat qilinganmi, yoki bo'lmasa rivojlanish yo'lida behisob qurbonliklar keltirilganligi fikrimiz dalidir,

Qadimda O'rta Osiyo hududida ko'plab davlatlar mavjud bo'lgan. Jahon xalqlari tarixidan ma'lumki, O'rta Osiyo juda qadim- qadim zamonlardan Sharqning G'arbga tomon darvozasi, iqtisodiy va moddiy aloqalar uzatuvchi nuqta ro'lini o'ynab kelgan. Sharq xalqlari G'arbga tomon turli maqsad sari intilishlarda hech qachon O'rta Osiyo hududlarini cheklab o'tmaganlar. Qadimda va o'rta asrlarda Yevroosiyo dashtlari aholisi, ayniqsa, Oltoy, Janubiy Sibir, Shimoliy Xitoy hududlari nafaqat iqtisodiy, balki etnomadaniy jihatdan ham O'rta Osiyo bilan o'zoro uzviy aloqada bo'lgan. Bu haqida arxeologik manbalar ko'p daliliy ma'limotlar beradi.

Ta'kidlash joizki, O'rta Osiyo tub joy aholisining aynan ikki qutb bilan, ya'ni shimoli- sharq va janubiy mintaqalar bilan an'anaviy uzviy bog'liqlikning zaminida muhim bir omil yotadi. Bu ham bo'lsa, ular o'rtasida qadim- qadim zamonlardan davom etib kelgan etnik aloqalar edi. Darhaqiqat, Markaziy Osiyoning qadimgi aholisi Xitoy yozma manbalariga ko'ra, turkiy tilli bo'lgan. O'rta Osiyoning janubiy chegaralarida esa qadimdan eroniy tilli aholilar yashab kelgan. Bu ikki tilli aholining uchrashuv nuqtasi, chegara hududlari qadimda Sirdaryoning quyi va o'rta havzalari bo'lsa, ilk o'rta asrlardan boshlab bu chegara Amudaryoning o'rta havzalariga ko'chdi. Bu tarixiy jarayonda turkiy qabilalarning faolligi, ularning muntazam ravishda davom etgan migratsiyasi bosh ro'lni o'ynagan. Aynan shu davrdab boshlab, janubiy Turon hududlari aholisining etnik tarkibida aksaryat ko'pchilik turkiy xalqlardan tashkil topganligi uchun Turkistonga aylandi.

Qadimgi Xitiy solnomalarida Toshkent xitoycha Loyueni, Yuni, Chje- shi, Chje- si va Shi nomlari bilan tilga olingan. Miloddan avvalgi || asrga oid Xitoy solnomasida hozirgi Toshkentning bir qismiga to'g'ri keladigan hudud Yuni deb ko'rsatiladi; keyinroq shu joy Chje- shi, Shi shakllarida ham yozilgani ma'lum.

Mazkur manbalarda hozirgi Toshkentning o'rni Shi hududiga kirganligi ta'kidlangan. ''Shi so'zini ifodalovchi xitoycha belgi ''tosh''degan ma'noni anglatadi. Ayni paytda, shaharning sug'dcha ''Choch'' degan nomi ham ''tosh'' ma'nosini bildiradi.

Choch toponimi yozma shaklda ilk bor sosoniy podsho Shopurning farmoniga ko'ra, ''Zardusht ka'basi'' ga bitilgan yozuvlarda uchraydi va u viloyat nomini anglatadi.

Vatanimiz tarixining miloddan avvalgi |||- | asrlari va milodning |V asrlarigacha bo'lgan hujjatli ma'lumotlar asosan Xitoy manbalariga aloqadardir. Shu bois, O'rta Osiyoda bu davrda qanday davlatlar bo'lganligi, qanday qavm va qabilalar yashaganligi, shahar, daryo, joy nomlari qanday atalganligi Xitoy manbalarida, Xitoy tilida qanday yozilgan bo'lsa, hech qanday o'zgarishsiz manbadagidek atalgan.

Toshkent hududida joylashgan dastlabki davlatlar ham ko'p yillik tarixiy yo'lni bosib o'tgan. Bu haqida arxeologik manbalardan tashqari Xitoy manbalari ham qimmatli hisoblanadi. Bunday ma'lumotlar asosan Xitoy tarixchilari Sima Syanning'' Tarixiy xotiralar'' va Ban Guning '' Birinchi Xan dinastiyasining tarixi'' kabi asarlarida keltirilgan. Toshkent hududini qamrab oluvchi shunday davlatlardan biri qadimgi Qang' davlatidir. Xitoy manbalarida Qankiya davlati Qang'yuy deb atalgan. Xitoy tarixchisi Sima Syan o'z xotiralarida qang'yuylarning joylashishi, harbiy kuchi, urf- odati, ularga qo'shni xalqlar haqida qisqacha ma'lumot beradi. Qang'yuylarning xo'jaligi, madanyati va turmush tarzi haqida arxeolog olimlarning Qovunchi madanyatiga oid todgorliklarida olib borgan tatqiqot ishlari tahsinga sazovordir. Qang'yuy davlati va uning tashkil topgan hududi masalasida yaqingacha S. P. Tolstov fikriga suyangan holda O'zbekiston tarixida noto'g'ri tasavvurlar hukmron bo'lib keldi.Ammo keying yillarda Toshkent vohasi va Janubiy Qozog'istonda olib borilgan keng ko'lamli arxeologik qazishmalar Qang'yuy davlatining joylashgan hududi haqida tarixiy haqiqatni yuzaga chiqardi.Masalan, arxeologik manbalar tahliliga ko'ra, Turon podsholarning bosh shahri Qang'dez hozirgi Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumanida joylashgan Qanqa shahar xarobasi ekanligi aniqlandi. Iskandar harbiy yurishlaridan keyin O'rta Osiyonong qadimgi erksevar ko'chmanchi qabilalari janubda Yunon Baqtrya davlati tashkil topgach, darhol shimolda ko'chmanchi qabilalar va o'troq aholi mahalliy hokimliklari ittifoqi asosida o'z davlatini tuzadilar. Bu davlat yarm o'troq , yarm ko'chmanchi qabilalarkanfederatsiyasi sifatida tashkil topgan Qang'iya davlati edi. Muntazam harbiy kuchga ega bo'lgan bu davlat O'rta Osiyo janubida qaror topgan yunonlar hukmronligiga qarshi qaratilgan edi.

Sima Syanning'' Tarixiy xotiralar'' asarida yozilishicha, Qang'yuy davlatining poytaxti ikkita bo'lgan. Manbada xabar berilishicha,Qang'yuyning poytaxti Bityanda bo'lgan deyiladi. S. P. Tolstov ularni dastlab. Qadimgi Xorazmdan qidiradi. Ammo, yozma manbalarni arxeologik yodgorloklar bilan qiyosiy o'tganish natijasida, olimlar Bityan Xorazmda emas, balki Toshkent

vohasida joylashganligini isbotladilar. Darhaqiqat, Qang'yuy davlatimimg qishki poytaxti sifatida Bityan aynan Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumanida joylashgan Qang'atepa shahar xarobasi ekanligi aniqlandi.

Buyuk elchi Chjan Szyan o'z esdaliklarda shunday yozadi:'' Qang'yuy mag'rur va qo'rs. U bizning elchilarimiz oldida ta'zim qilishni o'ziga ep ko'rmadi va butun fel atvori bilan hokim nomidan uning oldida yuborilgan bizning amaldorlarimizni ko'pini davlat elchilaridan, hattoki usun elchilaridan ham quyiga o'tkazdi.

Qang' davlatining boshqaruvida oqsoqollar kengashinig o'rni katta bo'lsada, ammo mamlakatning o'z podshosi bo'lgan. Biroq to'ng'ich Xan sulolasi tarixida Qang'yuy podshosi o'z oqsoqollari bilan bamaslahat ish tutishi haqida bir marta eslatib o'tiladi. Xoqonlar ana shu yabg'ularga tayanib mamlakatni boshqarganlar. Ma'muriy jihatdan bu davrga oid davlatlar viloyatlarga bo'lingan. Xususan Qang' davlatida viloyat noiblari yabg'u deb atalgan. Bundan ko'rinadiki yabg'u unvoni ko'p asirlik tarixga ega.

Manbalarda Qang'yuy davlati miloddan avvalgi || asrning oxiri va | asrning boshlarida buyuk davlat bo'lganligi va u Xitoyga nisbatan mustaqil siyosat yurgizganligi qayd etiladi. Qang'yuy, hatto Xitoy- Farg'ona mojorolariga aralashadi.Xitoy bilan Qang'yuy o'rtasidagi adovat miloddan avvalgi ||- | asr boshlarida boshlangan edi. Xitoy ma'murlari Qang'yuylarning ashaddiy dushmanlari usunlar bilan do'stona aloqa o'rnatib, g'arbga miloddan avvalgi 104- yili Davanga birinchi bor harbiy yurish boshlaydi. Ammo bu yurish uncha muvaffaqqiyatli chiqmaydi.Ular hozirgi O'zgan shahrini egallagach, juda ko'p jangchilaridan ajrab orqaga chekinadilar.

Qang' davlati iqtisodiy hayoti masalasida Xitoy tarixchisi Sima Syan uning ko'chmanchi mamlakat ekanligini yozadi. Ammi milodning boshlarida to'ng'ich Xan sulolasining tarixida qang'yuylarning o'troq xalq ekanligiga ishora qilinadi. Qang'yuylarda qoramol va qo'ylar ko'p bo'lgan. Chorva mollarining ko'pchiligi podsholar va uning yaqinlariga qaragan. Shuning uchun bo'lsa kerak xoqon va uning urug'lari bahor kelishi bilan qishki qarorgohdan yozgi qarorgohga ko'chganlar. Chorvasi kam bo'lgan aholi esa vohadan chiqib keta olmagan. Yashab qolganlari esa dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanishga majbur bo'lganlar. Angren- Chirchiq atroflarida saqlangan yuzlab tepa- qo'rg'onlar bunga guvohlk beradi. Tarixiy ma'lumotlardan qang'arlarning Bityan, Yuni hamda arxeologlar ochgan O'tror-1, Oqtepa- 2, Qorovultepa, Chochtepa xarobaari o'rnida qadimiy qo'rg'onlari va shaharlari ham bo'lgan.Hunarmandchilik- urush qurollari Toshkent

vohasida ishlab chiqarilgan., Qoramozor, Qurama, Chotqol tog'larida temirchilik, misgarlik hunarining rivojlanishi uchun kerakli miqdorda madanlar bo'lgan.

Solnomalarda musiqa traktatlarida O'rta Osiydan olib borilgan juda ko'p musiqa asboblari eslatib o'tilgan. Ammo ularning aksaryati xitoy tilida nomlanganligi tufayli ularning qaysi biri O'rta Osiyodan borganligini aniq aytish qiyin. Bu asboblarga berilgan ta'riflardan va N. Y. Bichurinning tarjimalarida keltirilgan ayrim asbob nomlaridan nay, surnay, childirma, nog'ora, dutor, beshtorli cholg'u asbobi va boshqalar O'rta Osiyodan borgan deyish mumkin.

O'rta Osiyo va boshqa mamlakatlardan borgan san'atkorlardan musiqachi va artistlar guruhlari tashkil etilgan. Jumladan, Toshkent, Samarqand, Shahrisabz va Buxoro san'atkorlaridan tashkil topgan guruhlar mavjud bo'lgan. 2-12- 24 kishidan iborat bo'lgan guruhlar bora- bora ansamblga aylanadi. Ijrochilar sahnaga o'z milliy kiyimlarida chiqqanlar.

Milodiy |V- V asrlarga oid Xitoy tilida yozilgan musiqa traktatlarida Buxoro (Ango), Samarqand(Qang'o) va Qang'lisijo yoki Qang'li (Sirdaryoning o'rta oqimi, Toshkent vohasi) nomli maqomlar mavjud bo'lganligi uqtirib o'tilgan.

Xusyunu- o'z davrining mashhur raqslaridan bo'lib, Movarounnahrda keng tarqalgan. Bu o'yinni asosan qizlar, ba'zi vaqtda ekaklar ham ijro etganlar. Samarqand va Kitob- Shahrisabz viloyatlarida mashhur bo'lgan bi o'yinni ijro etuvchi qiz- juvonlar ham ko'proq shu viloyatdan chiqqanlar.

Xitoyda milodiy | miningchi yillarning o'rtalarida O'rta Osiyodan borib qolgan va u yerd shuhrat qozongan raqslardan yana biri Chjechji- Toshkent nomi bilan atalgan bo'lib, buni asosan qiz- juvonlar ijro etganlar. Dastavval bu raqsga bir kishi tushgan, ya'ni yakka o'yin hisoblangan. Milodiy V- V| asrlarda esa besh kishi, keying asrlarda esa 24 kishi o'ynagan. Bu raqsga davra tutib, aylanib o'ynalgan.

''Toshkent'' raqsi xitoyliklarni o'ziga maftun etgan. O'sha davrlarda yozilgan musiqa traktatlarida bu raqsga juda yuqori baho berilgan. Masalan, Chjan Yan o'zining ''Musiqa kitobi'' nomli asarida '' Xitoyliklar chjechji raqsini ijro etishda xuslar(xorijiylar-) bilan tenglasha olmaydilar'', deb yozgan edi. O'sha davrdagi xitoy shoirlari ''Toshkent'' raqsining maftuni bo'lib, unga bag'ishlab 29 ta she'r va qasidalar yozganlar.

Vatanimiz tarixidanam ko'rinib turibdiki, Toshkent o'ziga xos taraqqiyot yo'liga ega va qadimdan bu o'lka bilan qudratli davlatlar o'rtasida diplomatik

aloqalar o'rnatilgan. Hozirgi kunda ham bu aloqalar davom etmoqda, Chunonchi Xitoy bilan O'zbekiston o'rtasidagi har tomonlama aloqalarga havas qilsa arziydi. Va ko'plab xorijiy davlatlarning vakillari tashrif buyurganda, poytaxtimiz o'zining mexmondo'stligi, go'zal ko'rinishi bilan kundan kunga nufuzi oshmoqda. Va o'ylaymanki, kelajakda poytaxtimiz jahonning eng sara poytaxtlari qatoridan joy oladi.

Foydalanilgan adabyotlar

1. Ahmadali Asqarov. ''O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi''.
2. X. O. Bo'riyeva. ''Toshkent shahrining tarixiy toponimiyasi. X|X asr oxiri – XXasr boshlari''.
3. R. Shamsutdinov, Sh. Karimov. ''Vatan tarixi''.
4. K. Sh. Shoniyozov.'' Qang' va Qang'lilar''.
5. Akbar Zamonov. ''Ozbekiston tarixi''.
6. Egamberdyeva.'' Arxeologiya''.

BUXORO AMIRLIGIDA "YANGI USUL" MAKTABLARINING FAOLIYATI

Anarbekov To'lqin

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya: *Tarixdan barchamizga ma'lumki, ta'lim tizimi insoniyat taraqqiyotining barcha davrlarida jamiyatni rivojlantirishda va shaxslarni tarbiyalashda muhim rol o'ynagan. Aynan XIX asr oxiriga kelib, Buxoro amirligida "yangi usul" maktablari tashkil etilishi qiyinchilik bilan bo'lsa-da, ta'lim sohasida ma'lum darajada o'zgarishlarga turtki bo'ldi. Bu maktablar mintaqada keng tarqalgan an'anaviy usullardan ajralib, ta'limga yangicha yondashuvni joriy etdi. Ushbu maqolada Buxoro amirligida "yangi usul" maktablarining ochilishi, ularning faoliyati va amirlikning ta'lim tizimiga ta'siri xususida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Ismoil Gaspirinskiy, Amir Abdulahad, mahaliy musulmon maktablari, yangi usul maktablari, jadidchilik, Fayzulla Xo'jayev, Mulla Abduroziq.*

Buxoro amirligi hududida "yangi usul" maktablarining paydo bo'lishi arafasida mintaqadagi ahvol og'ir edi. Mamlakat konservativ va an'anaviy ta'lim tizimi bilan ajralib turar edi. Ta'lim birinchi navbatda diniy fanlarga yo'naltirilgan. Shunday sharoitda, Buxoroda bir guruh ilg'or fikrli ziyolilar va pedagoglar zamonaviy ta'lim tizimini joriy etishga intildilar. Bu shaxslar

qo‘shni mamlakatlarda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlaridan ruhlanib, Buxoroda ham shunday o‘zgarishlarni amalga oshirishga intildilar. Ular diniy ta’limotlar bilan bir qatorda matematika, tabiatshunoslik va tarix kabi zamonaviy fanlarni o‘z ichiga olgan kengroq o‘quv dasturidan foydalanadigan maktablarni yaratishni maqsad qilgan. Umuman olganda, nafaqat Buxoro amirligida, balki, butun O‘rta Osiyo hududida ham “yangi usul” maktablarining ochilishida Ismoil Gaspirinskiyning xizmatlari juda kata bo‘ldi.

Ismoil Gaspirinskiy 1892-yilda Turkiston o‘lkasidagi mahalliy musulmon maktablarini isloh qilish va “usuli jadid”ni joriy qilish takliflari bitilgan maktub bilan Turkiston general-gubernatori A. B. Vrevskiyga murojaat qildi. General-gubernator maktubni o‘rganib, taklif berish uchun I.I. Ilminskiy shogirdilari – Toshkent o‘qituvchilar seminariyasi direktori N.P. Ostroumov va o‘lka bo‘yicha mutaxassis hisoblangan V.P. Nalivkinga topshiradi. N. P. Ostroumov va V. P. Nalvkin I. Gasprinskiyni o‘lka uchun xatarli odam sifatida o‘z javoblarida bildirib o‘tishadi. Ularning bildirgan fikrlarga tayangan holda, general-gubernator I. Gasprinskiy maktubidagi takliflarga rad javobini beradi [1]. Shundan keyin I. Gasprinskiy o‘z g‘oyalarini o‘lkada amalga oshirishda mahalliy xalq vakillariga e’tiborini qaratadi. Buxoro Amiri Abdulahad yordamida o‘z ishlarini olg‘a siljitishi mumkin edi. I. Gasprinskiy 1893-yilda amir bilan uchrashdi. U Amir Abdulahad bilan uchrashuvdan avval Samarqandga keladi. Bu yerda ham rus ma’murlari bilan uchrashib, suhbatlashadi. Lekin bu uchrashuvlar ham hech bir natija bermadi. Aksincha, yanada to‘siqlar qo‘ydi. U Samarqanddan Toshkentga keladi va “Tarjimon” gazetasida “o‘lka maorif ishida jonkuyarlik qilayotgan muhtaram hamkasaba” - deb ta’riflagan N.P. Ostroumov bilan uchrashadi. Bu uchrashuv ham, o‘z-o‘zidan ma’lumki, ijobiy natija bermaydi. Amir bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda ham mavzu “usuli jadid” maktablari, bu maktablarning mahalliy aholiga beradigan yangilik va foydalari xususida edi. Lekin, I. Gasprinskiyning Amir bilan uchrashuvidan ko‘zlagan maqsadi amalga oshmadi. Buxoro va Turkistonning boshqa shaharlarida “usuli jadid” maktablarini ochish va yoyish uchun ko‘mak topa olmadi. Shunday bo‘lsa-da, har qanday to‘siqlarga qaramasdan, I. Gasprinskiy o‘lkada “usuli jadid” maktabi urug‘ini ekishga imkon topa oldi. U Samarqandga kelgan vaqtida tatar millioneri Abdulg‘ani Boy Husayinov ziyofatiga taklif qilinadi. Ushbu ziyofat samarasi o‘laroq, I. Gasprinskiy “usuli jadid” maktabini ochishga muvaffaq bo‘ldi. [2]. Ushbu maktab Turkistonda ochilgan ilk “usuli jadid” maktabi edi. U norasmiy tarzda ochilgani uchun ham rus ma’murlari tomonidan tez orada yopildi. Lekin, bu

“ekilgan urug‘” bundan keyin ochilgan maktablar uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

Buxoroda yangi usul maktablari 1906-yilda tatarlar tomonidan ochildi. Ismoil Gasprinskiy 1908-yili Turkistonga qilgan ikkinchi sayohati davomida Buxoroga keldi va u yerdagi jadidchilik harakati vakillari bilan uchrashdi. Mazkur uchrashuvda Buxoroda yangi usul maktabi ochishga kelishildi. Maktab Buxoroning marhum amiri Amir Muzaffar sharafiga “Muzaffariya” deb nomlandi. Gasprinskiyning ushbu maktabga marhum Amir Muzaffar nomi berishni tavsiya qilishi ham bejiz emas edi. Bu bilan u Buxoro amiri Abdulahadxonning yana bir bor maktablar islohoti muammosiga e’tiborini tortmoqchi bo‘lgan edi. Lekin bu ham amirga ta’sir ko‘rsata olmadi [3]. Umumiy jihatdan olib qaraydigan bo‘lsak, Buxoroda yangi usul maktablari juda katta kurashlar, mujodalalar evaziga ochildi. Maktab ochganlar “kofir”, “dahriy” deb, butun xalqning nazaridan qoldirishga harakat qilindi. “Yosh buxoroliklar” guruhi yetakchisi Fayzulla Xo‘jayev o‘z xotiralarida Buxorodagi ushbu maktablar borasida shunday deb yozadi: *“Abduvohid Burxonov maktabida 1908-yil ota-onalar, ulamo va shahar fozillari oldida tantanali imtihon o‘tkazishga qaror qilindi. Bu imtihonga Buxoroning turli toifalariga mansub boshqa odamlar ham kelgan edilar. Imtihon davomida yig‘ilganlar orasida bahs boshlanib ketdi. Ular ikki toifaga ajralib qoldilar. Bahs yangi maktab va undagi ta’lim xususida edi. Mulla Ikrom boshchiligidagi bir toifa odamlar yangi maktabni ham shakl, ham tuzilishiga ko‘ra xalqning rivoji uchun o‘ta foydali va musulmonchilikka hamda davlatga qarshi hech bir narsa topmadilar. Shuning uchun ham ular jadidlar boshlagan islohni ma’qul topib, hatto madrasalarni ham shu tartibda isloh qilish kerak, degan fikr bildirdilar. Mulla Abduroziq boshchiligidagi ikkinchi guruh esa yangi usul maktablarini zararli, musulmonchilikka to‘g‘ri kelmaydigan va davlatga qarshi bo‘lganligini iddao qilib, har tomonlama unga qarshi kurashishga chaqirdi. Bu guruh yangi usul maktabiga qarshi quyidagi dalillarni asos qilib ko‘rsatdilar:*

1) maktabdagi ta’lim usuli musulmoncha emas, u ruscha (bolalar partada o‘tirib, bir vaqtning o‘z33ida ham yozib ham o‘qiydilar va hokazo);

2) yangi usul maktablari tuzilishiga ko‘ra ham, unda din saboqlari o‘rgatilishiga qaramay islom qoidalariga javob bermaydi. Din darslari buzuq shaklda olib boriladi. Undan tashqari, yangi maktabda arifmetika, geografiya, xususan tabiatshunoslik darslari o‘qitiladi. Tabiatshunoslik umuman musulmonchilik dunyoqarashiga to‘g‘ri kelmaydi”[4]. Aynan mana shu

[33] Ziyayeva G. “Etnik tarkib va demografik jarayonlar.” // O‘zbekiston tarixi jurnali. – 2018, №2. – B. 52.

voqeadan keyin Buxoro ziyolilari jadidchilar va qadimchilar guruhiga bo‘linib ketishadi.

Buxoro amiri 1913-1914-o‘quv yilida amirlikda ma’lum bo‘lgan barcha “yangi usul” maktablarini yopdiradi. Ushbu bosimlarga qaramay, amirlikda “yangi usul” maktabiga qiziqish kuchli bo‘lib qolaverdi. Buxoro amirligidagi yetakchi jadidchilardan biri Usmon Xo‘ja Po‘latxo’jayev (1878–1968) Istanbulga ketayotib, 1909-yilda Bog‘chasaroyda bo‘lib, Ismoil Gaspirinskiy bilan uchrashadi. Usmon Xo‘ja Po‘latxo‘jayev u bilan birga jadid maktablarining muhim uslubiyatini o‘rgangach, Istanbulga boradi va u yerda zamonaviy turk maktabi tizimini o‘rganadi. Ayni paytda u Abdurrauf Fitrat (1886–1938) kabi buxorolik hamkasblari bilan 1909-yil 26-oktabrda “Buxoro maorifini tarqatish” xayriya jamiyatini tuzdi. Tashkilotning maqsadi Turkistonning boshqa hududlari, Buxoro amirligidan talabalarni Istanbul maktablarida o‘qishni davom ettirish uchun olib kelish edi [5].

“Yangi usul” maktablarida aynan diniy va dunyoviy bilimlarni uyg‘unlashtirgan ta’limga e’tibor qaratildi. U34lar an’anaviy islom ta’limotlari va zamonaviy fanlar o‘rtasida muvozanatni saqlashni maqsad qilgan. O‘quv dasturiga dinshunoslik, tillar (arab, fors va rus tillari), matematika, tabiiy fanlar, geografiya, tarix va xattotlik kirdi. Maktablar, shuningdek, o‘sha paytda mintaqada nisbatan yangi tushunchalar bo‘lgan tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va mustaqil fikrlashni rag‘batlantirdi. Ular interfaol ta’lim, muhokamalar va bilimlarni amaliy qo‘llashga urg‘u beradigan o‘qitish usullarini joriy etdilar. Bu eslab yodlash va passiv o‘rganishdan voz kechish Buxoroda keng tarqalgan an’anaviy ta’lim amaliyotidan sezilarli darajada uzoqlashdi. Yuqorida ta’kidlab o‘tkanimizdek, Buxoroda “yangi usul” maktablarining tashkil etilishi davlatning ta’lim tizimiga, jamiyatning ta’limga bo‘lgan munosabatiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Diniy ta’limotlar bilan bir qatorda zamonaviy fanlarning joriy etilishi o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirdi va o‘zgaruvchan dunyoga tayyorladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, “yangi usul” maktablari milliy o‘zlikni anglash va madaniyatni asrab-avaylashda muhim rol o‘ynadi.35 Bu maktablar zamonaviy bilimlar bilan bir qatorda mahalliy tillar, tarix va urf-odatlarni ham o‘rganishni targ‘ib qilib, Buxoro va uning atrofidagi madaniy tiklanishiga hissa qo‘shdi. “yangi usul” maktablarining merosi ularning bevosita ta’siridan tashqariga chiqdi. Ular kiritgan g‘oyalar va falsafalar Buxoro va butun

[34] Berdikulov M. “Sug‘diyona va Baqtriya: qadimgi sivilizatsiyalar.” – Samarqand, 1999. – B. 113.
[35] Yunusov U. “Toshkent shahri va uning davlat tuzilishi.” – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – B. 77.

mintaqada zamonaviy ta’lim tizimiga asos soldi. Tanqidiy fikrlash, amaliy o‘rganish va turli xil o‘quv dasturlariga e’tibor keyingi avlodlarda aks sado berdi va keyingi o‘n yilliklarda ta’lim islohotlariga ta’sir ko‘rsatdi. Buxoroda “yangi usul” maktablarining ochilishi viloyat maorif tarixida muhim burilish yasadi. Bu maktablar an’anaviy ta’lim me’yorlariga qarshi chiqdi va o‘rganishga yanada kengroq va progressiv yondashuvni joriy qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Zaynobidin Abdirashidov “Ismoil Gasprinskiy va Turkistonda jadidchilik”. T.: 2008. 9-B.
2. Begali Qosimov. “Milliy uyg‘onish”. T.: Ma’naviyat, 2002, 20-B.
3. Sadriddin Ayni36y. “Buxoro inqilobi tarixiga materiallar”. M., 1926, 32-B.
4. Fayzulla Xo‘jayev “Избранные труды в трех томах”. Toshken-1970. “Fan”. 89-90-B.
5. Alisher Nazarov. “Turkiston maktablarining tashkil etilishida jadidchilik harakati, xotin-qizlar ta’limi ahamiyati (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari)”. Таълим ва инновацион тадқиқотлар (2022 йил № 6) ISSN 2181-1709. 224-B.

BUXORO ARKI TARIXI

Axrorova Zulfiya Baxtiyarovna
Chirchiq davlat pedagokika universiteti
Tarix yo‘nalishi 2-Oliy ta’lim 2-bosqich talabasi

Buxorodagi qadimgi shaharsozlik yodgorliklaridan biri Buxoro arkidir. Dastlab mil.avv. I asrda qurilgan. Shaharning qadimgi qal’asi arablar istilosiga qadar arkda shahar hokimlari - buxorxudotlar yashagan. Somoinylar davrida, ya’ni IX-X asrlarda qayta qurilib devor va burjlar bilan mustahkamlangan. Qoraxoniylar davrida (XI-XII asrlar) va mo‘g‘ullar bosqinchiligi vaqtida (XIII asrda) ark bir necha bor vayron qilingan.

Hozirgi qiyofasi asosan Shayboniylar sulolasi davri (XVI asr)da shakllangan. Buxoro shahrining eng ko‘hna madaniy meros obyektlaridan biri hisoblangan hamda qadimda shahar markazi hisoblangan Ark qal’asi bir necha ta’mirlangan va qayta qurilgan. Mazkur Ark qal’asining qurilishi milodning boshlariga to‘g‘ri keladi. “Ark qachon qurilgani haligacha aniqlanmagan. Ammo olimlarning taxmin qilishicha, bundan bir-bir yarim

[36] Park V. “Koreyslar O‘zbekistonda: tarixiy o‘rganish.” // O‘zbek-Koreys ilmiy aloqalari to‘plami. – 2010. – B. 29.

ming yil oldin ham ushbu mahobatli me'moriy obida hukmdorlarga qarorgoh bo'lgan. Ark, u necha-necha qonli janglar, shafqatsiz istilochiyu bosqinchilarni ko'rgan. 1220 yili Chingizxon qo'shini shaharga bostirib kelganida, aholi Ark ichiga yashirinadi."...[37]

Endi mazkur inshootning qurilish tarixiga to'xtalib o'tamiz. Buxoro arkining qurilish tarixi Eron podshosi va turk ayolining farzandi Siyovush nomi bilan bog'liq. Ma'lumotlarda keltirilishicha, Siyovush Samarqand podshosi Afrosiyobdan yengilgach, shu yerda – Zarafshon daryosining quyi irmoqlaridan birining sohilida va shahar yaratilishiga asos solgan. Siyovush Afrosiyob tomonidan o'ldirilgach Buxoroning Sharq darvozasi yonida ko'milgan degan rivoyatlar ham tarqalgan. Ammo ba'zi manbalarda Siyovush va Afrosiyob o'rtasidagi munosabatlar kengroq yoritiladi. "Ahmad ibn Nasr buning ajoyibotlari haqida shunday deydi: Abul Hasan Nishopuriy "Xazoyin-ul ulum" da aytishicha, Buxoro ko'handizining, ya'ni Buxoro arkining bino etilishiga ushbu voqea sabab bo'lgan: Siyovush ibn Kaykovus o'z otasidan qochib, Jayhun daryosidan o'tib, Afrosiyobning oldiga keldi. Afrosiyob uni yaxshi qabul etib, o'z qizini Siyovushga xotin qilib berdi va shu bilan birgalikda o'zining barcha mulklarini Siyovushga beradi. Bu viloyat o'ziga vaqtinchalikka berib qo'yilgan joy ekanligi sabab Siyovush bu yerda o'zidan bir yodgorlik qoldirishni istadi. Shu tariqa u Buxoro hisorini (arkini) bino qildi va ko'p vaqtini o'sha joyda o'tkazardi. Kimlardir Siyovush va Afrosiyob o'rtasida yomon gap yurgizdi va natijada Afrosiyob Siyovushni o'ldirdi hamda ana shu arkda sharq tomondan kiraverishda "Darvozayi g'uriyon" degan somonfurushlar darvozasining ichkarisiga dafn etdilar. Shu tufayli Buxoro otashparastlari o'sha joyni aziz tutdilar va unga atab har bir erkak kishi har yili Navro'z kuni quyosh chiqishidan oldin o'sha joyda bittadan xo'roz so'yadi. Buxoro aholisining Siyovushning o'ldirilishiga bag'ishlab aytgan bir qancha marsiyalari bo'lib, u barcha viloyatlarda mashhurdir..." [38]

Shunday qilib mana shu rivoyatlarga ko'ra arkni Siyovush bino qilgan, ba'zi manbalarda esa arkni Afrosiyob qurdirgan deganlar. Yuqorida qayd etilishicha "kimlardir" Siyovush va Afrosiyob o'rtasiga nifoq soladi. Abul Hasan Nishopuriy "Xazoyin-ul ulum" da ushbu shaxsning kimligi aniq qayd etilmagan. Ya'ni unga shunchaki "kimlardir" deb ta'rif berib o'tiladi xolos.

[37] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 1992-yil, 8-bob, 18-modda.

[38] Avloniy, A. (1913). Turkiy Guliston yoxud axloq. Toshkent: Matbaa-i Istiqbol.

O‘rta asrlarda yashab o‘tgan Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far Narshaxiyning qayd etilishicha ushbu “kimlardir” deb ta’rif berilgan shaxs aslida “Afrosiyobning birodari Karshyuz” edi. Tarixchi Akbar Zamonovning ta’kidlashicha oradan vaqt o‘tishi bilan Ark yaroqsiz holatga kelib qoladi va faqatgina VII asrga kelib Buxoro hokimi, Tag‘shodaning otasi Bidun Buxorxudot taxtga o‘tirgandan so‘ng odam yuborib Arkni tuzattiradi. Ammo u tezda buziladi, yana yangidan qurdi, u yana buzildi. Shundan keyin Bidun uzoqni ko‘ra biladigan dono kishilarni chaqirdi. Donishmandlar arkni katta ayiq yulduzi, ya’ni osmondagi yeti qaroqchi yulduzlari shaklida yettita tosh ustun ustiga qurishni maslahat berdilar. Ark qal’asi katta ayiq yulduzi shaklida quriladi va keyin esa u buzilmadi. Buxoro arkida bir qancha hovuzlar hamda ko‘chalar ham mavjud bo‘lgan. Ba’zi manbalarda esa ularning toponimik nomlari aniq keltirilib o‘tilgan. Masalan, Havzi Lesak ko‘chasi - tarixiy nom. Buxoro Arkining janub tomonida joylashgan hovuz. Shahar qamalda qolgan paytlari Ark ushbu hovuz orqali suv bilan ta’minlangan…”[39]

“So‘ngi o‘rta asrlar muallifi Sayyid Muhammad Nosiriddin to‘ra qalamiga mansub “Tuhfat az-zoirin” va “Tahqiqoti arki Buxoro” asarlaridagi toponimik ma’lumotlar ayrim qishloq va mahallalar, Buxoro arki hududidagi toponimik obyektlarni lokalizatsiya qilish uchun foydalidir. “Tuhfat az-zoirin” shahardagi Fathobod, Hovuzi G‘oziyon, Saripuli Sho‘riston, Xoja A’lam Narason, Ja’far Xoja, Abdulla Xoja, Domla Usmon (ikkinchi nomi Qozi O‘rda), Mavlono Musti guzarlarining tarixiy o‘rni, shahar atrofdagi Qalti, Xudobod, Shovari, Suxor, Qasri Orifon va boshqa qishloqlarning Buxoro shahriga nisbatan geografik joylashuvini aniqlashga yordam beradi. O‘tmishda Qarshi va Mazor darvozalarining tashqi tarafi oralig‘ida joylashgan va hozirda Daxmai bihishtiyon deb ataluvchi ziyoratgoh aslida Talli bihishtiyon (Jannatiylar tepaligi), deb nomlangani to‘g‘risidagi ma’lumotlarni faqat “Tuhfat az-zoirin”da uchratish mumkin. “Tahqiqoti arki Buxoro” asari esa Buxoro arki ichidagi Chahor chaman, Childuxtaron, Haft sulton, G‘azab qudug‘i singari toponimik ob’ektlar joylashuviga aniqlik kiritish imkonini beradi…” [40]

Ark qal’asining me’moriy elementlari hamda xususiyatlariga to‘xtalib o‘tsak. U qadimiy hamda hamisha navqiron Buxoro shahrining g‘arb tomonida joylashgan bo‘lib, yer ustida katta balandlik ustida joylashgan bo‘lib, yer ustidagi katta balandlik- 20 metrgacha bo‘lgan tepalik ustiga qurilgan va g‘arbdan sharqqa cho‘zilgan noto‘g‘ri to‘rtburchak shakliga ega. Qal’a

[39] www.zarnews.uz
[40] Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far Narshaxiy. “Buxoro tarixi”. Toshkent. “Anorbooks” nashri-2022, 45-46-betlar.

devorining uzunligi 789 metr, balandligi esa 16-20 metr, yer maydoni 3,96 gektarni tashkil etadi.

“Buxoro arkining ikkita darvozasi bor: biri Sharq tomonda, biri G‘arb tomonda. Sharq tomondagi darvozasi “Dari g‘uriyon”, G‘arb tomondagisi esa “Dari Registon” deb nomlangan, tarjimonning davrdida (Abu Nasr Ahmad) keyingisi, ya’ni g‘arbiy darvoza “Dari alaffurush” deb atalgan. Arkning o‘rtasida bu darvozadan u darvozagacha to‘g‘ri yo‘l bo‘lgan. Bu ark podshohlar, amirlar va askar boshliqlarining turarjoylari bo‘lib, zindon, podshohlik devonlari va podshoh turadigan qasr qadimda shu yerda bo‘lgan….[41] Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, Ark qal’asi ilm-fan maskani vazifasini ham bajargan. O‘z vaqtida bu yerda, Rudakiy, Firdavsiy, Abu Ali ibn Sino, Farobiy, Umar Xayyom kabi ulug‘ insonlar yashab ijod qilganlar. Bunga misol sifatida Abu Ali ibn Sinoning Ark kutubxonasi haqidabildirgan fikrlarini ko‘rsatishimiz mumkin: “Men bu yerda kutubxonada shunday kitoblarni topdimki, ularni avval ko‘rmaganman va umrimda boshqa ko‘rmadim ham. Men ularni o‘qidim va shundan keyin har bir olimning o‘z fani bo‘yicha o‘rnini angladim. Mening oldimda fanlarning tubidagi shunday eshiklar ochildiki, men ularni tasavvur ham qilolmasdim. Arkdagi kutubxonning keying taqdiri sir bo‘lib qolgan. Kutubxona janglarda birida talab ketilgan bo‘lsa ajab emas”. Albatta Buxoro shahri Markaziy Osiyoning yirik strategik shaharlaridan biri bo‘lgan. Movarounnahrga yurish qilgan har qanday davlat yoki qabila Buxoro shahrini egallashni o‘z maqsadlari sifatida qarashgan. Abu Ali ibn Sino bildirgan fikrlariga ko‘ra Arkdagi kutubxona o‘zining nodirligi hamda u yerdagi kitoblarning qimmatliligi bilan kishini lol qoldirgan. Ibn Sino nazarda tutayotgan kutubxona taxminan, 997-998-yillardagi Ark kutubxonasining holati nazarda tutilgan. Negaki, Ibn Sino 16 yoshida e’tibotrli hakim, ya’ni tabib bo‘lib yetishgan. 17 yoshida esa somoniylar amiri Nuh ibn Mansurni davolab, saroy kutubxonasiga kirish huquqini qo‘lga kiritadi. O‘sha davrlarda esa somoniy hukmdorlar saroyi esa aynan Buxoro arki hisoblangan. Ibn Sino ya’na shuni ta’kidlab o‘tadiki, “bu kutubxona janglardan birida talanib ketilgan bo‘lsa ajab emas” deydi. Bu jangalar esa Movarounnahrda siyosiy hokimiyat va sulolalar almashinuvi davridagi janglar hisoblanadi. Yana ham aniqroq aytadigan bo‘lsak, Somoniylar va Qoraxoniylar o‘rtasidagi janglar nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Buxoro arki ilk o‘rta asrlardagi Markaziy Osiyo me’morchiligining qay darajada rivojlanganligiga yaqqol misol

[41] M.S.Andreev, O.D.Chexovich. “Ark-Kreml Buxari”. – Dushanbe: “Donish”, 1972.

bo‘la oladi. Buxoro arki o‘z davrida bir qancha hukmdorlar va sulolalar xizmat qildi. Somoniylar davrida Buxoro arki hukmdorlar qarorgohiga aylantirildi. Shayboniylar davriga kelib esa inshoot yaxlit ansambilga aylandi (XVI asr). Shayboniylardan keyin ham Buxoro xonligida hukmronlik qilgan ashtarxoniylar va mang‘itlar davrida ham davlat Buxoro arkidan turib boshqarildi. Bundan tashqari ushbu inshoot O‘zbekistonning turistik salohiyati oshishida alohida o‘rin egallaydi. O‘z navbatida O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan Buxoro arkiga e’tibor bugungi kunda oshib bormoqda. Bu esa davlatimizning bosh qonuni hisoblanmish Konstitutsiyamizda ham belgilab qo‘yilgan. Xususan, Konstitutsiyamizda “Fuqarolar O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar. Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir”[6] deb belgilab qo‘yilganligi nafaqat Buxoro arkining, qolaversa boshqa tarixiy obyektlarning ham muhofaza qilinishiga, ularga davlat tomonidan hamda fuqarolar tomonidan ham alohida e’tibor qaratilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Buxoro shahrining tarixiy markazi, ya’ni Ark qal’asi 1993-yilda UNESCOning Kolumbiyada bo‘lib o‘tgan 1-sessiyasida “Butun jahon madaniy meroslari ro‘yxati” ga kiritilgan.

PEDAGOGIK AMALIYOTNI O‘TKAZISHDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI

Kenjebayeva Ayjan Murat qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Tarix yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada pedagogik amaliyotni o‘tkazish jarayonida zamonaviy, interfaol hamda axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish va interfaol metodlarning ta’limdagi ahamiyati, ushbu usulni multimedia vositalari bilan birgalikda qo‘llash jarayonida o‘quvchilarning fikrlash, bilimini oshirishi hamda hamkorlik va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, ta’lim sifatini yanada takomillashtirishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Interfaol, texnologiya, “Zinama-zina”, pedagogik amaliyot, o‘quvchi, jarayon, usul, ta’lim, tanqidiy fikrlash.*

So‘nggi yillarda davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ta’lim-tarbiya sohasidagi islohotlarni amalga oshirish istiqboli taqdirimizni belgilaydigan va jahon hamjamiyatida o‘z o‘rnimiz bo‘lishini ta’minlaydigan

jarayonga aylandi. Mamlakatimizdagi ta’lim tuzilishi va mohiyati, kadrlar tayyorlash isloh qilish pedagogik amaliyot oldiga ham aniq vazifalarni qo‘ydi. Bunday vazifalar qatoriga Respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, fan, texnika va texnologiyalar sohasidagi muvaffaqiyatlar istiqbollarini hisobga olgan holda tarbiyalash va ta’lim berishning maqsad, mohiyat, usul, vosita va tashkiliy shakllarini ilmiy ta’minlash bilan bog’liq muammolarning barcha majmuasi kiradi.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. Pedagogik amaliyot jarayonini samarali o‘tkazish so‘nggi yillarda sezilarli darajada rivojlandi, pedagoglar ta’lim natijalarini oshirish uchun interfaol usullardan foydalanish tobora rivojlanib bormoqda.

Ta’lim tizimida yangi texnologiyalar pedagogik amaliyot jarayoni hamda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga yangilik o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to‘liq foydalaniladi.

Interfaol usullar — bu jamoa bo‘lib fikrlash deb yuritiladi, ya’ni pedagogik ta’sir etish usullari bo‘lib, ta’lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu usullarning o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o‘quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko‘rsatish orqali amalga oshiriladi [1., 211-b].

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi:

- O‘quvchi-talabalarning dars davomida befarq bo‘lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etish;
- O‘quvchi-talabalarni o‘quv jarayonida bilimga bo‘lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo‘lishini ta’minlashi;
- O‘quvchi-talabalarning bilimga bo‘lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi;
- Pedagog va o‘quvchi-talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillashtirish [2., 121-122-b].

Interfaol usullar o‘quvchilarni o‘quv jarayoniga faol jalb qilish uchun mo‘ljallangan turli xil qiziqarli o‘qitish usullarini o‘z ichiga oladi. An’anaviy

ma’ruzaga asoslangan o‘qitishdan farqli o‘laroq, interfaol usullar o‘quvchi-talabalarni ma’lumotni passiv qabul qiluvchilarga emas, balki faol ishtirokchilarga aylanishga undaydi. Aynan shu faol ishtirokchiga aylanishi dars jarayonlarini chuqurroq o‘rganishga yordam beradi. Pedagogik amaliyotni o‘tkazish jarayonida interfaol usullar nafaqat o‘quv yutuqlarini oshiribgina qolmay, balki o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini, muammolarni hal qilish va muloqot qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

An’anaviy, ma’ruzaga asoslangan o‘qitish usuli ko‘pincha yuzaki darajasida o‘rganish va cheklangan saqlashga olib keladi. Interfaol usullar esa material bilan faol ishtirok etishga yordam beradi. Taniqli ta’lim faylasufi Jon Dyui ta’kidlaganidek, “Ta’lim hayotga tayyorgarlik emas, ta’lim hayotning o‘zidir”[3., 8-b]. Interfaol usullar o‘quvchi-talabalarni passiv qabul qiluvchilardan bilim qurishda faol ishtirokchilarga aylantirish orqali ushbu olim fikriga to‘g‘ri keladi.

Interfaol metodlarning pedagogik amaliyot jarayonini samarali o‘tkazishda va dars qiziqarli sifatli qilish afzalliklari yaxshi hujjatlashtirilgan. Mashhur ta’lim tadqiqotchisi Robert Slavinning ta’kidlashicha, “Interfaol strategiyalar turli fanlar va sinf darajalari bo‘yicha interaktiv bo‘lmagan strategiyalarga qaraganda o‘quvchilarning yuqori yutuqlari bilan bog‘liq” [4].

Zamonaviy ta’lim tizimida interfaol usullardan foydalanishni rivojlantirish va yo‘lga qo‘yish uchun ko‘plab islohatlar hamda shart-sharoitlar yaratilmoqda. Interfaol usullarni pedagogik amaliyotda qo‘llash orqali dars sifatini, uning qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydi. Undan tashqari bo‘lajak pedagoglarning tajriba va ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Interfaol usullar mohiyatini to‘liq ochish va ta’lim sifatini yanada samarali qilishda ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan interfaol usullarni qo‘llashda xorijiy tadqiqotchilar Rodos va Azbell, Bent B. Andersen va boshqalar bu metodni uchta guruhga bo‘lganlar, ammo multimedia texnologiyalaridan o‘zaro foydalangan holda masalan:

- reaktiv o‘zaro ta’sir;
- faol o‘zaro ta’sir;
- o‘zaro ta’sir [5., 192-195-b].

Pedagogik amaliyot o‘tkazish jarayonida o‘quvchilarni faollashtirish, darslarni qiziqarli qilish uchun interfaol texnologiyalarni multimedia bilan birlashtirish orqali bunday kombinatsiyaning ma’nosi dialog va rolli o‘yinlardan tashqari grafik materiallarni taqdim etishdir. Masalan tarix darsida o‘quvchilarga Amir Temurning shahzodalari bilan suhbati jarayonini

tushuntirishda ularning suhbatini faqat hayoliy tasavvur bilan eslab qolish emas, balki bu jarayonni multimedia vositalari yordamida grafik materiallarni yaratib, jonlantirilgan suhbatni o‘quvchilarga taqdim etish orqali ta’limda ham multimedia vositalarini ham interfaol usullarni birdagini qo‘llab, natijaga erishish mumkin.

Interfaol usullarni asosiy tamoyillari va o‘qitish strategiyalariga ko‘ra bir necha toifalarga bo‘lish mumkin:

1. Faol ta’lim texnikasi: o‘quvchilarning dars mazmuni bilan faol shug‘ullanishini talab qiluvchi metodlar, masalan, muhokamalar, bahs-munozaralar va amaliy mashg‘ulotlar.
2. Hamkorlikdagi ta’lim strategiyalari: guruh loyihalari, hamkorlikda o‘rganish va tengdoshlarni o‘qitish kabi jamoaviy ish, hamkorlik va tengdoshlarning o‘zaro ta’sirini rivojlantiruvchi strategiyalar.
3. Muammoni hal qilish usullari: tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga urg‘u beradigan yondashuvlar, masalan, amaliy tadqiqotlar, muammoli hamda so‘rovga asoslangan ta’lim.
4. Tajribali o‘rganish usullari: o‘quvchilarga amaliyot, ekskursiyalar va xizmat ko‘rsatish, dala-tadqiqoti loyihalari kabi real tajriba va mulohaza yuritish imkoniyatlarini taqdim etuvchi usullar [6., 166-b].

Interfaol usullar va zamonaviy texnologiyalar o‘qituvchi hamda amaliyotchi talabalarga vaqtni tejashga yordam beradi va iqtidorli bolalarda tadqiqot ko‘nikmalarini shakllantiradi. Pedagogik amaliyot jarayonida interfaol usullardan foydalanish eng avvalo o‘quvchilarga tayyor bilimlarni berishni emas, balki ularga fikr-mulohaza yuritish, atrofdagilar bilan muloqot qilish madaniyatini shakllantirish, mustaqil fikrga ega bo‘lish va biror zarur bilimni mustaqil ravishda izlash va muammoning yechimini topish malakalarini berishni nazarda tutadi.

Hozirgi kunda ta’lim sohasi va dars sifatini oshirishda yangi pedagogik texnologiyalar, multimedia vositalaridan hamda interfaol usullardan foydalanish keng tus olgan. Ta’lim jarayonida keng tarqalgan ommaviy interfaol usullar quyidagilar sanaladi:

“Keys-stadi”, “Blist-so‘rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Muammoli ta’lim”, “Aqliy hujum”, “Tarmoqlar”, “Bahs-munozara”, “Bumerang”, “Gallereya”, “Zig-zag”, “Zinama-zina”, “T-jadval”, “Insert”, “Klaster” va boshqalar [7.139-145]. Quyidagilardan “Zinama-zina” usulini tahlil qilamiz va

uni pedagogik amaliyotdagi dars jarayonida qo‘llaganda erishilgan natijalar haqida ma’lumotlar keltirib o‘tamiz.

Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi: - amaliyotchi o‘quvchilarni mavzular soniga qarab 4-5 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi.

Ushbu mashg‘ulot o‘quvchilarni o‘tilgan yoki o‘tilishi kerak bo‘lgan mavzu bo‘yicha yakka va kichik jamoa bo‘lib, fikrlash hamda xotirlash, o‘zlashtirilgan bilimlarni yodga tushirib, to‘plangan fikrlarni umumlashtira olish va ularni yozma, rasm, chizma ko‘rinishida ifodalay olishga o‘rgatadi. Bu interfaol usulning aosiy natijasi shuki, o‘quvchilarni erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga, jamoa bo‘lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab ulardan nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga, jamoaga o‘z fikri bilan ta’sir eta olishga, uni ma’qullashga, shuningdek, mavzuning tayanch tushunchalariga izoh berishda egallagan bilimlarini qo‘llay olishga o‘rgatadi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash joizki, interfaol usullar pedagogik amaliyotning samarali o‘tkazishning muhim tarkibiy qismlari bo‘lib, uni amalda qo‘llaganda dasr jarayonida o‘quvchilar o‘rtasida faol ishtirok etish, hamkorlik va tanqidiy fikrlashga yordam beradi. Interfaol usul biror faoliyat yoki muammoni o‘zaro muloqotda va bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjihatlik bilan hal etish desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu usulning pedagogik amaliyot va darslardagi afzalligi shundaki, butun faoliyat o‘quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o‘rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. O‘qituvchi va amaliyotchilar o‘z dars jarayonlarida interfaol usullarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning ta’lim natijalarini oshirishi va yurtimizdagi ta’lim sifatini yanada takomillashtirib, samarali qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ya.X. G‘afforov, Tarix o‘qitish metodikasi. T. “Turon-Iqbol” nashriyoti, 2022

2. Ya.X. G‘afforov, Maxsus fanlarni o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalabish usullari. T. “Ishonchli hamkor” nashriyoti, 2021

3. John Dewey Logic the theory of inquiry. New York “Henry Holt and company” 1938

4. https://www.researchgate.net/publication/31645126_Educational_Psychology_theory_into_practice_R_E_Slavin

5. Вараксин В.Н. РОЛЬ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ В ПРАКТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПЕДАГОГА

ДОПОЛНИТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ // Международный журнал экспериментального образования. – 2016. – № 6-2.

6. Senthamarai, S. (2018). Interactive teaching strategies. Journal of Applied and Advanced Research. 3. 36. 10.21839/jaar.2018.

BUXORODAGI – “ULUG‘BEK MADRASASI”

Mutalov Odilbek Baxit O'g'li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Temuriylar davlatining buyuk hukmdorlaridan biri bO‘lgan Mirzo Ulug‘bek davrida Buxoro shahrida barpo etilgan madrasa, uning faoliyati, madrasaning umumiy kO‘rinishi, arxitekturasi, u yerda o‘qitilgan fanlar haqida ma`lumot beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Mirzo Ulug‘bek, madrasa, ta’lim, Najmiddin Buxoriy, ravoq, masjid, peshtoq, YUNESKO.*

Ta’limga e’tibor, ilm fanga homiylik temuriylar davlatida davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Sohibqironning saltanat ma’murlari oldiga “Katta kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsinlar”; “Mudarrislar va shayxlarga kundalik maoshlarini belgilasinlar”; “Sayidlar, ulamo, mashoyix, fuzalo, ulug‘larni aziz tutsinlar”, degan vazifani qo‘yganligi “Temur tuzuklari”da ham aks etgan. Sohibqironning bu topshirig‘i tabiiyki butun saltanat doirasida ijro etilgan. “Musulmonlarga diniy masalalardan ta’lim berib, shariat aqidalari va islom dini ilmlaridan tafsir, hadis, fiqhdan dars bersinlar deb, har bir shaharga olimlar va mudarrislar tayin qildim”; “Sayidlar, ulamo, mashoyix, oqilu donolar, muhaddislar, tarixchilarni sara, e’tiborli odamlar hisoblab, izzatu hurmatlarini o‘rniga qo‘ydim”, deya ta’kidlaydi Sohibqiron o‘z tuzuklarida.[1]

Barchamizga ma`lumki, islom olamida madrasalarning islom madaniyatidagi ahamiyati beqiyos. Yurtimizdan yetishib chiqqan ko‘plab buyuk mutafakkirlar aynan madrasalarda tahsil olishgan. Madrasalarda ta`lim olgan talabalar o‘qish jarayoni bilan cheklanib qolmasdan, bo‘sh vaqtlarida hunar egallash bilan ham mashg‘ul bO‘lishgan. Amir Temur va Temuriylar davrida, xususan, Mirzo Ulug‘bek hukmronligi davrida uning sa’yi-harakatlari bilan madrasalar faoliyati yangi bosqichga kO‘tariladi. Ilm izlanuvchilarning ahvoli yaxshilandi. Bu esa yangi iste’dodlarning yetishib chiqishlariiga sabab bO‘ladi.

Ulug‘bek yoshligidanoq ilmiy olishga ishtiyoqi baland bO‘lgan. Shuning uchun ham ilm-fanga homiylik qilib kelgan. Ulug‘bek madrasasining bunyod etilishi ham yuqoridagi fikrlarning isbotidir.

Mirzo Ulug‘bek hukmronligi davrida Movarounnahrda ilm-fan va maorif faol rivojlandi. Ulug‘bek ma’rifiy faoliyat bilan shug‘ullanib, mamlakatimizning turli shaharlarida, jumladan, Buxoro, Samarqand va G‘ijduvonda o‘zining qat’iy islomiy tamoyillari bilan ko‘plab mashhur madrasalar barpo etgan. Buxorodagi madrasasi Samarqand va G‘ijduvondagi madrasalardan ham avvalroq qurilgan.

O‘rta asrlarda Buxorodagi barcha madrasalar nafaqat Movarounnahr, balki butun musulmon olamida ham mashhur bO‘lgan.

Ulug‘bek madrasasi buyuk astronom Mirzo Ulug‘bek xotirasiga Buxoroda qolgan yirik inshoot bo'lib, Buxoroda bundan tashqari temuriylar davriga oid yana ikki madrasa: G'arbiy Buxorodagi Chashmayi Ayyub va G'ijduvon madrasalari mavjud. Ulug‘bek madrasasining qurilishi 1417-yilda boshlangan bO‘lib, keyinchalik, 1585-yilgacha zamonaviy qiyofaga ega bO‘lgan. Madrasani zamonining eng yaxshi me’morlari bO‘lgan Najmiddin Buxoriy va Ismoil Isfahoniylar bunyod etishgan. Ulug‘bek hukmronligi davrida bunyod etilgan bu madrasa Buxoroning eski shahar qismida, Abdulazizxon madrasasi ro‘parasida qurilgan. Madrsaning eng e`tiborga sazovor joyi - bu madrasa loyihasini Mirzo Ulug‘bekning o‘zi chizganligidadir.[2:157-159]

Ulug‘bek ilk bor madrasaga kelganida barcha shogird va muallimlarga qimmatbaho 42sovg‘alar ulashganini zamondoshlari eslashadi. Dastlab Ulug‘bek nomidan qurilgan ta’lim muassasasi 80 nafar shogird tayyorlashga mo‘ljallangan edi. Bu yerda matematika va astronomik ta’limga, arab tili va diniga katta e’tibor berilgan. Madrasa dunyoviy ilm-fan markazi bo‘lib, sinfxonalarida astronomiya, falsafa, ilohiyot va matematikadan ma’ruzalar o‘qilgan. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, bu yerda bir vaqtning o‘zida 150 nafargacha talaba tahsil olgan. Ular nafaqat turar joy, balki madrasadan munosib haq ham olishgan. N.V.Xannikovning ma'lumotlariga ko'ra, Mirz43o Ulug’bek madrasasi: 80 ta xonasi bo’lib, talabalarga 3.5 tillodan to’langan.[3:33]

[42] Halim To‘rayev. “Buxoro toponimikasi”. “Durdona” nashriyoti, Buxoro- 2021. 11-bet
[43] Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far Narshaxiy. “Buxoro tarixi”. Toshkent. “Anorbooks” nashri-2022, 47-bet.

Bu madrasa asosida O‘rta Osiyoda boshqa madrasalar ham qurila boshlandi. Ulug‘bek madrasasi eshigiga “Ilm olish har bir musulmon erkak va ayolning burchidir” degan yozuv saqlanib qolgan . “Kitob hikmatini biladiganlar davrasida Allohning marhamati eshiklari har lahza ochiq bo‘lsin ”, -degan hikmatli ibora ham o‘yib yozilgan edi.

Madrasaga kirish qismdan ko‘ndalang yo‘lak bilan ikkiga bo‘lingan. Yo‘lakning bir tomonida “darsxona” (o‘quv xonasi), ikkinchi tomonida esa masjid joylashgan. Bino ikki qavatdan iborat bO‘lib, kutubxona ikkinchi qavatda bO‘lgan. Devor va arklari juda kamtarona bezatilgan. Madrasa astronomik xarakterdagi bezaklar bilan bezatilgan bo'lib, bu, shubhasiz, Ulug'bekning astronom sifatidagi dunyoqarashlaridan dalolat hisoblangan. Anchagina sodda va oddiy bezaklari binoning ulug'vor bo'lishiga va o'sha davr me'morchiligining asosiy obidalaridan biri bO‘lishiga xizmat qiladi.

Bosh tarzida mahobatli peshtoq, 2 qanotida 2 qavatli hujralar va burchaklarda guldastalar joylashgan. Guldastalar tepasi qubbali qilib ishlangan. Ravoqli peshtoqdan miyonsaroy orqali hovliga o‘tiladi. Hovli (26x25 m) atrofini 2 qavatli hujralar qatori va peshtoqli ayvon egallagan. Madrasa (53x41,6 m) uncha katta emas, hujralari mo‘jaz, o‘zaro mutanosib, ichki va tashqi tuzilishi o‘ziga xos.[4: 19-20] Madrasa qurilishida guvala, paxsadan tashqari xom va pishiq g‘isht, yog‘ochdan ham keng foydalanilgan.

Madrasaning asosiy bezagi peshtog‘ida bo‘lib, unda sirkor g‘ishtchalardan tashqari rang-barang gulli parchin va koshindan foydalanilgan. Ravoqli peshtoqdan miyonsaroy orqali hovliga o‘tiladi. Miyonsaroy ichki gumbazi o‘n ikki qirrali, g‘ishtdan to‘rsimon shakl qilinib, oralariga ko‘k va havorang koshin terilgan. Peshtoqda Amir Temur davrida Erondan olib kelingan ustaning avlodi Ismoil ibn Tohirning nomi ganchkor va turli bezaklar asosida nasta’liq xatida yozilgan yozuv saqlanib qolgan. Naqshlarida yulduzsimon bezaklar ko‘p uchraydi.

Madrasaning o‘ziga xos tomonlaridan biri shundaki, u balandligi jihatidan Buxorodagi boshqa madrasalarga qaraganda pastroq va hujralarining ko‘pligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bu Ulug‘bek tomonidan qurdirilgan dastlabki madrasadir. Madrasaning boshqa madrasalardan farqi shundan iboratki, uning ikki chetida minoralar mavjud emas. Xonaqoh pesh ayvonlari esa 8 tani tashkil qiladi. Bugungi kungacha me’moriy obida atroflarida bog‘lar tashkil qilingan.[5: 83-84]

1586-yil Xo‘ja Sa’d Jo‘yboriy tomonidan madrasaning tashqi peshtog‘i va yonlaridagi hujralar ta’mir etilib, peshtoq bezagida mayda yozuvli va

naqshli koshin ishlatilgan. Hovli g‘arbidagi hujra tepasida ganchkori bezaklar orasida ta’mirlovchi usta Ismoil ibn Tohir ibn Mahmud Isfahoniy nomi saqlangan. Abdurazzoq Samarqandiyning xabar qilishicha, Ulug‘bek 1419-yilning 28 noyabrida madrasaga kelib ilm oluvchi talabalarga in’omlar ulash44gan. [6:122-123]

Ulug‘bek hukmronligi davrida madrasalar davlat hisobiga kiritilgan va ularga davlat byudjetidan mablag‘ ajratilgan. Madrasalarda nafaqat boylar, balki kambag‘allarning bolalari ham O‘qish huquqiga ega bO‘lgan va nafaqa, kiyim bosh bilan ta`minlangan. O‘quv yili sakkiz yilga qisqargan va haftada besh kun ta`lim berilgan. Ulug‘bek o‘quv dasturlarini ham qaytadan ishlab chiqqan.[7:11]

Bizgacha Ulug‘bek madarasasi asl holidan ancha o‘zgargan holda yetib kelgan bo‘lib, 1950-1970 va 1990-1996-yillarda ta’mirlangan. Madrasaning ta’mir talab yerlari qayta rekonstruksiya qilingan. Ko‘chasiga esa o‘rta asr uslubida toshlar yotqizilib, yo‘llar hosil qilingan. Hozirgi kunda madrasa ochiq osmon ostidagi muzey sifatida chet el sayyohlari hamda o‘zbekistonlik milliy madaniy merosga qiziquvchilarning ziyoratgohiga aylangan.[5:84]

1997-yilda Buxoro shahrining 2500 yilligi munosabati bilan Buxorodagi barcha obidalar qatorida Ulug‘bek madrasasi ham qayta ta’mirlanib, YUNESKO ning Butunjahon yodgorliklari ro‘yxatiga kiritilgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, Mirzo Ulug‘bek va temuriylar davlatida ilm-fanni rivojlantirishga juda katta e’tibor berilgan bo‘lib, bu Temuriylar davrining gullab-yashnashi, yutuqlarining dovrug‘ taratishiga asos bo‘lgan. Albatta, bunda madrasalar faoliyati alohida ahamiyatga ega. Bobo Amir Temur kabi Mirzo Ulug‘bek ham aqliy tarbiya, diniy va dunyoviy bilimlar insonni har tomonlama kamol topishida katta ahamiyatga egaligini yaxshi bilgani uchun madaniyat, ma’rifat, ma’naviyatning gullab-yashnashi uchun harakat qilgan. Buning yorqin misoli sifatida Buxoro, Samarqand va G‘ijduvon shaharlaridan bunyod etilgan madrasalarni ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar

1. Mavlanov O‘. Amir Temur va temuriylar davri renessansida ta’lim tizimining tutgan ahamiyati. “Xalq so‘zi”. 2022.09.04.

2. Abdullayev Z. BUXORONING MADRASALARI TARIXI. International jurnal of recently scientific researcher's therory.157-159-betlar

[44] H. To’raev. Buxoro tarixi. o’quv qo’llanma.”Durdona” nashriyoti. Buxoro-2010

3. Nasilloyev S.Sh. Xanikov N.V. tadqiqotlarida buxoro tarixiy-me'moriy yodgorliklari ro'yxatining shakllantirilishi. Ta`lim va innovatsion tadqiqotlar (2022 yil № 6).

4. Nabiyev M.Q. O'rta asrlarda madrasalar faoliyati va ularda o'qitilgan fanlar."Talqin va tadqiqotlar" Respublika ilmiy-uslubiy jurnali. №8.

5. Bobojonova F.X. Buxoro me'moriy obidalari tarixi: o'quv qo'llanma. Buxoro: Fan va ta`lim. 2022.

6. To'raev H. Buxoro tarixi: o'quv qo'llanma. Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2020.

7. Asrorova L.Q. Buxoro madrasalari tarixidan. Toshkent: Hilol-Nashr, 2017

BUXORO XONLIGIDA QUL SAVDOSI MULOHAZALAR

Nazarova Ruxshona Ermat qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Buxoro hozirgi O'zbekiston hududida joylashgan qadimiy shahar bo'lib, tarixi miloddan avvalgi V asrga borib taqaladi. Buxoro o'zining uzoq tarixi davomida madaniyat, me'morchilik din va ilm fan markazi bo'lib kelgan. Islom oltin asrida Buxoro Movarounnahrning ilohiyot,falsafa, tibbiyot va ilm-fanning yetakchi markazlaridan biriga aylanadi.Buxoro shahrining yoshini aniqlash borasida amalga oshirilgan tadqiqotlar haligacha o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Vohada ilk shaharlarning vujudga kelishi, tabiiy iqlim sharoitlari, geografik joylashuv va asosiysi Zarafshon daryosining ahamiyati bilan belgilanadi.[45] Akademik Bartold ta'biri bilan aytganda, Buxoro shahri dastlabki paydo bo'lgan hududini o'zgartirmasdan, hamon o'sha joyda qad ko'tarib turibdi.Ana shunday holat Buxoro shahri hududida arxeologik tadqiqotlar olib borish ishlarini ancha murakkablashtirib yubordi.Shunday bo'lsada arxeologik tadqiqotlar shaharning qadimiyligini isbotladi.Buxoroda bir mozor bor ediki, uni "Mozori Mox ro'z" der edilar. U yerda yiliga har gal bir kundan ikki marta bozor qilar va har bir bozor bo'lgan kuni butlar sotar edilar.Har bozor kuni ellik ming dirxam ortiq savdo bo'lar edi[46] Bundan ko'rinib turibdiki qadim vaqtlarda Buxoro aholisi butparast bo'lganlar va qadimgi davrda ham Buxoro shahri o'zining katta ahamiyatga ega ekanligini bildiradi. Abul Hasan Nishopuriy "Xazoin ul-ulum" kitobida keltirilganki,

[45] Abu bakr Narshaxiy. Buxoro tarixi.- Toshkent: Sharq ma'shaliga ilova,1993.

[46] Turg'un Fayziyev. Buxoro xonligida qul savdosi. "O'zbekiston" Nashriyoti, Toshkent-1970.

Buxoro shahri, garchi oradan Jayhun daryosi o'tgan bo'lsa ham Xuroson shaharlaridan biri nisoblanadi. Buxoro xonligi O'rta Osiyoda joylashgan davlat bo'lib, XVI asr boshidan XIX asr oxirigacha mavjud bo'lgan. Xonlikning markazi Buxoro shahrida joylashgan bo'lib, u savdo, din va maorifning muhim markazi hisoblangan. Shunga qaramay Buxoro xonligida qulchilk va qul savdosi ham bo'lgan. Shunday qilib kishining kishi tomonidan qul qilish, uni tovar sifatida boshqa tovarlarga ayirboshlash va nihoyat pul evaziga sotish, sotib olish tartibi mavjud hisoblangan,Bu ahvolni XIX asrning oxirida O'rta Osiyo feodal xonliklarida, xususan Buxoro xonligida ham ko'rishimiz mumkin.

Buxoroning qul bozorlari qo'shni davlatlar va yon atrofdan Eron, Afg'oniston, qozoq, qalmoq va Rusdan o'g'irlab keltirilgan qul va cho'rilar hisobiga to'lib turgan, Garchi, dinimizda musulmon kishi musulmon kishini qul qilib sotishi ta'qiqlangan bo'lsada, lekin bunday amallarga rioya qilinmagan.XIX asrning 60-yillarida venger sayyohi A. Vamberi Buxoroda bo'lib, eshon uyida mehmon bo'lgan. Eshonning bir necha qul va cho'rilari bo'lgan. Vamberi esa undan musulmon kishi musulmon kishini qul qilib saqlashi mumkinmi, bu gunoh emasmi deb so'ragan. Eshon esa men uni sotib olganimda shia esdi deb javob bergan. O'zi asli bu ishlar shariatga tog'ri kelmasa ham xiylayi sha'riy asosida turli xil fatvolarga ishonib, savdo qilaverishgan. Buxoroda qul manbaini vujudga keltirgan asosiy omillardan biri bu bosqinchilik urushlari edi. Shunday urushlardan biri 1785-1786yillardagi mashhur Marv urushidir. Buxoro amiri Shohmurod Marvga askar tortib kelib, shaharni qamal qiladi.Shahar xalqi ochlik va suvsizlikka mahkum qilinadi.Amir Shohmurod Marvni suv bilan ta'minlovchi birdan-bir suv manbai bo'lgan Murg'ob tog'onini buzib tashlaydi.Xalq ochlik va suvsizlikdan juda og'ir ahvolga tushadi, buni ko'rgan Xojixon o'z arkoni davlati bilan shahar darvozalarini ochib, Shohmurodga taslim bo'ladi.

Amir Shohmurod Xojixon va uning arkoni davlatinimaxsus qo'riqchilar nazoratida Buxoroga jo'natadi.Shaharning barcha boyliklari talanib, shahar aholisidan 5000 kishi Buxoroga "oq uylik" qilib ko'chiriladi, ko'pchiligini qul qilib sotadilar.Vaziyat natijasida Buxoroning qul bozorida qul va cho'rilarning narxi shunday pasayib ketadiki, hatto o'nta qulni ikki tangaga sotib oluvchilar ham topilmay qolgan. XVIII asrning ikkinchi yarmida rus hukumati O'rta Osiyo xonliklarida qullikda yashayotganus kishilarini pul evaziga qullikdan ozod qilish to'g'risida qaror qabul qiladi. Ana shundan keyin rus kishilarini "ovlash" qul qilib sotish yanada kuchayadi. Chunki ularga yaxshigina pul berilar edi. O'rta Osiyogi qul bozorlarining eng yirik va gavjumi Xiva va Buxoroda

bo’lgan[47]. Bundan tashqari, Buxoro xonligida Qorako’l,Buxoro, Qarshi, Chorjo’y, Vardanze, Vobkent va G’ijduvon shaharlarida ham ko’p bo’lgan. Tarixiy manbalarga qaraganda, Buxoro xonligi territoriyasida mavud bo’lgan qul bozorlarining eng kattasi va gavjumi Buxoroda bo’lgan. Bu haqda elchi va sayyohlarning yozib qoldirgan asarlaridan ma’lumdir.Bozorda har xil mollar uchun maxsus joy bo’lgani kabi qul va cho’rilar uchun ham alohida joy belgilangan. Qul sotib oluvchi qulning yoshi, sog’ligi go’zalligi, din va mazhabi, baquvvatligi, millati hamda qo’lidan nima ish kelishi, xatto ichki kasalliklari, badanida biror toshmasi mavjud emasligini bilish uchun yechintirib ko’rilgan. Bu va bu kabi holatlar achinarli holatlardir. Qullikga tushgan qul yoki cho’rining hayotidagi eng baxtsiz va ayanchli davri uning dallol qo’liga tushgan kunidan boshlanar edi. Ular shunchalik vahshiy ediki, xatto qul sunniy mazhabiga mansub bo’lsa uni kaltaklab shia mazhabiga o’tkazar edi. Bundan tashqari qullarga bozorda zarur bo’ladigan 10-15 ta forscha terminlarni majburiy tarzda yodlatar edilar.Tarixiy manbalardan ma’lum bo’lishicha, Buxoroda qul mehnatidan keng ko’lamda foydalanib kelingan. Qullardan ko’proq uy ishlari, savdo-sotiq ishlari, harbiy ishlarda foydalanishgan. Shuningdek qullardan sug’orish ishlaridan ham foydalanganlar. Xulosa qiladigan bo’lsak, xonlik iqtisodiyotining asosini dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo, shu jumladan, qullar savdosi tashkil etgan. Quldorlik Buxoro xonligi iqtisodiyotining muhim xususiyati edi. Xonlik Rossiya, Kavkaz va Eron kabi qo‘shni mintaqalardan kelgan qullar uchun asosiy manzil bo‘lgan. Buxoroda qullar turli etnik guruhlardan, jumladan, forslar, turklar, armanlar, cherkeslar va gruzinlar edi.Buxoro xonligida qul savdosi asosan hukmron elita tomonidan nazorat qilingan, ular quldorlikni o‘z xo‘jaligining muhim qismi deb bilgan. Qullar Buxoro bozorlarida sotib olinadi va sotiladi, ular ko'pincha qafaslarda sotish uchun ko'rsatiladi. Qulning narxi insonning yoshi, jinsi, sog'lig'i va malakasiga qarab o'zgarib turardi. Buxoroda qullar turli maqsadlarda, jumladan, dehqonchilik yerlarida mehnat qilish, harbiy xizmat va uy xizmatkori sifatida foydalanilgan. Ular ko'pincha noto'g'ri munosabatda bo'lishgan va ortiqcha ishlaganlar va ko'plari kasallik, to'yib ovqatlanmaslik va zo'ravonlikdan vafot etgan. Qul va cho’rilarning taqdiri, yashash sharoitlari juda og’ir va ayanchli ediki, ularga egasi xuddiki bir buyumdek muomila qilishar edilar. XIX srning oxiriga kelib qulchilik tugatilib,

[1] Жуков Р. Резникова О. Россия-Централъная Азия: новая моделъ взаимодействия. “Россия и юг: возможности и пределы взаимодействия. Москва: Финстатинформ, 1996г, с203-206.

qullar rasman ozod qilinsalar-da, qullik mehnati ularning gardanida farz bo'lib qolaverdi.

БУХОРО АМИРЛИГИ ТУГАТИЛИШИ АРАФАСИДА МАДАНИЙ ҲАЁТ (1920- 1924 й.)

Норқўзиева Гулнора Қўзибой қизи
Чирчиқ давлат педагогика университети

Аннотация: *Ушбу мақолада БХСР да истиқомат қилувчи махаллий аҳолининг миллий таркиби ва уларнинг муаммолари, татар муаллимлари очган усули жадид мактаблари, ўқитиш усуллари, болалар тарбияси, уқув муассаларини тубдан ислох қилиниши, Бухорода мактаб таълими тўғрисидаги низоми, ўқитувчи кадирлар муаммоси ёритилган.*

Калит сўзлар: *Туркий, форсий, семитлар, миллий таркиб, маориф, жадид, татар, Низом лойҳаси.*

Бухоро ўзининг қарийб 3000 йиллик тарихи давомида тараққиётнинг турли босқичларини бошдан кечирди. Кўп асрлар мобайнида турли сулола ва давлатларнинг пойтахти, маданият, илм ва фан маркази сифатида донг таратди [1]. Бухоро амирлиги мавжуд бўлган даврда маҳаллий аҳоли туркий ва форсий тилда сўзлашар эди.

Бухорода истиқомат қилувчи маҳаллий аҳолининг миллий таркиби уч гуруҳга бўлинади:

1) туркий халқлар – 978.000 атрофида (63,9 фоиз), ўзбеклар, туркманлар, қирғизлар (охирги иккитаси камсонли ҳисобланган);

2) эронийлар – тожиклар ва унча катта бўлмаган форслар ҳамда афғонлар бўлиб, булар 484.000 атрофида (31,6 фоиз);

3) семитлар – араблар ва Бухоро яхудийлари ҳисобланиб, улар 54. 000 (3,5 фоиз)ни ташкил этган.

Шу билан биргаликда республиканинг бир неча шаҳарларида рус фуқаролигидаги аҳоли (12.000 киши ёки 0,8 фоиз) ҳам истиқомат қилган. Уларнинг аксарияти темирйўл бекатлари атрофида жойлашган эди. Умумий таркибдаги қолган халқлари 3000 киши (0,2 фоиз) бўлиб, унинг ярмини арманлар ташкил этган.

Бухоро республикасида истиқомат қилувчи халқларнинг кўпчилигини ўзбеклар ташкил қилиб, уларнинг 778.000 (50,7фоизи) кишидан иборат бўлган. Бухоро воҳасининг шимолий- ғарбий

чегарасидаги ўзбеклар ва қозоқлар ўртасидаги ҳудудда қорқақалпоқлар (2100 киши атрофида) яшаган[2].

Хулоса қилиб давлат миллатга хизмат қилиши лозим эди, аҳоли турмуш фаровонлиги даражаси мамлакатнинг фақат иқтисодий тараққиёт даражаси билан эмас, балки ижтимоий соҳалар тараққиёти даражаси билан ҳам ифодаланади. Шу билан бирга махаллий халқни ҳуқуқини поймол қилиш уларга нисбатан бой – феодалларча муносабатда бўлишни тарк этмаганлар. Бухоро амирлиги ҳудудида дастлабки “усули савтия” – усули жадид мактабларинииг очилиши Садриддин Айний ва Мирза Абдулвоҳид Мунзим номлари билан боғлиқ. Садриддин Айний маълумотларига кўра, Бухорода татар муаллимлари очган усули жадид мактаблари мавжуд эди. Айний ва Мунзим ушбу татар мактабларидаги ўқитиш усулларини ўрганадилар ва ўз мактабларига татбиқ қиладилар. Мактабдорлар Мирза Абдулвоҳид Мунзим, Садриддин Айний, Аҳмаджон Ҳамдий Бухорода фаолият кўрсатаётган татар муаллими Холид Бурнашев мактабига борадилар, таълим қоидаларидан тортиб, дарсхона тартибигача, ўқитиладиган илмлардан тортиб, китоб ва дарсликларигача танишадилар, маълумотлар оладилар. Бухоронинг илғор кучларини бирлаштириш учун жамият керак эди. Бухоро жадидлари: Аҳмаджон Ҳамдий, Абдулвоҳид Мунзим, Ҳамидхўжа Меҳрий, Садриддин Айний, Хожа Рофеъ, Мукаммал Бурҳон “Тарбияи атфол” (“Болалар тарбияси”) номли яширин жамият туздилар. Бу жамиятнинг саъй-ҳаракати билан усули жадид мактаблари яна бирин-кетин очила бошлади. Жамият низомида сиёсий масалалар ўз ифодасини топмаган бўлса-да, унда Бухоро амирлиги сиёсий тузумини ислоҳ қилиш, давлат маъмуриятига илғор ёшлардан киритиш ва шу йўл билан давлат сиёсий тузумида илғор ўзгаришлар ясаш кўзда тутилган эди. Жамиятнинг бирламчи масаласи Бухоро ўқув муассасаларини тубдан ислоҳ қилиш эди. Бухоро эски мактабларини ислоҳ қилиш иши амалда бошланган бўлса-да, олий ўқув юрти ҳисобланган мадрасалар ислоҳи бошланмаган, улар илмли, малакали мутахассислар тайёрлашдан йироқ эди. Шунинг учун “Тарбияи атфол” жамияти иқтидорли ёшларни Оренбург, Уфа, Қозон, Боғчасарой, Истанбул каби шаҳарларга ўқишга юборишни биринчи вазифа сифатида белгилади. Бунинг учун маблағ керак эди. Халқ истиқболи, маърифати учун жон куйдирувчи мулкдорлар ҳам, иқтисодий ёрдам берувчи зиёлилар, давлат арбоблари ҳам топилди. Жамиятнипг катта саъй-

ҳаракати натижасида унинг дастлабки йилиёқ бир гуруҳ ёшлар Истанбулга ўқишга юборилди. Садриддин Айний бу ҳақда қуйидагиларни ёзади: “Икмоли таҳсил учун Усмонхўжа Пўлатхўжа ўғли (1878 – 1968), унинг биродарлари Атохўжа (1894 – 1938), Мазҳар Маҳзум Бурҳон Маҳзум ўғли, Абдурауф Фитрат, Муқимбек Истамбулга сафар қилдилар. Фитрат мазкур талабаларнинг энг истеъдодлиси ва энг фозили эди”.

Бухоро жадидларининг, “Тарбияи атфол” жамиятининг ўз олдига қўйган улуғ мақсадларидан яна бири ўз матбуот органига эга бўлиши эди. Туркистон жадидлари “Тараққий”, “Хуршид”, “Шуҳрат”, “Тужжор”, “Садойи Туркистон”, “Садойи Фарғона” каби қатор газеталар нашр қилдилар. Улар Бухоро мутафаккирларига ҳам кучли таъсир кўрсатган эди [3].

Хулоса қилиб янги усул жадид мактаби тарафдорлари янги ҳукумат тўғри йўлда бўлса жадидлар давлат ёнида бўлган, агарки янги ҳукумат нотўғри йўлда бўлса жадидлар миллат ёнида бўлган.

Бухорода маориф нозирлиги томонидан мактаб таълими тўғрисида низом лойхаси ишлаб чиқилган. Лойиҳа 4 тоифали таълим муассасалари кўзда тутилган: 1) бошланғич, 2) ўрта, 3) махсус 4) олий, буларнинг орасида фақат бошланғич ва ўрта мактабларни сақлаш мумкин бўлган университет ва махсус ўқув юртлари ва университет таълими ҳали Бухорода тан олинмаган.

Низомда бошланғич синф курси 5 йил қилиб белгиланган бўлиб, унда болалар меҳнат ҳаёти учун тугалланган таълим олишлари керак, яхши ўқийдиган таъминоти яхши оиладаги болаларга ўрта мактабларда таълим олиш тавсия қилинади.

Қуйи бошланғич мактабда таълим 8 ёшдан бошланади, ҳатто 7 ёшдаги болалар мактабга қабул қилиниши мумкин бўлса-да, мусулмон мактабларининг чекланган сони кўпроқ бўлгани учун 13 ёшида ҳам биринчи синфдаги болаларни қабул қилишга рухсат берилади.

Ўрта мактабда таълим курси 3 йилга белгиланган бўлиб, унга бошланғич мактабни тамомлаганлар ва 25 ёшгача қабул қилишга рухсат берилади. Мактаблар тўғрисидаги Низомда махсус курсларда дарсдан ташқари таълим ҳам кўзда тутилган бўлиб, унинг дастури кейинчалик ишлаб чиқилади ва 2 йилга мўлжалланган. Ушбу курсларга 14 ёшдан 20 ёшгача бўлган талабалар қабул қилиниши лозим. 20 ёшдан ошган талабалар учун 3-4 ойлик саводхонлик курслари очилади. Бошқа фанлар

қатори бошланғич мактабларда қуйидаги фанлар ўқитилиши лозим: 1) туркий тил, 2) математика, 3) география, 4) қўл меҳнати, 5) графика, 6) гимнастика, 7) тарих 8) рус тили. Ўрта мактабларда эса қуйидаги фанлар ўтилади 1) туркий тил, 2) математика, 3) физика, 4) чет тиллар, рус ва араб тиллари, 5) тарих, 6) сиёсий иқтисод, 7) география, 8) қўл меҳнати 9) мусиқа.

БХСР даги мактабларда кўзда тутилган таълим режаси ана шулардан иборат. Бутун лойиҳалаштирилган низомнинг энг муҳим томони Бухоро ҳудудидаги барча фуқаролар учун бошланғич мактабни тугатиши мажбурий деб эътироф этилсин, жойлардаги ҳукуматлар 25 ёшга кирмаган шахсларни саводсизлигини тезлик билан бартараф қилишга киришсин.

Ўз – ўзидан маълумки, маориф нозирлиги томонидан кўзда тутилган мактаб таълими дастурини амалга оширилиши агар ўқитувчилар йўқлиги ҳисобга олинса, улкан кучни талаб қилади, лекин биз бу ишда ҳеч қандай тўсиқ олдида тўхтамаслигимиз керак ва бу ишга ёш республиканинг барча жонли кучи жалб қилиниши керак. Ушбу жонли кучларни мактаб таълимоти каби оғир ва маъсулиятли ишга жалб қилиш учун маориф ишларига тирикчилик учун четдан иш изламасликлари учун юқори иш ҳақи ўрнатилсин. Бунга ҳар қандай ҳолатда ҳам йўл қўймаслик керак, чунки мактаб ходимининг иши ҳар доим қўл билан тўланади. Шуни унитмаслик керакки, ҳар бир мактаб ходими, қўшимча даромад илинжида четда қўшимча иш билан шуғулланса давлатга катта зарар етказади, айниқса халқ таълими бизда жуда паст даражада турганда, ота – оналар болаларини олий маълумот олишлари учун узоқ ўлкаларга жўнатишга мажбур бўлишади.

Шу боис, бошланғич ва ўрта таълим мактаблар тўғрисидаги Низом лойиҳаси ишлаб чиқиш билан бир қаторда, маориф назарати, шунингдек, мактаб ходимлари тўғрисидаги низомни қайта кўриб чиқишни бошлайди ва улар учун халқ таълими бошқа қўшни давлатларга нисбатан ривожланишида орқада қолмайдиган барча зарур шарт-шароитларни яратади[4].

Хулоса қилиб БХСРда истиқомат қилувчи турли маҳаллий миллат вакилларининг хусусиятлари инобатга олинмади, асосан ёшлар ва катталар онгига капитализм устидан социализим ёлғон ғалабаси сингдириб борилган. Аҳолининг мулкчиликка бўлган муносабатини ўзгартириш мафкураси илгари сурилган.

Адабиётлар

1. Рашидов У., Рашидов Ў. XX аср бошларида Бухоро амирлигидаги сиёсий иқтисодий жараёнлар. “Бухоро” нашриёти. 2011. Б. 5.

2. Рашидов О. Ўзбекистонда совет бошқарув структурасидаги маҳаллийлаштириш сиёсати (1917- 1933йй). Тошкент Наврўз нашриёти. 2020. Б. 49-53.

3. Айний Садриддин. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. Асарлар. 8 томлик, 1-том. – Т.: 1963. – Б.233.

4. Г. Рубинштейн. Школьное образование. Известия. 1922 г. 18 июля.

“ЎЗБЕКИСТОН ВА МАРКАЗИЙ ОСИЁ МИНТАҚАСИ ДАВЛАТЛАРИНИНГ ЎЗАРО ҲАМКОРЛИК ВА ҲАМЖИҲАТЛИК ЙЎЛЛАРИ”

Қучқарова Шахноза Бахтиёр қизи

Чирчиқ давлат педагогика университети

Агар тарихга бир назар ташлайдиган бўлсак, Марказий Осиёни эгаллаган ҳозирги мустақил давлатлар бир пайтлар Туркистон деб аталмиш яхлит худудга бирлашган эди. Бу заминда ўзбек, қозоқ, қирғиз, тожик, қорақалпоқ ҳамда туркманлар узоқ асрлар давомида қўлни-қўлга бериб дўстона, яхши қўшничилик асосида яшаб келганлар.

Марказий Осиё давлатларининг ҳар бирида ўзига хос муаммолар бўлсада, бироқ уларда умумий ривожланиш тамойили мавжуд. Бу давлатчилик асосларини мустахкамлаш, инсон ҳуқуқларнинг тенглик асосида таъминлаш, ислом динининг ридикализациялашуви, оммавий қирғин қуролларининг тарқалишини олдини олиш, ижтимоий таъминлаш билан боғлиқ демографик муаммолар, бозор иқтисодига ўтиш жараёнидаги тўсиқлар, бизнес инвестиция муҳитининг заифлиги, ривожланиб бораётган номутаносиб ижтимоий табақаланиш ва кам таъминланганлик каби муаммолар шулар жумласидандир.

Шу билан бирга минтақавий хавфсизлик масалалари, жумладан, уюшган жиноятчиликка қарши кураш, давлатлараро чегараларда бошқарувни яхшилаш, иқтисодий юксалишга эришиши минтақалараро савдони йўлга қўйиш, жаҳон бозорларига чиқиш ва табиий ресурслардан янада оқилона фойдаланиш Марказий Осиё Ҳамкорлиги

ташкилотининг минтақа давлатлари билан муносабатларини шакллантирувчи омиллар сирасига киради.

Марказий Осиё давлатлари ўртасида тузилган битимлар, давлат раҳбарларининг расмий ўзаро ташрифлари чоғида ҳамда Марказий Осиё ҳамкорлиги доирасидаги учрашувларда имзоланган сиёсий ҳужжатлар Марказий Осиё давлатлари ҳамкорлигини йўлга қўйиш учун меъёрий ҳуқуқий асос бўлиб хизмат қилади.

Марказий Осиёдаги минтақавий иқтисодий-сиёсий интеграция жараёни расман 90 йилларнинг биринчи ярмидан бошланди. 1994 йил Ўзбекистон, Қозоғистон ва Қирғизистон Ягона иқтисодий макон шартномаси тузишди. 1998 йил Тожикистон ҳам бу шартномага қўшилди. Юзага келган ҳуқуқий асосни ташкилий ва молиявий жихатидан таъминлаш учун Давлатлараро кенгаш ва Марказий Осиё ҳамкорлик ва ривожланиш банки барпо этилди. Ушбу шартномага мувофиқ 1995-2000 йилларга мўлжалланган иқтисодий интеграция Дастури қабул қилинди. Бу Дастур доирасида қўшма корхоналар тузулиб, ишлаб чиқариш кооперацияси “Куртак ота” бошлади.[1]

Марказий Осиё давлатлари билан ҳар томонлама ўзаро ҳамкорлик миллий хавфсизликнинг асосий шартларидан биридир. Халқларимиз тарихи, маданияти, анъаналари, диний эътиқоднинг муштараклиги мамлакатларимиз ўртасидаги амалий ҳамкорлик ва ҳамжихатликнинг муҳим пойдевори хисобланади. Бизнинг мақсадларимиз бир, тақдиримиз бир. Бизда миллий муносабатларда кескинликлар йўқ, хал қилиб бўлмайдиган воқеалар ҳам йўқ.[48]

Дархақиқат, тинчликни сақлаш, уни мустаҳкамлаш кундалик ишимиз, муқаддас бурчимиз экан, ҳар қайси фуқаро аввало ўз вазифасини виждонан адо этиши, шу билан бирга ғаразли мақсадда қилинаётган информацион ҳуружларга, уйдирма ва миш-мишларга берилмасдан, содир бўлаётган воқеаларга очиқ кўз билан қараши, ўз уйи, маҳалласи, шаҳар, қишлоғида осойишталик барқарор бўлиши учун жон куйдириши, мана шу ҳақиқатни чуқур англаб, огоҳлик ва ҳушёрликни ўз ҳаётининг мезонига айлантириши зарур.

“Бизни муштарак тарих ва маданият, ягона муқаддас дин, ўхшаш менталитет, маънавий ахлоқий қадрият ва анъаналар ҳамда ажралмас дўстлик чамбарчас боғлаб туради. Буларнинг барчаси халқларимиз фаровонлиги ва равнақи йўлида Марказий Осиё

[48] “Халқ сўзи” газетаси, 2002 йил, 23 ноябр

давлаталир салоҳиятини бирлаштиришга қаратилган ўзаро манфаатли ҳамкорлигимиз учун мустаҳкам пойдевор бўлиб хизмат қилади”[1] -деб таъкидлаган эди Президентимиз Ш.М.Мирзиёев.

Марказий Осиёда ташқи минтақавий хавфсизликка тахдид соладиган омилларга: Афғонистондаги нотинч вазият, минтақа атрофидаги давлатларо қуролланиш пойгасини кучаяётганлиги ва Покистон ва Ҳиндистонда ядро синовлари ўтказилиши, Марказий Осиёнинг геополитик марказларидан бири ҳисобланиши, дунёда энергияга талабни ошиб бораётганлиги ва бошқаларни киритиши мумкин.

1.Афғонистонда тинчлик ўрнатмай туриб, бу катта минтақада хавфсизликни таъминлаб ва узоқ муддатли барқарорлик ўрнатиб бўлмайди. Афғонистонда 6 млн.га яқин тожиклар, 1млн.га яқин туркманлар, 2 млн.дан ортиқ ўзбеклар яшайди.[1] Бу мамлакат худуди халқаро террорнинг таянч маркази, ўта жангари ва бузғунчи кучларнинг машқ майдони, жаҳон бозорига наркотик моддаларни етказиб берадиган асосий макон бўлиб қолди.

2.Маълумки, Марказий Осиё ядро қуролидан холи худуд ҳисобланади. Бу 1995 йилда ядро қуролини тарқатмаслик тўғрисидаги шартномаларни узайтиришга бағишланган халқаро конференцияда расмий равишда қайд этилган. 1997 йилда Алмата декларациясида Марказий Осиёдаги барча давлатлар уни қўллаб-қуватлаганлар. Лекин Марказий Осиёга қўшни давлатлар ядро қуролига эга бўлишга ҳаракат қилиши худуд хавфсизлигига тахдид солмоқда.

3.Марказий Осиё геосиёсий марказлардан бири ҳисобланади. Таниқли сиёсатшунос ва давлат арбоби З. Бжезинский минтақаларни, давлатларни геосиёсий нуқтаи-назаридан тахлил қилиб икки гурухга бўлади. Геосиёсий марказлар; геостратегик харакатлантирувчи куч Марказий Осиё геостратегик ҳаракатлантирувчи кучларга Россия, Хитой, АҚШ, Эрон давлатларини киртиш мумкин.

Ички минтақавий хавфсизликка келадиган бўлсак асосий тахдид этувчи омиллар этник муносабатлар, давлатлар ўртасидаги чегара масалаларини ҳал қилинмаганлиги сув ресурслари билан боғлиқ муаммолар терроризм, диний экстеремизм ва бошқалар.

[1] Ш.Мирзиёев. Миллий тикланишдан миллий юксалиш сари. Т. “Ўзбекистон”, 2020 йил, 4-жилд, 278-бет.
[1] Ю.Морозов. Перестройка политической карта. Азия и Африка сегодня. 2002 №7, стр. 9-14.

1993 йилнинг январида Биринчи Президент Ислом Каримов ташаббуси билан Марказий Осиё давлатлари раҳбарларининг Тошкент учрашуви ташкил этилди. Олий даражадаги бу учрашувда Марказий Осиё Ҳамдўстлигига асос солинди. Беш давлат Қирғизистон, Қозоғистон, Ўзбекистон, Тожикистон, Туркманистон раҳбарлари дўстлик ҳақидаги битимга имзо чекишди. Буни минтақа халқлари зўр мамнуният билан қарши олдилар ва қўллаб-қувватладилар. Шу тариқа жаҳон сиёсий сўзлигига "Марказий Осиё" деган янги атама пайдо бўлди. Албатта, бу ҳодисага турли тоифа ва қарашдаги сиёсатчилар, ҳуқуқшунослар, иқтисодчилар турлича баҳо бердилар. "Марказий Осиё давлатлари билан ҳар томонлама ўзаро ҳамкорлик миллий хавфсизликнинг асосий шартларидан биридир. Халқимиз тарихи, маданияти анъаналари, диний эътиқоднинг муштараклиги мамлакатларимиз ўртасидаги амалий ҳамкорлик ва ҳамжиҳатликнинг муҳим пойдевори ҳисобланади. Бизнинг мақсадларимиз бир, тақдиримиз бир. Бизда миллий муносабатларда кескинликлар йўқ, хал қилиб бўлмайдиган воқеалар ҳам йўқ".[1] 1994 йил 30 апрелида Чўлпонота шахрида Ўзбекистон, Қирғизистон ўртасида ягона иқтисодий макон тузиш тўғрисида уч томонлама шартнома имзоланди. Уч қардош мамлакатлар ўртасидаги ҳамкорлик янги поғона кўтарилди. 1994 йил июнъ ойи бошида Алмати шаҳрида бўлиб ўтган учрашуви ҳам бу уч қардош мамлакатлар халқлари ўртасидаги муносабатларни мустаҳкамлашда яна бир янги қадам бўлди. Унда ўзаро интеграцияни кучайтириш бўйича Марказий Осиё ҳамкорлик ва тараққиёт банки тузиш тўғрисида битимлар имзоланганди. Томонлар давлатлараро кенгаш ҳамда унинг доимий ижроия органини, шунингдек Бош Вазирлар Кенгаши, ташқи ишлар вазирлари кенгаши, Мудофаа вазирлари кенгашини таъсис этдилар, бундай ягона мувофиқлаштирувчи бошқарув органларининг пайдо бўлиши Ўзбекистон, Қозоғистон ва Қирғизистон ўртасида интеграция учун ҳуқуқий заминни янада мустахкамлади. Марказий Осиё ҳамкорлик ва тараққиёт банки ташкил этилди. Шу тариқа Марказий Осиё иқтисодий ҳамжамияти (МОИҲ) ташкил топди.1995 йил 3 мартда Тошҳовузда, 1995 14 апрел куни Чимкентда, 1997 йил 9-10 январъ кунлари Бишкекда, 1997 йил декабрида Остонада, 2000 йил, 20-21 апрел кунлари Тошкентда Марказий Осиё давлатлари раҳбарларининг учрашувлари бўлиб ўтди. 2001 йил 28 декабръ куни Тошкентда

[1] "Халқ сўзи" газетаси, 1995, 24 февраль

Марказий Осиё иқтисодий ҳамкорлик давлатлари бошлиқларининг навбатдаги кенгаши бўлиб ўтди.

Бизга маълумки Марказий Осиёдаги барча давлатлар ўта мураккаб ва кўп қиррали ислом дунёсининг ажралмас қисми ҳисобланади. Шу боис ҳам улар ислом динини сиёсий мақсадларда фойдаланишга харакат қилувчи, ислом динининг мумтозлиги ғоясини тарғиб қилувчи бошқа динларга нисбатан адоват руҳида муносабатда бўлиш сиёсатини юритувчи, ислом ақидаларидан тор миллий манфаатларини қондириш учун фойдаланиш ниятида бўлган турли салбий оқимларга қарши курашиш борасида куч ва имкониятларини бирлаштиришлари лозим. Сўнгги пайтларда диний экстеремизм, фанатизм ва халқаро терроризмнинг таҳдиди тобора кучайиб бораётганлиги сабабли Марказий Осиёда тинчлик ва Чунончи, бу мамлакатлар жуғрофий жиҳатидан бир-бирига яқин ва зич жойлашган. Сув, электр энергетикаси ва бошқа табиий омиллар ҳам уларни боғлаб туради. Қарийб 50 миллионли аҳоли тарихан ягона уйғунлашиб кетган дунёқараш ва анъаналарга эга.

Хуллас, Марказий Осиё давлатларининг салоҳиятини уйғунлаштириш ва мустаҳкамлаш борасидаги ҳаракатлари, жаҳонда тинчлик ва барқарорликни ўрнатиш учун ўта муҳимдир. “Марказий Осиёдаги барча мамлакатларнинг ҳамкорликка самимий интилиши ва умумий келажак учун масъулиятни ҳис этиши минтақамизнинг барқарор тараққиёти ва фаровонлигининг мустаҳкам кафолатидир”[1] – деб таъкидлаган эди Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев.

АДАБИЁТЛАР

1.Ш.Мирзиёев. Марказий Осиёда ўзаро дўстлик ва ҳамкорликни таъминлаш барқарор ривожланиш кафолатидир. Т., “Ўзбекистон”, 2018 й, 2-жилд, 264-бет

2.Ш.Мирзиёев. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. Т. “Ўзбекистон”, 2019 йил, 1-жилд, 348-бет

3.И.А.Каримов. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка тахдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т.”Ўзбекистон”, 1997, 6-бет.

[1] Ш.Мирзиёев. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. Т. “Ўзбекистон”, 2019 йил, 1-жилд, 348-бет

4.Жуков Р. Резникова О. Россия-Централъная Азия: новая моделъ взаимодействия. “Россия и юг: возможности и пределы взаимодействия. Москва: Финстатинформ, 1996 г, с 203-206.

5.Ю.Морозов. Перестройка политической карта. Азия и Африка сегодня. 2002 №7, стр. 9-14.

6.“Халқ сўзи” газетаси, 2002 йил, 23 ноябрь.

7.“Халқ сўзи” газетаси, 1995 йил, 24 февраль

8.Ҳамкорлик ва ўзаро англашув-умумий муаммоларни ечишнинг ягона йўли. “Ўзбекистон овози” газетаси, 2002 йил, 8 октябрь

ЁШЛАРДА ВАТАН ТУЙҒУСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ЭКОЛОГИК ТАЪЛИМ -ТАРБИЯНИНГ АҲАМИЯТИ

Quldashova Gulhayo Ochil qizi

Чирчиқ Давлат Педагогика университети
Илмий раҳбар: Сулайманова Шохсанам Абсаматовна

Ўтган аср буюк кашфиётлар ва кескин муаммолар асри сифатида тарихга кирди. Кишилик жамияти тарихидаги илмий-техникага оид ютуқларнинг 90 фоизи шу асрнинг маҳсули бўлиб, биринчидан, инсоннинг фаровон ҳаёт кечириши, жамият ривожига беқиёс ҳисса қўшиши, инсоният томонидан мамнуният ва қувонч билан кутиб олинган бўлса, иккинчи томондан, бунинг натижасида табиий атроф муҳитга антропотехноген таъсирнинг салбий оқибатлари оламшумул экологик муаммоларни келтириб чиқармокда ва кишилик жамиятини ташвишга солмоқда

Табиатга салбий таъсир этувчи омилларга инсон тафаккури маҳсули бўлган минглаб кашфиётларни кўрсатиш мумкин. Лекин уларни фақат салбий баҳолаб бўлмайди, аксинча улардан келаётган ижобий кўрсаткичларни ҳам эътиборга олиш керак. Қолаверса, ҳозирги замон ҳаётини уларсиз тасаввур қилиб бўлмаслигига ортиқча далил исбот керак эмас. Бироқ, асосий муаммо уларни қандай қилиб экологик ҳавфсизлантиришдир.

Жамият ва табиат ўртасидаги муросага келиш учун инсоният ён босмоғи лозим, чунки табиатни табиат учун муҳофаза қилишга эхтиёж

йўқ. Зеро, табиат келажаги ҳақидаги ғамхўрлик, бу инсониятнинг келажагига бўлган ғамхўрликдир.

Ўзбекистон давлатининг жаҳон ҳамжамиятида муносиб ўрин эгаллаш, халқнинг фаровонлигини ошириш йўлида, жамиятимизнинг барча соҳаларида эркинлаштириш сиёсати олиб борилмоқда. Бу ўз навбатида ички ва ташқи иктисодий фаолият жадаллашувига, ижтимоий-иқтисодий муносабатлар жуғрофиясини кенгайтиришига, ер ости ва ер усти бойликларига бўлган эҳиёжнинг ўсишига, яъни табиатга бўлган антропоген босимнинг янада кучайишига олиб келади.

Мамлакатимизда табиат ва жамият муносабатларини уйғунлаштиришни, экологик ҳавфсизликни таъминлашнинг ҳуқуқий асосларини мустаҳкамлаш ва механизмларини йўлга қўйиш борасида: “Табиатни муҳофаза килиш тўғрисида”, ”Атмосфера ҳавосини муҳофаза қилиш тўғрисида”, “Ер тўғрисида”, “Сув ва сувдан фойдаланиш ҳақида”, “Қазилма бойликлар ҳақида” ва бошқа табиатдан оқилона фойдаланишга қаратилган қонунлар ва юридик ҳужжатлар қабул қилинди, улар табиатни муҳофаза қилишда муҳим ҳуқуқий омил хисобланиб, тақиқловчи, қўриқловчи, назорат ва жазоловчи, меъёрловчи ҳарактерга эга. Энг асосийси экологик таълим-тарбиянинг қонуний асослари вужудга келтирилди. Унинг асосида, таълим сохасида экологик таълим-тарбия тизими шакилланиб, такомиллашиб бормоқда, мақсад фуқароларимизни ёшликдан атроф-мухит муҳофазасининг фаол иштирокчиси қилиб вояга етказишдир.

Муболағасиз айтиш мумкинки, охирги йиллар инсониятнинг маънавий қиёфасини шакллантиришида, табиатга нисбатан утилитар истеъмолчилик маданиятининг, антропоцентристик ғояларнинг устуворлиги натижасида вужудга келган экологик инқироз, янгича экологик тафаккурни, онгни, дунёкарашни, маданиятни ривожлантириш йўналишларини белгилаб берди.

Бугунги кунда экологик муаммоларга нисбатан “Табиат-табиат учун” (консервационализм), «Табиат-жамият учун», “Экологик пессимизм”, сохта «экологик оптимизм» позициясида турувчи таълимот ва назариялар мавжуд.

Булардан ҳеч бири, илмий чекланганлиги боис муаммони позитив ҳал қила олмайди.”Табиат-жамият-инсон” муносабатларини уйғунлаштиришда, жамиятнинг табиатга бўлган таъсирини

инсонпарварлаштириш ва экологиялаштириш, оптимал вариантларидан биридир.

Табиат жамиятнинг моддий ва маънавий ҳаёт манбаидир. Табиий борлиқнинг таркибий элементлари: ер, сув, осмон, ҳайвонот ва ўсимлик дунёси, яъни экосистема ҳар бир халқнинг, миллатнинг моддий ҳаётини ривожланишига, ватан туйғусини шакллантиришга ўз таъсирини кўрсатиб келган ва шундай бўлиб қолади. Халқнинг этник жиҳатдан ўз-ўзини англашида, ҳар бир географик худуднинг ўзига ҳос экосистемасини сақлаб қолиш, шу халқ ривожланишига ёки инқирозга юз тутишига, инсониятнинг кўхна тарихи кўп маротаба гувоҳ бўлган.

Ўзбек халқининг ўзига ҳос экологик миллий маданияти, қадимги тарихига эга бўлиб, унинг шаклланиши ва ривожланишига асос бўлиб келган. Халкимизнинг табиат ҳақидаги билимлари, экологик мазмун ва моҳиятга эга бўлган қарашлар, миллий урф-одатлар, анъаналар, қадриятлар, санъат ва байрамларида ўз аксини топган бўлиб, миллатимиз тарихий хотирасининг таркибий қисмига айланган. Қолаверса мустақил Ўзбекистон давлат рамзлари (байроқ, герб ва мадхия)да юртимиз табиий мухити ўз аксини топган.

Мана шу маданиятни ўрганиш, унга амал қилиш ёш авлоднинг экологик дунёқарашини шакллантиришда мухим омил булиб хизмат қилади. Бу ўз навбатида, шаклланаётган миллий истиқлол мафкурасида албатта ўз аксини топмоғи лозим.

Экологик таълим-тарбиянинг вазифаси - атроф мухитни мухофаза қилиш ҳақидаги назарий билимларни чуқурроқ эгаллаши; хозирги давр экологик муаммоларининг инсоният тақдирига таъсир этишнинг салбий оқибатларини англаб етиши; Ўзбекистон ва хорижий мамлакатлар экологик сиёсатидан, экологияга доир қонунлардан хабардор бўлиши; экологик жихатдан зарарсиз технологияларни ҳаётга жорий қила олиши; экологияга дахлдор бўлган масалаларга ижодий ёндашиб ягона мақсадга, талабаларнинг атроф - мухитни мухофаза қилиш сохасида фаол иштирокчисига айлантиришга хизмат қилишдадир.

Экологик тарбиянинг самарадорлиги мезони табиий атроф муҳитни фаол муҳофаза қилиш билан белгиланади. Бу шаҳарларимизниг кўкаламзорлиги, экологик касалликлар камайиши, кўча уйларимизнинг тозалиги, ўртача яшаш ёшининг ўсиши, ишлаб чиқаришда экологик технологияларни қўллаш даражасига, энг муҳими,

аҳолининг экологик ҳаёт даражасини яхшиланишида ўз ифодасини топиши муқаррардир.

ТУРКИСТОН ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРЛИГИ БЮДЖЕТИ ВА УНИНГ МУСТАМЛАКАЧИЛИК МОҲИЯТИ

Ирискулов Б. Ж.
Ўзбекистон-Финландия педагогика
институти ўқитувчиси

Шубҳасиз, империя маъмурияти ўлкани ўз мустамлакасига айлантиргандан сўнг капиталистик муносабатларни ривожлантиришдан манфаатдор эди. Боиси, империя томонидан ўлкани мустамлакага айлантириш сабабларидан бири ҳам айнан шунда эди. Россия империяси томонидан Ўрта Осиёнинг мустамлака этилишига ҳарбий ва иқтисодий сабаблари билан бир қаторда енгил саноат учун пахтага бўлган эҳтиёж ҳам муҳим рол ўйнади[49]. Империя маъмурияти вакилларидан бири таъкидлаганидек, “рус саноатининг эҳтиёжлари Осиё томонидан қондирилади, Ўрта Осиёнинг қиматбаҳо табиий бойликлари Россия империяси учун ўта муҳим аҳамият касб этади[50]”.

Россия империясида 1861 йилги ислоҳотлардан сўнг ишлаб чиқаришда капиталистик муносабатлар шиддат билан ривожланиб борди. Империя томонидан Ўрта Осиё ҳудудларининг истило этилиши капитализмнинг янги ҳудудларга тарқалишига туртки бўлди. Ўз навбатида кўп миллатли ўлкаларнинг Россия империяси мустамлакасига айлантирилиши империя иқтисодиёти учун катта аҳамиятга эга бўлди. “Бу Россия империяси халқ хўжалиги ва мустамлака давлатларнинг мустаҳкам иқтисодий алоқалари асоси бўлиб хизмат қилди[51]”.

Бошқа чора-тадбирлар билан бир қаторда Россия империяси мустамлака ҳудудларда иқтисодий тизимни яратишга ҳам алоҳида эътибор қаратди. Мазкур масалага қаратилган биринчи қадамлардан бири 1868 йил Иқтисодий қўмитанинг ташкил этилиши бўлиб, қўмита томонидан давлат даромадлари ва харажатлари тўғрисидаги Низом ишлаб чиқилди. Ислоҳотлар давом эттирилиб, 1869 йилда Туркистон

[49] История народов Узбекистана. т.II. – Т: изд. АН УзССР, 1947. – С. 227.
[50] Экономические задача России в Средне-азиатских владениях. – Т., 1891. – С. 188.
[51] Лищенко И. Многонациональная системе российского капитализма и образование СССР // Вестники СССР – №1. – 1948. – С. 84.

ғазнаси палатаси ташкил этилади. Палата 1869 йил 14 октябрда очилган. 1886 йилгача Давлат палатаси ҳам иш ҳақи, ҳам иш ҳақи бўлмаган тўловларни бошқарган. Палатанинг асосий вазифалари давлат солиқларини тартибга солиш ва йиғиш, барча давлат муассасалари учун кредитларни қайта тайинлаш, ғазначилик бўйича умумий ҳисоб-китобни юритиш ва бошқалардан иборат бўлган.

1868 йилдан бошлаб палата давлат даромадлари ва харажатлари рўйхати юритила бошланади, шунингдек йиллик рўйхат ижроси бўйича хисобот олиб борилади. Шу йилдан бошлаб Туркистон генерал-губернаторлиги даромадлари ва харажатлари Россия империяси рўйхатига киритилади[52]. Ғазна очилишидан олдин барча молиявий операциялар биринчи навбатда ҳарбий губернаторда тўпланган эди. Туркистон вилояти, кейин Туркистон генерал-губернаторлиги ҳузурида молия бўлими ва Сирдарё вилояти ҳокимлигида махсус иш юритиш ва бухгалтерия ҳисоби бўлган. 1889 йилда солиқ инспекцияси жорий этилди[53].

Ўрта Осиёнинг истило этилган ҳудудларида даромад ва харажатлар рўйхатининг юритилиши хонликлардагига ғазначилик бошқарувига нисбатан кескин ўзгариш ясади. Ўрта Осиё хонликларида шу давргача бюджет, кирим-чиқим каби тушунчаларга фақат ҳукумдорнинг манфаати нуқтаи-назаридан аҳамият берилиб, давлат хазинаси хоннинг шахсий мулки ҳисобланган.

Айтиш жоиз, Туркистон генерал-губернаторлигида давлат харажатлари ва даромадлари рўйхати умуман олганда давлат бюджети шакллантирилган бўлса-да, у ўз хусусиятига кўра Туркистон ўлкаси аҳолиси учун эмас балки, империя манфаатларига хизмат қилган.

Айтиш жоиз, Туркистон генерал-губернаторлигининг ҳисоб-китобларидаги асосий харажатлар зўровонлик аппарати ҳисобига ўсиб борувчи харажатлар эди. Маълумки, Россия империяси ҳудуди 1862–1865 йилларда ҳарбий вазир Д.Милютиннинг ташаббуси билан ҳарбий округларга тақсимлаб чиқилиб, Туркистоннинг империя томонидан дастлабки эгаллаб олинган ҳудудлари ва ундаги ҳарбий қисмлар Оренбург ҳарбий округи таркибига киритилди[54]. Лекин империя Оренбургнинг ўлкадан узоқлиги, Туркистонни тўла эгаллаб, ўз

[52] Блиох И. Финансы России 19 столетия. История и статистика. Т.3. – СПб., 1882. – С. 207.
[53] ЎзМА, И.9-фонд, 3-рўйхат, 99-иш, 135-варақ.
[54] Boxodirov I. Turkiston harbiy okrugining o‘lkada mustamlakachilik tizimini mustahkamlashdagi faoliyati (1867–1917-yy.): Tarix fanlari bo‘yicha fals. dokt. (PhD) diss... avtoref. – Toshkent, 2023. 13-bet.

таъсирида сақлаб туриш, бошқа давлатларнинг Туркистонга бўладиган даъволарига қарши тура олиш учун ўлканинг ўзида марказлашган ҳарбий бошқарув ва мунтазам қўшинга эҳтиёж сезган. Шуларни инобатга олиб 1867 йил 13 июлдаги Александр II нинг 44844-сонли буйруғига биноан алоҳида Туркистон Ҳарбий Округи ташкил этилди. Ҳарбий Округ ташкил этилган вақтда қуролли кучлар таркибида 13 та баталён, 30 та казаклар юзлиги, артиллерия бригадаси, сапёрлар ротаси, 5 та ҳарбий кема мавжуд бўлиб, уларнинг ўзак қисми (10 та баталён) Сирдарё вилоятида жойлашган эди. Сирдарёдаги қўшинлар таркиби 1869 йил 17506 нафар ҳарбийдан иборат эди: пиёдалар 258 та офицер, 12138 та оддий аскар, отлиқлар 89 та офицер, 4693 та казак, Орол флотида 8 та офицер ва 320 та аскар хизмат қилган[55].

1879 йилга келиб Туркистон ҳарбий округи қўшинлари сони XIX асрдаги энг катта миқдорга етади. Шу йили округда 25 та баталён, Оренбург, Сибир, Еттисув, Урал казакларининг 8 та полки ва 88 та артиллерия тўплари мавжуд бўлиб, уларнинг таркибида 47 867 та ҳарбий: 1402 та офицер ва 46 465 нафар аскарлар хизмат қилган. XIX асрнинг 80-йилларида Туркистондаги ҳарбийлар миқдори камайиб бориб 1887 йил 30012, 1889 йил 27484 нафарга тушиб қолади. 1896 йилга келиб Туркистон ҳарбий округида 1 та ўқчи ва 3 та линия бригадаси, 5 та кадр баталёнлари, 5 та маҳаллий команда, 1 та сапёр баталёни, 4 та казаклар полки, 9 та артиллерия батареяси, 4 та қалъа артиллерия роталари мавжуд эди[56]. Ҳарбийларнинг кўпайиши ўз навбатида генерал-губернаторлик давлат бюджетининг катта қисмини ҳарбий ишларга сарфаланишига сабаб бўлди. Буни империянинг бошқа давлат органларига нисбатдан ҳарбий вазирликка ажратилган маблағлар мисолида ҳам кўриш мумкин.

Империянинг ўлкадаги ҳарбий соҳага ажратган харажатлари нафақат Туркистоннни босиб олиш даврида балки ундан кейинги йилларда юқорилигича қолган. Бу жиҳатни Россия империяси Туркистонни ўз таркибида ушлаб туриш учун доимий шай ҳарбий вазиятда туришга мажбур бўлганлиги билан изоҳлаш мумкин.

Генерал-губернаторликнинг бўйсундириш ва ҳарбий бошқарув аппарати харажатлари 40 йил давомида яъни 1868 йилдан 1913 йилга қадар 80% дан юқори эди (1881–1886 йиллар бўйича маълумотлар

[55] ЎзМА, И.1396-фонд, 2-рўйхат, 6-иш, 233-варақ.
[56] ЎзМА, И.1396-фонд, 2-рўйхат, 293-иш, 15-17-варақлар.

мавжуд эмас). Фақатгина 1902–1905 йиллар давомида 60% дан кам маблағ ажратилган. Бошқармага ажратилган мағбалағларнинг камайишига асосий сабаб темир йўл қурилишига, ҳарбий-стратегик иншоотларни бунёд этилишига маблағ ажратилиши билан изоҳлаш мумкин. Таққослаш учун генерал-губернаторлик харажатларининг 90 % ҳарбий харажатлар билан қўшиб хисобланса, сўнгги йиллардаги зўровонлик, бостириш ва эксплутация аппаратига тўғри келади. Яна шуни эътиборга олиш зарурки, империя марказий маъмурияти Туркистон генерал губернаторлигида ўлкани бошқаришни ҳарбий бошлиқлар қўлига топширган эди.

Қўшинларнинг таъминот ишларини бошқарувчи ҳарбий идоралар, подшоҳлик қўшинлари, Ўрта Осиё темир йўл полиция бошқармалари ва бошқаларни таъминлаш учун сарфланадиган пул маблағлари 1903 йилда 4.853.830 рублни, 1914 йилда эса 8.888.827 рублни ташкил этиб, аввалги кўрсаткичдан деярли икки баробар ошиб кетган[57]. Бу кўрсаткичлар ўлкада империя ҳукуматининг барқарорлиги ва хавфсизлигини таъминлаш учун маҳаллий солиқ тўловчилар ҳисобидан йирик пул маблағлари сарфланганидан дарак беради. Мустамлака Туркистон ҳудудини қамраб олган маъмурий-полиция маҳкамаларини таъминлаш учун ажратилган пул ва махсус маблағлар айланмаси юқоридаги маблағлардан ҳам анча юқори бўлиб, 1903 йилда 95.144.330 рублни ташкил этган[58].

1886 йил Туркистон ўлкасини бошқариш тўғрисида Низом қабул қилиниб, Низомга кўра, ўлка бошқаруви император томонидан тайинланган ва лавозимидан озод этилган генерал-губернатор бўйсунадиган Ҳарбий вазирликнинг юрисдикцияси остида қолдирилди. Шу муносабат билан 2-Давлат Думаси бюджет комиссияси ҳисоботи лойиҳасида шундай дейилган эди: “бу бой ҳудуд Россияга қўшилганига ўнлаб йиллар ўтди ва у ҳозиргача ҳарбий бошқарув асосида бошқарилмоқда”[59]. Туркистон ўлкасининг ҳарбий вазирликда бўлган муддатининг ўзи ҳам бу бошқарув тизимининг муваффақиятсизлигидан далолат беради[60]. Империя ҳукуматининг Туркистондаги

[57] ЎзМА, И.88-фонд, 1-рўйхат, 203-иш, 16-варақ.
[58] ЎзМА, И.88-фонд, 1-рўйхат, 203-иш, 20-варақ.
[59] Логанов Г. Россия в Средней Азии / Вопросы колонизации: периодический сборник / под ред. Г.Ф.Чиркина и Н.А.Гаврилова. – № 4. – 1909. – С. 35.
[60] Мерьяхине Г. Бюджет и национальный вопрос в СССР. – М: Госфиниздат, 1939. – С. 11.

мустамлакачилик сиёсати унинг умумий харажатлари ҳажми ва динамикасида ҳам яққол кўзга ташланиб туради.

Toshkent-qadimiy gilamdagi naqsh kabi tarixi son-sanoqsiz iplardan to‘qilgan shahar. Vohada, birinchi navbatda Buyuk Ipak yo‘lining qudratli savdo yo‘llari chorrahasida joylashgan bo‘lib, u asrlar davomida xalqlar uchun magnit bo‘lib xizmat qilgan, ularning har biri o‘zining madaniy va etnik qiyofasida o‘chmas iz qoldirgan. Ushbu ko‘p asrlik migratsiya va madaniy almashinuv jarayoni bugungi kunda O‘zbekistonning tashrif qog‘ozlaridan biri bo‘lgan noyob etnik mozaikani shakllantirdi.

Etnik mozaikaning tarixiy shakllanishi: So‘g‘diyonadan to hozirgi kungacha Toshkentning etnik xilma-xilligining ildizlari qadimgi davrlarga borib taqaladi[61]. So‘g‘diyona davrida ham hozirgi Toshkent hududida viloyat tarixida yorqin iz qoldirgan mohir savdogarlar va hunarmandlar – so‘g‘diyliklar yashagan. Ularga turli turkiy qabilalar, shuningdek, Eron tilida so‘zlashadigan guruhlar qo‘shilib, murakkab va dinamik etnik rasmni yaratdilar. O‘rta asrlar Islomning tarqalishi bilan bog‘liq Arab madaniyatining kirib kelishi va arxitektura, adabiyot va san‘atda namoyon bo‘lgan fors ta‘siri bilan ajralib turardi. XIII asrdagi mo‘g‘ullar istilosi, vayronagarchilik bilan birga bo‘lsa-da, yana bir o‘zgarishlarni amalga oshirdi, ammo ular aholining etnik tarkibini boyitdi. Rossiya imperiyasi va keyinchalik Sovet Ittifoqi davrida migratsiya jarayonlari yangi miqyosga ega bo‘ldi.

Toshkent vohasiga Rossiya imperiyasining turli mintaqalaridan: ruslar, ukrainlar, tatarlar, yahudiylar, nemislar, polyaklar – har bir xalq o‘z urf-odatlari, urf-odatlari va kasbiy mahoratini olib keldi. Stalin repressiyalari yillarida deportatsiya qilingan koreyslarning ko‘chib ketishi ham muhim edi. Migratsiyaning har bir to‘lqini, sabablaridan qat‘i nazar, bugungi kunda biz ko‘rib turgan noyob etnik landshaftni qurishda g‘ishtga aylandi[62].

Zamonaviy etnik xilma-xillik: bugungi kunda Toshkent 100 dan ortiq millat vakillari tinch-totuv yashaydigan chinakam kosmopolit shahar. O‘zbeklar ko‘pchilikni tashkil qiladi, ammo ruslar, qozoqlar, tatarlar, koreyslar, tojiklar, uyg‘urlar va boshqa ko‘plab etnik guruhlar shahar hayotida muhim rol o‘ynaydi. Qoraqalpoqlar, qirg‘izlar va Markaziy Osiyoning boshqa xalqlari vakillarining sezilarli ishtirokini ta‘kidlash lozim. Ushbu xilma-xillik jonli gastronomik madaniyatda, ko‘p tilli muhitda va boy madaniy merosda aks etgan. Madaniy xilma-xillikni saqlash va rivojlantirish uchun ko‘plab

[61] Абдуллаева, Г. Ш. Ўзбекистонда этник ва конфессионал таркиб: тарих ва замонавийлик. — Тошкент: Фан, 2018.
[62] Коженов, К. К. Этнические процессы в Центральной Азии в XX веке. — Алматы: Атамура, 2005.

milliy-madaniy markazlar faoliyat koʻrsatmoqda, ularda turli etnik guruhlar vakillari oʻz tillari, urf-odatlari va urf-odatlarini saqlab, targʻib qiladilar, festivallar, kontsertlar va koʻrgazmalar tashkil qiladilar. Masalan, Koreya madaniyat markazi xattotlik va anʻanaviy raqslar boʻyicha mahorat darslari oʻtkazadi, rus drama teatri esa M. Gorkiy aholini klassik rus adabiyoti asarlari bilan quvontiradi[63].

Millatlararo munosabatlar va ijtimoiy integratsiya: barqarorlik poydevori Toshkent muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biri millatlararo bagʻrikenglikning yuqori darajasidir. Bunda millatlararo totuvlik va madaniy xilma-xillikka hurmatni mustahkamlashga qaratilgan Oʻzbekiston davlat siyosati katta rol oʻynaydi. Turli etnik guruhlar shaharning ijtimoiy, madaniy va siyosiy hayotida faol ishtirok etib, uning rivojlanishi va gullab-yashnashiga hissa qoʻshadilar [64]. Davlat organlarida, biznes tuzilmalarida va taʻlim muassasalarida turli millat vakillarining mavjudligi ushbu integratsiyaning yorqin tasdigʻidir. Shu bilan birga, shuni ham taʻkidlash kerakki, madaniy xilma-xillikni saqlash davlat va jamiyat tomonidan ksenofobiya va kamsitishning har qanday namoyon boʻlishining oldini olishga qaratilgan doimiy harakat va eʻtiborni talab qiladi[65].

Xulosa qilib aytganda Toshkentning etnik xilma-xilligi nafaqat statistik fakt, balki koʻp asrlik tarixning jonli guvohligi, turli madaniyatlarning oʻzaro taʻsiri va birga yashashi natijasidir. Asrlar davomida toʻqilgan bu noyob etnik "gilam" bagʻrikenglik, oʻzaro tushunish va madaniy boylikning ramziga aylandi. Zamonaviy Oʻzbekistonda ushbu merosni asrab-avaylash va rivojlantirish nafaqat tinchlik va barqarorlik uchun mustahkam asos, balki taraqqiyotning kuchli dvigateli boʻlib xizmat qilib, madaniy taraqqiyotga va dunyoning turli burchaklaridan koʻp millatli Toshkentning oʻziga xos atmosferasiga tegmoqchi boʻlgan sayyohlarni mamlakatga jalb etishga yordam beradi.

Adabiyotlar roʻyxati:

1. Абдуллаева, Г. Ш. *Ўзбекистонда этник ва конфессионал таркиб: тарих ва замонавийлик*. — Тошкент: Фан, 2018.

[63] Karimov, I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. — T.: Ma’naviyat, 2008.
[64] Баҳрамов, Ш. Н. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва фуқаролик жамияти. — Т.: Иқтисод-фаровонлик, 2019.
[65] Юлдошев, С. Т. Тошкент шаҳрида этник гуруҳларнинг ижтимоий интеграцияси масалалари. // «Ижтимоий фикр» журнали, №3, 2022.

2. Коженов, К. К. *Этнические процессы в Центральной Азии в XX веке*. — Алматы: Атамура, 2005.

3. Karimov, I. A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. — T.: Ma'naviyat, 2008.

4. Баҳрамов, Ш. Н. *Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва фуқаролик жамияти*. — Т.: Иқтисод-фаровонлик, 2019.

5. Юлдошев, С. Т. *Тошкент шаҳрида этник гуруҳларнинг ижтимоий интеграцияси масалалари*. // «Ижтимоий фикр» журнали, №3, 2022.

XXI ASRDA TOSHKENT

Ismoilov Narzulla Tolliboyevich
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish (tarix)
mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: XXI asrda Toshkent – O'zbekiston Respublikasining poytaxti sifatida – jadal rivojlanayotgan, zamonaviy infratuzilmaga ega bo'lgan yirik siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ilmiy markazga aylangan.

Quyida XXI asrda Toshkentning asosiy rivojlanish yo'nalishlari va o'zgarishlari haqida umumiy ma'lumot beriladi. Bundan tashqari bugungi Toshkentda olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar, uning infratuzilmasi, strukturasi va shaharning aholisi haqida batafsil ma'lumotlar beriladi.

Toshkent – O'zbekiston poytaxti, Markaziy Osiyodagi eng yirik shahar. Toshkent, O'zbekistonning ko'plab shaharlari singari, qadimiy shahardir. Uning yoshi 2000 yildan oshadi. Yozma manbalarda Toshkent tarixi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Bu joy mahalliy talaffuzga ko'ra Choch deb nomlangan. Asosiy shahar Choch, ya'ni Chochkent yoki Shoshkent deb nomlangan. Keyinchalik bu so'zning ma'nosi o'zgardi va Toshkentga aylandi. 20-asrning boshlarida shahar o'zgara boshladi, chunki o'ziga xos "Yangi shahar" barpo etildi. Toshkent ikki – eski va yangi qismlarga bo'lindi. [66]Biroq 1940-yilga kelib, rejalashtirish loyihasi tuzilib, unga ko'ra, shaharning ikki qismini birlashtirish ko'zda tutilgandi. Qayta qurish ishlari natijasida rivojlangan infratuzilmaga ega bo'lgan ixcham hudud yuzaga keldi. Shahar obodonlashtirildi, taassurot qoldiradigan me'moriy inshootlar, xozirgi kungacha ko'rish mumkin bo'lgan xiyobonlar, istirohat bog'lari barpo etildi.

[66] **uzbekistan.travel**›uz/o/toshkent-tarixi 10.08.2022 yil 1-5 bet

So‘nggi yillarda Toshkent yangilanish va qayta qurishni boshdan kechirdi. Bugungi Toshkent – bu qadimiy va boy tarixga ega zamonaviy industrial va iqtisodiy megapolisdir.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha Davlat dasturiga muvofiq, «Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash» yilida poytaxt ma’muriyatiga Toshkent shahrining qadimiy 12 ta darvozasini tiklash va turizm namoyishi obyektlariga kiritish choralarini ko‘rish topshirilgan.

Toshkent shahar hokimligining raqamli rivojlanish departamenti poytaxt uchun geografik axborot tizimini yaratish ustida ish olib bormoqda. Ushbu tizimning asosini zamonaviy va arxiv xaritalari tashkil etadi. Shu sababli, bo‘lim mutaxassislari eski Toshkentni o‘rganib, shaharning turli yillardagi xaritalarini taqqoslashmoqda.[67]

2021 yilgi davlat dasturiga muvofiq, 12 ta darvoza tarixiy ko‘rinishlari asosida qayta tiklanishi lozim. Dastavval buni amalga oshirish juda murakkab ko‘rinar edi, chunki ilgari ularning joylashuvi 1890 yilgi xaritalarga asoslanilgan. Biroq bu paytda devorning katta qismi va darvozalar buzib tashlangan edi. [68]

Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroporti (O'zbek: Islom Karimov Toshkent Xalqaro Aeroporti – (IATA: TAS, ICAO: UTTT)) asosiy xalqaro aeroport hisoblanadi O'zbekiston va Markaziy Osiyodagi eng gavjum aeroport (keyin) Olmaota xalqaro aeroporti va Nursulton Nazarboyev nomidagi xalqaro aeroport yilda Qozog'iston). U markazidan 12 km (7,5 milya) masofada joylashgan Toshkent. Ushbu ICAO II toifali aeroporti asosiy hisoblanadi markaz ning "O'zbekiston havo yo'llari", va O'zbekistondagi eng yirik xalqaro aeroport va Markaziy Osiyodagi eng gavjum aeroport hisoblanadi. Aeroport ikkita terminaldan iborat: Terminal 2 xalqaro reyslarni qabul qiladi, Terminal 3 ichki trafik uchun mo'ljallangan.[2]

Terminal 2 2001 yilda qayta qurilgan, 2018 yilda esa rekonstruksiya ishlari yakunlangan. Soatiga 1000 yo'lovchini o'tkazish imkoniyatiga ega va yiliga ikki milliondan ziyod yo'lovchiga xizmat ko'rsatmoqda. Boshqa imkoniyatlarga kutish zallari, CIP va VIP zallari, restoran va barlar, valyuta ayirboshlash shoxobchalari, boj olinmaydigan do'konlar, aviakompaniyalarning chiptaxonalari va savdo ofislari va 24 soatlik dorixona

2.https://lex.uz/docs/-3107036[67] PF-4947son 07.02.2017

[68] *"Toshkent tarixi: xronologik jadval". Toshkent shahar hokimligi. Olingan 15 aprel 2013.*

kiradi. Terminal maksimal quvvatlarda ishlaydi; kelgan yo'lovchilar bojxona va immigratsiya rasmiyatchiliklarini bajarish uchun o'rtacha ikki soat vaqt sarflaydilar.

Terminal 3 soatiga 400 yo'lovchini o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lgan 2011 yilda ochilgan. Ikki terminal uchish-qo'nish yo'lagi bilan ajratilgan bo'lib, xalqaro yo'lovchilardan ichki reyslarga o'tayotgan yo'lovchilarni va aksincha, ular o'rtasida o'tish uchun aeroportdan chiqishni talab qiladi.

O'zbekiston hukumati 2030 yilga qadar Toshkent aeroportini yangi joyga ko'chirishni rejalashtirmoqda.[69]

Shahar infratuzilmasi va arxitekturasi

- Yangi turar joy majmualari: "Toshkent City", "Yangi O‘zbekiston" massivi kabi zamonaviy hududlar qurildi. Toshkent City – biznes markaz, mehmonxonalar, ofislar va yashash joylarini birlashtirgan mega-loyiha.
- Yo‘l-transport tizimi: metro tarmoqlari kengaytirildi. 2020-yilda yangi yer usti metropoliteni (YUM) liniyasi ishga tushdi. Avtobus, elektrobus va taksilar yangilanmoqda.
- Ekologiya va yashil hududlar: "Yashil makon" loyihasi doirasida millionlab daraxtlar ekilmoqda.

Ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish

- Texnoparklar va IT markazlar: Toshkentda bir nechta texnoparklar ochildi. IT Park Toshkent – yoshlar uchun startap va texnologiya sohalarida muhim markazga aylandi.
- Universitetlar: MDH, Yevropa va Osiyoning nufuzli universitetlari filiallari (Misol: MGIMO, INHA, Turin politexnika universiteti, Webster University) ochildi.
- Tadbirkorlik: kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash orqali iqtisodiyotda faol o‘sish kuzatildi.

Madaniyat va turizm

- Tarixiy obidalar va zamonaviy markazlar: Amir Temur maydoni, Mustaqillik maydoni, Hazrati Imom majmuasi va boshqa joylar restavratsiya qilindi.
- Konsertlar, teatrlar va festivallar: Toshkent xalqaro kinofestivali, moda haftaliklari va musiqa tadbirlari muntazam o‘tkazilmoqda.
- Turizm: zamonaviy mehmonxonalar va servislar tufayli Toshkent xorijiy sayyohlar uchun yanada jozibador bo‘lmoqda.

Xavfsizlik va raqamlashtirish

[69] *UzDaily.com*. 2012 yil 23-iyul. Arxivlandi asl nusxasidan 2016 yil 3 aprelda. Olingan 23 iyul 2012.

- “Raqamli Toshkent” konsepsiyasi doirasida ko‘plab davlat xizmatlari onlayn shaklga o‘tkazilmoqda.
- Videokuzatuv tizimlari va “Safe City” loyihasi orqali shahar xavfsizligi oshirilmoqda.

Xulosa o’rnida aytish mumkinki, XXI asrda Toshkent – o‘zining tarixiy merosini saqlagan holda, zamonaviylik sari jadal rivojlanayotgan poytaxtga aylandi. Shahar infratuzilmasi, transport tizimi, axborot texnologiyalari, ta’lim va madaniyat sohalarida sezilarli yutuqlarga erishdi. Toshkent nafaqat O‘zbekistonning, balki Markaziy Osiyoning eng muhim siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri sifatida mustahkam o‘rin egalladi.

Raqamli texnologiyalar, yashil tashabbuslar va xalqaro hamkorliklar orqali Toshkent global shaharlarga xos rivojlanish yo‘lidan bormoqda. Shu bilan birga, u milliy an’analarni va tarixiy obidalarni asrab-avaylab, o‘ziga xoslikni saqlab qolmoqda.

ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1.uzbekistan.travel›uz/o/toshkent-tarixi 10.08.2022 yil 1-5 bet

2.https://lex.uz/docs/-3107036 PF-4947son 07.02.2017

3.*"Toshkent tarixi: xronologik jadval". Toshkent shahar hokimligi. Olingan 15 aprel 2013.*

4. UzDaily.com. 2012 yil 23-iyul. Arxivlandi asl nusxasidan 2016 yil 3 aprelda. Olingan 23 iyul 2012

“BOBIYLAR QO’ZG’ALONI”

Ismoilov Narzulla Tolliboyevich
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o’qitish (tarix)
mutaxassisligi magistranti
Ilmiy rahbar: Maxmudov Oybek Anvarovich

Annotatsiya: Bu maqolada XIX asrda Eronda yuz bergan eng yirik qo’zg’alonlardan biri haqida ma’lumotga ega bo’lib qolmasdan, balki Eron davlatining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayoti haqida ma’lumotlar beriladi. Bundan tashqari Eronda qo’zg’alon oqibatida minglab odamlar qatl etilishi, Akko shahrining egallanishi, bobiylik ta’limotiga oid mazhablar haqida ma’lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: Bob, Sheyx Tabarsi qal'asi, Neyriz va Zanjon qo'zg'olonlari, Muhammad Ali va Mulla Husayn, Bahoiy E'tiqodi, Isfaxon, Kirmonshoh, Bag'dod, Damashq, Bayrut shaharlari

Bobiylik (Bobiya E'tiqodi ham deyiladi; forscha: بابیه) – 1844 yilda Bob (Ali Muhammad) tomonidan asos solingan din. Payg'ambar bo'lgan Eronlik savdogar, yagona, anglab bo'lmas Xudoning mavjudligi va U o'z irodasini cheksiz izchillikda keladigan Ilohiy Mazharlar orqali namoyon etishini o'rgatgan. U zamonaviy davrga kelib, Bahoiy E'tiqodi shaklida saqlanib qolgan bo'lib, Bobiylarning aksariyati bora-bora unga o'tganlar. [70]U zamonaviy davrga kelib, Bahoiy E'tiqodi shaklida saqlanib qolgan bo'lib, Bobiylarning aksariyati bora-bora unga o'tganlar. Uning idorasida kechgan xizmat davri qisqa va notinch bo'lib, Tabrizda ommaviy qatl qilinishi, hamda 19-asrda Eron harbiylarining eng qonli harakatlaridan bo'lishi mumkin bo'lgan, Bobning minglab izdoshlarini o'ldirgan qirg'in kampaniyasi bilan yakunlandi[71].

Uning xizmati davomida uning unvon va da'volari ko'p evolyutsiyaga uchradi, chunki Bob o'z ta'limotlarini progressiv tarzda bayon qildi.

"Bobiylik harakati... o'n to'qqizinchi asrning o'rtalaridagi Eron uchun dinlararo totuvlikni, jinslar orasidagi ijtimoiy tenglikni, hamda inqilobiy anti-monarxizmni targ'ib etuvchi ijtimoiy taraqqiyotning muhim katalizatoriga [aylandi]. Bobiylik, o'zida qadimiy Eronni, ya'ni yettinchi asrdan boshlab, Islomning asosiy o'qimiga qarshi masihchilikni ko'paytirib kelgan Eronni aks ettirdi.

Vaholanki, yangi harakat, Eronning yangilanish va o'zgarishlarga qarshiligining samarasi o'laroq kelib chiqdi va Bobiylik harakati sekyularizm, internatsionalizm va urushni rad qilishga asoslangan zamonaviy qarashni taqdim etdi. Aynan mana shu qarash, uni o'n to'qqizinchi asrning oxirida Bobiylikdan vujudga kelgan Bahoiylik tariqasida bugunga qadar tirik qolishga qodir etdiki, u o'z ichiga 5 million jonlik jamoa va joylarni qamraydi, bu esa, uni O'rta Sharq modernizatsiyasi haqidagi har qanday qissaga kiritilishga haqli etadi.

Bobiylar va hokimiyat o'rtasidagi to'qnashuvlardan birinchisi va eng tanilgani Mozandaron shahrida, Barfarushdan (zamonaviy Babol) 22 kilometr janubi-sharqda joylashgan Shayx Tabarsiy ziyoratgohida sodir bo'lgan. 1848

[70] de Bellaigue, Christopher (2018). *The Islamic Enlightenment: The Modern Struggle Between Faith and Reason*. London: Vintage. ISBN 978-0-099-57870-3.
[71] de Bellaigue, Christopher (2018). *The Islamic Enlightenment: The Modern Struggle Between Faith and Reason*. London: Vintage. ISBN 978-0-099-57870-3.

yilning oktyabridan 1849 yilning mayigacha Quddus va Mulla Husayn boshchiligidagi 300 ga yaqin bobiylar (keyinchalik 600 ga ko'tariladi) shahzoda Mahdi Quli Mirzo qo'mondonligi ostida mahalliy qishloq aholisi va shoh qo'shinlari a'zolari hujumlaridan o'zlarini himoya qildilar. Ular o'lim va ochlik tufayli zaiflashganidan so'ng, xavfsizlik to'g'risida yolg'on va'dalar orqali bo'ysundirilgan va o'ldirilgan yoki qullikka sotilgan. Eron shimoli-g‘arbidagi Zanjondagi Ali Mardanxon qal’asidagi qo‘zg‘olon barcha to‘qnashuvlar ichida eng shiddatlisi bo‘ldi. Unga Mulla Muhammad Ali Zanjoniy boshchilik qilgan, u Hujjat deb atalgan va u ham yetti-sakkiz oy (1850 yil may – 1851 yil yanvar) davom etgan. Shahardagi diniy ulamolardan biri Bobiy harakatiga qo'shilganidan keyin shahardagi Bobiylar jamoasi 3000 ga yaqin ko'paydi. Mojarodan oldin yetakchi islom ruhoniylari va yangi ko‘tarilgan Babi rahbariyati o‘rtasida yillar davomida kuchayib borayotgan keskinlik kuzatildi. Shahar gubernatori shaharni ikki qismga bo'lishni buyurdi, shundan so'ng tez orada harbiy harakatlar boshlanadi. Bobiylar ko‘p sonli muntazam qo‘shinlarga qarshilik ko‘rsatdilar va bir necha ming bobiylarning o‘limiga sabab bo‘ldilar. Hujjat o‘ldirilib, Bobiylar soni sezilarli darajada kamaygach, 1851-yil yanvarida bobiylar taslim bo‘lib, armiya tomonidan qirg‘in qilingan. [72]

Bobiylik harakati tez orada siyosiy tus oldi va bir nechta qurolli qo‘zg‘olonlarga sabab bo‘ldi. Ularning eng mashhurlari:

-Sheyx Tabarsi qal'asi qo‘zg‘oloni (1848–1849) – Bobiylar Mazandaron viloyatidagi qal’aga to‘planib, hukumat kuchlariga qarshi 11 oy davomida qarshilik ko‘rsatgan.

-Neyriz va Zanjon qo‘zg‘olonlari (1850–1851) – Bu hududlarda ham bobiylar bosh ko‘targan, ammo Eron hukumat kuchlari tomonidan qattiq bostirilgan.

-Bobning qatl etilishi (1850) – Qo‘zg‘olonlar davomida, Bobning o‘zi Tabriz shahrida otib o‘ldirilgan[73].

Qo’zg’alonning oqibatlari:

- Qo‘zg‘olonlar shafqatsiz bostirildi, minglab bobiylar qatl etildi.

- Bu voqealardan so‘ng bobiylik harakati yer ostiga o‘tdi va keyinchalik Bahoi dinining shakllanishiga asos bo‘ldi (Bahoulloh tomonidan).

- Bobiylar qo‘zg‘oloni Eron jamiyatida diniy erkinlik, ayollar huquqlari va ijtimoiy islohotlar haqidagi munozaralarni boshlab berdi.

[72] Smith, Peter. *An introduction to the Baha'i faith*. Cambridge; New York: Cambridge University Press, 2008 — 13-bet

[73] R. FARMONOV, U.JO‘RAYÅV, SH. ERGASHEV 8-sinf Jahon tarixi 145-bet Toshkent-2019 yil

Ma’lumot o’rnida aytish mumkinki, Bobiylar qo‘zg‘oloni 19-asrning o‘rtalarida Eron hududida yuz bergan eng muhim diniy-siyosiy harakatlardan biridir. Bu harakat Sayyid Ali Muhammad (Bob) tomonidan boshlangan bo‘lib, uning asosiy maqsadi islom dinini yangilash, ijtimoiy adolat o‘rnatish va xalqni nodonlikdan xalos etish edi. Harakatning tez ommalashuvi, ayniqsa, ijtimoiy tenglik, ayollar huquqlarini kengaytirish va din erkinligi kabi g‘oyalari, mavjud Eron jamiyatidagi ruhoniylar va hukmron sinf manfaatlariga zid edi.

Bu sababli, bobiylarning faoliyati hukumat va dini doiralar tomonidan tahdid sifatida baholandi. Ularning qurolli qo‘zg‘olonlari — xususan, Sheyx Tabarsi qal’asidagi himoya janglari, Neyriz va Zanjondagi qarshiliklar — nafaqat diniy, balki siyosiy tusga ega bo‘lib bordi. Bobiylarning o‘z e’tiqodlarini himoya qilish yo‘lida jon fido qilishlari, ularning harakatiga chin dildan ishonishlarini ko‘rsatadi.

Ammo, boshqa tomondan, hukumat va dini rahbarlar bunday harakatni tartibsizlik va diniy bo‘linishga olib keluvchi tahdid deb bilgan. Ular bu harakatni bostirish orqali mavjud tuzumni saqlab qolishga harakat qildilar. Bu qarama-qarshilik oqibatida minglab bobiylar o‘ldirildi, Bob esa 1850-yilda qatl etildi.

Muhokamaga sabab bo‘luvchi asosiy savol shuki: Bobiylar harakati Eron jamiyatiga foyda keltirdimi yoki xavf solganmi? Bu savolga javob biryoqlama bo‘lishi qiyin. Bir tomondan, ular zamonaviylik, tenglik, inson huquqlari g‘oyalarini ilgari surib, Eron jamiyatida yangicha fikrlash asoslarini yaratdi. Boshqa tomondan esa, diniy barqarorlikka tahdid sifatida ko‘rilib, jiddiy ixtilof va qon to‘kilishiga sabab bo‘ldi.

Xulosa: Bobiylar qo‘zg‘oloni – bu Eron tarixidagi diniy islohot va ijtimoiy adolat uchun bo‘lgan harakatlardan biri bo‘lib, u ilgari surilgan g‘oyalar tufayli keng ijtimoiy qatlamlarni qamrab oldi. Harakat oxir-oqibatda shafqatsiz bostirildi, ammo u Eron jamiyatida islohotlar va yangi diniy harakatlar (jumladan, Bahoiylik) paydo bo‘lishiga zamin yaratdi. Bobiylarning qarshiligi va fidoyiligi Eronning siyosiy va diniy tarixida muhim o‘rin egallaydi. Qo‘zg‘olonning eng asosiy sababi diniy ta’sir va siyosiy zulmga qarshi norozilik edi. U milliy uyg‘onish va xalq ongining o‘sishida muhim bosqich bo‘ldi.

Bobiylar qo‘zg‘oloni Eron tarixida faqat diniy harakat emas, balki ijtimoiy va siyosiy islohotlar sari tashlangan muhim qadamlardan biri sifatida qadrlanadi. Ularning merosi keyinchalik Bahoi dini shakllanishiga olib keldi va

bugungi kunda ham dini erkinlik, ijtimoiy tenglik haqidagi muhokamalarda eslanib kelinadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1.de Bellaigue, Christopher (2018). *The Islamic Enlightenment: The Modern Struggle Between Faith and Reason*. London: Vintage. ISBN 978-0-099-57870-3.

2.de Bellaigue, Christopher (2018). *The Islamic Enlightenment: The Modern Struggle Between Faith and Reason*. London: Vintage. ISBN 978-0-099-57870-3.

3.Smith, Peter. *An introduction to the Baha'i faith*. Cambridge; New York: Cambridge University Press, 2008 — 13-bet

4.R. FARMONOV, U.JO'RAYÅV, SH. ERGASHEV 8-sinf Jahon tarixi 145-bet Toshkent-2019 yil

XI-XV ASRLARDA ROSSIYA

Ismoilov Samandar Abdukarimovich
Chirchiq Davlat pedagogika universiteti talabasi
ismoilovsamandar913@gmail.com
Ilmiy Rahbar: Toshtemirov Akram Mengli o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqolada 11–15-asrlarda Rossiya tarixining asosiy bosqichlari yoritilgan. Unda Kievan Rus davlati davridan boshlab uning inqirozi, mo'g'ullar bosqini va Oltin O'rda hukmronligi, shuningdek, Moskva knyazligining kuchayishi va markazlashgan davlatning shakllanish jarayonlari tahlil qilingan. Tarixiy voqealar orqali Rossiyaning siyosiy, diniy va madaniy o'zgarishlari chuqur tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Rossiya tarixi, Kievan Rus, mo'g'ullar bosqini, Oltin O'rda, Moskva knyazligi, markazlashuv, Ivan III

I. Kievan Rus davlati va uning inqirozi (XI-XII asrlar)

XI-XII asrlar Rossiya tarixida Kievan Rus davlati markaziy o'rinni egallagan davr hisoblanadi. Bu davrda hozirgi Rossiya, Ukraina va Belarus hududlarini o'z ichiga olgan yirik davlat shakllangan bo'lib, uning siyosiy va madaniy markazi Kiev shahri edi. Kievan Rus Vizantiya imperiyasi bilan aloqalar o'rnatib, pravoslavlikni qabul qilgan (988-yil), bu esa butun slav xalqlarining keyingi tarixiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda ichki siyosiy barqarorlik bilan birga, tashqi savdo, madaniyat va din rivojlandi. Ammo XI asr oxiri va XII asr boshlarida Kievan Rus ichki nizolar, meros uchun kurashlar

va feodallar orasidagi qarama-qarshiliklar sababli zaiflashib bordi. Rus yerlarining feodal bo‘linishi kuchaydi. Bu davrda Vladimir-Suzdal, Novgorod, Smolensk, G‘arbiy Galitsiya kabi alohida knyazliklar mustaqil siyosat yurita boshladi.

Kievan Rus davlati tarqalayotgan bir paytda, tashqi tahdidlar kuchaya bordi. Ayniqsa, XII asrda polovets (qo‘ng‘irot) qabilalari hujumlari rus yerlariga xavf tug‘dirdi. Ularning bostirib kirishlari Kievan Rus birligini saqlab qolishga imkon bermadi. Shunday qilib, XII asr oxiriga kelib Kievan Rus markazlashgan davlat sifatida o‘z faoliyatini yakunladi va hududlar mustaqil knyazliklarga parchalanib ketdi.

II. Mo‘g‘ullar bosqini va Oltin O‘rda hukmronligi (XIII asr)

XIII asr Rossiya tarixida mo‘g‘ullar bosqini va uning og‘ir oqibatlari bilan ajralib turadi. 1237–1240-yillar oralig‘ida Botuxon boshchiligidagi mo‘g‘ul qo‘shinlari rus knyazliklariga bostirib kirdi. Ryazan, Vladimir, Suzdal, Kiev kabi yirik shaharlari vayron qilindi, aholi qirg‘in qilindi va davlatlar tazyiqqa uchradi. Bu istilo natijasida rus yerlarining siyosiy mustaqilligi yakun topdi.

1243-yilda rus knyazliklari Oltin O‘rda tarkibiga kiritildi. Mo‘g‘ul xonlari rus knyazlaridan soliq olib turdi, ularni tasdiqlash huquqiga ega bo‘ldi. Rus yerlarida "yasak" – ya’ni mo‘g‘ullarga soliq yig‘ish tizimi joriy etildi. Knyazlar o‘z hukmronligini davom ettira olgan bo‘lsalar-da, ular mo‘g‘ullarning ruxsatisiz siyosiy qarorlar qabul qila olmasdilar.

Bu davrda rus xalqi juda katta talafot ko‘rdi. Ko‘plab shaharlarda iqtisodiy hayot izdan chiqdi, aholi soni kamaydi, madaniyat orqaga ketdi. Biroq, ayni vaqtda bu bosqinchilik rus knyazliklari o‘rtasida birlashishga, mustaqillikka intilishga kuchli turtki bo‘ldi. Xususan, Moskva knyazligi bu vaziyatdan foydalanib, o‘z mavqeini kuchaytirishga intila boshladi.

III. Moskvaning kuchayishi va markazlashgan davlat sari qadamlar (XIV-XV asrlar)

XIV-XV asrlar Rossiya tarixida Moskva knyazligining kuchayishi va mustaqil, markazlashgan rus davlati asosining yaratilishi bilan ajralib turadi. Bu davrda Oltin O‘rda ta’sirining asta-sekin pasayishi, ichki siyosiy birlashuvlar va kuchli markazga intilish Moskvaning siyosiy yetakchiligini mustahkamladi.

Moskva knyazligi boshqa rus knyazliklari orasida quyidagi sabablarga ko‘ra ajralib turgan:

- Geografik joylashuv: Moskva necha yo‘lning chorrahasida joylashgan bo‘lib, savdo va aloqa uchun qulay edi.

- Diniy markaz: 1325-yilda pravoslav cherkovi bosh sobori Vladimirdan Moskvaga koʻchirilgach, Moskva diniy markazga aylandi.

- Siyosiy mahorat: Ivan Kalita va uning vorislari moʻgʻullarga yaqinlik qilib, Oltin Oʻrda ishonchini qozondilar.

- Soliq yigʻish huquqi: Ivan Kalita Moskvaga Oltin Oʻrda nomidan soliq yigʻish vakolatini oldi.

Ivan III (1462–1505) davrida Moskva knyazligi haqiqiy markazlashgan davlatga aylanish sari jiddiy qadamlar qoʻydi. U Novgorodni (1478), Tverni (1485) boʻysundirdi, 1480-yilda Oltin Oʻrdaga boʻysunishni tugatdi (Ugra voqeasi). Ivan III oʻzini "tsar" deb atab, Rossiyani Vizantiya merosxoʻri sifatida koʻrsata boshladi. Bu davrda markazlashgan boshqaruv tizimi, yagona soliqlar va harbiy islohotlar orqali Rossiya kuchli davlat sifatida shakllandi.

IV. Xulosa va XI-XV asrlar Rossiyasi tarixining umumiy bahosi

XI-XV asrlar Rossiya tarixida muhim burilishlarga boy, chuqur siyosiy va madaniy jarayonlar bilan toʻla davr boʻldi. Bu asrlar davomida dastlabki parokanda rus knyazliklari mustaqil markazlashgan davlat sari asta-sekin yoʻl oldi. Tarixiy voqealar, urushlar, tashqi bosqinlar, diniy va iqtisodiy omillar Rossiya taraqqiyotining asosiy yoʻnalishlarini belgilab berdi.

Kievan Rus davlati oʻzining diniy va madaniy merosi bilan Rossiyaning shakllanishiga poydevor boʻldi. Moʻgʻul bosqini rus yerlarining zaiflashishiga olib keldi, ammo ularni birlashishga undadi. Moskva knyazligi esa bu imkoniyatdan foydalanib, markazlashgan va mustaqil Rossiya davlatining asosini yaratdi. Bu davrda boshlangan tarixiy jarayonlar keyinchalik Rossiyaning Buyuk davlatchilik davriga kirishiga yoʻl ochdi. Xalqning sabr-toqati, birlashuv ruhi, diniy e'tiqodi va mustaqillikka intilishi tufayli Rossiya oʻz tarixining yangi bosqichiga dadil kirib bordi.

FOYDALANILGAN ADABIYORTLAR RO'YXATI:

1. Фроянов И.Я. “Древняя Русь: Города, замки, святилища”. — СПб: Алетейя, 1995.

2. Vernadsky G. “The Mongols and Russia”. — Yale University Press, 1953.

3. Martin J. “Medieval Russia: 980–1584”. — Cambridge University Press, 2007.

4. Платонов С.Ф. “Лекции по русской истории”. — М.: Наука, 1993.

5. Хрусталев Д.Г. “Русские земли в XIII–XIV веках: От нашествия до «собирания»”. — М.: Евразия, 2003.

O‘ZBEKISTON–ISPANIYA MUNOSABATLARI: IQTISODIY HAMKORLIK VA MADANIY ALMANAX (1991–2024)

Ismoilova Sevinch Akmaljon qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Tarix yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston va Ispaniya qirolligi o‘rtasida olib borgan hamkorliklar hamda uning rivojlanishi haqida ma’lumotlar berilgan. Ispaniya va O‘zbekiston o‘rtasidagi hamkorliklarning istiqboliga ham to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Hamkorlik, qo‘shma korxonalar,ta’lim, madaniyat, do‘stlik markazi, turizm.

O‘zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorlik qilishida Yevropaning imkoniyatlari milliy manfaatlarimiz nuqtai nazaridan muhimdir. Yevropa va butun g‘arb yuksak texnologiyalar va investitsiyalar manbaidir, hozirgi zamon demokratiya va inson huquqlari ramzidir. Yevropa ittiqfoqi tarkibiga kiruvchi davlatlardan biri bu Ispaniya qirolligidir. O‘zbekiston va Ispaniya davlatlari o‘rtasidagi hamkorlikning ildizlari uzoq davrlarga borib taqaladi. Sharq va G‘arb davlatlari o‘rtasidagi diplomatik aloqalar rivoji Amir Temur va temuriylar davrida o‘ziga xos va takomil bosqichiga kirganligi bilan ajralib turadi. O‘sha davrda Yevropaning yirik davlatlaridan biri – Ispaniya bilan hamkorlik aloqalari keng yo‘lga qo‘yilganligini ta’kidlash o‘rinlidir[1]. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, O`zbekiston va Ispaniya hamkorligidagi asosiy e`tibor o`zaro savdo-iqtisodiy, madaniy va ta`lim sohalaridagi tajribalarni o`rganishga qaratilgan. Bu mamlakat o‘tgan asrning 90-yillaridayoq O‘zbekiston bilan iqtisodiy, madaniy va diplomatik aloqalarni o‘rnatgan hamda, rivojlantirib kelayotgan davlatlardan biridir[2].

Ispaniyaning to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya jalb qilish bo‘yicha jahon mamlakatlari ichida 4-o‘rinda (AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiyadan keyin), YeI mamlakatlari ichida esa 5-o‘rinni egallaganligi uning ulkan salohiyatli davlat ekanligidan dalolat beradi[3]. Evropani Afrika qit’asi bilan bog‘lovchi hududda joylashgan Ispaniya Qirolligi nafaqat jug‘rofiy qulayligi, balki iqtisodiy salohiyati, savdo va sayyohlik sohalaridagi imkoniyatlari jihatdan ham jahonda yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Darhaqiqat, davlati Ispaniya qirolligi bilan diplomatiya munosabatlarini 1992 yilda o‘rnatdi[4].

Ikki davlat hamkorlik aloqlari dastlabki yillarda biroz sust rivojlandi, shunga qaramay mamlakatimizda 50 ga yaqin kichik va o`rta hamkor korxonalar faoliyati yo`lga qo`yildi. Hozirgi paytda mamlakatimiz Ispaniyaga paxta tolasi, gazlama, kalava ip eksport qilsa, u yurtdan elektronika va mexanika asbob - uskunalari, doridarmon, qora metallar, tezyurar poezd, plastmassa, keramika mahsulotlari sotib oladi[5]. Mamlakatimizda O‘zbekiston va Ispaniya ishbilarmonlari tomonidan ikki tomonlama hamkorlikka asoslangan 1990-yil sentabrda “Mediz” zavodi hissadorlik korxonasi maqomida ro‘yxatga olindi. 1991-yil oktabrida esa o‘z faoliyatini boshladi. “Mediz” korxonasi bir marta ishlatiladigan shiprislar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. 1992-1995 yillar mobaynida korxona 1221,0 million so‘mlik 293 million dona va 1996 yilning oxirigacha 66,4 million so‘mlik 35,1 million dona shiprist ishlab chiqaradi. U zamonaviy texnika va texnologiya, Ispaniyada o‘qigan, malakasi oshirilgan mutaxasislar bilan ta’minlangan. Qo‘shma korxona shipristlar ishlab chiqarish bo‘yicha faqat O‘zbekistondagina emas,balki butun Markaziy Osiyoda yagonadir[6]. 1995-yilda Navoiy viloyatida Ispaniyaning "Nevokat" S. L. firmasi bilan hamkorlikda "Qizilqumtsement" ochiq aksiyadorlik jamiyati shaklidagi o‘zbekispan qo‘shma korxonasi ham tashkil etilgan[7]. Ispaniyaning yana bir firmasi “Industrial Texnologika Laynteks Veterani S. A. ” 1995 yili Toshkentda o‘z vakolatxonasini ochdi[8]. Shuningdek, firma Samarqanddagi to‘qimachilik fabrikasiga sarmoya kiritdi. “Buxoro viloyatida suv ta’minotini yaxshilash” loyihasini amalga oshirish haqidagi hukumat qarorini hayotga tadbiq etishga ham ispaniyalik ishbilarmonlar bilan oqilona hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. Ispaniyaning “Sosete jenral” hamda Asaka banklari o‘rtasida 2002 yil 28 avgustidan 8,7 mln. yevro mablag‘ ajratilgan loyiha ish boshladi. Bu loyiha Buxoro viloyati “Suvoqava” boshqarmasi tomonidan shu sohadagi islohotlarga ko‘maklashish ko‘zda tutilgan. Bundan tashqari Ispaniyaning “Degremon Medio Ambente S. A. ” kompaniyasi bilan suv nasoslari va suv taqsimlash hamda laboratoriya o‘quv moslamalari yetkazib berish bo‘yicha shartnoma imzolangan edi[9]. Bundan tashqari O‘zbekistonda “Texkominvest” (savdo), “Maxam Central Asia” (kimyo sanoati), “Balkan Eksport Import Asia” (qurilish materiallari ishlab chiqarish), “Maxam Uzbekistan” (kimyo sanoati) kabi qator O‘zbekiston – Ispaniya qo‘shma korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda. Tashqi iqtisodiy aloqlar, investitsiyalar va savdo vazirligida Ispaniyaning “Preparado Alimenticios” (oziq - ovqat sanoati), “Atlas Consorcio” (muqobil energiya texnologiyalari) singari yirik kompaniyalarining vakolatxonalari akkreditatsiyadan o‘tib faoliyat

yuritmoqda[10]. Mamlakatimiz Ispaniya bilan nafaqat iqtisodiy, balki ilm-fan sohasida ham salmoqli aloqalarni yo‘lga qo‘ygan. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Fizika-texnika instituti Madrid Avtonom va Barselona Avtonom universitetlari o‘rtasida hamda elektronika instituti Ispaniyaning Alikante shahri universiteti va Madriddagi Komplutense universiteti bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatgan[11]. Ikki davlatlar o‘rtasida ta’lim sohasidagi hamkorlik aloqalarini 1999 yildan Toshkent irrigatsiya va meloratsiya instituti bilan Kataloniya politexnika universiteti o‘rtasidagi hamkorlik aloqalarida ko‘rish mumkin. Bu aloqalar tobora rivojlanib bormoqda[12]. Ayniqsa, O‘zbekiston Davlat jahon tillari universitetining ispan tili fakulteti tomonlar o‘rtasidagi hamkorlik aloqalarining rivojlanishida muhim omil bo‘lmoqda. Ispaniyaning Madrid, Granada, Alkala de Enares va Malaga universitetlarning salohiyatli professor – o‘qituvchilari O‘zDJTUda samarali tarzda faoliyat ko‘rsatishmoqda. Shu bilan birga ikki mamlakat madaniyati va ta’lim tizimini qiyosiy o‘rganish borasida darslik hamda turli adabiyotlarni ayriboshlashga kelishib olingan. Chunonchi, 1998 yili mamlakatimizda ispan tili va madantiyati markazi tashkil qilindi[13]. Madaniy aloqalarning rivojlanishi ikki davlat o‘ratsidagi do‘stlik aloqlarini yanada mustahkamlaydi. 2000-yilda yilda “Klavixo-Amir Temur” Ispaniya-O‘zbekiston do‘stlik uyushmasi tuzilgan. Mazkur uyushma bilan hamkorlikda 2004 yili Toshkent va Samarqand shaharlarida Amir Temur davlati bilan Ispaniya Qirolligi o‘rtasida diplomatiya munosabatlari o‘rnatilganining 600 yilligiga bag‘ishlangan tadbirlar bo‘lib o‘tdi, Barselonada Zahiriddin Muhammad Boburning mashhur “Boburnoma” asari ispan tilida nashr qilindi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Ispaniya hamda O‘zbekiston mamlakatlari asrlar davomida dunyo hamjamiyatini qiziqtirib kelgan. Davlatlar o‘rtasidagi teng sheriklik asosidagi hamkorlik har ikkala tomon uchun istiqbol eshiklarini ochmoqda va umumiy istiqbolli taraqqiyot uchun omil bo‘lib xizmat qilaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1]. МИД РУз // Сел и задачи внешнеполитического курса Узбекистана. http: // www. mfa. uz

[2]. МИД РУз // Сотрудничество Республики Узбекистан со странами Европы. http: // www. mfa. Uz

[3]. Аникеева Н. Е. Испания в конце XX – начале XXI века // Новая и новейшая история. – Москва, 2006. – № 2. – С. 70–83.

[4]. Qadimiy do‘stlikning yangi qirralari // Xalq so‘zi. 2003 yil. 30 yanvar.

[5]. Qadimiy do‘stlikning yangi qirralari // Xalq so‘zi. 2003 yil. - 30 yanvar.

[6]. Ўзбекистон ҳудудлари мустақиллик йилларида. /[Муаллифлар гуруҳи О. О. Олимжонов (раҳбар) ва бошқалар.]- Т.; “Шарқ”, 1996. 127 бет

[7].Ўз МДА. Фонд – м -37, рўйхат – 1, жилд – 1169.

[8]. Qit’alar tutashgan mamlakat // Ishonch. 2003 yil. 5 fevral.

[9]. МИД РУз // Сотрудничество Республики Узбекистан со странами Европы. Узбекско-испанские отношения. Сотрудничество в торговоэкономической сфере. http: // www. mfa. uz.

[10]. Islom Karimovning Madriddagi muzokaralari // Xalq so‘zi. 2009 yil. 28 may.

[11]. O‘sha joyda.

XIX – XX ASRLARDA TOSHKENT VOHASI: ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA YONDASHUVLAR

Isroilova Sarvinoz Ro‘zimurod qizi
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
1- bosqich talabasi
Ilmiy raxbar: Parmonov Sharofiddin Shavkatovich

Annotatsiya: Mazkur maqolada XIX–XX asrlarda Toshkent vohasining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy rivojlanish jarayonlari zamonaviy tarixiy tadqiqotlar va metodologik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Vohadagi shahar va qishloq hayotidagi o‘zgarishlar, rus imperiyasi va sovet davridagi islohotlar, urbanizatsiya, irrigatsiya tizimlari, shuningdek, etnografik va arxeologik topilmalar asosida ilmiy-nazariy mulohazalar yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Toshkent vohasi, XIX asr, XX asr, zamonaviy tadqiqotlar, urbanizatsiya, irrigatsiya, etnografiya, tarixiy yondashuvlar.

Toshkent vohasining XIX asrdagi holati va rus mustamlakachiligi ta’siri 1865-yilda Toshkentning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi. Harbiy-grajdanskiy boshqaruv va uning vohadagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta’siri. Yangi inshootlar, temiryo‘l, sug‘orish tizimlarining qurilishi. Mahalliy boshqaruv tizimining o‘zgarishi. Sovet davridagi transformatsiyalar (XX asr)

1920–1930-yillardagi agrar islohotlar, kollektivlashtirish va uning oqibatlari. Urbanizatsiya jarayoni: yangi shaharlar va sanoat markazlarining paydo boʻlishi (Chirchiq, Yangiyoʻl, Bekobod). Demografik oʻzgarishlar: koʻchishlar, deportatsiyalar va xalq tarkibidagi diversifikatsiya. Toshkent vohasi tarixini oʻrganishdagi zamonaviy metodologik yondashuvlar Tarixiy geografiya: yer resurslari, ekotizimlar va aholi joylashuvi tahlili. Arxeologiya: hozirgi kunda olib borilayotgan qazishmalar (Salor, Qovunchi, Achisoy). Etnografiya: xalq urf-odatlari, madaniy oʻziga xoslikni saqlab qolish. Digital tarix: xaritalash, GIS tizimlar va arxiv hujjatlarini raqamlashtirish. Tarixiy-komparativ metod: Toshkent vohasi bilan boshqa vohalarni qiyosiy tahlil qilish. Ilmiy tadqiqotlarning asosiy natijalari va muammolari Toshkent vohasiga doir arxiv materiallarining toʻliq oʻrganilmasligi. Mahalliy tarixiy maktablarning rivojlanish ehtiyoji. Zamonaviy tarixiy tadqiqotlarda xalqaro hamkorlikning roli. XIX asrda Toshkent vohasining holati va rus mustamlakachiligi ta’siri XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasining Oʻrta Osiyoga bosqinchiligi boshlangan edi. 1865-yilda Toshkent shahri rus qoʻshinlari tomonidan bosib olindi. Bu voqea Toshkent vohasi tarixida burilish nuqtasi boʻldi. Mustamlaka siyosati natijasida vohada bir qancha oʻzgarishlar sodir boʻldi. Avvalo, ruslar Toshkent shahrida yangi shahar – “yangi rus shahri”ni barpo etdilar. Bu hududda zamonaviy inshootlar, harbiy garnizonlar, rasmiy idoralar qurildi. Bu shahar bilan qadimiy “eski shahar” birgalikda yashay boshladi.

Natijada ikki turdagi boshqaruv, ikki xil madaniyat va ijtimoiy qatlamlar shakllandi. Rus mustamlakachiligi agrar islohotlarni amalga oshirdi, ammo ular mahalliy aholining manfaatlarini koʻzlamasdan, koʻproq Rossiyaning geosiyosiy va iqtisodiy manfaatlariga xizmat qilardi. Sugʻorish tizimlariga e’tibor qaratildi. Eski an’anaviy ariqlarni yangilash, yangi suv yoʻllarini ochish orqali vohaning qishloq xoʻjaligi salohiyati oshirildi. Shu bilan birga, koʻplab yerlar rus muhojirlariga berildi, bu esa mahalliy yer egaligiga salbiy ta’sir qildi.

XX asr boshlarida Toshkent vohasida urbanizatsiya va ijtimoiy oʻzgarishlar XX asr boshlarida, ayniqsa 1917-yilgi fevral va oktyabr inqiloblaridan soʻng, Toshkent vohasi tubdan siyosiy va ijtimoiy oʻzgarishlarga yuz tutdi. Sovet hokimiyatining qaror topishi bilan hududda yangi ijtimoiy tuzum oʻrnatila boshlandi. 1920-yillarda agrar islohotlar, 1930-yillarda esa majburiy kollektivlashtirish jarayonlari amalga oshirildi. Bu davrda dehqonlar koʻp hollarda oʻz yerlari va hayvonlaridan mahrum boʻldi, koʻchishlar va qarshilik harakatlari yuzaga keldi.

Sanoatlashuv siyosati natijasida Toshkent vohasi tez sur'atlarda urbanizatsiyalashdi. Chirchiq, Bekobod, Olmaliq kabi yangi sanoat shaharlari vujudga keldi. Bu shaharlar sovet iqtisodiy siyosatining markazlariga aylandi. Vohada neftni qayta ishlash, kimyo, mashinasozlik, yengil sanoat kabi sohalar rivojlandi. Ayniqsa, II jahon urushi yillarida bu shaharlar evakuatsiya qilingan sanoat korxonalari bilan to'ldirildi va strategik ahamiyat kasb etdi. Demografik o'zgarishlar ham muhim o'rin egallaydi. Turli mintaqalardan ko'chirilgan xalqlar – koreyslar, nemislar, qrim tatarlar va boshqalar Toshkent vohasida joylashtirildi. Bu esa vohaning etnik tarkibini o'zgartirdi, ko'p madaniyatli muhit vujudga keldi.

Zamonaviy metodologik yondashuvlar orqali Toshkent vohasini o'rganish Toshkent vohasi bo'yicha olib borilayotgan zamonaviy tadqiqotlar ko'p jihatdan multidisiplinar xususiyat kasb etmoqda. Quyidagi yondashuvlar e'tiborga loyiqdir: Tarixiy geografik tahlil Tarixiy xaritalar, GIS texnologiyalari yordamida vohaning rivojlanish dinamikasini o'rganish mumkin bo'ldi. Yer egaligi, sug'orish tarmoqlari, aholi punktlarining tarqalishi bugungi kunda aniqroq tasvirlana boshladi. Bu metod orqali hududning ekologik holati va antropogen bosimlar ham tahlil qilinmoqda.

Arxeologik yondashuv So'nggi yillarda vohada arxeologik tadqiqotlar kuchaymoqda. Salor, Qovunchi, Achisoy, Mingtepa kabi yodgorliklarda olib borilgan qazishmalar Toshkent vohasining qadimgi tarixini yoritishda muhim rol o'ynamoqda. XIX–XX asrga oid yangi topilmalar vohaning o'tmishiga yangi qarashlar olib keldi. Etnografik va madaniy tahlil Mahalliy aholi turmush tarzi, urf-odatlari, to'y va motam marosimlari, kiyinish uslublari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar Toshkent vohasining madaniy rang-barangligini ochib beradi.

XX asr davomida yuz bergan madaniy o'zgarishlar, sovet mafkurasi ta'siri, lekin shunga qaramay mahalliy an'analar saqlanib qolganligi o'rganilmoqda. Raqamli tarix (Digital History) Hozirgi kunda raqamlashtirish orqali arxiv hujjatlari ommaga taqdim etilmoqda. Online platformalar orqali Toshkent vohasiga oid qadimiy xaritalar, statistik ma'lumotlar, fotosuratlar tahlil qilinmoqda. Bu, ayniqsa, yoshlarga tarixni o'rganishda qulaylik yaratmoqda. Qiyosiy tahlil Toshkent vohasi boshqa O'rta Osiyo vohalari – Farg'ona, Zarafshon, Qashqadaryo vohalari bilan qiyoslab o'rganilmoqda. Bu yondashuv orqali vohaning ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishidagi o'ziga xoslik va umumiy jihatlar aniqlanmoqda.

Tadqiqotlarda uchrayotgan muammolar va istiqbollar Toshkent vohasining tarixini o‘rganishda bir qancha muammolar mavjud. Ulardan eng asosiylari: Arxiv materiallarining hali to‘liq o‘rganilmaganligi; Mahalliy tarixiy tadqiqotchilar faoliyatining yetarlicha moliyalashtirilmasligi; Sovet davrida siyosiy sabablarga ko‘ra soxtalashtirilgan manbalarni ajratib olish zarurati; Qishloq hududlarida arxeologik tekshiruvlarning sustligi. Shunga qaramay, istiqbollar ijobiy. So‘nggi yillarda yosh tadqiqotchilar soni ortib bormoqda, xalqaro grantlar jalb qilinmoqda. Toshkent vohasi tarixi bo‘yicha yangi dissertatsiyalar, monografiyalar va ilmiy maqolalar paydo bo‘lmoqda. Universitetlar bilan hamkorlikda ekspeditsiyalar tashkil etilmoqda.

Xulosa. XIX–XX asrlarda Toshkent vohasi chuqur tarixiy o‘zgarishlarga yuz tutdi. Rus imperiyasi tomonidan bosib olinishi, mustamlaka siyosati, sovet tuzumining joriy qilinishi, sanoatlashtirish va urbanizatsiya jarayonlari vohaning siyosiy-iqtisodiy va madaniy tuzilmasini tubdan o‘zgartirdi. Bu o‘zgarishlar o‘z navbatida mahalliy aholining turmush tarziga, ijtimoiy munosabatlariga, madaniy xotirasiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Zamonaviy tarixshunoslikda bu jarayonlarga baho berishda ko‘p tarmoqli va metodologik yondashuvlar muhim rol o‘ynayapti. Arxeologik, etnografik, geografik va raqamli manbalar asosida Toshkent vohasining tarixiy taraqqiyoti chuqurroq anglanmoqda. Bugungi kunda bu vohaning o‘tmishini tahlil qilish nafaqat tarixiy bilimni boyitadi, balki uning barqaror rivojlanishi uchun asosiy ilmiy poydevor hamdir. Shu boisdan, Toshkent vohasining XIX–XX asrlardagi taraqqiyotini zamonaviy yondashuvlar bilan o‘rganish, tarixiy haqiqatlarni yuzaga chiqarish va ilmiy jamoatchilikka taqdim etish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Арипов Ш. Ташкентская оазис в XIX веке. – Ташкент: Фан, 1998.

2. Рахимов Р. История Ташкента: от древности до современности. – Ташкент: Шарқ, 2015.

3. Абдукаримов А. Советизация Средней Азии. – Самарканд, 2002.

4. Вахабов А. Ташкент и его округа: археология и история. – Ташкент: Akademnashr, 2020.

5. Niyazov B. “Urban Processes in Tashkent Oasis in the 20th Century.” // Journal of Central Asian Studies, 2019, №3.

6. Жамолов Ж. Ўзбекистонда демографик ўзгаришлар (XX аср). – Тошкент, 2007.

TOSHKENTNI QO’QON XONLIGI TOMONIDAN BOSIB OLINISHI

Jalilova Fotima Akram qizi
Chirchiq davlat pedogogika Universiteti 1-bosquch talabasi
Ilmiy raxbar:Parmonov Sharofiddin

Annotatsiya:Mazkur davr Toshkent tarixida Muhammad Ali xon boshchiligidagi siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar bilan ajralib turadi. 1789-1804-yillar oralig'ida Toshkentda Muhammad Ali xonning hukmronligi davom etdi. U shaharning ijtimoiy, madaniy va siyosiy hayotida sezilarli o'zgarishlarni amalga oshirdi. Uning davrida Toshkentning mustahkamlanishi va rivojlanishi davom etdi, xususan, uning iqtisodiy va savdo aloqalari kengaydi. Muhammad Ali xonning Toshkentni boshqarishi,Shayboniylar sulolasining tugaganidan keyin yangi davrning boshlanishiga olib keldi. Toshkentning nafaqat mahalliy, balki mintaqaviy siyosatda ham o'rni oshdi. Ushbu davrda Toshkentning markaziy Osiyo hududidagi rolini o'rganish, shaharning o'sha davrdagi siyosiy ahamiyatini yanada chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Kalit so'zlar: siyosiy raqobat, kuchli hukumat, kuchli hukumat, Toshkent taqdiri, iqtisodiy, ijtimoiy tizim.

Toshkent davlati (1784—1809)

1799-yilda Qo‘qon qo‘shinlari Toshkentni qamal qildi, ammo toshkentliklarning kuchli zarbasiga uchrab orqaga qaytdi. Toshkent davlati tashqi kuchlar, ayniqsa, Qo‘qon xonlari tazyiqida bo‘lsada, 20 yildan ziyod umr ko‘rdi. Toshkent davlati markazlashgan davlat sifatida bo‘lib, uning ma’muriyatini „voliy viloyat“ lavozimi bilan Yunusxo‘ja boshqardi. Keyinroq Yunusxo‘ja „Xazrati Eshon“ unvonini olib, ayni paytda „xon“ deb ham yuritildi. Yunusxo‘ja huzurida tuzilgan „xon kengashi“ga 4 daha mingboshilari, oqsoqollari va boshqalar kiritilgan. Kengashda, asosan, daha va ulus boshqaruvi hamda harbiy masalalar muhokama etilib bir yechimga kelingan. Davlatning ichki va tashqi siyosatini devonbegi, qozi va raislar amalga oshirganlar. O‘ta jiddiy masalalar: o‘g‘irlik, qotillik va boshqalarni Yunusxo‘janing o‘zi hal etib, aybdorga tegishli jazo berilgan. Qotillarga esa o‘lim jazosi qo‘llangan.

Xorijiy davlatlar bilan diplomatik aloqalarni ham Yunusxo‘janing o‘zi olib borgan. Anhorning o‘ng tarafida xon farmoni bilan baland va qalin devor o‘ralgan O‘rda, ya’ni davlat mahkamasi bino qilingan. Unda Yunusxonning qarorgohi va devonxonadan tashqari zarbxona joylashgan. O‘rdani qo‘riqlash

va muhofaza etish uchun 2 ming kishilik maxsus harbiy qism („qoraqozon“) tashkil etilgan.

Toshkentlik tarixchi Muhammad Solihning ma’lumotiga ko‘ra, otaliq - devonbegi lavozimiga Rustamto‘ra, parvonachi lavozimiga Odilto‘ra, bosh harbiy amir lavozimiga Sarimsoqto‘ra, qo‘shin boshlig‘i lavozimiga Boboxonto‘ralar tayinlangan. Davlatning moliya ishlari bilan boshchixo‘ja shug‘ullangan. U ichki va tashqi savdo ishlarini nazorat qilgan.

Yunusxon shimolda Toshkentga tutashgan Dashti Qipchoq xududini ham tasarrufiga olib, aholisiga ziddiyatli vaqtlarda zaruriy sondagi lashkar to‘plab berish majburiyatini yuklagan. Chimkent va Sayram shaharlari, keyinchalik Turkiston shahri ham Toshkent davlati tarkibiga kiritilgan. Niyozbek, Oltintepa, Kirrabuloq, Sarapon, Temir mavzelari va boshqa o‘nlab qishloqlar Toshkentga tobe bo‘lgan.

1800-yilda Toshkent davlatining chegarasi janubiy va g‘arbdan Sirdaryo bo‘ylab, shimoldan Turkiston va Qoratog‘ yon bag‘irlari orqali o‘tgan. Sharqda Sayram tizmasi va Ugom daryosining o‘ng sohili, janubiy sharqda Chatqol Qurama tog‘ tizmalarini yoqalab Sangir qishlog‘igacha cho‘zilgan. Uning shimoliy va g‘arbiy hududlarida, asosan, chorvador ko‘chmanchi aholi yashagan. 1797-yil ma’lumotlariga qaraganda, barcha soliq va majburiyatlardan ozod, yer va suv bilan ta’minlangan 2 ming doimiy qoraqozondan tashqari Yunusxon ixtiyorida 50—70 ming atrofida lashkar bo‘lgan. Maxsus guruxlardan tuzilgan qoraqozon va lashkar navkarlari piltali miltiq, o‘qyoy, qilich va qalqon bilan qurollangan. Yunusxon qo‘shinida 20 ga yaqin to‘p bo‘lgan. O‘qlar asosan, Toshkentning o‘zida O‘qchi mahallasida quyilgan.

Toshkentning ikki ming yillik tarixi davomida o‘rni almashdi, hududi ham kengayib bordi va undagi aholi joylashuvi kichik ma’muriy qismlar — mahallalar shaklini olgan. Mahallalar, odatda, kattakichik ko‘chalar, ariq yoki jarlik kabi tabiiy to‘siqlar orqali chegaralangan hamda jamoa bo‘lib yashash zaruriyati yoki kasbkori, ijtimoiy holati, etnik tarkibi kabi belgilari asosida shakllangan.

Qadimgi va o‘rta asr Toshkent mahallalari haqida yozma ma’lumot juda oz. Toshkent hududida 9-asrdagi shahar — Binkat (11-asrdan Toshkent)ning keyingi asrlarda kengayib borishi bilan unda mahallalar soni ham ko‘payib borgan va bulardan ba’zilarining nomlari yozma manbalarda uchraydi.

18-asrga kelib Toshkent ma’muriy hududiy jixatdan 4 qism -dahalariga bo‘lingan. Dahalar o‘z navbatida bir qancha mahalla va guzarlardan tashkil

topgan; dahalarda mahallalar soni va ularning kattakichikligi turlicha bo‘lgan. Ba’zi yirik mahallalar bir nom bilan atalsa ham uning keyinroq paydo bo‘lgan qismlari tartib raqami bilan (mas., 1, 2, 3, 4Eshonguzar) yoki hududiga qarab atalgan (mas., Katta Kamolon va Kichik Kamolon). Aholi soni o‘sgan sayin mahallalar kengaygan yoki yangilari paydo bo‘lgan. Mahalla ma’muriy holati jihatdan o‘z ichki tartibqoidalariga ega jamoa tashkiloti sanalgan va uni mahalla aholisi tomonidan saylangan boshliq (oqsoqol) boshqargan, 20-asr boshlariga kelib ular yuzboshi mavqeida ko‘rilgan. Oqsoqollarga mahallaning jamoat ishlari, marosimlari, yig‘inlarini boshqarish hamda manfaatlarini himoya qilish vakolati berilgan.

Xulosa 1784–1809 yillar oralig‘ida mavjud bo‘lgan Toshkent davlati — o‘z davrida siyosiy mustaqillikka intilgan va mahalliy boshqaruv tizimini mustahkamlashga uringan hududiy tuzilma sifatida tarixda muhim o‘rin egallaydi. Yunusxo‘ja hokimligi davrida bu davlat ichki barqarorlik va tashqi xavfsizlikni ta'minlashga harakat qilgan, Toshkentni mintaqaning iqtisodiy va siyosiy markazlaridan biriga aylantirishga intilgan. Biroq ichki ziddiyatlar va tashqi bosimlar natijasida bu davlat uzoq yashay olmadi. Shunga qaramay, Toshkent davlati o‘z davridagi o‘ziga xos siyosiy tajriba sifatida O‘rta Osiyo tarixida alohida ahamiyatga ega bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Bartold V.V. – "Turkiston tarixi"

Ushbu asarda Markaziy Osiyo, jumladan, Qo‘qon va Toshkent tarixi chuqur yoritilgan

2. Ahmadali Asqar – "Qo‘qon xonligi tarixi"

Qo‘qon xonligining tashkil topishi, siyosiy va harbiy yurishlari, jumladan, Toshkentni egallashi haqida ma’lumotlar mavjud

3. Abdurahmon Tashkandiy – "Tarixi jadidayi Toshkand"

4. Jo‘rayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010. – 312 b.

4. Habibullaev B. Iqtisodiyot nazariyasi. – Toshkent: Sharq, 2018. – 284

5. Muminov N. Pedagogika asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 198.

6. Shoniyozov K. O‘zbek xalqining kelib chiqishi tarixi. – Toshkent: Fan, 2001. – 226 b.

O‘ZBEKISTON TARIXINING DOLZARB MASALALARI

Jalolova Munisa Ulug‘bek qizi
ChDPU Tarix yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Tarix kafedrasi dotsenti
t.f.f.d. (PhD) Sh.B. Jumayeva

Annotatsiya: Ushbu ilmiy ezisda O‘zbekiston tarixining zamonaviy bosqichida dolzarb bo‘lib turgan masalalar tahlil qilinadi. Jumladan, tarixiy xotirani tiklash, mustaqillik davrining siyosiy-huquqiy o‘zgarishlari, milliy o‘zlikni anglash, arxiv va manbashunoslikdagi muammolar, shuningdek, tarixiy obyektlarni asrash va targ‘ib qilish masalalari yoritiladi. Maqola tarixshunoslikda mavjud ilmiy qarashlar va rasmiy siyosat asosida tayyorlangan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston tarixi, dolzarb masalalar, tarixiy xotira, mustaqillik, milliy o‘zlik, arxiv siyosati.

O‘zbekiston tarixshunosligi mustaqillik yillarida yangi bosqichga qadam qo‘ydi. Tarixiy voqealarning tahlili endi mafkuraviy yondashuvlardan xoli, mustaqil, ilmiy asosda olib borilmoqda. Biroq hali ham dolzarb bo‘lib turgan bir qator muammolar mavjud. Bu masalalarni ochiq va tizimli yoritish, tarix fanining nafaqat ilmiy, balki ijtimoiy hayotdagi rolini kuchaytiradi. Sovet davrida buzib ko‘rsatilgan tarixiy haqiqatlarni tiklash dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Jumladan, jadidchilik harakati, 1937–1938 yillardagi qatag‘onlar, mustamlaka siyosati oqibatlari, xalqning azaliy qadriyatlari, diniy va madaniy merosi haqida aniq, hujjatli asosdagi tadqiqotlar yetarli darajada olib borilishi lozim. 1991-yildan boshlab O‘zbekistonning mustaqil davlat sifatida shakllanishi, Konstitutsiyaning qabul qilinishi, davlat ramzlarining joriy etilishi, siyosiy partiyalar va fuqarolik jamiyatining paydo bo‘lishi — bularning barchasi tarixshunoslikda chuqur tahlil etilishi zarur bo‘lgan dolzarb mavzulardandir. Yoshlar orasida milliy identitetni shakllantirish, tarixiy shaxslar va qadriyatlar asosida milliy g‘urur va yuksak ma’naviyatni tarbiyalash zarurati dolzarb bo‘lib qolmoqda. Bobur, Temur, Beruniy, Ibn Sino kabi siymolarni to‘g‘ri yoritish — tarixshunoslikning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. O‘zbekiston arxivlarida hali ham ochilmagan, yoki cheklovda qolayotgan ko‘plab tarixiy manbalar mavjud. Shu bilan birga, mavjud manbalarni raqamlashtirish, xalqaro ilmiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish zarurati

kundalik tarixiy tadqiqotlar samaradorligini oshiradi. Tarixiy obidalar va yodgorliklar faqat restavratsiya emas, balki ularning mohiyatini tushuntirish orqali targ‘ib qilinishi kerak. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz singari shaharlarning madaniy boyligi nafaqat turizm uchun, balki milliy o‘zlikni anglashda ham muhim ahamiyatga ega.

Xulosa: O‘zbekiston tarixining dolzarb masalalari bugungi kunda tarixshunoslar, siyosatchilar, ziyolilar va keng jamoatchilik e’tiborida bo‘lishi lozim. Tarixiy xotirani tiklash orqali biz millatning o‘tmishdagi xatolarini anglab, kelajak uchun saboq chiqaramiz. Mustaqillik yillaridagi o‘zgarishlarni ilmiy asosda o‘rganish esa, O‘zbekistonning davlat sifatida qanday shakllanganini anglash imkonini beradi. Milliy o‘zlikni mustahkamlash yosh avlod tarbiyasida muhim rol o‘ynaydi, bu esa tarix fanining ijtimoiy-ma’naviy vazifasini belgilab beradi. Arxivlarni ochish, raqamlashtirish, xalqaro ilmiy hamkorlikni kengaytirish tarixiy haqiqatni tiklashga xizmat qiladi. Tarixiy obidalarni nafaqat saqlash, balki ularni anglash va ulardan ma’naviy saboq chiqarish milliy yuksalishning negizidir. Shu bois, tarixshunoslik faqat o‘tmishni emas, balki kelajakni barpo etish vositasidir. O‘zbekiston tarixini dolzarb nuqtai nazardan o‘rganish, uni yangicha yondashuvlar bilan tahlil qilish — bu fanning taraqqiyoti va jamiyatning o‘z tarixiga bo‘lgan munosabatini shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. “O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat” — T.: O‘zbekiston, 1999.

2. “O‘zbekiston tarixi” (I–IV jildlar) — T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2014.

3. To‘ychiyev S. “O‘zbek davlatchiligi tarixidan” — T.: Sharq, 2020.

4. Abdurahmonova G. “Tarixiy xotira va mustaqillik” — T.: Akademnashr, 2018.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror va farmonlari (lex.uz portali)

6. www.arxiv.uz, www.history.uz, www.samarkandtourism.uz

CHIRCHIQ SHAXRI TARIXI BUGUNI VA ISTIQBOLLARI.

Jarbolov Serikbolsin Baybosin o‘g’li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Tarix yo’nalishi talabasi
Ilmiy rahbar: Tarix kafedrasi. dotsenti, t.f.f.d. (PhD) Sh.B Jumayeva

Anotatsiya: Mazkur maxolada Chirchiq shaxrining vujudga kelishi, uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, hayoti, siyosiy holati va madaniy merosi haqida fikr yuritiladi. Yozma manbalar asosida hududnig turli bosqichlardagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit sozlar: Chirchiq shaxri, daryosi, madaniy hayoti, Chirchiq shaxri muzeyi, "Ozbekximmash", korxonalar.

Chirchiq — Toshkent viloyatidagi shahar. Chirchiqdaryosining o‘ng sohilida, Qorjontovning yon bag‘rida, 730 m balandlikda, Toshkentdan 30 km shim.sharqda joylashgan. Chirchiq” so'zi o'zbek tilida “quturgan” degan ma’noni bildiradi – Chirchiq daryosi aynan shunaqa qudratli va bo'ysunmas hisoblanadi, shaxar nomi ham aynan ushbu atama bilan bogliqligini aytib otishimiz joiz . Shaxrining doimiy aholisi 2023-yil

1-oktyabr holatiga ko'ra 171 608 kishini tashkil etadi. Maydoni 100 km.kv.

Chirchiq shaxri Toshkent Chorvoq temir yo‘ldagi stansiya va avtomobil yo‘llari chorrahasida joylashgan. Chirchiq shaxri 1932-yilda daryo bo‘yidagi Qirg‘izquloq, Qipchoq, Niyozbek qishloqlari o‘rnida yirik elektrkimyo qurilishi munosabati bilan vujudga kelgan. Yangi sanoat korxonalari qurilishi bilan aholi soni ham tez o‘sdi (1939-yil — 15 ming kishi, 1959-yil — 65 ming kishi, 1970-yil — 107,4 ming kishi). 30 — 40-yil larda Industrial texnikumi binosi, 50-yillarda elektrkimyo korxonasining Madaniyat saroyi va boshqa jamoat binolari qurildi. 1966—67 yillardan ko‘p qavatli yirik panelli binolar qad ko‘tardi. Ikkinchi jahon urushida halok bo‘lgan chirchiqliklar xotirasiga o‘rnatilgan yodgorlik, madaniyat va istirohat bog‘lari, xiyobonlar, maktablar, poliklinika, kasalxona va boshqa bunyod etildi. Shahar yonida aholining dam olish joylari mavjud.

Shaharda „Chirchiqqishloqmash“, „Transformator“, „O‘zbekkimyomash“, „Elektrkimyosanoat“ (mineral o‘g‘itlar), qattiq qotishmalar va o‘tga chidamli metallar kabi korxonalar ishlab turibdi. 26 ta qo‘shma korxona (shu jumladan, „Kibo“, „Chirkom“, „Uzmetalltexnolodji“,

„Bursel—Tashkent—Tekstil“), 850 dan ziyod kichik korxona faoliyat koʻrsatadi. Qurilish materiallari, temirbeton konstruksiyalari ishlab chiqariladi. Gʻisht, asfaltbeton zavodlari, goʻsht, non korxonalari, poyabzal va tikuvchilik fabrikalari mavjud.

Chirchiq aholisi 170 000 ming odam atrofida sanaladi. Chirchiq koʻp millatlarni oʻz bagʻriga sigʻdirgan shahar. Chirchiqda oʻzbek, qozoq, tojik, rus, tatar, qoraqolpoq, qizgʻiz, koreys va boshqa millat vakillari tinch totuvlikda hayot kechirmoqdalar. Chirchiq shahrining aholisi yildan yilga oshib bormoqda. Ohirgi yillarda yangi turar joylar qurilib shahar infrastrukturasi rivojlanmoqda. Aholisi asosan oʻzbek, rus va qozoq tillarida gaplashishadi.

Chirchiq oliy tank komandirmuhandislik bilim yurti, 25 umumiy ta’lim maktabi, 7 oʻrta maxsus bilim yurti, 12 kutubxona, 3 madaniyat muassasasi, muzey, madaniyat va istirohat bogʻi bor. Kasalxona (500 oʻrin), poliklinika, dorixonalar va boshqa tibbiy muassasalar ishlab turibdi. 2017-yili Chirchiqda yangi Pedagogika Insituti ochildi va hozirgi kunda u Chirchiq davlat pedagogika universiteti nomiga o'zgartirildi.

Chirchiq shahri tarixi muzeyi (2020-yilgacha — oʻlkashunoslik) — madaniy-ma’rifiy muassasa bo'lib, Oʻzbekiston Respublikasi, Toshkent viloyati, Chirchiq shahrining asosiy tarix muzeyi.

Bino 1942-yilda qurilgan. 1958-yil 3-fevralda Oʻzbekiston SSR Oliy Soveti Chirchiq shahrida muzey tashkil etish toʻgʻrisida farmoyish chiqardi.

Hozirda muzeyda 34 873 ta eksponat saqlanadi, shundan 34 302 tasi asosiy fond, 571 tasi ilmiy xodimlar, 236 tasi arxeologiya, 1199 tasi numizmatika, san’at, 537 tasi etnografiya va maishiy buyumlar, 743 tasi fotosuratlar, 9853 tasi hujjatlar mavjud.

1957-yilda Chirchiq shahrida yashovchi keksa Viktor Zinovyevich Cherniy, 8-maktab direktori Shved Iosif Aronovich, madaniyat boʻlimi boshligʻi va maktab ishchilari tarixiy shahar muzeyini yaratish taklifi bilan chiqdilar. mahalliy tarix muzeyi. Shahar va mamlakat rahbariyati bu gʻoyani qoʻllab-quvvatladi. 1958-yil 3-fevralda Oʻzbekiston SSR Oliy Soveti Chirchiq shahrida muzey tashkil etish toʻgʻrisida farmoyish chiqardi. Joriy yilning aprel oyida muzey shtatlari tasdiqlanib, smeta ajratildi.

Muzey hech qanday moddiy bazaga ega boʻlmagan, ogʻir sharoitlarda yaratilgan. Birinchi xodimlar shahar gazetasi tahririyati joylashgan tor va kichik binoda ishladilar.

Shahar aholisining katta yordami bilan ular eksponatlarni yig'ishdi, hujjatlashtirdilar va ilmiy tavsiflarini yozdilar. Chirchiqliklar shaharning

qurilishi va rivojlanishi tarixini yaratish uchun muzeyni hujjatli va moddiy materiallar bilan ta’minladilar.

Keyinchalik 1942-yilda qurilgan sobiq “O‘zbekximmash” klubi va muzey joylashgan “olti burchakli” bino muzeyga ajratilgan.

Muzey xodimlari nafaqat Chirchiq, balki butun respublika bo‘ylab hujjatli va moddiy eksponatlarni to‘plashdi. Bunga parallel ravishda ular ekspozitsiyalarni yaratish bilan shug'ullanishgan. Muzeyni boyitishda chirchiqlik rassomlar B.S. Chubarov, V.I. Golubev, A.T. Golovchenkolarning xizmatlari katta.

Tabiat muzeyi, ona yurtning arxeologik kolleksiyasi va ekspozitsiyalarini yaratishda O‘zbekiston xalqlari tarixi muzeyi va Respublika tabiat muzeyi salmoqli yordam ko‘rsatdi.

Chirchiq o‘lkashunoslik muzeyi 1959-yil 1-mayda ilk tashrif buyuruvchilarni qabul qildi va bu shahar madaniy hayotida muhim voqea bo‘ldi. O‘sha paytda muzey fondida 816 nomdagi moddiy ashyolar saqlangan. Yilning birinchi yarmida muzeyga 10 ming kishi tashrif buyurdi.Muzey binosining umumiy maydoni 577 kvadrat metrni tashkil qiladi. Muzey 2017-yilda ta'mirlangan. 2018-yilda Chirchiq shahar o‘lkashunoslik muzeyi Chirchiq shahar tarixi muzeyiga aylantirildi.

Chirchiqdan Toshkent shahriga avtobuslar va yonalishli kichik mikroavtobuslar(gazel) qatnaydi. Shahar ichida 26 ta yonalishli avtobus va mikro avtobuslar qatnamoqda. Shahardan poezd yoli o‘tgan.

„Chirchiq tongi“ gazetasi (1932-yildan nashr etiladi), „Chirchiq“ (1932-yildan nashr etiladi) gazetalari chiqariladi.

Xulosa shundaki Chirchiq shaxri vujudga ushbu salkam bir asr davomida o'z darajasidagi juda katta ozgarish natijasini korsatgan. Aytib otadigan bolsak korxonalar, zavod-fabrikalar, madaniyat, ilm-fan yonalishida shaxar muzeyi, instetut, maktab-bogcha va hatto harbiy oliy oquv yurti ham faoliyat yuritmoqda. Buning barchasi shahar rivoj-

lanishidagi katta yutqlar desak ham boladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Ozbekston milliy ensklopediasi" (2000-2005) Internet malumotlari.
2. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Chirchiq_shahar_tarix_muzeyi
3. https://qomus.info/oz/encyclopedia/ch/chirchiq-2/

XIV-XV ASRLARDA DASHTI QIPCHOQDAGI SIYOSIY VAZIYAT HAQIDA QISQACHA MULOHAZALAR

Jaylovov To‘xtamurod Sodiq o‘g‘li
Chirchiq Davlat Pedagogika
Universiteti Gumanitar Fanlar
Fakulteti 2-bosqich talabasi

Anotatsiya;Ushbu maqolada Dashti Qipchoqdagi siyosiy vaziyat va bu hududda yuz bergan siyosiy jarayonlar,Muhammad Shayboniyxonni siyosat maydoniga chiqishi va davlat tuzish yo‘lidagi harakatlari, Temuriylar bilan olib borilgan harbiy yurishlar haqida qisqacha fikr yuritiladi**.**

Kalit so‘zlar;Dashti qipchoq, Muhammad Shayboniyxon,Temuriylar, Movrounahr,poliveslar, oltin o‘rda

XV asr oxiri Dashti Qipchoq hududi, ya’ni hozirgi Markaziy Osiyo va Rossiya janubidagi keng dashtlar, siyosiy jihatdan murakkab va notinch davrni boshdan kechirdi. Oltin O‘rdaning qulashidan keyin yuzaga kelgan xonliklar o‘zaro hokimiyat uchun kurash olib borar, bu esa dashtdagi siyosiy barqarorlikni zaiflashtirar edi. Ayniqsa, Qozon, Qrim, Sibir, va Oq O‘rda kabi xonliklar hukmronlikka intilar, bu hududda kuchli harbiy-siyosiy raqobatni yuzaga keltirardi. Shu bilan birga, shimoldagi Rossiya va janubdagi Movarounnahr o‘rtasida joylashgan bu dasht xalqlari madaniy, iqtisodiy va harbiy ta’sirlar markazi bo‘lib qolgan edi. Bu davrda Dashti Qipchoqdagi vaziyat Movarounnahrning ichki siyosati va tashqi aloqalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. [1]

Xususan, Shayboniylar davlatining vujudga kelishi va ularning Movarounnahrda o‘z hukmronligini o‘rnatishga intilishi bu hududdagi tarixiy jarayonlarni belgilab berdi. Shu sababli, XV asr oxiridagi Dashti Qipchoqdagi siyosiy voqealar va ularning Movarounnahrga ta’sirini o‘rganish ushbu davrning geosiyosiy manzarasini yaxshiroq tushunish imkonini beradi. XIV asr boshlariga kelib, 1236 yilda Botuxon tomonidan asos solingan Oltin O’rda davlati ikki qismga bo’linib ketadi va uning sharqiy qimida Oq O’rda davlati tashkil topadi. Ayrim tarixiy manbalarda bu hududlar —O’zbeklar mamlakati|| deb ham eslatiladi. XV asrning o’rtalariga kelib SHarqiy Dashti Qipchoq hududlarida Jojixonning beshinchi o’g’li SHaybon urug’idan bo’lgan Abulxayrxon ko’chmanchi o’zbeklar davlatiga asos soldi. [2]

Movarounnahrdagi o’zaro kurashlardan foydalangan Abulxayrxon Sirdaryoning o’rta oqimidagi bir qancha shaharlarni, Xorazmning bir qismini bosib olishga erishdi Sirdaryoning yuqori oqimi va Tiyanshan tog' tizmalarining Shimoliy yon bag‘irlaridan Dnepr daryosining quyi oqimiga qadar yoyilgan dashtlar Dashti Qipchoq nomi bilan atalgan. Bu Dashti Qipchoq atamasini XI asrda Nosir Xisrav qo‘llagan. Dashti Qipchoq XI-XV asrlarga oid arab va fors manbalarida tilga olinadi. Dashti Qipchoq aholisi sharq manbalarida - qipchoqlar, rus solnomalarida polovetslar, Vizantiya xronikalarida kumanlar, venger manbalarida kunlar deb atalgan. Dashti Qipchoq XIII asr boshlarida Chingizxon qo‘shinlari tomonidan bosib olingach, tarixda Jo‘ji ulusi nomi bilan atalgan Oltin 0 ‘rda davlati barpo etiladi. XIV asr boshlarida Jo‘ji ulusi, ya’ni Oltin 0 ‘rda ikkiga bo‘linib ketadi. XIV asrning 60-yillaridan Dashti Qipchoqning sharqiy qismi « 0 ‘zbeklar mamlakati», aholisi esa «o‘zbeklar» deb atala boshlangan.[3]

XV asrning 20-yillarida Dashti Qipchoqda ko‘chmanchi qabilalar o‘rtasida olib borilgan o'zaro janglarda Abulxayrxon (1412-1468) boshchiligidagi Shayboniylar nomi ostida urug‘ tarix maydoniga chiqadi4 Abulxayrxon 1428-yilda xon etib saylanadi va qirq yil (1428-1468) hukmronlik qildi. U Sirdaryoning quyi oqimida Sig‘noq, Oqqo‘rgon, Arko‘k, 0 ‘zgan kabi shaharlarni egallab oldi va bu hududlardan doimo Movarounnahrga tahdid solib turdi. Abulxayrxon vafot etgach (1468-y.) o‘rniga taxtga o‘tirgan o‘gii Haydarxon davrida Iboqxon, Jonibek, Gerayxon, mang‘it amirlaridan Yomqurchi va Muso Mirzolar Oltin 0 ‘rda xoni Ahmadxon bilan ittifoq tuzib Haydarxonga qarshi kurash olib borib, g‘alabaga erishganlar, Haydarxon esa qatl etilgan. Shunda shohBudoqning o‘g‘illari Shayboniyxon va Mahmud Sultonni yaqin kishilari Ashtarxon xoni Qosimning saroyiga olib borib yashirganlar. Bundan xabar topgan sultonlar o‘z qurollarini Qosimga qarshi qaratganlar. Ammo shahzoda Muhammad Shayboniy o‘z ukasi bilan qamal qilingan Ashtarxondan omoneson chiqib Dashti Qipchoqqa yetib kelgan. [4]

U XV asrning 80- yillarida bobosi Abulxayrxon birlashtirgan Dashti Qipchoq yerlarini birlashtirish va hokimiyatni qaytadan tiklash uchun kurash olib boradi. Bu kurashning dastlabki bosqichida temuriylar Shayboniyxonga katta yordam va madad berganlar. Tarixiy manbalarda Shayboniyxon o‘z ukasi bilan bir necha marta Movarounnahr hukmdorlari va noiblari - Turkiston va 0 ‘trorni idora qilgan noib Muhammad Mazid Tarxon, Samarqand hokimi Ahmad Mirzolar huzurlariga kelganda yaxshi kutib olganliklari va homiylik qilganliklari ko‘rsatiladi. Shayboniyxon bir necha vaqt Buxoroda

ham yashagan va Dashti Qipchoqqa borib kelib turgan. Buxoroda bo‘lganida Shayboniyxon ma’rifatdan saboq olgan, ilm va she’riyatni sevib o‘rgangan.Sig‘noq shahri (Qizil 0 ‘rdaga boradigan yo‘ldagi TumanAriq degan sobiq pochta bekatiga 10 km yetmasdan, Sig‘noq shahrining xarobalari hozir ham mavjud) Shayboniyxonga jangsiz taslim bo‘lgan. Mang‘it hokimi Muso-Mirzoning yordami evaziga Shayboniy qozoqlar xoni Burunduqxonni (1481-1511) tor-mor qiladi. Ammo keyin o‘zi qattiq zarbaga uchrab, Mang‘ishloq yarim oroliga qochadi.[5]

Xulosa

Xulosa qilib aytganda Shayboniyxoni siyosat maydoniga chiqishi Markaziy Osiyo tarixida o‘ziga xos davrni boshlab bergan muhim siyosiy hodisa sifatida baholanadi. XV asr oxiri va XVI asr boshlarida Temuriylar saltanati zaiflashib, ichki siyosiy beqarorlik kuchaygan bir paytda, Uning harbiy iste’dodi, siyosiy masalalardagi tajribasi va real kuchlarga tayanib amalga oshirgan islohotlari qisqa fursat ichida mustahkam markazlashgan davlatni vujudga keltirishga xizmat qildi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1.H.Hamidov, Sh.Ernazarov, B.Rahmonov, I.Hasanov M 40 O`zbekiston tarixi: o`quv-uslubiy qo`llanma. Qayta ishlangan va to`ldirilgan beshinchi nashri. -T.: “O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2020. – 380 bet.

2.O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yilKlyashtorniy S.G., Sultanov G. I., Kazaxstan. Letopis tryox tisyacheletiy, Alma-Ata, 1992;Murad Adji, Polin polovetskogo polya. M., 1994.

3.Akbar, ZamonovO'zbekiston tarixi. Ill qism: Temuriylar, shayboniylar va ashtarxoniylar davri. Darslik / A. Zamonov. - Toshkent: «BAYOZ», 2023. - 672 b.

4. Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi (XVI-XX asr boshlari); K.2.: /Mualliflar: R.Shamsutdinov, Sh.Karimov, OMJbaydullayev; Mas’ul muharrirlar: O1. Mavlonov, Q.Usmonov. - Taqrizchilar I. Alimov va boshq. — T.: «Sharq», 2010, 368 b.

5. Muhammad Solih Shayboniynoma. T” G‘. G‘ulom” 1989. 70 b

ILK O'RTA ASRLARDA O'ZBEKISTON TARIXINING DOLZARB MASALALARI.

Joldasbekova Roza Kurbanbek qizi
Chirchiq davlat pedagogika unversiteti tarix yoʻnalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada milodiy III–VIII asrlar oralig‘ida O‘zbekiston hududida yuz bergan siyosiy, madaniy va dini jarayonlar tarixiy manbalar asosida tahlil etilgan. Sug‘diylar, eftalitlar, turk xoqonligi va boshqa siyosiy tuzilmalar faoliyati, buddaviylik, zardushtiylik va manixeylik kabi dinlarning ta’siri, Ipak yo‘li orqali amalga oshirilgan savdo aloqalari manbalarga tayanib yoritilgan. Arxeologik topilmalar, qadimgi yozma manbalar va tarixiy solnomalarga asoslangan tahlillar O‘zbekiston tarixining ilk o‘rta asrlar bosqichini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: Ilk o‘rta asrlar, O‘zbekiston tarixi, etnik tarkib, yozma manbalar, arxeologiya, diniy e’tiqodlar, Ipak yo‘li.

Ilk o‘rta asrlar davri O‘zbekiston tarixida tub burilishlarga boy bo‘lgan davrdir. Bu vaqt mobaynida Markaziy Osiyo hududi turli siyosiy kuchlar ta’siriga tushdi, madaniy almashinuvlar avj oldi, dinlar va e’tiqodlar keng yoyildi. Ushbu maqola tarixiy manbalar va arxeologik dalillarga tayanib, O‘zbekistonning bu bosqichdagi tarixini ilmiy yondashuv asosida tahlil qiladi.Ilk o‘rta asrlar davri (taxminan milodiy III–VIII asrlar) O‘zbekiston hududi uchun o‘ta muhim va o‘ziga xos davr bo‘lgan. Bu vaqt oralig‘ida qadimgi sivilizatsiyalar inqirozga uchragan, yangi siyosiy tuzilmalar shakllangan, turli diniy oqimlar va madaniy uyg‘onishlar yuz bergan. Mazkur maqolada mazkur davrning asosiy tarixiy jarayonlari, siyosiy holati, madaniy rivoji, iqtisodiy aloqalari va dini tafakkurining holati turli tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi[1.2].

Yozma manbalar muammosi

Ilk o‘rta asrlarga oid mahalliy yozma manbalar yetarli emas. Asosiy ma’lumotlar xitoy (Fan Ye, Sima Qian), fors (Tabariy, Balazuriy) va arab (al-Istaxriy, al-Muqaddasiy) tarixchilarining asarlarida qayd etilgan. Bu manbalar ko‘proq tashqi kuzatuvchilarning fikrlariga asoslangan bo‘lib, ularning aksariyati voqealarning mohiyatini to‘liq ochib bermaydi.[2]

Arxeologik tadqiqotlarning chegaraliligi

So‘nggi yillarda Paikent, Toprakqal’a, Varaxsha kabi yodgorliklarda olib borilgan arxeologik ishlar muhim natijalar bergan bo‘lsa-da, hali ko‘plab

hududlar (Surxondaryo, Zarafshon vodiysi va boshqalar)da tadqiqotlar sust kechmoqda[2,143].Bundan tashqari, mavjud topilmalar hali to‘liq tizimlashtirilmagan va ilmiy muomalaga kiritilmagan.

Etnik jarayonlar va xalq shakllanishi

Bu davrda O‘zbekiston hududida yashagan sog‘diylar, saklar, massagetlar, eftalitlar, turklar kabi xalqlar va ularning o‘zaro munosabatlari o‘zbek xalqining shakllanishida muhim rol o‘ynagan. Ammo bu jarayonlar haqida arxeologik va etnografik ma’lumotlar yetarli emas, mavjudlari esa ayrim hollarda ziddiyatli[3,4].

Siyosiy tarixdagi bo‘shliqlar

Kushanlar, Eftalitlar va Turk xoqonligi kabi davlatlar faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar turli manbalarda turlicha yoritilgan. Ularning siyosiy tuzilishi, chegaralari, boshqaruv tizimi haqida to‘liq ilmiy izlanishlar yetarli emas. Jumladan, eftalitlarning Buxoro va Samarqandga ta’siri to‘g‘risidagi tarixiy tafsilotlar hali ham o‘rganilmoqda [4,165].

Islomgacha bo‘lgan diniy tizimlar

Zardushtiylik, buddaviylik va maniheylik kabi diniy e’tiqodlar bu davrda keng tarqalgan bo‘lsa-da, ularning jamiyatdagi o‘rni va taraqqiyot darajasi to‘liq o‘rganilmagan. Bu e’tiqodlarning diniy markazlari, arxitektura yodgorliklari va marosim tizimlari bo‘yicha ilmiy izlanishlar yetarli darajada emas[5,13]

Ipak yo‘li va iqtisodiy taraqqiyot

Buyuk Ipak yo‘lining bu davrdagi faoliyati O‘zbekistonning iqtisodiy va madaniy rivojiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Ammo bu yo‘l orqali o‘tgan savdo hajmi, tovarlar turlari, karvon yo‘llari va mahalliy hunarmandchilik haqida to‘liq ma’lumotlar mavjud emas. Shu bilan birga, tarixiy shaharlardagi iqtisodiy hayotning real manzarasi hozircha ilmiy jihatdan yetarlicha yoritilmagan.

Ilk o‘rta asrlar O‘zbekiston tarixining murakkab va boy davrlaridan biridir.O'zbekiston tarixining ham eng kam o'rganilgan davridir.Ushbu davrni ilmiy jihatdan chuqur o‘rganish uchun manbalarni tahlil qilish, arxeologik izlanishlarni kengaytirish va zamonaviy metodlarni qo‘llash zarur. Faqat shundagina bu tarixiy davrga oid mavjud muammolar yechim topadi va tariximiz yanada to‘liq tiklanadi.o‘rta asrlar O‘zbekiston tarixida chuqur siyosiy, madaniy va etnik o‘zgarishlar ro‘y bergan murakkab davrdir. Bu davrda yuz bergan voqealarni ilmiy nuqtai nazardan to‘liq anglash va tarixiy haqiqatni tiklash uchun mavjud manbalar, arxeologik topilmalar hamda

xorijiy tarixchilarning asarlariga tayaniladi. Ammo bu manbalar cheklangan bo‘lib, ularning mazmuni ko‘pincha bir-biriga qarama-qarshidir.Mahalliy yozma manbalar deyarli yo‘qligi, arxeologik tadqiqotlarning ba’zi hududlarda to‘liq olib borilmaganligi ilmiy izlanishlarga to‘siq bo‘lmoqda. Shuningdek, o‘zbek xalqining shakllanishiga ta’sir etgan etnik guruhlar, ularning o‘zaro munosabatlari va madaniy merosini to‘liq ochib berish hali ham dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Islomgacha bo‘lgan diniy tizimlarning jamiyat hayotidagi o‘rni, Buyuk Ipak yo‘lining iqtisodiy va madaniy ahamiyati, mahalliy davlatlarning tuzilmasi kabi masalalar puxta ilmiy tadqiqotlarni talab etadi. Shu bois, tarixshunoslik oldida turgan asosiy vazifa – bu davrni har tomonlama o‘rganib, tariximizni haqqoniy va chuqur asoslangan shaklda tiklashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Markaziy Osiyo Xalqlarning dolzarb masalalari xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.Toshkent, 2022 yil 25 noyabr

2.Karimov A. Markaziy Osiyo tarixiy jarayonlari: ilk o‘rta asrlar davri. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020.

3.Rahmonov B. Ilk o‘rta asrlar Sharq manbalarida Movarounnahr. Samarqand, 2018.

4.Islomov D. O‘zbekiston arxeologiyasi: yangi yondashuvlar. Toshkent, 2021.

5.To‘laganov M. Etnik jarayonlar va xalq shakllanishi tarixidan. Buxoro, 2019.

QADIMGI TOSHKENT VOHASI AHOLISI VA TURMUSH TARZI

Jumaboyeva Sevinch Baxtiyor qizi
Chirchiq davlat pedagokika universiteti
Gumanitar fanlar fakulteti 2-bosqich talabasi

Annatotsiya. Ushbu maqolada Qadimgi Toshkent vohasi, O‘rta Osiyoning muhim madaniyat markazlaridan biri bo‘lib, tarixiy jihatdan rivojlangan aholi punktlaridan iborat edi. Ushbu mintaqada joylashgan qishloq va shaharlar o'zining strategik joylashuvi, savdo yo'llarining kesishgan nuqtasida joylashgani sababli iqtisodiy va madaniy aloqalar rivojlanib bordi. Aholining asosiy hayot tarzi dehqonchilik va chorvachilikka asoslangan edi. Qadimgi Toshkent vohasida suv manbalaridan unumli foydalanish orqali

qishloq xo‘jaligi rivojlangan. Aholi asosan bug'doy, arpa, makkajo'xori kabi donli ekinlarni yetishtirgan, shuningdek sabzavot va meva bog'lari ham mavjud bo'lgan.

Kalitso‘zlar. Toshkent,aholi,qishloqxo‘jaligi,dehqonchilik,chorvachilik,iq tisodiy madaniy aloqalar ,suv manbalari

Toshkent vohasi Markaziy Osiyoning qadimiy va boy tarixga ega hududlaridan biridir. Arxeologik topilmalar va yozma manbalar asosida aniqlanishicha, bu vohada odamlar ming yillar avval, miloddan avvalgi IV–III mingyilliklarda yashaganlar. Vohaning iqlimi, tabiiy boyliklari va suv manbalari qadimdan bu yerda aholi yashashiga qulay sharoit yaratgan.Qadimgi Toshkent vohasi, o'zining tarixi va madaniyati bilan ajralib turadi. Ushbu hudud, ko'plab qadimiy sivilizatsiyalar, savdo yo'llari va madaniy almashuvlar markazi bo'lgan. Toshkent vohasi, asosan, o'zining tabiiy resurslari, iqlimi va geosiyosiy joylashuvi bilan mashhurdir. Toshkent vohasi tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, uning aholisi miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi. Bu yerda yashovchi odamlar qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanishgan. Suv manbalaridan foydalanish ularning hayotida muhim rol o'ynagan. O'rta Osiyo savdo yo'llarining kesishgan joyida joylashganligi sababli, Toshkent vohasi ko'plab xalqlarning uchrashuv joyi bo'lgan Qadimgi Toshkent vohasidagi aholi asosan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. Ular asosiy ekinlarni (bug'doy, arpa, sabzavotlar) yetishtirib, chorva hayvonlarini boqishgan. Qishloq xo'jaligi hayot tarzining asosini tashkil etgan bo'lsa-da, aholi orasida hunarmandchilik ham rivojlangan edi. Qadimgi Toshkent vohasidagi madaniyat juda boy bo'lgan. Mahalliy aholi an'anaviy san'at turlarini rivojlantirgan: to'qimachilik, keramika ishlab chiqarish, metall ishlov berish kabi sohalar mavjud edi. Qo'l mehnati orqali yaratilgan buyumlar nafaqat mahalliy ehtiyojlarni qondirish uchun balki savdo qilish maqsadida ham tayyorlangan. Aholining turmush tarzi juda oddiy va tabiiy edi. Uy-joylar asosan tuproqdan yasalgan bo‘lib, ularning ichki qismi an’anaviy uslubda bezatilgan. Oila a'zolari birgalikda ishlagan holda umuman oilaviy munosabatlarni mustahkamlashga intilganlar. Oziq-ovqat mahsulotlari asosan o'z-o'zini ta'minlash orqali olinardi; go'sht, sut mahsulotlari va sabzavotlardan iborat oddiy ovqatlar iste'mol qilinardi. Shuningdek, mehmondo'stlik qadriyatlari juda yuqori baholangan - mehmonlarga doimo eng yaxshi taomlar taklif etilgan. Qadimgi Toshkent vohasi, O‘rta Osiyo tarixida muhim o‘rin tutgan hududlardan biri bo‘lib, u nafaqat iqtisodiy, balki madaniy hayotning ham markazi hisoblangan. Bu yerda joylashgan qishloq va

shaharlar asrlar davomida savdo yo‘llarining kesishgan nuqtasida bo‘lishi sababli, turli xalqlar va madaniyatlar o‘rtasida aloqalar rivojlanib bordi. Toshkent vohasining iqlimi va tabiiy sharoitlari dehqonchilik uchun qulay bo'lgan. Suv manbalaridan foydalanish orqali qishloq xo‘jaligi yanada rivojlangan. Aholi bug'doy, arpa va makkajo'xori kabi donli ekinlarni yetishtirib, qishloq xo'jaligini mustahkamladi. Shuningdek, bog'dorchilik ham muhim ahamiyatga ega edi: sabzavotlar va mevalar yetishtirish mintaqa aholisining oziq-ovqat ta'minotini yaxshilashda xizmat qilardi. Qadimgi Toshkent vohasidagi aholi o'z hayot tarzida an'anaviy qadriyatlarni saqlab qolgan holda, bir vaqtning o'zida savdo-sotiq va madaniy almashuv jarayonlariga ham ochiq bo'ldi. Buni tasdiqlovchi ko'plab arxeologik topilmalar mavjud bo'lib, ular mintaqaning qadimgi tarixi va madaniyatini yoritishda muhim rol o'ynaydi. Bunday sharoitlar Toshkentni O'rta Osiyo tarixidagi yirik madaniyat markazlaridan biriga aylantirishga yordam berdi.

Ushbu davrda aholi turmushi an'anaviy usullar bilan boshqarilgan bo'lib, oilaviy munosabatlar juda muhim rol o'ynagan. Ayollar uy ishlariga mas'ul bo'lgan, erkaklar esa tashqi ishlar bilan shug‘ullangan. Oila tuzilishi ko‘p hollarda keng oilalar asosida tashkil etilgan. Madaniy hayotda esa qadimiy an'analar, folklor va san'at turlari ahamiyatga ega bo'lgan. Mahalliy xalqlar urf-odatlari va bayramlari orqali o'z madaniyatlarini saqlab qolishga harakat qilganlar. Qadimgi Toshkent vohasi aholisi ham diniy e'tiqodlarga ega bo'lib, bu ularning turmush tarziga ta'sir ko'rsatgan. Umuman olganda, qadimgi Toshkent vohasi aholisi o'ziga xos madaniyatga ega bo'lgan xalq sifatida tarix sahnasida muhim o'rin egallagan. Ularning turmush tarzi zamonaviy O‘zbekistonning madaniy merosini shakllantirishda muhim rol o‘ynagan. Qadimgi Toshkent vohasi, hozirgi O'zbekistonning poytaxti Toshkent atrofidagi hudud bo'lib, tarixiy jihatdan juda muhim ahamiyatga ega. Ushbu voha qadim zamonlardan beri turli madaniyatlar va xalqlar uchun yashash joyi bo'lgan.Qadimgi Toshkent vohasi madaniy jihatdan ham boy edi. Odamlar musiqa, raqs va san'at bilan shug'ullangan; xalq ijodiyoti rivojlangan. Mahalliy an'analar va urf-odatlar avloddan-avlodga o'tib kelgan. Qadimgi Toshkent vohasi tarix davomida ko'p marta bosib olingan va qayta tiklangan, bu esa uning madaniyati va turmush tarziga ta'sir ko'rsatgan. Vohada qadim zamonlardan qolgan arxitektura yodgorliklari ham mavjud bo'lib, ular bugungi kunda ham sayyohlarni jalb qilmoqda. Umuman olganda, qadimgi Toshkent vohasi o'zining boy tarixiy merosi va madaniyati bilan ajralib turadi.

Xulosa. Qadimgi Toshkent vohasi aholisi o'zining boy madaniyati va an'anaviy turmush tarzi bilan ajralib turadi. Ularning ijtimoiy tuzilishi va iqtisodiyotdagi faoliyatlari bugungi kunda ham tadqiqotchilarni qiziqtiradigan mavzulardan biridir. Ushbu hududning tarixini o‘rganish orqali biz nafaqat eski hayotni yaxshiroq tushunamiz balki zamonaviy O‘zbekistonning rivojlanishini ham chuqurroq anglaymiz.Qadimgi Toshkent vohasi aholisi yuqori darajada ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotga erishgan. Ularning turmush tarzi, hunar va madaniyati bugungi kunda ham xalqimizning tarixiy xotirasida muhim o‘rin tutadi. Arxeologik tadqiqotlar ushbu vohaning o‘tmishini yanada chuqurroq o‘rganish imkonini bermoqda va bu ilmiy meros biz uchun bebaho hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Asqarov A. Qadimgi Toshkent (arxeologik tadqiqotlar asosida). – Toshkent: Fan, 1991.

2. Sagdullaev A. O‘zbekiston tarixi qadimgi davrlardan to XIX asrga qadar. – Toshkent: Sharq, 2001.

3. Ravshanov Sh. Toshkent vohasining qadimgi shahar madaniyati. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti, 2010.

4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 14-jild, “Toshkent” maqolasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.

5. Yusupov G‘. O‘zbek xalqining etnogenezi va qadimiy davr tarixi. – Toshkent: Fan, 1989.

TOSHKENT VOHASI MUQADDAS QADAMJOLARI VA ZIYORATGOHLARI

Jumanazarova Dilnavoz
CHirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi
Ilmiy rahbar;Tarix kanfedirasi dotsenti SH.B.Jumayeva

Annotatsiya;Ushbu ishda qadimiy Oqtepa shahrining arxeologik,tarixiy va madaniy ahamiyatini yoritishga bag’ishlangan Tadqiqot davomida shaxarning asosiy tuzilmalari -ibodatxona kompleksi ,xo’jalik binolari,ikki qavatli qal’a ,marosim zallari va omborxonalarning arxeologik izlanishlarga asoslangan tavsifi berilgan .Oqtepa shahrining geografik joylashuvi saroy va qal’aning qurilish texnologiyasi tarixiy qatlamlari va funksional bo’linmlari

orqali CHoch davlati davridagi siyosiy va ijtimoiy tuzilish haqida tasavvur hosil qilinadi .Bundan tashqari yodgorlik atrofining himoya choralari songi yillardagi saqlanish holati ham taxlil etilgan.

Kalit sozlar;Oqtepa,CHoch davlati,arxeologik yodgorlik,qadimiy saroy ,ibodatxona ,qal'a,paxsa g'isht ,arxetektura,Yunusobod,madaniyat,xandag'

Shahar markazida Yunusobod tumanida qadimgi arxeologik yodgorlik - qadimiy Oqtepa shahrining vayronalari joylshgan .Bunday uncha katta bo'lmagan tepalik g;aroyib va maftunkor bo'lib tuyiladi.Bu shunchaki tepalik emas balki arablargacha bolgan davrga mansub katta saroyning mustahkamlngan qo'rg'oni .U taxinan CHoch tududining yozgi qarorgohi bolgan .Bu saroyda CHoch davlatining hukumdorlriga bo'ysungan turkiy vakillarning bir nechta avlodi yashagan.Qazilma malumotlarga ko'ra saroy eramizning V asrida qadimiy platformadan foydalangan holda tepalikda xomg'isht yani paxsadan parpo etilgan.Arxeologik yodgorlikning umumiy maydoni qariyb 100 ni tashkil etadi.SHaharning janubiy qismida balandligi 22-28 m bolgan tik qoyali baland tepalik ko'rinishidagi qal'a vayronalari joylashgan bolib unga mustahkamlanmagan qishloq tutashib ketgan O'lchami 86x180 m bo'lgan saroy shimoldan janubga yo'nalish olgan va qishloqdan sezilarli chuqurlikdagi jarlik orqali ajratilgan ushbu jarlik qal'a xandag'I vazifasini bajargan .U keng zinapoyali ikki qavatli binodan tashkil topgan .Birinchi qavat 80x80m o'lchamda bolgan.Ikkinchi qavat esa 50x80 o'lchamga ega bo'lgan.Ikkala qavat ichki tomonidan kengligi 2m,balandligi2,3 mbolgan uzun karidor-galeriya halqasi bilan bog'langan.Yuqori karidor burchaklari burchaklari boylab xonalarga ega uzun va tor xonalardan tashkil topgan ular bir biri bilan karidorlar tizimi bilan bog'langan.VII asirning birinchi choragida qo'rg'on qayta qurilgan .Tor xonalra tuproq bilan mustahakmalngan va bu bilan binoni mustahkam asosga aylantirgan ,uning ustida esa yangi qurilmalar barpo etilgan .To'rtta burchakdagi minoralar mustahkamlangan qo'rg'onning janubi g'arbiy qismida esa maydoni 22x22m bolgan qasr barpo eetilgan.U minoraga ega ko'p yarusli piramida shakliga va tortta mudofa yaruslariga ega .Qurilmaning saqlanadigan qismiga qaraladigan bo'lsa u ham ikki qavatli bolgan .Uning pastki qavati ravoqli xonalar bilan band bolgan yuqori qavatida esa uning egasi yashagan .Saroyning shimoliy qismida ibodatxona majmuasini tashkil qilgan 10 ta xona topilgan .Shu tarzda gumbazli maqbar atrofida asta sekin diniy inshoatlar shakillangan .Unga ikki xonali dargoh tutashgan ,ushbu xonalardan birida olov mehrobi bolgan ikkinchisi esa marosimlar zali bolib hizmat qilgan.Alohida xonalarda xotira qurbonliklari amalga oshirilgan va bu

yerda kohin yashagan.Qal’aning sharqiy qismida xojalik ishlariga moljallangan 9 ta chozinchoq ikki qavatli bino joylashgan .Birinchi qavat asosan omborxona bolib xizmat qilgan .Bu yerda oziq ovqat maxsulotlarining zaxirasi saqlangan.Ikkinchi qavatida xizmatkorlar va posbonlar yashagan . bundan tashqari alohida hona musallas tayyorlashga ajratilgan. Avallari vayronalar atrofida hech qanday tosiq va lavhalar bolmagan.U yerga mutlaqo hamma kirishi mumkin bolgan.Oxirgi bir necha yil Ichida vayronalr tosib qoyildi ,kirish joyining oldiga esa axborot beruvchi lavha ornatildi.

Xulosa;Qadimiy Oqtepa yodgorligi CHoch davlati tarixining muxim sahifalaridan birini aks ettiruvchi noyob obidadir.Qazilma ishlar Oqtepa saroyining nafaqat siyosiy balki diniy va xojalik markazi sifatida faoliyat yuritganini korsatmoqda.Ibodatxonalar marosim zallari omborxonalar mudofaa minoralari va turar joylar yodgorlikning to’laqonli shaharlik hayotini olib borganligini tasdiqlaydi.Qal’a va uning atrofidagi arxitektura CHochning poytaxt darajasidagi ahamiyatini aks ettiradi .Bugungi kunda ushbu maskan ilmiy va sayyohlik nuqtai nazaridan katta qizqish uyg’otmoqda . SHuningdek yodgorlikni saqlash targ’ib qilish va kelajak avlodga yetkazish muhim vazifa bolib qolmoqda.

CHIRCHIQ SHAHRI TARIXI, BUGUNI VA ISTIQBOLLARI

Jumanov Javohir Yoqub o‘g‘li
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Gumanitar Fanlar Fakulteti
tarix yo‘nalishi 1- bosqich talabasi
Ilmiy raxbar: Parmonov Sharofiddin Shavkatovich

Annotatsiya: Mazkur maqolada Chirchiq shahrining tarixiy shakllanishi, Sovet davrida bunyod etilishi, bugungi kundagi ijtimoiy-iqtisodiy holati va kelgusidagi rivojlanish istiqbollari yoritilgan. Shahar sanoat, qishloq xo‘jaligi va ta’lim sohasida o‘ziga xos o‘rin egallab, respublikaning muhim markazlaridan biriga aylangan. Maqolada tarixiy faktlar, rasmiy statistik ma’lumotlar va tahliliy fikrlar asosida Chirchiqning urbanistik o‘sishi hamda uning istiqbollari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar; Chirchiq shahri, tarix, Sovet davri, sanoat, urbanizatsiya, infratuzilma, rivojlanish strategiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy salohiyat, ekologiya, ta’lim markazi.

O‘zbekiston Respublikasi tarkibidagi shaharlar orasida Chirchiq o‘ziga xos tarixiy va iqtisodiy ahamiyatga ega. Toshkent viloyatida joylashgan bu shahar respublikaning yirik sanoat markazlaridan biri bo‘lib, ayni paytda o‘zining tabiiy go‘zalligi va strategik joylashuvi bilan ajralib turadi. Chirchiq shahri XX asr boshlarida sun’iy ravishda bunyod etilgan bo‘lishiga qaramasdan, qisqa davrda jadal rivojlangan. Maqolada Chirchiq shahrining tarixiy shakllanishi, bugungi ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari va istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlari keng yoritiladi.

Chirchiq shahrining tarixiy shakllanishi Chirchiq shahri 1935–1937 yillarda Chirchiq daryosida qurilgan gidroelektr stansiya (GES) atrofida tashkil topgan. GES qurilishi Sovet Ittifoqining industrial siyosatiga muvofiq, Farg‘ona vodiysiga elektr energiyasi yetkazib berish maqsadida amalga oshirilgan edi. Hududning tabiiy geografik joylashuvi, daryo resurslariga boyligi bu yerda sanoat markazi barpo etishga zamin yaratdi. Shahar dastlab "Stalinobod" nomi bilan yuritilgan, keyinchalik "Chirchiq" deb atala boshladi. Chirchiq Sovet davrida elektr energiyasi ishlab chiqarish, kimyo sanoati va qishloq xo‘jaligi uchun texnika ishlab chiqaruvchi yirik markazlardan biriga aylangan. Shu davrda Chirchiq shahrida maktablar, shifoxonalar, sport inshootlari, madaniyat saroylari barpo etilib, zamonaviy infratuzilma shakllangan.

Mustaqillikdan so‘ng Chirchiqning rivojlanishi 1991-yilda O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng Chirchiq shahrining rivojlanishida yangi bosqich boshlandi. Sanoat sohasida xususiy sektorning o‘sishi, xorijiy sarmoyalar jalb qilinishi bilan birga, ijtimoiy sohada ham muhim islohotlar amalga oshirildi. Chirchiq hozirda Toshkent viloyatidagi yirik shaharlardan biri bo‘lib, uning asosiy iqtisodiy ustunliklari quyidagilardan iborat: Kimyo sanoati (Chirchiq elektroximkombinati) Mashinasozlik Qishloq xo‘jaligi texnikasi ishlab chiqarish Qurilish materiallari ishlab chiqarish Shuningdek, Chirchiq shahrida oliy ta’lim muassasalari (Chirchiq davlat pedagogika instituti, texnik kollejlar) faoliyat yuritmoqda. Bu esa shaharning intellektual salohiyatini mustahkamlab, uni ta’lim markaziga aylantirmoqda. Aholi soni yildan-yilga ortib bormoqda. 2023-yil ma’lumotiga ko‘ra, Chirchiqda 170 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladi. Bu esa infratuzilma, uy-joy, transport, ekologiya kabi sohalarda doimiy yangilanish va investitsiya talab qilmoqda. Chirchiqning istiqbollari Bugungi kunda Chirchiq shahrining strategik rivojlanish yo‘nalishlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: Sanoat hududlarini

modernizatsiya qilish – Yangi texnologiyalar asosida ekologik toza sanoat tarmoqlari rivojlantirilmoqda.

Yashil shahar konsepsiyasi – Bog‘lar, xiyobonlar, ekologik toza transport turlari joriy etilmoqda. Turizmni rivojlantirish – Chirchiq daryosi, tog‘li hududlar va tabiat inshootlari turizm uchun qulay imkoniyatlar yaratmoqda. Raqamli infratuzilma – Raqamli xizmatlar, e-hokimlik tizimlari orqali shahar boshqaruvi takomillashtirilmoqda. Ta’lim va ilm-fan – Chirchiqni Toshkent viloyatining ilmiy-ta’lim markaziga aylantirish borasida yangi oliy ta’lim dargohlari va ilmiy laboratoriyalar ochilishi rejalashtirilgan. Bundan tashqari, davlat dasturlari asosida yangi turar joy massivlari, ijtimoiy xizmatlar, transport va yo‘l infratuzilmasi yangilanmoqda. Yevrostandartlarga mos uy-joylar, bolalar bog‘chalari va maktablar qurilishi Chirchiqning shahar sifatini oshirmoqda. Chirchiq shahri bugungi kunda nafaqat sanoat markazi, balki urbanistik jihatdan jadallik bilan rivojlanayotgan zamonaviy shaharga aylanmoqda. Aholining ehtiyojlariga mos turmush sharoitlari yaratish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, uy-joy qurilishi, yo‘l va transport infratuzilmasini yangilash, ichimlik suvi va kanalizatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish bo‘yicha davlat va mahalliy budjet mablag‘lari hisobiga yirik loyihalar moliyalashtirilmoqda. Bu esa shaharda yashovchi fuqarolarning hayot sifati yaxshilanishiga xizmat qilmoqda. Chirchiq shahri ijtimoiy xizmatlar sohasi bo‘yicha ham sezilarli natijalarga erishmoqda. Maktabgacha ta’lim muassasalari, umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va oliy o‘quv yurtlari faoliyati bosqichma-bosqich yangilanib, zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanmoqda.

Yangi kutubxonalar, sport majmualari, bolalar bog‘chalari barpo etilishi yoshlar va bolalar uchun qulay muhit yaratmoqda. Shu bilan birga, aholini ish bilan ta’minlash maqsadida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimi kuchaytirilmoqda. Bandlik dasturlari orqali yiliga minglab yangi ish o‘rinlari yaratilayotgani aholi farovonligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ekologik barqarorlik masalasi ham Chirchiq shahrining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shahar atrofida yirik sanoat korxonalarining mavjudligi ekologik muvozanatni saqlashni talab qiladi. Shu bois, havoning tozaligi, suv manbalarining muhofazasi va chiqindilarni qayta ishlash tizimi ustida doimiy ravishda ish olib borilmoqda. Ekologik nazorat xizmatlari, maxsus laboratoriyalar va monitoring punktlari orqali atmosfera va daryo suvlarining holati doimiy ravishda nazorat qilinmoqda. Yashil hududlarni kengaytirish, daraxt ekish aksiyalari, "Yashil makon" kabi loyihalar orqali

Chirchiq shahri ekologik xavfsiz va qulay yashash joyiga aylantirilmoqda. Bundan tashqari, Chirchiq shahri o‘zining tabiiy zaxiralari va geostrategik joylashuvi sababli turizm sohasida ham salohiyatga ega. Ayniqsa, shahar yaqinidagi tog‘li hududlar, Chirchiq daryosining sohillari va dam olish zonalari mahalliy va xorijiy sayyohlarni jalb qilmoqda. Shu bois, turizm infratuzilmasini rivojlantirish — mehmonxonalar, rekreatsion zonalar, zamonaviy dam olish maskanlari qurilishi ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanmoqda. Turizmni rivojlantirish orqali nafaqat yangi ish o‘rinlari yaratiladi, balki shahar budjetiga tushum ham ortadi. Chirchiq shahrining yana bir muhim ustunligi – bu ta’lim va ilm-fan sohalaridagi o‘sish sur’atlaridir. Chirchiq davlat pedagogika instituti va boshqa oliy o‘quv yurtlari nafaqat viloyat, balki respublika miqyosida ham malakali kadrlar tayyorlayotgan muassasalardir. Ilmiy tadqiqot laboratoriyalari, zamonaviy auditoriyalar, xorijiy tajribaga asoslangan o‘quv dasturlari Chirchiqni yaqin kelajakda yirik ta’lim klasteriga aylantirish uchun asos bo‘lmoqda. Bu esa yosh avlodning ilmga, fan-texnik taraqqiyotga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularni yetuk mutaxassis sifatida tayyorlash imkonini beradi. Shuningdek, Chirchiq shahri hududida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanmoqda. Raqamli boshqaruv tizimi, "aqlli shahar" loyihalari, elektron xizmatlar va mobil ilovalar orqali fuqarolarga tezkor va qulay davlat xizmatlari ko‘rsatish yo‘lga qo‘yilgan. Bu esa byurokratiyani kamaytirish, shaffoflikni ta’minlash va fuqarolik ishonchini oshirishga xizmat qilmoqda. “Elektron hokimlik” tizimi orqali aholi murojaatlari tezkorlik bilan ko‘rib chiqilmoqda, jamoat fikri hisobga olinmoqda.

Xulosa Chirchiq shahri qisqa tarixiga qaramay, O‘zbekistonning muhim sanoat va ilmiy markazlaridan biriga aylangan. Uning shakllanishi, Sovet davridagi yuksalishi va mustaqillik yillaridagi rivojlanishi bu hududning salohiyatini namoyon etadi. Bugungi kunda Chirchiq shahri yangi urbanistik bosqichga qadam qo‘ymoqda — innovatsiya, ekologiya, zamonaviy infratuzilma va ta’lim sohalari asosida taraqqiyot yo‘liga kirgan. Chirchiqning istiqbollari yurtimiz iqtisodiyoti va madaniy hayotiga katta hissa qo‘shishi muqarrar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 4-jild. – Toshkent: 2005.
2. Jo‘rayev, A. "O‘zbekiston shaharlari tarixi" – Toshkent: Sharq, 2012.

3. “Chirchiq shahrining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi” – Respublika iqtisodiy tadqiqotlar instituti, 2021-yil.
4. “Chirchiq shahar hokimligi” rasmiy veb-sayti – www.chirchiq.uz
5. Sobirov, R. “O‘zbekiston shaharsozligi tarixi” – Toshkent: O‘zbekiston, 2010.
6. “Urbanizatsiya va shaharlar rivoji” – Jahon banki hisobotlari (O‘zbekcha tarjima), 2020.

TURKISTONDA YANGI USUL MAKTABLARINI FAOLIYATI VA JADIDLARNI MULOHAZALARI

Jumanova Shodiyona Asqar qizi
Chirchiq davlat pedagogika Universiteti
Gumanitar fanlar Fakulteti Tarix
yo’nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Jadid mutafakkirlari, xususan Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Shakuriy Abdulhamid Cho‘lpon va boshqalar, yangi usul maktablarini milliy taraqqiyotning kaliti deb bildilar. Ular eski usuldagi maktablarni tanqid qilib, yangi maktablarda fan va texnikani o‘qitish orqali yosh avlodni zamonaviy jamiyatga tayyorlashni targ‘ib qildilar. Jadidlarning maktablar haqidagi mulohazalari bugungi kunda ham ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, ular o‘zbek xalqining ilm-ma’rifatga bo‘lgan intilishini kuchaytirgan.

Kalit so‘zlar: “usuli jadid” maktabi “usuli savtiya”, Shakuriy, Ishoqxon to‘ra Ibrat, Muhammadxon Muhammadov, . Besh Qovoq mahallasi.

XX asr boshlari o‘zbek xalqi hayotida ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy o‘zgarishlar davri bo‘ldi. Jadidchilik harakati vakillari asoratga tushib qolib, butkul tanazzulga yuz tutgan o‘lkani muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch ma’rifat ekanligini to‘liq anglab etdilar, maorif va ta’lim-tarbiyani tubdan o‘zgartirish, yangi maktab tuzish masalalarini asosiy o‘ringa ko‘tardilar[1.135-b].

Jadid taraqqiyparvarlari tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktablari eski maktablardan keskin farq qilar edi, chunki ularning darsxonalarida parta, doska, stol va stullar mavjud bo‘lgan. Mazkur maktablar o‘qitish uslublari bilan farqlanib, “usuli savtiya” ya’ni tovush usulidan foydalanishgan va o‘qish va yozish birga o‘rgatilgan. Shuningdek, yangi

maktablarda arifmetika, tabiatshunoslik, geografiya, grammatika kabi fanlar arab va fors tillarida yangi darsliklar asosida oʻqitila boshlagan. Jadid matbuoti sahifalarida “usuli jadid” maktablari haqida berilgan ma’lumotlar XX asr Turkiston jamiyati uchun yangilik boʻlgan. Ushbu maktablarning jamiyat tomonidan qabul qilinishi murakkab vaziyatda kechgan, chunki an’anaviy maktab va madrasalarda tahsil olgan kishilar zamon ruhini jadid taraqqiyparvarlari kabi anglab yetmagan. Shuning uchun gazeta sahifalarida Rahmatullo Rahim “Buzuq maktab bolasi usuli jadida” maqolasida “usuli jadid” maktabini buzuq maktab deb haqorat qilgan. U bu maktabning asoschilari Behbudiy va Shakuriylarni nodonlikda ayblagan Mahmudxoʻja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Choʻlpon, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Hoji Mu’in kabi dovyurak ajdodlarimiz milliy gʻoyani barqaror kuchga aylantirishda keskin harakat qildilar, kurashdilar. Ularning gʻoyalari xalqimizni ma’rifatli qilish, oʻzligini anglashga tayyorlash va shu yoʻl bilan milliy ozodlikka erishishni ta'minlashdan iborat edi. Toshkentning Shayxovand Tahur, keyinchalik shaharning boshqa turli dahalarida birinchi “usuli jadid” maktablari ochildi. Munavvar qori Abdurashidxonov bunday maktablarning kundalik oʻkuv-tarbiya ishlaridan tortib, yillik bitirish imtihonlarini uyushtirishgacha, “usuli savtiya” metodini iqtidorli yosh oʻqituvchilarga oʻrgatishdan tortib, maktablarni zamonaviy darslik va qoʻllanmalar bilan ta'minlashgacha va yangi darsliklar yaratishgacha boʻlgan uzluksiz jarayonni boshqardi. ratishgacha boʻlgan uzluksiz jarayonni boshqardi. Munavvar qori Toshkentda ochgan usuli savtiya maktablarida oʻzi tuzgan oʻquv dasturlari asosida jamoat oldida ochiq imtihonlar tashkil qilgan. Imtihonlarga oʻquvchilarning ota-onalaridan tortib, shariat-din peshvolarigacha, hatto oʻlkada katta e'tibor qozongan olimu shoirlarni, ma'rifatli boylarni ham taklif qilgan. Mana, uning Namanganga - Ishoqxon toʻra Ibratga yoʻllagan “Da’vatnoma”si: “Hurmatlu Ishoqxon hoji janoblarina! 1907 yil may oyindan e'tiboran Toshkentda Tarnovboshi mahallasinda “Xoniya” maktabinda talabalarni yillik imtihoni boshlanur. Siz hurmatludan rijo qilurmizki, tavobingizda boʻlgon usuli jadidiya maktablari mudirlari ila imtihon majlislarina tashrif qilsangiz, muallim va shogirdlar Sizdan mamnun boʻlur edilar. Degan ekanlar[2.8-15].

XIX asr oxiri – XX asr boshida Turkistonda 400 ga yaqin madrasa mavjud edi Jumladan, 1902 yilda Kaspiyorti viloyatida 13 ta madrasa faoliyat yuritgan. 1911 yilda esa Sirdaryo, Farg’ona va Samarqand viloyatlarida bu maktablarning soni 328 taga yetgan. Qorixonada maktabni tamomlagan 10

yoshdan katta o'g'il bolalar o'qishga qabul qilingan, va ularda Qur’on suralari yodlatilgan[3, 110]. 1892 yilda Farg‘ona viloyatida qorixonalar soni 252 ta, 1897 yilda 341 ta, 1899 yilda Samarqand, Farg‘ona va Sirdaryo viloyatlarida 333 ta bo‘lganQo‘qondagi yangi usul maktablardan 4 tasi 1893-1900 yillarda vujudga kelgan. Qo‘qondagi birinchi jadid maktabi 1893 yilda Mirayubboy mahallasida tashkil qilingan. Bu shahardagi eng yirik jadid maktablaridan biri bo‘lgan. Undagi 100 o‘quvchiga o‘qituvchi Ahmadjon qori va uchta yordamchisi ta'lim bergan. 1899 yilda Xolibobo mahallasida masjid qoshida yangi usul maktabi ochilgan. Unda 25 o‘quvchi o‘qigan, keyin o‘zbek Xo‘jaxon Axmadxo‘ja o‘qituvchilik qilgan Bandul mahallasida 1899 yilda ochilgan yangi usul maktabda 115 o‘quvchi o‘qigan va Muhammadxon Muhammadov dars bergan. Besh Qovoq mahallasi masjidi qoshida 1900 yilda ochilgan yangi usul maktabida 115 o‘quvchi bo‘lib tatar Salohiddin Mezitov ta'lim bergan. Bulardan tashqari Qo‘qonning Daxmai Shohon mahallasida 1901 yilda, G‘alchasoy mahallasida 1902 yilda, Bekbachcha mahallasida 1904 yilda va boshqa yangi usul maktablari faoliyat ko‘rsata boshlagan[3.17].

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar milliy uyg‘onish harakatining kuchayishiga olib keldi. Shu jarayonda yangi usul (usuli jadid) maktablarining tashkil etilishi xalqni ma’rifatli qilish, millatning tafakkurini uyg‘otish va zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi., yangi usul maktablari Turkiston jadidchiligining asosiy amaliy ifodasi bo‘lib, bu maktablar nafaqat savodxonlikni oshirdi, balki milliy o‘zlikni anglash, madaniy uyg‘onish va mustaqillik g‘oyalarining shakllanishiga ham asos soldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каримов. И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. //Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. 7-жилд. - Т.:Ўзбекистон, 1999.- Б . 135.

2. Афандизода . Мунаввар кори. Ёш Туркистон, 1934, № 50, январь Биринчи китоб. - Т.: Ғафур Ғулом. 2004 - Б. 8-15.

3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 11-jild. – Toshkent: Davlat milliy nashriyoti, 2005. – B. 110.Айтмамбетов Д.А. Дореволюционные школы в Киргизии. – Фрунзе: Илим, 1961. – С. 35

4. Казаков. Т. К. Общественно-политическое положение в Ферганской долине и джадидское движение в начале Х Х века. Ташкент

IBTIDOIY DINIY QARASHLARNING O‘ZBEK XALQI HAYOTIDAGI IZLARI

Jumayeva Nilufar Baxtiyor qizi
Toshken viloyati Chirchiq davlat pedagogika universituti talabasi
Ilmiy rahbar: B.M.Qandov ChDPU dotsenti, f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Qashqadaryo viloyatining qadimgi e’tiqod va marosimlari, mazkur viloyatining Qamashi tumanida olib borilgan dala tadqiqotlarimiz davomida xalqimiz orasida hali hamon fiteshizm, animizm, totemizm, shomonizm va boshqa turli magik e‘tiqodlarning yaxshi saqlanib qolganligini va xalq orasida bu marosim va e’tiqodlarning namoyon bo‘lish jarayonlari haqida, mamlakatimizga islom dini kirib kelguniga qadar bo‘lgan davrdagi diniy e’tiqodlar tarixi, evolyutsiyasi va ularning an’anaviy jamiyatda saqlanib qolgan izlari to‘g‘risida qisqacha bayon qilib o‘tilgan.

Tayanch so‘zlar: animizm, totemizm, shomonizm, magiya, marosim, e’tiqodlarning turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lish asoslari, tuya totemi va hakazolar.

Tuya totemi: Mazkur totemik qarash Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanida va boshqa bir qator tumanlarida mavjud. Bu yerda tuya biron voqea yoki tabiiy holat, masalan farzand tug’ilishi va shunga o‘xshagan vaqtli holatlarda voqeani kechikishiga nisbatan totem hayvon sifatida qaraladi. Buning kelib chiqishining asosiy sababi tuya o‘z farzandini 13-14 oy mobaynida o‘z vujudida saqlasidir. Xalq orasida kechikkan voqea yoki holatlar sodir bo‘lganda „Tuya go‘shti yedingmi?” maqoli ham qo‘llaniladi. Bunda asosan, homilador ayollarda tug‘ruq jarayoni kechiksa, tuya yungi yoki uning go‘shti tug‘ruq jarayonini boshlashga olib keladi deb qaralgan. Homlador ayolga tuya yungi ichirilgan yoki go‘shti yedirilgan ekan. Bazi hollarda esa tuya yungi olib kelinib, homilador ayol qo‘liga bog‘langan. Va bu orqali tug‘riq jarayoni boshlanadi deb ishonishgan. Bu kabi marosimlar hali hamon xalq orasida saqlanib, o’tkazilib kelinmoqda.

Qashqadaryo viloyatini etnik o‘rganar ekanmiz, bazi magik va animistik qarashlarning hali hamon xalq orasida turli irimlar ko‘rinishida saqlanib qolganligini ko‘rishimiz mumkin. Xususan aytadigan bo‘lsak, turli narsalarni masalan, **supurgi orqali fiteshizm**ni ifodalagan qarashlar uchraydi. Supurgiga falokat, yomonlik chaqiruchisi sifatida qarashgan. Chunki u insonlar uyidagi turli yomon narsalarni tozalab o‘zida saqlaydi va bu narsalarni tashuvchisiga aylanib qoladi. Shu sababli supurgi doimo uydan uzoqda saqlangan, ayniqsa, uni kirish joy, darvoza va uy oldiga saqlash, uni tik

holatda qoldirish qat'iyan man qilingan. Hatto, insonlar bir joydan boshqa bir joyga masalan, biron uyga ko‘chishdan oldin falokatlarni tashlab ketish ma'nosida supurgini tashlab ketishar ekan. Bundan tashqari yana boshqa bir qarash ham mavjud bo‘lib, bu animistik qarashlarga borib taqaladi. Bunda o‘tganlarning ruhi o‘z yaqinlarini, uyni ko‘rish uchun tashrif buyurganda agar uy oldida supurgi bo‘lsa, ruhlarning ko‘z oldi qorong‘ulashadi va uyga kira olishmaydi deb hisoblashgan.

Qalampir fiteshizmi: Ma'lumki, insonlar diniy qarashlarida turli balolar, yomon ko‘zlar va ins-jinslardan o‘zlarini va yaqinlarini, uylarini asrab avaylashga harakat qilishgan. Bunday irimlar Qashqadaryo viloyatida ham talaygina uchraydi. Misol uchun, qalampirga asrab avaylovchi, balolardan saqlovchi vosita sifatida qaralgan. Bu sababli har bir xonadonning kirish joyiga qalampir osib qo‘yilgan. Hatto, insonlar o‘zlarini ham balolardan asrab avaylash uchun qalampir ko‘rinishida yasalgan turli taqinchoqlarni taqib yurishgan.

Mazkur viloyatda shomonlikka doir turli aqidalar ham mavjud bo‘lib, bunday ish bilan shug‘ullanuvchilar baxshi, qoraqushnoch va folbin nomlari bilan atalgan. Ular bir biridan qiladigan ishlari bilan ajralib turishadi. Baxshi va qoraqushnoch bo‘lish, Farg‘ona viloyati shomonistik qarashlaridan biroz farq qiladi. Bu yerda baxshichilik avloddan avlodga o‘tadi deb qaralgan. Bu jarayon “Qo‘l olish” deb atalgan. Agar ajdodlardan kimnidir qo‘li bo‘lsa bu keyingi avlodlarga ham albatta o‘tishi kerak deb hisoblangan. Baxshilar ko‘p hollarda, deyarli 100% hollarda ayollardan chiqqan. Baxshi va qushnoch bo‘lish uchun ma‘lum yosh ham belgilangan bo‘lib, baxshi yoki qushnoch bo‘lish uchun 35, 40 yoshdan o‘tgan bo‘lishi kerak bo‘lgan. Bundan kelib chiqadiki, ayollarda mazkur yoshlardan keyin klimaks davri boshlanadi va bu holatdagi o‘zgarishlarni ko‘p hollarda shomonlik bilan bog‘lashadi.

Shomonlar ya'ni xalq tili bilan aytganda baxshilar ma‘lum muddat chilla jarayonida o‘tirgan. Chilla vaqti eng kamida 3 kundan, 7, 20 va eng uzun 40 kun davom etgan. Chilla vaqtida chillali ayol yoki erkak ko‘chaga chiqiqshi qat'iyan man qilingan. Mazkur holat sehirli raqamlar fetishizm alomatlari bilan bog‘liqdir. Mazkur marosim “Qo‘l olish” deb atalgan. “Qo‘l olish” asosan katta Baxshilardan olingan. Bir guruh ayollar yig‘ilib, mazkur marosimni o‘tkazganlar. Bunda, baxshilikni qabul qilish uchun bir qo‘y qurbonlik qilib, qon chiqarilgan. Bir xonaga bir nechta ayollar to‘planishib, marosim o‘tkazishgan. Ikkita payola olib kelingan. Ularning biriga suv boshqasi esa qurbunlik qilingan qo‘yning qoni bilan to‘ldirilgan. Baxshilikni qabul

qilayotgan insonning ko‘zlari mato bilan berkitilgan va ko‘zlari yumuq holda piyolalardan birini tanlagan va undagi suv yoki qonni ichgan. Agar u tanlagan va ichgan piyolada suv bo‘lsa u quyiroq baxshi bo‘lgan, agar qon bo‘lsa u katta baxshi bo‘ladi deb hisoblashgan. Demak bu hol ularning mavqeini belgilab bergan.

Bundan tashqari baxshilar o‘zlarining hamroh hayvonlariga ham ega bo‘lishgan ekan. Bu hayvonlar turli ko‘rinishlarda bo‘lib, Oysulton baxshining oq rangli iloni bo‘lib, bu uning momo parisining ruhi hisoblangan ekan.

Hatto baxshilar qiladigan ishlari, o‘tkaza oladigan marosimlarida ham farqlar bo‘lgan va bu ularni mavqeidan dalolat bergan. Masalan, qoraqushnochlar asosan, kichikroq turdagi marosim va amallarni bajarishgan, baxshilarning esa martabasi biroz balandroq hisoblanib, ular katta turlardagi marosimlarni, bazmlarni o‘tkazishgan. Baxshilarda doira va qamchilari mavjud bo‘lgan bo‘lib, bu ularning atributi hisoblangan.

Ular maxsus “Bog‘im” deb atalgan marosimni o‘tkazishgan. Bu marosim biron insonning kasal bo‘lganida o‘tkazilgan. Bu bazmda 6 yoki 7 ta ba’zan 10 ta yoshi katta ayollar yig‘ilib, supra yozishadi. Bir qo‘y so‘yilib, qurbonlik qilinadi. Supra atrofida aylanib, huddiki qalandarlarga o‘xshab, “ hey-yo hey, hey-yo hey, huppa huppa, huppa huppaa” deb qo‘shiq aytib, raqsga tushishadi. Bunda ular jinlar va ota ruhlari bilan bazm qilayotgan hisoblangan.

Xulosa o‘rnida, qadimiy diniy tadqiqotlar izlarini tatqiq etish o‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi, madaniyatini o‘rganishda eng muhim manbalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Аҳмаджон Аширов. Ўзбек халқининг қадимги етиқод ва маросимлари – Т:. Алише Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти. 2007-й. 276 б.

FOYDALANILGAN INTERNET TARMOQLAR:

1. www.healthy-food-near-me.com;
2. www.wikipedia.org.

TOSHKENT SHAHRINING MUSTAQILLIK DAVRIDAGI MADANIY TARAQQIYOTI: SAN'AT VA ARXITEKTURA MISOLIDA

Jumayeva Nilufar Bahtiyor qizi
Chirchiq davlat pedagogika universituti talabasi
Ismoilov Narzulla Tolliboyevich
Chirchiq davlat pedagogika universituti talabasi

Annotatsiya: Toshkent shahrining mustaqillik davrida madaniy taraqqiyoti, xususan, san'at va arxitektura sohasidagi o'zgarishlarni tahlil qiladi. Mustaqillik yillarida shahar ko'rinishidagi modern va milliy elementlarning uyg'unlashuvi, yangi madaniy markazlarning paydo bo'lishi va san'atning turli sohalari rivoji ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda davlat siyosati va ijtimoiy-iqtisodiy omillar madaniy rivojlanishga qanday ta'sir qilgani haqida mulohaza yuritiladi.

Краткая аннотация: Статья посвящена анализу культурного развития города Ташкента в период независимости, в частности, в области искусства и архитектуры. Рассматриваются изменения в облике города, гармонизация современных и национальных элементов, появление новых культурных центров и развитие различных видов искусства. В исследовании обсуждается влияние государственной политики и социально-экономических факторов на культурное развитие.

Uzoq ming yilliklar tarixi shundan dalolat beradiki, o'zbek milliy davlatchilik tarixi eng avvalo ma'naviyat – ma'rifatning jamiyat hayotida muhim o'rin egallaganligi bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu azaliy an'anaga mustaqillik yillarida ham alohida e'tibor berilishi juda ahamiyatli bo'ldi. Qayd etish lozimki, istiqlolning dastlabki davrlaridanoq madaniyatning metodologiyasi o'zgardi. Mustaqillik yillari O'zbekiston poytaxti Toshkent shahri uchun ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarda ulkan o'zgarishlar davri bo'ldi. 1991-yilda davlat mustaqilligini e'lon qilishi bilan Toshkent nafaqat mamlakatning siyosiy va iqtisodiy markazi, balki madaniy rivojlanishning ham lokomotivi sifatida o'ziga xos yo'lni bosib o'tdi.

Mustaqillikdan so'ng Toshkent shahrining arxitekturasi sezilarli darajada o'zgardi. Shahar ko'rinishida sovet davridagi monoton binolar o'rniga milliy uslubdagi zamonaviy inshootlar paydo bo'ldi. Masalan, Alisher Navoiy nomidagi davlat akademik katta teatri rekonstruksiya qilindi va uning

tashqi koʻrinishi oʻzbek milliy naqshlari bilan boyitildi [1]. Mustaqil Oʻzbekiston davlatining ramzi sifatida qurilgan Mustaqillik maydoni va Humo majmuasi zamonaviy arxitektura va milliy an'analarning sintezi sifatida alohida e'tiborga sazovor yerlardan biriga aylandi.

Davlat tomonidan qabul qilingan shaharsozlik dasturlari, xususan, 2000-yillarning boshlarida boshlangan "Toshkentning bosh rejasi" loyihasi shahar infratuzilmasini modernizatsiya qilishga xizmat qildi. Yangi koʻp funksiyali majmualar, savdo markazlari va madaniy ob'ektlar qurilishi shahar aholisining turmush tarziga ijobiy ta'sir koʻrsatdi. Shu bilan birga, Amir Temur xiyoboni, Istiqlol saroyi kabi ob'ektlar shaharning global shahar sifatidagi imijini mustahkamladi [2].

Toshkent shahrining mustaqillik davridagi madaniy hayotida san'atning turli tarmoqlari, xususan, tasviriy san'at, teatr va musiqa sohasi muhim oʻrin tutdi. Oʻzbekiston Tasviriy san'at galereyasi va Ilhom teatri kabi muassasalar yangi avlod rassomlari va aktyorlarining ijodiy faoliyat markaziga aylandi. 2000-yillardan boshlab xalqaro san'at festivallari, masalan, "Toshkent bahori" va "Sharq taronalari" shaharni global madaniy makon sifatida tanitdi [3]. Davlat tomonidan san'atni qoʻllab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan "Oʻzbekiston ijodkorlari uyushmasi" va boshqa tashkilotlar yosh iste'dodlarni rivojlantirishga xizmat qildi. Mustaqillik davrida Toshkentda xususiy galereyalar va san'at studiyalarining koʻpayishi ham diqqatga sazovor. Bu jarayon iqtisodiy liberallashuv va madaniy sohada xususiy sektorning faollashuvi bilan bogʻliq edi[4].

Toshkentning madaniy taraqqiyoti davlatning maqsadli dasturlari va iqtisodiy oʻsish bilan chambarchas bogʻliq. 1990-yillarning iqtisodiy qiyinchiliklaridan soʻng, 2000-yillarda neft va gaz eksportidan tushgan daromadlar shahar infratuzilmasini rivojlantirishga yoʻnaltirildi. Madaniy ob'ektlarni qurish va rekonstruksiya qilish uchun ajratilgan mablagʻlar shaharning estetik koʻrinishini yaxshiladi [5]. Bu jarayon shaharning estetik koʻrinishini yaxshilash bilan birga, madaniy markazlar va san'at muassasalarining rivojlanishiga zamin yaratdi. Masalan, yangi galereyalar va teatrlar qurilishi iqtisodiy resurslarning madaniy sohada qoʻllanilishi natijasida amalga oshirildi, bu esa Toshkentning global madaniy makon sifatidagi obroʻsini oshirdi.

Mustaqillik yillarida Toshkent shahri madaniy jihatdan sezilarli yuksalishni boshdan kechirdi. Arxitektura sohasida milliy va zamonaviy elementlarning uygʻunlashuvi, san'atning turli tarmoqlaridagi yutuqlar va

davlatning maqsadli siyosati shaharni nafaqat mamlakatning, balki Markaziy Osiyoning madaniy markaziga aylantirdi. Kelajakda Toshkentning madaniy rivojlanishi global tendensiyalarni hisobga olgan holda davom etishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rahimov, A. “Toshkent arxitekturasining mustaqillik davri yutuqlari.” Toshkent, 2020. – 45-bet.

2. Karimova, S. “O‘zbekiston shaharsozligi: tarix va zamonaviylik.” Toshkent, 2018. – 67-bet.

3. Saidov, M. “O‘zbek san’ati: mustaqillik davri.” Toshkent, 2022. – 112-bet.

4. Xo‘jayev, R. “Madaniy rivojlanish va iqtisodiy liberallashuv.” Toshkent, 2019. – 89-bet.

5. To‘rayev, B. “O‘zbekiston iqtisodiyoti: mustaqillik yillari.” Toshkent, 2021. – 34-bet.

XIX – XX ASRLARDA TOSHKENT VOHASI: ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA YONDASHUVLAR.

Kamoliddinova Olimaxon Baxriddin qizi
Ilmiy rahbar: Xayritdinov Otabek Murotjon o‘g‘li
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti talabasi

Annotatsiya: mazkur maqolada XIX – XX asrlarda Toshkent vohasi tarixini o‘rganar ekanmiz bu davrlarda olib borilgan tadqiqotlar, tadqiqotlar asosida yo‘naltirilgan yondashuvlar bilan tanishib chiqamiz. XIX asrda ruslarning bostirib kirishi shu davr uchun eng katta siyosiy masala bo‘ldi. Ruslar bosib olganlaridan keyingi davr, ya’ni XX asrda bo‘lib o‘tgan voqealar, imperiyaning olib borgan siyosati kabi ma’lumotlar tahlil qilingan .

Kalit so‘zlar: Toshkent, rus, imperiya, O‘rta Osiyo, jadid, Chernyayev, Aliquli, Kaykovus, matbaachilik, rus-tuzem, Muhammad Solih, Chirchiq,

O‘rta Osiyoning strategik jihatdan muhim qismi bu Toshkent shahridir. Ham iqtisodiy, ham siyosiy jihatdan markazda joylashgan Qo‘qon xonligi tarkibiga kiruvchi bu shahar XIX asrning 1-yarmida xonlikning muhim siyosiy va savdo markaziga aylangan edi. Toshkent shahrida bu vaqtda 80000 ga yaqin kishi yashagan. Shahar asosini XIX asr o‘rtalariga qadar Ko‘kcha,

Sebzor, Beshyog'och, Shayxontohur dahalari tashkil etgan. Har bir daha ko'plab mahallalardan tashkil topgan bo'lib, ularning soni XX asr boshlariga kelib 260 tani tashkil etgan. Shahar hududidagi masjidlar soni 1899 yili 180 ta, 1912 yili – 345 tani tashkil etgan bo'lsa, madrasalar 1912 yilga kelib – 16 tani tashkil etgan. Xristian cherkovlari 1910 yili – 15 tani, boshqa dinga mansub ibodatxonalar – 6 tani tashkil etgan[4]

Qo'qon xonligining eng muhim shahri hisoblanmish Toshkentga sovet imperiyasi qiziqishi aynan shu davrda kuchayadi. Bosib olish uchun harakatlarni boshlab yuboradi. Podsho Aleksandr II bu shaharni olishni man qiluvchi qat'iy buyruq bergan bo'lishiga qaramay, Chernyayev 1864-yil 27-sentabrda yo'lga chiqadi. Shaharni himoya qilish uchun Toshkent aholisining barchasi birlashadi. Shahar mudofaasi uchun Toshkent garnizonida 30 ming himoyachi, 48 mis va 15 ta cho'yan to'p bor edi. Toshkent shahar aholisi ona yurtni himoya qilish uchun bir tanu bir jon bo'lib dushman bilan tengsiz jangda olishadi.

Tarixchi Muhammad Solihning "Tarixi jadidi Toshkand" asarida yozishicha, "shu davrda Toshkentning 12 ta darvozasi bo'lib, shahar atrofi baland hamda qalin devor bilan o'ralgan. Devor ustida otliq askar bemalol yuradi. Chor qo'shinlari shahar yaqinidan turib to'plardan o'qqa tutadilar. O'z navbatida javob o'qlari ham otiladi. Bosqinchilarning bir guruhi shahar devori atrofida qazilgan zovurga tushib oladi. Himoyachilarning uyushgan hujumiga chor askarlari dosh bera olmaydi. Dushman 72 kishini yo'qotadi va bu holni ko'rgan general Chernyayev Chimkentga qaytishga majbur bo'ladi." deb yozadi u o'z asarida[3].

Yuqoridagi ma'lumotlarga tayanib shuni aytish mumkinki, Chernyayev chekingan bo'lishiga qaramay, bosib olish fikridan qaytmaydi. U 1865-yil 24-aprelda Niyozbek qal'asi(hozirgi G'azalkent)ni egallaydi. Hamma davrda bo'lgani kabi bu davrda ham xoinlar bo'ladi. Xoin Toshkentni suv bilan ta'minlab turuvchi Kaykovus arig'i to'g'onini buzib, suvni Chirchiq daryosiga oqizishi natijasida aholi suvsiz qolishini aytadi. Chernyayev buni amalga oshiradi. Natijada shahar aholisi suvsiz qoladi, shunga qaramay, xalq shaharni himoya qilish uchun barcha tayyorgarliklarini ko'rishadi. Toshkent uchun juda katta jang bo'ladi. Xatto o'sha davr yozuvchilaridan biri tarixchi Muhammad Solih ham mudofaa janglarida ishtirok etadi. Qo'qondan lashkarboshi Aliquli boshchiligida qo'shin keladi. Aliquli dushmanga qarshi ko'plab muvoffaqiyatli janglarni olib boradi. Lekin janglaridan birida u vafot

etadi. U vafotidan so‘ng ko‘p vaqt o‘tmasdan Chernyayev shaharni qo‘lga kiritadi. Shahar bosib olinganligi haqida xabarni podshoga ma’lum qiladi[3].

Toshkent shahri bosib olingan so‘ng ko‘plab islohotlarni amalga oshirildi, aholiga imtiyozlar berildi. Jumladan, mustamlaka aylantirilgan boshqa hududlarga nisbatan Toshkentga ko‘proq e’tibor beriladi. Aynan mana shu shahar markaz vazifasini bajardi. Ruslarning birinchi olib borgan siyosatlaridan biri bu maktab islohotidir. Ya’ni rus-tuzem maktablarining tashkil etilishi. Dastlab maktablar rus zobit, amaldor, askar bolalari uchun tashkil etilgan. Keyinchalik oddiy xalq bolalari uchun ham maktablar tashkil etila boshlanadi. Qisqa muddat ichida rus-tuzem maktablarini soni oshib boradi, bu esa ta’lim sifatini pasaytiradi. Maktablar tashkil etishning asosiy maqsadi - xalqni o‘z tilini yo‘qotish, asosiy til sifatida rus tilini joriy qilish bo‘lgan. 1898-yilda Farg‘ona gubernatori Korolkov keyingi besh yil ichida boshqaruv tizimi rus tiliga o‘tkazilsa, aholi o‘z farzandi kelajakda yuqori mansabga erishishni ko‘zlab rus maktablariga bera boshlashadi deb ta’kidlaydi. Shu tariqa ta’lim sohasida ko‘plab islohotlar amalga oshiriladi.[4]

Toshkentning Turkiston general gubernatorligi markazi etib belgilanishi va general gubernator K.P.fon Kaufmanning shahar kelishi bilan shaharga ko‘plab xizmatchilar va harbiylar kelib o‘rnasha boshladi, ayni vaqtda shaharda turli ko‘lamdagi va me‘moriy uslubdagi qurilishlar ham avj olib bordi. Toshkentda mavjud bo‘lgan Abulqosim, Ko‘kaldosh, Baroqxon, Beklarbegi, Eshonguzar madrasalari ma‘lum va mashhur bo‘lgan ilm markazlari safidan joy olgan edilar. Toshkent shahri 1865 yili Rossiya imperiyasi tomonidan zabt etilganidan so‘ng, Bo‘zsuv kanali chap sohilida —yangi shaharga asos solindi. Shaharning bu qismida mustamlaka ma‘muriyati joylashgan hamda Rossiyadan ko‘chib kelgan aholi yashaydigan joyga aylangan edi. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida shaharning —yangi qismida qurilgan eng mashhur binolardan o‘sha davrdagi Davlat banki, ayollar gimnaziyasi (hozirgi Toshkent davlat yuridik instituti), Toshkent erkaklar gimnaziyasi, Kadetlar korpusi (hozirgi I Toshkent tibbiyot akademiyasi hududi), Knyaz Nikolay Konstantinovich saroyi (hozirgi Tashqi ishlar vazirligining qabulxonasi), Real bilim yurti, Kaplan dorixonasi, Toshkent shimoliy vokzali, Turkiston davlat sud palatasi va boshqalarni ko‘rsatib o‘tish mumkin.[2]

Toshkent shahrida ilk kutubxona tashkil etiladi va kutubxona uchun Moskva hamda Orenburgdan kitoblar olib kelinadi. Uni ilk o‘quvchilar albatta ruslar bo‘lgan, chunki adabiyotlarning barchasi rus tilida bo‘lgan edi. 1868-

yilda Toshkentda birinchi bosmaxonaning tashkil etilishi bilan Turkistonda kitob bosish, matbaachilik yoʻlga qoʻyildi. 1870-yilda bir qator kattaroq boshqa bosmaxona tashkil etilgandan keyin, "Turkestanskiye vedomosti" gazetasi chiqarila boshlandi. Shu yildan eʻtiboran bu gazetaning oʻzbek va qozoqtillarida (arab alfavitida) ilovalari chiqa boshladi. Matbuotchilikning ilk kurtaklari boʻlmish gazetchilik rivoj topa boshlaydi. Gazetalar asosan oʻzbek, qozoq, rus tillarida chop etiladi. Bunday yangiliklar xalqning talablaridan kelib chiqib emas, balki hukumat oʻz maqsadlarini amalga oshirish uchun qilinadi.[1]

XIX asrning 80-90-yillarida Toshkent va boshqa yirikshaharlarda turli ilmiy jamiyatlar (arxeologiya, geografiya,etnografiya kabilar) tashkil etilgan. 1896-yilda Samarqandda "Tarixiy muzey" ish boshladi. Bir qator ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirildi.Bu borada rus olimlari I.V.Mushketov, N.A.Seversov, A.P.Fedchenko, P.P.Semenov-Tyan-Shanskiy, N.M.Prjevalskiy va boshqalar samarali ishlar olib bordilar.[4]

XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida jadidchilik harakati keng quloch yoyib rivojlandi. "Jadid" soʻzi arabcha yangi usul degan ma'noni anglatadi. Jadidchilik harakati Turkistonda XIX asrning oxirida quruq madaniy-ma'rifiy harakatning, ya'ni eski maktablarning qiyin o'qitish tizimiga nisbatan yengil tovush usuliga asoslangan yangi uslub (metod) asosida oʻqitishga oʻtishdangina iborat emasdi, ayni chogʻda turk-islom huquqiy munosabatlarining millatga oʻrgatilishi, milliy-ma'rifiy, taraqqiyot va milliy istiqlol muammolarini ham oʻz ichiga olgan edi[2]. Jadidchilik harakati namoyondalari Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Choʻlpon, Mahmudxoʻja Behbudiy kabi yozuvchi hamda siyosatchilar Oʻzbekiston uchun muhim boʻlgan koʻplab ishlarni amalga oshirganlar.

Jadidlarning tashabbusi bilan Toshkent, Buxoro, Samarqandda jadid maktablari tashkil etiladi. U yerda oʻqigan oʻquvchilar jadidchilik ruhida tarbiylanadi. Yuqorida ta'kidlab oʻtilgan jadid namoyonlarining sa'y harakatlari bilan Toshkent shahrida teatr tashkil etiladi. Aynan shu teatrda Mahmudxoʻja Behbudiyning mashhur boʻlgan "Padarkush" drammasi ilk marta namoyish etiladi. Turkistonda birinchi jadid matbuot organi "Taraqqiy" gazetasi Toshkent shahrida Ismoil Obidov muharrirligida, 1906-yil 27-iyundan e'tiboran chop etila boshlagan.

XIX–XX asrlarda Toshkent vohasi nafaqat Oʻrta Osiyoning muhim siyosiy va iqtisodiy markazlaridan biri boʻlib xizmat qilgan, balki bu hududda kechgan tarixiy jarayonlar butun mintaqa taqdiriga sezilarli ta'sir koʻrsatgan. Rus bosqinlari, mustamlakachilik siyosati, shaharsozlik, ta'lim islohotlari va

jadidchilik harakati Toshkentning taraqqiyot yo‘liga bevosita ta’sir qilgan omillar bo‘lib, ularning har biri o‘z zamonasi uchun o‘ziga xos ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘tmish voqealari bugungi kunda ham tarixiy xotira, milliy o‘zlik va madaniy merosni anglashda muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Toshkent tarixining o‘rganilishi bizga bu hududda kechgan jarayonlarni chuqur tushunish, zamonaviy tarixiy qarashlar bilan yondashishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. A. S. Sagdullayev – “O‘zbekiston tarixi I”. Toshkent – “Donishmand ziyosi” – 2020.
2. Eshov B. J, Odilov A. A – “O‘zbekiston tarixi I”. Toshkent – “Donishmand ziyosi” – 2020.
3. R. Shamsutdinov, Sh Karimov – “Vatan tarixi I”. Toshkent – “Sharq” – 2010.
4. Z.A Ilhomov – “O‘zbekiston tarixi”. Toshkent – 2020.

CHIRCHIQ SHAHRI TARIXI BUGUNI VA ISTIQBOLLARI

Komolova Jasmina Ilxom qizi
ChDPU O’zbek tili yunalishi talabasi
Ilmiy raxbar : Rasulova Rayxon

Annotatsiya. Ushbu ishda Chirchiq shahrining tarixi, rivojlanish bosqichlari, bugungi kundagi ijtimoiy-iqtisodiy holati va kelajakdagi istiqbollari yoritilgan. Shahar sanoat, ta’lim, madaniyat va turizm sohalarida muhim o‘ringa ega bo‘lib, uning geografik joylashuvi va tabiiy resurslari hududning rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratmoqda. Ishda shuningdek, shahar infratuzilmasining zamonaviy holati, amalga oshirilayotgan loyihalar va istiqboldagi rejalar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Chirchiq shahri, tarix, sanoat, infratuzilma, iqtisodiyot, rivojlanish, istiqbol, urbanizatsiya, Toshkent viloyati, ijtimoiy soha, ta’lim, turizm, geografik joylashuv, tabiiy resurslar, modernizatsiya.

Chirchiq shahri Tarixi, Bugungi Holati va Istiqbollari Tarixiy Ma'lumotlarChirchiq shahri O‘zbekistonning Toshkent viloyatida joylashgan bo‘lib, u tarixiy va madaniy jihatdan muhim hududdir. Shaharning tarixi qadimgi zamonlarga borib taqaladi va bu yerda ko‘plab qiziqarli voqealar sodir bo‘lgan. Chirchiq hududi odamlar yashash uchun qadimdan qulay bo‘lib,

asrlar davomida qishloq xo‘jaligi va savdo-sotiqning markazi sifatida rivojlangan.Chirchiq nomining kelib chiqishi haqida bir necha nazariyalar mavjud. Ba'zi manbalarga ko‘ra, "Chirchiq" so‘zi "chiroyli" yoki "chiroqlik" ma'nosida kelib chiqqan bo‘lishi mumkin, bu esa shaharning go‘zalligi va tabiati bilan bog‘liq.

Bugungi Holati Hozirgi vaqtda Chirchiq shahri, Toshkent shahridan taxminan 35 kilometr masofada joylashgan. Shaharda yashovchi aholi soni taxminan 200,000 dan ortiq. Shaharning iqtisodiyoti matbaa, neft-kimyo, oziq-ovqat sanoati va qishloq xo‘jaligi sohalariga tayanadi. Shu bilan birga, Chirchiq shahri transport sohasida ham muhim o‘rin egallaydi, chunki u Toshkent va boshqa viloyatlar o‘rtasidagi transport yo‘llarining kesishgan joyidir.Chirchiqda boshqa shaharlardek ko‘plab ta'lim muassasalari, tibbiyot markazlari va madaniy markazlar mavjud. Shaharda tarixiy obidalar, masjidlar va jamoat joylari mavjud bo‘lib, ular mahalliy aholi va sayyohlar uchun qiziqarli.Istiqbollari Chirchiq shahri kelajakda rivojlanish istiqbollariga ega.

O‘zbekiston hukumati, shaharning infratuzilmasini yaxshilash, iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish va mahalliy aholini ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan ko‘plab loyihalarni amalga oshirmoqda.Shahar atrofidagi hududlar, jumladan, qishloq xo‘jaligi va sanoat sohalarida investitsiyalarni jalb etish uchun sariq strategiyalar ishlab chiqilmoqda. Jamoat transporti, yo‘llar va aloqa tizimlarini modernizatsiya qilish, shaharni turistik markaz sifatida rivojlantirish, shuningdek, ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish rejalashtirilmoqda. Shuningdek, Chirchiqning tabiiy resurslari va geografik joylashuvi uni qishloq xo‘jaligi uchun qulay manzilga aylantiradi. Bu erda agrar innovatsiyalarni joriy qilish orqali qishloq xo‘jaligini rivojlantirish imkoniyatlari ham mavjud.XulosaChirchiq shahri o‘zining boy tarixi, hozirgi zamon iqtisodiyoti va kelajak istiqbollari bilan, O‘zbekistonning muhim shaharlaridan biri sifatida rivojlanishda davom etmoqda. Shahardagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlar uni tadqiq qilish va rivojlantirishda yana ko‘plab imkoniyatlaringizni ochadi.

Chirchiq Shahri TarixiChirchiqning tarixi qadimiy xalqlar va madaniyatlar bilan bog‘liq. Shaharning nomi ko‘plab tarixiy manbalarda uchraydi va bu hudud turli davrlarda turli xalqlarning yashash joyi bo‘lgan.

1.Qadimiy davrlar: Chirchiq hududi, qadimda O‘rta Osiyoning savdo yo‘llaridan biri bo‘lgan. Bu yerda O‘rta asrlar davomida turli savdogar va

sayyohlar to‘plangan. Qadimda, bu yerda yashagan xalqlar ovchilik va qishloq xo‘jaligi bilan mashg‘ul bo‘lganlar.

2 .O‘rta Osiyo imperiyalari Chirchiq, asosan, Temuriylar imperiyasi davrida rivojlangan. Bu davrda shahar savdo va madaniyat markazi sifatida tanilgan. Shaharda Qur'on va boshqa diniy kitoblar yozilgan, bu esa vaqti-soati kelganda ilm-fan va madaniyat rivojiga katta ta'sir ko‘rsatgan .

3 .20-asr tarixi: 20-asrda, Soviet Ittifoqi davrida Chirchiq sanoat rivojlanishi bilan tanilgan.

Shahar o‘zining neft-kimyo, matbaa va oziq-ovqat sanoati bilan mashhur bo‘ldi. 1970-yillardan keyin, Chirchiq aholi punktining rivojlanishi davom etdi, yangi aholi joylari, infratuzilmalar va ijtimoiy ob'ektlar barpo etildi.Bugungi Holati1.Iqtisodiy vaziyat:

Hozirgi paytda Chirchiq shahri iqtisodiy jihatdan o‘sishda davom etmoqda. Shaharta neft-kimyo, oziq-ovqat va yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi ko‘plab korxonalar mavjud. Shaharda kichik va o‘rta bizneslar rivojlanmoqda, bu esa ish o‘rinlarini yaratishga yordam bermoqda. 2. Aholi: Chirchiqda aholi soni 200,000 dan oshadi. Aholining ko‘pchiligi qishloq xo‘jaligi, sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalarida ishlaydi. Shaharda yoshlar va talabalarning ko‘pligi ta'lim muassasalarining rivojlanishiga imkoniyat yaratmoqda.3.Ijtimoiy infratuzilma: Chirchiqda ta'lim muassasalari, kasalxonalar, sport infratuzilmalari va madaniyat markazlari mavjud. Shahar o‘zining sport bilan shug‘ullanishi va fitnes markazlari bilan tanilgan. Shaharda shuningdek, kutubxonalar, konsert zallari va teatrlar mavjud bo‘lib, bu ular foydalanishi uchun qulay sharoit yaratilgan.Madaniyat va San'atChirchiq madaniy va san'at salohiyati bilan ham ajralib turadi.1.Milliy urf-odatlar va bayramlar: Chirchiqda turli milliy bayramlar va tadbirlar nishonlanadi. O‘zbekistonning jamoaviy bayramlari, xususan, Mustaqillik kuni va Navro‘z, Shaharda keng nishonlanadi. Mahalliy urf-odatlar va an'analar hali ham aholi tomonidan saqlanib kelinmoqda .2 .San'at: Shaharda mahalliy ijodkorlar tomonidan yaratilgan san'at asarlari, qo‘ng‘iroq va musiqalar mavjud. Salohiyatli san'atkorlar o‘z asarlarini xalq orasida namoyish etishmoqda.•Chirchiq, muzeylar va galereyalar bilan ham boyitilgan, bu esa madaniy hayotni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.IstiqbollariChirchiq shahrining istiqbollari ta'lim, iqtisodiyot va madaniyat sohalarida rivojlanishni davom ettirishda ko‘plab imkoniyatlarni taqdim etadi.1.Iqtisodiy rivojlanish: Shaharni sanoat markazi sifatida yanada rivojlantirish, yangi investitsiyalar jalb qilish va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash

rejalashtirilgan.•Ushbu maqsadga erishish uchun, yangi korxonalar ochish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zarur. 2. Infratuzilma: Transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, yangi yo‘llar, ko‘priklar va jamoat transporti tizimini yaratish rejalashtirilgan. Bu aholi turmush tarzi va iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko‘rsatishi kutilmoqda. Turizm sohasini rivojlantirish orqali, sayyohlarni jalb qilish, madaniy va tarixiy obidalarni saqlash va rivojlantirish rejalashtirilmoqda. 3. Ta'lim va inson kapitali: Ta'lim tizimini yangilash, yangi o‘quv dasturlarini joriy etish va xalqaro tajribalarni o‘rganish orqali tayyorlangan mutaxassislarni yetishtirish rejalashtirilgan. Yoshlarning malakasini oshirish va ish bilan ta'minlashni yaxshilash maqsadida ta'lim muassasalarini rivojlantirish ustida ishlamoqda.

Xulosa. Chirchiq shahri O‘zbekistonda ahamiyatli joylardan biri bo‘lib, uning tarixi, madaniyati, iqtisodiy rivojlanishi va istiqbollari O‘zbekistonning umumiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Shaharning bevosita aholisining hayoti, ularning an'analari va madaniyati shaharni yanada buyuk qiladi. Rivojlanayotgan iqtisodiyot, kuchli ta'lim tizimi va boy madaniyat kelajakda Chirchiqni yanada jozibador shaharga aylantirishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O‘zbekiston tarixi (Milliy ensiklopediya) – O‘zbekistonning turli davrlardagi tarixi va madaniyati haqidagi kiritmalar.

2.Toshkent viloyati tarixi. Toshkent viloyatining tarixi, uning shahar va qishloqlari haqida ma'lumotlar.

3.Internet resurslari: O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi - Aholi soni, iqtisodiy ko‘rsatkichlar va boshqa statistik ma'lumotlar.

TOSHKENT QO‘QON XONLIGI TARKIBIDA

Karimjonova Hilola
ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti
Tarix yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar :Sharofiddin Parmonov

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qo‘qon xonligi tarkibida Toshkent shahrining siyosiy, iqtisodiy va madaniy ahvoli haqida so‘z yuritiladi. XVIII-XIX asrlarda Toshkent shahri va uning atrofidagi hududlar Qo‘qon xonligi tarkibiga qo‘shib olinishi, shaharning xonlik tizimidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon xonligi, Toshkent beklik, Yunusxo‘ja, Muhammadali xon, Olimxon, Mallaxon, Kushbegi, Toshkent qo‘zg‘oloni.

Qo‘qon xonligi O‘rta Osiyo mintaqasida XVIII-XIX asrlarda mavjud bo‘lgan muhim davlat bo‘lib, uning tarkibida Toshkent shahri va unga tutash hududlar alohida o‘rin tutgan. Toshkent o‘zining qulay geografik joylashuvi, Buyuk Ipak yo‘lida joylashganligi, boy tabiiy resurslari va hunarmandchilik salohiyati bilan Qo‘qon xonligi uchun strategik ahamiyatga ega edi. Ushbu maqolada Qo‘qon xonligi tarkibida Toshkent shahrining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti, uning boshqaruv tizimi, xonlik bilan munosabatlari hamda mintaqadagi siyosiy jarayonlardagi ishtiroki tahlil qilinadi.

XVIII asrning oxirlarida Toshkent mustaqil siyosiy birlik sifatida rivojlanib, Yunusxo‘ja boshchiligida o‘z mavqeini mustahkamlagan edi.

Yunusxo'janing taslıqi siyosatida Qo'qon xonligi alohida o’rin egallaydi. XVIII asming 80-yıllarıda Qo'qon xoni Norbo'tabiy o'z davlatı hududlarini kengaytira borib, Xo'jand, O'ratepa va Jizzaxzni o'ziga qaratish uchun urush harakatlarini olib boradi Albatta Toshkent Qo'qonga qarshi kuchlar tomonida bo'ladi. Natijada 1794-yılda Qo'qon xoni Norbo'tabıy Toshkentni bosib olish niyatida urush harakatlarını boshlab yuboradi. Biroq Chirchiq daryosi bo'yidagi jangda Yunusxo'ja qo'shinlan unga qaqshatqich zarba beradılar Sırdaryoning o'ng qirg'og'idagi yerlar Toshkentga qo'shib olinadı 1799-yilda Qo'qon qo'shinlari Toshkentga yana hujum uyushtiradi va Chirchiq daryosidan o'tadı Qorasuv arig'i bo'yida har ikkala tomon o'rtasida jang bo’ladi Bu jangar Yunusxo’ja yana o’z raqibini mag’lubiyatga uchratadi va Qo'qon lashkarboshisi Xonxo’jani, 70 nafar nufuzli harbiylar va askarlarni asir qilib oladi.

Yunusxo’ja Qo'qon xonligı ustidan ikki marta g'alaba qozonganligiga mahliyo bo'lib, endi uning o'zi harbiy tashabbus ko'rsatib Qo'qonga qarshi yurish qilishga zo’r tayyorgarlik boshlab yuboradi Bu paytda Qo'qon taxtıga Norbotabiyning o'gli Olimxon kelgan edi. U O'ratepa, Jizzax va Xo'jandni Buxoro amırligidan tortib olib xonlikning hududlarini ancha kengaytirgan edi Shu boisdan mahalliy ulamolar Yunusxo’jaga Qo'qonga qarshi harakat qilmaslikni maslahat berdilar Ammo Yunusxo’jaga bu maslahat kor qilmaydi. U 1800-yilda 7-8 ming kishilik qo’shin bilan yo’lga chiqadi va Qo'qonga yaqin bo’lgan Pungon degan joyga keladi Bundan xabar topgan Qo'qon xoni Olimxon Yunusxo'jaga nopisandlik bildirib o’zidan past kishi bilan teng kelishni or bilib unga qarshi (G'urum) Haramsaroy mavzeyining hokimi So'fi Alixo'ja Mirasad boshchiligida qo'shin jo’natadi. Bu jangda Yunusxo’ja askarlari talofotga

uchrab yengiladi. Qo'qonliklar Yunusxo'ja kuchlarini quvlab Toshkent davlat hududiga qarashli Kryauchi qal'asini egallaydilar. Shundan so'ng Qurama mavzeyi Qo'qon xonligi qo'li ostiga o'tadi.

Yunusxo'ja biroz vaqt o'tgach dardga chalinib vafot etadi Uning o'rniga o'g'li Sultonxo'ja taxtga o'tiradi. Yunustoja vafotidan xabar topgan Olimxon ukas Umarxon boshchiligida Toshkentga qo'shin jo'natadı Toshkent va uning atrofidagi yerlar 1805-yilda Qo'qon xonligi tomonidan bosib olinadi. 1809-yilga qadar Chimkent, Sayram, Turkiston hududlari ham harbiy kuch vositasi bilan Qo'qon xonligiga qo'shib olinadi. Bu jarayon ko'p qon to'kilishlardan so'ng amalga oshdi, chunki Toshkent ahli qattiq qarshilik ko'rsatdi.

Qo'qon xonligi tarkibiga qo'shilgandan so'ng, Toshkent shahri va uning atrofida Qo'qon xonligiga bo'ysunuvchi boshqaruv tizimi joriy etildi. Shahar beklik sifatida boshqarilib, unga xon tomonidan tayinlangan beklar rahbarlik qilardi. Toshkent bekligining ahamiyati shunchalik katta ediki, ko'pincha bu lavozimga xonning yaqin qarindoshlari yoki ishonchli amaldorlari tayinlanardi.

1. Harbiy-strategik ahamiyati: Toshkent shimoliy chegaradagi tayanch nuqta bo'lib, Dashti Qipchoq bilan chegaradosh hududlar va shimoldan keluvchi tahdidlardan himoya vazifasini bajarardi.
2. Iqtisodiy markaz: Shahar yirik savdo-sotiq markaziga aylanib, Rossiya, Xitoy va boshqa qo'shni davlatlar bilan savdo aloqalarini rivojlantirish imkonini berdi.
3. Siyosiy muvozanat: Toshkent va uning atrofidagi hududlar xonlikda siyosiy kuchlar muvozanatini saqlashda muhim o'rin tutardi.

Muhammadali xon (1822-1842) davrida Toshkentning ahamiyati yanada oshdi va shahar xonlikning ikkinchi poytaxtiga aylandi. Xon ko'pincha Toshkentda bo'lib, davlat ishlarini shu yerdan turib boshqarardi. Bu davrda shahar obodonlashtirildi, yangi madrasalar, masjidlar qurildi va shahar infratuzilmasi rivojlantirildi.

Qo'qon xonligi tarkibida Toshkent iqtisodiyoti bir necha yo'nalishlarda rivojlandi:

1. Hunarmandchilik: Shahar hunarmandchilik markaziga aylandi. Kulolchilik, zargarlik, temirchilik, to'qimachilik kabi sohalar rivojlandi.
2. Savdo-sotiq: Toshkent Qo'qon xonligining Rossiya bilan savdo aloqalarida asosiy vositachi vazifasini bajarardi. Shahar bozorlarida mahalliy mahsulotlar bilan bir qatorda, Rossiya, Xitoy va boshqa mamlakatlardan keltirilgan tovarlar ham sotilardi.

3. Soliq tizimi: Toshkentning iqtisodiy imkoniyatlari xonlik xazinasini to‘ldirishning asosiy manbalaridan biri edi. Shahardan yig‘iladigan soliqlar xonlik byudjetining katta qismini tashkil etardi.

Qo‘qon xonligi davrida Toshkent madaniy hayoti ham yuksaldi: Shaharda ko‘plab madrasalar faoliyat ko‘rsatgan. Bulardan Bo‘ronxo‘ja, Xo‘jaxon, Yunusxon madrasalari ayniqsa mashhur bo‘lgan. Bu davrda Toshkentda bir qator shoirlar, olimlar, san’atkorlar yetishib chiqdi. Ular orasida Vasifiy, Nodira, Uvaysiy kabi ijodkorlar bor edi. Shaharda yangi masjidlar, madrasalar, bozorlar, savdo rastalari, karvonsaroylar qurildi. Bu inshootlarning ko‘pchiligi mahalliy me’morchilik an’analarini o‘zida aks ettirgan.

Qo‘qon xonligi tarkibida bo‘lishiga qaramay, Toshkent ahli ko‘pincha xonlik siyosatidan norozi bo‘lib, qo‘zg‘olonlar ko‘tarar edi. Ayniqsa, Xudoyorxon davrida (1845-1875) soliqlarning ko‘payishi va zulmning

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Achilov, N. (2015). O’rta Osiyo numizmatikasi. Toshkent: Fan.

2. Bababekov, X. (2018). Turk Hoqonligi tangalari. Toshkent: O’zbekiston.

3. Golden, P. (2003). Nomads and Their Neighbours in the Russian Steppe. Aldershot: Ashgate.

4. Kochnev, B. (2010). Numismatic History of Qarakhānids. Samarkand: IICAS.

5. Rtveladze, E. (2012). O’rta Osiyo tangalari tarixi. Toshkent: Sharq.

XI -XV ASRLARDA ANGLIYA

Karimov Jamol Jamshid o‘g‘li
ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti talabasi
Ilmiy rahbar: Toshtemirov Akram Mengli o‘g‘li,

ANNOTATSIYA: Ushbu maqola XI-XV asrlarda Angliya tarixining o‘ziga xos va muhim bosqichlarini tashkil etadi, bu davrda davlat tuzilishi, ijtimoiy tuzum, madaniyat va iqtisodiy hayotda sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Bu muhim tarixiy jarayonlar, ayniqsa, Norman istilosi, feodal tizimining rivojlanishi, qonun hujjatlari va siyosiy institutsiyalarining shakllanishi bilan bog‘liq bo‘lib, mamlakat tarixining asosiy poydevorini yaratdi. Bu davrni

o‘rganish nafaqat Angliyaning o‘ziga xosligini tushunishga yordam beradi, balki uning keyingi rivojlanishiga ta’sir qilgan asosiy voqealar va jarayonlarni ham yoritadi.

Kalit so‘zlar. Canterbury Tales, Magna Carta, Normand istilosi, feodal tizim, Norman hukmronligi davri, Kanturburi hikoyalari.

XI-XV asrlar davomida Angliyada madaniyat va iqtisodiy hayotda ham sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berdi. O‘rta asrlarda shaharlar rivojlandi, savdo va hunarmandchilik kengayib, yangi iqtisodiy qatlamlar paydo bo‘ldi. Chaucerning "Canterbury Tales" kabi adabiyot asarlari o‘sha davr madaniyatining yuksalishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bu davrda yuzaga kelgan bir qator ijtimoiy va siyosiy muammolar, masalan, Qora o‘pka pandemiyasi va 1381 yildagi qishloq ahlining isyonlari, jamiyatdagi sinfiy ziddiyatlarni kuchaytirdi. Bu voqealar, shuningdek, milliy identiteting rivojlanishiga ham ta’sir qildi. Angliya davlatining siyosiy va huquqiy tizimlarining rivojlanishi, shuningdek, madaniy va iqtisodiy o‘zgarishlarning o‘zaro ta’siri bilan bog‘liq. Bu jarayonlarning o‘rganilishi, mamlakat tarixining asosiy bosqichlarini va uning zamonaviy davlat qurilishiga qo‘shgan hissalarini yanada yaxshi tushunishga imkon yaratadi. Shuningdek, bu davrda yuzaga kelgan muhim voqealar va jarayonlar, Angliyaning milliy identiteti va huquqiy-adliy va siyosiy institutsiyalarining rivojlanish jarayonlarini anglashda muhim rol o‘ynaydi. Bu izlanishning maqsadi, XI-XV asrlarda Angliyada yuzaga kelgan siyosiy, madaniy va iqtisodiy o‘zgarishlarni keng yoritish va ularning zamonaviy Angliya shakllanishiga ta’sirini o‘rganishdan iboratdir. Bu orqali, tarixiy jarayonlarning umumiy tasvirini shakllantirish va ularning yangi nazariy va amaliy yondashuvlar bilan bog‘liqligini aniqlash mumkin bo‘ladi. XI-XV asrlarda Angliya siyosiy va huquqiy rivojlanishlari o‘ziga xos va murakkab jarayonlarni o‘z ichiga olgan davr bo‘lib, u mamlakat tarixidagi muhim burilish nuqtalarini tashkil qiladi. Bu davrda Angliya faqatgina ichki siyosiy voqealar bilan cheklanmay, balki tashqi tahdidlar va urushlar bilan ham yuzma-yuz kelgan. Siyosiy rivojlanishlar, shuningdek, huquqiy islohotlar va konstitutsion prinsiplarning shakllanishiga asos bo‘lib xizmat qilgan.

Bu davrda eng muhim voqea — Normand istilosi bo‘ldi. 1066 yilda Normandlar qo‘shinlari Angliya qirolligini bosib olib, bu mamlakat tarixida yangi davrni boshladi. Normandlar hukmronligi davrida hukumat tizimi va huquqiy tartiblar tubdan o‘zgardi. Normanlar inglizlar hukumatiga yangi boshqaruv usullarini, hukmronlik tizimlarini, shuningdek, yangi yurisdiktsiya

va qonunchilik bazasini kiritdi. Bu esa ingliz huquqining rivojlanishiga asos soldi va keyinchalik huquqiy tizimning mustahkam poydevorini yaratdi. XI asr oxiri va XII asr boshlarida hukumat markazlashuvi kuchayib, qirollik hokimiyatining mustahkamlanishi kuzatildi. Bu jarayonda hukumatning huquqiy asoslarini mustahkamlash uchun qator qonunchilik va huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, 1215 yilda imzolangan Magna Carta (Buyuk Karta) — huquqiy hujjat bo‘lib, qirollik hokimiyatining cheklanishi va shaxsiy erkinliklarining ta’minlanishiga asos soldi. Bu hujjat angliya huquqiy tizimining rivojlanishida muhim burilish bo‘ldi va keyinchalik konstitutsion huquqning rivojlanishiga xizmat qildi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, XII asr va XIII asrda hukumat va huquqiy tizimning rivojlanishiga ko‘plab yirik voqealar va jarayonlar ta’sir ko‘rsatdi. Bu davrda parlament va yurisdiktsiya institutlari shakllandi. Birinchi parlamentlar, ayniqsa, 13-asrda, qirollik va shaharlar vakillaridan iborat bo‘lib, hukumat va qonunchilik jarayonlarida muhim rol o‘ynadi. Bu jarayonlar hukumatning muxtorligini mustahkamlashga yordam berdi va shaxsiy huquqlarni himoya qilishda muhim qadam bo‘ldi. Bundan tashqari, XIII asrda qonun chiqarish va sud tizimlarining rivojlanishi hukumatning asosiy funktsiyalaridan bo‘lib, huquqiy tartibni mustahkamlash va adolatni ta’minlashga xizmat qildi. Angliya huquqiy tizimining bu davrdagi rivojlanishi, shuningdek, odil sudlov va qonun ustuvorligini ta’minlashga qaratilgan islohotlar bilan bog‘liq bo‘ldi. Bu jarayonlar qonuniylik tamoyillarini shakllantirish va hukumat bilan xalq o‘rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirishda muhim rol o‘ynadi. XI-XV asrlarda Angliyada siyosiy va huquqiy rivojlanishlar, asosan, qirollik hokimiyatining mustahkamlanishi, shaxsiy huquqlar va erkinliklarning ta’minlanishi, shuningdek, qonun ustuvorligining yuksalishi bilan bog‘liq bo‘ldi. Bu jarayonlar mamlakatda stabil hukumat tizimini shakllantirishga yordam berdi va keyingi davrlarning asosiy huquqiy va siyosiy institutsiyalarining paydo bo‘lishiga zamin yaratdi. Bu davrda shakllangan qonunchilik va huquqiy prinsiplar, shuningdek, parlament va sud tizimlari, Angliya davlatining asosiy poydevorini tashkil etdi hamda mustahkam hukumat va adolatli jamiyat qurilishining asosiy shartlarini belgilab berdi.

Norman istilosi va feodal tizimning shakllanishi Angliya tarixida muhim burilish nuqtasini tashkil etadi. XI asrning o'rtalarida, 1066 yilda, Normandiya duke William Hastings tomonidan amalga oshirilgan Normani bosqini (Norman Conquest) natijasida, Angliya siyosiy, huquqiy va ijtimoiy hayotida katta o'zgarishlar yuz berdi. Bu bosqin, Angliya uchun yangi hukmronlik

tuzilmasini va madaniy ta'sirlarni olib keldi. Normandiya hukmdorlari mamlakatda o'zlarining boshqaruv usullarini joriy qilib, feodal tizimni mustahkamlashga harakat qilishdi. Norman istilosidan so'ng, Angliya hududida yangi hukmronlik va boshqaruv tizimi paydo bo'ldi. Bu tizim, asosan, yer mulkini va hokimiyatni markazlashgan holda taqsimlashga asoslangan bo'lib, feodal munosabatlar bilan bog'liq edi. Feodal tizimda, yer egasi (shoh yoki lord) o'z yerlarini vasiylarga (vassallar) taqsimlab, ular esa o'z navbatida, harbiy xizmat va boshqa majburiyatlar uchun o'z yerlarida xizmat qilishlari kerak edi. Bu tizim, ijtimoiy qatlamlarning keskin ajralib chiqishiga olib keldi va har bir qatlam o'zining aniq vazifalariga ega bo'ldi. Norman hukmronligi davrida, hukumat va huquqiy tizimlar ham jiddiy ravishda yangilandi. Norman lordlari o'zlarining yerlarni boshqarishda yangi qonunlar va odatlarni joriy etdilar. Bu qonunlar, shuningdek, ingliz yurisdichonligini mustahkamlashda muhim rol o'ynadi. Shuningdek, Normanlar arxitektura va madaniyatga ham o'z ta'sirini o'tkazdi, masalan, qal'alar, soborlar va shaharlar qurilishi kengaydi. Iqtisodiy sohada, XI-XV asrlarda Angliyada dehqonchilik va savdo faoliyati rivojlandi. Bu davrda dehqonlar uchun erkinlik va mulk huquqi kengayib, fermerlik tizimi shakllandi. Feodal tizim asosida yer egasining qudrati kuchaydi, bu esa qishloq xo‘jaligi mahsuldorligini oshirish uchun yangi texnologiyalar va uslublarni joriy etishga olib keldi. Savdo esa, ayniqsa, Yevropa va boshqa mintaqalar bilan bo‘lib o‘tgan, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Angliya qimmatbaho metallar va tovarlar bilan eksport-import qiluvchi muhim savdo markaziga aylandi.

Madaniy sohada, XI-XV asrlarda Angliyada yangi yozma madaniyat, adabiyot va san’at shakllandi. Bu davrda yozuv sohasida rivojlanish bo‘ldi, ayniqsa, ingliz tilida yozilgan ilk asarlar paydo bo‘ldi. Chaucerning "Kanturburi hikoyalari" (Canterbury Tales) kabi asarlar, o‘sha davr madaniy hayotining eng yaxshi namunasidir. Shuningdek, arxitektura sohasida gotik uslubdagi binolar qurildi, bu esa ingliz madaniyatining yuksalishida muhim rol o‘ynadi. O‘sha davrda diniy va dunyoviy hayot o‘rtasidagi muvozanat, shuningdek, diniy adabiyotlarning rivojlanishi muhim bo‘ldi. XI-XV asrlarda madaniy va iqtisodiy o‘zgarishlarning asosiy omili sifatida, shuningdek, siyosiy rivojlanishlar ham muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu davrda mamlakatda yangi hukumat tizimlari va qonunchilik asoslari shakllandi. Magna Carta (1215 y) kabi hujjatlar, hukumat va fuqaro o‘rtasidagi munosabatlarni belgilab, konstitutsiyaviy prinsiplarning rivojlanishiga asos

bo‘ldi. Bu davrda sodir bo‘lgan iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar, Angliyaning feodal tuzumidan mustaqil va rivojlangan davlatga aylanishida muhim qadamlar bo‘ldi.

XII-XV asrlar Angliyada hukumat, huquq, madaniyat va iqtisodiy sohalardagi o‘zgarishlar bilan to‘la bo‘lib, mamlakatni zamonaviy davlat qilishda muhim asoslar yaratdi. Bu davrda erishilgan yutuqlar va yuzaga kelgan muammolar, keyingi davrlarda mamlakatning rivojlanishi uchun poydevor bo‘ldi. Shuningdek, ushbu tarixiy jarayonlar, mamlakatning milliy identitetini shakllantirishda va huquqiy tizimlarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Smith J. Inglizlar davridagi siyosiy rivojlanishlar. O‘zbekiston Milliy Kutubxonasi, 2018.

2. Aliyev R. Norman bosqini va feodal tizimining shakllanishi. Toshkent Davlat Universiteti nashriyoti, 2020.

3. Karimov T. O‘rta asrlarda Angliya madaniyati va iqtisodiy o‘zgarishlar. «Ilmiy Gazeta», 2019.

TOSHKENT VOHASIDAGI QADIMGI ZIYORATGOHLAR VA YODGORLIKLAR

Karimov San’atbek Otabek o‘g‘li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Toshkent vohasidagi qadimgi ziyoratgohlar yodgorliklarning joylashgan hududlari shuningdek, ushbu ziyoratgohlar va yodgorliklarning kelib chiqishi, ular haqida yaratilgan rivoyatlar tahlil qilingan.

Chirchiq vodiysining serunum va obod markaziy qismiga joylashgan hozirgi Toshkent O‘rta Osiyoda qad ko‘targan qadimiy shaharlardan biri bo‘lib, u ikki ming yillik tarixga ega. O‘zining yigirma asrlik o‘tmishida ko‘hna shahrimiz tashqi bosqinchilarga qarshi olib borilgan ne-ne o‘zaro qonli feodal urushlarni boshdan kechirmadi. Necha bor shahar vayron bo‘lib, qayta qad ko‘tardi, nomi ham bir necha marta o‘zgardi. Xo‘sh, bu ko‘hna shaharning ilk bor binolari hozirgi Toshkent territoriyasining qaysi qismida qad ko‘tardi va u qachondan boshlab “Toshkent” nomi bilan shuhrat topdi? Bu yerda shahar

madaniyatining shakllanib, uning rivojlanishining boisi nimada? Afsuski bunday savollarga yozma manbalardan aniqroq javob topish birmuncha mushkul. Chunki Toshkentning uzoq o‘tmishi va u qad ko‘targan qadimgi Choch yoki Shosh viloyati haqidagi ma’lumotlar manbalarda juda xilma-xil hamda uzuq-yuluq tarzda qayd etilib, bir-biriga zid fikrlar mavjud[1, 3]. Masalan, otashparastlarning qadimiy muqaddas kitobi “Avesto”da Sirdaryo havzasidagi viloyat “Turon”, aholisi esa “tur”lar deb yuritilgan. Toshkentning uzoq tarixiy yo‘li, o‘zgaruvchan nomlari va boy madaniyati uning o‘ziga xosligini belgilaydi. Bu merosni chuqur o‘rganish va qadrlash bugungi va kelajak avlodlar uchun muhim vazifadir.

Jo‘nariq bo‘yidagi qadimgi qishloq.

Chirchiq vodiysining quyi qismida topib tekshirilgan bir qator yodgorliklarni hisobga olganda qadimgi dehqonchilik madaniyati asta-sekin janubdan shimolga tomon siljib, miloddan avvalgi VI-IV asrlarda Chirchiq vodiysi quyi qismiga tarqalgan. Bu madaniyatning izlari va unga xos bo‘lgan topilmalar Toshkent vohasining g‘arbiy qismida joylashgan Qovunchitepa, Niyozboshtepa, Changtepa va Shoshtepa kabi arxeologik yodgorliklarning ostki qatlamlarida qayd etildi[1, 14]. Bu yodgorliklar orasida Shoshtepa ayniqsa diqqatga sazovordir. Chunki uning 20 m ga yaqin qalin madaniy qatlamlarini ostki qismida bizning davrimizdan 2400-2500 yil muqaddam tashkil topgan qadimgi qishloqning xarobalari kavlab ochildi. Bu hozirgi Toshkent shahri territoriyasida qad ko‘targan eng qadimgi qishloq xarobasi bo‘lib, respublika poytaxti tarixining debochasi xuddi shu yerdan boshlanadi. Ma’lumki, Toshkent shahrining mikrorelefi o‘z tashqi qiyofasi bilan uchga: bir muncha tekisroq allyuvial - vodiy zonaga va unga xuddi zinadek tutashib ketgan yoki geologlarimiz tili bilan aytganda Mirzacho‘l terrasasiga hamda past-balandliklardan iborat notekis adirlik zonalarga bo‘linadi. Qadimda uning adirlik zonasi doimiy oqar suvlardan mahrum qip-qizil dashtlik, vodiy qismi va unga yondoshgan labob zonalar esa Chirchiq daryosi toshqinlari va sizot suv-lardan hosil bo‘lgan Qorasuv, Salor, Jo‘nariq kabi tabiiy suv manbalariga ega bo‘lgan. Shuning uchun ham Toshkentning eng qadimgi o‘troq dehqonlari dastavval uning vodiy qismini o‘zlashtirishga kirishganlar.

Parkent tumani Kumushkon qishlog‘i “Chashma” mahallasining eng yuqori qismida joylashgan. Dastlab 1982-yilda Kumushkon qishlog‘i aholisi tomonidan hashar yo‘li bilan 1 ta xonaqoh va 1 ta ayvon barpo etilgan. 2010-yilda mahalliy ustalar tomonidan qaytadan ta’mirlangan. Ziyoratgohda 3 ta xonaqoh, 1 ta ayvon mavjud. Qishloq odamlarining rivoyat qilishicha,

Payg‘ambarimizning kuyovlari Hazrati Ali shu joyda namoz o‘qigan emish. Ayrim rivoyatlarga ko‘ra, uning qamchisidan, yana ba’zi birlarida qayd etilishicha, hassasidan chinor daraxti ko‘karib chiqqan. Bu chinor hozir ham yashnab turibdi. Ushbu muqaddas joyda 5 ta buloq bor. Buloqlardan chiqayotgan suv kumushga to‘yingan bo‘lib, tarkibidagi 60 dan ortiq mikroelementlar oshqozon-ichak kasalliklari uchun shifo sanaladi. ***Zangiota yodgorlik majmui.***

O‘rta Osiyodagi noyob obidalardan biri Zangi ota nomi bilan mashhur bo‘lgan so‘fiylik targ‘ibotchisi shayx Oyxo‘ja ibn Tojxo‘ja sharafiga shunday ataladi. Gumbazli darvozaxona orqasida ikkita pastak minora, ularning janubi-g‘arbida XX asr boshlarida kurilgan shiypon va minora bor. Uning janubi-g‘arbida gumbazli, g‘isht ustunli, devorlar yozuvlar bilan bezatilgan peshayvonli masjid, hovlining qolgan uch tamonida bir qavatli hujralar joylashgan. Zangi otaning asli tug‘ilgan va yashagan maskani Shosh viloyati bo‘lib, Toshkent bilan Qovunchi oralig‘idagi Zangi ota nomli qishloq. Zangi otaning butun hayoti Movarounnahr xalqlarining eng og‘ir davriga to‘g‘ri keladi. Shunday og‘ir bir paytda Zangi ota va uning shogirdlari xalq ommasini qahramonlik, vatanparvarlik, mehr-shafqat kabi eng oliy umuminsoniy g‘oyalar bilan oziqlantirdi[2]. Zangi otaning bu xizmatlari vaqti kelib Amir Temur tomonidan munosib taqdirlandi. Zangi otaning qabri ustida maqbara qad rostladi. 1420 yilda esa Mirzo Ulug‘bek uning ustiga hozirgi peshtoqni bunyod ettirdi.

Kindiktepa yodgorligi.

Kindiktepa qadimgi yodgorligi - Tuyabo‘g‘oz suv omborining suv bosgan hududida (Toshkent dengizida) orolchalar ko‘rinishida qad rostlagan. Miloddan avvalgi 2 ming yil oldinga borib taqaladi. Toshkent tumanidagi yagona Burg‘uluq madaniyati qadimgi yodgorlik obidasi arxeologlar tomonidan topilgan. 1970-72-yillarda qazilma ishlari olib borilgan. Sayyohlarni chorlash maqsadida Ohangaron sohilida dam olish maskanlari ham barpo etilgan.

Obi-Rahmat. Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumani Chorvoq dengizining yuqori sharqiy sohilida “Burchmullo” qishlog‘i mavjud. Bu qishloqda yer yuzida uzoq davom etgan paleolit davriga hos bo‘lgan manzilgoh “Obi-Rahmat” ko‘hna yodgorligi joylashgan. “Obi-Rahmat” forscha so‘zdan olingan bo‘lib, ma’nosi suvga rahmatni anglatadi[3, 136]. Dengiz sathidan 632 metr balandlikda joylashgan. Obirahmat g‘ori yoysimon shaklda joylashgan bo‘lib, eni 20 metrdan ortiqdir, janubga qaragan, sathi keng, quruq va yorug‘ holda

joylashgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida g‘orda odamlar uzoq vaqt yashaganligi aniqlangan. Buning dalili sifatida g‘ordagi ibtidoiy odamlar madaniyati va hayotini aks ettiruvchi 10 metr qalinlikdagi 21 ta madaniy qatlam topilgan. Uning madaniy qatlamlaridan biri ohaktoshli chaqmoshtoshdan yasalgan xilma-xil mehnat qurollari va buyumlar, chunonchi, nukleuslar, parrakchalar, o‘tkir uchli sixchalar, qirg‘ichlar, kurakchalar va pichoqlar qazib olingan bo‘lib, ularning umumiy soni 30 mingdan ortiqdir. Madaniy qatlamlardan topilgan qurolarning ishlanish texnikasi o‘ziga xos usulda bo'lib, pizma shaklidagi yorma texnika, qisman levulla tipidagi texnika bilan xarakterlanadi. Shuningdek, g‘orda bug‘u, tog‘ echkisi, to‘ng‘iz, jayron, sher, arxar kabi hayvon suyaklari topilgan bo‘lib, bu suyaklardan ov paytida kerak bo‘ladigan bigizlar, nayzalar yasashgan.

Olimlarning taxminlariga ko‘ra, g‘ordagi odamlar miloddan avvalgi 120-40 ming yil oldin yashaganlar va riss-vyurm muzlanish davrining birinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Burchmullo qishlog‘ining janubi-sharqiy tomonidan Poltovsoy sohili va Chotqol tizmalari bilan chegaradosh. Aholi asosan, Chotqol daryosining o‘ng qirg‘o‘gida yashagan bo‘lib, asosiy mashg‘ulotlari hunarmandchilik, ma’danchilik dehqonchilik bo‘lgan. Bu yerdagi ma’danchilarning tarixi miloddan avvalgi XIII-XII asrlarga borib taqaladi. Sharq bilan G‘arb xalqlari o‘rtasidagi tarixiy madaniy aloqalari savdo munosabatlari taraqqiyotida qadimiy dunyoda Buyuk Ipak yo‘li muhim o‘rin tutgan[4, 20]. Bu yo‘l miloddan avvalgi II asrlarda vujudga kelib “La’l yo‘li” (Buyuk ipak yo‘lining qadimiy tarmog‘i) aynan shu Obi-Rahmat manzilgohidan o‘tgan.

Xulosa qiladigan bo‘lsak Toshkent vohasi O‘zbekistonning eng qadimiy va tarixiy jihatdan boy hududlaridan biri bo‘lib, bu yerda joylashgan ziyoratgohlar nafaqat diniy, balki madaniy, tarixiy va ma’naviy merosimizning ajralmas qismi hisoblanadi. Qadimgi ziyoratgohlar orasida Zangiota, Yunusxo‘ja, Shayx Zayniddin Boboning maqbaralari, Shayx Xovandi Tohur, Qaffol Shoshiy kabi mashhur avliyolarning qabrlari joylashgan. Bu muqaddas maskanlar asrlar davomida musulmonlar uchun e’tiqod va ibodat markazi bo‘lib xizmat qilgan. Mazkur ziyoratgohlar nafaqat diniy ahamiyatga ega, balki ular tarixiy-arxitektura yodgorliklari sifatida ham diqqatga sazovor. Ularning har biri o‘ziga xos qurilish uslubi, bezak san’ati va davrining madaniy qadriyatlarini aks ettiradi. Shuningdek, bu ziyoratgohlar orqali biz o‘tmishdagi shayxlar, olimlar va sufiylarning hayoti, faoliyati hamda xalq orasida tutgan o‘rni haqida muhim ma’lumotlarga ega bo‘lamiz. Ziyoratgohlar

bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ular orqali yosh avlodga tarixiy xotira, milliy o‘zlik va ma’naviyatni singdirish mumkin. Shu boisdan, Toshkent vohasidagi qadimiy ziyoratgohlarni saqlab qolish, restavratsiya qilish va targ‘ib etish bugungi kunimizda dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Toshkent vohasidagi qadimiy ziyoratgohlar o‘zining chuqur tarixiy ildizlari, ma’naviy boyligi va estetik qimmati bilan xalqimizning bebaho merosidir. Ularni o‘rganish, asrash va kelajak avlodlarga yetkazish har birimizning burchimizdir.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Muxammadjonov A. Qadimgi Toshkent (Tarixiy va arxeologik lavxalar. Mas’ul muharrir A. Asqarov). - T.: Fan, 1988. — B, 3-15
2. https://xabar.uz/uz/jamiyat/ziyorat-qiling-toshkent-viloyatining
3. Qorayev S.Toponimika. Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – B. 136
4. Буряков Ю. Ф., Касымов М. Р., Ростовце О. М. Археологические памятники Ташкентской области. – Ташкент., 1973. – С. 20.

MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHKENT: IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY TARAQQIYOT TARIXI

Karimova Nodira Rashid qizi
ChDPU Tarix yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Tarix kafedrasi dotsenti
t.f.f.d. (PhD) Sh.B. Jumayeva

Annotatsiya: Ushbu tezisda Toshkent shahrining mustaqillikdan keyingi yillarda kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish yo‘li o‘rganiladi. Maqolada urbanizatsiya jarayoni, shahar boshqaruvi islohoti, investitsiya siyosati, madaniy-ma’naviy tiklanish jarayonlari tahlil qilinadi. Toshkentning zamonaviy shahar sifatida shakllanishidagi asosiy omillar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Toshkent shahri, islohotlar, urbanizatsiya, ijtimoiy hayot, madaniy muhit.

1991-yilda O‘zbekiston o‘z mustaqilligini e’lon qilganidan so‘ng Toshkent shahrining taraqqiyotida yangi davr boshlandi. Poytaxt shahar sifatida u nafaqat siyosiy-administrativ markazga, balki iqtisodiy va madaniy

yuksalish maydoniga aylandi. Shahar boshqaruvi tizimi takomillashdi, mahalliy byudjet va infratuzilma loyihalari koʻlamli tus oldi.

Xususiy sektor rivoji va xorijiy investitsiyalar oqimi Toshkentda ishlab chiqarish, xizmat koʻrsatish va qurilish sohalarining kengayishiga olib keldi. Yangi savdo majmualari, biznes markazlari, mehmonxonalar bunyod etildi. Shahar aholisi sonining koʻpayishi bilan bogʻliq ravishda yangi turar-joy massivlari qurildi. “Yangi Oʻzbekiston”, “Sergeli” va “Olmazor” kabi massivlarda namunali uy-joylar barpo etildi. Transport tizimi modernizatsiya qilinib, avtobus, metro va yoʻlovchi tashish xizmatlari yangilandi. Madaniyat sohasida Toshkent teatr, galereya, kutubxona va muzeylar orqali oʻz mavqeini mustahkamladi. “Sharq taronalari” va “Navroʻz” kabi an’anaviy bayramlar orqali milliy an’analarni ommalashtirishga katta e’tibor berildi.

Shuningdek, shahar ekologiyasi, obodonlashtirish, yashil hududlarni kengaytirish borasida qator loyihalar amalga oshirildi. Toshkent shahrining “yashil poytaxt” maqomini mustahkamlash borasidagi harakatlar xalqaro e’tirofga sazovor boʻldi.

Xulosa: Toshkent shahri mustaqillik davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan jadal rivojlanish yoʻliga kirdi. Shahar boshqaruvi va infratuzilmasida amalga oshirilgan yangilanishlar poytaxt hayotiga zamonaviylik, qulaylik va barqarorlik olib keldi. Aholining turmush sifati oshib, ta’lim, tibbiyot va madaniyat sohalari yuqori bosqichga koʻtarildi. Ayniqsa, yoshlar uchun yaratilgan imkoniyatlar, shahar makonining zamonaviy arxitektura bilan uygʻunligi, xalqaro hamkorlik aloqalari Toshkentning ijtimoiy mavqeini oshirdi. Madaniy loyihalar orqali milliy qadriyatlar targʻib qilinib, xalqning oʻz madaniy merosiga boʻlgan hurmati kuchaydi. Toshkent bugun nafaqat Oʻzbekistonning yuragi, balki butun mintaqaning ilgʻor, innovatsion va madaniy markazlaridan biri sifatida namoyon boʻlmoqda. Shu bois, Toshkentning mustaqillik yillaridagi taraqqiyoti mamlakatda olib borilgan siyosiy va iqtisodiy islohotlarning yaqqol natijasi sifatida tarix sahifalarida alohida oʻrin egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi Oʻzbekiston strategiyasi”. — T.: Oʻzbekiston, 2021.
2. “Toshkent shahri rivojlanishining dolzarb masalalari”. — T.: Iqtisodiyot, 2018.

3. Qodirova D. “O‘zbekiston poytaxti – Toshkentning yangi taraqqiyot bosqichi”. — T.: Ma’naviyat, 2020.
4. www.tashkent.uz, www.gov.uz, www.stat.uz
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy farmonlari (lex.uz)

XIX - XX ASR BOSHLARIDA TOSHKENT SHAHRI DEMOGRAFIK JARAYONLAR TARIXI XUSUSIDA

Karimova Sevinch O‘tkir qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi
Ilmiy rahbar: B.M.Qandov CHDPU dotsenti, f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada XIX – XX asr boshlarida Toshkent shahri ijtimoiy hayoti tor doirada tahlil qilingan. Tarixiy manbalar asosida shahar aholisi soni, tarkibi va o‘sish dinamikasi o‘rganilgan. Ijtimoiy jarayonlar, xususan, aholining ko‘payishiga ta’sir qilgan asosiy omillar aniqlangan.

Kalit so‘zlar: Toshkent, aholi soni, demografik jarayonlar, urbanizatsiya, migratsiya.

Toshkent aholisi haqidagi dastlabki ma’lumotlarni rus sayyohlari va harbiylarining asarlarida uchratish mumkin. Masalan, 1865-yilda shaharni bosib olgan general M.G. Chernyayev Toshkent aholisini 100 ming kishi deb baholagan [1]. Biroq bu ma'lumotlar taxminiy xarakterga ega edi. Toshkent aholisi haqidagi nisbatan aniq ma'lumotlar XIX asr oxiridan paydo bo‘la boshladi. 1897-yilgi Butun Rossiya aholisi ro‘yxati natijalariga ko‘ra, Toshkent aholisi 155,7 ming kishini tashkil etgan [2]. Bu ma'lumot ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan ishonchli deb e'tirof etiladi. XX asr boshlarida Toshkent aholisi haqida ma'lumotlar muntazam ravishda to‘planib borilgan. 1904-yilda shahar dumasining ma'lumotiga ko‘ra, Toshkent aholisi 170 ming kishini tashkil etgan [3]. 1910 yilda esa 201 ming kishiga yetgan [4]. Toshkent aholisining etnik tarkibi haqida ham qiziqarli ma'lumotlar mavjud. 1897 yilgi aholi ro‘yxatiga ko‘ra, shahar aholisining 75,6 foizini o‘zbeklar, 5,3 foizini ruslar, 4,5 foizini tojiklar, 2,2 foizini qozoqlar va qirg'izlar tashkil etgan [2]. 1910-yilga kelib ruslar soni 9,6 foizga yetgan [4]. Toshkent aholisi tarixi bo‘yicha O‘zbekistonda va xorijda bir qator tadqiqotlar olib borilgan.

Jumladan, N.A. Maevning "Aziatskiy Tashkent" asarida XIX asr oxiridagi Toshkent aholisi haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan [5]. P.P. Ivanovning ‘‘Ocherki po istorii Sredney Azii” kitobida ham shahar aholisi dinamikasi tahlil qilingan [6]. O‘zbek olimlaridan H. Ziyoev [7], R. Shamsutdinov [8] va boshqalarning asarlarida Toshkent tarixi, jumladan aholi masalalari yoritilgan. So‘nggi yillarda G'. Agzamova [9], D. Ziyoeva [10] kabi olimlarning tadqiqotlarida Toshkent aholisining ko‘payishi va tarkibiy o‘zgarishlari o‘rganilmoqda.

Tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar tahlili asosida XIX - XX asr boshlarida Toshkent shahar aholisining ko‘payish sur'ati va unga ta'sir etgan omillar haqida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Toshkent aholisi jadal sur'atlar bilan o‘sdi. 1865 yilda taxminan 100 ming kishi bo‘lgan shahar aholisi 1897 yilda 155,7 ming kishiga, 1910 yilda esa 201 ming kishiga yetdi. Demak, 45 yil ichida aholi 2 barobardan ko‘proq o‘sgan.

2. Aholining ko‘payishiga bir necha omillar ta'sir ko‘rsatgan:

- Tabiiy o‘sish. XIX asr oxirida Toshkentda tug'ilish darajasi yuqori (1000 kishiga 40-45 kishi) bo‘lgan [5]. O‘lim darajasi ham yuqori bo‘lsa-da (1000 kishiga 30-35 kishi), aholi soni o‘sib borgan.
- Migratsiya. Rossiya imperiyasi tarkibiga qo‘shilgach, Toshkentga turli hududlardan aholining ko‘chib kelishi kuchaydi. Shahar aholisining etnik tarkibi o‘zgardi. 1897-1910-yillarda rus aholisi salmog'i 5,3 foizdan 9,6 foizga o‘sdi [2, 4].
- Shahar hududining kengayishi. 1865-yilda 16 kv.km bo‘lgan shahar maydoni 1910-yilga kelib 50 kv.km.ga yetdi [9]. Bu jarayon yangi hududlarning shahar tarkibiga qo‘shilishi va qishloq aholisining shaharlikka aylanishiga olib keldi.
- Iqtisodiy rivojlanish. Sanoat korxonalari, temir yo‘l qurilishi va savdosotiqning rivojlanishi tufayli shaharga yangi ishchi kuchi oqimi kuchaydi.

3. Shahar aholisining ijtimoiy-etnik tarkibi o‘zgardi. An'anaviy mahalliy aholi bilan bir qatorda rus, tatar, yahudiy va boshqa millatlar vakillari ko‘paydi. 1897-yilda shaharda 156 millat vakillari istiqomat qilgan [2].

4. Shahar aholisining ijtimoiy tarkibi ham o‘zgardi. Hunarmandlar, savdogarlar, ruhoniylar bilan bir qatorda ishchilar, xizmatchilar, ziyolilar qatlami shakllana boshladi.

5. Aholining jinsiy-yosh tarkibida ham o‘zgarishlar yuz berdi. Erkaklarning salmog'i biroz oshdi (1897-yilda 52,3%) [2]. Bu asosan harbiylar va ishchilar hisobiga ro‘y berdi.

6. Shahar aholisining savodxonlik darajasi o‘sdi. 1897 yilda savodxonlar 10,9 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 1910-yilga kelib 15 foizga yetdi [4, 9].

7. Aholi zichligi oshdi. 1897-yilda 1 kv.km.ga 3114 kishi to‘g'ri kelgan bo‘lsa, 1910 yilga kelib bu ko‘rsatkich 4020 kishiga yetdi [9].

8. Aholining tez o‘sishi shaharsozlik muammolarini keltirib chiqardi. Turar-joy, suv ta'minoti, sanitariya va gigiena masalalari keskinlashdi.

Aholining tez sur'atda o‘sishi shahar infratuzilmasiga ham ta'sir ko‘rsatgan. 1910 yilga kelib shaharda 233 ta sanoat korxonasi, 53 ta o‘quv yurti, 4 ta shifoxona faoliyat yuritgan [4]. 1909-yilda shahar ko‘chalarida birinchi ko‘nka-tramvay paydo bo‘ldi. Bu o‘zgarishlar shaharning zamonaviy qiyofasini shakllantirdi. Shu bilan birga, aholining tez o‘sishi bir qator muammolarni keltirib chiqardi. Shahar aholisining aksariyati an'anaviy turar-joylarda yashashda davom etdi. Suv ta'minoti, kanalizatsiya tizimi, ko‘chalarning obodonlashtirilishi kabi masalalar dolzarb bo‘lib qoldi. Shahar ma'muriyati bu muammolarni hal etish uchun bir qator chora-tadbirlar ko‘rdi, ammo ularning to‘liq yechimi XX asrning keyingi davrlariga qoldi. Umuman olganda, XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Toshkent aholisining tez sur'atlarda o‘sishi shaharning Turkiston o‘lkasidagi yetakchi markazga aylanishini ta'minladi. Bu jarayon shaharning keyingi rivojlanishi uchun asos bo‘lib xizmat qildi. Toshkent aholisining ko‘payish sur'atini yanada chuqurroq tahlil qilish uchun uning demografik xususiyatlarini ko‘rib chiqish lozim. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Toshkentda tug'ilish darajasi yuqori bo‘lgan. N.A. Maevning ma'lumotlariga ko‘ra, 1876-yilda shaharda 1000 kishiga 40-45 ta tug'ilish to‘g'ri kelgan [5]. Bu ko‘rsatkich 1910-yilga kelib biroz pasaygan bo‘lsa-da, baribir yuqori darajada (1000 kishiga 35- 40 ta) qolgan [4]. O‘lim darajasi ham nisbatan yuqori edi. 1876-yilda 1000 kishiga 30-35 ta o‘lim to‘g'ri kelgan [5]. XX asr boshlarida tibbiy xizmat sifatining biroz yaxshilanishi natijasida o‘lim darajasi biroz pasaygan (1000 kishiga 25-30 ta) [4]. Biroq, bu ko‘rsatkich hali ham yuqori edi. Ayniqsa, bolalar o‘limi darajasi yuqori bo‘lib, tug'ilgan chaqaloqlarning 25-30 foizi bir yoshgacha yetmay vafot etgan [9]. Tug'ilish va o‘lim darajalarining yuqoriligi an’anaviy jamiyatga xos xususiyat edi. Biroq, o‘lim darajasining nisbatan pasayishi va tug'ilishning yuqori darajada saqlanib qolishi aholining tabiiy o‘sishini ta’minladi. Bu esa shahar aholisining ko‘payishiga olib keldi. Aholining yosh tarkibida ham o‘zgarishlar

yuz berdi. 1897-yilgi aholi roʻyxatiga koʻra, Toshkent aholisining 35,7 foizini 14 yoshgacha boʻlgan bolalar, 59,8 foizini 15-59 yoshlilar, 4,5 foizini 60 yoshdan kattalar tashkil etgan [2]. 1910-yilga kelib 14 yoshgacha boʻlganlar ulushi 33,2 foizga tushgan, 15-59 yoshlilar 62,1 foizga koʻtarilgan [4]. Bu oʻzgarishlar asosan migratsiya hisobiga yuz bergan. Aholining jinsiy tarkibida ham oʻzgarishlar kuzatildi. 1897-yilda erkaklarning ulushi 52,3 foizni tashkil etgan boʻlsa [2], 1910 yilga kelib bu koʻrsatkich 53,8 foizga yetdi [4]. Bu holat asosan harbiylar va ishchilarning koʻchib kelishi hisobiga yuz berdi. Shahar aholisining koʻpayishi bilan birga uning joylashuv xususiyatlari ham oʻzgardi. XIX asr oxirigacha Toshkent toʻrt dahaga (Koʻkcha, Sebzor, Beshyog'och va Shayxontohur) boʻlingan edi. Har bir dahada oʻziga xos etnik va ijtimoiy tarkibga ega aholi istiqomat qilgan. Masalan, Koʻkcha dahasida asosan hunarmandlar, Sebzorda savdogarlar koʻp boʻlgan [7]. Shahar Rossiya imperiyasi tarkibiga qoʻshilgach, yangi - "Yangi shahar" qismi paydo boʻldi. Bu yerda asosan rus aholisi va boshqa kelgindilar joylashdi. 1910-yilga kelib "Yangi shahar"da 40 mingga yaqin aholi istiqomat qilgan [9]. Bu qism evropacha me'morlik uslubida qurilgan uylar, keng koʻchalar, bog'lar bilan ajralib turgan.

Shahar aholisining koʻpayishi va yangi hududlarning oʻzlashtirilishi natijasida Toshkent maydoni ham kengayib bordi. 1865-yilda 16 kv.km boʻlgan shahar maydoni 1910-yilga kelib 50 kv.km.ga yetdi [9]. Bu jarayon yangi hududlarning shahar tarkibiga qoʻshilishi va qishloq aholisining shaharlikka aylanishiga olib keldi. Aholining tez sur'atlarda oʻsishi shaharning iqtisodiy rivojlanishiga ham ta'sir koʻrsatdi. Sanoat korxonalari, savdo-sotiq shoxobchalari koʻpaydi. 1910-yilga kelib shaharda 233 ta sanoat korxonasi faoliyat yuritgan [4]. Bu korxonalar asosan yengil va oziq-ovqat sanoati tarmoqlariga mansub boʻlib, koʻplab yangi ish oʻrinlarini yaratdi. Savdo-sotiq ham jadal rivojlandi. An'anaviy bozorlar (Eski Juva, Chorsu) bilan bir qatorda yangi savdo rastalari paydo boʻldi. 1910-yilda shaharda 2945 ta savdo doʻkoni faoliyat yuritgan [4]. Bu esa shahar aholisining turmush darajasini oshirish bilan birga, yangi ish oʻrinlarini ham yaratdi. Temir yoʻl qurilishi ham shahar aholisining koʻpayishiga ta'sir koʻrsatdi. 1899- yilda Toshkent-Krasnovodsk temir yoʻli, 1906-yilda esa Toshkent-Orenburg temir yoʻli qurib bitkazildi. Bu esa shaharga yangi ishchi kuchi oqimini kuchaytirdi. Shahar aholisining koʻpayishi ta'lim tizimining rivojlanishiga ham olib keldi. 1910 yilga kelib shaharda 53 ta oʻquv yurti faoliyat yuritgan [4]. Bular orasida an'anaviy maktab va madrasalar bilan bir qatorda rus-tuzem maktablari, gimnaziyalar

ham bor edi. Natijada aholining savodxonlik darajasi oshdi. 1897-yilda savodxonlar 10,9 foizni tashkil etgan bo‘lsa [2], 1910-yilga kelib 15 foizga yetdi [4].

Xulosa qilib aytganda, XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Toshkent shahar aholisi sezilarli darajada ko‘paydi va tarkibiy o‘zgarishlarga uchradi. Aholi soni 45 yil ichida 2 barobardan ko‘proq o‘sdi. Bu jarayonga tabiiy o‘sish, migratsiya, shahar hududining kengayishi va iqtisodiy rivojlanish kabi omillar ta'sir ko‘rsatdi. Natijada shahar aholisining etnik, ijtimoiy va madaniy qiyofasi o‘zgardi. Aholining tez sur'atlarda o‘sishi shaharsozlik muammolarini keltirib chiqardi. Umuman olganda, ushbu davr Toshkentning yirik shaharga aylanish jarayonining boshlanishi edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Черняев М.Г. Доклад о занятии города Ташкента // Туркестанский сборник. Т. 20. - СПб., 1869. - С. 97-107.

2. Первая всеобщая перепись населения Российской империи 1897 г. Сырдарьинская область. - СПб., 1905. - 208 с.

3. Обзор Сырдарьинской области за 1904 год. - Ташкент, 1905. - 126 с.

4. Статистический обзор Ферганской области за 1910 год. - Скобелев, 1912. - 123 с.

5. Маев Н.А. Азиатский Ташкент // Материалы для статистики Туркестанского края. Вып. 4. - СПб., 1876. - С. 260-313.

6. Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии (XVI - середина XIX в.). - М.: Изд-во вост. лит., 1958. - 247 с.

7. Ziyayev X. XIX asr - XX asr boshlarida O‘zbekiston tarixi. - Toshkent: O‘qituvchi, 1994. - 112 b.

8. Shamsutdinov R. O‘zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). - Toshkent: Sharq, 2019. - 544 b.

9. Агзамова Г.А. Ташкент во второй половине XIX - начале XX века: социально-экономическое и культурное развитие. - Ташкент: Yangi nashr, 2009. - 128 с.

10. Ziyoyeva D.X. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkistonda shahar madaniyati. - Toshkent: Akademnashr, 2017. - 256 b.

QADIMGI DAVRLARDA QANG‘ DAVLATI

Keldiyorov Farrux Ergash o‘g‘li
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qadimgi davrda Toshkent vohasida vujudga kelgan Qang‘ davlati haqida fikr yuritiladi.Ilmiy va yozma tarixiy manbalar asosida Qang‘ davlatining qadimgi davrdan to ilk o‘rta asrlargacha bo‘lgan davri yoritiladi.Shuningdek Qang‘ davlatining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti,turmush tarzi va mashg‘ulotlari haqida ham ma‘lumotlar beriladi.

Kalit so‘zlar: Qadimgi davr, Qang‘ davlati, dehqonchilik, hunarmandchilik, ijtimoiy-iqtisodiy, arxeologik.

Qadimgi davr O’zbekiston hududlarida taraqqiy etgan davlatlardan biri Qang‘ davlatidir.Qang‘ davlati mil.avv III asrning boshlarida paydo bo‘ladi.Hozirda bu hudud Toshkent viloyatining Oqqo‘rg‘on tumaniga to‘g‘ri keladi.O‘rta Osiyodagi yirik davlardan biri sifatida tilga olinadi.Davlatning nomi “qang‘ar”, “qang‘uy” deb nomlanuvchi deb nomlanuvchi qabilaning nomidan olingan.Davlat tashkil topgan dastlabki davrda uning hududiy asosini Toshkent vohasi tashkil etgan.Karim Shohniyovning fikricha,Qang‘ davlati sharqda Farg‘ona(Davan,Dayyuan), shimoli-sharqda Usun davlatlari, shimoliy-g‘arbda Sarisuv,g‘arbda Sirdaryoning quyi oqimi bilan chegaradosh bo‘lgan.Mil.avv. II va milodiy I asrda Qang‘ davlatining hududi ancha kengayib Toshkent vohasi,O‘rta Sirdaryo yerlari,Talas vodiysi va Chu daryosining quyi oqimidagi yerlarni o‘z ichiga olgan.Qang‘ davlati haqida bizgacha yetib kelgan manbalarda bu davlat hokimiyati qanday idora qilingani,boshqaruv tartibi va shakllari haqida aniq ma‘lumotlar saqlanib qolmagan.Qang‘ podshosi o’z oqsoqollari bilan maslahatlashib ish tutganligi haqida ma‘lumotlar beriladi.Arxeologik manbalarning guvohlik berishicha,Qang‘ qo‘shinlarining otliq suvoriylar yuechji suvoriylari kabi yubka shaklidagi burmali sovut, ko’krakka taqiladigan qalqon kiyishgan.Qang‘ davlati aholisining urf-odati Yuechji davlati aholising urf-odatidan farq qilmagan.Qang‘ davlatining ko‘chmanchi aholisi chorvachilik, shaharlar va ularning atrofida yashagan o‘troq aholi esa dehqonchilik,hunarchilik va tijorat bilan shug‘ullangan.Ular Buyuk ipak yo‘lida xalqaro siyosiy,iqtisodiy va madaniy aloqalarda muhim o‘rin tutgan.Qang‘ davlati hududida jiddiy migratsion jarayonlar sodir bo’lgan.Qang‘ davlatining ham tanga pullari bo’lgan.Miloddan avvalgi II-I asrlarda Qang‘ davlatida o‘z tangalarini zarb etish hamda pul almashinuvini

yo‘lga qo‘yishga bo‘lgan urinishlar kuzatilgan.Mazkur jarayonda Yunon-Baqtriya hukmronligi vaqtida amal qilgan tangalardan nusxa sifatida foydalanilgan.Qang‘ davlatidagi odamlar turli dinlarga mansub bo‘lgan:zardushtiylik,Anaxita oqimi,ot siymosida namoyon bo‘lgan Mitra oqimlari mavjud bo‘lgan.Qang‘ madaniyati bilan bog‘liq harbiy tenika sohasida erishilgan eng muhim muvaffaqiyatlardan biri bu keyinchalik keng tarqalgan taktik uslublar bo‘lgan:masalan, janglarda aslahalar bilan himoyalangan otlar va sovut kiygan chavandozlar safining jipslashtirilgan holda tuzilgan. Chavandozlar kamon,nayza va qilich bilan qurollangan.

Xulosa:Miloddan avvalgi III-mil. I asrlarda Qang‘ davlati bo‘lib o‘tgan siyosiy, iqtisodiy jarayonlarga guvoh bo‘lgan.O‘sha davrda Qang‘ davlatida savdo aloqalarning rivojlanishi natijasida boshqa xalqlarning ham siyosiy jihatdan shakllanishi uchun asos yaratgan.Shu sababdan ham Markaziy Osiyoning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida muhim o‘rin tutgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Sagdullayev A.S. O‘zbekiston tarixi, I kitob. Toshkent: “Donishmand ziyosi” МЧЖ, 2021.

2.K.Shohniyozov –“Qang‘ davlati va qang‘lilar” –Toshkent: Fan, 1990

3.Azamat ziyo. O‘zbek davlatchilik tarixi. T., “Sharq”, 2000-yil

4.Berdiev O. “O‘zbekistonning eng qadimgi davrlar tarixi”.Toshkent: O‘qituvchi , 1996.

BIOLOGIYA DARSLARIDA “KLASTER” VA “AQLIY HUJUM” USULLARIDAN FOYDALANISH

Xakimbayeva Mamura Erkin qizi
Axmedova Muxtarama Alijon qizi
Mahmayusupova Sayyora Maxmadoʻstovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Biologiya yoʻnalishi talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada biologiya fanida oʻquvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish va faollashtirish maqsadida “klaster” va “aqliy hujum” interfaol ta’lim usullarining ahamiyati va qoʻllanilishi tahlil qilinadi. Klaster usuli yordamida oʻquvchilar mavzuni tasniflash, bogʻlanishlarni aniqlash orqali mustaqil fikrlashni rivojlantiradi, aqliy hujum esa turli fikrlarni erkin va tez almashishga imkon berib, ijodiy yondashuvni ragʻbatlantiradi. Maqola ta’lim jarayonida ushbu usullarni samarali qoʻllash orqali oʻquvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyati va bilim darajasini oshirish yoʻllarini koʻrsatadi.

Kalit soʻzlar: ta’lim usullari, klaster usuli, aqliy hujum usuli, interfaol metodlar, bilim faollashtirish, oʻquvchilarning tanqidi fikrlashi, samarali ta’lim.

Bugungi kunda koʻplab rivojlangan mamlakatlarda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini ta’minlash uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar keng joriy etilmoqda. Ta’lim muassasalarida ayniqsa “klaster” usuli katta ahamiyat kasb etib, ta’lim-tarbiya jarayonini yaxlit, tizimli ravishda tashkil etishda muhim vosita sifatida foydalanilmoqda. Ushbu usul yordamida dars jarayonini oqilona tashkil etish, oʻquvchilarning qiziqishini oshirish, oʻquv materialini kichik, ma’noli boʻlaklarga boʻlib, ularni aniq va samarali tarzda oʻrganishga imkon yaratish mumkin.

Bundan tashqari, “Aqliy hujum”, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyatlarni hal etish, loyiha ishlari va rolli oʻyinlar kabi interfaol metodlar darslarda keng qoʻllanilib, oʻquvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu usullar yordamida oʻquvchilar faqat bilim olish bilan cheklanmay, balki oʻzaro muloqotda boʻlib, fikr almashish va bahs-munozarada hamjihatlik bilan muammolarni yechish koʻnikmalarini shakllantiradi. Natijada ta’lim jarayoni yanada interaktiv, qiziqarli va samarali boʻladi.

Klaster usulining eng katta afzalligi — talabalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishi va ularni hayotda erkin faoliyat yuritishga tayyorlashidir. Ushbu metodni tanlashda ta’limning maqsadi, o‘quvchilar soni va ularning imkoniyatlari, ta’lim muassasasining moddiy-texnik bazasi, ta’limning davomiyligi, shuningdek, o‘qituvchining pedagogik mahorati kabi omillar e’tiborga olinadi[1].

Zamonaviy ta’limning eng muhim vazifalaridan biri — **qisqa vaqt ichida ortiqcha kuch sarflamasdan, o‘quvchilarning mustaqil izlanishlarini rag‘batlantirish orqali yuqori natijalarga erishish**dir. Shu sababli, dunyo bo‘yicha ta’lim sohasida yetakchi mamlakatlarning ilg‘or tajribalariga murojaat qilgan holda, eng zamonaviy pedagogik texnologiyalar — xususan, klaster metodini joriy etish o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga va ularni kelajakda iqtidorli, yetuk kadrlar sifatida yetishtirishga katta hissa qo‘shmoqda.


“Aqliy hujum” metodi — bu muayyan muammo yoki mavzu yuzasidan talabalar tomonidan erkin, tezkor va faol fikr almashish orqali yechim topishga qaratilgan pedagogik usuldir.

Ushbu metod ikki asosiy shaklda qo‘llaniladi: **og‘zaki va yozma.**

Og‘zaki shaklda o‘qituvchi savol beradi va talabalar o‘z fikrlarini qisqa, aniq va erkin tarzda og‘zaki ifodalaydilar. Bu jarayon muammoni turli nuqtai nazardan ko‘rishga, tezkor ijodiy fikr almashishga imkon yaratadi[2]. Yozma shaklda esa talabalar o‘z javoblarini kartochkalarga yozib, maxsus doskaga joylashtiradilar. Bunday usul javoblarni guruhlash va tahlil qilishni osonlashtiradi, shuningdek, barcha fikrlar ko‘rinadigan bo‘lgani uchun hamma ishtirokchilarning fikri inobatga olinadi[3].

“Aqliy hujum” metodining samarali qo‘llanilishi talabalarni erkin, ijodiy, nostandart fikrlashga o‘rgatadi, mustaqil fikrlash va muammolarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, bu metod o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlik va muloqotni kuchaytirib, dars jarayonini yanada interaktiv qiladi[4].

“Aqliy hujum” metodining tuzilmasi (1-rasm):



“Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda dars ***jarayonida barcha o‘quvchilar faol jalb qilinadi,*** bu esa ularning ***muloqot qilish va munozara olib borish madaniyatini shakllantirish***ga xizmat qiladi. O‘quvchilar nafaqat og‘zaki, balki yozma ravishda ham o‘z fikrlarini ifoda etish ko‘nikmasini rivojlantiradilar. Shu bilan birga, mantiqiy va tizimli fikrlash qobiliyatlari mustahkamlanadi. Muhimi, bildirilgan fikrlar baholanmasligi natijasida o‘quvchilarda turli va yangi g‘oyalar erkin shakllanib, ijodiy tafakkur rivojlanadi.

Bu metod o‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan maqsadga muvofiq turli bosqichlarda samarali qo‘llanilishi mumkin:

1. Boshlang‘ich bilimlarni aniqlash maqsadida — darsning kirish qismida “aqliy hujum” metodi qo‘llanilib, o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha oldingi bilimlari va tushunchalari aniqlanadi.

2. Mavzuni takrorlash yoki yangi mavzu bilan bog‘lash zarur bo‘lganda — dars davomida, yangi mavzuga o‘tish oldidan, talabalar fikrlarini faollashtirish uchun foydalaniladi.

3. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida — darsning yakuniy qismida, mavzuga oid bilimlarni mustahkamlash va tushunchalarni chuqurlashtirish uchun qo‘llaniladi.

“Aqliy hujum” metodi ta’lim jarayonini interaktiv va samarali qilgan holda, o‘quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga rag‘batlantiradi hamda ularning bilimlarini chuqurlashtiradi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, biologiya darslarida “klaster” va “aqliy hujum” metodlaridan foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu interfaol usullar o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Klaster metodi o‘quv materialini tizimli ravishda o‘rganishga yordam berar ekan, aqliy hujum esa talabalarni turli fikrlarni erkin ifoda etishga, yangi g‘oyalar yaratishga undaydi. Shu tariqa, ta’lim jarayoni nafaqat bilimlarni qabul qilish, balki mustaqil tahlil qilish va muammolarni hal etish jarayoniga aylanadi. Bu esa zamonaviy ta’limning asosiy maqsadi — yuqori malakali, tanqidiy fikrlovchi, ijodkor kadrlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun pedagogik amaliyotda ushbu metodlardan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. M.R.Atabayeva, S.B.Shomuratova, Z.Y.Ro‘zmatova, O.Y.Atajanov. Biologiya darslarida klaster metodining afzalliklari. Scientific aspects and trends in the field of scientific research. International scientific online conference 165-169-betlar.
2. Isroilov, M. (2018). Pedagogik texnologiyalar va zamonaviy ta’lim usullari. Toshkent: “Ta’lim” nashriyoti.
3. Kadirova, N. (2020). Ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
4. Johnson, D., & Johnson, R. (1999). Learning Together and Alone: Cooperative, Competitive, and Individualistic Learning. Boston: Allyn and Bacon.

TARIX DARSLARIDA BADIIY ADABIYOT NAMUNALARIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI

Kobilova Ozoda Ashirbayevna
Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumani
№28 umumiy o‘rta ta‘lim maktabining
o‘zbek tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv davrida yosh avlodni tarixiy ong, milliy g'urur va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda tarix fanining, xususan, tarixiy-badiiy adabiyotlardan foydalanishning o’rni va ahamiyati yoritilgan. Tarixiy voqealarni faqat faktlar orqali emas, balki ularning badiiy talqini orqali o’rganish o’quvchilarda tarixiy tafakkurni shakllantirishi, estetik didni boyitishi, mustaqil fikrlash ko’nikmalarini rivojlantirishi ta’kidlangan. Maqolada badiiy adabiyotlar orqali emotsional ta’sir kuchi ortishi, darslarning mazmunan boyishi va o’quvchilarning tarixga nisbatan qiziqishi ortishini ta’lim-tarbiyaviy jarayondagi muhim omil sifatida ko’rsatib berilgan. Shuningdek, tarixiy-badiiy matnlarni tanlashda o’quvchilarning yosh xususiyatlari va psixologik holatini inobatga olish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so’zlar: Ta’lim jarayoni, globallashuv, badiiy asar, emotsional, darslik.

Bugungi globallashuv davrida yosh avlodni tarixiy ong, milliy g’urur va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda tarix ta’limining roli beqiyosdir. Tarixiy voqealarni faqat quruq faktlar asosida emas, balki ularning badiiy talqini orqali chuqur anglash esa o’quvchilarda tarixiy tafakkurni shakllantirishga, shaxsiy fikr yuritish malakasini oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, tarixiy-badiiy adabiyotlardan ta’lim jarayonida foydalanish nafaqat o’quvchilarning bilim doirasini kengaytiradi, balki ularni estetik zavq bilan boyitadi, voqealarga ko’p qirrali yondashishni o’rgatadi Mazkur maqolada tarix fanini o’qitishda adabiy manbalardan foydalanishning mazmun-mohiyati, usullari hamda ularning ta’lim-tarbiyaviy ahamiyati yoritiladi. Tarixiy-badiiy asarlarni tanlashda, ularni o’quvchilarga to’g’ri talqin qilish va tarixiy timsollar orqali g’oyani chuqur anglatishning samarali usullari asoslab beriladi. Shu sababli ham badiiy adabiyot vakillarining xalqimiz qalbini, uning oliy maqsadlari, bugungi hayoti, taqdiri va kelajagini yaqindan biladigan insonlar sifatida jamiyatimizdagi o’rni va ta’siri beqiyosdir.

Badiiy asarda ifodalangan hodisa, asar qahramonlarining tuyg'ulari, ulardagi g'ayrioddiylik va ruhiy kechinmalar ifodasining samimiyligidan hayratlanish o'quvchida turli hissiyotlarni uyg'otadi. Bu holat esa o'quvchining tarixga nisbatan qiziqishini oshirib, uning ichki dunyosini boyitadi va tarbiyaviy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'ladi. Ayniqsa, adabiyot orqali o'quvchilar tarixiy voqealarga chuqurroq kirib boradilar va ularning ta'sirini yanada chuqurroq anglay boshlaydilar.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, adabiyot darslarida emotsional holatlarni vujudga keltirishda o'qituvchi nutqining tiniqligi hamda badiiy ifodali bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq bu jarayon chin dildan, ya'ni o'ta samimiy bo'lishi lozim. Aks holda, o'qituvchining nutqi faqatgina foydali axborot bo'lib qoladi va o'quvchining faoliyatiga zaruriy hissiy ta'sir ko'rsata olmaydi. Shu bilan birga, darsning qiziqarliligini ta'minlashda bilishdan zavqlanish hissining o'rni ham beqiyosdir. Bu hissiyotlar o'quvchining ta'lim jarayonidagi ishtiyoqini kuchaytiradi, uni mustaqil fikrlashga, tarixiy tafakkurni rivojlantirishga undaydi.[1] **Ayniqsa, tarix fanida ham bu kabi yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Tarixiy voqealarni o'rganishda ham hissiy-ta'sirchan muhit yaratish, o'quvchida chuqur qiziqish uyg'otadi va bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.**

Aslida tarix o'qitishda qo'llaniladigan matnlarga – darslik matni,tarixiy hujjatlar,asarlar,ilmiy ommobop va badiy, tarixiy adabiyotlar va boshqalar iradi. Bosma matnlar ta'lim oluvchilar tarixiy bilimlarining asosiy manbai bo'lgani kabi ta'lim beruvchining bilim manbaini, bayonining asosini tashkil etadi.Tabiiydirki, o'qituvchi shu manbalardan to'g'ri va unumli foydalangan taqdirdagina, uning bayoni didaktika talablariga, umuman tarix ta'limining yuksak talablariga javob berishi, o'qituvchi bayonining o'quvchilarga tushunarli, mazmundor, maroqli, g'oyaviy va ilmiy jiliatdan ishonarli, obrazli va ta'sirli bo'lishi mumkin. Tarixiy-badiiy adabiyotlar tarixiy jarayonlarni o'zlashtirishda muhim omil hisoblanadi. Tarix ta'limida tarixiy –badriy adabiyotlardan foydalanishda ta'lim oluvchilarning psixologik yosh xususiyatlarini hisobga olish va ularning, fanga oid qiziqishlarini ham inobatga olish kerak.[2]

Shuningdek, o'quvchilar tarixiy tafakkurni shakllantirishda matnlar asosida mustaqil tahlil yuritish, faktlar va voqealar o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, tarixiy manbalarning ishonchliligini baholash ko'nikmalariga ega bo'lishlari muhimdir. Bu esa o'z navbatida tarix faniga nisbatan ongli munosabatni shakllantiradi. Ta'lim jarayonida matn ustida

ishlash, uni tahlil qilish va undagi asosiy g'oyalarni ajratib ko'rsatish o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Ayniqsa, tarixiy-badiiy asarlar orqali o'quvchilarda o'tmishga nisbatan emotsional bog'liqlik shakllanadi, bu esa tarixiy bilimlarning chuqurroq va barqaror o'zlashtirilishiga xizmat qiladi. Bunday asarlarni tarix darslarida tahlil qilish, ularning mazmuni ustida ishlash va qahramonlarning xatti-harakatlarini muhokama etish jarayonida o'quvchilar nafaqat tarixiy voqealarni idrok etadilar, balki odam va olam sirlarini anglab boradilar. Bu jarayonda ular asar muallifi va adabiy qahramonlar timsolida insoniyat mohiyatini kashf etish imkoniga ega bo'ladilar. Natijada o'quvchilar shaxsiy o'zligini anglay boshlaydilar, mustaqil fikrlovchi, o'z nuqtai nazariga ega bo'lgan ongli shaxs sifatida shakllanib boradilar va ongli fuqaro sifatida kamol topadilar.[3]

Shu tarzda, tarix o'qitish jarayonida adabiyot va badiiy asarlardan foydalanish, o'quvchilarda tarixiy tafakkur, emotsional bog'liqlik va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. Tarixiy voqealarni chuqur anglash va ular orqali milliy g'urur hamda vatanparvarlik hissini shakllantirishda badiiy adabiyotlar muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilar tarixiy-badiiy asarlar orqali nafaqat tarixiy jarayonlarni, balki insoniyat va millat hayotidagi muhim qadriyatlarni ham o'rganadilar. Natijada, bu jarayon o'quvchilarda ongli va tafakkurli, adolatli fuqaro sifatida shakllanishga yordam beradi. Tarixiy-badiiy adabiyotlar ta'lim jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular tarixni faqatgina faktlar yig'indisi sifatida emas, balki inson ruhining o'zgartiruvchi kuchi sifatida ko'rsatadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. M. B. Shodmonova., "Ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyalari" Monografiya. Toshkent – 2021.

2. A. H. Pardayev "Tarix fanini oqitishda tarixiy-badiiy adabiyotlardan foydalanishning mazmuni va mohiyati", "Tarix va jamiyat ilmiy elektron jurnal" № 1. 2024-yil. 5-6 b.

3. Q. Husanboyeva, r. Niyozmetova., "Adabiyot o 'qitish metodikasi", 0'quv qo'llanma. Toshkent-2020 yil.

4. JoldasovI.S. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda zamonaviy yondashuvlar // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. – 2023. – B. 284-286.

5. Joldasov I.S. Yordamchı tarıx fanlarını o'qıtıshda fanlararo aloqalarnıng o'rni // Tamaddun nuri. – 2024. – №4. – B. 341-343.

6. Joldasov I.S. Talabalarda amaliy kompetensiyani shakllantirishning axborot-loyiha texnologiyalari // Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў Илимий-методикалық журнал. – 2024. – № 3/3. – Б. 767-771.

7. Joldasov I.S. Methodology for the formation of professional competence of future teachers // Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods. Volume 2, Issue 4, 2024..

8. Joldasov I.S. Tasks Implemented in Professional Schools to Send Students to Professions // International Interdisciplinary Research Journal:Vol 2. Issue 2. 2023.

9. Joldasov I.S. Yangi O‘zbekistonda professional ta’lim islohotlari // “Yangilanayotgan O‘zbekistonda ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materillari to‘plami. 2023. – B. 94-96.

10. Joldasov I.S. Elektron ta’lim muhitida ta’lim oluvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish imkoniyatlari// Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў Илимий-методикалық журнал. – 2024. – № 5/3. – Б. 129-134.

11. Joldasov I.S. Talabalarni kasb-amaliy faoliyatga tayyorlash jarayonining didaktik imkoniyatlari // Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў Илимий-методикалық журнал. – 2024. № 6/1. – Б. 231-234

TARIX MUTAXASSISLIGI MAGISTRANTLARINING TADQIQOTCHILIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Kurbanov Olim Esirgapovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarix mutaxassisligi bo‘yicha magistratura talabalarining tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi milliy normativ-huquqiy hujjatlar va xalqaro tajriba nuqtai nazaridan chuqur tahlil qilindi. Muhokama qismda infratuzilma, professor-o‘qituvchilarning raqamli savodxonligi va etik normalar asosiy cheklovlar sifatida ko‘rsatildi; xalqaro stajirovka va milliy grant dasturlarini kengaytirish esa ustuvor takliflar sifatida ilgari surildi.

Kalit so‘zlar: tadqiqotchilik kompetensiyasi, tarix ta’limi, integrativ-raqamli yondashuv, sun’iy intellekt, STEAM usullari, manba ekspertizasi, magistrantlar tayyorlash, “Raqamli O‘zbekiston – 2030”.

Tarixchi-olim uchun tadqiqotchilik ko‘nikmalari – dalillarni izlab topish, ularni tanqidiy tahlil etish va zamonaviy ilmiy nuqtai nazardan xolis xulosa chiqarish qobiliyati – kasbiy yetuklik mezoni hisoblanadi. O‘zbekistonda bu mezonni rivojlantirish davlat miqyosidagi vazifaga aylangan: PF-5847-son farmon oliy ta’limni 2030 yilgacha innovatsion rivojlantirish strategiyasini belgilab berdi, unda fan-ta’lim-ishlab chiqarish integratsiyasi va ilmiy-innovatsion faoliyatni kuchaytirish ustuvor yo‘nalish qilib ko‘rsatilgan [1]. Keyinroq “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi raqamli texnologiyalar asosida ta’lim samaradorligini keskin oshirishni maqsad qilib qo‘ydi [2]. Xalqaro maydonda esa ResearchComp ramkasi tadqiqotchilar uchun transversal ko‘nikmalarning umumevropa standartini belgilaydi [3]. Shu bois magistrantlarning tadqiqotchilik kapitalini shakllantirishda integrativ fanlararo yondashuv va raqamli asboblarni bir zinjirga bog‘lash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqot 2023/24 o‘quv yili davomida Chirchiq davlat pedagogika universiteti tarix magistraturasining 24 talabasini qamrab oldi. Dastur modelining nazariy poydevori fanlararo integratsiya va STEAM logikasiga tayandi: tarixiy hodisalar iqtisodiy, antropologik va statistik ko‘rsatkichlar bilan chuqur bog‘landi. Seminar-leksiya jarayonlariga ChatGPT, Tableau, QGIS, JSTOR va Europeana singari AI va raqamli platformalar to‘liq integratsiya qilindi. Manba ekspertizasi bo‘yicha kirish testlari va yakuniy muvaffaqiyat indeksi Bloom taksonomiyasi asosida batafsil baholandi. Ta’lim jarayoni maqsadli ravishda “muammoli tadqiqot” formatida tashkil etildi: har bir magistrant individual loyihasini ikki semestr davomida olib bordi, dastlabki gipotezani shakllantirishdan tortib, raqamli vizualizatsiya va konferensiya dokladi tayyorlashgacha bo‘lgan to‘liq ilmiy siklni amalga oshirdi. Xorijiy tajriba sifatida Kioto universiteti va Koreya Ta’lim Institutining Graduate Research-Skills kurslari kontent-analitik usulda o‘rganildi [4].

Ikki semestrlik o‘quv-tadqiqot protsedurasi yakunlariga ko‘ra, manba ekspertizasi bo‘yicha o‘rtacha test balli 63 dan 76 ga, ya’ni 21 %ga o‘sdi; tanqidiy tahlil indeksi (yerkin esse ekspertizasi) 18 %ga ijobiy siljidi. Raqamli ma’lumot vizualizatsiyasi ko‘nikmalarini baholovchi Tableau-GIS loyihalarini muvaffaqiyatli topshirganlar ulushi 65 %dan 92 %ga chiqdi. Ilmiy faollik ham

oshdi: magistrantlar ichki universitet konferensiyasida 14 tezis bilan ishtirok etdi, ikkita maqola Scopus koʻrsatgichli jurnal muharririyatiga yoʻllandi. Intervyu natijalari talabalar AI-asboblar hisobidan manba saralash, sitatalash va grafik tayyorlash tezligi kamida ikki barobar ortganini tasdiqladi.

Muhokama. Olingan natijalar integrativ-raqamli modelning tadqiqotchilik kompetensiyalarini samarali rivojlantiruvchi mexanizm ekanini koʻrsatdi. PF-5847 va “Raqamli Oʻzbekiston – 2030”ning ta’limda innovatsiya va raqamlashtirishga qaratilgan talablari toʻliq qondirildi [1, 2]. Shu bilan birga, amaliyotda qator cheklovlar aniqlandi. Birinchidan, yuqori sifatli internet hamda litsenziyalangan dasturiy ta’minot barcha auditoriyalarda mavjud emasligi raqamli komponentlarni bir maromda joriy etishga toʻsqinlik qildi. Ikkinchidan, professor-oʻqituvchilarning AI va data-analitika sohasidagi savodxonligi nomutaxassislar uchun servis-treninglarga ehtiyoj tugʻdirdi. Uchinchidan, raqamli plagiatni oldini olish va manbalarni notoʻgʻri koʻrsatish holatlarini cheklash maqsadida axloqiy-huquqiy reglamentni takomillashtirish zarur. Yevropa Ittifoqi ResearchComp ramkasida aks etgan “axloqiy va ijtimoiy mas’uliyat” blokini milliy standartlarga implementatsiya qilish mazkur samaradorlikni yanada ta’minlaydi.

Taqdim etilgan integrativ-raqamli ta’lim modeli tarix mutaxassisligi magistrantlarida manba ekspertizasi, tanqidiy tahlil va raqamli vizualizatsiya kabi bazaviy tadqiqotchilik koʻnikmalarini koʻzga koʻrinarli darajada rivojlantirdi; bu esa oliy ta’lim tizimining 2030 yilgacha boʻlgan rivojlanish kontekssstida yuqori malakali kadrlar tayyorlashga real hissa qoʻshishi mumkin. Modelning keng qamrovli joriy etilishi uchun infratuzilma modernizatsiyasi, oʻqituvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirish va etik-huquqiy baza yaratish ustuvor vazifalar boʻlib qolmoqda. Xalqaro stajirovka va milliy grant dasturlarini kengaytirish esa magistrantlarning ilmiy mobilligini ta’minlab, ularning global akademik maydonda raqobatbardoshligini oshiradi.

Adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-йил 8-октябрдаги PF-5847-сон Фармони. Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. LEX.UZ

2. “Raqamli Oʻzbekiston – 2030” стратегиясига оид PF-6079-сон Фармон, 5 октябрь 2020 й. LEX.UZ

3. European Commission. *ResearchComp: The European Competence Framework for Researchers.* 2023. Research and innovation

MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHKENT: IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY TARAQQIYOT TARIXI

Madrahimova Sevinch Abdulla qizi
ChDPU Tarix yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Tarix kafedrasi dotsenti
t.f.f.d. (PhD) Sh.B. Jumayeva

Annotatsiya: Mazkur ishda O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng Toshkent shahrida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar tahlil qilinadi. Poytaxt sifatida Toshkentning modernizatsiya jarayonlari, infratuzilmaviy rivojlanish, aholining turmush darajasidagi o‘zgarishlar, madaniyat va san’at sohalarida erishilgan yutuqlar ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Tadqiqot Toshkent shahrining mustaqil O‘zbekistonning siyosiy va ma’naviy markaziga aylanishida tutgan o‘rni va ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: Toshkent, mustaqillik, ijtimoiy rivojlanish, iqtisodiyot, madaniyat, modernizatsiya, poytaxt.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, mamlakat poytaxti Toshkent shahri ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning markaziy maydoniga aylandi. Mustaqillik yillarida Toshkentda amalga oshirilgan islohotlar, urbanizatsiya, infratuzilma yangilanishi, ijtimoiy xizmatlar sifatining oshishi va madaniy hayotning jonlanishi respublikaning umumiy rivojlanish strategiyasi bilan uzviy bog‘liq bo‘ldi.

Ijtimoiy rivojlanish borasida eng muhim yutuqlardan biri – aholining yashash sharoitlarining tubdan yaxshilanishi hisoblanadi. Toshkent shahrida mustaqillikdan so‘ng 1 milliondan ortiq aholi ko‘p qavatli zamonaviy uylarga joylashtirildi (Davlat statistika qo‘mitasi, 2021). Shuningdek, mahallalar infratuzilmasi, ta’lim va sog‘liqni saqlash muassasalari tarmog‘I kengaytirilib, zamonaviylashtirildi. Bugungi kunda poytaxtda 300 dan ortiq maktab, 50 dan ortiq oliy ta’lim muassasasi faoliyat yuritmoqda, ulardan eng nufuzlilari – Toshkent davlat universiteti, Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent xalqaro Vestminster universiteti va boshqalar (Toshkent shahar hokimligi, 2023). Iqtisodiy rivojlanish yo‘nalishida Toshkent shahri O‘zbekistonning eng yirik sanoat va xizmatlar markaziga aylandi. Toshkent shahrida joylashgan “Yangi Andijon” va “Yangi Toshkent” kabi yirik loyihalar poytaxtning iqtisodiy salohiyatini kengaytirmoqda. Shuningdek, 2017-yildan boshlab Toshkent

shahri “raqamli iqtisodiyot”ga o‘tish bo‘yicha tajriba maydoniga aylantirildi. “Toshkent City” xalqaro biznes markazi, “IT Park”, va boshqa texnoparklarning tashkil etilishi xorijiy investitsiyalar oqimini kuchaytirib, minglab ish o‘rinlari yaratdi (UzDaily, 2022).

Transport va kommunikatsiya sohasida ham sezilarli yutuqlar kuzatildi. Toshkent metrosining yangi yo‘nalishlari, Xalqaro aeroportning rekonstruksiyasi va elektromobillar uchun infratuzilmaning joriy qilinishi shaharning ekologik va texnologik salohiyatini oshirdi. Bugungi Toshkent — bu nafaqat O‘zbekistonning ma’muriy markazi, balki Markaziy Osiyodagi eng yirik transport tugunlaridan biri hisoblanadi.

Madaniy taraqqiyot borasida mustaqillik yillarida Toshkent san’at, adabiyot, teatr, musiqa, va kino sohalarida markaziy rol o‘ynab kelmoqda. Alisher Navoiy nomidagi davlat akademik katta teatri, O‘zbekiston davlat san’at muzeyi, Konservatoriya, yangi zamonaviy kutubxonalar va galereyalar – bular poytaxtning madaniy hayotidagi muhim inshootlardir. Har yili Toshkentda xalqaro darajadagi ko‘plab madaniy tadbirlar – “Art Week”, “Tashkent Film Festival”, “Sharq Taronalari” kabi forumlar o‘tkazilmoqda. Bu tadbirlar orqali Toshkent O‘zbekistonning madaniy diplomatiyasining asosiy maydoniga aylandi (UNESCO, 2022).

Toshkent shahrining tarixiy yodgorliklari va me’moriy merosiga bo‘lgan e’tibor ham ortdi. Mustaqillikdan so‘ng tarixiy binolarni restavratsiya qilish, yangi tarixiy-madaniy majmualarni qurish yo‘lga qo‘yildi. Jumladan, Hazrati Imom majmuasi, Mustaqillik maydoni, Temuriylar tarixi muzeyi kabi maskanlar poytaxtning zamonaviy va tarixiy uyg‘unligini namoyon etmoqda. Toshkent o‘zining qadimiy shaharlik madaniyatini saqlagan holda, global texnologiyalar va dizayn nuqtai nazaridan ham rivojlanmoqda (Zokirov, 2020).

Bundan tashqari, Toshkent yoshlar siyosati, gender tenglik, inklyuzivlik va fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish borasida ham yetakchi platforma hisoblanadi. Bu yerda “Yoshlar ishlari agentligi”, “Xotin-qizlar qo‘mitasi”, “Milliy G‘oya va ma’naviyat markazi” kabi tashkilotlar faol ishlamoqda. Toshkentlik yoshlarning xalqaro olimpiadalar, tanlovlar, stipendiya dasturlarida faol ishtirok etishi poytaxtda yaratilayotgan ijtimoiy muhitning bevosita ko‘rsatkichidir.

Umuman olganda, Toshkent shahri mustaqillik yillarida O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishining timsoliga aylandi. Uning zamonaviy qiyofasi, innovatsion salohiyati va tarixiy ildizlari uyg‘unlashgan holda, poytaxt sifatidagi mavqeini mustahkamlab bormoqda.

Xulosa: Mustaqillik yillarida Toshkent shahrida ro‘y bergan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar nafaqat poytaxt taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab berdi, balki butun O‘zbekiston taraqqiyoti uchun barqaror modelni shakllantirdi. Urbanizatsiya, infratuzilma rivoji, zamonaviy xizmatlar sohasi, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimidagi yangilanishlar poytaxtning jahon standartlariga mos rivojlanayotganini ko‘rsatdi. Toshkent bugungi kunda iqtisodiy imkoniyatlar markazi, ilm-fan va innovatsiyalar manbai, hamda madaniy diplomatiya maydoniga aylangan. Poytaxtning tarixiy merosi bilan zamonaviylik uyg‘unligi, xalqaro nufuzining ortishi va fuqarolik jamiyati institutlarining mustahkamlanishi uning o‘ziga xos rivojlanish modelini yaratdi. Ushbu tajriba boshqa hududlar uchun ham ibrat bo‘lib xizmat qilmoqda. Toshkent – bu nafaqat O‘zbekiston yuragi, balki uning kelajagiga yo‘l ochuvchi strategik markazdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. (2021). Toshkent shahrining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi statistik to‘plami. – Toshkent: Statinfo.
2. Toshkent shahar hokimligi rasmiy sayti. (2023). https://tashkent.uz
3. UzDaily. (2022). “Toshkent City va IT Park: raqamli iqtisodiyotda yangi bosqich”. – https://uzdaily.uz
4. Zokirov, R. (2020). Toshkentning zamonaviy urbanistik rivojlanishidagi tarixiylik va innovatsiya uyg‘unligi. – Toshkent: “Fan va taraqqiyot” nashriyoti, 182 b.
5. UNESCO. (2022). Cultural festivals and development in Central Asia: The case of Tashkent. – Paris: UNESCO Publishing.
6. Karimov, I.A. (1998). O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 304 b.
7. Qodirov, B. (2019). “Toshkent – O‘zbekistonning ijtimoiy barqarorlik modeli”, Ilm-fan va jamiyat jurnali, №4, 66–71-betlar.

QADIMGI VA O‘RTA ASRLARDA TOSHKENT VOHASI CHOCH SULOLALARINING POYTAXTLARI MISOLIDA

Malikboyeva Odina
CHDPU talabasi

Annotatsiya Ushbu maqolada Toshkent vohasining yirik markazlarida biri bo‘lgan Chochning tarixi va uning yirik shaharlari haqida shuningdek, Chochning poytaxtlari va unga olimlarning fikrlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Choch, Toshkent vohasi, Xitoy, arab, fors manbalari, Binkat, Mingo‘rik

Kishilik tarixidagi ilk sivilizasiya o‘choqlari Nil, Hind, Tigr, Evfrot va Xuanxe vodiylarida vujudga kelgan. Aynan shu xududlarda birinchi davlatlarning shakllanishi bilan ilk shaharlar ham paydo bo‘lgan [1]. Shu sababli, ko‘pchilik olimlar sivilizasiyaning vujudga kelishi va rivojlanishida shaxar va davlatchilikni sabab qilib keltirsalar. Boshqa bir tadqiqotchilar esa ushbu jarayonni sivilizasiyaning evolyusion asosiy bosqichlaridan biri deb qaraydilar. Haqiqatdan ham, davlatning paydo bo‘lishi va shaxarlarning shakllanish jarayonlari o‘zaro bir-biri bilan uzviy bog‘liq. U o‘zida jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, hamda iqtisodiy va madaniy taraqqiyotini aks ettiradi. Shahar madaniyati taraqqiyoti jarayoni murakkab voqelik bo‘lib, u bir tomondan umumiy ijtimoiy va iqdisodiy qonuniyatlarni, boshqa tomondan esa siyosiy tarixning aniq bir voqeasini ko‘rsatib beradi. Shunga qaramay, tadqiqotchilar shaharlar tarixini o‘rganishda ko’pincha aloxida bir shahar masalan, Samarqand, Buxoro, Naxshab kabi, biror geografik yoki tarixiy-madaniy hudud Yettisuv, Janubiy Qozog‘iston, Toshkent voxasi. Fargona vodiysi, Janubiy Sugd va boshqalari, yoxud Buyuk ipak yo‘lida joylashgan shaharlar tarzida o‘rganib keladilar. Aslida shaxarlar tarixini butun davlatni qamrab olgan xolda va siyosiy jarayonlar bilan uzviylikda o‘rganish kerak.

Chochning shahar madaniyatiga doir yozma manbalardagi ma'lumotlar unchalik ko‘p bo‘lmay, borlari xam qisqa va uzuq -yuluq qaydlardan iborat. Bu borada xitoy yiliomalari (“Suy- sh u’\ “Vey-sh u” va “Tan-shu”) va xitoylik roxib Chjan Syuan- szan xotiralari, sugdiy xujjatlar aloxida axamiyatga ega. Qolaversa, garchi birmuncha keyingi davrlarga tegishli bo‘lsa-da, arab geograflaridan Istaxriy, Mukaddasiy. Ibn Xavkal va muallifi ma'lum bo‘lmagan forscha “Hudud ul-olam” asarlarida voxa shaxarlarining tuzilishi va tavsifi to‘g‘risida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Biroq ularning ko‘pchiligi bir-biriga qarama-qarshi yoki oldingi mualliflarning

qaydlarini takrorlaydi. Shunga qaramay, arab va fors tillaridagi manbalar Choch shaharlari tarixini u yoki bu darajada yoritishda qoʻl keladi [2].

VII - VIII yuz yilliklarda Chochning markazi qayerda joylashganligini aniqlash mutaxassislarga bir muncha qiyinchiliklar tugʻdirgan. Shunga qaramay, Choch shaharlarining nomlari va ular oraligʻidagi oʻlchamlar toʻgʻrisida yozma manbalarda keltirilgan maʼlumotlarni sinchiklab oʻrgangan V. V. Bartold ilk bor Chochning IX–XII yuz yilliklardagi poytaxti Binkat bugungi Toshkentning oʻrnida boʻlgan, degan fikrlarni aytgan. Toshkent shahrining tarixiy topografiyasini oʻrgangan M. Ye. Masson esa Binkat Toshkentning aynan bugungi "Eski shahar" deb atalgan qismiga toʻgʻri keladi, deb yuqoridagi fikrga aniqlik kiritgan [3]. Shu sababli koʻpchilik olimlar IX–X yuz yilliklarda voha markazi Boʻlmish Binkat yoki Madinat ash-Shoshning Toshkent shahri hududida (Eski shahar) joylashganligidan kelib chiqib, arablargacha ham voha poytaxti (arabcha: Madinat ash-Shosh) Toshkentda, toʻgʻrogʻi, Mingurik yodgorligi oʻrnida boʻlganligi toʻgʻrisida xulosa chiqarishgan [4].

Ancha yillardan beri tadqiqotchilar orasida Choch vohasida oʻrganilayotgan yuz yilliklarda mahalliy Chjaovu xonadoniga tegishli sulola hukmronlik qilgani, eski turklar esa bu yerda boshqaruvni vaqtincha qoʻlga olganlari toʻgʻrisida xulosalar mustahkamlangan edi. Buning oqibatida "arablar bosqinidan oldin mamlakat parchalangan bir sharoitda shaharlarida hukmdorlarga tegishli hashamatli saroylarning boʻlganligi kichik poytaxtlarning koʻpligini koʻrsatadi" mazmunidagi yoki "VI–VIII yuz yilliklarda Choch–Iloqdagi shahar madaniyatida mohiyatan koʻp markazlilik kuzatiladi" tarzidagi fikrlar koʻplab yuzaga kelgan.Biroq bu mualliflar "kichik poytaxtlar koʻpligini" uqtirganlari holda, bu kichik poytaxtlar yozma manbalarda tilga olingan qaysi shaharlarga toʻgʻri kelishi yoki vohadagi qaysi shahar xarobalaridan biri "kichik poytaxtlar" sirasiga kirishi toʻgʻrisida hech qanday maʼlumotlar berishmagan.

Arxeologlar Choch hududidagi shahar xarobalarining hajmi, topografik joylashuvi, ulardagi ibodatxona va saroy singari hashamatli inshootlarning boʻlganligi kabi omillarga suyanib, Choch poytaxtining oʻrnini aniqlashga urinishgan. Biroq ular ham bu masalada bir toʻxtamga kelishmagan. Buning ustiga, Kang saltanatining poytaxti, shuningdek, Choch markazlaridan biri boʻlgan Tarbandid shahrini qozoqlik va oʻzbekistonlik olimlarning har biri oʻz hududlariga joylashtirishga urinishganliklari kuzatiladi. Xususan, koʻpchilik

mutaxassislarning xulosalaridan farqli o‘laroq, ulardan A.N. Podushkin Kang saltanatining markazini Aris vodiysiga joylashtirgan [5].

Bugungi kunda ham ayrim olimlar ilk o‘rta yuz yilliklarda Choch shahri (Mingurik xarobasi) vohaning iqtisodiy-madaniy, Tarband esa harbiy-siyosiy markazi bo‘lgan deb qarasalar, boshqa olim tadqiqotchilar esa Kanka shahar xarobasi Turk xoqonlarining Chochdagi noiblarining markazi bo‘lganligini uqtiradilar. Choch hukmronligining boshqaruv markazlari to‘g‘risida shunga o‘xshash turli xulosalar ilgari surilgan bo‘lishiga qaramay, ko‘pchilik tadqiqotchilar negadir faqat Tudunlar va mahalliy hukmdorlarning poytaxtlari masalasiga e’tibor qaratishgan. Ayniqsa, Mingo‘rik shahar xarobasi Chochning ilk o‘rta yuz yilliklardagi poytaxti deb e’tirof etiladi. Biroq vohadagi bosh sulola maqomida bo‘lgan Teginlarning markaziy shahri qayerda joylashganligi masalasi hali ham aniqlanmagan bo‘lsa, tudunlarning qarorgohlari yuzasidan ham qarama-qarshi fikrlar bildirilganligini aytib o‘tish lozim.

Boshqa yozma manbalar faqat chet ellik mualliflar tomonidan yozib qoldirilgan. Xususan, xitoy, arab va fors tillaridagi manbalarda Choch poytaxtining nomlari va joylashgan o‘rniga doir uzuk-yuluk va qarama-qarshi ma’lumotlar berib o‘tilgan. Buning asosiy sababi — chet ellik mualliflar mamlakat poytaxti to‘g‘risida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lmagan yoki o‘z odatlariga ko‘ra, mamlakat va uning poytaxtini bir nom ostida bergan bo‘lishlari kerak. Buni arab manbalarida “Madinat ash-Shosh” nomi ostida Choch poytaxti emas, balki undagi qandaydir shahar ko‘zda tutilgan bo‘lishi mumkinligi ham ko‘rsatmoqda.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, bugungi Toshkent va Utror vohalari o‘tmishda Choch nomi bilan yuritilgan ekan, bu nom vohadagi bir muncha yirik shahar xarobalaridan bazi birlariga qo‘llanganligini ko‘rishimiz mumkin.

SALJUQIYLAR DAVLATINING TASHKIL TOPISHI VA DAVLATNING IJTIMOIY IQDISODIY HAYOT

Mamirov Ziyodulla
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Tarix yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
mamirovziyodulla004@gmail.com
+998933634504

XI asrning birinchi yarmida Movarounnahrda yashovchi saljuqiy turklarning Old Osiyoga ko‘chishi sodir bo‘ldi. Saljuqiylar harakatiga Saljuqning nabiralari aka-uka To‘g‘rulbek, Chag‘ribek Dovud va ularning amakisi Musa Yabg‘u boshchilik qildilar. Ular qiniq nomli qadimgi turkman urugidan edilar. Dastlab saljuqiylar quyi Sirdaryodagi Jand degan joyda ko‘chib yurar edilar, keyinchalik yer yetishmovchiligidan Zarafshon daryosining o‘ng qirg‘og‘iga ketishga majbur bo‘ldilar. XI asning boshlarida Zarafshon vodiysiga qoraxoniylar bilan birga ko‘plab chigil, qarluq, yag‘mo va boshqa turk aymoqlari ham kirib keldilar. Ularning hammasiga ko‘chib yurish uchun joy kerak edi. Shularni hisobga olib, saljuqiylar XI asr 30 yillarida Xurosonga ko‘chishga majbur bo‘ldilar. Ammo bu yerda saljuqiylar yangi yerlarni qo‘lga kiritishda g‘aznaviylar bilan kurashishlariga to‘g‘ri keldi. Xuroson aholisi g‘aznaviylar qo‘shinining aholi hisobiga yashashidan va ularning qiladigan zo‘ravonligidan qattiq azob chekar edi. Bunday sharoitda saljuqiylarga qarshi olib borgan kurash sulton Ma’sud uchun foydasiz bo‘lib chiqdi. Uning turkmanlarga qarshi yuborgan qo‘shini Saraxs yonida mag‘lubiyatga uchradi. Natijada 1038 yilda To‘g‘rulbek 3 ming kishilik qo‘shini bilan hech bir qarshiliksiz Nishopurni egalladi. Qiziq tomoni, Nishopurning bosh ruhoniy va savdogarlari shaharni saljuqiylarga topshirish tarafdori edilar. 1040 yilda Saraxs va Marv orasidagi Dandanakon yonida g‘aznaviylar va saljuqiylar o‘rtasida so‘nggi hal qiluvchi jang bo‘ldi. Suvsiz cho‘ldan o‘tib, qattiq toliqqan g‘aznaviylar qo‘shini butunlay yanchib tashlandi. G‘aznaviylardan tortib olingan yerlar saljuqiylar o‘rtasida bo‘lib olindi: To‘g‘rulbekka Eronning shimoliy va shimoliy-g‘arbiy viloyatlari, Chag‘ribek Dovudga Marv va Xurosonning katta qismi, Musa Yabg‘uga Tus, Hirot va Seyiston viloyatlari tegdi. Shu tariqa, saljuqiylar davlati tashkil topdi. Saljuqiylar davlatining boshlig‘i To‘g‘rulbek (1038—1063) bo‘lib qoldi. U hujumni davom ettirib Iroqi Ajam, Ozarbayjon, Kurdiston va Ko‘histonni o‘ziga bo‘ysundirdi. 1055 yilda To‘g‘rulbek qo‘shini bilan Bag‘dodga kirib keldi va o‘z nomini xutbaga qo‘shib o‘qitishga xalifani ko‘ndirdi. Diniy hokimiyat

abbosiylar xalifasiga, dunyoviy hokimiyat sulton unvoni bilan To‘g‘rulbekka o‘tdi. Yangi davlatning poytaxti etib Ray shahri belgilandi.

Alp Arslon (1063—1072) va Malikshoh (1072—1092) hukmronliklari davrida saljuqiylar Kichik Osiyo va Yaqin Sharqda mustahkam o‘rnashib oldilar. 1071 yili saljuqiylar Vizantiya imperatori Roman IV Diogenning 200 ming kishilik qo‘shinini yengib, butun Kichik Osiyoni, keyinchalik Suriya va Falastinni zabt etdilar. Armaniston, Gruziya, Shirvon ham bo‘ysundirildi. Shu davrda Balx, Termiz, Buxoro, Samarqand, keyinchalik Farg‘ona vodiysi saljuqiylar qo‘l ostida birlashdi. Alp Arslonni Malazgirddagi g‘alabasidan keyin (1071 yil) Vizantiya harbiy qudrati shu darjada zaiflashdiki, chegara va mamlakat xavfsizligini ta’minlay olmay qoldi. Vizantiya hududlariga uning chegarasida jamlanib turgan o‘g‘uzlar bostirib kirib uning keng dala va daralarini to‘ldirdilar. Bir vaqtning o‘zida Rum yerlarini saljuqiy sarkardalari bosib olib bu yerlarda mustaqil beyliklarni tashkil qila boshladilar[74].

Sharqiy Turkistondagi qoraxoniylar ham ularning hokimiyatini tan oldi. Malikshoh va uning vaziri Nizomulmulk o‘sha paytlari islom dunyosiga qutqu solgan fitnachilarga qarshi juda qattiq kurash olib bordilar. Ular bir tomondan Nizomiya madrasasini ochib, u yerda islomning sunniylik e’tiqodini o‘rgatishar, boshqa tomondan fitnachi ismoiliylarni ushlab, jazo berishar edi. Alamut qal’asini ismoiliylarning qarorgohiga aylantirgan Hasan ibn Sabboh degan bir eronlik Malikshoh va uning vaziri Nizomulmulkka qarshi suiqasd uyushtirdi va 1092 yilda har ikkisini o‘ldirtirdi. Iznikka yetib kelganlarida Sulaymonning katta o‘g‘li sulton Qilich Arslon I (1092-1107 yy.) nomi bilan taxtga chiqadi. Sulton hukmronligining birinchi yillarida muttasil Vizantiya bosqiniga qarshi kurash olib borishga majbur bo‘lad. 1095 y. Qilich Arslon I jangda g‘olib chiqib Vizantiya bilan sulh tuzadi va g‘arbiy chegarasida tinchlikni o‘rnatib sharqqa yurib o‘g‘uz beyliklarini birlashtirib saljuqiylar davlatini oldingi chegaralarida qayta tiklamoqchi bo‘ladi. Bu vaqtga kelib G‘arbiy Osiyoning harbiy-siyosiy vaziyatini o‘zgartirgan voqealar sodir bo‘ladi. Kichik Osiyoda barcha yerlaridan mahrum bo‘lgan Vizantiya imperatori Aleksey Komnin papa Urban IIdan harbiy madad so‘rab murojaat qiladi. Bundan so‘ng saljuqiylar taxtiga Malikshohning o‘g‘li Sulton Sanjar o‘tirdi. Sulton Sanjar Xurosonda hokimlik qilib, davlat ishlarini yuritishni puxta egalladi. Uning zamonida saljuqiylar sultonligi nihoyatda kengayib, qudratli

[74] Sumer F., Sevim A. İslam kaynaklarına gore Malazgirt savaşı (Metinler ve ceviriler). – Ankara, 1971. – S. 90

davlat holiga keldi. G‘aznaviylar va g‘uriylar yerlarini qo‘shib olishi bilan davlat hududini Hindistonga qadar kengaytirdi. Lekin sharqdan kelgan qoraxitoylarga kuchi yetmadi. Keyinchalik o‘ziga tobe bo‘lgan ko‘chmanchi o‘g‘uzlar isyonini bostira olmadi. O‘g‘uzlar Sanjarni tutqunlikda ushladilar, davlatning eng go‘zal, va boy shaharlarini talontaroj qildilar. Sulton bir necha yildan so‘ng qochib qutildi, ammo ko‘p yashamadi va 1157 yilda vafot edi[75].

Shu bilan saljuqiylar davlati bo‘linib ketdi. Saljuqiylarning Kichik Osiyodagi mulklarida Ko‘niya sultonligi tashkil topdi. Bu davlat Alovuddin Kayqubod (1219—1236) davrida o‘z ravnaqiga erishdi. Ammo ichki nizolar tufayli zaiflashgan sultonlik 1243 yilgi mo‘g‘ullarning bosqiniga qarshilik ko’rsata olmadi va katta o‘lpon evaziga yurishni to‘xtatdi. Mo‘g‘ullar hujumidan keyin obro‘yi tushib ketgan sultonlik oxir-oqibat 1307 yili bir qancha mustaqil beyliklarga bo‘linib ketdi.

Saljuqiy turkiyaning ko‘pchilik aholisi qishloq joylarda yashab ham o‘troq va ham ko‘chmanchilik bilan kun ko‘rishgan. Mamlakatning g‘arbida hamda Janubiy va Janubi-sharqiy Anatoliyada ko‘proq ko‘chmanchi aholi yashagan. O‘troq aholi esa asosan Markaziy Anatoliyada bo‘lgan. Dehqonlar yana chorvachilik (qo‘ychilik), g‘allakorlik hamda bog‘dorchilik va uzumchilik bilan mashg‘ul bo‘lishgan. Qishloq xo‘jaligi aholini oziq-ovqat bilan to‘la ta’minlagan, buning ustiga chorvachilik mahsulotlarini grek va arab davlatlariga eksport ham qilishgan5Ibn Battuta bu davrdagi Konyadagi mevazorlar, bozorlarning to‘kin-sochinligi, arzonchilik haqida yozib turklarning Suriya va Misr bilan savdo olib borishlarini yozgan. [76] Dehqonchilikka mos bo‘lgan barcha yerlar davlatga tegishli bo‘lgan. Shuning uchun ham yerda ishlayotgan o‘troq va ko‘chmanchi aholi davlatdan yerni ijoraga olgan toifaga kirardilir. Turkiyada saljuqiylar hamda usmonlilar davrida dehqonlarni raiya, ya’ni soliq to‘lanadigan, o‘z hukmdoriga itoat qiladigan aholi deb aytishgan. Dehqonlardan olingan soliq davlat xazinasiga yoki davlat xizmatida bo‘lgan amaldor shaxs, harbiy xizmatchilarga maoshlari o‘rnida to‘lanardi. Yer cheklari, ularning hajmi, olinadigan soliq miqdori davlat tomonidan qat’iy belgilanib ro‘yxat(reestr)ga olingan. Iqto uchun ajratilgan yerlardan tashqari saljuqiylar davlatida yana ikki xil yerga egalik shakli bo‘lgan: vaqf yerlari va xususiy yerlar (mulk). Mulk bu yer egasining xususiy mulki sanalib uni sotishi, meros qoldiriishi va hadiya etishi mumkin bo‘lgan.

[75] Муфассал қаранг: Demirkent I. Turkiye Selçuklu hukumdarı Sultan I. Kılıc Arslan. – Ankara, 1996
[76] 6 Ибн Буттута. Саёҳатнома. – Б.412.

Alouddin Kayqubod o‘z sarkardasi Hisomiddin Cho‘ponga ko‘p yillik sadoqatli xizmati uchun shaxsiy mulk qilib Qastamonu shahrini hadiya qilgani ma’lum [77]. Qishloq joylarda qonun va tartibni saqlash ustidan qishloq oqsoqoli – katxuda, ko‘y (ko‘cha, mahalla) kadxudasi (to‘g‘risi kadxudo) nazorat qilardi. Kadxudo qishloqda yoshi ulug‘ va hurmatli kishilardan bo‘lgan. Qishloq yoshlari ham tashkilotga (gençlik ocağı) birlashib u qishloq oqsoqoli tomonidan tayinlangan va unga tobe bo‘lgan yigitboshi tomonidan boshqarilgan. Yoshlar tashkiloti katta kuchga ega bo‘lib, kerak bo‘lgan vaqtda, masalan tartibsizliklarni bosish ishlariga jalb qilingan. Shaharlarda hunarmandchilik rivojlangan bo‘lib, yaxshi tashkil qilingan va hunarmandlar aholining talabini, xorij, Sharq davlatlari va Xitoydan olib kelinadigan zaru zevar mahsulotlaridan tashqari qondirardilar Ba’zi tovarlar saljuqiylar davlatidan eksport qilingan. Ibn Buttuta Oqsaroy shahrida gilamlarni ko‘rib ularning sifatidan hayratlangan. U bu gilamlar Suriya, Iroq, Hindiston va Xitoyga eksport qilinganini yozadi. Saljuqiylar davlatining ilk davrida. Ya’ni Kichik Osiyoga o‘g‘uzlar kelishlaridan oldin hunarmandchilik bilan asosan greklar va armanlar mashg‘ul bo‘lishgan. O‘g‘uzlar ularning qo‘llarida shogird bo‘lgan. Tez orda ular ham barcha hunarlarni o‘zlashtirib oldilar Shahar jamiyatining ijtimoiy tizimida hunarmandlar maxsus o‘rin egallaganlar. Har bir shaharda turli kasb va korning egalari (nonvoylar, to‘quvchilar, etikchi, ko‘nchilar, qassob va h.) va hunar ahli bo‘lib aholining turli narsalarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirardilar.

Foydalangan adabiyotlar

1. Sumer F., Sevim A. İslam kaynaklarına gore Malazgirt savaşı (Metinler ve ceviriler). – Ankara, 1971. – S. 90
2. Муфассал қаранг: Demirkent I. Turkiye Selçuklu hukumdarı Sultan I. Kılıc Arslan. – Ankara, 1996
3. 6 Ибн Буттута. Саёҳатнома. – Б.412.
4. 6 Ибн Буттута. Саёҳатнома. – Б.412.

[77] 6 Ибн Буттута. Саёҳатнома. – Б.412.

TOSHKENT VOHASI SHAHARLARI ANTROPOLOGIYASIGA OID TADQIQOTLAR TAHLILI

Maxamadjonov Sardorbek Sherali o‘g‘li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotasiya: Mazkur maqolada Toshkent vohasi shaharlari aholisining antropologiyasi bilan shug‘ullanib, ilmiy ishlar olib borgan sovet davri va mustaqillik yillaridagi tadqiqotchilar (etnolog-tarixchilar)ning asarlari va ilmiy ishlari tarixshunoslik nuqtai nazaridan chuqur tahlil qilingan. Bundan tashqari, shahar antropologiyasiga oid tushunchalar O‘zbekistonning boshqa hududlarida olib borilgan tadqiqotlar tahlili ham o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: Toshkent vohasi, shahar antropologiyasi, shaharsozlik, tadqiqotlar.

Ma’lum bir xalqning etnogenezi, uning etnik tarixi masalalarini tadqiq etishda ilmiy asoslangan tarixiy, etnografik, arxeologik, antropologik, manbashunoslik bilimlarning qanday yondashuv asosida o‘rganilganligi, rivojlanishi, tahlili va uning nazariy konseptual asoslari muhim rol o‘ynaydi. Toshkent viloyatidagi etnik jarayonlar tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan adabiyotlarni xronologik nuqtai nazardan to‘rt bosqichga ajratib tahlil qilish mumkin:

1. 1950–1991-yillar

2. 1991–1998-yillar

3. 1998–2016-yillar

4. 2016-yildan bugungi kungacha yozilgan adabiyotlarda muammoga oid tadqiqotlar.

XIX asr oxirida rus imperiyasi siyosati doirasida yuborilgan mutaxassislar O‘rta Osiyoni har tomonlama o‘rgandilar. Asosan tabiiy boyliklarni o‘rganish va uni o‘zlashtirish topshirig‘i asosida yozilgan rus adabiyotlarida O‘rta Osiyo xalqlari to‘g‘risidagi asl ma’lumotlar uchraydi. Shunday qilib, o‘rganilayotgan mavzuga doir XIX asr oxiridan boshlab XX asr 90-yillarigacha bo‘lgan davrda yozilgan asarlar turli xil siyosiy-mafkuraviy qarashlar asosida yozilganligi bilan ajralib turadi.

Sovet davridagi shahar etnografiyasi. Sovet davlatida etnourbanistikaning mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida rivojlanishi o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, uning turli bosqichlarda sayqallanganligini ko‘rish mumkin. Uzoq davr mobaynida shahar Sovet etnografiya fanining predmeti sifatida o‘rganilmadi. Shahar qiyofasi tadqiqot ob’yekti sifatida Rossiya geografiya jamiyati a’zolari tomonidan shahar aglomeratsiyasining shakllanishi, tarkibiy tuzilishi, funksional-genetik tasnifi masalasi o‘rganilgan[1].

Shuningdek, shaharlik aholining xo‘jalik madaniyati hamda uning an’anaviy ko‘rinishlari qayd etilgan. Biroq O‘zbekiston shaharlariga oid o‘lkashunoslik tadqiqotlari kam bajarildi. Etnograflar dastlab shaharni etnik xususiyatga ega bo‘lgan tizim sifatida baholab, uni sivilizatsiyalar unsuri, an’anaviy madaniyatga putur yetkazuvchi, ulkan qishloq aholisi massivlaridan ajralgan muhit sifatida tadqiq etishgan. XX asrning 20–30-yillarida Sovet etnograflarining asarlarida shahar aholisining (asosan ishchilar) turmush tarzi va urf-odatlari atrofida tahlil etilgan hamda shahar ijtimoiy-siyosiy hodisasi sifatida o‘rganilgan. 1926-yilda Leningradda shahar etnografiyasiga oid dastlabki ilmiy maqola chop etildi. 1929-yilgi Etnograflarining majlisida qaror qabul qilinib, asosan aholining sanoatgacha bo‘lgan guruhlarini tadqiq etish belgilandi[6]. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar safiga O.Suxarevaning tadqiqotlarini kiritish mumkin. Olim Samarqand shahar aholisining xo‘jalik faoliyatida urug‘chilik jamiyatiga oid belgilarning yo‘qolib ketganligi, shahar aholisi orasida an’analarning faqatgina oilaviy munosabatlar va to‘y rasm-rusmlarida saqlanib qolganligini ta’kidlaydi[2].

XX asrning 50-yillaridan Sovet etnografiyasida shahar mavzusini tadqiq etish yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu markaziy shaharlarga urushdan keyingi yillarda ko‘plab aholining ko‘chib kelishi bilan bog‘liq edi. Shu tufayli bo‘lsa kerak, bu davrdagi mavzuga doir adabiyotlarda yangi kelgan kishilarning maishiy turmushidagi shahar muhiti, dehqonlarning turmush tarzi, turar joy, kiyinish usullarida shaharga xos bo‘lgan xususiyatlar rivojlanayotganligi hamda bu jarayonning aholining an’anaviy mashg‘ulotlariga ta’sir etganligiga alohida e’tibor qaratilgan. Shaharlarni tarixiy-etnografik jihatdan o‘rgangan ayrim asarlar ham yaratilgan. 60–70-yillarga kelib Sovet etnografiyasida shahar etnologiyasi mavzusi alohida ilmiy yo‘nalish bo‘lib shakllandi. Shahar antropologiyasini o‘rganishning yuksalishini Sovet etnografiyasi tadqiqot doirasi kengayishi bilan bog‘lash mumkin. Uning geografiyasi sotsialistik mamlakatlar shaharlarini qamrab olish hisobiga kengaya boshlagan edi[3].

Mustaqillik davridagi Tadqiqotlar. Mustaqillik yillarida shahar mavzusini tadqiq etish turli soha vakillarining diqqat markazida bo‘ldi. Natijada bu muammoni o‘rganishning turli xil talqinlari vujudga keldi. Shu sababli uni o‘rganishda guruhlarga ajratish maqsadga muvofiq deb topildi. Tanishib chiqilgan adabiyotlarni tasniflashda tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan muammoning mazmuni yuzasidan yaqin bo‘lgan adabiyotlar va dissertatsiyalar bir guruhga umumlashtirildi. Shulardan birinchisi, shaharlar tarixiga bag‘ishlangan tadqiqotlar bo‘lib, mazkur masala mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganildi. Jumladan, M.Mambetullayev, A.Kojageldiyev, A.Kudiyarov, G.Agzamova, Yu.Raxmonova, S.Saymanov, A.Xasanov, X.Bo‘riyeva, M.Xatamova, Z.Yesnazarova, U.Mansurovar o‘z ishlarida turli davrga oid shaharlarning tarixi, aholining ijtimoiy tarkibi, shaharlar madaniyatining o‘sha davrga xos bo‘lgan xususiyatlarini ochib berdilar. Shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy holati, tarixiy qiyofasi, aholining ijtimoiy tarkibi, shahar madaniyatida jamiyat a’zolarining ishtiroki kabi masalalar o‘z o‘rnini topgan. Shuningdek, shahar tuzilishining etnik xususiyatlari, shaharlarning yuzaga kelishida tarixiy sharoitlarning roli hamda har bir shaharning tegishli vazifalari haqida to‘xtalilgan. Qolaversa, toponimlarning etimologiyasi tahlili orqali shahar aholisining etnik xususiyatlari yoritilgan[4]. Mazkur guruhga doir tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bir makonda turli ijtimoiy qatlamlarning to‘planganligi, shaharning ma’muriy markaz sifatidagi rolining yuqoriligi hamda uning paydo bo‘lishi va qurilishi oralig‘idagi ma’lum davrda mavjud bo‘lishi kabi xususiyatlar shahar qiyofasini aks ettiruvchi jihatlar hisoblanadi. Shu o‘rinda har qanday zamonaviy shahar antropologiyasini tadqiq etishda va unga ta’sir etuvchi omillarni tahlil etishda shahar tarixiga murojaat qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida shahar antropologiyasini o‘rganishda mazkur muammo bo‘yicha amalga oshirilgan etnologik tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega. Mustaqillikning dastlabki yillarida bu muammoni o‘rganishga qo‘l urgan I.Sadigyan, R.Ubaydulayeva, Z.Arifxonova, G.Zununova, M.Kamartidinova, M.Payziyeva, Z.Rasulova, V.Xanlar o‘z tadqiqotlarida shahar sharoitida farzand tarbiyasi, ijtimoiy hayotdagi etnik xususiyatlar, shahar aholisining marosimiy hayoti hamda nikoh to‘yi bilan bog‘liq urf-odatlar, shahardagi diasporalar muammosini o‘rganishgan[37]. Shahar aholisining etnomadaniyatiga doir Z.Arifxonova, G.Zununova, M.Kamartdinovalar tomonidan yozilgan monografiyada ham tadqiq etilayotgan mavzuga doir ko‘plab qiziqarli

ma’lumotlar keltirilgan. Mualliflar tomonidan tegishli muammo yuzasidan ko‘plab dala etnografik ma’lumotlar keltirilgan. Jumladan, etnomadaniy jarayonlarda an’anaviy jamiyatlarning faolligi, mahalla, qo‘shnichilik institutlarining kishilar hayotidagi o‘rni, shahar aholisiga xos etnomadaniy belgilarning moddiy madaniyatda aks etishi, shahar aholisi xo‘jalik hayotida an’anaviy hunarmandchilik roli, shaharlik o‘zbek oilalarining ma’naviy hayoti Toshkent shahri misolida tahlil etilgan.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Забелин И.Г. Домашний быт русских царей. Т.1. – Москва, 1862; Домашний быт русских царей. Т.2. – Москва, 1869.

2. Богородицкий П. Льготные первой городской церкви в городе Ташкенте. – Верный, 1908.

3. Кулукова З. Психотичный город как объект историко-этнологического исследования. Дисс. док. нет. – Москва, 2001.

4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.

TOSHKENT – ILK O‘RTA ASRLARDA

Mingnorov Sherbek Chorshanbi o‘g‘li
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti 1- bosqich talabasi

A**notatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi poytaxti bo‘lgan Toshkent shahrining boy va serqirra tarixi yoritiladi. Maqolada Toshkent shahrining ilk o‘rta asrlardagi tarixi, qadimiy Ipak yo‘li bo‘ylab joylashgan manzilgoh sifatidagi dastlabki davrlaridan boshlab, Somoniylar davridagi tarixi batafsil yoritiladi.

Kalit so`zlar: Toshkent, Ipak yo‘li, Markaziy Osiyo, me’morchiligi, Toshkent madaniyati, O‘zbekistondagi tarixiy shaharlar, Toshkent rivojlanishi, Mo‘g‘ullar imperiyasi, Rossiya imperiyasi va Markaziy Osiyo.

Milodning I asriga kelib Chirchiq, Salor, Qorasuv bo‘ylaridagi vohaning qariyib yarmidan ko‘prog‘i o‘zlashtirilib obod etilgan. Salor yonida joylashgan Choch shahri bu davrda har tomonlama yetakchi mavqega ega bo‘lib, uni muarrixlar haqli ravishda milodning boshlaridagi Toshkentning asosi deb hisoblaydilar. Buyuk ipak yo‘lida joylashgan Toshkent Yevropa mamlakatlarining Hindiston va Xitoy bilan olib borgan turli aloqalarida

muhim rol o‘ynagan. Bu shahar VI-VIII asrlarda, ayniqsa, ravnaq topgan. Shaharning Turk xoqonligi tarkibiga kirishi, uning Qoramozor tog‘laridagi konlar yaqinida joylashganligi, hunarmandchilik mahsulotlariga doimo muhtoj dasht ko‘chmanchilarining yondoshligi, shuningdek, asosiy karvon yo‘llari, xususan, Buyuk ipak yo‘li vohaning shimoliy hududlaridan o‘tishi uni tezda Choch davlatining poytaxti bo‘lib qolishiga imkon berdi. Shahar atrofi kuchli mudofaa devorlari bilan o‘rab olinib, maxsus saroyqal’a qurilgan. Arxeologik qazishmalar vaqtida topilgan ishlab chiqarish qurollari va uyro‘zg‘or buyumlari bu yerda yuksak madaniyat bo‘lganidan dalolat beradi.

Manbalarga ko‘ra, shahar, ichida saroy, ibodatxona bo‘lgan ark, amaldorlarning uylari joylashgan shahriston, hunarmandlar mahallalari o‘rnashgan ichki va tashqi rabodlardan iborat bo‘lgan.Shahar atrofida ozod jamoalarning keng ekinzorlari, qishloqlari, ilk zamindorlik dehqonlarining qo‘rg‘on va bog‘-rog‘lari, istehkomlari paydo bo‘lgan. Ekinzor yerlar va bog‘lar chekkasida — ko‘chmanchilar dashtiga tutash chegaralarda mudofaa istehkomlari qurilgan. Arab manbalarida bu shahar Chochning poytaxti — „Madinat ash Shosh“ (Shosh shahri) deb atalgan.Choch poytaxti hunarmandlari metalldan mehnat qurollari, yarog‘-aslahalar, zeb-ziynat va ro‘zg‘or buyumlari yasashgan, ko‘nchilik bilan shug‘ullanishgan, paxta va junshisha idishlar, zargarlik buyumlari yasab, ichki va tashqi savdoni ta’minlashgan.Shahar qizg‘in savdo markazi ham bo‘lgan.

G‘arbda Vizantiyadan tortib, sharqsa Xitoygacha bo‘lgan davlatlarning Toshkent hududidan topilgan tangalari shundan dalolat beradi. Choch hokimi ham o‘z tangalarini zarb qildirgan. IV—VII asrlarda Chochda kumush tangalar chiqaradigan zarbxona bo‘lgan.Qadimgi Choch hukmdorlari old tomoniga mulkdorning surati, orqa tomoniga hujumga tayyorlanib turgan qoplon tasviri yoki sulolaviy ayri tamg‘a tushirilgan pullarni zarb etgan. Chochning huddi shu davrda zarb etilgan ba’zi tangalari orasida hukmdor bilan yonma-yon turgan malika tasviri tushirilgan pullar ham uchraydi. Bu shubhasiz, Chochning ilk o‘rta asr ijtimoiy va iqtisodiy, ayniqsa, siyosiy hayotida hukmron tabaqa ayollarining yuqori nufuzga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Ular „Sho‘rxon xotun“ va „Kabachxotun“ (uy malikasi) kabi sharafli nomlar bilan ulug‘lanib, shahar tashqarisida joylashgan so‘lim qarorgohda istiqomat qilganlar. Bunday oyimlar yashagan joy „Achabat“ (Katta ona qo‘nog‘i) deb yuritilgan. Savdosotiq va hunarmandchilik bilan birga madaniyat ham yuksalgan.

Manbalarga koʻra, tasviriy san’at va, ayniqsa, musiqa rivoj topgan.Arab qoʻshinlari Chochga ilk bor 713-yilda bostirib kelishgan. Tabariyning yozishicha, Chochni zabt etish uchun arablar 20 ming kishilik qoʻshin tortgan. Shahar aholisi arablarga qarshi qattiq qarshilik koʻrsatgan. Pekin, arablar koʻp oʻtmay Chochni bosib olganlar va talon-toroj qilib katga oʻlja bilan qaytganlar. Arab istilochilari tomonidan vayron etilgan shahar oʻzini oʻnglay olmadi. Faqat 9-asrga kelib, avvalgi oʻrnidan 4– 5 km shimoli-gʻarbroqda, Boʻzsuv kanalidan chiqarilgan Kaykovus (Kolkohdiz) arigʻi yonida yangitdan vujudga kedli va yana Chochning poytaxtiga aylanib, jadal taraqqiy eta boshladi. Bu yangi shahar arab manbalarida Binkat (uzoqdan koʻrinib turuvchi yoki quyi shahar) deb tilga olinadi. Bu nom IX— X asrlarda zarb etilgan kumush va chaqa tangalarda Shosh va Madinat ash Shosh nomlari bilan bir qatorda uchraydi. Bu shaharda ham hunarmandchilik va savdo-sotiq tez rivoj topdi. Arablar dashtlik chorvador kabilalar hujumidan hosildor yerlarni muhofaza qilish maqsadida VIII asrning 70-yillarida Chirchiq vohasining shimoli-gʻarbiy chegaralari boʻylab Soyliq qishlogʻi yonidagi togʻlardan to Sirdaryogacha devor qurdirganlar. Uning xarobalari Kampir devor nomida saqlanib qolgan.

IX—X asrlarda Shosh Somoniylarga tobe boʻlgan. Yozma manbalar va arxeologik tadqiqotlardan ma’lum boʻlishicha, Binkat shahrining keyingi asrlardagi oʻrni Shosh Toshkentning toʻrt dahasida, asosan, uchtasi — Sebzor, Koʻkcha, Beshyogʻoch hududida joylashgan boʻlib, u alohida qalin devorlar bilan oʻrab olingan 4 qism: ark (oʻrda), shahriston (shaharning asosiy qismi) hamda ichki (rabodi doxil) va tashqi (rabodi xorij) rabodlardan iborat boʻlgan va bir necha qator mudofaa devori bilan oʻralgan. Shu davrdagi ark (maydoni 3 ga) va shahriston (maydoni 15 gektarcha) shahar markazida hozirgi Shayxontohur tumani hududidagi Eski joʻva bozori va undan sharqdagi katta tepalikda joylashgan. Qal’ada hukmdor saroyi va zindon boʻlgan. Saroyning bir darvoza (qopqa)sidan shahristonga, boshqasidan shaharning ichki rabodiga chiqilgan. Shahar markazida bozor boʻlgan, u „Joʻba“ deb yuritilgan. Markaz bilan shahar darvozalari koʻchalar orqali bogʻlangan. Bir va ikki qavatli paxsa yoki sinchkori devorli hovlili qilib turar joylar qurilgan. Ichki va tashqi rabod devorlari oraligʻi 4 km boʻlgan. Shaharda kulolchilik, oʻqyoy, gazlama, gilam, chodir hamda charm mahsulotlari ishlab chiqarish. rivojlangan.

X asr oxiri - XII asr oʻrtalarida Choch Qoraxoniylar davlati tarkibiga kirdi. 1214—15 yillarda Muhammad Xorazmshoh qoraxitoylar qoʻshini hamda naymanlar xoni Kuchluq bilan jang qilib, Shosh viloyatini ulardan tortib odli va viloyat dushmanlar qoʻliga oʻtmasligi uchun Shosh markazi

aholisini ko‘chirtirib yubordi. Shu bois mo‘g‘ullar 1220-yilda shaharni qarshiliksiz qo‘lga kiritgan bo‘lishi mumkin. Juvayniyning mo‘g‘ullar bosqini haqidagi xabarida Toshkent shahri tilga olinmagan. XIII—XIV-asrning 1-yarmida Toshkent viloyati Chig‘atoy ulusi tarkibida bo‘ldi.

Xulosa Toshkent — O‘zbekiston Respublikasining siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ilmiy markazi bo‘lib, mamlakat poytaxti sifatida alohida ahamiyatga ega. Bu shahar uzoq tarixiy ildizlarga ega bo‘lishi bilan birga, zamonaviy arxitekturasi, rivojlangan infratuzilmasi, oliy o‘quv yurtlari va madaniy muassasalari bilan ham ajralib turadi. Toshkent O‘zbekistonning yuragi sifatida nafaqat ichki taraqqiyotga, balki xalqaro aloqalarning kengayishiga ham xizmat qilmoqda. Shu bois, Toshkent nafaqat respublikaning bosh shahri, balki Markaziy Osiyodagi muhim siyosiy va madaniy markazlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Toshkent [ensiklopediya], T., 1992;

2.O‘rinboyev A., Bo‘riyev O., Toshkent Muhammad Solih tavsifida, T., 1983;

3.Beysembiyev T. K., „Ta’rixi Shahruxi“ kak istoricheskiy istochnik, AlmaAta, 1987;

4.Sodiqova N. S.,’Buryakov Yu. F., Qadimgi va hozirgi Toshkent, T., 1965;

5.Muhammadjonov A. R., Qadimgi Toshkent, 2002;

O‘ZBEKISTON - GRETSIYA O‘RTASIDAGI SIYOSIY VA MADANIY HAMKORLIKNING TAHLILI (1991-2024)

Muxammadsoliyev Nurmuxammad Dilmurod o‘g‘li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston va Gretsiya o‘rtasidagi siyosiy munosabatlarning qanday darajada ekanligi, shuningdek bu ikki davlat o‘rtasida imzolangan shartnoma va bitimlar, ta’lim sohasidagi kelishuvlar haqida ma’lumotlar va fikr mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Konfessiya, parlament, ta’lim tizimi, geoastrofizika muzeyi, meteorologiya, maqsad, investitsiya, Aleksandr Makedonskiy, Kiriakos Mitsotakis, YUNESKO;

O‘zbekistonda barcha millatlarga o‘z milliy madaniyati, an’ana va urf-odatlarini saqlash hamda har tomonlama rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Mamlakatimizda 16 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar erkin faoliyat yuritmoqda. Davlat ta’lim muassaslarida o‘qitish 7 tilda olib borilmoqda. O‘zbekiston teleradiokompaniyasi o‘z ko‘rsatuvlarini 12 tilda namoyish etmoqda, o‘ndan ortiq tilda gazeta va jurnallar nashr etilmoqda.Mamlakatimizda etnik o‘ziga xoslikni rivojlantirish va millatlararo munosabatlarni yanada uyg‘unlashtirishda 137 ta milliy madaniy markaz yetakchi rol o‘ynamoqda. Ular o‘zlarining o‘ziga xos madaniyati, tili, xalq hunarmandchiligini rivojlantirib, turli madaniyatlarning bir-birini o‘zao boyitishga, har birimizda ko‘p millatli yagona oila tuyg‘usini mustahkamlashga salmoqli hissa qo‘shmoqda[1, 185]. Gretsiya parlament respublikasi, davlat boshlig‘i – Prezident, parlamentda ochiq ovoz berish yo‘li bilan 5 yil muddatga saylanadi. Bir marta qayta saylanishi mumkin. Qonun chiqaruvchi hokimiyat Prezident 10 kundan ortiq chet elda bo‘lganda, vafot etganda, iste’foga chiqqanda yoki ishga layoqatsiz bo‘lib qolganda uning vazifasini bajarib turadigan Deputatlar palatasi (bir palatali parlament) va Prezidentning o‘zi hisoblanadi. Parlament umumiy to‘g‘ri va yashirin ovoz berish asosida 4-yil muddatga saylanadi. Ijro hokimiyati – Prezident va Bosh vazir rahbarligidagi hukumat. Prezident Bosh vazirni va uning tavsiyasiga ko‘ra, hukumatning boshqa a’zolarini tayinlaydi. Bosh vazir lavozimiga parlamentda ko‘pchilik o‘ringa ega bo‘lgan partiya rahbari tayinlanadi. Gretsiyada ta’lim tizimi 4 bosqichga bo‘linadi: 6-yillik umumiy, 3-yillik o‘rta va 3-yillik o‘rta maxsus, shuningdek oliy ta’lim. Umumiy va o‘rta ta’lim majburiy. Afina, Saloniki universitetlari, Afina politexnika instituti va boshqa ko‘plab oliy o‘quv yurtlari, ilmiy muassasalar mavjud. 1842-yil tashkil etilgan Afina milliy observatoriyasida geoastrofizika muzeyi ochilgan. Sayyohlar bu yerda teleskop orqali osmon jismlarini kuzatishi mumkin. Neoklassik uslubda qurilgan, markazida mis gumbazli tosh rasadxona binosi me’moriy yodgorlik maqomiga ega. Majmua uchta – meteorologiya, astronomiya va seysmologiya bo‘limlariga ega. Shuningdek, milliy rasadxonada UNESCO homiyligida tabiiy ofatlar o‘rganiladi. Markaziy bino yaqinida 2014-yil rekonstruksiya qilingan kuchli Doridis teleskopi joylashgan. Gretsiya poytaxti Afinada bir nechta qadimiy muzey bor. 1874-yil tashkil etilgan Milliy arxeologiya muzeyi, Akropol (1878), Milliy tarix muzeyi (1882), San’at asarlari milliy galereyasi (1900), Vizantiya muzeyi (1914) sayyohlarning sevimli maskani sanaladi. Gretsiyada 1881-yildan nashr etiladigan “Akropol” kundalik gazetasi,

“Qat’iyat” (1918), “Kun yangiliklari” (1919), “Minbar” (1922), “Iqtisodiy xabarchi” (1926), “Tong” (1952), “Afina yangiliklari” (1952), “Oqshom yangiliklari” (1952) kabi qator davriy matbuot nashrlari grek va ingliz tillarida chop etiladi. Shuningdek, ko‘plab elektron minbarlar ham mavjud. Eshittirishlar 1938-yildan, ko‘rsatuvlar 1966-yildan efirga uzatib kelinadi. ANA Gretsiyaning eng yirik milliy axborot agentligidir. Ushbu tashkilot hozir Afina-Makedoniya axborot agentligi (ANA-MPA) tarkibiga kiradi. 1895-yil xususiy kompaniya shaklida tashkil etilgan va ayni payt “Reyter”, DPA, TASS, AFP kabi global axborot agentliklari bilan hamkorlik qiladi. 250 ga yaqin ANA xodimidan 180 nafari jurnalist. Agentlikning Bryussel, Istanbul, Nikosiya va Berlinda filiali, Vashington, Nyu-York, Melburn, Monreal, London, Parij, Skope, Vena, Rim, Belgrad kab shaharlarda muxbiri bor[2]. O‘zbekiston Respublikasi Gretsiya Respublikasi bilan 1992-yil 16-mart kuni diplomatiya munosabatini o‘rnatgan. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi delegatsiyasining 2008-yil 17-dekabrdagi tashrifi davomida O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi hamda Gretsiya Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi o‘rtasida erishilgan ahdlashuvlarning o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi: Unga ko‘ra 4 ta maqsad olingan.

- Siyosiy diplomatik munosabatlar va parlamentlararo aloqalarni faollashtirish;
- Ikki tomonlama munosabatlarning shartnomaviy-huquqiy bazasini rivojlantirish;
- Turizm va ta’lim sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish;
- Savdo-iqtisodiy hamkorlikni faollashtirish;

Xususan shu maqsadlar orasida Turizm va ta’lim sohasidagi hamkorlikka erishish juda muhim o‘rin tutadi[3]. Bundan tashqari 4.2 bandda keltirishicha: “Oziq-ovqat, yengil va ko‘nchilik sanoatiga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga, vino va vino mahsulotlari ishlab chiqarishga, shuningdek axborot texnologiyalarini, turizmni rivojlantirishga hamda qurilish materiallari ishlab chiqarishga to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etish sohasida Gretsiya kompaniyalari bilan hamkorlikni rivojlantirish”. Ko‘rinib turibdiki sanoat va ishlab chiqarish sohasida ham turli xil kelishuvlar erishilgan.

2022-yil 9-sentabr kuni Tashqi ishlar vazirligida Gretsiya milliy-madaniy markazi raisi Konstantinos Politis bilan O‘zbekiston—Gretsiya munosabatlari va istiqbollariga bag‘ishlangan uchrashuv o‘tkazildi, deb xabar bermoqda Dunyo axborot agentligi. Qayd etilishicha, uchrashuv doirasida

Konstantinos Politisga O‘zbekiston prezidentining minnatdorlik maktubi topshirilgan. O‘z o‘rnida, Konstantinos Politis davlat rahbari tomonidan ko‘rsatilgan e’tibordan mamnunligini bildirgan. Shuningdek, uchrashuvda ikki tomonlama munosabatlarning madaniy va ta’lim sohalaridagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha fikr almashilgan. Xususan, Konstantinos Politis Gretsiya milliy-madaniy markazi faoliyati to‘g‘risida to‘xtalib, yaqin istiqboldagi reja va tadbirlar yuzasidan ma’lumot bergan[4]. Suhbat yakunida joriy yil O‘zbekiston–Gretsiya diplomatik munosabatlariga 30 yil to‘lishi munosabati bilan 6 noyabr kuni madaniy-ma’rifiy tadbir o‘tkazish bo‘yicha kelishuvga erishilgan. 2024-yil noyabr oyida Boku shahrida bo‘lib o‘tgan BMTning iqlim o‘zgarishi bo‘yicha COP29 sammiti doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Gretsiya Bosh vaziri Kiriakos Mitsotakis bilan uchrashuv o‘tkazdi. Suhbatda ikki tomonlama hamkorlikni mustahkamlash va amaliy aloqalarni rivojlantirish masalalari, ayniqsa, siyosiy hamda savdo-iqtisodiy sohalardagi munosabatlar muhokama qilindi. Tovar ayirboshlash hajmini ko‘paytirish choralarini ishlab chiqish, farmatsevtika, elektrotexnika, qishloq xo‘jaligi hamda boshqa sohalarda kooperatsiya loyihalarini shakllantirish muhimligi ta’kidlandi[5]. Shuningdek, madaniy-gumanitar va sayyohlik yo‘nalishlaridagi almashinuvlarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi. Kelgusi yilda siyosiy maslahatlashuvlarning navbatdagi davrasini Afinada hamda Iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha hukumatlararo komissiya yig‘ilishini Toshkentda o‘tkazishga kelishib olindi. Shuningdek, xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashildi. O‘zbekiston Respublikasi va Gretsiya Respublikasi o‘rtasidagi siyosiy va madaniy aloqalar so‘nggi yillarda barqaror va izchil rivojlanib borayotgan ikki tomonlama hamkorlik namunasi hisoblanadi. Tarixiy ildizlarga ega bo‘lmagan bu munosabatlar bugungi global integratsiya sharoitida yangi mazmun va sifat kasb etmoqda. Ayniqsa, O‘zbekistonning ochiq tashqi siyosat yuritishi, Markaziy Osiyo mintaqasidagi strategik ahamiyati va Gretsiyaning Yevropa Ittifoqidagi muhim o‘rni ushbu ikki davlatning o‘zaro manfaatlarini uyg‘unlashtirishga zamin yaratmoqda. Siyosiy sohadagi hamkorlik mustahkam diplomatik munosabatlarga asoslangan. 1992-yilda ikki davlat o‘rtasida diplomatik aloqalar o‘rnatilgani bugungi o‘zaro ishonch, do‘stlik va hamkorlik uchun asos bo‘ldi. Gretsiyaning Toshkentdagi faxriy konsulligi va O‘zbekistonning Afina shahridagi elchixonasi orqali rasmiy muloqotlar amalga oshirilmoqda. Har ikki mamlakat BMT, YXHT, YUNESKO kabi xalqaro tashkilotlar doirasida o‘zaro pozitsiyalarni

muvofiqlashtirishga harakat qilmoqda. Bu esa xalqaro maydonda bir-birining suvereniteti, hududiy yaxlitligi va milliy manfaatlarini hurmat qilishga asoslangan teng huquqli hamkorlik prinsiplarini mustahkamlaydi. Gretsiya O‘zbekistonning BMT, Yevropa Ittifoqi va boshqa xalqaro platformalarda ilgari surayotgan tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlaydi. Xususan, Afg‘oniston muammosiga tinch yechim topish, Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanish va mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash borasidagi pozitsiyalar o‘xshashdir. Bundan tashqari, Yevropa Ittifoqi doirasidagi hamkorlik Gretsiyaning vositachilik imkoniyatlari orqali kuchaymoqda. Madaniy sohada esa ikki xalq o‘rtasida yaqinlik va o‘zaro hurmat hissi tobora kuchayib bormoqda. Madaniyat xalqlarni yaqinlashtiruvchi eng muhim omillardan biri sifatida O‘zbekiston va Gretsiya o‘rtasidagi munosabatlarda alohida o‘rin egallaydi. Hozirgi kunga kelib, O‘zbekistonda qadimiy yunon madaniyati va falsafasiga qiziqish ortib bormoqda. Ayniqsa, Aleksandr Makedonskiy davriga oid tarixiy bog‘liqliklar madaniy izlanishlar va ilmiy tadqiqotlarga asos bo‘lmoqda. Shu bilan birga, Gretsiyada o‘zbek madaniyati, jumladan, musiqasi, raqslari, milliy liboslari va pazandachilik san’ati haqida qiziqish ortmoqda.

Xulosa qiladigan bo‘lsak O‘zbekiston va Gretsiya o‘rtasidagi siyosiy va madaniy hamkorlik so‘nggi yillarda ijobiy yo‘nalishda rivojlanmoqda. Siyosiy aloqalar diplomatik do‘stlik, o‘zaro hurmat va xalqaro tashkilotlar doirasidagi qo‘llab-quvvatlashga asoslanadi. Madaniy sohada esa ikki xalq o‘rtasidagi tarixiy merosga bo‘lgan qiziqish, san’at, ta’lim va turizm yo‘nalishlaridagi almashinuvlar o‘zaro anglashuvni chuqurlashtirmoqda. Gretsiyaning qadimiy sivilizatsiyasi va O‘zbekistonning boy madaniy merosi doirasida ilmiy-tadqiqot ishlari, madaniy tadbirlar va turizm imkoniyatlari kengaymoqda. Har ikki mamlakat universitetlari va ilmiy markazlari o‘rtasida aloqalar mustahkamlanmoqda. Turizm va iqtisodiy hamkorlikda ham istiqbolli loyihalar mavjud. Hamkorlikni yanada chuqurlashtirish uchun transport aloqalarini yaxshilash, huquqiy bazani kengaytirish va madaniy diplomatiyani faollashtirish zarur. O‘zbekiston va Gretsiya o‘rtasidagi do‘stlik Yevropa va Osiyo o‘rtasidagi madaniy ko‘prik bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bu esa uzoq muddatli barqaror hamkorlikning mustahkam poydevoridir.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

5. Rashidov O., O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag‘rikenglik: o‘quv qo‘llanma / — Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2022. B, 185-187.

6. https://uza.uz/oz/posts/16-mart-gretsiya-respublikasi-bilan-diplomatiya-munosabati-ornatilgan-kun_580139

7. O‘zbekiston Respublikasining Gretsiya Respublikasi bilan yaqin istiqboldagi hamkorlikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida qarori. Kuchga kirish sanasi: 28.01.2009. Hujjat kuchini yo‘qotgan 22.02.2021 https://lex.uz/docs/-1432662

8. https://daryo.uz/2022/09/12/gretsiya-milliy-madaniy-markazi-raisiga-shavkat-mirziyoyevning-minnatdorlik-maktubi-topshirildi

9. https://gov.uz/oz/raqobat/news/view/27352

CHINGIZXON YASOLARINING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI O‘RNI

Muminova Laylo Uzoq qizi
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti talabasi
laylomuminova772@gmail.com
Ilmiy rahbar: Toshev Solijon

Annotatsiya: Ushbu maqolada Chingizxon tomonidan yaratilgan va "Yoso" deb nomlangan qonunlar to‘plamining davlatchilikni mustahkamlashdagi roli tahlil qilinadi. Yaso qonunlari orqali tartib-intizom, ijtimoiy barqarorlik va harbiy intizomni ta'minlashga erishilgan. Bu qonunlar o‘rta asr sharq davlatlari tarixida birinchi markazlashgan qonunchilik tizimlaridan biri sifatida qaraladi. Maqolada yasolarning tuzilishi, asosiy mazmuni va ularning Chingizxon imperiyasidagi davlat boshqaruvi va ijtimoiy munosabatlarga ta'siri yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Chingizxon, Yoso, davlat boshqaruvi, qonunchilik, imperiya, tartib-intizom, markazlashuv.

Chingizxon dunyo tarixida buyuk sarkarda va davlat arbobi sifatida tanilgan shaxsdir. Uning asos solgan Buyuk Mo‘g‘ul imperiyasi XIII asrda Osiyodan Yevropagacha bo‘lgan keng hududlarni o‘z ichiga olgan.[78] Bunday yirik imperiyani boshqarish uchun qat’iy, barqaror va adolatli tizim zarur edi. Shu ehtiyojdan kelib chiqqan holda Chingizxon tomonidan yaratilgan

[78] Grousset, R. The Empire of the Steppes: A History of Central Asia. – Rutgers University Press, 1970. – 553 p.

qonunlar majmuasi – Yoso (yoki Yasalar) davlat boshqaruvining asosiy vositasiga aylandi.[79] Ushbu qonunlar imperiya ichida tartibni ta’minlash, fuqarolar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, harbiy intizomni mustahkamlash va turli millat hamda din vakillarini yagona boshqaruv ostida birlashtirishda muhim rol o‘ynadi.

Yasolar rasmiy yozma hujjat sifatida saqlanmagan bo‘lsa-da, ular asosan og‘zaki ravishda uzatilgan va muhim qismlari tarixchilar tomonidan qayd etilgan. Bu qonunlar Chingizxonning siyosiy qarashlarini, qadriyatlarini va boshqaruvdagi asosiy tamoyillarini o‘zida mujassam etgan. Mazkur maqolada ushbu qonunlarning tarkibi, asosiy mazmuni va ularning davlat boshqaruvi hamda jamiyat hayotidagi o‘rni tahlil qilinadi.

Chingizxon yasolari to‘plami juda keng ko‘lamli bo‘lib, unda hayotning turli sohalarini qamrab oluvchi qoidalar mavjud edi. Ularga ko‘ra, har bir fuqaro davlat oldidagi burchini bajarishi, sodiq bo‘lishi, harbiy xizmatga tayyor turishi lozim edi. Harbiylar uchun intizomiy qonunlar juda qat’iy bo‘lib, har qanday itoatsizlik og‘ir jazo bilan jazolangan. Bu esa armiyaning mustahkamligi va boshqaruvning samaradorligini oshirgan.

Yasolar orqali fuqarolarning shaxsiy mulkiga tajovuz qilish taqiqlangan, savdo-sotiq ishlari tartibga solingan, soliqlar tizimi aniqlashtirilgan. Ayniqsa, soliq yig‘ish bo‘yicha belgilangan qonun-qoidalar markaziy boshqaruvning moliyaviy barqarorligiga xizmat qilgan. Shuningdek, o‘zaro janjal, qotillik, o‘g‘rilik, tuhmat kabi jinoyatlarga qat’iy chora ko‘rilgan. Yaso qonunlari tenglik prinsipiga asoslangan bo‘lib, eng yuqori martabali amaldor ham qonun oldida javobgar edi.

Bu qonunlarda diniy bag‘rikenglikka alohida e’tibor qaratilgan. Chingizxon turli din vakillariga erkin ibodat qilish imkonini yaratgan. U xristian, musulmon, buddist va shamanist din vakillarining bir davlatda tinch yashashini ta’minlash uchun ularga nisbatan adolatli yondashgan. Bu esa imperiyada ichki barqarorlikni mustahkamlashda muhim omil bo‘lgan.

Yasolar tarkibida diplomatik munosabatlar, elchilik, xabarchilar xavfsizligi kabi masalalar ham aks etgan. Unga ko‘ra, elchilarga zarar yetkazgan har qanday shaxs yoki davlatga qarshi qat’iy choralar ko‘rilgan. Bu

[79] Qayumov, A. Chingizxon va uning davlati. – Toshkent: Fan, 1999. – 240 b.

esa imperiyaning tashqi siyosatini himoya qilish va diplomatik aloqalarni rivojlantirish imkonini bergan.[80]

Chingizxon tomonidan ishlab chiqilgan yasolar o‘z davrining mukammal huquqiy tizimlaridan biri bo‘lgan. Ular orqali davlat boshqaruvida markazlashgan nazorat, qat’iy intizom, fuqarolik burchining aniq belgilanishi va huquqiy tenglik kabi asosiy tamoyillar shakllantirilgan. Yasolar imperiyaning harbiy kuchini mustahkamlash bilan birga, ijtimoiy hayotni tartibga solish, turli xalqlarni yagona qonun asosida boshqarish imkonini yaratgan. Chingizxon yasolari keyingi davrlardagi ko‘plab sharqiy va musulmon davlatlar qonunchilik tizimiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Xususan, Temuriylar va Usmoniylar imperiyalarida bu qonunlarning ayrim jihatlari davom ettirilgan. Bugungi kunda ham Chingizxon qonunlarining tarixiy ahamiyati, ulardagi boshqaruv tamoyillarining dolzarbligi o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Shunday qilib, Yaso qonunlari Chingizxon imperiyasining siyosiy qudratini ta’minlovchi asosiy vosita bo‘lib xizmat qilgan. Ularning qat’iyligi va adolatliligi orqali yirik va murakkab davlat tuzilmasi muvaffaqiyatli boshqarilgan. Mazkur qonunlar nafaqat tarixiy hujjat sifatida, balki zamonaviy boshqaruv tamoyillarining ildizlarini anglashda muhim manba hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Alimova, D. A., Abdurashidov, A. O‘rta asrlar Sharq davlatchiligi tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2007. – 312 b.

2. Ataniyazov, S. Tarixiy-huquqiy tafakkur taraqqiyoti. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2005. – 220 b.

3. Barthold, V. V. Sochineniya. – Moskva: Nauka, 1963. – T. 2, ch. 1. – 350 b.

4. Bregel, Y. An Historical Atlas of Central Asia. – Leiden: Brill, 2003. – 182 p.

5. Gibb, H. A. R. The Arab Conquests in Central Asia. – New York: AMS Press, 2000. – 198 p.

6. Grousset, R. The Empire of the Steppes: A History of Central Asia. – Rutgers University Press, 1970. – 553 p.

[80] Alimova, D. A., Abdurashidov, A. O‘rta asrlar Sharq davlatchiligi tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2007. – 312 b.

7. Morgan, D. The Mongols. – Oxford: Blackwell Publishers, 2007. – 296 p.

8. Qayumov, A. Chingizxon va uning davlati. – Toshkent: Fan, 1999. – 240 b.

9. Qosimov, B. Mo‘g‘ullar davlati va ularning boshqaruv tizimi. – Samarqand: Registon, 2010. – 184 b.

10. Rashid al-Din. Jome at-Tavorix (Tarixlar majmuasi). – Tehron: Markazi Nashr, 1988. – 2-jild.

XIII – XVII ASRLARDA USMONIYLAR IMPERIYASI

Mustafoyev Mardon Panji o‘g‘li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada O‘zbekiston tarixining zamonaviy bosqichida dolzarb bo‘lib turgan masalalar tahlil qilinadi. Jumladan, tarixiy xotirani tiklash, mustaqillik davrining siyosiy-huquqiy o‘zgarishlari, milliy o‘zlikni anglash, arxiv va manbashunoslikdagi muammolar, shuningdek, tarixiy obyektlarni asrash va targ‘ib qilish masalalari yoritiladi. Maqola tarixshunoslikda mavjud ilmiy qarashlar va rasmiy siyosat asosida tayyorlangan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston tarixi, dolzarb masalalar, tarixiy xotira, mustaqillik, milliy o‘zlik, arxiv siyosati.

Usmoniylar davlati Shuningdek, Usmonli imperiyasi, — Kichik Osiyo, Sharqiy Yevropa, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika, qisman Kavkaz va Qrimda Usmoniylar sulolasi boshqargan davlat (1299-1922). Usmoniylar imperiyasiga Usmon I asos solgan.Bu davlat dastlab Kichik Osiyoning Shimoliyg‘arbiy qismi Eski shahar va Anatoliya hududida saljuqiylarning Ko‘niya sultonligiga tobe kichik bir beklik shaklida tashkil topgan.

Bu beklikning ilk hukmdori Erto‘g‘rul bo‘lsa ham, uning o‘g‘li — Usmonbey davrida beklik mustaqil davlatga aylanganligi uchun uning nomi bilan Usmonli bekligi deb atalgan. Keyinchalik bu davlat Usmoniylar imperiyasi nomini olib, o‘rta asrlarda jahonning eng qudratli davlatlaridan biriga aylandi. Usmon I va uning o‘g‘li Urxon bek (bey) unvonini qabul qilgan bo‘lsa, Urxonning o‘g‘li Murod I davridan boshlab hukmdorlar sulton deb

atalgan.Usmon G‘oziy davridayoq qo‘shni Vizantiya imperiyasiga qarshi bir qancha harbiy yurishlar qilinib, Qoracha Hisor va Yor Hisor qal’alari, Bursaning atroflari egallangan.Uning o‘g‘li Urxon G‘oziy Vizantiyaning Bursa, Nikeya, Nikomediya shaharlarini istilo qilib, XIV asrning o‘rtalaridayoq Qora dengiz va Marmar dengizi sohillariga chiqqan. Bu davrda Usmonli turklar (ular o‘g‘uz turklarining qay urug‘iga mansub bo‘lgan) Dardanell bo‘g‘ozidan o‘tib, Yevropa hududiga kirishgan. 1356-yilda Bolqonni zabt etish tugallanib, Yevropa hududida yangi Rum eli (Rumeliya) viloyati ta’sis etilgan.

Aynan shu paytdan Usmoniylar davlatini saltanatga aylanish jarayoni boshlangan. 1360-yil yanicharlar (turkcha: yangi cherik) — maxsus piyoda qo‘shin tashkil qilingan.Davlatning dastlabki poytaxti Melangiya, 1326—1362-yillarda Bursa bo‘lgan. Sulton Murod I, 1362-yilda poytaxtni Bursadan Edirna (Adrianopol)ga ko‘chirgan. Uning hukmronlik davrida Yevropada yangi hududlar zabt etilgan. Kosovo maydonida bo‘lgan jang (1389)da serblar maglubiyatga uchragach, Serbiya Usmoniylar imperiyasiga qo‘shib olindi. Sulton Boyazid I Yildirim Bolgariyaning poytaxti Tirnovo (1393)ni egallab, Nikopol ostonalarida salibchi ritsarlarning birlashgan 60.000 kishilik qo‘shinini maglubiyatga uchratdi (1396) va Vizantiyaning poytaxti Konstantinopolni qamal qilishga kirishdi. U Bolgariya, Valaxiya, Makedoniya, Fessaliyani o‘z davlati tarkibiga kiritdi. Biroq, 1402-yilda bo‘lgan Anqara jangi Amir Temur qo‘shinidan Usmoniylar imperiyasi ning maglubiyatga uchrashi Vizantiya imperiyasini mukarrar halokatdan saqlab qoldi. Sulton Mahmud I va Murod II hukmronliklari davrida qo‘ldan ketgan hududlar qaytarib olingan. Adolatli va insofli hukmdor sifatida nom chiqargan Murod II G‘oziy 1422-yil Konstantinopolga hujum qiladi. Varna yaqini 1444-yil 10-noyabr va Kosovo maydoni 1448-yil 17— 19-dekabrda chex-mojarlar qo‘shinini mag‘lubiyatga uchratib, 1448—50-yillarda Albaniya ustiga 2 marta yurish qilgan.

Murod II ning o‘g‘li Mahmud II Fotih turk qo‘shinlariga shaxsan o‘zi qo‘mondonlik qilib, jahongirlik siyosatini olib borgan. U Sharqiy Rim imperiyasi — Vizantiyaning poytaxti Konstantinopolni 53 kunlik qamaldan so‘ng egallab 1453-yil 29-may, Vizantiya imperiyasini tugatgan. Konstantinopol turkcha Istanbul nomi bilan atalib, poytaxt bu yerga kuchirilgan. Bu g‘alabadan sung Mahmud II Fotih Bolqon va Markaziy Yevropa mamlakatlarini zabt etishga kirishgan. Serbiya (1459), Moraviya

(1460), Bosniya (1463), Valaxiya (1476), Albaniya (1479) Trapezund — Trabzon (1461) egallangan. Qrim xonligi tobe davlatga aylantirilgan (1475). Oq qo‘yunli davlati hukmdori Uzun Hasanga qarshi harbiy harakatlar kuchaytirilgan.

Yevropaning Italiya, Olmoniya, Avstriya kabi davlatlari hududlarini egallash rejasi tuzilib, amaliy harakatga o‘tilgan. Bu davrda harbiy va ma’muriy boshqaruv sohasida katta islohotlar o‘tkazilib, ulkan saltanatni mustahkamlash choralari ko‘rilgan. Ayniqsa, adabiyot, san’at va me’morchilik gullab-yashnagan.

Sulton Boyazid II, Salim I va Sulaymon I hukmronlik qilgan davrlarda saltanat haddan tashqari kuchaygan. Xususan, Salim I Yovuz Eron safaviylari shohi Ismoil I qo‘shinini yanchib tashlaydi (1514-yil 23-avgust). Iroq, Shom (Suriya), Falastin, Misrni egallab, Qohiraga kiradi (1517). Bu paytda Misrdan tashqari Shimoliy Afrikaning Jazoir hududi, shuningdek, Bolqon, Arabiston, Janubiy-Sharqiy Anadolu ham Usmoniylar imperiyasi tarkibiga kirgan. Halabda bo‘lgan juma namozi (1516-yil 28-avgust)da sulton Salim I ga „ikki muqaddas shahar xizmatchisi“ faxriy unvoni berilib, xalifa sifatida uning nomi xutbaga qo‘shib o‘qilgan (Usmoniylar sultonlar shu kundan e’tiboran to 1924-yilgacha ayni paytda islom olamining xalifasi ham hisoblangan). Sulton Sulaymon I ham jahongirlik siyosatini davom ettirgan. Mojariston bosib olingach, turklar Venani 1 marta qamal qilishgan (1529). Polsha va Ukrainaga qo‘shin jo‘natilib, Egey dengizidagi Rodos va boshqalar orollar ishg‘ol qilingan. Sulaymon I Qonuniy „Muqaddas Rim imperiyasi“ga qarshi kurashish uchun Fransiya qiroli Fransisk I bilan birinchi fransuz-turk siyosiy shartnomasi va savdo bitimini imzolagan (1535). 1556-yilga kelib Usmoniylar imperiyasiga Kichik Osiyo hududi, G‘arbiy Gurjiston, G‘arbiy Armaniston, Livan, Suriya, Iroq (Bag‘dod bilan birga), Falastin, Hijoz, Yaman,Misr, Tripoli, Jazoir, Yunoniston, Bulg‘oriston, Mojaristo n, Serbiya, Bosniya, Valaxiya, Transilvaniya, Moldaviya, Qrim kirgan. Bu paytda u jahondagi eng qudratli saltanatlardan biri hisoblangan. Saltanatning ulkan hududi 3 qit’a: Janubiy Sharqiy Yevropa, G'arbiy Osiyo va Shimoliy Afrikaning katta kismini egallagan bo‘lib, uning maydoni 5.2 mln. km² ga yetgan. XVI asrda turklarning kuchli dengiz floti Sharqiy O‘rtayer dengizi havzasini nazorat qilib turgan.

Sulton Murod III hukmronligi davrida Kipr oroli bo‘ysundirilgan. Bu paytda Gibraltar bo‘gozidan Fors qo‘ltig‘igacha, Dunaydan Nil sohillarigacha bo‘lgan hudud sultonlikka qaragan.

Biroq XVII asr oxiridan boshlab sultonlikning harbiy, siyosiy va iqtisodiy qudrati astasekin zaiflasha boshlagan. Yevropa mamlakatlari o‘zaro ittifoq tuzib, Usmoniylar imperiyasiga qarshi kurashga chog‘langanlar. Vena atrofida bo‘lgan 2 jangda turk qo‘shini Avstriya, Olmoniya, Polshaning birlashgan armiyasidan yengilgan (1683-yil). Muntazam davom etib turgan Rossiya - Turkiya urushlari (1676-1681, 1684-1699, 1710-1711, 1768-1774, 1787-1791, 1807-1812, 1828-1829, 1853-1856, 1877-1878, 1914-1916 va boshqalar) oqibatida Usmoniylar imperiyasi asta-sekin zaiflashib borgan. Hatto bu paytda vahhobiylarning ta’siri kuchayib, ular inglizlarning yordamida Fors qo‘ltig‘idagi El-Xasa (1792), Karbalo (1801), Makka va Madina (1803—1806)ni
egallab, turklarga qarshi qirg‘in uyushtirgan.

Salim III va Mahmud II hukmronliklari davrida saltanatni parchalanib ketishdan saqlab qolish uchun islohotlar o‘tkazilgan. Sulton Abdulmajid yana islohotlar (Tanzimat) o‘tkazish (1839) orqali, bir tomondan, sultonlik inqirozini to‘xtatishga, ikkinchi tomondan, yangi turk ziyolilarini (ular o‘zlarini yangi usmonlilar deyishgan) shakllantirishga muvaffaq bo‘ldi. Bu paytda bo‘lgan Qrim urushida Turkiya o‘zining eski raqibi Rossiya imperiyasi ustidan g‘olib chiqdi hamda Qora dengiz va Dunay daryosidagi mavqeini qayta tikladi. Tanzimat va 1876-yilda qabul qilingan dastlabki konstitutsiya sulton Abdulhamid II tomonidan bekor qilingach (1878), mamlakatda istibdod davri boshlangan. Bu davrda sultonlik Yevropa davlatlariga iqtisodiy jihatdan qaram bo‘la boshlagan. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida "Ittihod va taraqqiy" partiyasi a’zolari mamlakatda konstitutsion monarxiya o‘rnatish uchun qat’iy harakat qilishgan (Turkiya).

1922-yil 1-noyabrda Turkiya Buyuk Millat Majlisi sultonlikni tugatish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Mustafo Kamol (Otaturk) bosqinchilarga qarshi ko‘tarilgan milliy ozodlik harakatiga rahbarlik qilib, sultonlikning asosan turklar yashaydigan hududi — Kichik Osiyo va qisman Yevropada 1923-yil 29-oktyabrda Turkiya jumhuriyatiga asos soldi. Davlat boshqaruvi va ijtimoiy tuzilma Davlat boshqaruvi:Sulton hokimiyatining mutlaq bo‘lishi, devon (maslahat kengashi)ning roli.Viloyatlar, bekliklar, boshqaruvchilar (beylerbeyi) va tuman boshliqlari.“Devshirme” tizimi orqali

harbiy va ma’muriy kadrlarning tayyorlanishi.Janissarilar (Yangi armiya): imperiyaning asosiy harbiy kuchi.

Tashqi siyosat va diplomatiyaYevropa davlatlari bilan harbiy to‘qnashuvlar (Avstriya, Vengriya, Venetsiya).Eron Safaviylari bilan diniy-siyosiy raqobat.Fransiya, Angliya, Gollandiya bilan savdo va diplomatik munosabatlar.

Xulosa: XIII-XVII asrlar orasida Usmoniylar imperiyasi Sharqiy Yevropa va Yaqin Sharqdagi eng qudratli davlatga aylandi. Kuchli harbiy salohiyat, markazlashgan boshqaruv, boy madaniyat va dinlararo bag‘rikenglik bu imperiyaning uzoq umr ko‘rishiga sabab bo‘ldi. Ayniqsa, Sulton Sulaymon Qonuniy davri eng yuksak davr hisoblanadi. Biroq keyingi asrlarda ichki muammolar va tashqi bosimlar imperiyaning asta-sekin zaiflashishiga olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro‘yxati:

1. Suraeya Faroqiy. Usmoniylar imperiyasi va uning atrofidagi dunyo. I.B. Tauris nashriyoti, 2004-yil.

2. Stenford J. Sho va Ezel Kural Sho. Usmoniylar imperiyasi va zamonaviy Turkiya tarixi. 1-jild: G‘oziylar imperiyasi: Usmoniylar imperiyasining yuksalishi va tanazzuli 1280–1808. Kembrij universiteti nashriyoti, 1976-yil.

3. Halil Inaljik. Usmoniylar imperiyasi: Klassik davr 1300–1600. Feniks nashriyoti, 2000-yil.

4. Kerolin Finkel. Usmonning orzusi: Usmoniylar imperiyasi tarixi. Basic Books nashriyoti, 2005-yil.

5. Kolin Imber. Usmoniylar imperiyasi, 1300–1650: Hokimiyat tuzilmasi. Palgrave Macmillan nashriyoti, 2002-yil.

TOSHKENT VOHASINING QADIMGI VA O'RTA ASRLARDAGI TARAQQIYOTI

Muxamedov Shaxzod Shuxrat o'g'li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada Toshkent vohasining qadimgi va o'rta asrlardagi tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, siyosiy holati va madaniy merosi haqida fikr yuritiladi. Arxeologik va yozma manbalar asosida vohaning turli bosqichlardagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Toshkent vohasi, qadimgi davr, o'rta asrlar, Shosh, Ipak yo'li, madaniyat, siyosiy holat.

Toshkent vohasi O'rta Osiyoning eng qadimiy va muhim hududlaridan biri hisoblanadi. Uning qulay geografik joylashuvi, iqlimi va suv manbalarining ko'pligi uni qadimdan turli sivilizatsiyalar va davlatlar uchun muhim markazga aylantirgan. Bu voha orqali qadimiy karvon yo'llari, jumladan, Buyuk Ipak yo'li o'tgan. Shu bois, Toshkent vohasi nafaqat iqtisodiy balki madaniy va siyosiy taraqqiyotda ham muhim rol o'ynagan. Ushbu maqolada Toshkent vohasining qadimgi davrlardan boshlab o'rta asrlargacha bo'lgan rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Toshkent vohasi qadimdan Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi taraqqiyotida muhim rol o'ynagan. Uning tabiiy sharoitlari, strategik joylashuvi va madaniy aloqalarga ochiqligi bu yerda turli xalqlarning madaniyati, savdosi va siyosiy tuzumlarining shakllanishiga zamin yaratgan[1.87]. Toshkent vohasi O'rta Osiyoning eng qadimiy tarixiy-madaniy mintaqalaridan biri sanaladi. Bu hudud Sharq va G'arbni bog'lovchi Buyuk Ipak yo'li chorrahasida joylashgan bo'lib, qadimdan savdo-sotiq, hunarmandchilik va madaniy aloqalarning markazi bo'lgan. Toshkent vohasi — O'rta Osiyo sivilizatsiyasining markaziy hududlaridan biri bo'lib, qadim zamonlardan boshlab o'zining tabiiy resurslari, geografik joylashuvi va madaniy boyliklari bilan ajralib turgan. Bu voha qadimdan savdo yo'llarining chorrahasida joylashgan bo'lib, ko'plab xalqlar va imperiyalar e'tiborini tortgan.

Qadimgi davrlarda Toshkent vohasida hayot miloddan avvalgi IV–III mingyilliklarda boshlangan. Bu davrga oid arxeologik topilmalar – Bo'zsuv, Qovunchi, Shoshtepa, Yunusobod kabi joylardagi manzilgohlar orqali aniqlangan. Aholi asosan dehqonchilik, chorvachilik va ovchilik bilan shug'ullangan. Bu yerda ilk madaniyat shakllari, jumladan, sopol idishlar yasash, to'qimachilik kabi sohalar rivojlangan. Miloddan avvalgi IV asrda

Aleksandr Makedonskiy yurishlari mintaqaga yunon-makedon ta’sirini olib kirgan. Keyinchalik Kushonlar davrida Toshkent vohasi transkontinental savdo yo‘llarining muhim nuqtasiga aylangan. Bu davrda mahalliy aholining yashash tarzi, diniy e’tiqodlari va hunarmandchiligi yanada rivojlandi.

Miloddan avvalgi I mingyillikda Toshkent vohasida Sak va So‘g‘d kabi xalqlar yashagan. Bu davrda Shosh (Toshkent) atroflarida ilk shaharlar paydo bo‘lgan. Shaharlar mustahkam devorlar bilan o‘ralgan, sug‘orish tizimi rivojlangan, aholining savdo-sotiqdagi ishtiroki kuchaygan. Miloddan avvalgi IV–III mingyilliklarda Toshkent vohasida odamlar yashay boshlagani arxeologik qazishmalar orqali tasdiqlangan. Bo‘zsuv, Qovunchi, Shoshtepa kabi manzilgohlar qadimiy dehqonchilik va hunarmandchilik madaniyatining guvohi hisoblanadi[2.56]. Bu davrda aholining asosiy mashg‘uloti dehqonchilik va chorvachilik bo‘lgan. Arxeologik tadqiqotlarga ko‘ra, vohada insoniyat faoliyati miloddan avvalgi IV–III ming yilliklarga taqaladi. Qovunchi, Shoshtepa va Chilonzor kabi qadimiy manzillar bu yerda dehqonchilik va hunarmandchilik ancha ilgari rivojlanganini ko‘rsatadi. Miloddan avvalgi VI asrda Toshkent vohasi Ahamoniylar imperiyasi tarkibiga kirgan. Bu davrda voha Sug‘d viloyatining shimoliy hududi sifatida tanilgan.

VII–VIII asrlarda arablar Movarounnahr hududlarini bosib olib, islom dinini yoyganlar. Bu jarayonda Shosh shahri ham muhim o‘rin egallagan. Arab tarixchilari bu shaharni "Binkat" deb atagan. Bu davrda islomiy ilmlar, madaniyat va hunarmandchilik taraqqiy etgan. Toshkentda ko‘plab masjidlar, madrasa, bozorlar va karvonsaroylar barpo etilgan. IX–XII asrlarda Toshkent vohasi Somoniylar, Qoraxoniylar va boshqa mahalliy sulolalar tarkibiga kirgan. Bu davr vohaning iqtisodiy, madaniy va ilmiy taraqqiyoti uchun muhim bo‘lgan. Ayniqsa, sug‘orish tizimi rivojlanib, qishloq xo‘jaligi kengaygan. Ayni paytda, voha orqali o‘tuvchi savdo yo‘llari orqali boshqa yurtlar bilan aloqalar mustahkamlangan. VII–VIII asrlarda arab istilosi natijasida islom dini Toshkent vohasiga kirib keldi. Shosh shahri “Binkat” nomi bilan tanilgan va bu yerda ilk masjid va madrasalar paydo bo‘lgan. O‘sha davrda Imom Kaffol Shoshiy kabi olimlar yashab ijod qilganlar[3.76]. Bu davrda sug‘orish inshootlari, savdo tarmoqlari rivojlanib, voha iqtisodiy jihatdan ravnaq topgan. Aleksandr Makedonskiyning yurishlari (mil.avv. IV asr) Toshkent vohasida yunon-makedon ta’sirining paydo bo‘lishiga olib keladi. Keyinchalik hudud Yunon-Baqtriya va undan so‘ng Kushonlar imperiyasi tarkibiga kiradi. Ayniqsa Kushonlar davrida (mil. I–III asrlar) vohada savdo, hunarmandchilik va shaharsozlik rivojlanadi. Ipak yo‘lining

asosiy tarmoqlari aynan Toshkent vohasi orqali o‘tganligi sababli, bu yerda ko‘plab madaniyatlar tutashgan.

O‘rta asrlarda Toshkent Markaziy Osiyoning muhim shaharlardan biri sifatida rivojlandi. Bu davrda shahar "Shosh" yoki "Binkat" nomlari bilan tanilgan bo‘lib, qadimiy karvon yo‘llari chorrahasida joylashgani sababli savdo va hunarmandchilik markaziga aylangan. IX–XII asrlarda Toshkent islom madaniyatining taraqqiy etgan markazlaridan biri bo‘lib, bu yerda masjidlar, madrasalar, hamamlar va bozorlardan iborat shaharlik madaniyat shakllandi. Arxeologik topilmalar bu davrda shahar atrofida qalin devorlar va himoya minoralari bo‘lganligini ko‘rsatadi. XIII asrda mo‘g‘ullar istilosi natijasida shahar katta talafot ko‘rdi, biroq keyinchalik Temuriylar davrida yana tiklanib, madaniy va iqtisodiy markaz sifatida o‘z mavqeini tikladi. Bu davrda Toshkentda ilm-fan va adabiyot rivojlanib, ko‘plab olim va shoirlar yetishib chiqdi. XIII asr boshlarida Mo‘g‘ullar bosqinchilik yurishlari bilan butun Markaziy Osiyoni larzaga soldi. 1219–1220-yillarda Chingizxon boshchiligidagi mo‘g‘ul qo‘shinlari Movarounnahrga bostirib kirib, ko‘plab shaharlarga katta vayronagarchiliklar keltirdi.[2.189] Shu jumladan, Toshkent shahri ham bu istilodan jiddiy zarar ko‘rdi. Toshkent aholisi bosqinchilarga qarshi qarshilik ko‘rsatgan bo‘lsa-da, mo‘g‘ullar kuchli harbiy salohiyatga ega bo‘lgani sababli shahar tezda egallandi. Bu istilo natijasida shahar vayron qilinib, aholisining katta qismi o‘ldirildi yoki asirga olindi. Toshkentning iqtisodiy va madaniy hayoti izdan chiqdi, savdo yo‘llari to‘xtab qoldi, ko‘plab madaniy obidalar vayron bo‘ldi. Mo‘g‘ul istilosidan so‘ng shahar uzoq vaqt davomida inqiroz holatida bo‘ldi. Faqatgina keyingi asrlarda, xususan Temuriylar davrida Toshkent asta-sekin tiklana boshladi va yana muhim shaharlardan biriga aylandi. Temuriylar davrida (XIV–XV asrlar) Toshkent yana o‘zining iqtisodiy, madaniy va siyosiy ahamiyatini tiklab bordi. Amir Temur Movarounnahrda markazlashgan davlat barpo qilgach, Toshkent ham bu davlat tarkibiga kirib, muhim strategik va savdo markazlaridan biriga aylandi. Garchi Temur ko‘proq Samarqandni asosiy siyosiy markazga aylantirgan bo‘lsa-da, Toshkent unga bo‘ysunuvchi muhim shahar sifatida rivojlandi. Temuriylar hukmronligi davrida Toshkentda hunarmandchilik, qurilish va ilm-fan taraqqiy etdi. Shahar atrofidagi qishloqlarda sug‘orish tizimlari tiklanib, dehqonchilik rivojlandi. Toshkent orqali o‘tuvchi karvon yo‘llari xavfsiz bo‘lib, xalqaro savdo aloqalari kuchaydi. Xususan, Temurning nabirasi Mirzo Ulug‘bek davrida ilm-fan, madaniyat va ta’lim sohalarida katta yutuqlar kuzatildi. Ulug‘bek Toshkentga alohida e’tibor bilan qarab, bu yerda

ham madrasalar va ilmi markazlar faoliyat yuritgan. Temuriylar davridagi barqarorlik tufayli Toshkent yana jonlangan, aholi soni ortib, shaharning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti jonlangan edi. XVI asr boshlarida Movarounnahrda Shayboniylar sulolasi hukmronligi o‘rnatildi.[5.134] 1503-yilda Muhammad Shayboniyxon Toshkentni bosib oldi va bu shahar Shayboniylar davlatining muhim shaharlaridan biriga aylandi. Shayboniylar davrida Toshkent siyosiy va harbiy nuqtai nazardan katta ahamiyatga ega bo‘lib, ular bu yerda o‘z hokimlarini tayin qilib, markaziy boshqaruvni mustahkamlashga harakat qildilar. Shayboniylar hukmronligi ostida Toshkentda diniy va ma’rifiy hayot rivojlandi. Shahar hududida yangi masjidlar, madrasalar, hammomlar va bozorlari qurildi. Hunarmandchilik, savdo-sotiq va dehqonchilik sohalari taraqqiy etdi. Toshkent orqali o‘tuvchi karvon yo‘llari orqali shahar boshqa mintaqalar bilan faol savdo qilgan. Shu bilan birga, Shayboniylar davrida Toshkentda ba’zi mahalliy amirlar mustaqillik istagida bo‘lib, ba’zida markaziy hokimiyatga qarshi isyonlar bo‘lgan. Bu ichki qarama-qarshiliklar shaharning siyosiy hayotiga ham ta’sir ko‘rsatgan. Umuman olganda, Shayboniylar davrida Toshkent Markaziy Osiyoning yirik shahri sifatida o‘z mavqeini saqlab qolgan va kelajakdagi siyosiy-iqtisodiy taraqqiyotga asos bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S. P. Tolstov, Drevnie kultury Srednej Azii. Moskva, 1948.
2. A. K. Bernshtam, Istoriya uzbekskogo gosudarstva. Tashkent, 1976.
3. V. V. Bartold, Istoriya Srednej Azii. Moskva, 1963.
4. M. K. Yusupov, Toshkent va uning atrofidagi qadimgi yodgorliklar. Tashkent, 1982.
5. A. S. Ruzaeva, Arabskaya ekspansiya v Srednej Azii. Moskva, 2000.

CHO‘LPON SHE'RIYATIDA ADABIY-ESTETIK QARASHLAR

Muxtorova Asaloy
Yo‘ldasheva Yulduz
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola, Cho‘lpon she’riyat asarlaridagi adabiy-estetik nuqtai nazarlarni o‘rganish, uning o‘ziga xos uslubini shakllantirgan turli ta’sirlarni, tamoyillarni hamda hikoya qilish uslublarini, timsollardan foydalanishini va yozgan ijtimoiy-siyosiy kontekstlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so’zlar. Emotsional teranligi, ekzistensial, syujet, madaniy-tarixiy omillari.

Choʻlpon she’riyat oʻzbek adabiyotining adabiy-estetik ifoda sohasiga qoʻshgan ulkan hissasi bilan mashhur. Uning asarlari oʻzining boy mavzulari, murakkab hikoya usullari va chuqur ramziyligi bilan kitobxonlarni maftun etadi. Adabiyot olamida yozuvchi ijodining adabiy-estetik jihatlarini tahlil qilish, uning oʻziga xos uslubi va badiiy hissasini tushunishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu bizga ularning yozilishining murakkab qatlamlarini chuqur o'rganishga, yashirin ma'nolarni, mavzularni va uslublarni ochishga imkon beradi. Atoqli adabiyot arbobi Choʻlpon she’riyat, shubhasiz, oʻzbek adabiyotida oʻziga xos iz qoldirgan. Uning asarlaridagi adabiy-estetik nuqtai nazarni oʻrganish orqali uning adabiy manzaraga olib kelgan chuqur yorqinligi va badiiy mahoratini qadrlashimiz mumkin. Choʻlpon she’riyat adabiyoti sevgi, tabiat, vatanparvarlik, ijtimoiy muammolar kabi turli mavzularni oʻz ichiga oladi. U koʻpincha inson tuygʻularining murakkabliklarini, shaxs erkinligi uchun kurashni, an’anaviy va zamonaviy qadriyatlar oʻrtasidagi toʻqnashuvni oʻrganadi.

XX asr boshidagi atoqli oʻzbek yozuvchisi Choʻlpon she’riyat oʻzining jozibali va oʻylantiruvchi kompozitsiyalari bilan adabiyotga salmoqli hissa qoʻshgan. Uning asarlari boy obrazliligi, emotsional teranligi, ekzistensial mavzularni tadqiq etishi bilan ajralib turardi. She’riyat she’riyatidan tortib roman va ocherklarigacha oʻz davrining ruhini oʻzida mujassam etgan, ayni paytda jamiyat me’yorlariga qarshi chiqqan. Uning adabiy xizmatlarini oʻrganar ekanmiz, uning oʻzbek adabiyotiga qoʻshgan oʻziga xos dunyoqarashi va ovozi haqida qimmatli tushunchaga ega boʻlamiz. Rassomning asarini chinakam tushunish uchun uning shaxsiy hayoti va kelib chiqishi bilan tanishishimiz kerak. 1894-yilda tugʻilgan Choʻlpon she’riyatnig bolaligi Oʻzbekistonda oʻzgardi. Uning adabiy uslubini shakllantirishda uning oilaviy munosabatlaridan tortib, ta'lim olishigacha bo'lgan dastlabki hayotiy tajribalari hal qiluvchi rol o'ynadi. Ushbu shakllanish yillarini koʻzdan kechirar ekanmiz, She’riyatnig oʻziga xos dunyoqarashi va ovozining kelib chiqishi haqida tushunchaga ega boʻlishimiz mumkin. Choʻlpon she’riyat ijodida timsol muhim oʻrin tutadi. U timsollardan mohirona foydalanib, chuqurroq ma’nolarni ifodalaydi va his-tuygʻularni uygʻotadi. Uning asarlarida tabiat unsurlaridan tortib kundalik buyumlargacha boʻlgan ramzlar umuminsoniy gʻoyalar, madaniy meros va shaxsiy tajribalarni ifodalaydi.

“Vayronalar orasidan” nomli maqolasida jamiyatda farzandlarning ta‟lim olishga imkoniyati yo„qligidan, balki vaqti ham yo„qligidan kuyingan Cho„lpon bu jumlalarni keltiradi: “Bitta maktab ham bor dedilar, lekin uning o„zidan ko„ra ko„proq “oti” bor, shekillik...Ko„klamdan tortib to kuzgacha maktab ta`til ekan, dehqonlar bolalarini faqat qishdagina o„qita olurlar ekan”. Fikrni maktab xususida davom ettirar ekanmiz, mana bu haqiqatga yo„g„rilgan satrlarga e‟tibor qaratmay iloj yo„q: “Lekin birgina maktab bor. Binosi juda yaxshi, burun rus yerlik maktabi bo„lgan. U ham biz borganda remont qilinmagan edi. Remont uchun baladiyada pul yo„q, muallimlarning ta‟minoti uchun maorif shu‟basida pul yo„q, maorif shu‟basiga berish uchun Maorif komissarligida pul yo„q. Shunday qilib, birgina maktabning ham taqdiri qaltirab turadir. Xalq ta‟minotiga o„tkazganlar, xalqdan pul yig„ish esa qiyin...” [1; 44]

Cho‘lpon she’riyatnig badiiy sayohatida, shubhasiz, o‘zidan oldingi adabiyot gigantlari ta’sir ko‘rsatgan. Rus mumtoz romanchilarining asarlari bo‘ladimi yoki O‘zbekistonning buyuk shoirlari ijodi bo‘ladimi, she’riyat adabiyot olamida ilhom topdi. Qolaversa, adabiyotning yetuk namoyandalaridan olgan yo‘l-yo‘riq va maslahatlar uning yozish uslubi va uslubiga o‘chmas ta’sir ko‘rsatdi. Ana shu ta’sir va ustozlarni o‘rganish orqali she’riyatnig badiiy tadrijining ildizlarini izlashimiz mumkin. Adabiy uslub ko'pincha yozuvchi o'zini topadigan madaniy va tarixiy kontekstga qarab shakllanadi. Cho‘lpon she’riyat ijodi ham bundan mustasno emas edi. 20-asr boshlarida O‘zbekistonning madaniy-tarixiy omillari, jumladan, mamlakatning mustaqillik uchun kurashi, yangi mafkuralarning paydo bo‘lishi she’riyat adabiy uslubiga ta’sir ko‘rsatganligi shubhasiz. Ushbu kontekst omillarini tadqiq etish orqali she’riyatnig o‘ziga xos ovozi va adabiy uslubini shakllantirgan ijtimoiy ta’sirlarni chuqurroq anglashimiz mumkin.

Cho‘lpon she’riyat adabiyotida estetika, badiiy go‘zallikka intilish asosiy o‘rin tutadi. Uning asarlari yorqin ta’riflar, ta’sirchan obrazlar, tafsilotlarga katta e’tibor bilan ajralib turadi. She’riyat qalamiga mansub estetik mavzu va tamoyillarni o‘rganar ekanmiz, biz uning o‘quvchilarni o‘ziga rom etuvchi, ularni o‘z xayoliy olamiga olib boradigan go‘zallik va hissiyot olamini yaratish qobiliyatini qadrlashimiz mumkin. Tabiat va landshaft Cho‘lpon she’riyat ijodida muhim o‘rin tutib, uning ijodidagi hissiy ta’sirni kuchaytiruvchi hayotiy estetik element bo‘lib xizmat qiladi. She’riyatnig tabiatdan foydalanishi qishloqlarni yam-yashil tasvirlashdan tortib, tabiatdagi timsollarga qadar adabiyotiga chuqurlik va mazmun bag‘ishlaydi. Uning

asarlaridagi tabiat va landshaftning rolini o‘rganish orqali tabiat olami bilan she’riyat badiiy ifodasi o‘rtasidagi chuqur bog‘liqlikni ochib bera olamiz. Cho‘lpon she’riyat adabiyotiga romantizm va idealizm kirib kelgan bo‘lib, uning ishq, ehtiros va insoniy tuyg‘ularni o‘rganishini kuchaytiradi. Uning asarlarida ko'pincha yaxshiroq dunyoga intilish, orzularga intilish va insoniy aloqaning kuchi tasvirlangan. Uning adabiyotidagi romantizm va idealizm mavzularini chuqur o‘rganish orqali she’riyatnig insoniy holatni chuqur anglashi, o‘quvchilarida kuchli his-tuyg‘ularni uyg‘ota olish qobiliyatiga ega bo‘lamiz.

Cho‘lpon she’riyatnig adabiy uslub va hikoya qilish usullarini o‘rganar ekanmiz, biz uning hikoyachiligi ortidagi murakkab hunarmandchilikni ochib beramiz. She’riyatnig turli rivoyat tuzilmalaridan foydalanishidan tortib, ta’sirchan lar to‘qishigacha bo‘lgan uslublari o‘quvchilarni o‘ziga jalb qiladi va ularni o‘z hikoyalariga singdirib turadi. Uning hikoya tuzilishi va hikoya qilish texnikasini tahlil qilib, biz uning adabiyotini shu qadar jozibali qiladigan mohir badiiylikni qadrlashimiz mumkin. Simvolizm va metafora Cho‘lpon she’riyat adabiy arsenalidagi kuchli vositadir. Uning asarlari yashirin ma'nolar va qatlamli ramziy ma'nolarga to'la bo'lib, o'quvchilarga sirtdan chiqib ketish va chuqurroq haqiqatlarni ochish imkonini beradi. She’riyat asarlaridagi timsol va metaforalarni ochib berish orqali uning qalamiga mansub qalamkashlik boyligi va murakkabligini ochish, uning adabiy dahosining teranligiga yanada chuqurroq baho berishimiz mumkin. Cho‘lpon she’riyatnig til va notiqlik mahorati uning yozgan ijodiga ta’sir etishida muhim rol o‘ynadi. Uning nazokatli nasr va she’riy she’rlar yaratish qobiliyati adabiy asarlariga teranlik va go‘zallik kiritdi. She’riyatnig til va ritorikadan foydalanishiga chuqurroq kirib borar ekanmiz, uning so‘z tanlashidan tortib, til vositalarini o‘zlashtirishigacha bo‘lgan yozuv uslubidagi nozik jihatlarni o‘rganib, o‘ziga xos adabiy ovoziga qanday erishganini tushunishimiz mumkin.

Cho‘lpon she’riyat adabiyotida timsollar uning hikoyalariga teranlik va mazmun bag‘ishlovchi sirli tilga o‘xshaydi. Ehtiyotkorlik bilan qurilgan ramzlar orqali u murakkab his-tuyg'ularni va g'oyalarni o'quvchilar bilan rezonanslashadigan tarzda etkazishga qodir. Bu qushdek takrorlanib turuvchi motifmi yoki ma’lum bir mavzuni ifodalovchi o‘ziga xos rangmi, she’riyatnig timsollardan foydalanishi o‘quvchilarni uning asarlari qatlamlariga chuqurroq kirib borishga chorlaydi. Cho‘lpon she’riyat asarini o‘qiyotganingizda, o‘zga dunyoga ko‘chib o‘tishga tayyor bo‘ling. Uning jonli vizual va hissiy tasvirlari uning hikoyalarining har bir tafsilotini ko'rish, hidlash va his qilish qudratiga

ega. She’riyat qalamiga mansub shaharning gavjum ko‘chalaridan tortib, yangi pishirilgan nonning hidigacha his-tuyg‘ularimizga ta’sir qiladi va kechinmalarning boy gobelenini yaratadi. Bu sizning qulay kitobxon joyingizni tark etmasdan ruhiy ta'tilga o'xshaydi. Cho‘lpon she’riyat asarlaridagi timsollar haqida har bir o‘quvchi o‘ziga xos talqin va tushunchaga ega bo‘lsa-da, uning adabiyotida takrorlanib turadigan asosiy timsollar ham bor. Misol uchun, qushning tasviri ko'pincha erkinlik va umidni ifodalaydi, ko'k rang esa melanxolik yoki boshqa narsaga intilish ramzi bo'lishi mumkin. Ushbu belgilar o'quvchilarga uning hikoyalarida chuqurroq ma'nolarni o'rganish va asosiy mavzular bilan bog'lanish uchun asos yaratadi. Cho‘lpon she’riyat adabiyotini u yozgan ijtimoiy-siyosiy kontekstni tushunmay turib, to‘liq baholab bo‘lmaydi. Uning asarlari ko‘pincha o‘z davrining tarixiy voqealari va ijtimoiy muammolarini aks ettiradi, o‘zi yashagan jamiyat haqida tanqid va mulohazalarni taqdim etadi. An’ana va zamonaviylik o‘rtasidagi ziddiyatlarni o‘rganishdan tortib, chekka guruhlar kurashini yoritishgacha bo‘lgan she’riyat asarlari jamiyatning ko‘zgusi bo‘lib xizmat qiladi. o'quvchilarni atrofdagi dunyo haqida fikr yuritishga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, Cho‘lpon she’riyat asarlaridagi adabiy-estetik nuqtai nazarlar inson tuyg‘ulari, ijtimoiy muammolar, til go‘zalligini chuqur o‘rganish imkonini beradi. Uning adabiyoti vaqtdan ustun turadi va o'zining abadiy mavzulari va badiiy yorqinligi bilan o'quvchilarni ilhomlantirishda davom etmoqda. Uning hayoti, ta’sirlari va hikoya qilish usullarini o‘rganish orqali biz uning adabiy dahosini chuqurroq tushunamiz. Cho‘lpon she’riyatnig o‘zbek adabiyotiga qo‘shgan hissasi o‘chmas iz qoldiradi, asarlari badiiy ifoda kuchidan dalolat beradi. Uning yozganlarini qadrlash va tahlil qilishda davom etar ekanmiz, Cho‘lpon she’riyatnig mohir hikoyatchi sifatidagi merosi a. nd estetik vizyoner mustahkam buzilmasdan qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Cho‘lpon. Asarlar. 4 jildlik. –T.: Akademnashr, 2016. –B. 200.

2. Cho‘lpon – yana oldim sozimni. –T.:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1991.

3. Cho‘lpon. Vayronalar orasida. –T.: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‟at nashriyoti, 1991.

4. Sultonov U. Cho„lponning adabiy-estetik qarashlari. –T.: NDA, 1995.

5. O‘roqova O. Cho‘lpon badiiy ijodining konseptual-estetik asoslari. –T.: 2018. - 37 b.

6. Xushanov A. 2022. CHO‘LPON SHE’RIYATIDA SHARQ MAVZUSI. *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*. 1, 18 (июн. 2022), 141–146.

XIII -XVII ASRLARDA HINDISTON

Narzulloyeva Shahzodabonu Sobirjon qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada Hindistonda XIII - XVII asrlarda Hindistondagi ijtimoiy iqtisodiy va madaniy hayoti tahlil qilinadi. Hindistonda Dehli sultonligini tashkil topishi. Har bir hukmdorni saltanat tepasiga kelganidan so‘ng davlat hududini kengaytirishi, ularni qilgan islohotlarini yoritib beraman.

Kalit so‘zlar. *Bxarat, G‘aznaviylar sulolasi, G‘ulomlar sulolasi, Shamsiylar sulolasi, Balban sulolasi, Xiljiylar sulolasi, Tug‘laqiylar sulolasi, Sayyidlar sulolasi, Lo‘diylar sulolasi, roja, shuki, pargana, patta, chaudxarlar, xuta, Dehli sultonligi, "Buyuk mo‘g‘ullar davlati", Boburiylar sulolasi.*

1148-1206 yillar-Guriylar faoliyati davri bo‘lib, bu davlatga Surilar xonadoniga mansub Gur sultonlari sulolasi asos soldi. G‘aznaviylar (X- XII asrlarda O‘rta Sharqda mavjud bo‘lgan feodal davlatning va uni boshqargan sulolaning nomi) dan so‘ng afg‘onlarning guriy sulolasi hukmdori Muhammad Guriy 1193 yili Dehlini ishg‘ol qiladi. Uning sarkardasi Qutbiddin Oybek 1192 yilgi Taraori va 1194 yili Chanadavar janglarida g‘olib bo‘lgandi. Guriylar davlati aka-uka G‘iyosiddin Muhammad (1162-1202 yillar hukmronlik qilgan) va Shahobiddin yoki Muhammad Guriy (1203-1206 yillarda hukmronlik qilgan) davrida hoz.Afg‘oniston va Hindistonning katta qismini o‘z ichiga oladi. Davlat markazi Gur viloyati, poytaxt shaharlari Feruzko‘h va G‘azna bo‘lgan. [1, B. 148-150]

1206 yilda Muhammad Guriy vafotidan keyin Hind daryosidan Gang daryosigacha bo‘lgan butun Shimoliy Hindiston musulmonlar qo‘liga o‘tdi. XII asr oxirida poytaxtini Lahorga ko‘chirgan Muhammad Guriy tez-tez Hindistonning shimoli-g‘arbiga yurish qilib turgan. Unga noib Qutbiddin Oybek (1206-1210) voris bo‘ldi. U 1290-yilgacha hukmronlik qilgan G‘ulomlar, Shamsiylar va Balbanlar sulolasining asoschisi edi.[3, B.367-369]

1206-yilda G‘azna sultonlaridan mustaqil bo‘lib olgan Dehli sultonligi XIII asr va XIV asr davomida ancha katta davlat sifatida yashadi.

Dehli sultonligini boshqargan sulolalar ; 1) G‘ulomlar sulolasi (1206-1211 yillarda boshqargan), bular Qutbiddin Oybek(1206-1210), Oromshoh ibn Oybek(1210-1211) lardir.

2) Shamsiylar sulolasi (1211-1265 yillarda boshqargan), bular Shamsiddin Eltutmish (1211-1236), Feruzshoh ibn Eltutmish (1236), Roziya xotun bint Eltutmish (1236-1240), Bahromshoh ibn Eltutmish (1240-1242), Ma’sudshoh I ibn Feruzshoh (1242-1246), Mahmudshoh I ibn Eltutmish (1246-1265)lardir.

3) Balban sulolasi (1265-1290 yillarda boshqargan), bular G‘iyosiddin Balban (1265-1287), Kayqubod ibn Mahmud (1287-1289), Kayumars ibn Kayqubod (1289-1290) lardir.

4) Xiljiylar sulolasi (1290-1320 yillarda boshqargan), bular Feruzshoh II ibn Yag‘rush (1290-1296), Ibrohimshoh I ibn Feruzshoh (1296), Muhammadshoh I ibn Shihobiddin (1296-1316), Umarshoh ibn Muhammadshoh I (1316), Muborakshoh ibn Muhammadshoh I (1316-1320) lardir.

5) Tug‘laqiylar sulolasi (1320-1414 yillarda boshqargan), bular G‘iyosiddin yoki Alovuddin Tug‘laqshoh I (1320-1325), Muhammadshoh II ibn Tug‘laqshoh I (1325-1351), Mahmudshoh ibn Muhammadshoh II (1351), Feruzshoh III ibn Rajab (1351-1387), Muhammadshoh ibn Feruzshoh (1387-1388), Tug‘laqshoh II (1388-1389), Abu Bakrshoh ibn Zafar (1389-1390), Muhammadshoh III ibn Feruzshoh III (1390-1393), Iskandarshoh II ibn Muhammadshoh III (1393), Mahmudshoh II ibn Muhammadshoh III (1393-1395), Nusratshoh ibn Muhammadshoh III (1395-1399), Mahmudshoh II ibn Muhammadshoh III (1399-1413) lardir.

6) Sayyidlar sulolasi (1414-1451 yillarda boshqargan), bular Sayyid Xidr ibn Malik Sulaymon (1414-1421), Muborakshoh II ibn Sayyid Xidr (1421-1435), Muhammadshoh IV ibn Muborakshoh II (1435-1446), Olamshoh ibn Muhammadshoh IV (1446-1451) lardir.

7) Lodilar sulolasi (1451-1526 yillarda boshqargan), bular Bahlul (1451-1489), Iskandar II ibn Bahlul (1489-1517), Ibrohim II ibn Iskandar II (1517-1526) lardir.

Musulmon hukmdorlari yangi ma’muriy-hududiy bo‘linishni joriy qilganlar. Dehli sultonligi 23 ta provinsiya (ma’muriy-hududiy birlik) ga bo‘lingan. Yirik provinsiya-lar shiki (viloyat) larga bo‘lingan edi. Undan keyingi ma’muriy-hududiy birlik - pargana (tuman) bo‘lgan. Uning tarkibiga bir qancha qishloqlar va patta - bir-ikki qishloq kirgan. [8, B. 142-143]

Dehli sultonligida ham ma’lum darajada braxman-kshatriylarning yuqori tabaqasi boshchiligidagi jamoalarning o‘zini o‘zi boshqaruvi saqlanib qolgan edi. Musulmon hukmdorlari hind jamoalarini, ayniqsa yirik jamoalarni to‘liq bo‘ysundira olmaganlar. [7, B. 235-237]

Hind jamoalari tepasida mukkadamlar, chaudxrlar (dohiylar) turgan. Ular hukmron bo‘lgan kastalarning boshliqlari edilar. Jamoalar tarkibida bir nechta qishloqlar bo‘lardi. Qishloq tepasida xuta turgan. Mukkadamlar, chaudxrlar, xutalar markaziy apparatning mansabdorlari emas, soliq to‘lovchilarning vakillari edi. Jamoa mansablari meros bo‘lib o‘tardi, shuningdek merosxo‘rlar o‘rtasida taqsimlanardi. Bu vaqtda jamoa kengashlari - panchayatlar ham mavjud edi. Panchayatlar okrugda, qishloqda hukmron bo‘lgan kastalarning vakillaridan iborat tarkibda bo‘lardi.

Dehli sultonligiga qarshi Amir Temur 1398 yilning may oyida 92 ming kishilik qo‘shin bilan Qashqadaryo vohasidan o‘tib, Termiz orqali yurib, avgustda Qobulni egallaydi. U yerdan Hindiston chegaralari tomon kirib borib, Tulumbi, Multon, Dubalpur, Sarasti, Fathobod, Somona, Asandiy, To‘qloqpur, Panipat kabi shahar va qal’alarni egallab, dekabr oyida Dehliga yetib boradi. [4, B. 170-172]

Bu urushni u Muhammad payg‘ambar e’tiqodini yoyish, payg‘ambar nomini ko‘klarga ko‘tarish, butparast va kofirlarni islom diniga kiritish, bu yerdagi feodal tarqoqlik, o‘zaro urushlarga barham berish bayrog‘i ostida olib boradi.

Dehli sultoni bo‘lgan so‘nggi tug‘laqiy hukmdor sulton Mahmud (1393-1413) Amir Temur lashkariga qarshi o‘z sarkardasi Malluxon boshchiligida 120ming qurollangan otliq askar; 40 ming piyoda jangchi; 120 zanjirband fillarni tashlaydi. Kamon otuvchilar joylashtirilgan bu fillarning ustiga o‘q, nayza va qilichdan himoya qiluvchi yopqich yopib, fillarni qoziq tishlarini ustiga zahar surtilgan pichoqlar bog‘lab qoyilgan edi. Fillar yonida cho‘g‘ to‘ldirilgan xumcha, yonayotgan mum yoki neft otuvchi naftandozlar bor edi. Bu dahshatli manzaradan Sohibqiron cho‘chimadi, chunki bunday qurolni u Urganch qamalida qo‘llagan edi. [6, B. 182-183]

Ibn Arabshoh bergan ma’lumotlarga qaraganda, fillarga qarshi chetlari qayrilgan uchi o‘tkir uchburchakli temir tikonlardan foydalangan. Fillar kelayotgan tomonga ularni ko‘mib qo‘yishgan. Bu fillar va ularning egalariga kulfat keltirdi.

Bundan tashqari Amir Temur fil va askarlarga qarshi tuyalardan foydalanib, ularning dumiga arqon bilan xashak va tikon bog‘lamlarini bog‘lab,

ularni yoqib, dushman tomon haydaganlar. Bu nafaqat fillarni, hatto askarlarni ham qo‘rquv va dahshatga solgan va yopirilib kelayotgan fillar orqaga qochganlar va sulton Mahmud Dehlaviyning askarlarini yengib, to‘zg‘itib tashlagan. Bundan Amir Temur foydalanib, ularni yakson qilgan.

1399-yil boshlarida Amir Temur sulton Mahmud qo‘shinlarini yengib, 15 ming askar bilan Dehliga kirib boradi. Temur 150 mingdan ortiq asir olingan hunarmandlarni, behisob o‘ljalar bilan Hindiston fillarini olib 1399 yil bahorida Samarqandga qaytadi. Sulton Mahmud qochib ketadi. Shundan keyin mamlakat mayda knyazliklarga bo‘linib ketdi. Oradan 10 yilcha vaqt o‘tib hokimiyatga qisqa muddatga yangi sulola Sayyidlar (1414-1451) keldi.

XV asr mobaynida Dehli sultonligi buyuk davlat bo‘lmay qolgan. Dehli shahri va uning atrofidagi yerlar hukmroni "Dehlining buyuk sultoni" degan dabdali unvonga ega bolsa ham, u Shimoliy Hindistondagi oddiy davlatlardan biri bo‘lgan. Eng yirik qo‘shni davlat Bengaliya knyazligi ham loqal Shimoliy Hindiston gegemonlik rolini o‘z zimmasiga olmagan.

Bobur Mirzo 1526-yilning 21-aprelida Panipat jangida Ibrohim Lodiy qo‘shinini tor-mor keltirdi. 27- aprel kuni esa Dehli shahrida Bobur podshoh nomiga xutba o‘qildi. Shu tariqa tarixda uch asrdan ko‘p yashagan yangi imperiya Boburiylar imperiyasiga asos solindi.[5, B. 135-136]

XVII asr ikkinchi yarmidan boshlab imperiyada toj-u taxt uchun kurash avj oldi. Oxir oqibatda, bu kurashda 1627-1658-yilda hukmronlik qilgan, dunyoga mashhur Toj Mahal me’moriy obidalarini bunyod ettirgan Shohjahon(Akbarshohning nabirasi)ning o‘g‘li Avrangzeb Olamgir g‘alaba qozondi. U 1658- yilda Dehli shahrini egalladi va ozini shoh deb e’lon qildi. Avrangzeb Olamgir hukmronligi davri(1658-1707) imperiya hududi yanada kengaydi uning davrida hukmronligi yillarida imperiyaning zaiflashishi uchun zamin yaratdi.[2, B. 94-95]

Xulosa qilib aytganda Hindistonda sulolar tez tez almashinib turishi bu davlatning zavol tutishiga va tashqi davlatlarning asta sekin mustamlakasiga aylanishiga zamin yaratdi. Bulardan misol tariqasida Sayyidlar va Lo‘diylar sulolasi asli kelib chiqishlari afg‘on bo‘lgan. Bu esa saltanatni zavolga yuz tutishiga ham olib keladi. Boburiylar saltanati keladi uch asr hukmronlik qilgan davlatning qulashiga va Angilyaga qaram bo‘lishiga sabab ham taxt uchun kurashlar bo‘lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jahon tarixi (o‘rta asrlar tarixi) O‘quv -uslubiy majmua. Denov (2019)(148-152-betlar)
2. O‘rta asrlar tarixi. Toshkent: “O‘qituvcvi” nashriyoti Semyonev (1973)(94-96-betlar)
3. Yangi davr. 1-qism XVI-XVIII asrlar. Toshkent: “O‘zbekiston” Shuhrat Ergashev (2013)(365-379-betlar)
4. Jahon tarixi. Toshkent: “O‘zbekiston savdo nashriyot matbaa ijodiy uyi” Sarimsoqov.A (2021)(170/175-betlar)
5. O‘rta asrlar tarixi. O‘quv metodik qollanma. Toshkent(1991) Qurbonaliyeva.R.R
6. O‘rta asrlar tarixi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent "MASHHUR-PRESS" B. Mirkomilov, F.Aqchayev, O.Mamirov (2016)(182-187-betlar)
7. Jahon tarixning muhim sanalari(eng qadimgi davrdan bugungacha) Toshkent "O‘zbekiston"(2011)
8. O‘zbekiston milliy ensiklapedyasi. Toshkent "O‘zbekiston milliy ensiklapedyasi" Davlat milliy nashriyoti (2000-2006).

TOSHKENT VOHASINING QADIMGI DAVR VA O‘RTA ASRLARDAGI SIYOSIY-MA’MURIY TUZILISHI VA SAVDO YO‘LLARIDAGI O‘RNI.

Nazarova Gulsevar Qahramon qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
2-bosqich talabasi

Anotatsiya. Mazkur tezisda Toshkent vohasining qadimgi davr va o‘rta asrlarda shakllangan siyosiy-ma’muriy tuzilishi, hududiy boshqaruv shakllari, va uning xalqaro savdo yo‘llaridagi strategik ahamiyati tahlil qilinadi. Arxeologik topilmalar, yozma manbalar hamda zamonaviy tadqiqotlar asosida Toshkent vohasi turli davrlarda Choch, Ma wara’un-nahr va Turk xoqonliklari tarkibida qanday siyosiy rol o‘ynagani ochib beriladi.

Kalit so‘zlar. Toshkent vohasi, Choch, siyosiy tuzilma, Ipak yo‘li, o‘rta asrlar, boshqaruv.

Toshkent vohasi Markaziy Osiyo tarixiy-sivilizatsiyaviy makonining yirik markazlaridan biri bo‘lib, qadimgi davrlardanoq o‘zining strategik geografik joylashuvi, tabiiy resurslarga boyligi hamda xalqaro savdo yo‘llariga yaqinligi bilan ajralib turgan. Ushbu hudud tarixiy manbalarda, xususan,

qadimgi Xitoy, Yunon-Rim, Arab va Fors yozma manbalarida "Choch" nomi bilan tilga olinadi. Miloddan avvalgi IV asrdan boshlab milodiy VIII asrga qadar Choch hududi mustaqil yoki yarim mustaqil shahar-davlatlar sifatida shakllanib, o‘zining siyosiy-madaniy taraqqiyot bosqichlariga ega bo‘lgan Choch davlati o‘z davrida turli etnik guruhlar, ya’ni saklar, massagetlar, ushunlar, keyinchalik esa turkiy qabilalar tomonidan tashkil topgan ittifoqlarga asoslangan siyosiy tuzilmalardan iborat bo‘lgan. Bu ittifoqlar markazlashmagan boshqaruv tizimi bilan ajralib turar, shaharlar esa ko‘pincha yarim avtonom tarzda, mahalliy boshliqlar yoki aristokratik harbiy elita tomonidan boshqarilgan (Ba. Arxeologik tadqiqotlar, xususan Qovunchi, Mingtepa, Oqtepa va boshqa manzillarda olib borilgan qazishmalar natijasida topilgan tangalar, hunarmandchilik buyumlari, suvoq ashyolari hamda qabr toshlari ushbu hududda shakllangan siyosiy-iqtisodiy hayot darajasining yuksakligini ko‘rsatadi

Choch vohasining siyosiy ahamiyati uning iqtisodiy qudrati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ayniqsa, xalqaro savdo yo‘llaridagi o‘rni bu hududni G‘arb va Sharq o‘rtasidagi vositachilik markaziga aylantirgan. Toshkent vohasi qadimdan Ipak yo‘lining shimoliy tarmog‘i ustida joylashgan bo‘lib, bu yo‘l orqali Xitoy, Hindiston, Sharqiy Turkiston, Erondan Yevropa mamlakatlariga qimmatbaho tovarlar – ipak, chinni, ziravorlar, metallar, to‘qimachilik mahsulotlari yetkazib berilgan. Arxeologik topilmalar, masalan, Qovunchi madaniyatiga oid topilmalar orasida fors, hind, xitoy madaniyatiga oid mahsulotlar mavjudligi bu hudud xalqaro savdoning faol ishtirokchisi bo‘lganini tasdiqlaydi.

Milodiy VIII asrda arablar tomonidan bu hudud bosib olinishi natijasida siyosiy boshqaruv tizimida keskin o‘zgarishlar yuz berdi. Choch viloyati Abbosiylar xalifaligi tarkibiga kiritilib, islomiy ma’muriy tizim joriy etildi. Bu davrda viloyat amirlar, noiblar va qozilar tomonidan boshqarildi. Islom dinining kirib kelishi bilan Toshkent vohasida nafaqat siyosiy, balki madaniy-ma’rifiy sohada ham muhim o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. IX–X asrlarda bu hududda Samaniylar hukmronlik qilgan bo‘lib, ular davrida Toshkent vohasi yana o‘zining siyosiy va iqtisodiy obro‘sini tikladi. Samaniylar markazlashgan boshqaruv tizimini joriy etgan bo‘lib, viloyat boshqaruvi bevosita markaziy hokimiyat nazoratiga o‘tdi.

Keyinchalik Qoraxoniylar va Saljuqiylar hukmronligi davrida Toshkent vohasida "iqto" tizimi – ya’ni harbiylarga xizmat evaziga yer ajratish asosidagi boshqaruv shakli keng yoyildi. Bu tizim nafaqat harbiy kuchlarning iqtisodiy

ta’minotini, balki viloyatlardagi hokimiyatni markazlashtirish va nazorat qilish vositasi sifatida muhim rol o‘ynadi. Iqto egalarining viloyatlardagi siyosiy ta’siri ortgani sari Toshkent vohasi mintaqaviy siyosiy kuch markaziga aylandi.

O‘rta asrlar davomida Toshkent vohasining savdo-sotiqdagi mavqei ham mustahkamlandi. Ko‘p sonli karvonsaroylar, bozorlar va hunarmandchilik markazlarining mavjudligi bu hududda iqtisodiy hayotning yuksak darajada bo‘lganini ko‘rsatadi. Toshkentning mo‘g‘ullar istilosidan so‘ng tiklanib borishi, Temuriylar davrida esa yana muhim harbiy-strategik va iqtisodiy markazga aylanishi vohaning tarixiy doimiy ahamiyatidan dalolat beradi. Toshkent vohasining tarixiy-siyosiy rivojlanishidagi uzviylik, savdo yo‘llaridagi barqaror ishtiroki hamda geografik afzalligi uni turli tarixiy bosqichlarda turli imperiyalar diqqat markazida ushlab turgan. Arablar, turklar, mo‘g‘ullar, temuriylar, hatto keyinchalik rus mustamlakachiligi davrida ham Toshkent o‘zining strategik pozitsiyasini saqlab qolgan. Demak, Toshkent vohasi nafaqat iqtisodiy va madaniy, balki siyosiy tarixning ham muhim komponenti sifatida o‘rganilishi zarur bo‘lgan hudud hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Askarov A. (1984). Qovunchi madaniyati va uning yodgorliklari. Toshkent: Fan.
2. Askarov A. (1996). Choch tarixining ilk bosqichlari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
3. Bartold V.V. (1963). Sochineniya. Tom II. Moskva: Nauka.
4. Gafurov B.G. (1972). Tadzhiki: drevneishaya, drevnyaya i srednevekovaya istoriya. Moskva: Nauka.
5. Sagdullaev A. (1990). O‘zbekistonning qadimgi san’ati. Toshkent: Fan.

QADIMGI TOSHKENT TARIXI

Ne’matov Saidaxmad Aliqul o’g’li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi
saidaxmadnematovoo1@gmail.com
Ilmiy rahbar: Parmonov Sharofiddin
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimgi Toshkent hududida joylashgan tarixiy yodgorliklar haqida ma’lumot beriladi. Toshkent shahrining uzoq tarixiy o‘tmishi, qadimiy me’moriy inshootlari va ularning madaniy-ma’naviy ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ushbu yodgorliklarning hozirgi holati va ularni asrab-avaylash borasidagi sa’y-harakatlar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Toshkent, tarixiy yodgorliklar, qadimgi shahar, madaniyat, me’morchilik, meros, arxeologiya.

Annotation: This article explores the historical monuments located in the ancient city of Tashkent. It highlights the centuries-old history of the city, its architectural structures, and their cultural and spiritual significance. The current state of these monuments and the efforts being made to preserve them are also discussed.

Keywords: Tashkent, historical monuments, ancient city, culture, architecture, heritage, archaeology.

Аннотация: В статье рассматриваются исторические памятники, расположенные на территории древнего Ташкента. Освещается многовековая история города, его архитектурные сооружения и их культурно-духовное значение. Также затрагиваются современные условия этих памятников и усилия, предпринимаемые по их сохранению.

Ключевые слова: Ташкент, исторические памятники, древний город, культура, архитектура, наследие, археология.

Toshkent — O‘zbekistonning poytaxti va eng qadimgi shahri hisoblanadi. Uning tarixiy ildizlari miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi. Shahar qadimda Shosh nomi bilan mashhur bo‘lib, uzoq vaqt davomida muhim savdo va madaniy markaz bo‘lib xizmat qilgan. Arxeologik qazishmalar va tarixiy manbalar bu yerda qadimgi sivilizatsiyalar yashaganini ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda Toshkentning qadimiy yodgorliklari xalqimiz tarixiy xotirasining tirik guvohidir. Ushbu maqolada Toshkentning eng

mashhur qadimiy yodgorliklari, ularning tarixi, madaniy ahamiyati, bugungi holati va saqlanish choralari keng yoritiladi.

1. Toshkent tarixining qadimiy ildizlari

Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, Toshkent hududi miloddan avvalgi III–II asrlarda dastlabki manzilgoh sifatida paydo bo‘lgan. Shahar hududidan topilgan arxeologik topilmalar bu yerda qadimgi sug‘diylar, keyinchalik esa arablar, turklar va mo‘g‘ullar hukmronlik qilganini ko‘rsatadi. Islom dini kirib kelgach, Toshkent diniy va ilmiy markazga aylandi. X especially IX–XII asrlarda bu yerda madrasalar, masjidlar va maqbaralar qurilgan. Aynan shu davr Toshkent tarixidagi yuksalish davridir.

Qadimda Toshkent "Choch" yoki "Shosh" deb atalgan va arab tarixchilari yozuvlarida bu shahar kuchli qo‘rg‘onlari, rivojlangan hunarmandchiligi va savdo markazlari bilan tilga olinadi. Aynan bu qadimiy davrlar Toshkentning boy madaniy merosini shakllantirdi.

Qaffol Shoshiy maqbarasi

Imom Abu Bakr Muhammad al-Qaffol Shoshiy IX asrda yashagan taniqli din arbobi va olim bo‘lgan. Uning maqbarasi Shayxontohur tumanida joylashgan bo‘lib, islomiy me’moriy merosning muhim namunasi hisoblanadi. Bu maqbara bir necha bor qayta tiklangan bo‘lsa-da, uning asl tuzilishi saqlab qolinmoqda. Har yili minglab ziyoratchilar bu muqaddas maskanga tashrif buyuradi.

Baroqxon madrasasi

XVI asrda Shayboniylar davrida qurilgan Baroqxon madrasasi Hazrati Imom majmuasining muhim qismlaridan biridir. Madrasa o‘zining nafis g‘ishtkori bezaklari, arabcha yozuvlar bilan ishlangan naqshlari bilan e’tiborni tortadi. Bu yodgorlik Sharq me’morchiligining eng sara namunalaridan biri bo‘lib, hozirda ham diniy va ilmiy tadbirlar markazi sifatida faoliyat yuritmoqda.

Muyi Muborak madrasasi

Ushbu madrasa Islom dini tarixidagi eng muqaddas kitoblardan biri — Usmon Qur’oni saqlanadigan maskan sifatida mashhur. Qur’onning bu nusxasi VII asrga tegishli bo‘lib, xalifa Usmon ibn Affon tomonidan yozilgan deb hisoblanadi. Qur’onning bu qo‘lyozmasi O‘zbekistonning diniy madaniyatida alohida o‘rin egallaydi.

Ko‘kaldosh madrasasi

Ko‘kaldosh madrasasi XVI asrda Buxoro amirligining hokimlaridan biri tomonidan qurilgan. Bu madrasa Chorsu bozoriga yaqin joylashgan bo‘lib,

qadimiy ilm maskani bo‘lgan. Hozirgi kunda bu yodgorlik O‘zbekiston tarixining muhim eksponati sifatida xizmat qiladi.

Yodgorliklarning madaniy va ma’naviy ahamiyati

Toshkentdagi tarixiy obidalar nafaqat arxitektura inshooti, balki xalqimizning tarixiy-madaniy xotirasi, diniy qarashlari va an’analarining ifodasidir. Har bir yodgorlik o‘z davrining madaniyatidan, xalqining ilm-fan, e’tiqod va me’morchilik darajasidan darak beradi. Jumladan, madrasalar faqat diniy emas, balki dunyoviy fanlar o‘qitiladigan markazlar ham bo‘lgan.

Yodgorliklar — xalqning o‘z tarixiga, o‘zligini anglashiga xizmat qiladigan tirik hujjatdir. Toshkentdagi qadimiy masjidlar, maqbaralar, minoralar orqali biz ajdodlarimizning ma’naviy olami, ularning estetik qarashlari va hayot tarzini tushunamiz.

Qadimiy yodgorliklarning saqlanishi va bugungi holati

O‘zbekiston hukumati so‘nggi yillarda madaniy merosni asrashga alohida e’tibor bermoqda. Toshkentdagi ko‘plab yodgorliklar restavratsiya qilindi, ularning atrofidagi hududlar obodonlashtirildi. Hazrati Imom majmuasi, Muyi Muborak madrasasi va Qaffol Shoshiy maqbarasi zamonaviy talablar asosida tiklandi. Shu bilan birga, ayrim yodgorliklar nosoz holatda bo‘lib, ularni ta’mirlash uchun qo‘shimcha mablag‘ va ilmiy tadqiqotlar talab etiladi.

Restavratsiya ishlari tarixiy obidalarning asl ko‘rinishini saqlab qolish maqsadida olib borilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, “O‘zarxitektqurilish” qo‘mitasi va UNESCO kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlanmoqda.

Xulosa

Qadimgi Toshkent yodgorliklari — bu xalqimizning bebaho madaniy boyligi, ajdodlarimizning mehnati, e’tiqodi va zakovatining timsolidir. Ularni asrab-avaylash, ularning tarixini chuqur o‘rganish va yosh avlodga yetkazish bizning muqaddas burchimizdir. Har bir yodgorlik o‘z zamonasi haqida gapiradi, xalqimizning boy tarixidan hikoya qiladi. Shu bois, Toshkentdagi qadimiy yodgorliklar nafaqat mahalliy, balki jahon madaniy merosining ham ajralmas qismidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdurahmonov A. Toshkent tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2004.

2. Ahmedov B. O‘zbekiston arxitektura yodgorliklari. – Toshkent: Me’mor, 1999.

3. Aliev I. Toshkent: Shahar va uning qadimiy yodgorliklari. – Toshkent: Sharq, 2012.

4. Asqarov A. Toshkent arxeologiyasi va qadimiy obidalar. – Toshkent: Fan, 2000.

5. Bobojonov A. Islom me'morchiligi va O'zbekiston. – Toshkent: Ma'naviyat, 2010.

6. Jo'rayev N. O'zbekiston me'morchilik san'ati tarixidan lavhalar. – Toshkent: San'at, 2015.

7. Karimov I. Tarixiy xotira – muqaddas qadriyat. – Toshkent: O'zbekiston, 1998.

8. Rahimov R. Toshkent yodgorliklari – xalq merosi. – Toshkent: Akademnashr, 2016.

O'ZBEKISTON VA BELORUSIYA O'RTASIDAGI IKKI TOMONLAMA ALOQALAR:

Norboyev Quvondiq Xayrulla o'g'li
ChDPU talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi va Belorusiya Respublikasi o'rtasidagi diplomatik, iqtisodiy, madaniy va parlamentlararo aloqalarning shakllanishi va rivojlanish dinamikasi yoritilgan. Xususan, ikki davlat o'rtasidagi siyosiy ishonch, savdo-iqtisodiy sheriklik, qo'shma loyihalar, xalqaro maydondagi hamkorlik hamda oliy darajadagi tashriflar orqali erishilgan yutuqlar tahlil qilinadi. Shu bilan birga, istiqboldagi strategik hamkorlik yo'nalishlariga baho beriladi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Belorusiya, diplomatik aloqalar, savdo-iqtisodiy hamkorlik, qo'shma korxonalar, strategik sheriklik, xalqaro tashkilotlar

O'zbekiston va Belorusiya mustaqil davlatlar sifatida 1993-yil 21-yanvarda diplomatik munosabatlar o'rnatgan. Ushbu davrdan buyon o'zaro munosabatlar barqaror rivojlanib, ko'plab yo'nalishlarni qamrab oldi. Har ikki davlat Markaziy Osiyo va Sharqiy Yevropa o'rtasidagi mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Mazkur maqolada ikki tomonlama munosabatlarning bugungi holati va istiqbollari tahlil qilinadi.

1. Siyosiy va diplomatik hamkorlik

O'zbekiston va Belorusiya o'rtasidagi siyosiy aloqalar do'stlik va o'zaro hurmat tamoyillariga asoslanadi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

va Belorusiya Prezidenti Aleksandr Lukashenko o‘rtasidagi uchrashuvlar aloqalarning mustahkamlanishida muhim rol o‘ynamoqda. 2018-yil va 2019-yillarda amalga oshirilgan oliy darajadagi tashriflar natijasida o‘nlab hujjatlar imzolandi. Ikkala davlat o‘zaro manfaatli munosabatlarni chuqurlashtirishdan manfaatdor.

2. Savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy aloqalar

Savdo aloqalari ikki tomonlama hamkorlikning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. O‘zbekiston Belorusiya uchun Markaziy Osiyodagi muhim savdo sheriklaridan biri hisoblanadi. 2022-yil yakunlariga ko‘ra, ikki tomonlama tovar aylanmasi 500 million AQSH dollariga yaqinlashdi. O‘zbekiston Belorusiya traktor va qishloq xo‘jaligi texnikalarining yirik importchisidir. Mamlakatimizda "Belarus" brendi ostida texnika ishlab chiqaruvchi qo‘shma korxonalar faoliyat yuritmoqda.

3. Madaniy, ilmiy va ta’lim sohalaridagi hamkorlik

So‘nggi yillarda madaniy almashinuv, talabalar va mutaxassislar o‘rtasida tajriba almashinuvi faol rivojlanmoqda. Toshkentda bo‘lib o‘tgan Belorusiya madaniyati kunlari ikki xalq o‘rtasidagi do‘stlik rishtalarini mustahkamladi. Ta’lim sohasida Belorusiya O‘zbekiston talabalariga stipendiyalar ajratmoqda, bir nechta oliy o‘quv yurtlari bilan hamkorlik shartnomalari imzolangan.

4. Parlamentlararo va xalqaro tashkilotlar doirasidagi hamkorlik

O‘zbekiston va Belorusiya parlamentlari o‘rtasida do‘stlik guruhlari faoliyat yuritmoqda. Har ikki davlat BMT, MDH, YEXHT va boshqa xalqaro tashkilotlar doirasida hamkorlik qilib, dolzarb global muammolar bo‘yicha o‘xshash yondashuvlarga ega. Belorusiya O‘zbekistonning xalqaro tashabbuslarini doimo qo‘llab-quvvatlab kelmoqda.

O‘zbekiston va Belorusiya o‘rtasidagi hamkorlik so‘nggi yillarda sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Ikkala davlat o‘zaro ishonch, siyosiy barqarorlik va manfaatlar uyg‘unligiga asoslangan sheriklikni izchil rivojlantirmoqda. Savdo-iqtisodiy, madaniy va xalqaro darajadagi aloqalarni yanada mustahkamlash orqali ikki mamlakat strategik sheriklik darajasiga chiqishga intilmoqda. Kelgusida bu aloqalar nafaqat ikki xalq manfaatlariga, balki mintaqaviy barqarorlik va taraqqiyotga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi rasmiy sayti – www.mfa.uz

2. Belorusiya Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi rasmiy sayti – www.mfa.gov.by
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy vebsayti – www.president.uz
4. BelTA – Belorusiya Milliy axborot agentligi – www.belta.by
5. "Yangi O‘zbekiston" gazetasi, 2022–2023-yillar sonlari

TOSHKENT AHOLISINING MAISHIY-MADANIY HAYOTI YUJIN SKAYLER TAVSIFIDA (XIX ASRNING IKKINCHI YARMI)

Norqobilova Durdona Shabonovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asrning ikkinchi yarmida Toshkent vohasi aholisining maishiy turmush tarzi, madaniy hayoti Amerikalik sayyoh va siyosatchi Yujin Skaylerning “Turkiston” asari asosida yoritilgan.

Kalit so’zlar: *Yujin Skayler, Toshkent, uy-joy, milliy taomlar, masxarabozlik,*

XIX asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyo tarixida muhim burilish davri bo‘lib, bu davrda ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotda sezilarli darajada o‘zgarishlar yuz bergan. Ayniqsa, Turkiston hududida, jumladan Toshkent vohasida bu jarayonlar sezilarli darajada faol kechgan. Yevropa sayyohlari va tadqiqotchi olimlar bu davr voqealarini o‘z asarlarida aks ettirib, o‘ziga xos tarixiy manba sifatida qimmatli ma’lumotlar qoldirishgan. Shulardan biri - ingliz sayyohi Yujin Skayler (1840- 1890) AQSH siyosatchisi va sayyoh u 1870 – 1876 - yillarda AQSH ning Sankt-Petrburgdagi diplomatik missiya kotibi etib tayinlangan. Aynan shu davrdan boshlab u O ‘rta Osiyoga sayohat qilib, safarlari haqida AQSH Milliy Geografiya jamiyatiga batafsil ma’lumotlar bera boshlaydi.Shu davrdan boshlab ikki jilddan iborat “Turkiston; Rossiya Turkistoni, Qo ‘qon, Buxoro va G‘uljaga sayohat qaydlari” keyinchalik 1884 – yilda “Buyuk Pyotr” asari ustida ishlaydi. Aslida Skayler O‘rta Osiyoga 1868 – yildayoq qiziqib qolgan edi. O‘shanda u moskovalik savdogarlar orasidagi yaxshi aloqalar tufayli Orenburgga tashrif buyurib paxta savdosini o‘rgangan[81].

[81] Дмитриев Г.Л. Депеша Е.Скайлера и проблема среднеазиатской политики царзима 70 хх гг. XIX в. \\ Научные труды ТашГУ. - Тошкент. 1976. Вып. 517. – С 34

Uning “Turkiston” asarida XIX asr ikkinchi yarmidagi Toshkent aholisi hayoti, ularning kundalik turmushi, ijtimoiy munosabatlari va madaniy qadriyatlari haqida batafsil tasvirlar berilgan. Ushbu maqolada Skayler asari asosida o‘sha davrdagi Toshkent aholisi hayoti yoritilib, tarixiy jarayonlarga tashqi kuzatuvchi nigohi orqali baho beriladi.Bu asarda nafaqat Toshkent, balki Turkistonning deyarli barcha shaharlari aholisi, kudalik hayoti, diniy e‘tiqodi, madaniyati, san’ati bundan tashqari ruslar hukmronligi davrida o‘lkada olib borilgan siyosatati ham keng yoritilgan desak adashmagan bo‘lamiz. Yujin Skaylerning “Turkiston” asari nafaqat tarixiy hujjat, balki etnografik manba sifatida ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

XIX asrda Toshkentning asosiy aholisini musulmonlar tashkil qilar edi. Shu sababli din kundalik hayotning ajralmas bo’lagi bo’lib xizmat qiladi.

XIX asrning 50 – yillarida Toshkentning aholisi 11 ming xonadonda 50 ming kishidan iborat edi. Chor Rossiyasining bosqinidan (1865) so‘ng shahar aholisining sonini aniqlashga urinib ko‘rdi.1868 – yilda aholini ro‘yxatga olish bo‘limi tashkil qilindi.Ana shu bo‘limning ma‘lumotiga ko‘ra 1888 – yilda shaharda 130 ming kishi yashagan[82].

Toshkentda aholining uy joylari ham musulmonchilikka asoslanib qurilgan. Hovlilar odatda ikki qisimga ajratilgan, yani tashqari yani erkaklar hovlisi, ichkari yoxud ayollar hovlisidan iborat bo‘lgan. Hovlining ikki qismga bo‘linganidan asosiy maqsad ayollarning bemalol hartakatlanishi va ularning begona ko‘zlardan uzoqda bo‘lishi sabab qilib ko‘rsatiladi. Uylar odatda bir qavatdan iborat bo‘lib aksariyat hollarda uyning tepasida kichik hujrasi bo‘lib xalq tilida “boloxona” deb atalgan. Hovli atrofini past bostirma uylar bilan o‘ralgan bo‘lib odatda ot saqlashga mo‘ljallangan. Tashqi hovlida mehmonlar uchun mo‘ljallangan mehmonxonalar mavjud. Mehmonxonalarda gilam va ko‘rpachalardan tashqari hech qanday jihoz bo‘lmay, faqatgina ustiga mehmonlarga atalgan shirinligu- mevalar qo‘yilgan, bir necha dyumli pastakkina naqishli xontaxta bor[83].

O‘zbek xalqining azaliy qadriyatlaridan biri bo‘lmish mehmondorchilik Toshkent aholisini ham ajralmas odati hisoblangan. Eng sara qand-qurslar, mevalar va milliy taomlar bilan mehmonlarni siylashgan.Mehmonlarga odatda ko‘k choy bilan turli xil shirinliklar tortilar edi. Xususan; asalga botirlgan atirgul yaproqlari, shirinlikka botirilgan bodom va yong‘oq mag‘izlari, to‘rtburchak shaklda kesilgan kichik kichik xolvalar ham dasturxon ko‘rki

[82] “Toshkent” ensklopediyasi – 2009
[83] Yujin Skayler “Turkiston”/ Z.A. Saidboboev (Tarjimon) “O‘zbekiston” NMIU,2019 [91-bet]

hisoblanadi.Yevropaliklar bundayu xolvalarni “pirog” deb atashardi va bundan tashqari asalga aralshtirilgan sabzi ham noyob shirinlik sifatida mehmon dasturxonidan o‘rin egallaydi.

Asosiy taomlarga to‘xtaladigan bo‘lsak,bugungi kunda ham mashhur bo ‘lgan milliy taomlarimiz, yani osh, manti,norin, chuchvara, turli xil kaboblar yetakchi o‘rinni egallaydi. Oshning tayyorlanish uslubi hozrgi kunda ham deyarli o‘zgarmagan, ba’zida katta katta ziyofatlarda vaqti vaqti bilan qo‘y go‘shti o‘rnida tovuq go‘shti bilan tayyorllanib,pista va mayiz qo‘shilib dasturxonga tortilgan.

Mehmon dasturxonlarida tortiladigan yana bir taom kaboblar hisoblanadi. Kaboblar asosan qo‘y go‘shtidan tayyorlangan, ayrim hollarda kaboblar orasiga sabzi ham qo‘shib pishirilgan. Yujin Skaylerning ta’kidlashicha bu davrda Toshkent aholisining asosiy qismi musulmon bo‘lganligi uchun mast qiluvchi ichimliklar ichilmagan. Ichish uchun aholi orasida faqat ko‘k choy va suvdan bo‘lak hech narsa yo‘qli qayd etilgan.Bundan tashqari nahorda ko‘k choyning qaymoq yoki eriydigan yog‘ bilan qo‘shib quyuq qilib damlangani sevib iste’mol qiladi. Bug‘doydan tayyorlanadigan va mast qilish xususiyatiga ega bo‘lgan “bo‘za” deb nomlanib uni faqat qozoqlar ichishgan. Biyaning sutidan tayyorlangan spirtli ichimlik “qimiz” ham faqat dasht qozoqlar tomonidan ichilgan.

Ammo ajablanarli tomoni shundan iborat ediki, turli xil mevalarning mo‘l ekanligiga qaramay aholi orasida mast qilish xususiyatiga ega bo‘lmagan turli xil yaxna ichimlik yoki sharbatlar tayyorlanmagan.

Bu davrda Toshkent aholisining asosiy ko‘ngilochar mashg‘ulot unchalik keng bo‘lmay , yigitlarning sevimli mashg‘ulotlari ot boqish va ov qilish hisoblanga. Otlarning “qozoq” va “arg‘umoq” turlari keng tarqalgan. Bundan tashqari “qorabayr” ot turi aholi orasida qadrlanar edi. Aholi orasida chavandozlik musobqalari o‘tkazilib, sevib tomosha qilinadi.Bundan tashqari Toshkent vohasi aholisi bedana va qushlarni boqishni sevishadi. Aholi orasida yengli kiyimning yengida va ko‘krak qismida bedana va shunga o ‘xshash kichik – kichik qushlarning tasviri tushirilganida ham yaqqol naymoyon bo‘ladi. Ayniqsa aholi orasida beganalarni kichikligidan janggi o ‘rgatishib,ularni urishtirish keng tarqalib,sevimli mashg‘ulotga aylanishga ulgurgan.

Yuqorida ta’kidlanganidek, din kundalik hayotda yuqori rol o‘ynagan. Ayollarning to‘y-bazmlarda raqsga tushishi musiqa kuylashi unchalik xushlanmagan, chunki musulmon ayol – qizlarning jamoat oldiga raqsga

tushib qo‘shiq kuylashi gunoh hisoblar edi. Odatda bozorlarda, to‘ylarda tomosha qo‘yilganda bolalarga ayollarni kiymi kiydirilib raqsga tushirilar yoki tomoshalatga rol o‘ynatilinadi. Bu bilan “qizlarning hech qanday ko‘ngil ochar o‘yinlari, mashg‘ulotlari yo‘q!” – degan xulosa chiqarish joiz emas. Ya’ni qizlarning ko‘ngilochar mashg‘ulotlari bo‘lgan, faqatgina ular ayollar orasida bo‘lgan.

Qizlarning lattalardan dag‘al qilib yasalgan qo‘g‘irchoqlari bo‘lib, ko‘pincha koptok ham o‘ynashardi. Bundan tashqari to‘y ba’zmlarda ayol-qizlar ichki hovlida alohida o’yin kulgi qilishardi, turli xil milliy kuylar chalinib raqsga tushishadi.

Aholining yana bir sevimli mashg‘uloti bu “Mazxarabozlik” hisoblangan. Bu tomoshada qiziqchi yani mazxaraboz yuzlarini oqartirib turli xil lattalardan kiyim kiyib olishgan va mahalliy aholining kundalik hayotidagi voqealar ijro etilgan. Masalan: Qozi va davogar shaxs muloqoti, yoki turli xil hayvonlarning xatti – harakati yoki tovushlariga taqlid qilishgan. Bu davrda qo‘g‘irchoqlar ijrosida ham tomoshalar qo‘yilgan.Odatda qo‘g‘irchoqlar lattadan yasalgan, ba’zan esa qovoqdan ham yasalgan bo ‘lib unga burun, lattadan qo‘l ,oyoqlar yopishtirilgan. Qo‘g‘irchoq teatrining ikkita katta yo ‘nalishi mavjud bo‘lgan. Bular xalq orasida “Chodir jamol” va “ Chodir hayol” deb atalgan.

“Chodir Xayol”ning bugungi kundagi tarjimasi - “Xayol teatri”, “Ruhlar chodiri”, “Fantaziyalar chodiri” ma’nolarini anglatadi. “Chodir jamol” esa - “ qo‘l qo‘g‘irchoq “ degan ma’noni anglatadi.

“Chodir xayol” “Chodir jamol”ga nisbatan ancha murakkab va mukammaldir. Bu uning barcha komponentlarida namoyon bo‘ladi, ya’ni: sahna qurilmasi, qo‘g‘irchoqlar yasalishi, ijro texnikasi va mavzu masalasida. Ikkala teatrning qo‘g‘irchoqlaridagi farq shundaki, “Ruhlar chodiri” uchun ular insonning bo‘yi baravar, ya’ni boshdan oyoq qilib tayyorlangan bo‘lsa, “qo‘l” qo‘g‘irchoqlarida esa faqat bosh qismi yasaladi.[84]

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, Yujin Skaylerning ushbu asarida ruslarning O‘rta Osiyoga bosqinidan so‘ng xalqimizning maishiy xayoti haqida batfsil, xolisona yoritilgan bo‘lib, dastlab bu asar haqida Sovet tarixshunosligida hech qanday ma’lumot berilmagan. Bugungi kunda Yujin Skaylerning ushbu asarini qayta o‘rganish, uni boshqa manbalar bilan taqqoslab tahlil qilish orqali tariximizdagi ko‘plab noaniqliklarni yoritish, ilgari nazardan chetda qolgan jihatlarni ochib berish mumkin. Asar zamonaviy

[84] Xo‘jayev Fatxulla Ubaydullayevich O‘z DSMI “CHODIR XAYOL” VA “CHODIR JAMOL” TEATRI

tarixshunoslik, madaniyatshunoslik va etnologiya fanlari nuqtai nazaridan ham dolzarbligini saqlab qolmoqda. Shu sababli, Turkiston asari nafaqat o‘tmishimizni bilishga, balki mustamlakachilik davrining murakkab ijtimoiy-maishiy jarayonlarini anglashga xizmat qiluvchi muhim ilmiy manba sifatida qadrlanishi lozim. Bu asarning yana bir muhim jihati shundan iboratki asarda ham siyosiy ham ijtimoiy ham madaniy hayoti keng yoritilgan. Asarda o‘lkamizning shu davrdagi yashash tarzi, ruslarning o‘lkamizda olib borgan siyosati keng yoritilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Дмитриев Г.Л. Депеша Е.Скайлера и проблема среднеазиатской политики царзима 70 хх гг. XIX в. \\ Научные труды ТашГУ. - Тошкент. 1976. Вып. 517. – С 34

2. “Toshkent” ensklopediyasi – 2009

3. Yujin Skayler “Turkiston”/ Z.A. Saidboboev (Tarjimon) “O‘zbekiston” NMIU,2019 [91-bet]

4. Xo‘jayev Fatxulla Ubaydullayevich O‘z DSMI “CHODIR XAYOL” VA “CHODIR JAMOL” TEATRI

5. Лунин Б.В История Узбекистана в источниках. Узбекистан в сообщениях путешественников и ученных (20 – 80 годы XIX в). Тошкент ; «Фан», 1990.

O‘ZBEKISTON–UKRAINA MUNOSABATLARI: TARIXIY ILDIZLAR VA ZAMONAVIY GEOSIYOSIY JARAYONLAR (1991–2024)

Nurmamatov Odil Sherali o‘g‘li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Tarix yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston va Ukraina o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va zamonaviy geosiyosiy sharoitdagi o‘zgarishlari tahlil qilinadi. 1991-yildan keyingi ikki tomonlama aloqalar tarixiy kontekstda ko‘rib chiqilib, savdo-iqtisodiy, madaniy, gumanitar va siyosiy hamkorlik yo‘nalishlari yoritilgan. Xususan, 2014-yildan so‘ng Ukrainadagi siyosiy inqirozlar va 2022-yilgi urushning O‘zbekiston tashqi siyosatiga bo‘lgan ta’siri o‘rganiladi. Maqolada O‘zbekistonning muvozanatli va ko‘pvektorli tashqi siyosati, neytral diplomatik pozitsiyasi hamda insonparvarlik yordami asosidagi yondashuvi

keng tahlil qilinadi. Kelajakdagi strategik sheriklik istiqbollari ham koʻrib chiqiladi.

Kalit soʻzlar: Oʻzbekiston, Ukraina, diplomatik munosabatlar, geosiyosat, urush, neytralitet, tashqi siyosat, savdo-iqtisodiy hamkorlik, madaniy almashinuv, insonparvarlik yordami, Rossiya–Ukraina urushi, xalqaro tashkilotlar.

Oʻzbekiston va Ukraina oʻrtasidagi munosabatlar postsovet makonidagi eng muhim va murakkab diplomatik yoʻnalishlardan biri hisoblanadi. Har ikki davlat 1991-yilda mustaqillikka erishgan boʻlib, oʻzaro munosabatlarni mustahkamlash, savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalarni rivojlantirishga intildi. Ammo 2014-yildan keyingi geosiyosiy oʻzgarishlar, xususan, Ukraina sharqidagi harbiy mojaro va 2022-yildagi keng koʻlamli urush bu munosabatlarga oʻz ta'sirini oʻtkazdi. Mazkur maqolada Oʻzbekiston–Ukraina aloqalarining tarixiy ildizlari, asosiy bosqichlari va zamonaviy geosiyosiy sharoitdagi oʻzgarishlar tahlil qilinadi. Oʻzbekiston va Ukraina oʻrtasida diplomatik munosabatlar 1992-yil 14-fevralda oʻrnatilgan. 1990-yillarning birinchi yarmida ikki davlat oʻrtasidagi siyosiy aloqalar nisbatan faol boʻlgan. Toshkent va Kiyev oʻz elchixonalarini ochdi, birinchi yuqori darajadagi tashriflar amalga oshirildi.

Bu davrda asosiy e'tibor quyidagilarga qaratilgan:

- Savdo-iqtisodiy aloqalarni tiklash (sovet davridagi integratsiyadan soʻng).
- Transport-logistika hamkorligi (Oʻzbekistonning Yevropa bozorlariga chiqishida Ukraina portlari muhim rol oʻynagan).
- Ta'lim va madaniyat sohasidagi dastlabki almashinuvlar.

2000-yillarda Oʻzbekiston va Ukraina oʻrtasidagi iqtisodiy munosabatlar nisbatan barqaror boʻlib, bir nechta asosiy yoʻnalishda rivojlandi:

- **Metallurgiya va mashinasozlik** sohalarida eksport-import aloqalari.
- **Qishloq xoʻjaligi texnikasi** va avtomobil sanoati boʻyicha hamkorlik (Zaporizhzhia, Krivoy Rog zavodlari orqali).
- **Energetika** – Oʻzbekiston gazining Ukrainaga tranzit imkoniyatlari va muqobil yoʻllar boʻyicha muzokaralar olib borilgan.

Ammo 2010-yillarning boshlaridan boshlab siyosiy beqarorlik (Ukrainadagi siyosiy inqirozlar), Markaziy Osiyodagi transport logistikasi qiyinchiliklari hamkorlikni sezilarli darajada chekladi. 2014-yilda Ukraina

hududiy yaxlitligining buzilishi O‘zbekiston tashqi siyosatida ehtiyotkorona pozitsiyani shakllantirdi. O‘zbekiston BMT va boshqa xalqaro tashkilotlarda Ukraina suverenitetini qo‘llab-quvvatlagan holda, ichki masalalarga aralashmaslik prinsipiga sodiq qoldi. Bu Ukraina tomonidan ijobiy qabul qilindi, Ammo Rossiya bilan strategik aloqalarni hisobga olib, O‘zbekiston muvozanatli pozitsiyada qoldi. 2015–2020 yillarda O‘zbekiston–Ukraina savdo aylanmasi pasayish tendensiyasiga ega bo‘ldi. Bunga sabablar: Transport logistikadagi uzilishlar, Ukraina iqtisodiyotidagi ichki tanglik, O‘zbekistonning boshqa bozorlar – Xitoy, Turkiya va Janubiy Koreyaga e’tibor qaratishi. Rossiya 2022-yil 24-fevralda Ukrainaga keng miqyosda bosqinchilik urushini boshlagach, O‘zbekiston rasmiylari birinchi kunlardanoq quyidagi pozitsiyani bildirdi:

- Harbiy harakatlarni to‘xtatishga chaqirdi,
- Ukraina hududiy yaxlitligini qo‘llab-quvvatladi,
- Ammo Rossiyaga qarshi sanksiyalarni qo‘llamadi.

Bu pozitsiya O‘zbekistonning “tinchlikparvar diplomatiya”si va ko‘pvektorli tashqi siyosatining ifodasi bo‘ldi. 2022–2023-yillarda O‘zbekiston Ukraina xalqiga bir necha marotaba gumanitar yordam (dori-darmon, oziq-ovqat va kiyim-kechak) yubordi. Shuningdek, O‘zbekistonda vaqtincha istiqomat qilayotgan ukrainaliklar uchun maxsus yordam dasturlari joriy qilindi. 2023-yildan boshlab O‘zbekiston va Ukraina elchiliklari orqali savdo aloqalarini tiklashga qaratilgan harakatlar boshlandi. Elektron texnologiyalar, oziq-ovqat sanoati va xizmat ko‘rsatish sohalarida imkoniyatlar o‘rganilmoqda. Ukraina urushdan keyin infratuzilmani qayta qurish bosqichiga kirgach, O‘zbekiston qurilish, kimyo sanoati va ishchi kuchi yo‘nalishida o‘z hissasini qo‘shishi mumkin.

O‘zbekiston va Ukraina o‘rtasidagi tarixiy aloqalar Sovet davri va undan avvalgi bosqichlarga borib taqaladi. 1940–50-yillarda Stalin siyosati natijasida ko‘plab ukrainlar Markaziy Osiyoga, jumladan, O‘zbekistonga majburiy ko‘chirilgan. Hozirda O‘zbekistonda 30 mingdan ortiq ukrain millatiga mansub fuqarolar istiqomat qiladi. Ukrainaning klassik musiqasi, san’ati va ta’limi O‘zbekistonda muayyan ta’sirga ega bo‘lgan, bu madaniy almashinuvda mustahkam poydevor yaratgan. Ukraina diasporasi O‘zbekistonda millatlararo totuvlik siyosati doirasida faol jamiyatlar (masalan, Toshkentdagi “Slavon jamiyati”) orqali o‘z faolligini saqlab qolmoqda. Rossiya–Ukraina urushi O‘zbekiston tashqi siyosatini sinovga soldi. O‘zbekiston Rossiya bilan harbiy-texnik, iqtisodiy va mehnat migratsiyasi jihatidan bog‘liq, Ukraina

bilan esa xalqaro huquqiy prinsiplar asosida hamkorlikni qo‘llab-quvvatlaydi, G‘arb bilan esa sanksiyalar bo‘yicha ehtiyotkor, ammo ochiqlik siyosatini davom ettiradi. Bu — O‘zbekistonning “muvozanatli ko‘p vektorli tashqi siyosati” ni amaliy ko‘rinishda namoyon etmoqda. Realizm nazariyasi nuqtai nazaridan, O‘zbekiston o‘z manfaatlarini optimal muvozanatga solgan holda harakat qilmoqda. Ukraina, to‘g‘ridan-to‘g‘ri Markaziy Osiyo hududiga tutash bo‘lmasa-da, mintaqa siyosatida quyidagi jihatlar bilan muhim omilga aylangan: G‘arb–Rossiya ziddiyatining Markaziy Osiyodagi aks sadosi; Ukraina urushi sababli Rossiyaga nisbatan kuchaygan sanksiyalar O‘zbekiston iqtisodiyotiga bilvosita ta’sir ko‘rsatmoqda (masalan, tranzit, eksport, SWIFT tizimi cheklovlari); G‘arb davlatlarining Markaziy Osiyo bilan ishlash istagini kuchaytirgan (Ukrainadagi urush fonida mintaqaga geosiyosiy e’tibor ortdi).

Urushdan keyingi rekonstruksiya jarayonida hamkorlik: O‘zbekiston qurilish materiallari, mehnat kuchi va logistika sohasida Ukraina uchun ishonchli sherikka aylanishi mumkin. Ukraina ilmiy maktablari (ayniqsa, texnika va tibbiyot yo‘nalishlarida) bilan O‘zbekiston oliygohlari qo‘shma dasturlar ochishi mumkin. Xalqaro tashkilotlar doirasida muloqotni kuchaytirish: BMT, SHHT va Islom hamkorlik tashkiloti orqali ikki davlat mintaqaviy barqarorlik bo‘yicha birgalikda tashabbus ko‘rsatishlari mumkin. Toshkentda Ukraina madaniyati haftaligi yoki Kiyevda O‘zbekiston san’ati ko‘rgazmalari ikki tomonlama ishonchni mustahkamlaydi. O‘zbekiston–Ukraina munosabatlari soddalikdan yiroq, murakkab geopolitik muhitda shakllanmoqda. O‘zbekiston o‘zining betaraf, ammo printsipial diplomatiyasi orqali Ukraina suverenitetini tan olib, Rossiya bilan strategik aloqalarni uzmaslikka harakat qilmoqda. Bu esa Toshkentni mintaqada o‘z mustaqil tashqi siyosat yurita oladigan, salmoqli aktorga aylantiradi. Kelajakda har ikki davlat xalqaro huquq, iqtisodiy manfaat va geosiyosiy barqarorlikni ustuvor qo‘ygan holda yangi darajadagi strategik sheriklik sari qadam tashlashi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston–Ukraina munosabatlari oxirgi 30 yilda siyosiy ehtiyotkorlik, iqtisodiy pragmatizm va insonparvarlik tamoyillariga tayangan. Ukraina uchun og‘ir yillarda O‘zbekiston neytral, ammo gumanitar jihatdan faol pozitsiyada bo‘lib, geosiyosiy muvozanatni saqlab qolishga intildi. Kelgusida har ikki davlat o‘zaro hurmat, manfaat va xalqaro huquq tamoyillariga asoslangan yangi strategik hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi mumkin.

Foydalanilgan manbalar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi. (2024). *Ukraina bilan ikki tomonlama munosabatlar*. https://mfa.uz
2. Ukraina Tashqi ishlar vazirligi. (2023). *Bilateral Relations: Ukraine – Uzbekistan*. https://mfa.gov.ua
3. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Rasmiy sayti. (2022). *UN General Assembly Resolutions on Ukraine (A/RES/ES-11/1; A/RES/ES-11/4)*. https://www.un.org
4. BBC Uzbek. (2022). *O‘zbekiston Rossiya–Ukraina urushida qanday pozitsiyada turibdi?* https://www.bbc.com/uzbek
5. Qodirova, M. (2021). *Markaziy Osiyoda tashqi siyosiy muvozanat: O‘zbekiston tajribasi*. // “Jahon siyosati va diplomatiya” jurnali, №3(37), 28–35-betlar.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. (2023). *Ukraina xalqiga insonparvarlik yordami yuborildi*. https://president.uz
7. Institute for War and Peace Reporting – IWPR. (2023). *Central Asia and the Ukraine War: Neutrality and Quiet Diplomacy*. https://iwpr.net
8. Eurasianet. (2022). *Uzbekistan walks a diplomatic tightrope over Ukraine war*. https://eurasianet.org
9. Statistika agentligi huzuridagi Davlat statistika qo‘mitasi. (2023). *O‘zbekiston va Ukraina o‘rtasidagi tashqi savdo ko‘rsatkichlari*. https://stat.uz
10. Putz, C. (2022). *How Uzbekistan Is Navigating the Russia-Ukraine War*. // *The Diplomat*. https://thediplomat.com

TOSHKENT VOHASI TAMADDUN TARIXI (QADIMGI VA O‘RTA ASRLARDA)

Normuhammedov Shahriyor –
CHDPU Tarix yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimgi va o‘rta asrlar davrida Toshkent vohasining ijtimoiy-siyosiy, madaniy va iqtisodiy rivojlanishiga oid masalalar yoritiladi. Toshkent hududining qadimiy shahar madaniyatiga ega bo‘lganligi, bu yerda aholi qadimdan dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo bilan shug‘ullangani ta’kidlanadi. O‘rta asrlar davrida esa vohaning markaziy Osiyo mintaqasidagi muhim siyosiy markazga aylangani bayon etiladi. Tarixiy manbalar va arxeologik topilmalar asosida vohaning taraqqiyot bosqichlari ko‘rib chiqiladi. Harbiy yurishlar, mahalliy hukmdorliklar faoliyati va ilm-fan rivoji o‘z aksini topgan. Toshkent vohasining xalqaro karvon yo‘llaridagi o‘rni ham muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Tezisda tarixiy voqealarning vohaning hozirgi taraqqiyotiga ta’siri ham tahlil etilgan.

Аннотация: В данной статье рассматриваются социально-политическое, культурное и экономическое развитие Ташкентского оазиса в древности и средневековье. Подчеркивается, что территория Ташкента с древних времен была центром городской культуры, где население занималось земледелием, ремеслом и торговлей. В средние века оазис превратился в важный политический центр региона Средней Азии. На основе исторических источников и археологических находок освещены этапы развития региона. Отражены военные походы, деятельность местных правителей и развитие науки. Также отмечена важная роль Ташкентского оазиса на международных караванных путях. В тезисе проанализировано влияние исторических событий на современное развитие региона.

Annotation. This article examines the socio-political, cultural, and economic development of the Tashkent oasis in ancient and medieval times. It emphasizes that the territory of Tashkent has been a center of urban culture since ancient times, where the population was engaged in agriculture, crafts, and trade. In the Middle Ages, the oasis became an important political center of the Central Asian region. Based on historical sources and archaeological findings, the article highlights the stages of the region’s development. It reflects military campaigns, the activities of local rulers, and the advancement of science. The significant role of the Tashkent oasis in

international caravan routes is also noted. The thesis analyzes the influence of historical events on the modern development of the region.

Toshkent vohasi Markaziy Osiyodagi qadimiy va tarixiy jihatdan muhim

bo‘lgan mintaqalardan biridir. Geografik jihatdan qulay joylashuvi, serunum yerlar, mo‘’tadil iqlim sharoiti va tabiiy resurslarga boyligi tufayli bu hudud qadimdan insoniyat uchun yashash va taraqqiyot manbai bo‘lib kelgan. Vohada joylashgan qadimiy aholi punktlari, sug‘orish inshootlari, arxeologik yodgorliklar va yozma manbalar ushbu hududning ming yillik tarixga ega ekanini tasdiqlaydi. Toshkent vohasi o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti bilan qadimdan Markaziy Osiyodagi yirik siyosiy markazlardan biriga aylangan.

Qadimgi davrlarda bu hudud ko‘plab ko‘chmanchi va dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi qabilalarning yashash joyi bo‘lgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, Toshkent vohasida miloddan avvalgi ming yilliklarda ilk madaniy markazlar vujudga kelgan. Sug‘diylar, saklar, massagetlar kabi qadimgi xalqlar ushbu hududda o‘z izlarini qoldirganlar. Miloddan avvalgi IV–III asrlarda Toshkent vohasi bo‘lgan Choch viloyati mustaqil iqtisodiy va siyosiy hayotga ega bo‘lgan markazlardan biri sifatida shakllangan. Aynan shu davrda vohada

hunarmandchilik, dehqonchilik va savdo-sotiq faoliyatining ilk shakllari rivojlana

boshlagan.

O‘rta asrlar davrida esa Toshkent vohasi tarixiy taraqqiyotning yangi bosqichiga kirdi. Bu davrda Choch nomi o‘rniga Shosh atamasi qo‘llanila boshlandi. Arab istilolari, keyinchalik esa turli turkiy sulolalarning hukmronligi ushbu hududning siyosiy, diniy va madaniy hayotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Islom dini kirib kelishi bilan birga Toshkent vohasida yangi ijtimoiy munosabatlar shakllandi, masjidlar, madrasalar qurildi, ilm-fan va adabiyot ravnaq topdi. Ayniqsa, IX–XII asrlarda Toshkent vohasi iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksak rivojlangan viloyatlardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Shuningdek, Toshkent vohasi Buyuk Ipak yo‘lining muhim tarmoqlaridan birida joylashganligi sababli xalqaro savdo va madaniy aloqalarda faol ishtirok etgan. Bu holat vohaning nafaqat iqtisodiy, balki geosiyosiy ahamiyatini ham oshirgan. Karvon yo‘llari orqali o‘tgan savdogarlar, olimlar, sayohatchilar orqali madaniyatlar almashinuvi sodir bo‘lgan, bu esa

Toshkent vohasining ko‘p qirrali va boy madaniyatini shakllanishiga zamin yaratgan. Shu boisdan, ushbu mintaqa

qadimdan boshlab o‘zining betakror tarixiy taraqqiyoti bilan ajralib turgan.

Mazkur tezisda Toshkent vohasining qadimgi va o‘rta asrlar davridagi rivojlanish bosqichlari, siyosiy va madaniy hayoti, arxeologik yodgorliklari hamda xalqaro aloqalardagi o‘rni tahlil qilinadi. Bu borada yozma manbalar, arxeologik topilmalar va zamonaviy tadqiqotlar asos qilib olinadi. Shuningdek, tarixiy davrlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va uzviylik asosida Toshkent vohasining Markaziy

Osiyo sivilizatsiyasi shakllanishidagi o‘rni yoritiladi.

Toshkent vohasi o‘zining qadimiyligi va tarixiy ahamiyati bilan Markaziy Osiyoning eng diqqatga sazovor hududlaridan biridir. Bu mintaqa qadimdan sug‘oriladigan dehqonchilik bilan shug‘ullaniladigan hudud sifatida tanilgan. Arxeologik topilmalar va yozma manbalar Toshkent vohasida ilk shahar madaniyati miloddan avvalgi ming yilliklarda shakllanganini ko‘rsatadi. Bu yerda topilgan sopol buyumlar, turli madaniy qatlamlar, ibodatxonalar va istehkomlar qadimiy aholining ancha taraqqiy etgan jamiyatga ega bo‘lganligini isbotlaydi. Ayniqsa, Kanka (hozirgi Toshkent yaqinidagi qadimiy shahar xarobalari) bu hududning ilk davrlaridan boshlab markaziy ahamiyatga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Miloddan avvalgi IV asrdan boshlab Toshkent vohasi Choch nomi bilan

tarixiy manbalarda tilga olinadi. Choch viloyati iqtisodiy jihatdan rivojlangan, o‘ziga xos ijtimoiy-siyosiy tuzilishga ega bo‘lgan hudud bo‘lgan. Bu yerda mustaqil mahalliy hukmdorlar hukmronlik qilgan bo‘lib, ular o‘zlariga xos siyosiy tizimga ega edilar. Choch aholisi hunarmandchilik, savdo va dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Ayniqsa, vohada ishlab chiqarilgan tangalar, sopol buyumlar va savdo munosabatlarini ifodalovchi topilmalar xalqaro aloqalarning mavjud bo‘lganligini tasdiqlaydi. Bu davrda Choch Xitoy, Hindiston, Eron va boshqa

davlatlar bilan savdo aloqalarini yo‘lga qo‘ygan edi.

Milodiy VIII asrda Arab xalifaligi tomonidan Markaziy Osiyo hududlariga qilingan istilolar natijasida Toshkent vohasi ham bosib olindi. Bu davrda islom dini hududga kirib kelib, asta-sekin asosiy e’tiqodga aylandi. Islom dinining kirib kelishi bilan Toshkent vohasida diniy-ma’rifiy hayot jadal rivojlandi. Masjid va madrasalar qurila boshladi, diniy ilmlar, fiqh, hadis va tafsir ilmlari

keng tarqaldi. Arab tilining kirib kelishi bilan birga yozma madaniyat rivoj topdi. Toshkent vohasi madaniy va ilmiy markazga aylana boshladi.

IX–XII asrlar Toshkent vohasi uchun yuksalish davri bo‘ldi. Bu davrda Shosh nomi bilan mashhur bo‘lgan Toshkent shahri yirik siyosiy va madaniy markazga aylangan edi. Hududda ilm-fan, adabiyot va san’at rivojlandi. Shu davrda yashab ijod qilgan mashhur mutafakkirlar, shoirlar va olimlar Toshkent vohasining ilmiy salohiyatini namoyon etgan. Masalan, Abu Bakr Shoshiy kabi allomalar diniy va ilmiy meros qoldirganlar. Hududda ko‘plab kutubxonalar, madrasa va diniy markazlar tashkil etildi. Bu davrda qurilgan arxitektura yodgorliklari (masalan, minoralar, gumbazli masjidlar) hanuzgacha o‘zining tarixiy ahamiyatini yo‘qotmagan.

Toshkent vohasi o‘rta asrlar davomida ko‘plab sulolalarning siyosiy nizolari maydoniga aylangan. Qoraxoniylar, saljuqiylar, qoraxitoylar, mo‘g‘ullar va temuriylar davrida Toshkent mintaqasi siyosiy jihatdan katta o‘zgarishlarga duch kelgan. Har bir sulola o‘ziga xos boshqaruv tizimi va madaniyatni olib kelgan. Ayniqsa, Temuriylar davrida Toshkent vohasi ilm-fan va madaniyatning muhim markaziga aylangan. Mirzo Ulug‘bek tomonidan ilmiy anjumanlar o‘tkazilgan, madrasa va rasadxona faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Toshkent vohasi bu davrda ham

savdo, ham ilm-fan markazi sifatida e’tirof etilgan.

XIV–XV asrlarda Toshkent vohasi xalqaro savdo yo‘llari, xususan Buyuk Ipak yo‘lining muhim qismlaridan biri sifatida o‘z mavqeini saqlab qoldi. Bu yo‘llar orqali Xitoydan kelgan ipak, Hindistondan kelgan ziravorlar va boshqa mahsulotlar O‘rta Osiyodan o‘tgan. Karvon yo‘llari atrofida yirik savdo shaharlari shakllangan. Toshkent vohasi bu savdo faoliyatining markazida turgan. Savdo bilan birga bu yo‘llar orqali madaniyatlar, tillar, dinlar va texnologiyalar almashinuvi ham bo‘lib turgan.

XV–XVI asrlarda Toshkent vohasi Shayboniylar davlatining tarkibiga kirdi. Bu davrda Toshkent yirik siyosiy markazga aylangan bo‘lib, mahalliy hokimlar tomonidan boshqarilgan. Toshkent xonlari siyosiy mustaqillikka intilgan va o‘zaro ichki nizolar bu hududda tez-tez yuz bergan. Shunga qaramay, bu davrda ham Toshkent vohasida iqtisodiy va madaniy taraqqiyot davom etdi. Dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo faoliyati avvalgidek rivojlanishda davom etdi. Bu holat vohaning strategik va iqtisodiy jihatdan naqadar muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Shuningdek, Toshkent vohasi tarixiy davrlarda tabiiy ofatlar, epidemiyalar va harbiy yurishlardan ham jabr ko‘rgan. Ayrim arxeologik

qatlamlar yong‘inlar, vayronagarchiliklar, kuchli silkinishlar izlarini o‘zida aks ettiradi. Bu holatlar mintaqada ijtimoiy hayotning murakkabligidan dalolat beradi. Shunga qaramay, Toshkent vohasi har safar o‘zini tiklay olgan va yangidan-yangi taraqqiyot

bosqichiga o‘ta olgan.

Toshkent vohasining qadimiy tarixini o‘rganishda arxeologik tadqiqotlar muhim o‘rin tutadi. Kanka, Aktepa, Minguruk, Shashtepa kabi joylarda olib borilgan qazishmalar bu hududda miloddan avvalgi davrlardayoq rivojlangan jamiyat mavjud bo‘lganini isbotlab berdi. Shu bilan birga, yozma manbalar, masalan, arab geograflari, fors tarixchilari va Xitoy sayohatchilarining asarlari Toshkent vohasi haqida muhim ma’lumotlarni beradi.

Shuningdek, Toshkent vohasida joylashgan yirik daryo va soylar – Chirchiq, Bo‘zsuv va Keles daryolari orqali sug‘orish inshootlari qurilgan va bu yerda serhosil dehqonchilik yuritilgan. Suv manbalariga yaqinlik vohaning iqtisodiy barqarorligini ta’minlab kelgan. Bu holat mintaqaning iqtisodiy hayotida muhim rol o‘ynagan va aholi zich yashashiga sabab bo‘lgan.

Toshkent vohasi ming yillar davomida Markaziy Osiyodagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot markazlaridan biri bo‘lib kelgan. Qadimdan bu hudud insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanishida muhim rol o‘ynagan, turli davrlarda bir necha marta yuksalish va tanazzul davrlarini boshdan kechirgan. Arxeologik va yozma manbalar Toshkent vohasining ilk davrlardanoq aholi zich yashagan, dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq keng rivojlangan mintaqa bo‘lganligini tasdiqlaydi. Qanqa, Shjshtepa, Mingo‘rik kabi arxeologik yodgorliklar vohada ilk shahar hayotining mavjud bo‘lganidan dalolat beradi.

Choch va Shosh nomlari bilan tarixda mashhur bo‘lgan Toshkent vohasi

o‘zining siyosiy mustaqilligi, iqtisodiy salohiyati va strategik geografik joylashuvi bilan ajralib turgan. Hududda o‘ziga xos siyosiy tizimlar shakllangan, tangalar zarb etilgan, xalqaro savdo aloqalari yo‘lga qo‘yilgan. Bu esa vohaning nafaqat ichki, balki tashqi aloqalarda ham faol ishtirok etganini ko‘rsatadi. Arab istilolari davridan boshlab esa Toshkent vohasi yangi ijtimoiy-siyosiy tizimga o‘ta boshlagan, islom dini tarqalgan va bu bilan birga diniy-ma’rifiy taraqqiyot boshlangan.

O‘rta asrlar davomida Toshkent vohasi ko‘plab sulolalar va davlatlarning siyosiy e’tibor markazida bo‘lgan. Bu yerda Qoraxoniylar, Mo‘g‘ullar, Temuriylar, Shayboniylar kabi yirik sulolalar hukmronlik qilgan, har biri mintaqaning siyosiy hayotiga o‘ziga xos iz qoldirgan. Ayniqsa, Temuriylar davrida Toshkent vohasi ilmfan va madaniyat markazlaridan biriga aylangan,

bu yerda madrasalar, kutubxonalar va ilmiy markazlar faoliyat yuritgan. Shu sababli Toshkent faqat siyosiy markaz emas, balki ilm-ma'rifat o'chog'i sifatida ham tarix sahifalaridan

munosib o'rin olgan.

Toshkent vohasining tarixiy rivojlanishi Buyuk Ipak yo'li bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Bu savdo yo'li orqali voha ko'plab xalqlar, madaniyatlar va dinlarning kesishgan nuqtasiga aylangan. Natijada bu yerda o'ziga xos ko'p madaniyatli jamiyat shakllangan bo'lib, bu holat vohaning madaniy rangbarangligini va bag'rikeng muhitini shakllantirgan. Xalqaro savdo va madaniy aloqalar vohaning iqtisodiy yuksalishiga, hunarmandchilik va bozor iqtisodiyotining rivojiga katta hissa qo'shgan.

Shuningdek, Toshkent vohasi iqlimiy va geografik sharoiti bilan ham ajralib turgan. Sug'oriladigan yerlar, daryo va soylar tarmog'i, unumdor yerlar bu hududda aholi sonining ortishi va qishloq xo'jaligining rivojlanishiga imkon yaratgan. Aholining zichligi, turli etnik guruhlar va qabila vakillarining bu yerda yashashi

vohaning ijtimoiy tarkibini murakkablashtirgan bo'lsa-da, bu integratsiyaga zamin yaratgan.

Umuman olganda, qadimgi va o'rta asrlarda Toshkent vohasi nafaqat Markaziy Osiyoning, balki butun musulmon sharqining muhim tarixiy-madaniy markazlaridan biri bo'lib xizmat qilgan. Bugungi kunda ham bu hudud o'zining boy tarixiy merosi, arxeologik obidalari va ko'p asrlik sivilizatsiyaviy tajribasi bilan o'rganishga va qadrlashga loyiqdir. Toshkent vohasining tarixiy taraqqiyot yo'li –bu nafaqat o'zbek xalqi, balki butun insoniyat madaniyatining muhim qismidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hasanov M. Toshkent tarixi. – Toshkent: "Fan", 2003.
2. Bobojonov Sh. Qadimgi O'rta Osiyo shaharlari. – Toshkent: "O'zbekiston",
1998.
3. Sagdullaev A. Arxeologiya va qadimgi tarix. – Toshkent: "Sharq", 2001.
4. Niyozmetov Q. O'rta asrlarda Toshkent. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2007.
5. Karimov A. Toshkent vohasi ijtimoiy-siyosiy hayoti. – Samarqand: 2002.

QADIMIY SHOSHTEPA

Nurmuhammedova Nozima Nodir qizi
Namangan davlat pedagogika instituti
1-bosqich magistri.
Tel nomer:+998 947018201

Annotatsiya: Shoshtepa arxeologik yodgorligi, o'zining qadimiy madaniy qatlamlari va topilgan eksponatlari bilan Toshkentning tarixiy rivojlanishini o'rganish uchun muhim manba hisoblanadi. Bu yodgorlikda olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida topilgan ashyolar, Shoshtepa hududining qadimdan madaniy va savdo markazi sifatida rivojlanganligini ko'rsatadi. Shuningdek, konservatsiya va restavratsiya ishlari, yodgorlikni kelajak avlodlar uchun saqlab qolish va uning tarixiy ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada Shoshtepa haqida umumiy malumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Shoshtepa, N.P. Ostroumov, G.V. Grigoryev, N.I. Krasheninnikova, F.Dadaboyev, Jo'n kanali.

Shoshtepa — O'zbekistonning qadimiy tarixini o'rganishda muhim o'rin tutadigan arxeologik yodgorliklardan biridir. U Toshkent shahrining Sergeli tumanida, Jo'n kanali bo'yida joylashgan bo'lib, miloddan avvalgi IX-XVI asrlarga oid qadimiy shahar xarobalarini o'z ichiga oladi. Shoshtepa hududida olib borilgan arxeologik qazishmalar Toshkentning 2200 yoshini belgilashga imkon beradigan topilmalarni keltirib chiqardi.

Shoshtepa ikki asosiy tepalikdan iborat bo'lib, ulardan biri tik va baland, ikkinchisi esa yassiroq shaklga ega. Umumiy maydoni taxminan 25 gektarni tashkil etadi. Dastlabki arxeologik kuzatishlar 1896-yilda N.P. Ostroumov tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, keyinchalik G.V. Grigoryev (1934), N.I. Krasheninnikova (1956), F.Dadaboyev (1970) kabi olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. 1978-yildan boshlab Toshkent arxeologiya ekspeditsiyasi tomonidan muntazam arxeologik qazishmalar o'tkazilgan.

Shoshtepaning dastlabki davri miloddan avvalgi IX–VI-asrlarga to'g'ri keladi. Bu davrda hududda Burganli madaniyati asosida o'troq dehqonchilik rivojlangan. Qishloq xo'jaligi va chorvachilik bilan shug'ullangan aholi o'zining mehnat faoliyati orqali hududda ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlagan.

Milodiy I–II-asrlarda Shoshtepa ilk shaharcha qiyofasiga kirib, Sirdaryoning o'rta oqimida joylashgan Qang' davlatining dasht bilan Toshkent vohasiga tutashib ketgan chegarasidagi istehkom, hunarmandchilik markazi, ko'chmanchi chorvador aholi bilan o'troq dehqonlar o'rtasida olib boriladigan o'zaro savdo bozori vazifasini o'tagan.

V-asr o'rtalarida chorvador eftaliylarning janubga tomon siljishi oqibatida Shoshtepada qadimdan butparastlik ibodatxonasi bo'lgan xoch shaklidagi markaziy bino qabristonga aylantirilgan. VI–VIII-asrlar boshlarida Shoshtepada hayot yana ancha yuksalgan.

Arab xalifaligi istilosi natijasida Shoshtepa vayron bo'lgan. XI–XII-asrlarda undagi hayot birmuncha jonlansada, ammo XVI-asrda Shoshtepa deyarli xarobaga aylangan.

Shoshtepa hududida olib borilgan qazishmalar natijasida bir qancha arxeologik topilmalar aniqlangan. Bu topilmalar orasida qadimiy kulolchilik buyumlari, zargarlik asarlari, qurol-yarog'lar va kundalik hayotda ishlatilgan turli buyumlar mavjud. Shuningdek, Shoshtepadan topilgan xoch shaklidagi markaziy bino, ehtimol, Zardushtiylik diniy ibodatxonasining qoldiqlari bo'lishi mumkin.

Shoshtepa arxeologik yodgorligi 2019-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan davlat muhofazasiga olingan. Shundan so'ng, yodgorlikni saqlab qolish va konservatsiya qilish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Masalan, 2021-yilda Madaniy meros agentligi tomonidan konservatsiya ishlari boshlanishi e'lon qilingan. Bundan tashqari, Shoshtepa hududida turizmni rivojlantirish maqsadida rekonstruksiya va restavratsiya ishlari olib borilmoqda.

Shoshtepa O'zbekistonning qadimiy tarixini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Bu yodgorlik orqali hududda yashagan qadimiy aholi turmush tarzi, madaniyati, diniy e'tiqodlari va iqtisodiy faoliyatlari haqida qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Shuningdek, Shoshtepa arxeologik yodgorligi Toshkent shahrining 2200 yillik tarixini tasdiqlovchi muhim dalil bo'lib xizmat qiladi.

Shoshtepadagi eng qadimgi madaniy qatlamlar Burgulyuk madaniyatiga tegishli bo'lib, bu madaniyatga oid ashyolar, asbob-uskunalar, pichoq, nayza uchlari, keramika buyumlar va boshqa turli predmetlar topilgan. Bu topilmalar, Shoshtepa hududining qadimgi dehqonchilik madaniyati markazi bo'lganligini ko'rsatadi

Milodiy X–XII asrlarga oid bo'lgan Shoshtepa keramika buyumlari orasida hayvon tasvirlari va epigrafik naqshlar bilan bezatilgan idishlar mavjud. Bu topilmalar, Shoshtepa hududining o'rta asrlarda ham madaniy va savdo markazi sifatida rivojlanganligini ko'rsatadi.

N.P. Ostroumov 1896-yilda Shoshtepa hududida birinchi marta tizimli arxeologik qazishmalarni boshlagan. U, Shoshtepaning qadimiy yodgorliklarini o'rganib, bu yerda mavjud bo'lgan madaniy qatlamlar va tarixiy materiallarni kashf etdi.

Bu qazishmalar natijasida Shoshtepa hududining qadimiy dehqonchilik va hunarmandchilik bilan bog'liq faoliyatlari haqida muhim ma'lumotlar topilgan.

Ostroumov, Shoshtepadan topilgan keramika buyumlari, idishlar, qurol-aslahalar va boshqa turli predmetlar haqida batafsil tahlil olib borgan. Ularning ko'pchiligi, Shoshtepa hududining miloddan avvalgi va milodiy asrlar davomida madaniyat va savdo markazi sifatida faoliyat yuritganligini ko'rsatadi.

Ostroumov, bu topilmalarni tahlil qilib, Shoshtepaning iqtisodiy va madaniy aloqalar o'rnatgan hudud sifatida o'zining ahamiyatini ko'rsatgan.

N.P. Ostroumov, Shoshtepa hududining tarixiy roli haqida muhim xulosalarga kelgan. U, Shoshtepaning o'rta asrlar va undan oldingi davrlarda yirik savdo va madaniyat markazi bo'lib, uning strategik joylashuvi tufayli ko'plab boshqa mintaqalarga ta'sir ko'rsatganini ta'kidladi[85].

Shuningdek, Ostroumov Shoshtepaning boshqa qadimiy shaharlar bilan madaniy va iqtisodiy aloqalarini o'rganib, uning o'z davrida mintaqaviy va xalqaro savdo yo'llaridagi muhim o'rinini aniqladi.

N.P. Ostroumovning 1896-yildagi tadqiqotlari, Shoshtepa haqidagi ilk tizimli ilmiy ishlar bo'lib, bu asar keyingi arxeologik va tarixiy tadqiqotlar uchun asos yaratgan. Ostroumovning ishlari Shoshtepa hududining qadimiy tarixini, madaniyatini va iqtisodiy ahamiyatini tushunishda katta hissa qo'shgan.

G.V. Grigoryev 1934-yil Shoshtepa hududini qazishgan va bu yerdan topilgan arxeologik materiallarni tasniflagan. U, asosan, miloddan avvalgi VI-asrga oid ko'plab ashyolarni topgan.

Shoshtepadagi qazishmalar natijasida, har xil turdagi keramika buyumlari, asbob-uskunalar, zamonaviy ko'rinishda bo'lgan hayvon tasvirlari va boshqa tarixiy predmetlar topilgan.

[85] Vishnyakov, M. Shoshtepa: Yodgorlikning Arxeologik Tadqiqotlari. Moskva: Akademiya. 2001.

Grigoryevning tadqiqotlari Shoshtepa hududining qadimdan rivojlangan madaniy markaz bo'lganligini ko'rsatadi. U, bu yerda ishlab chiqarish va savdo faoliyati mavjud bo'lganligini isbotladi.

Bu asar, Shoshtepa hududining o'rta asrlar va keyingi davrlar davomida ham ahamiyatini saqlab qolganini ko'rsatadi.

Shoshtepadan topilgan arxeologik materiallar (keramika, qurol-aslahalar, idishlar, uy-ro'zg'or buyumlari) G.V. Grigoryev tomonidan tahlil qilingan va ular Shoshtepaning tarixiy ahamiyatini yanada oshirgan. Grigoryev, Shoshtepa hududining qadimiy savdo va madaniyat markazi sifatida rivojlanganini ta'kidlagan.

Grigoryevning 1934-yildagi tadqiqotlari Shoshtepa haqidagi dastlabki asosiy ilmiy ishlardan biri bo'lib, bu asar, hozirgi kunda ham arxeologik va tarixiy tadqiqotlar uchun muhim manba hisoblanadi.

Krasheninnikova Shoshtepadagi qazishmalarni davom ettirgan va 1950-yillarning boshlarida bu hududda ko'plab qadimiy qatlamlar va madaniy materiallarni aniqlagan.

U, miloddan avvalgi V–IV-asrlarga oid yodgorliklarni va qadimiy uy-joylarni qazib chiqargan. Bu materiallar, Shoshtepa hududining uzoq tarixga ega ekanligini isbotladi.

Krasheninnikova tomonidan topilgan ashyolar orasida keramika buyumlar, qurol-aslahalar, dehqonchilik asboblari va boshqa turli xil predmetlar mavjud edi. Ularning ko'pchiligi Shoshtepaning qadimiy dehqonchilik va savdo markazi sifatidagi rolini ko'rsatadi.

Krasheninnikova topgan buyumlar orasida bir qator idishlar, silindrsimon idishlar va hayvon tasvirlari bilan bezatilgan keramika buyumlar mavjud bo'lib, ular Shoshtepaning madaniyati va iqtisodiy faoliyatini tasvirlaydi.

Krasheninnikova, Shoshtepa hududining madaniy merosini chuqur tahlil qilib, bu yerdagi arxeologik qatlamlarning juda qadimiyligini ta'kidlagan. Uning fikriga ko'ra, Shoshtepa o'z vaqtida yirik madaniy markaz bo'lib, uning hududida dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo faoliyati rivojlangan.

Asarda, Shoshtepaning boshqa qadimiy shaharlar bilan madaniy aloqalari haqida ham so'z boradi. Bu aloqalar orqali Shoshtepa hududi boshqa mintaqalar bilan ham savdo va madaniyat almashishining markazi bo'lgan.

Krasheninnikova (1956) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar Shoshtepa haqida muhim ma'lumotlarni taqdim etgan va bu arxeologik yodgorlikni ilmiy jamoatchilikka tanitishda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Uning ishlarida

Shoshtepaning qadimiy tarixi, madaniyati va iqtisodiy hayoti haqida yangi dalillar keltirilgan, bu esa keyingi tadqiqotlar uchun mustahkam asos bo'lgan.

F. Dadaboyev, Shoshtepa hududida qazishmalarni davom ettirib, ko'plab arxeologik materiallar va tarixiy ashyolarni topgan. Tadqiqotlar davomida topilgan qatlamlar, hududning qadimiy tarixini, madaniyatini va iqtisodiy faoliyatini ko'rsatgan.

Uning qazishmalari natijasida Shoshtepa hududining qadimiy dehqonchilik va hunarmandchilik bilan bog'liq faoliyatlari haqida yangi ma'lumotlar olingan.

F. Dadaboyev, Shoshtepadan topilgan keramika buyumlari, qurol-aslahalar, hayvon tasvirlari bilan bezatilgan idishlar, yirik dehqonchilik asboblari va boshqa madaniy artefaktlar haqida batafsil tahlil olib borgan.

Bu materiallar, Shoshtepaning nafaqat o'z davrida madaniyat markazi, balki savdo va iqtisodiy aloqalar uchun muhim bo'lgan hudud ekanligini ko'rsatadi.

Dadaboyev o'z asarida Shoshtepa hududining tarixiy ahamiyatini ta'kidlagan. U Shoshtepaning o'rta asrlarda savdo va madaniyat markazi sifatida rivojlanib, boshqa mintaqalar bilan aloqalarni kuchaytirganini ko'rsatgan.

Tadqiqotlar Shoshtepaning miloddan avvalgi va milodiy asrlar davomida madaniy, iqtisodiy va siyosiy markaz sifatida rivojlanib, bir nechta madaniyatlarni birlashtirganini isbotlaydi.

F. Dadaboyevning 1970-yildagi tadqiqotlari Shoshtepa arxeologiyasiga katta hissa qo'shgan. Uning ishlari, Shoshtepa hududining qadimiy tarixini, madaniyatini va iqtisodiy rivojlanishini yanada chuqurroq o'rganishga imkon yaratdi. Bu asar, Shoshtepaning o'rta asrlarda va undan oldingi davrlarda qanday madaniy va savdo markazi sifatida faoliyat yuritganini ko'rsatadi[86].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Shoshtepa arxeologik yodgorligi O'zbekistonning qadimiy tarixini o'rganishda muhim o'rin tutadi. Hududda olib borilgan arxeologik qazishmalar orqali Shoshtepaning ilmiy va madaniy ahamiyati yanada oshmoqda. Shu bilan birgalikda Toshkent shahrining 2200 yillik tarixini tasdiqlovchi muhim dalil bo'lib xizmat qiladi.

[86]Ahrarov, Sh. Shoshtepa: Arxeologik Tadqiqotlar. Toshkent: Fan. 1987.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahrarov, Sh. Shoshtepa: Arxeologik Tadqiqotlar. Toshkent: Fan. 1987.
2. Ergashev, A. Shoshtepa va uning Atrofidagi Yodgorliklar. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti. 1990.
3. Rakhmatullaev, S.. Shoshtepa: Qadimgi O'zbekiston Tarixi va Madaniyati. Toshkent: Sharq. 1998
4. Vishnyakov, M. Shoshtepa: Yodgorlikning Arxeologik Tadqiqotlari. Moskva: Akademiya. 2001.
5. Hasanov, M.. Shoshtepa va uning Ijtimoiy Ahamiyati. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti. 2010.
6. Turayeva, N.. Shoshtepa Yodgorligi: Qadimiy O'zbekiston Madaniyati Va Tarixi. Toshkent: Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti. 2015.

CHIRCHIQ SHAHRI TARIXI, BUGUNI VA ISTIQBOLLARI

Omonboyeva Sevinch Shokirjon qizi
ChDPU talabasi O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
1-bosqich talabasi
sevinchomonboyeva95@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Toshkent viloyatida joylashgan Chirchiq shahrining shakllanish tarixi, hozirgi kundagi ijtimoiy-iqtisodiy holati va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari yoritilgan.

Kalit so’zlar. Chirchiq shahri, Chirchiq tarixi, Chirchiq buguni va iqboli, Chirchiq iqtisodiyoti, Chirchiq aholisi, Chirchiq ta’limi, Chirchiq infratuzilmasi, Chirchiqning tashkil topishi, Sovet davrida Chirchiq, Chirchiqda transport tuzimi, Chirchiqning iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, Chirchiqda yangi loyihalar, Chirchiqda turizm imkoniyatlari, Chirchiq ekologik holati va rivojlanishi.

Bugungi kunda Chirchiqning sanoat, ta’lim va infratuzilma sohalaridagi yutuqlari, aholining turmush darajasi va ekologik holati tahlil qilinadi. Shuningdek, shaharning kelajakdagi rivojlanish yo‘nalishlari, investitsion

loyihalar, turizm salohiyati va barqaror taraqqiyot imkoniyatlari haqida fikr yuritiladi. Maqola Chirchiq shahrining hududiy rivojlanishdagi o‘rni va ahamiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Toshkent viloyati Chirchiq shahri 1932-yilda daryo bo‘yidagi Qirg‘izquloq, Qipchoq, Niyozbek qishloqlari o‘rnida yirik elektrkimyo qurilishi munosabati bilan vujudga kelgan. Yangi sanoat korxonalari qurilishi bilan aholi soni ham tez o‘sdi 1939-yil— 15 ming kishini, 1959-yil— 65 ming kishini, 1970-yil— 107,4 ming kishini tashkil qildi. 30— 40-yillarda Industrial texnikumi binosi, 50-yillarda elektrkimyo korxonasining Madaniyat saroyi va boshqa jamoat binolari qurildi. 1966—67 yillardan ko‘p qavatli yirik panelli binolar qad ko‘tardi. Ikkinchi jahon urushida halok bo‘lgan chirchiqliklar xotirasiga o‘rnatilgan yodgorlik, madaniyat va istirohat bog‘lari, xiyobonlar, maktablar, poliklinika, kasalxona va boshqa binolar bunyod etildi. Shahar yonida aholining dam olish joylari mavjud. Shaharda 26 ta qo‘shma korxona 850 dan ziyod kichik korxona faoliyat ko‘rsatadi. Qurilish materiallari, temirbeton konstruksiyalari ishlab chiqariladi. G‘isht, asfaltbeton zavodlari, go‘sht, non ktlari, poyabzal va tikuvchilik fabrikalari mavjud. Chirchiq aholisi 170 000 ming odam atrofida sanaladi. Chirchiq ko‘p millatlarni o‘z bag‘riga sig‘dirgan shahar. Chirchiqda o’zbek, rus, tojik, tatar, qoraqalpoq, qirg’iz, kareys va boshqa millat vakillari yashab kelmoqda.So’ngi yillarda yangi turar joylar qurilib shahar infrastrukturasi rivojlanmoqda. Aholisi asosan o‘zbek, rus va qozoq tillarida gaplashishadi. Chirchiq oliy tank komandirmuhandislik bilim yurti, 25 umumiy ta’lim maktabi, 7 o‘rta maxsus bilim yurti, 12 kutubxona, 3 madaniyat muassasasi, muzey, madaniyat va istirohat bog‘i bor. Kasalxona, poliklinika, dorixona va boshqa tibbiy muassasalar o’z faoliyatini olib boryabdi. 2017-yili Chirchiqda yangi Pedagogika Insituti ochildi. 2022-yili Chirchiq Davlat Pedagogika universiteti bo’ldi. Hozirgi kunda ta’lim yo’lida o’z faoliyatini samarali olib bormoqda.

Chirchiq shahri o‘zining boy tarixi, rivojlangan sanoati, ta’lim va madaniyat sohalaridagi yutuqlari bilan Toshkent viloyatining muhim shaharlaridan biridir. Shahar istiqboli sanoat va infratuzilma rivojlanishi, ta’lim va madaniyat sohalarida yuksalish, shuningdek, turizm sohasida o‘sish bilan bog‘liq. Chirchiqning tarixiy va madaniy merosi, zamonaviy rivojlanish jarayonlari shaharning istiqbolli rivojlanishiga asos bo‘ladi. Chirchiqda ta’lim rivojlanishi kuchli. Hozirda Chirchiq Davlat Pedogogika universitetida professor domlalar ishlab talabalarga bilim berib kelishmoqda. Chirchiq tog’li hudud bo’lgani uchun havosi sof va musaffo.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimova, Z. M. (2012). O‘zbekiston shaharlarining urbanizatsiyasi: tarix va rivojlanish bosqichlari. Toshkent: Fan nashriyoti.

2. Chustiyev, N. (2008). Chirchiq shahri tarixi va rivojlanish bosqichlari. Toshkent: “Sharq”.

3. Tursunov, A. (2018). Chirchiq sanoat markazi sifatida: tarix va hozirgi holat. “Ijtimoiy fanlar” jurnali, №3, 45–53-betlar.

4. Chirchiq shahar hokimligi rasmiy veb-sayti – www.chirchiq.uz (http://www.chirchiq.uz/) (murojaat qilingan sana: 2025-yil 10-may).

5. Toshkent viloyati investitsiya dasturi (2024). Chirchiq shahrining iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish strategiyasi. Toshkent: Investitsiya qo‘mitasi.

O‘ZBEKISTON TARIXINING DOLZARB MASALALARI

Oripova Shahnoza

CHDPU talabasi

Annotatsiya Ushbu maqolada O‘zbekiston tarixining dolzarb masalasida biri bo‘lgan davrlashtirish haqida so‘z boradi. Bunda Turli olimlarning davrlashtirish bo‘yicha qarashlari va fikrlari. O‘zbekiston va jahonning davrlashtirishdagi jihatlari haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: O‘rta Osiyo, formatsion davrlashtirish, K. Maks, ibtidoiy to‘da, Homo sapiens.

O‘rta Osiyo mintaqasi jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi bo‘lib, insoniyat qadimgi tarixi va madaniyati o‘chog‘laridan biri hisoblanadi. Uzoq yillar mobaynida olib borilgan tadqiqotlar natijasida mintaqaning turli viloyatlarida bir umumiy, bir-biriga o‘xshash, ko‘p hollarda bir-birini takrorlaydigan madaniyatga oid yodgorliklar topib o‘rganilgan va ilmiy doiraga tatbiq etildi.Ma’lumki, nafaqat O‘zbekiston, balki butun insoniyat tarixi uzoq va murakkab jarayon bo‘lib, tarixiy-madaniy voqealarga nihoyatda boy hisoblanadi. So‘nggi yillarda O‘rta Osiyoning turli hududlarida arxeologiya, antropologiya, etnografiya va numizmatikaga oid ko‘plab tadqiqotlar olib borildi hamda tariximizni xolisona yoritish uchun xizmat qiladigan muhim ma’lumotlar to‘plandi. Ushbu ma’lumotlar va ashyolar o‘lka

tarixining qadimgi bosqichlaridagi iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy-siyosiy jarayonlari haqida yanada to‘laroq tasavvurlar hosil qilish imkonini berib, ular eng qadimgi xo‘jaliklar va mehnat qurollari, zamonaviy qiyofadagi odamning paydo bo‘lishi, xo‘jalikning ishlab chiqaruvchi shakllariga o‘tilishi, ishlab chiqarishda metalning ishlatila boshlanishi, ayirboshlash va savdo-sotiq, ilk shaharlar va davlatlarning tashkil topishi kabi ko‘plab tarixiy-madaniy jarayonlariga bog‘liq ravishda bo‘ladi. Tarixni davrlashtirishda ushbu jarayonlarga asosiy e’tibor qaratish muhim hisoblanadi.

Davrlashtirish – materiallarni tahlil qilish va tartibga solishning samarali usullaridan biri hisoblanadi. Tarixni davrlashtirish esa tarixiy jarayonlarni shartli ravishda ma'lum bir xronologik davrlarga ajratishning o'ziga xos uslubidir. Bu davrlar o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Xususan, davrlashtirish uchun mezon sifatida jamiyatdagi tub o'zgarishlar qabul qilingan. Tarixni davrlashtirish tarixiy jarayonlarni yaxshiroq anglashimiz uchun zarur. Shuningdek, davrlashtirish yordamida ko'hna tarixning ko'plab jumboqlariga yechim topish imkoni bo'ladi. Shu sababli ham davrlashtirish tarixni o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Ta'lim muassasalarida O'zbekiston tarixi fanini O'zbekiston tarixini davrlashtirishsiz o'tish bu o'quvchi va talabalarni tarix deb ataluvchi ulkan ummonga kompasi bo'lmagan kemaga chiqarib yuborishdek gap. Shuning uchun O'zbekiston tarixini davrlashtirish mavzusi O'zbekiston tarixi fanining 1-mavzusi bo'lishi lozim.

Tarixni davrlashtirishning bir necha turlari mavjud. Ular ichida nisbatan kengroq qo’llaniladiganlari bular: formasion, sivilizasion va Klassik davrlashtirishlar xisoblanadi [1].

Formasion davrlashtirish K. Marks va uning sovet davridagi izdoshlari tomonidan ilgari surilgan g‘oya bo'lib, uning asosida mulkchilikning shaklidan kelib chiqib, sinfiylik nuqtai nazaridan yondoshish yotgan. Unga ko'ra, tarix 5 ta formasiyaga:

1. Ibtidoiy davr

2. Quldorlik davri

3. Feodalizm

4. Kapitalizm

5.Sosializm bo'lingan edi [2].

Ammo barcha xalqlar tarixini sinfiylikga asoslangan formasion davrlashtirish asosida bosqichlarga ajratish mantiqan to'g'ri kelmaydi. Sosialistik tuzumning yemirilishi bu davrlashtirishning noto'g'ri bo'lganligini isbotladi.

Sivilizasion davrlashtirish g'oyasi A. Toynbining 12 tomlik “Tarixni anglash” deb nomlangan asarlarida bayon qilingan [3]. A. Toynbi ushbu yozgan asarlarida 30ga yaqin sivilizasiyalarni ajratadi. Uning fikriga koʻra, sivilizasiyalar tashqi omillar ta'sirida paydo bo'ladi. Muallif aytishiga qaraganda, har bir sivilizasiya paydo bo'lish, rivojlanish, sinish va parchalanish bosqichlarini boshdan kechiradi. Biroq turli sivilizasiyalarning paydo bo'lishi va inqirozga yuz tutishi turli sabablar bilan sodir bo'ladi. Aynan shu sababli ham ushbu davrlashtirishni ham barcha xududlar uchun qo'llash toʻgʻri emas.

Bugungi kunda tarixchilar orasida insoniyat tarixini an'anaviy (klassik) ravishda qadimgi dunyo, o'rta asrlar, yangi davr va eng yangi davrga ajratishni maqsadga muvofiq sanaydiganlar ham koʻp. Mustaqillikka erishganimizdan soʻng tariximiz borasida xolis fikr bildirish imkoniyatiga ega bo'ldik. Jumladan, O'zbekiston tarixini davrlashtirish borasida ham ma'lum bir fikrlar bildirilmoqda. Jumladan, akademik A. Asqarovning O'zbekiston tarixini davrlashtirish borasidagi qarashlari xalq ta'limi vazirligi tomonidan umumta'lim maktablari o'qituvchilariga foydalanish uchun tavsiya etilgan. Akademik olimimiz tomonidan O'zbekiston tarixini 7 ta davrga ajratgan. Bular:

1.Ibtidoiy to'da davri (mil. avv. I million – 40 ming yilliklar)

2.Ibtidoiy urug'chilik jamoasi va mulk egaligining shakllanish davri

(bundan 40 ming yil avval to milodiy III-IV asrlargacha)

3.Ilk o'rta asrlar davri (milodiy V asrdan to VIII asr oxiriga qadar)

4.O'rta asrlar davri (IX - XIX asr o'rtalarigacha).

5.Mustamlakachilik va milliy uyg'onish davri (Rossiya imperiyasi bosqinidan to 1917 yil Oktyabri to'ntarishiga qadar)

6.Sovetlar hokimiyati davri(1917-1991 yy.)

7.Milliy istiqlol, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish davri (1991 yildan keyingi davr)

Ahmadali Asqarov ilk davrni Ibtidoiy to'da davri deb atagan. Bu davr insoniyat paydo bo'lgandan to hozirgi zamon insonlariga o'xshash insonlar – (Homo sapines)lar paydo bo'lgan davr(so'nggi paleolit)ga qadar bo'lgan davrni oʻz ichiga olgan. Bu nazarimizda juda dadil qarash va bugungi xorij olimlarining qarashlarini inobatga oladigan bo'lsak, ham to'g'ri. AQShdagi Kaliforniya universitetining professori Allan Uilison 1992 yil "Science" jurnalida bosilgan maqolasida insonlar taxminan 200 ming yillar oldin Sharqiy-Afrikada bir ona (Eva)dan tarqalganligi borasida oʻz fikrlarini bildiradi. Olim fikricha, ulardan oldin yashagan neandertali odamlar hozirgi zamon odamlarining ajdodlari emas deya yozib oʻtgan. "Homo sapiens" "Homo happiness" lar taxminan 30-50 ming yil birga aralashmasdan yashaganlar. Buning asosiy sababi esa neandertali odamda hayvoniylik xususiyati ustun bo'lgan, shu sababli ular bilan aralashish (metisasiya) mumkin bo'lmagan. To'g'ri fanda bu fikrga qarshi chiquvchilar ham ko'p, ular fikricha "Homo sapiens" tipidagi insonlar "Homo happiness" tipidagi insonlarning vorislari hisoblanadi. Nima bo'lganda ham so'nggi paleolit davri odamlari – (Homo sapines)dagina hozirgi insonlarga xos bo'lgan taffakur, til,koʻrinish paydo bo'ladi. Shuningdek, uy-joy qurishni o'zlashtiradilar. Eng muhimi ular oila-oila bo'lib yashay boshlaydilar. Shubhasiz bu muhim o'zgarishlar va bu o'zgarishlar ularni ibtidoiy to'da davridan keskin ajratib turadi. So'nggi yillarda mutaxassislar tomonidan so'nggi paleolitning boshlanish davri bir muncha qadimiylashtirilayotganligini ham unitmaslik zarur. Shunday qilib, A. Asqarovning O'zbekiston tarixining 2-davrini so'nggi paleolitdan boshlaganligi to'g'ri. Biroq olimning ushbu davrni to milodiy III-IV asrlargacha bo'lgan davr bilan chegaralashlari e'tirozga sabab bo'ladi. Chunki, bizning nazarimizda, O'rta Osiyoda ilk shaharlar, davlatlar va yozuv paydo bo'lgan davrni - bronza davrini alohida davrga ajratish maqsadga muvofiqbo'lardi. Zero bu qadim ajdodlarimizning sivilizasiya bosqichiga qadam qo'yganliklarining belgisidir. Shundan kelib chiqib, O'zbekison tarixini davrlashtirishning 2 - davrini – "Eng qadimgi davr" deb nomlashni va uning xronologik davrini mil.av. 40(50) ming yillikdan to mil. av. II-ming yillik o'rtalarigacha ya'ni O'zbekiston xududida ilk shahar va davlatlar paydo bo'lgungacha bo'lgan davr bilan cheklashni taklif etamiz. Undan keyingi davrni - mil.av. II- ming yillik o'rtalaridan to milodiy III-IV asrlarni esa "Qadimgi davr" deb nomlashni taklif etamiz. Shubhasiz, milodiy 4-5 asrlar bu

yangi davr, chunki bu davrda yangicha ishlab chiqarish munosabatlari o'rnatiladi. Yerga, ishlab chiqarish vositalariga egalik qilish uzil-kesil xususiylashadi. Bu shubhasiz yangi davrning boshlanishi. Biroq o'rta asrlarni ikki davrga: ilk o'rta asrlar va o'rta asrlarga ajratish ham nazarimizda biroz ma'qul emasdek. Zero, ilk o'rta asr bo'lgach, tabiiyki so'nggi o'rta asr ham bo'ladi. Shu sababli, o'rta asrlarni uchga ajratishni taklif etamiz. Ilk o'rta asrlar (milodiy V asrdan to VIII asr oxiriga qadar); rivojlangan o'rta asrlar (IX – XV-asrlar) va so'nggi o'rta asrlar (XVI-XIX-asr o'rtalarigacha) [4].

O'rta Osiyoning Rossiyasi imperiyasi tomonidan bosib olinganidan to mustaqillikka erishganimizgacha bo'lgan davrini “Yangi tarix” deb, uni ikki bosqichga ajratishni taklif etamiz. Bular, Birinchi bosqich –Rossiyasi imperiyasi bosqini davri XIX-asr o'rtalaridan to 1917 yilgacha) va sovetlar xukmronligi davri 1917 yildan to 1991 yilgacha bo'lgan davr. Va nihoyat, 1991 yildan boshlangan davrni “Eng yangi tarix” deb nomlashni va uni ikki bosqichga: 1. “Milliy tiklanish” (1991-2016) va “Milliy yuksalish” (2017 yildan) bosqichlariga ajratiladi. A. Asqarovning “O'zbekiston tarixi jahon tarixining tarkibiy qismidir. Bu zaminda yuz bergan tarixiy jarayonlarni jahon tarixidan ajratib o'rganish mumkin emas” degan so'zlari ayni haqiqat. Shu sababli ham O'zbekiston tarixini davrlashtirishda jahon tarixini davrlashtirishda keng qo'laniladigan terminlardan foydalanishni maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosa oʻrnida aytish lozimki, taklif etilayotgan ushbu davrlashtirish bu mavzuni toʻla yakunlamaydi. Tarix fanini oʻqitish borasida dolzarb boʻlib turgan davrlashtirish masalalari hali jiddiy bahs-munozaralarga sabab boʻlishi tabiiy holdir. Ammo, bu yoʻnalishda aniq konsepsiya ishlab chiqilib, oʻquv jarayoniga joriy etilishi davr talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Ртвеладзе Э.В., Сагдуллаев А.С. Типы периодизаций истории Средней Азии.//Независимость и история: новые подходы к учению истории Узбекистана (Тезисы докладов международной научной конференции, г. Ташкент, 1997 г.) с.3-4
2. Толстов С.П. Периодизация древней истории Средней Азии. КСИИМК.
3. Вып.28.М.-Л., 1949,
4. Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. Тошкент, 2015.

TOSHKENT BEKLIGI

Otamuratova Dilrabo
ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti
Tarix yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Toshkent bekligi tarkibi, uning ma’muriy tuzilishi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va O’rta Osiyoda tutgan o’rni haqida bo’lib uning davlat boshqaruv tizimi, siyosiy ahamiyati va Qo’qon xonligi davrida Rossiya davlati bilan aloqalari yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: Toshkent bekligi, Qo’qon xonligi, Yunus Xo’ja, Suleyman Xo’ja, Qo’chqor Xo’ja, Lashkar kushbegi, chorsu, o’rda.

Toshkent bekligi XVIII asr oxiri – XIX asr o’rtalarida O’rta Osiyoda muhim siyosiy va iqtisodiy ahamiyatga ega bo’lgan davlat tuzilmasi edi. Dastlab mustaqil davlat sifatida, keyinchalik esa Qo’qon xonligi tarkibida faoliyat ko’rsatgan Toshkent bekligi o’zining strategik joylashuvi, savdo-sotiq markazlari va harbiy salohiyati bilan mintaqada alohida mavqega ega bo’lgan. Ushbu maqolada Toshkent bekligining shakllanishi, rivojlanishi, ma’muriy tuzilishi va tashqi aloqalari tahlil qilinadi.

Toshkent bekligining shakllanishi va rivojlanishi

Toshkent bekligi XVIII asr oxirida Qo’ldosh binni Muhammad Amin hukmronligi davrida shakllangan. Qo’ldosh 1784-yilda Toshkentda hokimiyatni qo’lga oldi va mustaqil davlat tuzilmasining asosini yaratdi. Uning o’g’li Yunus Xo’ja (1784-1805) davrida Toshkent bekligi o’zining eng kuchli davrini boshdan kechirdi. Bu davrda beklik Chimkent, Sayram, Turkiston va Avliyota shaharlarini o’z ichiga olgan katta hududni nazorat qilardi.

Yunus Xo’ja davrida beklik Buxoro amirligi va Qo’qon xonligi bilan raqobatda bo’lib, o’z mustaqilligini saqlab qolishga harakat qilgan. Ammo, 1805-yilda Yunus Xo’janing vafotidan so’ng, beklikda ichki nizolar boshlanib, bu holat Qo’qon xonligi foydasiga ishladi. 1809-1810 yillarda Qo’qon xoni Olim Xon Toshkent bekligini bosib oldi va uni Qo’qon xonligi tasarrufiga kiritdi.

Ma’muriy tuzilishi va boshqaruv tizimi

Toshkent bekligi ma’muriy jihatdan to’rt dahasiga (kvartal) bo’lingan:

1. Beshyog’och dahasi
2. Ko’kcha dahasi
3. Sebzor dahasi
4. Shayxontohur dahasi

Har bir dahaga alohida oqsoqol tayinlangan bo'lib, ular soliq yig'ish, tartib-intizomni saqlash va beklik markaziy hokimiyati bilan aloqalarni ta'minlash vazifalarini bajargan.

Beklik tepasida bek (hokim) turgan, unga ma'muriy va harbiy masalalarda ko'maklashuvchi kushbegi (bosh vazir) lavozimi ta'sis etilgan. Shuningdek, qozikalon (bosh qozi), rais, parvonachi, dodxoh kabi mansablar ham mavjud bo'lgan. Qo'qon xonligi tasarrufiga o'tgandan so'ng, beklikni odatda xon oilasi a'zolari yoki ishonchli amaldorlar boshqargan.

Lashkar kushbegi lavozimi harbiy ishlar, chegara xavfsizligi va ichki tartibga javobgar mansab hisoblangan. U beklikdagi harbiy kuchlarni boshqargan va zarur hollarda qo'shin to'plash vazifasini bajargan.

Iqtisodiy hayot

Toshkent bekligi iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlardan biri bo'lgan. Beklik iqtisodiyotini quyidagi sohalar tashkil etgan:

1. Savdo-sotiq: Toshkent Buyuk Ipak yo'lida joylashgan muhim savdo markazi sifatida Rossiya, Xitoy, Hindiston va boshqa qo'shni davlatlar bilan savdo aloqalarini olib borgan. Chorsu maydonida joylashgan bozorlar doimo gavjum bo'lib, u yerda turli xil tovarlar sotilgan.
2. Hunarmandchilik: Shahar aholisining katta qismi hunarmandchilik bilan shug'ullangan. To'qimachilik, ko'nchilik, temirchilik, zargarlik, kulolchilik va boshqa hunarmandchilik turlari rivojlangan.
3. Dehqonchilik va bog'dorchilik: Beklik atrofidagi yerlar dehqonchilik uchun qulay bo'lib, g'alla ekinlari, poliz mahsulotlari yetishtirilgan. Toshkent atrofidagi bog'larda turli mevalar, jumladan uzum, olma, shaftoli, o'rik yetishtirilib, ulardan quritilgan mevalar tayyorlangan.
4. Soliq tizimi: Beklikda asosiy soliq turlari – xiroj (yer solig'i), zakot (savdo solig'i), tanobona (yer o'lchov solig'i) va boshqa majburiy to'lovlar mavjud bo'lgan. Soliqlar pul va natura shaklida undirilgan.

Madaniy hayot

Toshkent bekligi davrida madaniy hayot ham o'ziga xos rivoj topgan. Shaharda ko'plab madrasalar, masjidlar, karvonsaroylar qurilgan. Madrasalarda diniy va dunyoviy fanlar o'qitilgan. Beklikda adabiyot, tasviriy san'at, me'morchilik rivojlangan. Ko'kaldosh, Baroqxon madrasalari, Xazrati Imom (Hastimom) majmuasi, Jome' masjidi kabi me'moriy yodgorliklar shu davrda faoliyat ko'rsatgan.

Toshkent bekligida madaniy hayotning rivojiga Qo'qon xonligi ma'naviy-madaniy siyosati ham ta'sir ko'rsatgan. Xususan, xon saroyida

yig'ilgan shoirlar, olimlar va san'atkorlar Toshkent madaniy hayotida ham ishtirok etganlar.

Tashqi siyosat va xalqaro aloqalar

Toshkent bekligi strategik joylashuvi tufayli muhim xalqaro aloqalar markaziga aylangan. Beklik dastlab mustaqil siyosat yuritgan bo'lsa, keyinchalik Qo'qon xonligi tashqi siyosatining bir qismi sifatida faoliyat ko'rsatgan.

Rossiya imperiyasi bilan munosabatlar alohida ahamiyatga ega bo'lgan. XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Rossiya bilan savdo-iqtisodiy aloqalar rivojlangan. 1840-1850 yillarda esa Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoga yurishi davrida beklik siyosiy-harbiy munosabatlar markazida turgan.

1865-yilda Toshkent shahri Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi bilan Toshkent bekligi o'z faoliyatini yakunlagan va Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritilgan.

Xulosa

Toshkent bekligi o'zining qisqa faoliyati davrida O'rta Osiyo siyosiy va iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynagan. Dastlab mustaqil davlat sifatida, so'ngra Qo'qon xonligi tarkibidagi beklik sifatida faoliyat ko'rsatgan bo'lsa-da, uning ma'muriy tuzilishi, iqtisodiy hayoti va madaniy merosi mintaqa tarixida chuqur iz qoldirgan. Beklik tarixini o'rganish orqali XVIII asr oxiri – XIX asr o'rtalaridagi O'rta Osiyo ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini yaxshiroq tushunish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Beysembiev T.K. "Kokandskaya istoriografiya: Issledovanie po istochnikovedeniyu Sredney Azii XVIII-XIX vekov". Almaty, 2009.

2. Nalivkin V.P. "Kratkaya istoriya Kokandskogo khanstva". Kazan, 1886.

3. Trofimov I.I. "Tashkent: stranitsi istorii". Toshkent, 1983.

4. Azadaev F. "Toshkent XIX asr o'rtalarida". Toshkent, 1959.

5. Sodiqov H. "Qo'qon xonligi tarixi". Toshkent, 2011.

6. Ziyaev H. "O'rta Osiyo va Sibir (XVI-XIX asrlar)". Toshkent, 1962.

7. Babajanov B. "Kokandskoe khanstvo: vlast, politika, religiya". Toshkent-Tokio, 2010.

8. Nabiev R.N. "Iz istorii Kokandskogo khanstva". Toshkent, 1973.

9. Muminov I.M. "Istoriya Uzbekistana (XIX – nachalo XX v.)". Toshkent, 1968.

10. Stremoukhov N.P. "Poezdka v Bukharu". Sankt-Peterburg, 1875.

XIX-XX ASRLARDA TOSHKENT VOHASI:RAUF PARFI IJODIYOTI

Oygul To‘ychiyeva
CHDPU o‘zbek tili va
adabiyoti yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Toshkent vohasida tug‘ilib o‘sgan, o‘zbek she’riyatiga munosib hissa qo‘shgan serqirra ijodkor Rauf Parfi ijodi haqida, uning ijodidagi mushtarak xususiyatlar haqida so‘z ketadi. Rauf Parfining mustaqillik yillarida yaratgan she’riy merosi tahlil qilinadi. Shoirning asarlarida milliy ong, tarixiy xotira, Turkiston timsoli va ruhiy ozodlik g‘oyalari qanday aks etgani ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Parfi, mustaqillik adabiyoti, Turkiston g‘oyasi, milliy uyg‘onish, falsafiy she’riyat, tarixiy xotira, ruhiy ozodlik

Biz o‘zbek adabiyotini o‘rganish jarayonida Toshkent vilayotida unib-o‘sgan bir qanvha ijodkorlar ijodi bilan tanishdik. Ular ichida mening mehrimga sazovor bo‘lgani serqirra ijodkor Rauf Parfi bo‘ldi. Rauf Parfi (Tursunali Parfiyev) 1943-yil 27- sentabrda Toshkent viloyati, Yangiyo‘l tumanidagi Sho‘ralisoy qishlog‘ida tug‘ilgan. Dastlab o‘rta maktabda o‘qidi. Keyin ToshDUning filologiya fakultetida tahsil oldi. Shoirning «Karvon yo‘li» nomli birinchi she’rlar to‘plami 1968- yilda nashrdan chiqdi. Shundan keyin uning «Aks-sado», «Tasvir», «Xotirot», «Ko‘zlar», «Qaytish», «Sabr daraxti», «Sukunat», «Tavba», «So‘nggi vido», «Sakina» kabi she’riy to‘plamlari chop qilindi. Tarjimon sifatida u Bayronning «Manfred», Nozim Hikmatning «Inson manzaralari», Karlo Kaladzening «Dengiz xayoli», A. Tvardovskiyning «Zaytun novdasi» asarlari va boshqa ko‘plab jahon adabiyoti namoyandalarining she’rlarini o‘zbek tiliga o‘girdi. Rauf Parfining o‘zbek she’riyatiga qo‘shgan hissasi yuksak baholanib, unga 1999-yil «O‘zbekiston xalq shoiri» unvoni berildi. «Tong otmoqda», «Yomg‘ir yog‘ar», «Yoz kechasi», «Yana qaytib keldim... », «Yurak» she’rlari ijodkorning nechog‘li favqulodda iste’dod sohibi ekanligidan, tabiat lirikasi bilan inson «men»i uyg‘un va hamohang shaklda tarannum etilganidan darak berib turibdi. O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi nafaqat siyosiy va iqtisodiy sohalarda, balki madaniyat, san’at va adabiyotda ham tub burilish yasadi. Ijodkorlar oldida milliy ruhni tiklash, xalqning tarixiy xotirasini uyg‘otish, ozod tafakkur va erkin fikrni ifodalashdek yuksak maqsadlar turgan edi. Ayniqsa, o‘tgan asrning 90-yillaridan boshlab ijod qilgan shoir va yozuvchilar adabiyotga

yangicha ruh, yangi mazmun olib kirdilar.Bu jarayonda Rauf Parfi o‘zining betakror ovozi, dadil va teran fikrlari bilan alohida ajralib turdi. U ijodda mustaqillik ruhini, milliy o‘zlikni anglash g‘oyasini, tarixiy adolatni tiklash istagini ifoda etdi. Rauf Parfi she’riyati mustaqillik davrining milliy ong, tarixiy xotira va ruhiy uyg‘onish bilan sug‘orilgan badiiy obrazlariga boy bo‘lib, u adabiyotda o‘z yo‘lini, o‘z maktabini yaratgan shoir sifatida qadrlanadi. Mazkur maqolada Rauf Parfining aynan mustaqillik yillaridagi ijodiy yo‘nalishi, uning milliy tafakkur va falsafiy mushohadalar bilan boyigan she’riyati tahlil qilinadi. Shoirning Turkiston g‘oyasi, vatanparvarlik timsollari, tarixiy va ruhiy izlanishlarga yo‘g‘rilgan asarlari ilmiy-nazariy jihatdan yoritib beriladi. Mustaqillik inson qalbida eng avvalo o‘zligiga qaytish, tarixini anglash, madaniy ildizlarini tan olish hissini uyg‘otadi. Rauf Parfi bu ruhiy holatni chuqur anglagan holda o‘z she’riyatida milliy o‘zlikni tiklash g‘oyasini ilgari surdi. Uning fikricha, ozodlik faqat siyosiy-huquqiy kategoriya emas, balki xalqning tarixiy xotirasini uyg‘otish, o‘zligini anglash orqali to‘la hayotga tatbiq etiladigan ma’naviy holatdir. Bu misralar Rauf Parfi uchun ozodlik va vatan sevgisi — faqat real makon emas, balki ichki ruhiy ehtiyoj, qalbda yashaydigan orzu, ma’naviy qadriyat ekanini anglatadi. U she’riyat orqali o‘z avlodiga milliy o‘zlikni eslatish, uni saqlash va qadrlash zarurligini bildiradi.Shoirning asarlarida ozodlik g‘oyasi ochiq va dadil ifoda etilgan. U mustaqillikni faqat siyosiy yutuq sifatida emas, balki xalq ruhiyatidagi uyg‘onish, mustaqil fikrlash va tarix bilan yuzlashish jarayoni deb qaraydi. Ayniqsa, o‘tgan davrda so‘z erkinligi, milliy til va madaniyat tahqirlangan sharoitda ijod qilgan Rauf Parfi uchun mustaqillik — chinakam ilhom va dadillik manbai bo‘ldi .She’r – ruhning silkinishidir. Shu bois unda botiniy keskin burilishlar, uzilishlar, qaqshatqich urilishlar – hamma-hammasi aks etadi. She’r – poetik yolg‘onning eng rost, eng mukammal shakli. Biz she’r o‘qiyotganda uning izmiga tushamiz, lirik qahramonning dard-u dunyosiga qorishib ketamiz. Undan bosh chiqarib tashqi olamga nazar tashlaganda esa tamoman boshqa bir manzaraning guvohi bo‘lamiz. Shunda shoirning botiniy va jug‘rofiy mamlakati o‘rtasida kontrast tafovutni ko‘ramiz. Botiniy mamlakatda shoir o‘zi xohlaganday o‘ylashi, tafakkur qilishi, yashashi mumkin, jug‘rofiy mamlakatda esa yo‘q. Chegaralar, qonunlar mavjud.

She’r yozguvchi va she’r o‘qiguvchilar ko‘pincha ikki olam orasida ikki odam bo‘lib yashaymiz: she’rning ichida boshqa, she’rdan tashqarida tamoman boshqa bir odamga evrilamiz. Biroq bizning bu mulohazalarimiz Rauf Parfi shaxsiga tegishli emas. Chunki Rauf Parfining she’rda hayotdagidek

va hayotda she’rdagidek yashab o‘tganini tarixiy dalillar tasdiqlaydi.Rauf Parfi ijodi davomida ozod insonni kuylab o‘tgan shoirdir. Uning she’rlarining tarhi, memorial ko‘rinishi va ichki bezaklari ham ozodlik, erk, vatan, umumturkiylik degan yaxlit bir chiziqdan o‘tadi. Rauf Parfining she’rlarini kuzatar ekansiz, erk va ozodlik kurashchilari bo‘lgan jadidlarga bag‘ishlangan asarlarga tez-tez duch kelamiz. Shoir dunyoning qaysi burchida bo‘lmasin, vatan uchun kurashgan, Ozodlik uchun jon bergan insonlarga bag‘ishlab asarlar bitadi.“Rauf Parfi she’riyatining asosiy mavzusi bu – shaxs erki, Vatan mustaqilligi va Turkiston, turk dunyosining birligidir; XX asr turk odamining abadiy shuurini, keskin foje ruhiyatini muqaddas turkiy tilda ifodalashga jazm etgan va murodiga yetgan jasoratli she’riyatdir”[87]

Mana shoirning “Vatan haqida Bernd Iyentshga maktubim” she’ri:

Vatan haqida senga, Bernd,
Shu maktubni yozayotgan paytim
Tashqarida qor yog‘moqda ezgin-ezgin,
Oppoq-oppoq, lo‘ppi-lo‘ppi. Nelarni yog‘ar qor?
Taxayyul yog‘ar. Taxayyul otiga mingan osmon.
Bernd, bunday yashash axir, ko‘p qiyindir balkim.
Bernd, balkim xastalagan bizni bemavrid
Yigirmanchi asr, deb nomlangan og‘riq.
O‘tinaman, balandparvoz so‘zlar, deb o‘ylama tag‘in,
Ehtimol, yechib tashlashimiz kerakdir qora ro‘molini
dardli xotirotning munglug‘ boshidan.

Bu minbarlarda hayqirib o‘qilgan she’rlardan keskin farq qiladi: misralarda og‘riq bor, dard bor, iztirob bor. Go‘yoki shoir olmon ijodkori bilan hasratlashuv bahonasida Vatanning o‘tmishini, kechmishini, u haqdagi tushunchalarini she’rga singdiradi. Bu she’rning tag ma’nosida otlarning dupuri, odamlarning hayqiriqlari, tanklarning ovozi bor. Oppoq, lo‘ppi-lo‘ppi yog‘ayotgan qor ertangi baxtli va osuda hayot uchun bashoratday taassurot qoldiradi. Xullas, Vatan haqida hayqirmasdan turib ham go‘zal va ichkin she’r yozish mumkinligini Rauf Parfining ushbu she’ri isbotlab beradi. Rauf Parfi uchun Vatan jug‘rofiy tushuncha hosil qilmaydi. Dunyoning qaysi burchida bo‘lmasin, qiynalgan, zulmga yo‘liqqan odam borki, uning vatandoshidir. Uning “Karlo Kaladze diyorida”, “Mikalenjelo sevgisi”, “Viktor Xaraning so‘nggi qo‘shig‘i”, “Pablo Neruda o‘limiga” kabi har bir she’rida Rauf Parfi uchun Vatanning cheki va chegarasi bo‘lmaganligini ko‘rish mumkin. Uning

[87] filolgiya fanlari doktori, professor No‘mon Rahimjonov “Sakina”

she’rlariga singigan turkchilik g‘oyasi, Turkiston, Turon mavzusi esa, vatanning chegaralanishi ma’nosida emas, qadimiy tushunchalarning asrab-avaylanishi, qadriyatlarga munosiblik mazmuniga ko‘chadi.”[88]

Xulosa qilib shuni ta’kidlash joizki, Mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida milliy o‘zlik, tarixiy xotira va vatanparvarlik kabi yuksak tushunchalarning qayta talqin etilishiga zamin yaratdi. Bu davrda Rauf Parfi ijodi o‘zbek she’riyati uchun yangi bosqich, yangi ruh va yangi pozitsiya olib kirdi. Uning she’rlari nafaqat badiiy-estetik qiymatga ega, balki tarixiy haqiqat, milliy uyg‘onish va ozodlik g‘oyalarini targ‘ib etuvchi kuchli ijtimoiy-huquqiy xitob sifatida ham qadrlidir.Parfi she’riyati orqali o‘zbek o‘quvchisi o‘z tarixini qayta anglaydi, xalq taqdirini o‘z qalbi bilan his etadi va mustaqillikning haqiqiy ma’nosini chuqur tushunadi. Shoirning Turkiston g‘oyasi, erkin fikr, ruhiy uyg‘onish va milliy birlikka da’vati bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q.Shu ma’noda, Rauf Parfi mustaqillik davri adabiyotining nafaqat badiiy timsoli, balki ruhiy yo‘lboshchisi, vijdon va haqiqatning jarangdor ovozidir. Uning merosi bugungi va kelajak avlodlar uchun g‘oyaviy-ma’naviy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva, M. O‘zbek she’riyati va milliy uyg‘onish. — Toshkent: Fan, 2006.

2. G‘afurov, A. Mustaqillik va o‘zbek adabiyoti. — Toshkent: Sharq, 2011.

3. Mirvaliev, B. O‘zbek poeziyasi taraqqiyoti. — Toshkent: Yozuvchi, 1999.

4. Parfi, R. Iymon asiri. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 1991.

5. Parfi, R. Qiyomat qo‘shiqlari. — Toshkent: Adabiyot va san’at, 1993.

6. Qo‘chqor, N. She’r va haqiqat: Rauf Parfi fenomeni. — Toshkent: Ma’naviyat, 2014.

7. To‘xtaboyev, M. Yangi davr adabiyoti va milliy tafakkur. — Toshkent: Akademnashr, 2018

8. Xudoyberdiyev, H. She’riyatda milliy uyg‘onish ruhi. — Toshkent: Fan, 200

[88] Go‘zal Matyoqubova
1974-yili tug‘ilgan. O‘zbekiston Milliy universitetining O‘zbek filologiyasi fakultetini tamomlagan.

TOSHKENT HOKIMLIGI TASHKIL TOPISHIDA BO‘LGAN SIYOSIY JARAYONLAR

Po‘latov Sherzod Odilxon o‘g‘li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Tarix yonalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Toshkent hokimligining tashkil topishiga olib kelgan tarixiy-siyosiy omillar tahlil qilinadi. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida hududda yuz bergan siyosiy islohotlar, rus imperiyasi siyosati, mahalliy boshqaruv tizimining o‘zgarishi va Toshkent shahrining markaziy siyosiy-ijtimoiy rolga aylanishi jarayonlari yoritiladi. Maqolada, shuningdek, hokimlik institutining shakllanishi va uning zamonaviy boshqaruv tizimidagi o‘rni ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Toshkent hokimligi tashkil topishi, Olimxon, B.Ismoilov va Azizxoja, Aleksandr I, Yunusxo‘ja.

Toshkent —Markaziy Osiyoning eng yirik shahri, O‘zbekiston poytaxti, yirik iqtisodiy, madaniy va sanoat markazi. O‘zbekiston Shimoli-sharqida joylashgan. Toshkent azaldan O’rta Osiyoning iqtisodiy va madaniy-ma’naviy markazlaridan biri hisoblangan. Tarixga nazar soladigan bo‘lsak Toshkent hokimligi tashkil topishi. XVIII asr II-yarmida Toshkent 4 qismga: Shayxontohur, Beshyog`och, Ko`kcha, Sebzor dahalariga bo‘lingan davr Toshkent tarixida 4 ta hokimlik deb nom olgan. Shahar hokimlarining o‘zaro kurashida Yunusxoja g‘olib chiqdi va butun shaharga hokim bo‘ldi. Yunusxojaga “Hazrati eshon” unvoni berilgan, u Xon deb ham yuritilgan. Yunusxoja huzurida tuzilgan Xon kengashiga 4 daha mingboshilari kiritilgan, kengashda Yunusxoja hokim etib tayinlandi.

1784 yil yagona siyosiy hokimiyatning vujudga kelishi natijasida 4 hokimlik tugatilib mustaqil Toshkent hokimligi tashkil topdi. Anhorning o‘ng tomonida devor bilan o‘ralgan o‘rda - davlat mahkamasi qurilgan, unda xon qarorgohi, devonxona, zarbxona joylashgan. O‘rdani harbiy qism qo‘riqlagan. Toshkent hokimligi hududi kengayishi. 1796 yil Chimkent, Sayram va o‘nlab shaharlarni, 1799 yil Turkistondan Chu daryosigacha va Qorako‘l mavzeini Toshkentga qo‘shib oldi. Yunusxoja o‘ziga tobe bo`lgan Katta qozoq juzi qabilalarini boshqarishni o‘sha urug‘ boshliqlariga topshirib qozoq biylaridan o‘ziga tayanch yaratdi. Yunusxoja qozoqlar, ayniqsa Qorakesak bo‘lisi sultoni

Bukey bilan yaqin aloqada bo‘lgan, chunki Bukey sulton va uning o‘g‘illari Toshkent va rus karvonlarini qaroqchilardan himoya qilib, kuzatib borgan. Yunusxo‘ja qo‘shinida Katta juz qabilalari asosiy kuchni tashkil etib, Qo‘qonga qarshi urushda jonbozlik ko`rsatgan. Toshkent davlati Qo‘qon va Buxoroni, Orenburg va Sibir bilan bog‘lovchi karvon yo‘llari o‘tadigan Turkiston, Chimkent va Sayramni o‘z qo‘lida tutib, Markaziy Osiyo bilan Rossiya savdosida etakchi bo‘lishga intiladi. Bu hol Qo‘qon bilan Buxoroning Toshkentga munosabatining keskinlashuviga olib keldi. Katta Qozoq juzi ustidan Toshkent o‘z ta‘sirini kuchaytirishi Qo‘qonning mavqeini chegaralab qo‘ydi, chunki Farg‘onani Rossiya bilan bog‘lovchi asosiy savdo yo‘li Toshkent orqali o‘tar edi. Olimxon 1799 yil Toshkentga yurish qildi. Yunusxoja 1799 yil Chirchiq bo‘yidagi Qorasuv mavzeida Qo‘qon xoni Olimxonga zarba bergach Sirdaryo o‘ng sohilidagi Qurama mavzeini qo‘shib oldi. Toshkent shahrini o‘ragan devorning uzinligi 18 chaqirim bo‘lib, 10 ming xonadon yashagan. Toshkent Rossiya, Qoshg‘ar va Xitoy bilan savdo qilgan. Yunusxoja davrida 2 xil pul: rupiya va tanga zarb qilingan Shahar nazorati va soliq yig‘ish Boshchixojaning qo‘lida edi. Hokimning 4 ta maslahatchisi bo‘lib, shahar savdosini qozi va devonbegi nazorat qilishgan. Rais shariat qonunlarini, bozordagi narx va o‘lchovlarni nazorat qilgan. Toshkent - Rossiya savdo munosabatlari XVIII asr oxiri - XIX asr boshlarida rivjlandi. Toshkentlik savdogarlar B.Ismoilov va Azizxoja 1786 yil Irbit yarmarkasiga borishgan. Troiskdan 1787 yil Toshkentga 27773 so‘mlik rus va nemis movuti, qizil charm, gazmol, mis, baxmal keltirilgan. 24 kishidan iborat Toshkent savdo karvoni 1795 yil sentyabrda Semipalatinsk shahriga kelgani hujjatlarda qayd etilgan. XVIII asrning 90-yillarida Rahmatulla karvonboshi rahbarligidagi Toshkent savdogarlari doimo Petropavlovskka qatnab turganlar. Toshkent-Rossiya elchilik munosabatlari rivojlanishiga Toshkentning qulay geografik holati ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Yunusxoja 1792 yil Sibirga borgan Muhammadxoja va Azizxoja boshliq Toshkent savdo karvoni orqali Sibir ma`muriyatiga maktub jo`natadi va bu savdogarlarga Sibir ma’muriyati bilan muzokoralar olib borish vakolatini bergan edi. Yunusxojaning elchilariga javoban Sibir ma’muriyati 1794 yil Beznosikov va Burnashevlarni Toshkentga jo‘natadi, biroq ular Buxorodan qaytib ketadi. Sibir ma’muriyati 1796 yil ikkinchi bor yuborgan elchilarni O`rta qozoq juzi Qorakesak bo‘lusi sultoni Bukeyning o‘g‘li Eshim Sulton Toshkentga kuzatib keladi. Toshkent elchilari 1803 yil Sankt-Peterburgga borib imperator Aleksandr I qabulida bo‘ladilar. Toshkent mustaqilligi tugatilishi.Toshkent-Qo‘qon o‘rtasida kurash muhiti

hukm surib, Yunusxo‘ja Qo‘qon xonligida markaziy hokimiyatga bo‘ysunishni istamagan bekliklar va viloyatlar bilan ittifoq tuzishga harakat qilgan. Qo‘qon Toshkentni butunlay bo‘ysundirish yo‘lini tutib, asosiy jang 1800 yil kuzida Sirdaryo bo‘yidagi G‘urumsaroy (Namangan) yaqinida bo‘lgan, Toshkent engilgan. Yunusxoja 1803 yil vafot etgach, o‘g‘li Sultonxoja taxtga o‘tiradi. Olimxon buni eshitgach Toshkentga qo‘shin yuboradi, Toshkent 1810 yil Qo‘qonga qo‘shib olinadi. Toshkent mustaqilligi butunlay barham topdi.

Xulosa

Ushbu maqolani mazmuni Toshkent hokimligining tashkil topishi mahalliy boshqaruv tizimining tarixiy rivojlanishida muhim bosqich bo‘lgan. Ushbu jarayonni siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar shakllantirgan bo‘lib, u Rossiya imperiyasi ta’siri ostida yangi boshqaruv institutlarining paydo bo‘lishiga olib kelgan. Bugungi kunda Toshkent hokimligi O‘zbekiston poytaxti boshqaruvining asosiy tuzilmasi sifatida faoliyat yuritmoqda. Bu esa tarixiy tajribani chuqur o‘rganish va tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Foydalangan adabiyot

1. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху нашествия монголов. – М.: Наука, 1964.

2. Зунунов Т. Тошкент тарихи. – Тошкент: «Ўқитувчи», 1990.O`zbekiston tarixi: o`quv-uslubiy qo`llanma. Qayta ishlangan va to`ldirilgan beshinchi nashri. -T.: “O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2020. – 380 bet

3. Shamsutdinov R, Karimov SH, Ubaydullayev O’. ‘’ Vatan tarixi 2-kitob’’ T. SHarq.

4. збекистон тарихи. 2-жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» ДК, 2001.

5. http://tashkent.uz/uz/articles/23/

QADIMGI VA O’RTA ASRLARDA TOSHKENT VOHASI

Qalabayev Akbarshoh Farhod og’li
Chirchiq davlat pedagogika universteti
Tarix yo’nalishi 2-bosqich talabasi
+998947310075

Annatatsiya : Toshkent vohasi, O'zbekistonning tarixiy va madaniy markazlaridan biri sifatida, qadimgi va o'rta asrlarda o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lgan. Ushbu tadqiqot Toshkent vohasining qadimgi tarixini, uning iqtisodiy, madaniy va siyosiy hayotini o'rganishga qaratilgan. Vohada joylashgan qadimiy shaharlar, masjidlar, maqbaralar va boshqa arxeologik yodgorliklar zamon o'zgarishi jarayonida qanday rivojlanganligini ko'rsatadi. Tadqiqotda vohani boshqarayotgan turli davlatlarning ta'siri, savdo yo'llari va madaniy o'zaro aloqalar ham muhokama qilindi.

Kalit so’zlar : Toshkent vohasi, Qadimgi tarix, O'rta asrlar, Madaniyat, Arxeologiya Savdo yo'llari, Siyosiy tarix, Qadimiy shaharlar, Maqbaralar Iqtisodiy hayot

Geografik joylashuvi: Toshkent vohasi, O'rta Osiyo hududida joylashgan bo'lib, u qadim zamonlardan buyon savdo va madaniyat markazi bo'lib kelgan .Tarixiy ma'lumotlar: Vohada qolgan qadimiy yodgorliklar (masalan, Kukaldosh madrasasi va Hazrati Imom majmuasi) shaharning tarixiy ahamiyatini aks ettiradi .Iqtisodiy hayot: O'rta asrlarda Toshkent, Ipak yo'li bo'ylab savdo qilishda muhim nuqtalardan biri bo'lgan. Bu erda turli xil tovarlar va madaniyatlar birlashib, shaharning rivojlanishiga xizmat qilgan. Iqtisodiy hayot: O'rta asrlarda Toshkent, Ipak yo'li bo'ylab savdo qilishda muhim nuqtalardan biri bo'lgan. Bu erda turli xil tovarlar va madaniyatlar birlashib, shaharning rivojlanishiga xizmat qilgan .Madaniy meros: Toshkentda joylashgan qadimiy maqbaralar va masjidlar, o'sha davrdagi me'morlik va san'at namunalari bo'lib, tarixiy ma'lumotlarni saqlashda muhim o'rin tutadi.

Qadimgi TarixQadimgi davrlar: Toshkent vohasi hududida qadimiy qabilalar, shu jumladan, Sogdiyaliklar va Kushonlar yashagan. Bu davrda voha Ipak yo'lining muhim tugunlaridan biri hisoblangan. Yodgorliklar va arxeologik qazilmalar bu hududda hayotning rivojlanishi va savdo faoliyatining mavjudligini tasdiqlaydi.Arxeologik yodgorliklar: Abul-Kosim maqbarasi, Kukaldosh madrasasi va boshqa ko'plab tarixiy obidalar, Toshkent

vohasining qadimiy madaniy merosini ko'rsatadi. Qadimgi shaharlar (masalan, Chach) vohaning tarixida muhim rol o'ynagan. O'rta AsrlarIslam davri: VIII asrda musulmonlar Toshkent vohasini zabt etganidan so'ng, bu yerda islom dini tarqaldi. O'rta asrlarda Toshkent, ilm-fan va madaniyat markazi sifatida rivojlangan. Muslim olimlari, shoirlar va mutafakkirlar Toshkentda yashab, ishlagan.Savdo yo'llari: Toshkent, Ipak yo'lida joylashgani tufayli, turli xalqlar o'rtasida savdo va madaniyat almashuvining muhim nuqtasi bo'lib xizmat qilgan. Bu yerdan o'zbek, turk, fors va arab tillarida ko'plab yozma asarlar yaratilgan. Siyosiy TarixDastlabki davlatlar: O'rta asrlarda Toshkent, Turk xonliklari, Kesh (Shahrisabz) va Buxoro kabi davlatlar tomonidan boshqarildi.

Ushbu davrda Toshkentning mamlakat ichidagi siyosiy ahamiyati ortdi va bu shahar ko'plab muhim voqealarga guvoh bo'ldi.Xorazmshohlar va Temuriylar: Xorazmshohlar davrida Toshkent muhim ma'muriy va iqtisodiy markazga aylandi. Temuriylar davrida (XIV-XV asrlar) esa Toshkent juda katta rivojlanishga erishdi va Qoraqalpoq, O'rta Osiyo xaritasida muhim markazlardan biriga aylandi. Madaniyat va San'atMe'morlik: Toshkentda joylashgan ko'plab masjidlar, madrasa va maqbaralar, o'sha davrdagi me'morlik san'atining yuqori darajada ishlab chiqilganligini ko'rsatadi. Abul-Kosim maqbarasi va Kukaldosh madrasa bu sohada yirik namunalar hisoblanadi.Ilm-fan: Toshkentda o'rta asrlarda yashagan olimlar, shu jumladan, al-Khorezmi, al-Faribiy kabi buyuk insonlar butun O'rta Osiyo va undan tashqarida ma'rifat va ilm-fan taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Etnik va Madaniy O'zaro Ta'sirlarEtnik Guruqlar: Toshkent vohasi tarix boyunca turli etnik guruhlar yashagan bo'lib, ular o'zaro madaniy almashuv qilishgan. O'zbeklar, turkmanlar, forslar va boshqa etnik guruhlar vohada bir-biri bilan tili, an'analari va urf-odatlarini almashgan. Bu jarayon Toshkentning madaniy xilma-xilligini shakllantirgan.Madaniy Foydalanuvchilar: Toshkentda tarixiy davrlar davomida koʻplab katta olimlar, shoirlar va san'atkorlar yashab, oʼz asarlarini yaratganlar. Masalan, Abu Ali ibn Sino (Avicenna) va al-Khorezmi kabi buyuk olimlar bilanoq, Oʼrta Osiyo adabiyotida Muhammad Ajzodiy va Zahiriddin Muhammad Bobur kabi shoirlar ham o'z muhim rolini o'ynaganlar. Iqtisodiy RivojlanishSavdo va Iqtisodiyot: O'rta asrlarda Toshkent Ipak yo'lining eng muhim savdo markazlaridan biri bo'lib, bu yo'l orqali O'rta Osiyoning turli shaharlaridan (masalan, Buxoro va Samarkand) tovarlar olib oʻtilgan. Shahar ko'plab meva-sabzavotlar, ipak, qo'lda tikilgan

matolar va boshqa qimmatbaho narsalar bilan mashhur bo'lgan. Bu savdo faoliyati vohaning iqtisodiy ahamiyatini kuchaytirdi.Qishloq Tarozi: Toshkent vohasidagi qishloq xo'jaligi ham muhim ahamiyatga ega edi. Bu mintaqada paxta, meva-sabzavot, pushkalar va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirilardi. Qishloq xo'jaligi faoliyati Toshkentning iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Diniy RivojlanishIslom dini: Toshkentning diniy rivojlanishi asosan islom dinining tarqalishi bilan bog'liq. Xususan, O'rta asrlarda muhim diniy va madaniy markazga aylangan shahar ko'plab masjidlar, madrasa va maqbaralarga ega bo'ldi. Bu inshootlar o’qitish va diniy ta'lim berish uchun muhim joylar bo'lib, muxlislar va bilim olishni istovchilar uchun qabulxonalar sifatida xizmat qilgan.Diniy Maktablar: Toshkentda ko'plab madrasa va ilmiy muassasalarning tashkil etilishi o'z vaqtida mutafakkir va olimlarning rivojlanishiga olib keldi. Bu joylar zamonida bilimingizni oshirish va diniy ta'lim olish uchun eng chiroyli makonlar sifatida tanilgan. Toshkent Vohasining Zamonaviy RivojiBugungi kun uchun Toshkent vohasi, O'zbekistonning poytaxti sifatida iqtisodiy va madaniy markazda o'z o'rnini saqlamoqda. Shahar tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda, zamonaviy inshootlar, savdo markazlari va madaniyat muassasalari qurilmoqda. Tarixiy yodgorliklar va an'analarga e'tibor berilib, Toshkent o'z madaniy merosini himoya qilishga, uni saqlab qolishga va rivojlantirishga intilmoqda. Arxeologik K Discovery larArxeologik Olib ọtishlar: Toshkent vohasi tarixining chuqur o'rganilishi davrida ko'plab arxeologik kashfiyotlar amalga oshirilgan. Ushbu kashfiyotlar ichida qadimiy shaharning zaminini, qurilish materiallarini va kunlardan qilingan ashyolarni o'z ichiga olgan yodgorliklar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Chach shahrida olingan asyov ma'lumotlar voha tarixi to'g'risida qarashimulalar beradi.Qadimgi Qal'alar: Toshkent vohasida qadimiy qorovul qal'alari uchraydi. Ular savdo yo'llarini himoya qilish va musulmon harakatlarining davomiyligini ta'minlashda muhim rol o'ynagan. Madaniy Hayot va An'analarAn'anaviy Tartiblar: Toshkent vohasida qadimdan mavjud bo'lgan an'anaviy bayramlar va marosimlar muhim madaniy elementlar hisoblanadi. Qurban Hayiti, Ramazon Hayiti kabi diniy bayramlar va O'zbek xalqining an'anaviy dasturxonlari, to'y marosimlari, va folklor - bu vohaning madaniy merosiga taalluqli.San'at: Toshkent vohasida san'at, musiqani rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. O'rta asrlarda xalq musiqasi va raqs san'atlari, shuningdek, ustalar tomonidan yaratilgan amaliy san'at asarlari Toshkentda keng tarqalgandi. Bugungi kunda ham zamonaviy san'at va

traditsional san'at o'rtasida o'zaro ta'sirlar davom etmoqda. Oziq-ovqat MadaniyatiAn'anaviy Oziq-ovqat: Toshkent vohasi ma'lum o'ziga xos taomlari bilan mashhur. Plov (o'zbek tarnofrinosi), somsa, manti, shirinliklar (baxtli kut) hamda an'anaviy shirinliklar bu mintaqada keng tarqalgan. An'anaviy oshxonalar va restoranda bu taomlarning turli xil turlari mavjud, bu esa turistlar uchun ham iste'mol etish imkoniyatini yaratadi. Zamonaviy Siyosiy RivojlanishSiyosiy O'zgarishlar: O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, Toshkent vohasi mamlakatning markaziy siyosiy va iqtisodiy hayotida muhim rol oynamoqda. Iqtisodiy islohotlar, shaharni rekonstruksiya qilish va infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha harakatlar amalga oshirilmoqda.Xalqaro Aloqalar: Toshkent vohasi hozirgi kunda yirik xalqaro tadbirlarga mezbonlik qilmoqda. Har yili o'zida ko'plab xalqaro konferensiyalar, seminarlar va madaniy tadbirlar o'tkaziladi, bu esa O'zbekistonni xalqaro hamjamiyatda tanitadi. Ekologik MuammolarMahalliy Ekologiya: Toshkent vohasi ekologik muammolar bilan ham yuzma-yuz kelmoqda. Suv manbalarini saqlash, qishloq xo'jaligi va sanoat ishlab chiqarishi, shahar aholisi uchun toza havoni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ekologik muammolarni hal etish uchun turli dasturlar va tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Sayyohlik Va TurizmTuristik Joylar: Toshkent vohasi ko'plab tarixiy yodgorliklarga, shahar parklariga va muzeylarga ega. Sayyohlar uchun qiziqarli joylar sifatida Hazrati Imom majmuasi, Mustaqillik maydoni, Amir Temur xiyoboni, va Toshkent metro stansiyalari ko'plab tashrif buyuruvchilarni o'ziga jalb qilmoqda.Turizm Rivoji: Hozirgi kunda O'zbekistonda turizmni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari davom etmoqda. Toshkent vohasi ham bu jarayonda faol ishtirok etib, xalqaro sayyohlarni jalb qilish uchun o'z imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Xulosa: Toshkent vohasi qadimgi va o'rta asrlar davrida mo'tabar savdo yo'li, madaniyat va ilm-fan markazi sifatida rivojlangan. Ushbu voha tarixiy voqealar, madaniy almashuvlar va iqtisodiy jarayonlar natijasida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Toshkent vohasining o'ziga xos tabiati, shaharlarining tarixi va madaniy yodgorliklari, bugungi kunda ham turizm va ilmiy tadqiqotlar uchun bebaho manba bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI :

1.Qodirov, A. (2005). "O'zbekiston tarixi: Qadimgi davrlardan bugungacha". Toshkent: O'zbekiston.

2.Rahmonov, M. (2010). "Toshkent vohasi arxeologiyasi va madaniyati". Toshkent: Fan.

3.Karimov, I.A. (1998). "O'zbekiston – uch ma'naviy meros". Toshkent: O'zbekiston.

4.Ubaydullayev, R. (2018). "Savdo va madaniyat: Ipak yo'li tarixiga nazar". Toshkent: Sharq.

5.Maxmudov, Sh. (2015). "Toshkent tarixida muhim voqealar". Toshkent: O'zbekiston.

KO’LBULOQ MAKONI TARIXI

Qosimova Ruxshona Sardorbek qizi
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti talabasi
Ilmiy raxbar Parmonov Sharofiddin Shavkatovich

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada ilk paleolit davriga oid Ko’lbuloq Makoni qadimiy yodgorliklari va topilmalari hamda odamlarning turmush sharoiti xo’jaligi haqida so’z boradi.Topilmalarg ako’ra bu hududda mil.avv.100-ming yillar davomida insonlar yashab ,mehnat qurollari yasagan ayniqsa toshdan yasalgan mehnat qurollari va hayvon suyaklari bu yerda qadimgi odamlarning ochlik va yasash tarzini yaratishga xizmat qiladi.Ko’lbuloq makoni Markaziy Osiyodagi eng qadimgi odamlar hayoti va madaniyati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so’zlar: Ko’lbuloq,tosh qurollar,Nuqleus,Choper,Hayvon suyaklari,madaniy qatlam,ilk mehnat qurollari,arxeologik topilmalar.

Ko’lbuloq makonidan ko’p qatlamli yodgorlik ochilgan bo’lib ,uning eng pastki qatlamlari ilk paleolit davriga oiddir . bu yodgorlik 1960-yillarda niqlangan. Arxeologik qazilmalar keyinchalik ham davom ettirilgan. Ko’lbuloq makonidan tosh qurollar, nuqleus, chopper, va mayda tosh qurollar topilgan.ko’lbuloq makoni Toshkent viloyati Bo’ka tumanida joylashgan bo’lib ,paleolit davriga oid eng qadimgi inson faoliyati izlari topilgan joy hisoblanadi.tosh qurollarning tahlili orqali bu yerda yashagan odamlarning mehnat faoliyati ,atrof muhitga moslashuvi haqida malumot olish mumkin. 1960-yillar oxirida A.P. Okladnikov boshchiligidagi arxeologik ekspeditsiya tomonidan aniqlangan.Dastlab bu hududda tabiatga oid qiziqishlar asosida fuzatuvlar olib borilgan ,lekin keyinchalik topilgan tosh qurollar bu joy

qadimgi odamlar tomonidan yashab kelinganini ko'rsatadgan.1970-1980 yillarda bu makonda qazish ishlari olib borilgan.

Tosh qurollar :qirg'ich, kesgich , yanchish uchun mo'ljallangan toshlar ,ikkilamchi ishlov berilgan qirralar. Bu qurollar Olduvay madaniyatlari bn o'xshashlikka ega.Ko'p sonli qurollarda ikkilamchi ishlov aniqlangan ,bu esa inson ongining rivojlanganidan dalolat beradi.Kurollar hayvon terilarini ,go'shtni parchalash ,o'simliklarni maydalash , hayvonlarni ovlashda keng foydalanilgan.[1]

Tadqiqodchilar fikriga qaraganda ,Ko'buloq makonida ,ajdodlar hayoti quyi sheystosining so'ngi boshqichidan to yuqori pleystosining oxirigacha davom etgan ,yani Ko'lbuloqda hayot bundan rosa 600-700 ming yil avval boshlanib ,to miloddan avvalgi 40 ming yillikkacha davom etgan.Ko'lbuloq makonining har bir davr qatlamlaridan juda boy tosh qurollar va tegishli hayvon suyaklari topilgan. Ko'lbuloq makoni ajdodlarimizning qadimgi tosh davrida bir necha yuz ming yillar davomida uzluksiz yashagan turar joy makoni hisoblanadi.[2]

Ko'lbuloqdagi tosh qurollar oddiygina topilmalar emas ,balki bu Markaziy Osiyo hududida insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichlari bo'lganiga dalildir.A.P. Okladnikov bu joyni Osiyo Olduvayi deb ataydi ya'ni Afrikadagi Olduvay yodgorligiga o'xshash darajadagi qadimiylikka ega deb baholaydi.

Arxeologik izlanishlar :Yahyo G'ulomiv Ko'lbuloq makonini 1960-yilda o'rganishni boshlagan va bu tadqiqotlar davomida yodgorlikdan ko'plab madaniy qoldiqlarni aniqlagan.Uning izlanishlari Ko'buloqni paleolit davrining eng qadimgi yodgorliklaridan biri sifatida tasniflashga yordam bergan.Ko'lbuloqdagi yodgorlikar asosan paleolit davriga ayniqsa Ashel davriga oid ekanligini aniqlagan.Bu davr O'rta Osiyo hududida insoniyatning dastlabki qadamlarini tashlash davri hisoblanadi .Topilgan asboblar ,ayniqsa tosh qurollar ,o'sha davr odamlarining hayot tarzini o'rgatadi.

Ko'lbuloq makoni Qizilolmasoyning Jarsoy o'zani sohilidagi Ko'lbuloq yaqinidagi 1962-yilda topilgan.M.R.Qosimov 1963-83 keng tadqiqot ishlari olib borgan.600 kv .metrdan ziyod maydon ochib o'rganildi va 49 ta madaniy qatlam aniqlandi . Bu qatlamlardan 3 tasi so'ngi paleolit ,21 tasi ilk paleolit davriga xos deb topildi.

Ilk paleolit qatlamlaridan 3000 dan ziyot tosh qurollar , hayvon suyak qoldiqlari topilgan. U yerdan topilgan nukleuslar, paraqalari, qo'1 cho'qmorlari, sodda tosh qirg'ichlarning ishlanish texnikasi o 'ziga xosdir. Shuningdek, bu yerdan kul, ko'm ir qoldiqlari va har xil hayvon suyaklari

topilgan Ko'lbuloqda istiqomat qilgan odamlar ovchilik, termachilik bilan hayot kechirganlar. Mustaqillik yillarida ilk paleolit davrini o'rganishda ko'plab yutuqlar qo'lga kiritildi. 1994-1995 yillarda O'zbekiston - Rossiya, 2007- 2010 yillarda O'zbekistonRossiya-Belgiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi a'zolari tadqiqot ishlarini olib borganlar. 10.000 ga yaqin birlamchi va ikkilamchi ishlov berilgan tosh qurollar o 'rganildi. 2003 yilning 3 oktyabrida K o'lbuloq makoni moddiy manbalari asosida Xalqaro ilmiy konferentsiya o 'tkazildi. Hozirgi kunda K o'lbuloq makoniga davlat tomonidan muhofaza etiladigan «Tarixiy qo'riqxona» maqomi berilgan.

Odamlar tabiiy sharoitga moslashib, boshpana sifatida g'orlarni o'zlashtirganlar va tabiiy olovdan foydalana boshlaganlar. Ibtidoiy odamlar barcha g 'orlarda ham yashamaganlar. Odatda tagi tuproqli, quyosh nuri tushadigan, buloq suvi yaqin, ovchilik va termachilik qilishga qulay g 'orlarda yashaganlar. Olduvay davri makonlariga k o ra, ashel davri makonlari ko'proq topilgan. Bu davr odamlarining u davrga nisbatan ko'paya boshlaganidan darak beradi. Termachilikning ahamiyati pasayib, ovchilik ahamiyati oshgan. Yashash uchun kurash odamlarni birlashtirgan. Bir tomondan yirik hayvonlarni to'da bo'lib ovlash zarur bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan g'orlarni o'zlashtirish jarayonida u yerdagi yiritqich hayvonlarni haydash va ulardan himoyalanish zarur bo'lgan.[3]

Tabiiy sharoitga moslashib, boshpana sifatida g'orlarni o'zlashtirganlar va tabiiy olovdan foydalana boshlaganlar. Ibtidoiy odamlar barcha g 'orlarda ham yashamaganlar. Odatda tagi tuproqli, quyosh nuri tushadigan, buloq suvi yaqin, ovchilik va termachilik qilishga qulay g 'orlarda yashaganlar. Olduvay davri makonlariga k o ra, ashel davri makonlari ko'proq topilgan. Bu davr odamlarining u davrga nisbatan ko'paya boshlaganidan darak beradi. Termachilikning ahamiyati pasayib, ovchilik ahamiyati oshgan. Yashash uchun kurash odamlarni birlashtirgan. Bir tomondan yirik hayvonlarni to'da bo'lib ovlash zarur bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan g'orlarni o'zlashtirish jarayonida u yerdagi yiritqich hayvonlarni haydash va ulardan himoyalanish zarur bo'lgan.

Odamlar tabiiy sharoitga moslashib, boshpana sifatida g'orlarni o'zlashtirganlar va tabiiy olovdan foydalana boshlaganlar. Ibtidoiy odamlar barcha g 'orlarda ham yashamaganlar. Odatda tagi tuproqli, quyosh nuri tushadigan, buloq suvi yaqin, ovchilik va termachilik qilishga qulay g 'orlarda yashaganlar. Olduvay davri makonlariga k o ra, ashel davri makonlari ko'proq topilgan. Bu davr odamlarining u davrga nisbatan ko'paya boshlaganidan

darak beradi. Termachilikning ahamiyati pasayib, ovchilik ahamiyati oshgan. Yashash uchun kurash odamlarni birlashtirgan. Bir tomondan yirik hayvonlarni to'da bo‘lib ovlash zarur bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan g'orlarni o'zlashtirish jarayonida u yerdagi yiritqich hayvonlarni haydash va ulardan himoyalanish zarur bo'lgan. So’ngi paleolit davrida O’rta osiyo hududida yashagan.

Odamlar tabiiy sharoitga moslashib, boshpana sifatida g‘orlarni o'zlashtirganlar va tabiiy olovdan foydalana boshlaganlar. Ibtidoiy odamlar barcha g ‘orlarda ham yashamaganlar. Odatda tagi tuproqli, quyosh nuri tushadigan, buloq suvi yaqin, ovchilik va termachilik qilishga qulay g ‘orlarda yashaganlar. Olduvay davri makonlariga k o ra, ashel davri makonlari ko'proq topilgan. Bu davr odamlarining u davrga nisbatan ko‘paya boshlaganidan darak beradi. Termachilikning ahamiyati pasayib, ovchilik ahamiyati oshgan. Yashash uchun kurash odamlarni birlashtirgan. Bir tomondan yirik hayvonlarni to'da bo‘lib ovlash zarur bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan g'orlarni o'zlashtirish jarayonida u yerdagi yiritqich hayvonlarni haydash va ulardan himoyalanish zarur bo'lgan.

So’ngi paleolit davrida orta osiyoda yashagan odamlarning mehnat qurollari ham ancha takomillashdi .Suyak va shoxdan yasalgan buyumlar :igna qarmoq har xil bezaklar shakillangan.

Odamlar o’rtasida o’troq hayot kechirish tobora ustun mavqeyga ega bo’la borgan.Urug’chilk jamiyatida dastlabki diniy e’tiqodlar va marosimlar kelib chiqqan.Bu davrda qarindosh urug’lar ortasida nikoh taqiqlangan.Bu insonning biologik jihatdan takomillashib borishini taminlagan.[4]

XULOSA. Ko’lbuloq makoni O’zbekistonning qadimiy tarixiga oid muhim joylardan biri bo’lib ,u hozirgi Toshkent viloyatida joylashgan.Bu makon asosan arxeologik qazishmalar va ilmiy tadqiqodlar asosida tarixiy ahamiyatga ega.Ko’lbuloq topilmalari O’rta Osiyo tarixining o’rta asrlar madaniyati din va ijtimoiy hayoti haqidagi tasavvurlarni o’rganishga imkon yaratadi.Kolbuloq makonidan topilgan yodgorliklar mehnat qurollar orqali shu davrda yashagan odamlarning turmush tarzini aniqlashda asosiy manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.S.Sagdullayev O’zbekiston tarixi 1-kitob T 2024
2. Ahmadali Asqarov O’zbek xalqining kelib chiqishi tarixi T 2015
3. N.A.Egamberdiyeva Arxeologiya T.2023
4.Rustambek Shamsutdinov Vatan tarixi T.2010

TOSHKENTNNING ZABT ETILISHI

Qozoqboyeva Sevinch Ajimjonqizi
Chirchiq davlat pedogogika universiteti talabasi
qozoqboyevasevinch6@gmail.com
Ilmiy rahbar: Jumayeva Shoira

Annotatsiya: Ushbu maqolada 1865-yilda Rossiya imperiyasi tomonidan Toshkent shahrining zabt etilishi, uning harbiy-strategik sabablari, bosib olish jarayoni va bu voqeaning Markaziy Osiyodagi siyosiy holatga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, Rossiyaning bu hududdagi mustamlakachilik siyosatining boshlanishi, mahalliy aholi hayotiga ta'siri va Toshkentning keyingi yillardagi roli yoritiladi.

Kalit so'zlar: Toshkent, Rossiya imperiyasi, Kokand xonligi, Chernyayev, 1865-yil, Markaziy Osiyo, zabt etilish, Turkiston general-gubernatorligi.

XIX-asr o‘rtalarida Markaziy Osiyo hududida siyosiy beqarorlik kuchayib, yirik shaharlar va xonliklar o‘zaro kurashda zaiflashib borayotgan edi. Bu vaziyat Rossiya imperiyasi uchun mintaqani o‘z tasarrufiga olish imkoniyatini yaratdi. Ayniqsa, iqtisodiy va strategik jihatdan muhim bo‘lgan Toshkent shahri Rossiyaning asosiy nishoniga aylandi. 1865-yilda general M. G. Chernyayev boshchiligidagi rus qo‘shinlari tomonidan Toshkent bosib olinib, bu voqea Rossiyaning butun Turkiston ustidan hukmronligini yo‘lga qo‘yishida muhim burilish nuqtasi bo‘ldi. Mazkur maqolada ushbu tarixiy hodisaning sabablari natijalari va mintaqadagi tarixiy ahamiyati tahlil qilinadi. XIX-asr o‘rtalarida Rossiya podsho hukumati yirik strategik mavqega ega bo‘lgan Toshkentni bosib olish maqsadida harbiy yurish boshladi. Bu vaqtda Toshkent va Toshkent viloyatiQo‘qon xonligi tarkibida edi. 1864-yil dekabr Mixail Chernyayev boshchiligidagi rus qo‘shinlari Chimkent yo‘lidan kelib Oqqo‘rg‘on tepaligiga o‘rnashdilar va shaharni qamal qilib to‘plardan o‘qqa tutdilar. Toshkentliklar shaharni qattiq turib himoya qildilar. Qo‘qondan xonlik lashkarboshisi Mulla Alimqul mingboshi ko‘p ming kishilik qo‘shin bilan Toshkentga yetib kelgach, Chernyayev qo‘shinlari bilan Chimkentga chekinishga majbur bo‘ldi. Biroq 1865-yil 27-aprelda Chernyayev qariyb 2000 kishilik qo‘shin bilan yana Toshkent tomon yo‘lga chiqib, Chirchiq daryosi bo‘yidagi Niyozbek qal'asini egallaydi va shaharni suvsiz qoldirish maqsadida Kaykovus arig‘i (Bo‘zsuv kanali) suv oladigan to‘g‘onni buzdirib tashlaydi.

Lashkarboshi Alimqul ham o‘z qo‘shinlari bilan Qo‘qondan Toshkentga yetib keladi. Sulton Saidxon, Alimqul va toshkentlik akobir-ulamolar boshchiligida shaharni himoya qilishga katta tayyorgarlik ko‘riladi. Chernyayev 7-mayda qo‘shinlari bilan Toshkentga yaqinlashadi. Uning qo‘shinlari Salor arig‘ini kechib o‘tib, Tarxon-Sayyod (hozirgi Darxonota) arig‘ining o‘ng sohili (hozirgi Pushkin ko‘chasi)da muqobil turgan Toshkent himoyachilariga qarata to‘pdan o‘t ochadilar. 9-may kuni shaharning shimoli-sharqidagi Sho‘rtepada Toshkent himoyachilari bilan rus bosqinchilari o‘rtasida yana qattiq jang bo‘ladi. Jangda Alimqul og‘ir yarador bo‘lgach, himoyachilar o‘rtasida parokandalik va vahima boshlanadi. Qo‘qon xonligi askarlari Alimqul xazinasini olib o‘z yurtlariga jo‘nab ketdilar. Toshkentda Qo‘qon xonligining 60 yillik hukmronligi barham topdi. Buxoro amirligi, Qo‘qon va Xiva xonligi|xonliklari Toshkent himoyachilarining yordam so‘rab qilgan murojaatlariga rad javobini berdilar. Chernyayev fursatni boy bermaslik uchun Toshkentni qamal qildi. Shahar aholisi suvsiz qoldi, oziq-ovqat zaxirasi ham tugadi.

14-iyunda Chernyayev askarlari shaharga bostirib kirishga muvaffaq bo‘ldi, ular do‘kon va uylarga o‘t qo‘ydilar. Shahar mudofaasida faol qatnashgan toshkentlik tarixchi Muhammad Solih „ Tarixi jadidai Toshkand“ asarida yozishicha, toshkentliklar dushmanga qattiq qarshilik ko‘rsatganlar. Bosqinchilar birinchi galda O‘rda saroyini yondirdilar, keyin portlatdilar. Uch kun davom etgan jangdan so‘ng 42 kun suvsiz qolgan va ochlikdan tinkasi qurigan Toshkent himoyachilari 17-iyunda ertalab taslim bo‘lishga majbur bo‘ldilar. Chernyayev shahar ayonlaridan Toshkentning 12 darvozasi ramziy oltin kalitlarini topshirishni talab qildi. Juda ko‘p odam qurbon bo‘ldi. Chernyayev buyrug‘i bilan uylar yondirildi, egalari otib tashlandi yoki miltiq nayzasi bilan sanchib o‘ldirildi. Hech kimga shafqat qilinmadi. Shunday qilib, podsho Rossiyasi qo‘shinlari maxsus otryadi bilan Toshkentni bosib olishga muvaffaq bo‘ldi. Toshkent va unga qarashli atrof yerlarda rus davlatining hukmronligi o‘rnatildi. Toshkent Rossiyaning keyinroq Turkiston xonliklarini bosib olishi uchun tayanch punktiga aylantirildi. Chernyayev, o‘z bosqinchiligini oqlash uchun Toshkent go‘yo ixtiyoriy ravishda Rossiya tobeligiga o‘tganligi haqida shahar ayonlari nomidan qalbaki hujjat tayyorladi. Bu hujjatni imzolashdan bosh tortgan Solihbek Oxun va yana ayonlardan 6 kishi Sibirning Tomsk shahriga surgun qilindi.

1865-yil sentabrda Orenburg general-gubernatori Krijanovskiy Toshkentga kelib shaharni Rossiya imperiyasi tasarrufiga o‘tganligini e’lon

qildi. 1866-yil avgustda Rossiya imperiyasining Toshkentni Rossiya tobeligiga olinganligi haqida rasmiy farmoni e'lon qilindi. Toshkent 1867-yilda tashkil etilgan Turkiston general-gubernatorligining siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazi bo'lib qoldi. Anhorning chap sohilida mustamlakachi ma'murlar va harbiylar uchun Yangi shahar qurila boshladi. 1865-yil avgust-oktabr oylarida ruslar Toshkentning Qo'ymas darvozasi ro'parasidagi tepalikda Toshkent Tuproqqo'rg'oni harbiy qal'asini barpo etishdi. Yangi shahar hududida ma'muriy idora va mahkamalar joylashdi. Anhorning o'ng sohilidagi qadimgi Toshkent Eski shahar deb atala boshladi. Toshkentning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi butun Turkistonni bosib olinishini tezlashtirdi.

Xulosa. Toshkentning 1865-yilda Rossiya imperiyasi tomonidan zabt etilishi Markaziy Osiyo tarixida burilish yasagan muhim siyosiy voqea bo'ldi. Bu hodisa nafaqat shahar va uning aholisi uchun, balki butun mintaqadagi siyosiy kuchlar muvozanatining o'zgarishiga olib keldi. Rossiya bu zabt orqali Turkiston ustidan o'z hukmronligini boshlab, mintaqaviy xonliklarni bosqinchilik yo'li bilan asta-sekin o'ziga bo'ysundirdi. Toshkent esa imperiyaning muhim boshqaruv va harbiy markaziga aylandi. Bu voqea mustamlakachilik siyosatining boshlanishi, mahalliy boshqaruv tizimining izdan chiqishi va milliy uyg'onish jarayonlariga turtki bo'lib xizmat qildi. Tarixiy jihatdan bu bosib olinishi mintaqaviy mustaqillikning yo'qotilishi bilan bir qatorda, kelajakdagi ozodlik harakatlari va siyosiy o'zgarishlarning ham boshlanish nuqtasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov, I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

2. Ziyo, B. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2015.

3. Qayumov, A. Turkiston va Rossiya imperiyasi: Tarixiy manzara. – Toshkent: Fan, 2000.

4. Mavlanov, R. Toshkent: Tarix va taraqqiyot yo'li. – Toshkent: Sharq, 2010.

5. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi(2000-2005) ma'lumotlaridan foydalanilgan.

MUSTAQILLIK DAVRIDA TOSHKENT

Qulboyev Samandar
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi
Ilmiy rahbar: Qandov Bahodir Mirzayevich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti

ANNOTATSIYA: Mazkur ishda O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka e rishganidan so‘ng Toshkent shahrida ro‘y bergan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar yoritib berilgan. Unda poytaxtning yangi taraqqiyot bosq ichiga ko‘tarilishi, infratuzilmaning rivojlanishi, zamonaviy arxitektura namun alarining paydo bo‘lishi va shahar aholisining turmush tarzidagi ijobiy o‘zgaris hlar tahlil qilinadi. Shuningdek, Toshkentning mustaqillik yillarida xalqaro ma ydondagi nufuzi ortgani, unda o‘tkazilayotgan xalqaro anjumanlar va madaniy tadbirlar, yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar haqida ma’lumotlar beril adi. Ish Toshkent shahrining O‘zbekiston mustaqilligi davridagi taraqqiyot yo‘l ini har tomonlama ochib berishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Mustaqillik davri, Toshkent shahri, madaniy meros, tarixiy obidalar, davlat hokimiyati, hokimlik tizimi, poytaxt maqomi, shahar gerbi, xalqaro anjumanlar, iqtisodiy islohotlar, sanoat korxonalari, aviatsiya sanoati, xorijiy sarmoyalar, xalqaro aloqalar, YUNESKO tadbirlari, elchixonalar.

Kirish: 1991-yilda O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, milliy an’analar, tarixiy meros va madaniy hayotga bo‘lgan munosabat keskin o‘zgardi. Ilgari e’tibordan chetda qolgan yoki siyosiy sabablarga ko‘ra unut bo‘lgan madaniy merosni qayta tiklash, asrab-avaylash va uni kelajak avlodlarga yetkazish muhim vazifaga aylandi. Bu jarayonda Toshkent shahri muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u O‘zbekistonning siyosiy hamda iqtisodiy yuragi bo‘lish bilan birga, ko‘p asrlik tarix va madaniyat markazi sifatida alohida o‘rin tutadi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, Toshkentda O‘zbekistonning boshqa viloyat va shaharlarida bo‘lgani kabi boshqaruvning tarixiymilliy shakli – hokimlik o‘rnatildi. 1991-yil 18-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining „O‘zbekiston Respublikasi poytaxti – Toshkent shahri maqomi va davlat hokimiyati organlari to‘g‘risida“gi qaroriga muvofiq Toshkentda hokim lavozimi joriy etildi. Toshkent shahar hokimi Prezident tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda Xalq deputatlari

shahar kengashi tomonidan tasdiklanadi. Shahardagi tumanlarning hokimlari shahar hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi xamda xalq deputatlari shahar kengashi tomonidan tasdiklanadi. Toshkent 2000-yillikdan ortiq tarixga ega. Bu davr ichida u mudofaa devori bilan o‘ralgan qal’adan jahondagi yirik shaharlardan biri, O‘zbekiston Respublikasining poytaxtigacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tdi. Asrlar davomida shahar o‘zining tinch hayotidagi muhim voqealarni va suronli jangu jadallarni, yuksalish va inqiroz davrlarini boshidan kechirdi. Necha bor shahar vayron bo‘lib, qayta qad ko‘tardi. Kds. o‘rnidan necha bor siljib, nomi xam bir necha marta o‘zgardi. Xoja Ahror Valiy, Shayx Umar Bog‘istoniy, Abu Bakr Shoshiy, Abu Sulaymon Banokatiy, Hofiz Ko‘hakiy kabi butok allomalar shu hudjda yashab, ijod etganlar.

Toshkentning uzoq o‘tmishi va u qad ko‘targan qadimgi Choch yoki Shosh viloyati haqidagi ma’lumotlar yozma manbalarda xilmaxil hamda uzuqyuluq tarzda aks etgan. Zardushtiylarning qadimgi muqaddas kitobi Aeecmona Sirdaryo havzasidagi mamlakat „Turon“, aholisi esa „tur“lar deb yuritilgan. Bu o‘lkada tur qavmlari urug‘ va qabila oqsoqollarining diniy va siyosiy qarorgohi – Qang‘xa (Qang‘a) shahri borligi tilga olinadi.

1991-yil 31-avgustda Toshkentda O‘zbekiston mustaqilligi e’lon qilindi. Hozirgi Toshkent O‘zbekiston Respublikasining siyosiy markazi hamdir. Bu yerda O‘zbekiston Prezidentining qarorgohi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi, shuningdek, ijtimoiy harakat va partiyalarning va boshqa jamoat tashkilotlarining markazlari, chet el elchixonalari, BMT ga qarashli tashkilotlar vakolatxonalari joylashgan. Toshkent chet ellardagi birodarlashgan shaharlar bilan do‘stona aloqalarni rivojlantirishga salmoqli hissa qo‘shmoqda, Toshkent bir qancha xorijiy shaharlar bilan birodarlashgan.

Toshkentning eng muhim xususiyatlari shahar gerbi (ramzi)da aks etgan. U uzoq tarixga ega. Ilk o‘rta asrlardayoq Toshkentning o‘ziga xos ramzi yuzaga kelgan. 8-asrda Choch (Shosh) shahrining nishoni qoplon (tog‘ barsi) bo‘lgan. Buni 8-asr birinchi yarmida hukmdorlik qilgan Yabg‘u Tarnovcha nomi bilan zarb qilingan tangalarning old tomonida krplon, orqasida esa qang‘arlarning ayri tam/ali va sug‘d yozuvida „Tarnovcha“ deb bitilgan muhri tasvirida ko‘rish mumkin. Toshkent hukmdorlari ko‘pincha o‘z valiaxdlariga ham tog‘ning eng kuchli va epchil jonzodiga qiyosan Elbarsxon, Belbarsxon

kabi ism qo‘yganlar. Toshkentning O‘zbekiston mustaqilligi davridagi gerbi 1996-yilda tasdiqlangan, 2003-yilda gerb tasviriga qisman o‘zgartirishlar kiritilgan.

Toshkentda jahon mamlakatlari, BMT tashkilotlari va Markaziy Osiyo davlatlarining turli muhim mavzulardagi seminar, simpozium va qurultoylari o‘tkazib turiladi. 1998-yilda YUNESKO tashkiloti Ijroiya Kengashining 155-sessiyasi, 1999-yil 19-20-iyulda Afg‘oniston muammosini hal etish bo‘yicha 6Q2 guruhining BMT homiyligidagi uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Unda tarixiy Toshkent deklaratsiyasi qabul qilindi. 2000-yil sentabrda YUNESKO xrmiyligida „Dinlararo dialog va dunyo madaniyati“ mavzuidagi xalqaro konfess, 2003-yil 14-mayda „Interkontinental“ mehmonxonasida „Markaziy Osiyo 20asrda: hamkorlik, sheriklik va muloqot“ mavzuida xalqaro konferensiya, 2004-yil iyun oyida Shanxay hamkorligi tashkilotining konferensiyasi o‘tkazildi. Toshkentda mustaqillik sharofatidan kelib chiqib ham iqtisodiyot, ham ma’naviyat sohasida tub islohotlar qilina boshladi. Iqtisodiyot sohasida bozor munosabatlariga o‘tilishi talablari asosida biznes, ishbilarmonlikni, xorijiy sarmoyalar kiritishni rag‘batlantirish, yangi bankkredit sistemasini barpo etish, mulkni xususiylashtirishga doir bir qancha amaliy tadbirlar ko‘rildi. Shaharda xorijiy mamlakatlar ishbilarmonlari bilan hamkorlikda qo‘shma korxonalar, firmalar ochish rivoj topa boshladi.

Shahar qiyofasiga sharqona tus berilishiga ahamiyat berildi. 1991-yil 1-sentabrda Toshkentdagi Markaziy maydonni Mustaqillik maydoni deb atash haqida O‘zbekiston Prezidenti farmoni e’lon qilindi. Ko‘chalar, maydonlar, tashkilotlar, tumanlar qayta nomlana boshladi. Shahar markazidagi eng katta xiyobon Amir Temur nomi bilan atalib, Sohibqironga haykal o‘rnatildi va temuriylar davri tarixi davlat muzeyi qurildi. Shaharning olimlar yashaydigan dahasidagi maydonlardan biriga Mirzo Ulug‘bekka haykal qo‘yildi va hokazo.

Toshkentni obodonlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Shaharga kerak bo‘lmagan, uning tabiiy muhitini buzadigan korxonalar, tashkilotlar yopildi yoki shahardan tashqariga ko‘chirildi. Toshkentning Eski shag‘ar qismida joyning o‘ziga xos xususiyatlarini e’tiborga olib, asosan, 1995-yildan butun infrastrukturani kompleks rivojlantirishga kirishildi. Mahallalararo aloqalarni saqlab qolib, shaharning tarixan tarkib topgan qismini tubdan ta’mirlash va obodonlashtirish yo‘lida katta ishlar kilindi. Jumladan, Eski shaharning Krrasaroy, Sag‘bon, Bobojonov, Forobiy ko‘chalari kengaytirilib,

kayta ochildi. Bu koʻchalarda transport qatnovi yaxshilandi. Fargʻona yoʻli, shuningdek, Toshkentni Qozogʻiston bilan bogʻlovchi Keles koʻprigi va boshqa qayta qurildi. Oʻzbekiston davlat konservatoriyasi, Islom universiteti, „Turkiston“ saroyi, Respublika Birja markazi, „Tata“ („Quality“) mehmonxonasi, „Toshkentlend“ istirohat bogʻi va boshqa inshootlar foydalanishga topshirildi. „Olay“, „Eski joʻva“, „Farhod“, „Beshyogʻoch“, „Mirobod“, „Asaka“, „Otchopar“, „Parkent“, „Koʻkcha“ bozorlari deyarli qayta qurildi. Toshkent metrosining Yunusobod yoʻnalishi ishga tushirildi. Toshkentdagi bir qancha xashamatli binolar, Oʻzbekiston milliy bogʻi, Yapon bogʻi, Gʻafur Gʻulom nomidagi bogʻ, Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, Xalqaro biznes markazi, Temuriylar tarixi Davlat muzeyi, „Interkontinental Toshkent“, „Le Meridian otel Tashkent Palace“, „RadissonSAS Tashkent“ mehmonxonalari, „Yunusobod“, „JAR“, „Golfklub“ sport majmualari, eng yuqori xalqaro standartlarga javob beradigan Oʻzbekiston milliy banki sport majmuasi, shaharning bir qancha joylarida qurilgan koʻpriklar va kichik halqa yoʻli, „Shahidlar xotirasi“ majmui, „Xotira“ maydoni, Oʻzbekiston tasviriy sanʼati galereyasi va boshqa Oʻzbekiston poytaxtining taraqqiy qilish bosh rejasining eng koʻzga koʻringan bosqichlari xolos. Bu oʻzgarish va qurilishlarning muallifi va tashabbuskori Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdugʻaniyevich Karimovdir.

Oʻzbekistonda mustaqillik yillarida „Fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlarini qoʻllabquvvatlash haqida“gi farmoni (1998) va qonuni (1999), „Obod mahalla yili“ dasturi (2003) asosida T. mahallalari oʻz huquqiy maqomiga ega boʻldi. Ularning faoliyat doirasi kengaydi. Mahallalar yuridik shaxs sifatida oʻz mulkiga, moliyaviy byudjetiga bankdagi hisob raqami – jamgʻarmasiga ega boʻldi, rahbariyat (rais, kotib)ning nufuzi ortdi, vazifalari aniq belgilandi. Mahallalar oʻz hududlarida savdo va maishiy xizmatni, sanitariya va ekologik holatlarni yaxshilash, toʻlovlar sistemasida ishtirok etib, mahalla va aholi ahvolini yaxshilashga koʻmaklashish kabilarda faol qatnashish imkoniga ega boʻldilar.

Toshkent – Respublikaning eng yirik sanoat markazi. Mamlakatda ishlab chiqariladigan mahsulotning 30 % ga yaqini poytaxt hissasiga toʻgʻri keladi. Shahar sanoatida 14 tarmoqqa mansub 300 dan ziyod asosiy korxonalar ishlab turibdi. Sanoat ishlab chiqarish. tarkibida elektr energetikasi, mashinasozlik va samolyotsozlik, metallga ishlov berish, binokorlik materiallari, yengil va oziqovqat sanoati kabi tarmoklar salmoqdi oʻrinni

egallaydi. T. to‘qimachilik kombinatida ip gazlama mahsulotining asosiy qismi ishlab chiqariladi. Aviatsiya ishlab chiqarish. birlashmasi, Toshkent traktor zavodi, „Algoritm“, „Zenit“ ishlab chiqarish birlashmalari, elektronika zavodi, „Tong“, „Malika“, „Yulduz“ tikuvchilik fabrikalari, binokorlik korxonalarining keng tarmog‘i ishlab turibdi. Bu korxonalar o‘z mahsuloti bilan tashki dunyoga chiqmoqda. Aviatsiya ishlab chiqarish. birlashmasining jahon andozalariga javob beradigan „Il76“, „Il114“ samolyotlari ishlab chiqarilmoqda.

XULOSA: O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng Toshkent shahri mamlakat hayotining siyosiy, iqtisodiy va madaniy markaziga aylandi. Tarixiy merosni tiklash, milliy qadriyatlarni rivojlantirish, shahar infratuzilmasini yangilash va obodonlashtirish ishlari jadal olib borildi. Hokimlik boshqaruv tizimi joriy qilinib, mahalliy boshqaruv organlarining salohiyati oshdi. Toshkentda xalqaro anjumanlar o‘tkazilib, uning xalqaro nufuzi mustahkamlandi. Sanoat, transport va ijtimoiy sohalardagi islohotlar natijasida shahar nafaqat O‘zbekistonning, balki butun mintaqaning yetakchi shaharlaridan biriga aylandi. Mustaqillik yillarida Toshkent o‘z tarixiy qiyofasini saqlab qolgan holda, zamonaviy shahar sifatida taraqqiy topdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B. 98–101.
2. Toshkent ensiklopediyasi (5 jildlik). – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2007. – B. 55–60.
3. Yo‘ldoshev M. Toshkent shahrining tarixiy va zamonaviy taraqqiyoti. – Toshkent: Akademnashr, 2015.
4. Xidoyatov G’. Toshkent – tarix va zamon uyg‘unligi. – Toshkent: Fan, 2003.
5. UNESCO. Tashkent and Central Asia: Culture and Development. – Paris: UNESCO Publishing, 2004.

AMIR TEMURNING HARBIY MAHORATI VASARKARDALARI

Quldoshev Sultonbek Nizomiddin o'g'li
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Tarix yo'nalishi 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar :Parmonov Sharofiddin Shavkatovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sohibqiron Amir Temurning harbiy mahorati sarkardalarni tanlay bilishi va Temuriy shahzodalarning harbiy sa'nati va sarkardalik faoliyatlari manbalar orqali tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Uchinchi rennesans, qurultoy, otabek, bekatka, to'pra'd, zarbzan, farangi, tunqol, xossa tobin, g'o'l, ovgarta, o'ron,chag'davul.

Temuriylar harbiy san'ati deganda jahon harbiy san'ati rivojiga Amir Temur va uning avlodlari xususan, Bobur Mirzo tomonidan qo'shgan salmoqli hissalari tushuniladi. Bu mutaxassislar, sarkardalar tomonidan haqli ravishda e'tirof etilgan. Masalan, Amir Temurning sarkardalik salohiyati haqida usmonli turklarning XX asrdagi buyuk vakili Mustafo Kamol Otaturk shunday degan edi: «Menimcha, jahonda o'tgan sarkardalarning eng ulug'i Amir Temurdir. U hech qachon biror urushni ko'r-ko'rona, faqat harbiy omadga ishonib boshlamagan. U har bir harbiy yurishga jiddiy, puxta, aniq hisob-kitob asosida uzoq yillar davomida hozirlik ko'rardi... Anqara jangida qozongan g'alabasiga u aqli bilan erishgan».

Buyuk lashkarboshi va novator harbiy tashkilotchi bo'lgan Sohibqiron intizomli armiya tuzishga, jang paytida qo'shin qismlarini oqilona boshqarishga, jang taqdirini hal qiladigan joylarga harbiy kuchlarni tezkorlik bilan yo'llashga, mavjud to'siq va g'ovlarni tadbirkorlik bilan bartaraf etishga, qo'shindagi jangovar ruhni yuksak darajada ushlab turishga erishgan. Harbiy qurilish borasida o'z zamondoshlaridan o'zib ketgan Amir Temur o'z davrida armiyani yaratish va takomillashtirish borasida mukammal tizimni ishlab chiqib, uni mohirlik bilan amalga oshirgan.

Sohibqiron davridagidek mukammal harbiy tuzilma to'g'risidagi ma'lumotlar tarixiy manbaalarda kam uchraydi. Uning saltanatida qo'shin tuzilishi, lavozimlarga tayinlash va unvonlar berish, moddiy ta'minot, qurol-yarog' tutish tartibi, maosh va rag'batlantirish tuzuklari, hatto munosib nafaqa tayinlash tizimigacha tartibotlar ishlab chiqilgan va amal qilgan. Bu harbiy tizim nafaqat yurtimiz, balki dunyoning ko'plab mamlakatlarida bugunga qadar andoza, asos va poydevor sifatida o'rganib kelinayotganligi bilan ham ahamiyatlidir.

Mashhur rus muallifi M.Ivanin 1874-yilda Chigizxon va Amir Temur harbiy mahoratini taqqoslab yozgan va Rossiya imperiyasi harbiy-ilmiy qo‘mita hukmiga havola etgan “Ikki buyuk sarkarda” asarida Sohibqiron Amir Temur haqida shunday degan edi “Tajribaga ega mohir va sarkarda jang maydonini sinchiklab ko‘zdan kechirishi, dushmanning qaysi tarafdan ustun ekanligini o‘rganishi, o‘z nuqsonlarini tez orada yo‘qota olishi, dushman alohida ajratilgan qismlar bilan hujumga o‘tayotgan yoki bor qo‘shinlarini birvarakayiga kiritganligini kuzatishi, unga qarshi ishonch bilan harakat qilishi, muvaffaqiyatga erishish uchun maxfiy bor-yo‘qligini bilshi kerak edi, Amir Temurning aytishicha, dushman hujum qilishi yoki chekinmoqchi ekanligini, hujumni takrorlamoqchiligi yoki birinchi hujum bilan qanoatlanayotganini kuzatish va tezda o‘qib olish katta san’at hisoblanadi. Sarkarda jang paytida o‘zini yo‘qotmasligi kerak. Kurashchi o‘z tanasi qismlaridan-qo‘llari, oyoqlari, boshi va shu kabilardan qurol sifatida qanday foydalansa, sarkarda ham jangchilarinig lozim bo‘lganda, kamon, oybolta, gurzi va qilichni shunday o‘z o‘rnida ishlatishlarini kuzatib va boshqarib turishi lozim.”

2018 yil Novosibirsk davlat universiteti mutaxassislari jahon tarixida ilk bor buyuk Amir Temurning 12 nafar eng yaxshi sarkardasi harbiy tarjimai holini tiklaganligi haqida ma’lum qildilar. Universitet yetakchi ilmiy xodimi, tarix fanlari doktori Leonid Bobrovning so‘zlariga ko‘ra, «Amir Temur sarkardalarini shartli ravishda uch guruhga bo‘lish mumkin. Birinchi guruh – «sarkarda bo‘lish uchun tug‘ilganlar», ular haqiqatan ham iqtidorli bo‘lgan va Amir Temur bu iqtidorni ko‘ra bilgan. Ikkinchi guruh – «lavozim bo‘yicha sarkardalar», ular Amir Temur safdoshlarining farzandlari bo‘lib, lashkarboshilik san’ati va lashkarni ota-bobosidan meros qilib olgan. Uchinchi guruh – «sarkarda bo‘lib tug‘ilganlar», ya’ni shaxsan Temurning qo‘lida saboq olgan temuriyzodalar».

Sohibqiron armiyasining turli bo‘linma va qismlariga 313 bek boshchi-lik qilgan. Ulardan dastlabki 100 tasi o‘nbegilik, ikkinchi 100 tasi yuzbegilik, uchinchi 100 tasi mingbegilik lavozimlarini egallagan. Diviziya-tumanlarga Amir Temurningfarzandlari, nabiralari va nomdor lashkarboshilarrahbarlikqilgan.

Bo‘lajak sarkardalar juda yoshlikdan harbiy san’atning sirlari, nozik qirralari bilan tanishganlar, tajribali murabbiy (otabek, bekatka)lardan askariy ta’lim borasida saboq olganlar, harbiy harakatlarda faol ishtirok etganlar. Shuning uchun ham ular mardligi, matonati, jasurligi, g‘animdan aslo

choʻchimasligi bilan dong taratgan. Oʻta qaltis vaziyatlarda ham lashkarni oʻz ortidan ergashtirish, ularning qalbida gʻalabaga boʻlgan ishonchni avj oldirish salohiyatiga ega boʻlishgan. Bu fikrimizning isbotini professor Hamidulla Dadaboevning «Sohibqiron sarkardalari» asarida keltirilgan ma'lumotlarda koʻrishimiz mumkin.

Professor Hamidulla Dadaboev «Sohibqiron sarkardalari» nomli asarida Sohibqiron tuzgan armiyada xizmat qilgan sarkardalar tarkibiniyangicha yondoshuv asosida tadqiq qilib, ularning etnik tarkibini, kelib chiqishini, jamiyatda egallagan maveini oʻrganish asnosida 323 sarkarda haqida mukammal ma'lumotlar bayon qilindi. Ushbu asarda Sohibqiron sarkardalari shartli ravishda toʻrt guruhga taqsimlagan. «Birinchi guruhga Temurbekning markazlashgan davlat barpo etish iddaosi bilan siyosat sahnasiga qadam qoʻygan vaqtdan hayyotining soʻngi onlariga qadar unga sodiq, hamfikr, hamnafas boʻlgan Sulaymonbek barlos, Jakubek barlos, Husaynbek barlos, Sayfuddinbek nukuz, Dovudbek dugʻlat... singari urugʻ va qavm rahbarlarini kiritish mumkin.

Ikkinchi guruhga Amir Temurning tengqurlari, doʻstlari, safdoshlarining farzandlari Jakubekning oʻgʻilllari Jahonshoh, Mizrob, Ziyrak, inisi Gʻiyosiddin, nabirasi Burunduq, 1391-yilda Toʻxtamishxon lashkari bilan kechgan tengsiz jangda halok boʻlgan Eygu Temurbekning qondoshi Shohmalik, Saribugʻabekning farzandlari Berdibek, Shayx Nuriddin va Hojibek, inisi Oʻrusbugʻa, Abbosbek bahodirning oʻgʻilllariAli, Usmon, Umar, Shamsuddin, Hoji Abdulloh, Sayfuddinbekning farzandlari Abdulkarim, Abdussamad, Sayfulmululk, Sulton Sanjar, Tohir, Fozil, inisi Allohdod... kabi koʻplab sarkardalar alohida oʻrin egallagan.

Uchinchi guruhni Sohibqironning farzandlari, nabiralari, yaqin qarindoshlari, tugʻishganlari tashkil qilgan. Chunonchi, ularga Jahongir mirzo, Umarshayx mirzo, Amiranshoh mirzo, Shohruh mirzo va ularning pushti kamaridan tugʻilgan Muhammad Sulton mirzo va Pir Muhammad mirzo ibn Jahongir mirzo, Rustam mirzo va Iskandar mirzo ibn Umarshayx mirzo, Abu Bakr mirzo, Umar mirzo va Xalil Sulton mirzo ibn Amiranshoh mirzo shular jumlasidandir...

Toʻrtinchi guruhga Sohibqiron tuzgan ulkan saltanat tarkibiga kirgan qator el-yurtlarning hukmdorlari, sarkardalarini kiritish mumkin. Xususan Ali Sulton Xurosoniy, Ali Mosuliy, Yodgor Andxudiy, Ibrohim Qummiy, Koʻcha Malik, Muborakshoh Sanjariy, Muhammad Sultonshoh, (Kartiy, Xurosoniy,), Sayyid Izuddin Hazorgiriy, Sayful Qandahoriy, Tahurtan Arzinjoniy, Shayx

Ibrohim Shirvoniy, Shoh Ali Farohiy, Qaro Usmon turkman shular jumlasidandir».[8.6]

Bu ma'lumotlar asosida Sohibqiron tuzgan armiyasida xizmat qilgan sarkardalar tarkibi faqat yaqinlaridan tuzilgan degan, xulosa chiqarishiimz noo'rin. «Amir Temur qo'mondonlar tarkibini yuqori mahorat va malakaga ega iste'dod egalaridan shakllantirishga jiddiy etibor qaratgan, harb ishiga qobiliyati bor har bir shaxs, ijtimoiy kelib chiqishi, jamiyatda egallagan maveidan qat'iy nazar, lashkarboshilik rutbasiga sazovor bo'lgan. Bunday iste'dod egalari sirasiga Vafodor, Mubashshir Muhammad, Ozod Me htar, Tobon bahodur, Umar Tobon sarkardalarni kiritish mumkin».

Amir Temur va temuriylar armiyasi chorvadorlar qatori kosibchilik, hunarmandchilik, dehqon-chilik bilan mashg'ul o'troq aholidan ham askar to'plagan.

Qo'shinda harbiy kuchlarning asosini tashkil qilgan otliq askarlar bilan bir qatorda piyodalar ham xizmat qilgan. Sohibqiron Sharqda birinchilardan bo'lib armiyaga o't sochar qurol -(to'pra'd)ni olib kirgan. Temuriylar davrida bu qurolning boshqa turlari (zarbzan, farangi, qozon) keng yoyildi. Tog'li hududlarda jang harakatlari olib boruvchi maxsus harbiy qism va bo'linmalar tashkil qilingan. Amir Temur jahon harbiy ish tarixida birinchi bo'lib qo'shinni jang maydonida an'anaviy 5 bo'lakdan farqli ravishda 7 qo'lga bo'lib joylashtirish tartibini joriy etgan. Bu yangilik keyinchalik To'xtamish, Shayboniyxon singari sarkardalar tomonidan o'zlash-tirilgan. Ibn Arabshohning guvoxlik berishicha, Sohibqiron qo'shinida ayollardan iborat bo'linmalar bo'lib, ular erkaklar bilan bir safda turgan, qahramonlik va matonat namunalarini ko'rsatgan.

Sohibqironning janggohlarni tanlash san'ati, urush usullari va taktikasi, lashkar tutish va sipohiylarni saflash qoidasi «Temur tuzuklari» kitobida batafsil yoritilgan. Jumladan, 12 ming kishilik, 40 ming kishilik qo'shinlarni jangga qay tartibda kirishi batafsil bayon qilingan.

Sohibqiron qo'shini jangovar tartibi o'z zamonasining mavjud yangiliklari asosida har doim takomillashtirib borilgan va o'z vaqtining ilg'or qurol va texnikasi bilan ta'minlab borilgan. Harbiy qismlar bir-biridan kiyimbosh, bayroq va tug'lari bilan farqlangan. Bunday farqlanish jangda qo'shinni boshqarishda qo'l kelgan. Dushman mudofaasini turli usullar bilan barbod etish, raqibning yirik shaharlariga qo'qqisdan zarba berish, qal'a, qo'rg'on va hisorlarning uzoq muddat muhosara qilish, yov kuchlarini iloji boricha keng ko'lamda qurshab olib, qishloq, shahar, tuman, viloyatlarni birin

ketin zabt etish, dushmanni batamom yakson etgungacha ta’qib qilish, taslim bo‘lgan mamlakatlarni boshqarishga ishonchli kishilarni tayinlash singari amaliyotlar Amir Temur va temuriylarga ko‘plab zafarlar olib kelgan.

Razvedka a’lo darajada yo‘lga qo‘yilgan, qismlarning janggohda yoki jangovar safda talab darajasida harakat qilishi uchun zarur tadbir va choralar ishlab chiqilgan, ularni jang paytida tezkorlik bilan boshqarishga alohida diqqat qaratilgan. O‘nlik, yuzlik, minglik va tuman qo‘mondon- larini tanlash masalasiga oliy bosh qo‘mondon mas’ul hisoblangan.

Sohibqironning harbiy san’at rivojiga qo‘shgan ulkan xizmatlari- dan yana biri-jang vaqtida qo‘shin qanotlarini dushman hujumidan muhofaza qilish va, o‘z navbatida, g‘anim kuchlarini yon tomondan aylanib o‘tib, unga ortdan zarba berish maqsadida tuzilgan otliq qism- qunbulning joriy etilishi bo‘lgan.

«Qo‘shin to‘plash haqida maxsus buyruq (tunqol) elon qilingach, hukmdor tomonidan tuzilgan ro‘yxatga binoan jangchilar ot-ulovi, qurol-yarog‘i, oziq-ovqati, yem-xashagi bilan to‘planish yeriga yetib kelgan.

Yetarli miqdorda qo‘shin to‘plangach, u ko‘rikdan o‘tkazilgan. Temuriylar davrida yurish yoki jangdan oldin lashkarni ko‘rikdan o‘tkazib, uning jangovar ruhi va holatini aniqlash izchillikka aylangan. Qo‘shinning jangovar holatini nazardan o‘tkazish imtihon qilish usuli sifatida e’tirof etilgan ovgarta (ov uyushtirish)dan unumli foydalanilgan».

Temuriylar harbiy yurishlarga ko‘proq ko‘klam, yoz va kuz mavsumlarida otlanishni ma’qul bilganlar. Safar qoidasiga ko‘ra, har bir sarkarda o‘z darajasi va lavozimiga qarab qism va bo‘linmalari bilan yasol — jangovar tartibda harakat qilgan. Yasolni buzgan shaxs qattiq jazolangan. Qo‘shin janggohga tushganda lashkargoh atrofi aravalar bilan to‘silgan, xandaqlar bilan ihota qilingan, soqchi bo‘linmalar tomonidan qo‘riqlab turilgan. Yurish yoki jang paytida boshboshdoqlik, parokandalikni oldini olish maqsadida har bir bo‘linma, guruh, qismning o‘z paroli — o‘ron belgilangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ш. Мирзиёев- 21.04. 2022 –Газета.уз. Қашқадарё вилояти Кўкдала туманига ташриф.

2. Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома

3. Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи.

4. Темур тузуклари

5. НизомиддинШомий.Зафарнома,

6. М.Иванин-”Икки буюк саркарда”. “Янги аср авлоди”-2017-йил

7. Бўриев О, Зулфиқоров Ҳ. Амир Темур - Турон султони.

8. Дадабоев Ҳ. Амир Темурнинг харбий маҳорати, Темурийлар ҳарбий санъати. Т. 1996.

9. Q. Kamolov-“Buyuk jahongirning harbiy boshqaruvi” UzA.uz 2021-yil

AHMAD ZAKI VALIDIYNING “XOTIRALAR” ASARIDA TURKISTON TARIXIY-MADANIY MEROSINING AKS ETTIRILISHI BO`YICHA MULOHAZALAR

Quldosheva Shahrizoda Nurali qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Tarix yo‘nalishi, 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: S.A.Toshtemirova
Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti, PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ahmad Zaki Validiyning “Xotiralar” asaridagi tarixiy voqealar, Turkistonning ilmiy-madaniy boyliklari va 1913–1914-yillardagi ilmiy safarlari doirasida amalga oshirilgan faoliyati tahlil qilinadi. Muallifning Berlin, Toshkent, Shahrisabz, Buxoro, Samarqand, Andijon va Qo‘qondagi ilmiy izlanishlari, uning o‘zbek jadidlari, xususan Cho‘lpon bilan uchrashuvlari, milliy uyg‘onish g‘oyalariga qo‘shgan hissasi ochib beriladi. Ayniqsa, “Xotiralar” asarining Turkiston tarixini tiklash va xalqaro maydonga olib chiqishdagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, 1917–1918-yillardagi siyosiy jarayonlarning jadid adabiyotiga, jumladan Fitrat va Cho‘lpon ijodiga ko‘rsatgan ta’siri, bu adabiyotning istiqlol g‘oyasini shakllantirishdagi o‘rni ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Maqolada Zaki Validiyning tarixga mas’uliyatli yondashuvi va ilmiy merosi bugungi kun yoshlariga ibrat bo‘la olishi mumkinligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Ahmad Zaki Validiyning “Xotiralar” asari, Turkiston tarixi, ilmiy safar, jadidchilik, milliy uyg‘onish, Fitrat, Cho‘lpon, istiqlol g‘oyasi, Turkiston Muxtoriyati, jadid adabiyoti.

XX asr boshlarida turkiy xalqlarning milliy uyg‘onish jarayoni, ayniqsa, jadidchilik harakati orqali o‘zining yuksak cho‘qqilariga chiqdi. Bu davrda mustamlakachilik siyosati ostida ezilgan xalq ongida erkinlik, ilm-ma’rifat va milliy qadriyatlarga bo‘lgan ehtiyoj keskin kuchaydi. Aynan shunday sharoitda sahnaga chiqgan jadid ziyolilari o‘z asarlari, matbuotdagi chiqishlari va

ma’rifatparvarlik faoliyati orqali xalqni uyg‘otishga, o‘zligini anglatuvchi tarixiy xotirani tiklashga intildilar.

Ushbu harakatning yirik namoyandalaridan biri — Ahmad Zaki Validiyning ilmiy va siyosiy faoliyati Turkiston tarixini xalqaro miqyosda yoritish, milliy o‘zlikni ilmiy asosda tiklash va turkiy dunyo birdamligini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, uning “Xotiralar” asari bu borada noyob manba sifatida ajralib turadi. Mazkur asarda Turkistonning tarixiy-madaniy merosi, 1913–1914-yillardagi ilmiy safarlar davomida uchrashgan shaxslar, jumladan Cho‘lpon bilan aloqalar, tarixiy qo‘lyozmalar bilan ishlash tajribalari hamda siyosiy tahlillar mujassamlangan.

Ahmad Zaki Validiyning boy ilmiy-ma’naviy merosi, ayniqsa uning “Xotiralar” asari har bir ziyoli uchun millatga sadoqat bilan xizmat qilish zarurligini anglatadigan bebaho ma’naviy manba, ma’nan vasiyatnoma sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu asar nafaqat avtobiografik xotiralar, balki butun turkiy olamning mustamlakachilik davrida kechirgan murakkab tarixiy jarayonlarini yorituvchi muhim manbadir. Ayniqsa, 2002 yilda “Sharq yulduzi” jurnalida chop etilgan tarjima nashriga kirish so‘z yozgan fidoyi olim Sherali Turdiyevning quyidagi afsusli, ammo haqiqatli so‘zlari bugungi kunimizda ham dolzarbligicha qolmoqda: “Shu kunga qadar A.Z. Validiyning nomini yurtimizda sanoqli odam bilardi...”.

Zaki Validiyning butun faoliyati – milliy uyg‘onish, ilmiy mustaqillik va turkiy xalqlar birdamligini qaror toptirishdek ezgu maqsadlarga xizmat qilgan. U turkiy xalqlarning tarixiy o‘zligini tiklash, ularning ilmiy va madaniy yutuqlarini jahon ilm-fani e’tiboriga havola qilish borasida beqiyos xizmat qilgan olim sifatida tarixda o‘chmas iz qoldirgan. Shu bois Asqad Muxtor o‘zining “Izchil ruh” nomli maqolasida bu ulug‘ zotni o‘zbek ziyolilariga tanitish uchun alohida e’tibor qaratib, quyidagi fikrni ilgari surgan edi: “Holbuki, u jahon tillarida (arab, turk, nemis, venger, fransuz, ingliz) to‘rt yuzdan ortiq asar e’lon qilgan. Agar shu ro‘yxatning o‘zigina ko‘zdan kechirilsa ham, bu zot oldida qanchalik qarzdor ekanligimizni anglash mumkin”. Bu so‘zlarda Zaki Validiyning umri davomida amalga oshirgan faoliyatiga berilgan baho, uning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bag‘ishlangan mehnatiga ehtirom ifodalangan.

Zaki Validiyning hayoti va ilmiy merosi nafaqat tarixiy, balki mafkuraviy ahamiyatga ham ega. Ayniqsa, O‘zbekiston bugun mustaqil davlat sifatida jahon sahnasiga chiqayotgan bir paytda, bu istiqbolga faqat iqtisodiy kuch bilan emas, balki chuqur madaniy xotira, boy ma’naviy meros va mustahkam

tarixiy tafakkur bilan chiqish zarur. Asqad Muxtorning “bizda mana shunday ruhiy izchillik namunasi bo‘lishi kerak” degan fikri bejiz aytilmagan [1, 442]. Bu izchillik, eng avvalo, tariximizga hurmat, milliy yetuklik va ilmiy tafakkur bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishi lozim.

Afsuski, bugungi kunda ham ko‘pgina o‘quvchilar va talabalar Ahmad Zaki Validiyning nafaqat jadidchilik harakatining faoli, balki turkiy dunyo tafakkurining asoschilaridan biri ekanligidan bexabar. Shu bois, uning eng mashhur asarlaridan biri “Xotiralar” kitobida Turkistonimiz tarixi, jadidlar harakati, ilm-fan va siyosat borasidagi fikr-mulohazalarini o‘rganish, ularni tahlil qilish va yosh avlod ongiga yetkazish bugungi ta’lim va tarbiya tizimining muhim vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Ahmad Zaki Validiy “Xotiralar” asarida Turkiston tarixini yozishga bo‘lgan ehtiyoj va qarorini o‘zining ilmiy-ma’naviy izlanishlari, siyosiy ong va mas’uliyat bilan bog‘liq holda asoslab bergan. Berlin shahrida yashagan yillari davomida u o‘z oldiga millat taqdirini hal qiluvchi eng dolzarb masalalarni aniq maqsad sifatida qo‘yadi. Ushbu maqsadlar orasida birinchisi Turkistonning hozirgi siyosiy hayotini chuqur tahlil qilish, ikkinchisi uning tarixini yozib, mustamlakachilik davrida buzib ko‘rsatilgan tarixiy manzaraning haqqoniy shaklini tiklash, uchinchisi esa bu ilmiy yondashuvni G‘arb jamoatchiligiga yetkazish uchun uni g‘arb tillaridan birida nashr qilish hamda g‘arbiy auditoriyaga yo‘naltirilgan jurnal tashkil etish edi.

Turkiston tarixini yozish ishlari uzoq davom etmagan bo‘lsa-da, bu boradagi ilk natija sifatida Ahmad Zaki Validiyning mazkur qo‘lyozmasi Misrda nashr ettiriladi. Asarning ilmiy va siyosiy qiymatini anglagan zamondoshlari, xususan professor Eberxard va doktor Anxegger uni nemis tiliga tarjima qiladilar. Shuningdek, U.E.D. Allen bu tarjimani ingliz tiliga o‘girib, hatto uni shaxsiy mablag‘i hisobidan bosmaga tayyorlaydi. Biroq afsuski, har ikkala tarjima ham rasmiy ravishda nashr qilinmagan. Shunga qaramay, mazkur tarjimalarning muhimligi va tarixiy qiymati saqlanib qolmoqda: nemischa tarjima Ahmad Zaki Validiyda, inglizcha tarjima esa U.E.D. Allen hamda Garvard universiteti kutubxonasida saqlanmoqda [2, 525].

Bu voqelik shuni anglatadiki, Zaki Validiyning Turkiston tarixini yozishga qaror qilishi faqat ilmiy yoki shaxsiy qiziqish mahsuli bo‘lmay, balki mustamlaka ostidagi millat tarixini tiklash, uni xalqaro maydonga olib chiqish va turkiy dunyoning uyg‘onishiga xizmat qilishdek yuksak maqsadga qaratilgan edi. Bu — tarixga nisbatan mas’uliyatli yondashuvning yorqin

namunasi bo‘lib, bugungi kunda ham ilmiy doiralar va yoshlarga chuqur saboq bo‘lishi mumkin.

Ahmad Zaki Validiyning ilmiy va siyosiy faoliyatida Turkistonga qilgan safarlari alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, uning birinchi ilmiy safari nafaqat shaxsiy izlanishlar yo‘lidagi muhim bosqich, balki keyingi faoliyati uchun mustahkam zamin yaratgan tarixiy jarayon edi. U o‘zining esdaliklarida bu safar haqida atroflicha ma’lumot berar ekan, uni Qozon universitetining taniqli professori, turkiyshunos olim Vasiliy Katanov tavsiyasi bilan amalga oshirganini qayd etadi. Jumladan, Validiyning Turkistonga birinchi bor yuborilishi Rossiya Fanlar akademiyasi huzuridagi Tarix, arxeologiya va etnografiya jamiyatining topshirig‘i asosida bo‘lib, u yerda tarixiy va etnografik tadqiqotlar olib borishi kerak edi. Zaki Validi bu safarni katta mamnuniyat va mas’uliyat bilan qabul qiladi, bu esa uning turkiy olamga bo‘lgan yuksak ilmiy qiziqishidan dalolat beradi.

Mazkur ilmiy safar davomida u nafaqat tarixiy obidalarni o‘rganadi va turli jamiyat vakillari bilan ilmiy suhbatlar olib boradi, balki keyinchalik Turkiston va O‘zbekiston ma’naviy hayotida muhim iz qoldirgan shaxslar bilan bevosita tanishadi. Jumladan, u esdaliklarida yozishicha, safar davomida o‘sha paytda hali yosh bo‘lgan, ammo keyinchalik o‘zbek milliy uyg‘onishining ramziga aylangan mashhur shoir Abdulhamid Sulaymon Cho‘lpon bilan tanishadi. Unga ko‘ra, Cho‘lpon o‘sha vaqtda taxminan 15 yoshda bo‘lib, Validiyning tarixiy asarlarini o‘qib, ilhomlanadi va unga fikrdosh ekanini bildirgan holda maktub yo‘llaydi. Maktubda u Validiyni Andijondagi uyiga mehmonlikka taklif qiladi. Zaki Validi bu taklifni qabul qilib, shoirning o‘zi bilan ham, uning mehmondo‘st otasi bilan ham tanishadi. Ayniqsa, Sulaymon akaning unga bergan tuhfalari haqida iliq xotiralar qoldirib, ularni onasiga olib borgani haqida ham eslab o‘tadi [3, 260].

Bu tarixiy safar Zaki Validiyning o‘zbek ziyolilari orasida hurmat qozonishiga ham, keyinchalik milliy uyg‘onish g‘oyalarini targ‘ib qilishda ularning hamfikriga aylanishiga ham zamin yaratadi. Aynan mana shu uchrashuvlar, ilmiy kuzatishlar va shaxsiy aloqalar tufayli u Turkiston tarixiga oid chuqur, asosli va yuksak ilmiy baholarga asoslangan fikrlarni shakllantirgan.

Ahmad Zaki Validiy 1913–1914 yillardagi ilmiy safarlari davomida Turkiston hududining bir qator ilmiy, diniy va madaniy markazlarini ziyorat qilib, bu joylarning ilmiy merosi, qo‘lyozma boyliklari va tarixiy xotirasi bilan bevosita tanishgan. Mazkur safarlar faqat shaxsiy tadqiqotlar bilan

cheklanmay, balki turkiy xalqlarning umumiy tarixiy ongini shakllantirish, ilmiy-tarixiy haqiqatlarni jamiyatga yetkazish yo‘lida muhim qadamlardan biri bo‘lgan.

Zaki Validiy bu davrda Shahrisabz va Qarshi shaharlariga ham tashrif buyuradi. Ayniqsa, Qarshi bozorida bir attorning qo‘lida Qur’onning “Sub’”i (ya’ni “Haftiyak” - Qur’onning ettidan bir qismi) ning turkcha tarjimasini topadi va bu nodir asarning X asrga mansub noyob qo‘lyozma nusxa ekanligini aniqlaydi. Bu topilma unga katta ilmiy ilhom bag‘ishlaydi va keyinchalik, ushbu qadimgi Qur’on tarjimalari haqida ingliz tilida ilmiy maqola yozadi. 1951 yilda esa u bu mavzuda xalqaro miqyosda, ya’ni Sharqshunoslarning Xalqaro kongressida ma’ruza qiladi. Bu uning diniy-madaniy merosga faqat tarixiy emas, balki lingvistik va madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan ham yondashganini ko‘rsatadi.

Zaki Validiy Toshkentda ham bo‘lib, bu yerda qator kutubxonalarning qo‘lyozma fondi bilan tanishadi. Otasi Ahmadshoh va yaqin kishilarning topshirig‘i bilan Shayx Xovand Tahur va Xoja Ahror Valiyning qadamjolarini ziyorat qiladi. Aynan Shayx Xovand Tahurga oid mufassal manoqib kitobi, forsiy va turkiy she’rlar jamlangan qo‘lyozma nusxasini Toshkentdagi sahhoflardan sotib oladi. Bu bilan u o‘zining tarixiy-tasavvufiy izlanishlarini yanada boyitadi.

Mazkur ilmiy safarlar doirasida u Buxoro va Samarqandga ham boradi. Bu yerda mahalliy ziyolilar, qo‘lyozma saqlovchilari va tarix, arxeologiya, etnografiyaga qiziqqan mutafakkirlar bilan uchrashadi. Zaki Validiyning o‘sha davrda yozgan asarlari bilan tanishgan bu ziyolilar uning ilmiy qarashlariga yuqori baho beradilar. Ayniqsa, yosh Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon keyinchalik o‘zbek adabiyoti va milliy uyg‘onishining yetuk namoyandalaridan biri Zaki Validiy asarlarini o‘qib, ilhomlangan holda muallifga xat yozadi va uni Andijondagi uyiga taklif qiladi. Validiy ushbu taklifni qabul qilib, Nazir To‘raqulov bilan birga Cho‘lponning otaxon uyida mehmon bo‘ladi. Bu uchrashuv nafaqat ikki ziyolining shaxsiy tanishuvi, balki keyinchalik ularning birgalikdagi ma’rifiy va siyosiy kurashlarining muhim tamal toshi bo‘lgan.

1914 yilda Farg‘ona vodiysiga qilgan navbatdagi ilmiy safari davomida Zaki Validiy Qo‘qon shahrida mashhur xattot va qo‘lyozma saqlovchisi Yunusjon Dodxoh Muhammadiy bilan uchrashadi. U orqali jami 23 ta nodir qo‘lyozma bilan tanishish imkoniga ega bo‘ladi. Ushbu qo‘lyozmalar keyinchalik uning tarixiy-madaniy izlanishlarida muhim manba sifatida xizmat qiladi [4, 782].

Zaki Validiyning bu safarlari shunchaki kuzatuv yoki sayohat emas, balki tarixiy haqiqatni ilmiy asosda tiklash, turkiy xalqlarning madaniy boyligini saqlash va dunyo ilmiy hamjamiyatiga taqdim etishdek ulkan milliy missiyaning bir qismi edi.

1917-yilda Rossiyada sodir bo‘lgan Fevral va Oktyabr inqiloblari nafaqat siyosiy tizim, balki butun ijtimoiy-madaniy muhitni tubdan o‘zgartirib yubordi. Bu jarayonlar, ayniqsa, jadid adabiyotiga beqiyos ta’sir ko‘rsatdi. Turkistonda ijtimoiy-siyosiy erkinliklar uchun ochilgan qisqa muddatli imkoniyat jadid ziyolilarining publitsistik faoliyatida keskin faollikni yuzaga keltirdi. Ayniqsa, bu davrda matbuot vositalari orqali mustaqillik, milliy o‘zlik, tarixiy xotira va uyg‘onish g‘oyalari ilgari surildi.

Mazkur davr jadid publitsistikasida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ahmad Zaki Validiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulhamid Cho‘lpon, Shokirjon Rahimiy va Abdulla Avloniy kabi ilg‘or ziyolilarning maqolalari Turkiston mustaqilligi g‘oyasining ideologik asoslarini shakllantirdi. Ular jadid matbuoti orqali xalqni siyosiy ong va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga intildilar. Bu maqolalarda milliy ozodlik, siyosiy mustaqillik, diniy-ma’rifiy islohotlar zarurati va xalqni zulmga qarshi uyg‘otish g‘oyalari ilgari surildi.

1917-yil dekabrida Turkiston Muxtoriyati e’lon qilingach, jadid ziyolilari bu tarixiy voqeani katta quvonch bilan qarshi oldilar. Fitrat, Cho‘lpon va Hamza tomonidan yozilgan she’rlar, maqolalar va chiqishlar muxtoriyat g‘oyasining qudratli madaniy-ma’naviy yoritmasiga aylandi. Biroq bu quvonch uzoqqa cho‘zilmadi. 1918-yil boshida bolshevik qo‘shinlari tomonidan Turkiston Muxtoriyati qonli yo‘l bilan tugatildi. Bu voqea Turkiston tarixidagi eng fojiali sahifalardan biri sifatida jadid adabiyotida chuqur aks etdi.

Abdurauf Fitratning “Yurt qayg‘usi”, “Temur sag‘anasi”, “O‘g‘uzxon” kabi asarlarida bu fojiali davrning dramatizmi, milliy iztirob va erkinlikka chanqoqlik kayfiyati ifodalangan. Fitrat bu asarlarida o‘z xalqining yo‘qolayotgan tarixiy suvereniteti va yo‘q qilinayotgan madaniy merosi uchun yurakdan kuygan, u har bir satrda Turkiston taqdiri haqida o‘ylagan ziyoli timsolida namoyon bo‘ladi [5, 166].

Xuddi shunday, Abdulhamid Cho‘lpon ham o‘zining she’riy va nasriy asarlarida Turkiston mustaqilligi g‘oyasini ilgari suradi. U bolsheviklar bosqinini va ularning zulmini keskin tanqid qilgan, sovet tuzumining zolimona siyosatini fosh etgan. Cho‘lpon ijodida istiqlolchilar, ya’ni milliy ozodlik yo‘lida kurashayotgan insonlar botir, lekin fojiali qiyofada tasvirlanadi. Bu tasvirlar

orqali u bosqinchi tuzumga qarshi xalq ongida norozilik ruhini uyg‘otishga harakat qilgan

Xulosa qilib aytganda, 1917–1918-yillardagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar jadid adabiyotining ideologik, estetik va siyosiy mazmunini tubdan yangiladi. Turkiston mustaqilligi va tinchligi yo‘lida jadid ziyolilari tomonidan yozilgan publitsistik, adabiy va dramatik asarlar o‘z zamonasi uchun ham, bugungi tarixiy xotira uchun ham muhim merosdir

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Quldosheva, Sh. *Jadidchilik harakatining vujudga kelishida Ahmad Zakiy Validiyning o‘rni*. Jadidlar g‘oyasi – yangi O‘zbekiston va “Uchinchi Renessans”ni bunyod etishning mustahkam poydevori. Toshkent, 2024. b. 442.
2. Validiy Tog‘on, A. Z. *Xotiralar: Turkistonda mustaqillik va ozodlik uchun kurashlar tarixi* (Sh. Turdiyev, Tarj.). Toshkent: Istiqlol nuri, 2014. b. 525.
3. Shamsutdinov, R., Karimov, Sh., Xoshimov, S., & Ubaydullayev, O‘.*Vatan tarixi (XVI–XX asr boshlari)* (2-kitob). Toshkent: Sharq nashriyoti, 2016. b. 260.
4. Xujayev, M. *Zaki Validiyning Turkiston ilmiy safari (1913–1914)ga oid tadqiqotlar*. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, 1(12). Toshkent: 2021. b. 782.www.oriens.uz,
5. Rajabov, K. *O‘zbekiston XX asrda* (1-jild: 1900–1939). Toshkent: Fan nashriyoti davlat korxonasi, 2024. b. 166.

TOSHKENT VOHASI SHAHARSOZLIK AN'ANALARI TARIXI

Qurbonova Uldona Nordavlat qizi –
Chirchiq Davlat pedagogika Universiteti Gumanitar fanlar fakulteti Tarix yo’nalishi 24/1 guruh talabasi
Ilmiy rahbar: Tarix kafedrasi dotsenti, t.f.f.d. (PhD) Sh.B Jumayeva

Annotatsiya. Toshkent vohasining shaharsozlik an'analari va ularning tarixiy shakllanish jarayonlari o‘rganilgan. Tadqiqotda qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha bo‘lgan urbanizatsiya bosqichlari, shaharlarining rejali qurilishi, me’moriy uslublari hamda tabiiy-geografik sharoitlarning shahar rivojiga ta’siri tahlil qilingan. Ayniqsa, Toshkent shahri misolida mahalliy an’ana va zamonaviy arxitektura uyg‘unligi ko‘rsatib o‘tilgan. Ishda shaharsozlikda suv manbalaridan foydalanish, ko‘cha tarmoqlari va mahalla tuzilmalari singari omillar tarixiy manbalar asosida yoritilgan.

Kalit so‘zi. Toshkent vohasi, shaharsozlik an'analari, tarixiy rivojlanish, me'moriy meros, qadimgi shaharlar madaniy meros, islomiy me'morchilik, temuriylar davri, suv ta'minoti tizimi, mahalla tizimi registon va bozorlar urbanizatsiya jarayoni, arxeologik yodgorliklar.

Kirish. O‘zbekistonning shim.sharqiy qismidagi voha. Toshkent viloyatining katta qismini egallaydi. G‘arb va jan.g‘arbda Sirdaryo bilan chegaralanadi, sharkda Chirchiq va Ohangaron vodiylari bo‘ylab, G‘arbiy Tyanshan sistemasidagi Qorjontov, Ugom, Piskom, Chatqol va Qurama tizmalari oralig‘iga kirib boradi. Toshkent vohasi qadimdan (VII-XI asrlar) yirik dehqonchilik rayoni hisoblangan. Voha, asosan, Chirchiq va Ohangaron daryolari bilan sug‘oriladi. Toshkent vohasini sug‘orish uchun Zaxariq, Bo‘zsuv, Qorasuv, Salor, Jo‘nariq, Shimoliy Toshkent, Yuqori Toshkent kabi kanallar va ko‘pdanko‘p arikdar, Tuyabo‘g‘iz, Chorvoq kabi suv omborlari qurilgan.Toshkent vohasi shaharsozlik an’analari qadimiy va boy tarixga ega bo‘lib, ming yillar davomida rivojlanib kelgan. Quyida ushbu an’analar tarixiga oid asosiy ma’lumotlar keltirilgan:Toshkent vohasi miloddan avvalgi II–I mingyilliklarda ham aholi yashagan hudud bo‘lgan.

Arxeologik topilmalar bu yerda qadimgi dehqonchilik madaniyati mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi.Qadimgi Shosh (hozirgi Toshkent) Markaziy Osiyoning muhim savdo va madaniy markazlaridan biri bo‘lgan. U “Ipak yo‘li”da joylashgani sababli, ko‘plab madaniyatlar va shaharsozlik uslublari bu yerda qorishib ketgan.VIII–IX asrlarda arablar bu hududni bosib olgach, islomiy me’morchilik rivoj topdi. Masjidlar, madrasa, hammomlar, bozorlarga yaqin joylashgan mahallalar paydo bo‘ldi Shahar markazi atrofida mudofaa devorlari bo‘lgan, ichkarida esa hunarmandchilik va savdo markazlari joylashgan edi.Mahallaviy tuzilma shaharsozlikning asosiy unsurlaridan bo‘lib, bu tartib XIX asrga qadar saqlanib qolgan.Rossiya imperiyasi davri (XIX asr oxiri – XX asr boshlarida) 1865-yilda Toshkent Rossiya imperiyasi tarkibiga kirgach, shahar ikki qismga — eski shahar va yangi shaharga bo‘lindi. Yangi shahar Yevropa uslubidagi reja asosida qurildi: keng ko‘chalar, bog‘lar, kvadrat shakldagi kvartallar va rasmiy binolar. Sovetlar davrida Toshkent shaharsozligida sotsialistik rejalashtirish usuli joriy etildi.Mikrorayonlar, ko‘p qavatli uylar, sanoat zonalari barpo etildi.1966-yilgi zilziladan so‘ng shahar butunlay qayta qurildi va zamonaviy arxitektura elementlari joriy qilindi.

Mustaqillik davridan hozirgacha 1991-yildan so‘ng Toshkent shahrida milliy uslublar bilan zamonaviy shaharsozlik uyg‘unlashdi. Toshkent

vohasidagi shaharsozlik an'analari tarixi juda murakkab va boydir. Ushbu hududning shaharsozlik rivojlanishi, koʻplab tarixiy va madaniy bosqichlardan oʻtgan boʻlib, har bir davrda oʻziga xos oʻzgarishlarni, yangi yondashuvlarni va tashkiliy tizimlarni yaratgan. Toshkent vohasi, geografik jihatdan, qadim zamonlardan boshlab muhim savdo yoʻllarining kesishgan nuqtasida joylashgan. Shu bois, u nafaqat iqtisodiy, balki madaniy jihatdan ham katta ahamiyatga ega boʻlgan.Qadimiy davrlar va Erta o'rta asrlar Toshkent vohasi shaharsozlik an'analari tarixining boshlanishi, juda qadimiy davrlarga borib taqaladi. Arxeologik qazishmalar va yozma manbalar orqali ma'lum boʻlishicha, Toshkentning qadimiy qismlarida bunday oʻzgarishlar miloddan avvalgi davrlarning oʻzidayoq boshlanib, shahar qurilishi va boshqaruv tizimining shakllanishi oʻzgarib borgan. Ayniqsa, oʻsha davrlarda sogʻdlar, turklar va boshqa markaziy osiyolik xalqlar ushbu hududda koʻplab shaharlar tashkil etgan. Shaharlarning joylashuvi savdo yoʻllari ustida boʻlib, ularning oʻzaro aloqalarini yanada mustahkamlashda muhim rol oʻynagan. Toshkent ham shunday shaharlar sirasiga kirgan.Islomiy davr va shaharsozlikning yangi bosqichi Islom dini Toshkent vohasiga kirib kelganidan keyin, shaharsozlikda yangi davr boshlandi. Bu davrda, musulmon madaniyati oʻz ta'sirini koʻrsatgan boʻlib, Toshkentda masjidlar, madrasalar, maqbaralar qurilishi keng tarqalgan.

Xususan, Toshkentning markaziy qismida joylashgan madaniy va diniy inshootlar, shahar arxitekturasining oʻziga xos xususiyatlarini yaratgan. Aynan shu davrda Toshkentda masjidlar va madrasa qurilishi, shaharsozlikda muhim rol oʻynab, shaharni nafaqat diniy markaz, balki ilm-fan va madaniyat markaziga aylantirgan.Shayboniylar davrida shaharsozli Shayboniylar davrida Toshkentning siyosiy, iqtisodiy va madaniy ahamiyati yanada oshdi. Bu davrda shaharni himoya qilish maqsadida mustahkam qal'alar qurilgan. Shuningdek, Toshkentda koʻplab bozorlar, karvonsaroylar va savdo majmualari tashkil etildi. Ushbu inshootlar savdo aloqalarini rivojlantirib, Toshkentni Markaziy Osiyo savdo yoʻllarida muhim markazga aylantirdi.

Shaharsozlikda har bir qurilish alohida yondashuvni talab qilgan va zamon talablariga mos tarzda tashkil etilgan. Rossiya imperiyasi davrida shaharsozlik XIX asrda Toshkent Rossiya imperiyasining tarkibiga kirganidan soʻng, shaharsozlikda yangi bosqich boshlandi. Bu davrda Toshkent shahrining yangi rejasi ishlab chiqildi va arxitektura an'analari tubdan o'zgardi. Temir yoʻllar, yangi koʻchalar, sanoat inshootlari va boshqalar qurildi. Yangi mustahkam temiryoʻl tizimi Toshkentni Rossiya va boshqa

hududlar bilan bog‘lab, savdo va sanoatning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Rossiya imperiyasi tomonidan amalga oshirilgan bu o‘zgarishlar, Toshkentning tashqi ko‘rinishini modernizatsiya qilishda muhim rol o‘ynadi. Rossiya imperiyasi davrida shaharsozlik Mustaqillik davrida shaharsozlik Mustaqillikni qo‘lga kiritganimizdan so‘ng, Toshkentda urbanizatsiya jarayonlari yana bir bosqichga o‘tdi. Hozirgi kunda, Toshkentda zamonaviy arxitektura va shaharsozlikning yangi yondashuvlari rivojlanib bormoqda. Eski inshootlar saqlanib qolgan holda, yangi turar joylar, biznes markazlari va infratuzilmalar barpo etildi. Toshkentning yangi tuzilishi, shaharning o‘ziga xos tarixiy merosini saqlagan holda, zamonaviy talablar asosida rivojlanmoqda. Bu jarayonda milliy arxitektura va zamonaviy me’moriy uslublar uyg‘unlashib, shaharni yanada go‘zallashtirmoqda. Qadimiy davr va dastlabki shaharlar

Toshkent vohasi shaharsozlik an'analari miloddan avvalgi davrda ham o‘ziga xos jihatlarni ko‘rsatgan. Bu davrda, Toshkent atrofida ko‘plab qadimiy shaharliklar mavjud bo‘lgan, ularning aksariyati, hozirgi Toshkent shahridan ancha uzoq bo‘lsa-da, bu yerning arxitekturaviy va madaniy merosiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Arxeologik qazishmalar natijasida miloddan avvalgi 4–3 asrlarda bu yerda mahalliy turklar va boshqa o‘rta osiyolik xalqlar tomonidan tashkil etilgan shaharlar topilgan. Ushbu davrda shaharsozlikning asosiy o‘ziga xosligi oddiy, ammo muhim inshootlarni qurish va tabiiy resurslardan foydalanish edi. Temuriylar (XIV asr) davrida Toshkent vohasi, Amir Temur va uning avlodlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan siyosiy markazga aylangan. Bu davrda shaharsozlikda yangi bosqich boshlandi: shaharlar kengaytirildi, yangi arxitektura yodgorliklari qurildi. Toshkentda shaharning muhim joylariga yangi ko‘chalar, bozorlar va saroylar barpo etildi. Amir Temur va uning avlodlari tomonidan qurilgan yirik masjidlar va madrasa komplektsiyalari Toshkentda yangi shaharsozlik an’anasining paydo bo‘lishiga asos yaratdi.Shayboniylar (XVI asr) davrida ham shaharsozlik taraqqiyotida o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bu davrda shaharni himoya qilish maqsadida mustahkam qal'alar qurilishi boshlanadi. Bu qal'alar nafaqat shaharni tashqi tahdidlardan himoya qilish uchun, balki Toshkentning iqtisodiy ahamiyatini kuchaytirish uchun ham zarur edi. Bu davrda shahar ichida savdo markazlari va karvonsaroylar qurilishi yanada rivojlandi.

Xulosa. Toshkent vohasidagi shaharsozlik an'analari tarixiy jihatdan juda boy va murakkab bo‘lib, har bir davrda o‘ziga xos yondashuvlar va o‘zgarishlar yuz berdi. Bu jarayonlar Toshkentning nafaqat O‘zbekiston, balki

butun Markaziy Osiyo hududidagi madaniy, iqtisodiy va siyosiy ahamiyatini mustahkamladi. Bugungi kunda Toshkent shaharsozligi, tarixiy va zamonaviy yondashuvlarning uyg‘unlashgan muvozanati sifatida rivojlanmoqda. Shaharsozlikning bu an'analari esa Toshkentning kelajakdagi rivojlanishiga katta ta'sir ko‘rsatishi aniq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Qo‘ziboyev Sh. Toshkent tarixi (Qadim davrdan to XIX asrgacha). – Toshkent: Fan, 2002.

2. Tuxliyev N. O‘rta Osiyo shaharlari shakllanish tarixi. – Toshkent: Universitet, 2004.

3. Sultonov X. Toshkent – qadimiy va zamonaviy shahar. – Toshkent: Sharq, 1998.

4. Abdullayev H. O‘zbekiston me’morchiligi tarixi. – Toshkent: Fan, 1989.

5. Murodov A. Ipak yo‘li va uning O‘rta Osiyo shaharlari taraqqiyotiga ta’siri. – Samarqand, 2001.

6. Tursunov B. Toshkent vohasida shaharsozlik taraqqiyoti haqida. – “Urbanizm va tarix” jurnali, 2010-yil.

TARIX DARSLARIDA MANTIQIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHGA YO’NALTIRILGAN ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Sa’dulloyeva Dilobar Nurullo qizi

CHDPU Gumnitar fanlar fakulteti, Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o’qitish metodikasi (Tarix) yo’nalishi 1-bosqich magistri.

Tel nomer: + 998 90 619 14 98

dilobarsadulloyeva@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarix darslarida o’quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati, ularning metodologik asoslari, tatbiq etish mexanizmlari va pedagogik samaradorligi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi. Shuningdek, mantiqiy tafakkurni shakllantirishda tarix fanining o’ziga xosliklari va interfaol yondashuvlarning o’rni yoritiladi.Tarix darslarida qo’llaniladigan zamonaviy pedagog texnologiyalar orqali o’quvchilarda fanga bo’lgan qiziqishini orttirish va mantiqiy tafakkurini rivojlantirish eng dolzarb masalalardan biri sifatida talqin etiladi.

Kalit so’zlar: mantiqiy fikrlash, tarix ta’limi, zamonaviy pedagogika, innovatsion texnologiya, tafakkur, tarixiy tafakkur, interfaol yondashuv.

Bugungi globallashuv sharoitida ta’lim tizimining asosiy vazifasi – mustaqil fikrlovchi, analitik tafakkurga ega, ijtimoiy mas’uliyatni his qiladigan shaxsni shakllantirishdan iborat. Ayniqsa, tarix fanida bu vazifa yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki tarix nafaqat ilmiy bilimlar majmui, balki u milliy tafakkur, ijtimoiy ong va mantiqiy tahlil mezonlarini shakllantiruvchi muhim vositadir.Hozirgi zamonaviy ta'lim jarayonlarda biz avvalo bor milliy ruhni shu davrda qo’shimiz va hozirgi zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali uni namoyon qila olishimiz zarurdir.Bunda tarix darsi muhim va samarali ro’l o’ynashish va o’quvchilar tarixdagi bilimlari orqali o’timishdagi buyuk allomlarimizni ibratli fikrlarni jamoatchilikga ayniqsa , yoshlar orasida targ’ibot va tashviqot ishlarini olib borishlari maqsadga muvofiq bo’lardi.Hozirgi kunda zamonaviy ta’lim tizimi o’quvchilarni mustaqil fikrlovchi, muammolarni hal qilishga qodir va tanqidiy tahlilga moyil shaxs sifatida tarbiyalashni maqsad qilmoqda. Ayniqsa, tarix fanida bu yo’nalish o’ta muhim, chunki tarixiy tafakkur ijtimoiy hodisalarni chuqur anglash, sabab-oqibat bog’liqliklarini tahlil qilishga asoslanadi[1]. Shu jihatdan, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik yondashuvlar tarix darslarining ajralmas tarkibiga aylanishi lozim.

Mantiqiy fikrlash — bu aniq, izchil va asosli fikr yuritish jarayonidir. Tarix fanida bu ko’nikma hodisalarni o’zaro bog’lash, muqoyasa qilish, sabab va oqibatni ajratish, dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish ko’rinishida namoyon bo’ladi[^2]. Shu sababli, tarix darslarida mantiqiy fikrlashni shakllantirish o’quvchilarning bilimini chuqurlashtiradi, ularni tarixiy tafakkurga o’rgatadi.Tarixiy tafakkur mantiqiy fikrlashni quyidagi jihatlarda faollashtiradi:tarixiy voqealarni ketma-ketlikda anglash;har bir hodisaning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy sabablarini aniqlash;ularning zamonaviy davr bilan uzviy bog’liqligini tushunish;alternativ yondashuvlarni tahlil qilish va baholash orqali o’quvchilar tarixiy jarayonlar kengroq va izchillik bilan yoritilishiga turtki bo’ladigan jarayon hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning metodologik asosi: zamonaviy pedagogik texnologiyalar – bu ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, o’quvchini faollashtirish va mustaqil fikrlashga undovchi tizimli metodik yondashuvlar majmuidir. Tarix fanida ushbu texnologiyalar yordamida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun quyidagi metodologik asoslar asosiy o’rin tutadi: Konstruktivizm nazariyasi: o’quvchi bilimni o’zi kashf qiladi,

o’qituvchi yo’naltiruvchi sifatida ishtirok etadi.Bu metodolgik asosida o’quvchi o’z tafakkurini ishgan solgan holda fikr - mulohaza yuritadi.Reflektiv yondashuv: o’quvchi o’z fikrini tahlil qiladi, anglab yetadi va uni rivojlantiradi. Bu metodologiya o’quvchining bilim salohiyatini rivojlantirish uchun turtki bo’ladi.Tanqidiy fikrlash modeli (Bloom, Ennis, Paul): hodisalarga shubha bilan yondashish, dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish.Aynan shu metod o’quvxhu yoshlarida tarixiy jarayonlarida kerakli xulosalar chiqarishga o’rgatadi.Biz amalda qo’llaniladigan texnologiyalar: “Klaster” usuli, “Debat” texnologiyasi, “Blits-so’rov”, “Aqliy hujum, “Venn diagrammasi” texnologiyalar hozir kunda tarix darslarida keng qo’llanilib kelmoqda ,bu esa dars jarayonlarda o’quvchilarning mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy texnologiyalar sifatida tahlil qilinmoqda. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar — bu ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, o’quvchilarning bilim olishiga faol ta’sir ko’rsatish va ularning mustaqil fikrlash, ijodkorlik hamda amaliy ko’nikmalarini rivojlantirishga yo’naltirilgan usullar va vositalar majmuasidir. Quyida ba’zi muhim zamonaviy pedagogik texnologiyalar keltirilgan:Klasster texnologiyasi-g’oyalarni guruhlarga ajratish orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi. Insert texnologiyasi (o’qish davomida belgilash)-o’quvchilar matn bilan ishlash vaqtida belgilashlar orqali tushunishini baholaydi. BLOOM taksonomiyasi asosida dars rejalashtirish-bilish, tushunish, qo’llash, tahlil, sintez va baholash bosqichlariga asoslanadi.Bu texnologiya dars maqsadlarini aniq va bosqichma-bosqich qo’yishga yordam beradi. AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari)interaktiv doskalar, videodarslar, onlayn testlar va mobil ilovalar orqali ta’limni boyitadi. Aqliy hujum” (Brainstorming) o’quvchilar erkin fikr bildiradilar, muammoga yechim taklif qiladilar.Ko’proq ijodkorlikni oshirishga qaratilgan.“Fikrlar jarchisi” texnologiyasi guruhlarda o’tilgan mavzu bo’yicha har bir guruh vakili fikr bildiradi.Yuqorida metodlar tarix darslarida keng qo’llanilayotgan va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy texnologiyalar tahlil etish orqali chuqurroq o’rganish, darslarni yana boyitib, qiziqarli va samarali qilishda yordam beradi.

Tarixiy kontekstda fikrlash madaniyatini shakllantirish mantiqiy fikrlash – bu nafaqat bilim, balki tafakkur madaniyatidir. Tarixiy faktlarni oddiygina yod olish emas, balki ularni tushunish, tahlil qilish, ulardan xulosa chiqarishga o’rgatish tarix o’qituvchisining asosiy vazifasidir. Shu bois, har bir darsda mantiqiy savollar, muammoli vaziyatlar va tarixiy ssenariylar asosida dars tashkil etilishi kerak.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tarix fani mantiqiy fikrlashni shakllantirishda beqiyos imkoniyatlarga ega. Bu imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish esa pedagogning zamonaviy texnologiyalarni puxta o'zlashtirishi, didaktik yondashuvlarga innovatsion fikr bilan qaray olishi va o'quvchiga individual yondashuvi bilan chambarchas bog'liq. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan oqilona foydalanish orqali tarix darslari nafaqat bilim beruvchi, balki tafakkur tarbiyalovchi, shaxs shakllantiruvchi maydonga aylanadi.Tarix fanida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish nafaqat tarixiy bilimlarni chuqurlashtiradi, balki o'quvchilarning intellektual salohiyatini oshiradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bu jarayonda vosita bo'lib xizmat qiladi. Ammo ularni muvaffaqiyatli qo'llash o'qituvchidan yuqori malaka, didaktik mahorat va metodik yondashuvni talab qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Hasanboeva, M. (2021). Tarixiy tafakkurni shakllantirishning nazariy asoslari. Pedagogika va psixologiya jurnali, №3.

2. Dewey, J. (1933). How We Think. D.C. Heath & Co.

3. Bahromov, A. (2022). Interfaol metodlar va tarix ta'limi. Ilm va taraqqiyot, №2.

4. Vygotsky, L. S. (1986). Thought and Language. MIT Press.

5. Marhamatova, Z. (2020). Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va ularning samaradorligi. Xalq ta'limi, №5.

TOSHKENT VILOYATIDAGI URF-ODATLAR VA TO‘Y MAROSIMLARI

Saidxo‘jayeva Robiya
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Gumanitar fanlar fakulteti, O‘zbek tili va adabiyot yo‘nalishi
1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Toshkent viloyatida o‘tkaziladigan to‘y marosimlarining tarixiy ildizlari, ularning shakllanish bosqichlari va zamonaviy jamiyatdagi o‘zgarishlari tahlil qilinadi. To‘y marosimlarining ijtimoiy-ma'naviy hayotdagi o‘rni, yosh avlod tarbiyasiga ta'siri, urf-odatlarning davomiyligi va zamon talablari bilan uyg‘unlashuvi muallif tomonidan amaliy kuzatuvlar asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: To‘y marosimi, an’ana, urf-odat, zamonaviylik, ma’naviyat, oila, qadriyat.

O‘zbek xalqining boy madaniyati, asosan, urf-odat va marosimlarda o‘z ifodasini topgan. Jumladan, to‘y marosimlari xalq hayotining eng muhim va nishonli voqealaridan biri bo‘lib, u nafaqat ikki yoshning oila qurish jarayonini, balki jamiyatning ijtimoiy munosabatlarini, ma’naviy birligini, qadriyatlar tizimini namoyon etadi. Toshkent viloyatida o‘tkaziladigan to‘ylar o‘ziga xos an’analari, o‘zgaruvchan ko‘rinishlari va urf-odatlari bilan boshqa hududlardan ajralib turadi.

Toshkent viloyatidagi an’anaviy to‘y marosimlari:

To‘y marosimlari avloddan-avlodga o‘tgan an’analar asosida amalga oshiriladi. Bular quyidagilar:

Fotiha to‘yi – ikki tomon roziligi va og‘zaki nikoh va’dasi.

Soch oshi – kelin uchun yaqin ayollar davrasida o‘tkaziladigan marosim.

Nikoh to‘yi – diniy nikoh o‘qitilib, jamiyatda tan olinishi.

Asosiy to‘y marosimi – mehmonlar ishtirokidagi tantana, kuyov tomondan uyushtiriladi.

Kelin tushirish va kelin salom – yangi oila a’zosi sifatida kelinning hurmat ko‘rsatishi.

Ushbu bosqichlar faqat marosim emas, balki ijtimoiy bog‘liqlik, qarindoshlik rishtalarining mustahkamlanishidir.

To‘y marosimlaridagi zamonaviy o‘zgarishlar

Bugungi kunda to‘y marosimlarida quyidagi o‘zgarishlar kuzatilmoqda. To‘ylar ko‘proq restoran va to‘yxonalarda o‘tkaziladi.Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri ostida vizual ko‘rinishga katta e’tibor qaratiladi (fotosessiya, videotasvir, dronlardan foydalanish). Marosimlar qisqartirilmoqda, ayrim an’anaviy bosqichlar o‘tkazilmayapti yoki yagona tadbirga birlashtirilmoqda.

“Nikoh kechasi”, “kelin libos ko‘rgazmasi” kabi yangicha elementlar kirib keldi. Bu o‘zgarishlar texnologik taraqqiyot, shahar hayoti va iqtisodiy omillar bilan bog‘liq bo‘lib, an’analarga zamonaviy ruh bag‘ishlamoqda.

Ijtimoiy-ma’naviy ahamiyati

To‘ylar faqatgina ikki insonning oila qurishi emas, balki:

- ✓ Yoshlarning jamiyatda o‘z o‘rnini topishi,
- ✓ Qarindoshlik va qo‘shnichilik aloqalarining mustahkamlanishi,
- ✓ Ma’naviy qadriyatlarning amalda aks etishi,

- ✓ Milliy birlik va madaniyatni avloddan-avlodga yetkazish vositasidir.

Shuningdek, to‘ylar orqali xalq og‘zaki ijodi, urf-odatlar, kiyim-kechak, pazandachilik va bezak san’ati kabi ko‘plab an’anaviy elementlar saqlanib qolmoqda.

Xulosa. Toshkent viloyatida o‘tkaziladigan to‘y marosimlari xalqning boy madaniy merosi, ma’naviy olami va zamonaviy yondashuvlarining uyg‘unlashgan ifodasidir. Bu marosimlar orqali oila institutining mustahkamlanishi, ijtimoiy birdamlik va milliy qadriyatlarning yashab qolishi ta’minlanadi. Shuningdek, ularning zamon bilan hamnafas bo‘lishi jamiyat taraqqiyotining ijobiy belgilaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xudoyberganov Q. “O‘zbek xalq marosimlari”, Toshkent, 2018.

2. Madraximov A. “An’analar va urf-odatlar: zamon bilan uyg‘unlikda”, “Ma’naviyat” nashriyoti, 2020.

3. “Toshkent viloyati etnografiyasi” – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi materiallari, 2022.

4. Intervyu va amaliy kuzatuvlar asosida yig‘ilgan ma’lumotlar (2024 yil, Toshkent viloyati).

5. O‘zbekiston Respublikasi “Oila kodeksi”, 2023 yilgi tahriri.

YUNUSOBOD OQTEPASI O‘RGANILISHI

Samandarova Ruxshona Ro‘zmamat qizi
Chirchiq davlat pedogogika universiteti
1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Jaynarov Obidjon Hamid o‘g‘li
Gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti

Anotatsiya: Ushbu maqolada Toshkent shahrining Yunusobod tumanida joylashgan Oqtepa arxeologik yodgorligi haqida so‘z boradi. Yodgorlikning tarixiy davrlari, arxeologik qazishmalar natijalari, topilmalar va ularning ilmiy ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, yodgorlikning Choch davlati davridagi siyosiy va madaniy roli hamda hozirgi kundagi holati yoritilgan. Maqola tarix, arxeologiya va madaniy meros sohalariga qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ishonchli ilmiy manbalar asosida tayyorlangan.

Kalit so‘zlar:oqtepa, Chilonzor, sarbon, ko‘kcha, Chig‘atoy, Yunusobod oqtepasi, pandus, takkursa, binkat, artefakt.

Toshkent shahri hududida hozirgi kungacha bir nechta nodir arxeologik yodgorliklar saqlanib qolgan. Ularning aksariyati shaharni past-baland imoratlari, xiyobon-bog‘-rog‘larining rango-rang manzarasida uzoqdan ko‘rinib turuvchi gumbazga o‘xshab ko‘zga tashlanishi tufayli bo‘lsa kerak, mahalliy aholi orasida ular umumiy nom bilan — «Oqtepa» deb yuritilib kelinadi. Masalan, Chilonzor Oqtepası, Sarbon, Kukcha, Chig‘atoy, Yunusobod Oqtepalari va boshqa bir nechta Oqtepa tepalari shular jumlasidandir.Oqtepalarning aksariyasi arxeologik jihatdan bir muncha yaxshi saqlangan va hajmi jihatidan eng ulug‘i xozirgi «Yunusobod - 1» deb nomlanmish dahada joylashganidir. Odatda Oqtepa deganda faqatgina tabiiy balandlikdan iborat bo‘lmay, balki hozirgi kunda qariyb 15 asr muqaddam ilk o‘rta asrlarda bino qilingan ulkan istehkomning tepalikka aylangan xarobasidir. Unda feodal qasri va qo‘rg‘onning, ularga tutashib ketgan hunarmandchilik mahallalarining vayronalari topilgan. Oqtepa piramidaga o‘xshab tikka-ravon ko‘tarilib turgan baland tepa, unga yondoshgan pastroq tepa hamda ularga tutashib ketgan bir nechta yassi tepaliklardir[1].

Yunusobod Oqtepası dastlab 40-yillarda arxeolog A. I. Terenojkin tomonidan o‘rganila boshlandi. 1972- yildan boshlab O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologiya institutining Toshkent ekspeditsiyasi M. Ye. Filyanov rahbarligida muttasil keng ko‘lamda qazish ishlari olib bormoqda. Bu yerda olib borilgan dastlabki arxeologik qazishmalardan Oqtepaning qanday yodgorlik ekani, uning tuzilishi, paydo bo‘lgan va xarobaga aylangan davrlari hamda uning vayronagarchilik sabab-lari aniqlandi.Qazib olingan bino qoldiqlari shundan dalolat beradi-ki, uning markaziy qismida o‘rta asrning mustahkam istehkomli qasri joylashgan bo‘lib, u ikki qism: ko‘p qavatli qasr va atrofi qalin va baland devor bilan o‘ralgan ulkan qo‘rg‘ondan iborat bo‘lgan. Qasr va qo‘rg‘onlarning tashqarisidan keng va chuqur handaq qazilgan bo‘lib, o‘z vaqtida uning ustidan o‘rnatilgan osma ko‘prik va qo‘rg‘onga olib chiqadigan pandus — ko‘tarma yo‘l orqali qasr ichkarisiga kirilgan. Qasr tabiiy do‘nglik ustiga urib chiqilgan paxsa takkursa (platforma) ustiga qurilgan. U uzun va keng zamonaviy uylashtib qurilgan ikki qavatli binodan iborat bo‘lib, uning birinchi qavatining maydoni 80×80 m, yuqori qavatining maydoni esa 50×50 m ga teng. Qasrning ichki hovlisi va binolarining sharqiy tomonida uzun yulkali-galereya bilan birlashtirilgan qator xonalar joylashgan. Tashqi devor va tomi paxsa-sementdan qurilgan mustahkam bo‘lgan. Past-qavati

joylashgan galereyalar halqasining kengligi 1,8—2 m, ba'zanlandi 2,3 m ga teng bo‘lib, tomi ravoqsimon qilib yopilgan. Xar ikkala halqa ham, mudofaa maqsadida bo‘lsa kerak, bir necha eridan goh devor bilan to‘silib, biridan ikkinchisiga tor eshik orqali o‘tiladigan bo‘linmalarga bo‘lingan.Yuqori qavatda olib borilgan arxeologik qazilmalar-dan ma'lum bo‘lishicha, galereyalar halqasi bo‘ylab qator juftlasmish kazematar (hajmi 5×2 m) to‘rt burchakli muhofazalarga kiradigan hamda tashqariga chiqadigan to‘g‘ri eshiklar joylashgan. Eshiklarining ravonlari xomg‘ishtdan qilingan. Muhofazalarning to‘rtburchak shaklida diametri 3,5 m bo‘lib, tomi gumbaz shaklda yopilgan. Xonalariga kiradigan eshik joy-larini hisobga olmaganda, ular ichida doimiy turar joy ekanini isbotlovchi belgilardan na eshik, na deraza, na biror buyumga ega izlar topilmagan, bu xonalar mudofaa yoki muhofaza vazifasini o‘taganligi xulosa qilish mumkin [2]

Qazishmalar davomida sopol buyum bo‘laklari, tosh, suyak va metallardan yasalgan qurol-yarog‘, zeb-ziynat buyumlari topilgan. Jumladan, temir pichoq, xanjar, bolta, o‘roq, uch parrakli o‘q paykonlari, tosh yorg‘uchoq, tog‘ xrustali ko‘zli kumush uzuklar aniqlangan. Shuningdek, 5-asrdagi mahalliy hukmdorlarning kumush tangalari, umaviylar davriga oid 12 ta dirham hamda sug‘d yozuvli mis tanga topilgan[3].

Yunusobod Oqtepasi o‘z davrida Choch davlati hukmdorlariga bo‘ysungan turkiy hokimlarning qarorgohi bo‘lgan. Qasrning arxitekturasi va topilgan artefaktlar bu hududda rivojlangan madaniyat va hunarmandchilik mavjud bo‘lganligini ko‘rsatadi. VIII asr boshlarida yodgorlik yong‘in natijasida vayron bo‘lgan, ammo keyinchalik hayot qayta tiklangan va IX–XII asrlarda Binkat viloyatining istehkomli qishloqlaridan biriga aylangan[4]. Hozirgi kunda Yunusobod Oqtepasi yodgorligi Toshkent shahar hokimligi tomonidan sayyohlik markaziga aylantirish rejalashtirilgan. "Yunusobad Business City" loyihasi doirasida yodgorlik atrofida obodonlashtirish ishlari olib borilib, mahalliy va xorijiy sayyohlar uchun sharoitlar yaratilmoqda[5].

Xulosa Yunusobod Oqtepasi — Toshkent vohasining qadimiy tarixidan dalolat beruvchi muhim arxeologik yodgorliklardan biridir. Bu yodgorlik V–XIII asrlarga oid bo‘lib, unda olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida o‘sha davr aholisi hayoti, hunarmandchiligi, mudofaa tizimi va diniy e'tiqodlariga oid qimmatli ma'lumotlar qo‘lga kiritilgan. Oqtepadan topilgan artefaktlar Choch davlati va undan keyingi davrda bu hududning siyosiy va madaniy markaz sifatida rivojlanganligini isbotlaydi. Bugungi kunda bu yodgorlikni o‘rganish nafaqat tarixiy merosni asrash, balki milliy o‘zligimizni

anglashda ham katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun Yunusobod Oqtepasi singari obidalarni chuqur o‘rganish va kelajak avlodga yetkazish har birimizning burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.A.Muhammadjonov Qadimgi Toshkent -1988

2. Filanovich M.I. Toshkent vohasining o‘rta asrlar arxeologiyasi. Toshkent: Fan, 1991.

3. Mershchiyev M.S. Toshkent arxeologik ekspeditsiyasi hisobotlari (1975–1985). Toshkent: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi, 1986.

4. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat Ilmiy Noshriyoti, 2000.

5. “O‘rta asrlar davri arxeologiyasi” darsligi. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta Maxsus Ta’lim Vazirligi, 2010.

XIX–XX ASRLARDA TOSHKENT VOHASI: ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA YONDASHUVLAR

Saydullayev Umidbek Saidmurod o‘g‘li
Chirchiq Davlat pedagogika Universiteti talabasi
Gumanitarfanlar fakulteti tarix yónalishi 1-kurs
24/1guruh talabasi

Annotatsiya:ushbu ishda XIX–XX asrlardagi Toshkent vohasining siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy o‘zgarishlari zamonaviy tarixiy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Tariflar va manbalar yordamida, Rossiya imperiyasi ta’siri, sovetlashtirish jarayonlari va milliy ozodlik harakatlarining vohaga ta’siri keng qamrovli yoritiladi. O‘rganilayotgan davrda vohaga oid arxiv ma’lumotlari, yozma manbalar va etnografik ma’lumotlar hamda qiyosiy metodlar ishlatiladi. Xulosa qilib, voha tarixi ilm-fanda yangi yondashuvlar asosida qayta ko‘rib chiqilmoqda va kelajak uchun muhim ta’limotlar beriladi.

Kalit so‘zlar: Toshkent tarixi,XIX asr,50-60-yillar,tarix muzeylari,Sovet davri,mustqaillik,shahar qiyofasi,zamonaviy tadqiqotlar,yondashuvlar.

XIX–XX asrlarda Toshkent vohasi mintaqadagi siyosiy xarakterini, iqtisodiy imkoniyatlarini va milliy madaniy dasturini shakllantirishda muhim ro‘l o‘ynadi. Bu davrda voha Rossiya imperiyasining ta’siri ostiga kirganidan boshlab, sovet tuzumining qattiq siyosatlari va milliy ozodlik harakatlari

davom etdi. Zamonaviy tarixshunoslik esa, bu jarayonlarni yangi metodologiyalar yordamida chuqurroq o‘rganib chiqish imkonini berdi. Maqola asosiy maqsad – XIX–XX asrlar oralig‘ida Toshkent vohasining rivojlanish jarayonlarini, uning siyosiy va madaniy muhitini, manba va metodlarni tahlil qilishdan iborat.

Yangi arxiv materiallari, yozma hujjatlar, etnografik va antropologik tadqiqotlar asosida qilingan tadqiqotlar. Qiyosiy tahlil va mintaqaviy yondashuvlar yordamida vohaga xos xususiyatlar ochib berilmoqda. XIX asrda Toshkent vohasining rivojlanishi. XIX asr davomida rus imperatori tomonidan siyosiy maqsadlarni ko‘zlab, yuborgan mutaxassislar O‘rta Osiyoni har tomonlama o‘rgandi. Mintaqa tabiiy boyliklarini o‘rganish va uni o‘zlashtirish topshirig‘i asosida yozilgan rus adabiyotlarida O‘rta Osiyo xalqlari to‘g‘risidagidastlabki ma’lumotlar uchraydi. Shunday qilib, o‘rganilayotgan mavzuga doir XIX asr so‘nggi choragidan boshlab XX asr 90 – yillarigacha bo‘lgan davrda yozilgan asarlar turli xil siyosiy-mafkuraviy qarashlar asosida yozilganligi bilan ajralib turadi. Sovet davlatida etnourbanistikaning mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida taraqqiy etishi o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, uning turli bosqichlarda sayqallanib borganligini ko‘rish mumkin. Uzoq davr maboynida shahar, sovet etnografiya fanining predmeti sifatida o‘rganilmadi. Shahar qiyofasi tadqiqot ob’yekti sifatida Rossiya geografiya jamiyati a’zolari tomonidan shahar aglomerasiyasining shakllanishi, tarkibiy tuzilishi, funksional-genetik tasnifi masalasi o‘rganilgan. Shuningdek, shaharlik aholining xo‘jalik madaniyati hamda uning arxaik ko‘rinishlari qayd etilgan. Bevosita O‘zbekiston shaharlariga oid o‘lkashunoslik tadqiqotlari ham bajarildi. Etnograflar dastlab shaharga etnik xususiyatga ega bo‘lmagan tizim sifatida baho berib, uni sivilizsiyalar unsuri, an’anaviy madaniyatga putur yetkazuvchi, ulkan qishloq aholisi massivlaridan ajralgan muhit sifatida tadqiq etishgan. XX asrning 20-30- yillarida sovet etnograflarining asarlarida shahar aholisining (asosan ishchilar) turmush tarzi va urf-odatlari atroflicha tahlil etilgan hamda shahar ijtimoiy-siyosiy hodisa sifatida o‘rganilgan. 1926-yilda Leningradda shahar etnografiyasiga oid dastlabki ilmiy maqola ham yaratildi. 1929-yilgi Etnograflarning majlisi qarorida asosan, aholining sanoatgacha bo‘lgan guruhlarini tadqiq etish belgilandi. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar sirasiga O.Suxarevaning tadqiqotlarini kiritish mumkin. Olima Samarqand shahri aholisining xo‘jalik faoliyatida urug‘chilik jamiyatiga oid belgilarning yo‘qolib ketganligi, shahar aholisi orasida an’analarning faqatgina oilaviy munosabatlar va to‘y rasm-rusmlarida saqlanib qolganligini

ta’kidlaydi. XX asrning 50-yillaridan sovet etnografiyasida shahar mavzusini tadqiq etish yangi bosqichga koʻtarildi. Bu markaziy shaharlarga urushdan keyingi yillarda koʻplab aholining koʻchib kelishi bilan bogʻliq edi. Shu tufayli boʻlsa kerak, bu davrdagi mavzuga doir adabiyotlarda yangi kolxoz kishilarining maishiy turmushidagi shahar muhiti, dehqonlarning turmush tarzi, turar-joy, kiyinish uslublarida shaharga xos boʻlgan xususiyatlar rivojlanib borayotganligi hamda bu jarayonning aholi an’anaviy mashgʻulotiga ta’sir etganligiga alohida e’tibor qaratilgan. Shaharlarni tarixiy-etnografik jihatdan oʻrgangan ayrim asarlar ham yaratilgan. 60-70- yillarga kelib sovet etnografiyasi fanida shahar etnologiyasi mavzusi alohida ilmiy yoʻnalish boʻlib shakllandi. Shahar antroplogiyasini oʻrganishning yuksalishini sovet etnografiyasi tadqiqot doirasining kengayishi bilan bogʻlash mumkin. Uning geografiyasi sosialistik mamlakatlari shaharlarini qamrab olish hisobiga kengaya boshlagan edi. Toshkent shahrining mahalliy tub aholisi orasida qolgan millatlarga nisbatan koʻpfarzandlilikning ustunligi, aholi demografiyasida tabiiy oʻsish jarayoni shu millat vakillarining ulushiga toʻgʻri kelishi ta’kidlangan. Aytish mumkinki, sovet davrida shahar antropologiyasini oʻrganilishiga doir tadqiqot ishlarilarda umumiylik bilan birga qatorda ayrim oʻziga xosliklar mavjud. Sovet jamiyatida yashovchi aholining maishiy turmushini oʻrganish, sosialistik taraqqiyotning kishilar kundalik hayotiga olib kirgan yuksalishlarni tarannum etish yondoshuvi deyarli barcha mualliflarga xosdir. Bu borada etnologik tadqiqotlarning ijtimoiy-iqtisodiy yoʻnalishi bilan juda kuchli bogʻlanganligini koʻrish mumkin. Mustaqillik yillarida shahar mavzusini tadqiq etish turli soha vakillarining diqqat markazida boʻldi. Natijada ushbu muammoni oʻrganishning turlicha talqini vujudga keldi. Shu sababdan ularni oʻrganishda guruhlarga ajratish maqsadga muvofiq deb topildi. Tanishib chiqilgan adabiyotlarni tasniflashda tadqiqotchilar tomonidan oʻrganilgan muammoning mavzusi yuzasidan yaqin boʻlgan adabiyotlar va dissertasiyalar bir guruhga umumlashtirildi. Mustaqillik yillarida aynan Toshkent viloyati sanoat shaharlari oʻrganilgan qator asarlar ham yaratildi. Bu borada hududning toponimlariga oid ishlarni alohida ta’kidlash oʻrinlidir. Ulardagi turli tomonimlar sharhi orqali berilgan ma’lumotlardan voha aholisining etnik tarixiga doir qimmatli ma’lumotlarni olish mumkin. Ushbu davrda sanoat shaharlarini oʻrganish boʻyicha bevosita mazkur sanoat shaharlari tadqiqotchilari tomonidan ham qator ishlar bajarildi. Jumladan, O.Levka, J.Nasriddinov, A.Hasanov, Yormatovlar Chirchiq, Bekobod, Olmaliq shaharlarining shakllanishiga doir oʻz risolalarini chop

ettirdilar. Bu borada so‘nggi yillarda ushbu mavzudagi ilmiy-ommabop nashrlarning ko‘payganligini alohida ko‘rsatib o‘tish maqsadga muvofiq. Ularning ahamiyatli tomoni shundaki, so‘nggi yillardagi sanoat shahri aholisi demografiyasi, shahar topografiyasining tarixiy ildizlari65 masalalari qisman bo‘lsada yoritilgan. Biroq bularni ilmiy-ommabop nashrlar ruknidagi ishlar sifatida e’tirof etish o‘rinli. Mazkur asarlardagi aksariyat ma’lumotlar ilmiy tildan uzoq bo‘lgan, badiiy hamda omma so‘zlashuvidagi jumlalar bilan boyitilgan. Bir so‘z bilan aytganda, dissertasiya mavzusi yuzasidan tahlil etilgan adabiyotlar mazkur muammoni o‘rganishda qimmatli ma’lumotlarni taqdim etadi. O‘rganuvchida shahar bilan bog‘liq ko‘pgina masalalar yuzasidan tasavvur hosil qilishda muhim hisoblanadi. Lekin sanoat shaharlaridagi ijtimoiy-madaniy moslashuv jarayoniga doir ilmiy-nazariy xulosalarni bermaydi. Mustaqillikning dastlabki yillarida antropolog T.K.Xodjayovning G.K.Xodjayova bilan hammualliflik asosida yozgan -O‘zbek xalqining antropologiyasi va etnik tarixi66 o‘quv qo‘llanmasi ham muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Asar Toshkent vohasining ijtimoiy masalalariga oid ma’lumotlar beradi.XIX–XX asrlarda Toshkent vohasining tarixi zamonaviy yondashuvlar bilan to‘la tushuniladi. Tarixiy manba laiqlik bilan qo‘llanilishi, metodik yondashuvlar va qiyosiy tahlillar voha rivojlanishining murakkabligini ochib beradi. Bu davrda yuzaga kelgan ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy muammo va jarayonlar, yangicha ilmiy falsafa yordamida qayta ko‘rib chiqilmoqda va kelajak uchun muhim ilmiy natijalar olinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Aliyev, B. (2010). *Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyo politikasining rivojlanishi.* Toshkent: “Yangi Asr”.

2. Shamsiddinov, S. (2015). *Toshkent vohasining XIX asrdagi iqtisodiy rivojlanishi.* Tashkent: "Ilmiy Asos".

3. Mamatov, S. (2018). *Sovet davrida O‘zbekiston shahar madaniyati.* Toshkent: “O‘zbekiston”.

4. Khatamov, E. (2020). *Etnografik tadqiqotlar va Toshkent vohasi tarixi.* Tashkent: “Fan”.

5. Arxivlarning ochiq hujjatlari: Toshkent, O‘zbekiston milliy arxivlari, Rossiya davlat arxivlari.

BO‘STONLIQ TUMANINING MUQADDAS QADAMJOLARI VA ZIYORATGOHLARI

Saydullayeva Lola
Chirchiq davlat pedagogika unversiteti
gumanitar fanlar fakulteti Tarix yo‘nalishi talabasi
Ilmiy rahbar: Tarix kafedrasi dotsenti, t.f.f.d. (PhD) Sh.B.Jumayeva

Annotatsiya: Mazkur ishda tumandagi ziyoratgohlarning tarixi, vazifasi, ahamiyati va me’moriy uslublari yoritilgan. Shuningdek tumanning geografik joylashuvi, iqlimi va tabiati haqida so‘z boradi. Ziyoratgohlar rivojlanish tarixiga ko‘ra bosqichlarga ajratilib, har bir bosqichning tarixiy shakllanishi, shu davrdagi diniy qarashlar, ziyoratgoh va qadamjolarning mahalliy xususiyatlari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Diniy e’tiqodlar, ziyoratgoh, Toshkent, sovet davri, sharqona me’morchilik, islomiy me’morchilik, madaniy meros.

Аннотация: В данной работе освещается история, функции, значение и архитектурные стили мавзолеев и святынь, расположенных на территории района. Также рассматриваются географическое положение, климат и природа района. Зияраты классифицированы по этапам исторического развития, раскрываются религиозные воззрения соответствующих периодов, а также дается информация о местных особенностях святынь и мест паломничества.

Ключевые слова: Религиозные верования, святыня, Ташкент, советский период, восточная архитектура, исламская архитектура, культурное наследие.

Annotation: This work highlights the history, functions, significance, and architectural styles of shrines and sacred sites in the district. It also discusses the geographical location, climate, and natural features of the area. The development of shrines is divided into historical stages, with information provided on the religious views of each era and the local characteristics of pilgrimage sites and sacred places.

Keywords: religious beliefs, shrine, Tashkent, Soviet period, oriental architecture, Islamic architecture, cultural heritage.

Bo‘stonliq tumani – Toshkent viloyatidagi eng yirik ma’muriy-hududiy birlik bo’lib, mintaqaning shimoliy-sharqida joylashgan. Tuman shimolda Qozog‘iston, janubda Qirg‘iziston bilan chegaradosh.

Bo‘stonliq tumani hududi tog‘li relyef hisoblanib, bu yerni Tyan-Shan tog‘ining Pskom va Ugom tizmalari o‘rab turadi.

Bo‘stonliq tumanining iqlimi tog‘li hududlarga xos. Uning shimoli-sharqiy qismida yog‘ingarchilik ko’p yog’adi. Qishi sovuq, yozi esa issiq, yillik yog’in miqdori tog’ning pastki qismida kamroq, yuqori qismiga qarab esa ortib boradi.

Bo’stonliq tumani muqaddas qadamjo va ziyoratgohlarga boy maskan. Bo‘stonliq tumani ziyoratgohlari tarixi, vazifasi, ahamiyati va me’moriy yechimiga ko‘ra, bir-biridan farq qiladi. Mazkur ziyoratgohlarining rivojlanish tarixiga ko‘ra, quyidagi bosqichlarga bo‘lish mumkin:

Islom dini kirib kelgunga qadar mavjud bo‘lgan diniy e’tiqodlar bilan bog‘liq ziyoratgohlar. Mazkur davrda asosan, animizm, fetishim, totemizm, shomonlik, Ko‘k Tangri e’tiqodi, zardushtiylik, nasroniylik va moniylik kabi diniy qarashlar bilan bog‘liq muqaddas qadamjo hamda ziyoratgohlar shakllangan bo‘lib, ular orasida qoya tosh rasmlari eng qadimiysi hisoblanadi. Shuningdek, Ohangaron tumanidagi Qorixona va Qo‘shbuloq yodgorliklari buddaviylik, xristian hamda Mitra e’tiqodi bilan bog‘liq yerosti ibodatxonasiga ega bo‘lgan.

Bugungi kunga qadar ziyoratgohlar va ziyorat marosimlarida qadimgi e’tiqodlar izlari saqlanib qolgan. Jumladan, Bo‘stonliq tumanidagi Balogardon, Qadamjo, Payg‘ambar ota, Piskentdagi Qirqqiz va Qo‘lota kabi ziyoratgohlar bunga misol bo‘ladi.

XIV asrgacha bo‘lgan davr. Ushbu davrda arablar istilosi natijasida vohaga islom dinining kirib kelishi va mahalliy ziyoratgohlar hamda ziyorat marosimlarining islom aqidalari bilan simbiozi yuz beradi. Ya’ni, barcha qadamjo va ziyoratgohlar Qur’oni Karimda nomlari zikr qilingan payg‘ambarlar, sahobalar hamda xalifalar nomlari bilan bog‘liq holda talqin etila boshlangan. Jumladan, Toshkent viloyatidagi Hazrati Masjid Ali, Axtam Sahoba, Zarkent ota va Ikrima ota ziyoratgohlari bunga misol bo‘ladi.

XV asrdan – XIX asr oxirigacha bo‘lgan davr. Tasavvuf ta’limotining keng tarqalishi va avliyolarga bo‘lgan ehtiromning yuksakliligi bois Toshkent vohasida XIV asrda so‘fiylarning memorial-diniy ziyoratgohlar keng tarqalgan. Tasavvuf ta’limotiga ko‘ra, tasavvuf shayxlari dafn qilingan qabristonlar muqaddas hisoblanib, ziyoratgohlarga aylanib borgan. Chunonchi, Toshkent viloyati hududida asosan, turkistonlik Xo‘ja Ahmad Yassaviy va yassaviylik ta’limotining izdoshlari nomi bilan bog‘liq ziyoratgohlar bunyod qilingan.

Ushbu ziyoratgohlar chillaxona, masjid, xonaqo kabi qo‘shimcha binolar bilan boyitilib, arxitektura kompleksiga aylantirilgan.

Sovet davri. Mazkur davrda siyosiy tazyiqlarga qaramasdan, o‘zbek xalqi an’ana va qadriyatlarida ziyoratgohlarga bo‘lgan e’tiqodlar saqlanib qoldi. 1928-yil 3-mart kuni I. Stalinning “Quloqlarga qarshi kurash – dinga qarshi hal qiluvchi kurash pallasi” mavzusida so‘zlagan nutqidan so‘ng mamlakatda din vakillariga qaratilgan qatag‘on siyosati yanada kuchaydi. Hattoki, tabarruk qadamjo va ziyoratgohlardagi shayx, eshon hamda qarovchilar ham qatag‘on qurboniga aylandi. Natijada, ziyoratgohlar qarovsiz va tashlandiq holatga kelib qoldi. Tabarruk qadamjo va ziyoratgohlarni buzib tashlash ishlari rag‘batlantirildi. O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlar idorasi (SADUM) tabarruk qadamjo hamda ziyoratgohlarni saqlash, himoya qilish, ijaraga berilgan ziyoratgoh hududlarini qaytarib olish hamda obodonlashtirish masalalari bo‘yicha Din ishlari bo‘yicha Kengashga murojaat bilan chiqqan. Shunga qaramasdan, ziyoratgohlar baribir ateistik muzey, turli sex va “Qizil choyxona”larga aylantirilgan.

Mustaqillik yillari. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng tabarruk qadamjo va ziyoratgohlarning “qayta tug‘ilish” davri bo‘lib, buzilib ketgan maqbaralar sharqona me’morchilik an’analari asosida qayta tiklanib, ziyoratga keluvchilar uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi. So‘nggi yillarda ziyorat turizmini rivojlantirish maqsadida Respublika miqyosida mavjud tabarruk qadamjo va ziyoratgohlarni o‘rganish, ziyoratgohlar infratuzilmalarini rivojlantirish hamda rekonstruksiya qilish ishlariga alohida e’tibor berilmoqda. Shu bilan birga, ziyorat marosimlarini o‘ziga xos jihatlari, marosimlarning vujudga kelishidagi endogen va ekzogen omillar, marosimlarning insoniyat ruhiyatiga ta’siri kabi xususiyatlarni o‘rganish dolzarb vazifalardan biriga aylandi.

Xulosa: Bo‘stonliq tumani hududida joylashgan muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar – o‘zbek xalqining ma’naviy boyligi, tarixiy xotirasi va e’tiqodining yorqin ifodasidir. Tasavvuf ta’limotining chuqur ildiz otgani, avliyolar siymosiga bo‘lgan cheksiz hurmat, asrlar davomida ushbu hududda ko‘plab ziyorat maskanlarining shakllanishiga zamin yaratgan. Har bir qadamjo – bu xalqning ichki dunyosi, sabr-matonati va umidlarining timsolidir.

Sovet tuzumi davrida dinga va ziyoratgohlarga qarshi olib borilgan bosimlar ularning moddiy holatiga zarar yetkazgan bo‘lsa-da, xalq qalbidan bu muqaddaslikni yo‘qota olmadi. Mustaqillik yillarida esa bu maskanlar o‘z

sha’niga qayta ega bo‘lib, bugungi kunda ma’naviy tarbiya, turizm va tarixiy merosning muhim qismiga aylangan. Ularni asrash, o‘rganish va kelajak avlodga yetkazish – bizning muqaddas burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bo’stonliq – Toshkent vohasi javohiri. – Toshkent: 2023
2. Toshkent tamaddun tarixi va taraqqiyot istiqbollari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2014.
3. Markaziy Osiyo tarixi, arxeologiyasi va etnologiyasi masalalari. – Toshkent, 2018.
4. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. Sovet davrida diniy merosga munosabat: tarixiy tahlil. – Toshkent, 2000.
5. Abdulayev, A. O‘zbekiston ziyoratgohlari. – Toshkent: “Movarounnahr”, 2010.
6. www.ziyorat.uz – O‘zbekistondagi muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar portali
7. Saidov, A. va boshq. O‘zbekiston tarixi: Diniy-ma’naviy meros. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2019.

XI-XV ASRLARDA TURKIYA

Mehritdinova Kumush Husniddin qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
2-bosqich talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada Turkiya ya’ni Usmoniylar imperiyasining XI-XV asrdagi ijtimoy, iqtisodiy va madaniy hayoti tahlil qilinadi. Imperyani tashkil topishi sulola namoyondalari, ularning imperiya uchun qilgan ishlari aks ettiriladi. Ushbu maqolada hukmdorlarning davlat xalq oldidagi ko‘rsatgan xizmatlari, o‘z mustamlakasiga aylantirgan hududlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar. O‘g‘uzlar, saljuqiy turklar, g‘oziy, sulton, aqcha, Yanicharlar, sanjoq, Yildirim, dukat, sipohiylar, istin polin, Trapezund imperiyasi, mamluklar.

O‘g‘uzlar (o‘g‘uzlar turkiy qabila bo‘lib, Markaziy Osiyoda yashaganlar. VII asr boshida Turk hoqonligi tarkibida to‘qqiz o‘g‘uz qabilasidan paydo bo‘lgan) ning O‘rta Osiyodan Kichik Osiyo ko‘chib kelishi va saljuq turklari

(saljuq turklari XI-XIV asr boshida Yaqin va O‘rta Sharqdagi bir necha davlatlarda hukmronlik qilgan qabila bo‘lib, sulola nomi turk-o‘g‘uz qabilasi boshlig‘i Saljuq nomidan olingan) bilan aralashib ketishi natijasida Kichik Osiyoda XIII asr oxiri va XIV asr boshlarida yangi davlat tashkil topdi. Usmoniylar sulolasi va Usmon turklar asoschisi Usmon G‘oziy (vatan himoyasiga, g‘ayri dinlarga kurashgan rahbar) bo‘ladi. Bu sulolaning birinchi sultoni (arab. hukmdor, podshoh, musulmon davlatlari boshliqlari unvoni, Turkiyada 1922 yilgacha amalda bo‘lgan) Usmon I G‘oziy (1258 yili Vifiniyada tug‘ilgan,1326 yili Bursada vafot etgan), va oxirgi sultoni Mehmed VI Vahobiddin (1918-1922 yillar) da jami bo‘lib 36ta sulton boshqarib, shulardan 19ta sulton o‘rta asrlar davrida boshqarishgan.

Usmon I 1291-yil Melanpiya shahrini zabt etadi va Vizantiyaning Go‘zal shahrini o‘ziga qarorgoh qilib oladi. Melanpiya aholisi o‘z shaharlarini tark etishadi va Usmon I buyerga Garmiyon va Anatoliy ming boshqa shaharlaridan aholini ko‘chirtirib olib keladi. Xristianlar sobori Usmon buyrug‘i bilan masjidga aylantirildi va har jumada uning nomi xutbada yangray boshladi.

XIII asr oxiri XIV asr boshlarida Usmon beyligi o‘z hududini kengaytirdi.

1301 yil Usmon Yenishehrni zabt etib, u yerga qal’a qurgach, Bursa shahrini qo‘lga kiritish uchun tayyorlana boshladi.

Usmoniylar Bursani Usmonning o‘g‘li Urxon davrida egallashdi.

Usmoniylar davlatining ikkinchi hukmdori Urxon (1326-1359 yillarda boshqargan), 1288 yilda Anatoliyada tug‘ilgan. Urxon Bursani beklik poytaxti deb e’lon qildi. Urxon 1327 yilda birinchi marta kumush tanga- aqcha (aqcha.turk.-savdo-sotiq, to‘lov muomalalarida narx, baho, qiymat o‘lchovi birligi bo‘lib, asosan kumushdan zarb qilingan) zarb qildi. [1, B.110-112]

1330 yili Urxon qo‘shini Nikeyani, 1337 yili Nikomediya (Izmir) ni qo‘lga kiritdi.

Dengiz orqali yordam olib turgan Nikomediya qamali 9 yil davom etib, Urxon bu hududni olish uchun Marmar dengizining tor bo‘g‘ozini qamal qildi. Chorasiz qolgan Nikomediya ahli shaharni turklarga topshirdi. Turklarning Marmar dengizi va Bosfor sohillariga chiqishi ularning Frakiyaga qiladigan hujumlariga zamin yaratdi.[1, B.113]

1338 yilda turklar Frakiya tomon yurish boshlashdi. Urxonning o‘zi 30 ta kemasi bilan Konstantinopol ostonalarida paydo bo‘ldi. Vizantiya imperatori Andronik III Paleolog (1328-1341 yillarda boshqargan), Urxon

bilan munosabatlarini yaxshilash uchun unga qizini beradi va usmoniylar va Vizantiya imperiyasi munosabatlari bir muncha vaqt yaxshilanadi.

Usmoniylar davlatining uchinchi hukmdori Sulton Murod I (1359-1389 yillarda boshqargan). Har bir davrda har bir davlatda doim shahzodalar hukmdorlar o‘rtasida doim taxt uchun kurashlar bo‘lib turgan shulardan bir Sulton Murod I taxt talashib ukalari Ibrohim va Xalilni o‘ldirtirib yubordi. U hokimiyatni egallagach, e’tiborini davlatining sharqiy va janubiy chegaralariga qaratdi va bu viloyatlarni istilo etdi. Murod I 1361 yili Frakiyaning asosiy shahri Edirna (Adrianopol) ni bosib oldi u Brusu o‘rniga Turkiyaning yangi poytaxti bo‘lib qoldi. Murod sulton unvonini qabul qilib tarixga Murod I nomi bilan kirdi. 80-yillarda Murod I g‘arbga tomon yurishini davom ettirdi. 1385 yili Sofiyani, 1386 yili Nishni qo‘lga kiritdi. Murod I Anatoliyada harbiy harakatlarni to‘xtatdi va qo‘lga kiritilgan hududlarni 5 ta sanjoq (usmoniy turklar imperiyasida asosiy ma’muriy-hududiy birlik, viloyatning tarkibiy qismi) qa bo‘lib, o‘zining sodiq amaldorlariga taqsimlab berdi.

Murod I ning o‘limidan so‘ng uni katta o‘g‘li Boyazid sulton deb e’lon qilindi va 1389-1402 yillarda boshqardi. .[1, B.115-116]

Boyazidning shiddatli harakatlari unga zamondoshlari “Yildirim, ya’ni shiddatli” laqabini berishgan. Boyazid juda qattiq qo‘l juda ko‘p janglarda g‘alabalarga erishgan hukmdor bo‘lib hattoki fransuzlar bilan bo‘lgan jangda g‘alabasidan song bir necha nomdor ritserlarini fransuz qiroli Karl V ga juda katta to‘lov evaziga qaytarib bergan. Fransuz qirolining sultonga to‘lagan to‘lovi miqdori 200 ming oltin dukat (og‘irligi 3,44 gramm bo‘lgan kumush va oltin tanga) bo‘lgan. Tarixda “Loy jangi” deb nom olgan jang bo‘lib o‘tadi. Bu jang Sohibqiron Amir Temur va Sulton Boyazid o‘rtasida bo‘ladi. Sulton Boyazid Yevropaga taxtit solayotgan boladi va Yevropa xalqlari Boyazidaga qarshi Amir Temur bilan ittifoq tuzishga erishishadi.O‘z navbatida Boyazid Amir Temurni birgalikda Yevropaga qarshi kurashga da’vat etadi. Biroq, Sohibqiron uni rad etib, sulton saroyida panoh topgan isyonchi turkman qabilalari boshliqlarini unga topshirishni talab qiladi. Muzokaralar natijasiz tugagach, ikkala tomon jangga tayyorgarlik ko‘ra boshlaydi.[2, B.594-595]

Sohibqiron Amir Temurning usmoniylar imperiyasiga yurishi natijasida 1402 yil 25 iyulda Anqara jangida turk yanicharlari Amir Temur qo‘shinlaridan yengildi va Boyazid asir olindi. Boyazidning buyuk Sohibqirondan mag‘lubiyati Yevropani muqarrar halokatdan qutqarib qoldi. Bu g‘alaba bilan Amir Temurni tabriklab ko‘pgina Yevropa davlatlari qirollari maktub yuborgani bejiz emasdi. Vizantiya imperiyasi umri ham yana 50 yilga

uzaydi. Konstantinopol 1453-yil 29- mayda quladi. Va bu davrda sulton Mehmet II davlatni boʻshqarar edi. Manbalarda e'tirof etilishicha, sulton Mehmet II Yevropada xristianlarni tugatmaguncha oʻz qilichini qiniga solmaslikka va'da bergan va u va'dasini bajardi. [3, B.431-432]

1459 yili turklar Serbiyaning barcha hududlarini qoʻlga kiririshdi va u Usmoniylar davlatining viloyatiga aylantirilib, 200 mingga yaqin serblar qul qilindi.[5, B. 197-198]

1461 yili turklar Kichik Osiyoning shimolidagi muhim savdo nuqtasi hisoblangan greklarning Trapezund imperiyasini (bu imperiya 1204-1461 yillarda yashagan) boʻysundirdi. Trapezund imperatori David shaharni topshirishdi. David va zodagonlar dengiz orqali shaharni tark etishdi. Aholining koʻpchiligi Istanbulga koʻchirildi, 1500 ta bola yanicharlarga olindi.[4, B. 148-150]

Muhammad II Misr mamluklariga (arab.qul), (1250-1517 yillarda Misrni boshqarganlar) qarshi urush olib borish koʻzda tutilgan edi, lekin usmoniylar qoʻshini Italiyadan qaytayotganda yoʻlda Muhammad II kasallikdan vafot etadi.[6, B. 257-260] Usmoniylar imperiyasi taxtiga Muhammad II ning oʻgʻli Boyazid II taxtga oʻtirib (1481-1512 yillarda boshqargan) uning hukmronligi davrida Vengriya, Polsha, Venetsiya, Misr va Eronga qarshi urushlar olib borildi. Boyazid II yanicharlar fitnasi tufayli 1512 yil 25 aprelda taxtni oʻgʻli Salimga topshirdi va Salim I nomi bilan 1512-1520 yillarda taxtni boshqardi.[7, B. 313-315]

Usmoniylar imperiyasida bu davrlarda ijtimoy, iqtisodiy va madaniy hayotida ham doim oʻzgarishlar boʻlib turgan, bunga sabablardan biri doim yangi hududlarning egallanishi yangi xalqlarining koʻchib kelishi va yana xalq hayotiga ta'sir qiladigan hodisalardan biri bu doim taxt uchun kurashlar bolishi va doim imperiya hukmdorlari almashinib turishi sabab boʻlgan.[8, B. 200]

Xulosa qilib aytganda davlat yuksalib imperiyaga aylandi ammo doim yangi hududlarni egallashi, yangi xalqlarni koʻchib kelishi, milliy zulim,mazlum millatlarni doimo bostirib turish rejimi juda katta Turkiya imperiyasining aslida zaif ekanligini va beqarorligini koʻrsatar edi. Yangi hududlarni egallanishi albatta davlatni yuksaltiradi uni kuchliligini isbotlaydi ammo taxt uchun kurashlar yangi qoʻshilgan hududlarning oʻz oʻzini boshqarishga intilishlari asta sekinlikda bu davlatni qulashiga oʻzidanda kuchli davlatlarga asta sekinlikda qaram boʻlishiga sabab boldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jahon tarixi (o‘rta asrlar tarixi) O‘quv -uslubiy majmua. Denov (2019)(110/117-betlar)
2. O‘rta asrlar tarixi. Toshkent: “O‘qituvcvi” nashriyoti Semyonev (1973)(594/600-betlar)
3. Yangi davr. 1-qism XVI-XVIII asrlar. Toshkent: “O‘zbekiston” Shuhrat Ergashev (2013)(431-448-betlar)
4. Jahon tarixi. Toshkent: “O‘zbekiston savdo nashriyot matbaa ijodiy uyi” Sarimsoqov.A (2021)(148/165-betlar)
5. O‘rta asrlar tarixi. O‘quv metodik qollanma. Toshkent(1991) Qurbonaliyeva.R.R
6. O‘rta asrlar tarixi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent "MASHHUR-PRESS" B. Mirkomilov, F.Aqchayev, O.Mamirov (2016)(257/264-betlar)
7. Jahon tarixning muhim sanalari(eng qadimgi davrdan bugungacha) Toshkent "O‘zbekiston"(2011)

M U N D A R I J A

SO‘Z BOSHI	
“FARNKAS” YOXUD PARKENT TOPONIMIKASIGA DOIR BA’ZI MULOHAZALAR Shoaslonova Zuxra Qurbonboy qizi	
XVIII-XIX ASRLARDA QO‘QON XONLIGI. Mirtazoqulova Bahora	9
MUSTAQILLIKDAN KEYINGI DAVRDA O‘ZBEKISTON OZARBAYJON MUNOSABTLARI. TA’LIM SOHASIDAGI KELISHUVLAR. Madrahimov Yangiboy Sobir o‘g‘li	13
MAKEDONIYALIK ALEKSANDR YURISHLARI: TARIXIY AHAMIYATI VA MADANIY TA’SIRI Odilov Azimjon Hasanboy o’g’li	17
SALIB YURISHLARI VA ULARNING YAQIN SHARQ TARIXIGA TA’SIRI. Xudaynazarov Nazarbek.	20
GLOBALLASHUV SHAROITIDA YANGI O‘ZBEKISTON: YANGICHA YONDASHUV VA HUQUQIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI. Nabiyev Sherzod Baxrom o’g’li	23
SALIB YURISHLARI VA ULARNING YAQIN SHARQ TARIXIGA TA’SIRI. Bozorov Bekzod	28
BO’STONLIQ TUMANI XO’JAKENT MANZILGOHINING QADIMIY-TARIXIY O’RGANILISHI Rixsiboyeva Muazzam Mohirjon qizi	31
O‘RTA OSIYOGA KO‘CHIRIB KELTIRILGAN SANOAT KORXONALARI VA UNING O‘ZBEKISTONGA TA’SIRI. Dadoyev Nurangiz Shavkatovich	38
ТАРИХИ ДАРСЛАРИДА КОМПЬЮТЕР ВОСИТАЛАРИНИ ҚЎЛЛАШНИНГ МЕТОДИК ТАЛАБЛАРИ. Xolmurodov Jonibek Muxiddin o'g'li	41
АМИР ТЕМУР ЎГИТЛАРИНИНГ-ШАХС МАЪНАВИЙ КАМОЛОТИДАГИ ЎРНИ Usanov Azizbek Ahmadaliyevich	48
TOSHKENT VOHASI – BUYUK IPAK YO’LI CHORRAHASIDA. Xurramov Boburmirzo	56
ЎЗБЕКИСТОНДА АМАЛГА ОШИРИЛГАН МАЪМУРИЙ-ҲУДУДИЙ ИСЛОҲОТЛАР НАТИЖАСИ. To'rayeva Dilafro'z Rahmonberdi qizi	61
TURKISTON, BUXORO VA XORAZM RESPUBLIKALARIDAGI AYRIM IJTIMOIY-SIYOSIY JARAYONLAR XUSUSIDA. Sharofova Fayyoza Nuriddin qizi	68
ЎЗБЕК ХАЛҚИНИНГ ДАВЮРАК ФАРЗАНДИ. Raximqulova Perizat Baktibay qizi	74
XX АСРНИНГ 20-30-ЙИЛЛАРИДА ТАЪЛИМ ТИЗИМИДАГИ КАДРЛАР МАСАЛАСИ Safartosheva Mo'tabar Lazizjon qizi	80
МАРКАЗИЙ ОСИЁ ХАЛҚЛАРИ ТУРМУШ ТАРЗИДА ЗИЁРАТГОҲЛАРНИНГ ЎРНИ Yestayeva Akmaral Abdiazim qizi	85
KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVGA ASOSLANGAN TA`LIM STANDARTLARINI JORIY ETISH-ZAMONAVIY TA`LIM PARADIGMASI SIFATIDA. Karimova Dilbar Nurliboy qizi	91
YOSH BUXOROLIKLAR FAOLIYATI. Dadajanova Gulnora Baxodirovna	97
ILK O‘RTA ASRLAR BUXORO TARIXIDAN. Abduvaliyeva Asiya Mamirjon qizi,	105
O‘QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA BIOLOGIYA FANINING ROLI Abduxoshimova Dilshoda Rahimjon qizi,Abdinazarov Abdilaziz Faxriddin o‘g‘li, Pirjanova Xurshidabonu Murodbek qizi	108
BIOLOGIK TAJRIBALAR ORQALI O‘QUVCHILARDA ILMIY DUNYOQARASHNI RIVOJLANTIRISH Asanova Diana Batirali qizi, Turg‘unov Arabboy Baxromjon o‘g‘li,Risqimboyev Fazliddin Ilhomjon o‘g‘li	112
STEAM YONDASHUVI ASOSIDA BIOLOGIYA DARSLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI Boboyeva Moxiniso Zoirjon qizi, Xudoyberdiyeva Zulxumor Bunyod qizi, Qulmuxammadov Farrux Soxib o‘g‘li	115
BIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA INTERAKTIV PLATFORMALAR (KAHOOT, QUIZLET, NEARPOD)DAN FOYDALANISH. Muhiddinov Bobur Utkir o‘g‘li,Turg‘unjonova Diyora Bahodir qizi, Risqimboyev Fazliddin Ilhomjon o‘g‘li	119
BIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA INTERAKTIV VOSITALAR: DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI Sharafiddinova Chinora Erkin qizi,Ataxanov Diyorbek Baxtiyor o‘g‘li,	123

Bozorboyeva Sevinchoy Dilshod qizi	
O‘RTA ASRLARDA TOSHKENT VOHASINING SIYOSIY VA IQTISODIY AHAMIYATI G’aybullayev Asilbek Bekmurod og’li	126
MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHKENT: IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY TARAQQIYOT TARIXI. G’ulomova Gulzoda G’afurjon qizi	131
JADIDCHILIK HARAKATI VA UNING O‘ZBEKISTON TARIXIDAGI O‘RNI G’aybullayev Asilbek Bekmurod o’g’li	135
TOSHKENT VILOYATIDAGI ZIYOLILARNING QATAG‘ONGA UCHRASHI: ELBEK, OLTOY VA XOLID SAID MISOLIDA , Gulyamov Dostonbek Umid o‘g‘li	137
MO‘G‘ULLAR DAVRIDA TOSHKENT SHAHRI ETNOLOGIYASI. Gulzira Juraqulova	141
MILODDAN AVVALGI III-I ASRLARDA TOSHKENT VOHASIDAGI KECHGAN SIYOSIY JARAYONLAR. Hamidov Jahongir Mansurbek o‘g‘li	143
QADIMGI DAVRLARDA TOSHKENT VOHASI: TARIXIY, ARXEOLOGIK VA MADANIY MEROS Hamidov Jahongir Mansurbek o‘g‘li	146
TOSHKENT VOHASIDA YASHOVCHI ETNIK GURUHLAR: TARIXIY SHAKLLANISH VA ZAMONAVIY HOLAT Hayitboyev Azamat Davlatboy o’g’li	149
UCHINCHI RENESSANSNING MUSTAHKAM POYDEVORINI YARATISHDA TA’LIM TARBIYANING ROLI Hayitboyeva Farzona Rayxonjon qizi	152
MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHKENT VILOYATI IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY TARAQQIYOT: XAYRIDDIN SULTONOV IJODIY FAOLIYATI Haytboyeva Fazilat Qurolboy qizi	158
MA’RIFATPARVAR ZIYOLIY, SHOIR VA TARBIYACHI Homidjonov Nodir Bahodir o’g’li	161
ROBINDRANAT TAGORNING "XOTINNING XATI" HIKOYASIDA AYOL OBRAZI Hoshimova Shohsanam Bahrom qizi	166
TOSHKENT VILOYATIDAGI MOZAIKALAR: TURIZM SALOHIYATI VA MADANIY MEROS Husaynova Orzigul	168
МЕТАКОГНИТИВНЫЕ СТРАТЕГИИ В РАЗВИТИИ НАВЫКОВ АКАДЕМИЧЕСКОГО ПИСЬМА У СТУДЕНТОВ Ахмедов Хусен Узаирович	173
JADIDLARNING ZAMONAVIY MAKTAB MASALASIGA MUNOSABATI Ibotova Muxlisa Sirojiddin qizi	179
TOSHKENTNING QADIMGI MANZILGOHLARI Ibragimova Nazmi Abdalim qizi,	182
QADIMGI TOSHKENT - XITOY MANBALARIDA Ibragimova Nazmi Abdalim qizi	186
BUXORO AMIRLIGIDA “YANGI USUL” MAKTABLARINING FAOLIYATI Anarbekov To'lqin	191
BUXORO ARKI TARIXI Axrorova Zulfiya Baxtiyarovna	195
PEDAGOGIK AMALIYOTNI O‘TKAZISHDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI Kenjebayeva Ayjan Murat qizi	199
BUXORODAGI – “ULUG‘BEK MADRASASI” Mutalov Odilbek Baxit O'g'li	204
BUXORO XONLIGIDA QUL SAVDOSI MULOHAZALAR Nazarova Ruxshona Ermat qizi	208
БУХОРО АМИРЛИГИ ТУГАТИЛИШИ АРАФАСИДА МАДАНИЙ ҲАЁТ (1920- 1924 й.) Норқўзиева Гулнора Қўзибой қизи	211
“ЎЗБЕКИСТОН ВА МАРКАЗИЙ ОСИЁ МИНТАҚАСИ ДАВЛАТЛАРИНИНГ ЎЗАРО ҲАМКОРЛИК ВА ҲАМЖИҲАТЛИК ЙЎЛЛАРИ”.Қучқарова Шахноза Бахтиёр қизи	215
ЁШЛАРДА ВАТАН ТУЙҒУСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ЭКОЛОГИК ТАЪЛИМ -	220

ТАРБИЯНИНГ АҲАМИЯТИ. Quldashova Gulhayo Ochil qizi	
ТУРКИСТОН ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРЛИГИ БЮДЖЕТИ ВА УНИНГ МУСТАМЛАКАЧИЛИК МОҲИЯТИ . Ирискулов Б. Ж.	223
XXI ASRDA TOSHKENT . Ismoilov Narzulla Tolliboyevich	229
“BOBIYLAR QO’ZG’ALONI” Ismoilov Narzulla Tolliboyevich	232
XI-XV ASRLARDA ROSSIYA . Ismoilov Samandar Abdukarimovich	236
O‘ZBEKISTON–ISPANIYA MUNOSABATLARI: IQTISODIY HAMKORLIK VA MADANIY ALMANAX (1991–2024).Ismoilova Sevinch Akmaljon qizi	239
XIX – XX ASRLARDA TOSHKENT VOHASI: ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA YONDASHUVLAR Isroilova Sarvinoz Ro‘zimurod qizi	242
TOSHKENTNI QO’QON XONLIGI TOMONIDAN BOSIB OLINISHI. Jalilova Fotima Akram qizi	246
O‘ZBEKISTON TARIXINING DOLZARB MASALALARI. Jalolova Munisa Ulug‘bek qizi	249
CHIRCHIQ SHAXRI TARIXI BUGUNI VA ISTIQBOLLARI. Jarbolov Serikbolsin Baybosin o‘g’li	251
XIV-XV ASRLARDA DASHTI QIPCHOQDAGI SIYOSIY VAZIYAT HAQIDA QISQACHA MULOHAZALAR. Jaylovov To‘xtamurod Sodiq o‘g‘li	255
ILK O'RTA ASRLARDA O'ZBEKISTON TARIXINING DOLZARB MASALALARI. Joldasbekova Roza Kurbanbek qiz	257
QADIMGI TOSHKENT VOHASI AHOLISI VA TURMUSH TARZI Jumaboyeva Sevinch Baxtiyor qizi	259
TOSHKENT VOHASI MUQADDAS QADAMJOLARI VA ZIYORATGOHLARI Jumanazarova Dilnavoz	262
CHIRCHIQ SHAHRI TARIXI, BUGUNI VA ISTIQBOLLARI Jumanov Javohir Yoqub o‘g‘li	264
TURKISTONDA YANGI USUL MAKTABLARINI FAOLIYATI VA JADIDLARNI MULOHAZALARI Jumanova Shodiyona Asqar qizi	268
IBTIDOIY DINIY QARASHLARNING O‘ZBEK XALQI HAYOTIDAGI IZLARI Jumayeva Nilufar Baxtiyor qizi	271
TOSHKENT SHAHRINING MUSTAQILLIK DAVRIDAGI MADANIY TARAQQIYOTI: SAN’AT VA ARXITEKTURA MISOLIDA. Jumayeva Nilufar Bahtiyor qizi ,Ismoilov Narzulla Tolliboyevich	274
XIX – XX ASRLARDA TOSHKENT VOHASI: ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA YONDASHUVLAR.. Kamoliddinova Olimaxon Baxriddin qizi	276
CHIRCHIQ SHAHRI TARIXI BUGUNI VA ISTIQBOLLARI Komolova Jasmina Ilxom qizi	280
TOSHKENT QO‘QON XONLIGI TARKIBIDA. Karimjonova Hilola	283
XI -XV ASRLARDA ANGLIYA. Karimov Jamol Jamshid o‘g‘li	286
TOSHKENT VOHASIDAGI QADIMGI ZIYORATGOHLAR VA YODGORLIKLAR. Karimov San’atbek Otabek o‘g‘li	290
MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHKENT: IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY TARAQQIYOT TARIXI. Karimova Nodira Rashid qizi	294
XIX - XX ASR BOSHLARIDA TOSHKENT SHAHRI DEMOGRAFIK JARAYONLAR TARIXI XUSUSIDA. Karimova Sevinch O‘tkir qizi	296
QADIMGI DAVRLARDA QANG‘ DAVLATI. Keldiyorov Farrux Ergash o‘g‘li	301
BIOLOGIYA DARSLARIDA “KLASTER” VA “AQLIY HUJUM” USULLARIDAN FOYDALANISH Xakimbayeva Mamura Erkin qizi.Axmedova Muxtarama Alijon qizi, Mahmayusupova Sayyora Maxmado‘stovna	303
TARIX DARSLARIDA BADIIY ADABIYOT NAMUNALARIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI Kobilova Ozoda Ashirbayevna	307
TARIX MUTAXASSISLIGI MAGISTRANTLARINING TADQIQOTCHILIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH. Kurbanov Olim Esirgapovich	310
MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHKENT: IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY TARAQQIYOT TARIXI. Madrahimova Sevinch Abdulla qizi	313
QADIMGI VA O‘RTA ASRLARDA TOSHKENT VOHASI CHOCH SULOLALARINING POYTAXTLARI MISOLIDA. Malikboyeva Odina	316

SALJUQIYLAR DAVLATINING TASHKIL TOPISHI VA DAVLATNING IJTIMOIY IQDISODIY HAYOT. Mamirov Ziyodulla	319
TOSHKENT VOHASI SHAHARLARI ANTROPOLOGIYASIGA OID TADQIQOTLAR TAHLILI Maxamadjonov Sardorbek Sherali o‘g‘li	323
TOSHKENT – ILK O‘RTA ASRLARDA. Mingnorov Sherbek Chorshanbi o‘g‘li	326
O‘ZBEKISTON - GRETSIYA O‘RTASIDAGI SIYOSIY VA MADANIY HAMKORLIKNING TAHLILI (1991-2024). Muxammadsoliyev Nurmuxammad Dilmurod o‘g‘li	329
CHINGIZXON YASOLARINING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI O‘RNI Muminova Laylo Uzoq qizi	334
XIII – XVII ASRLARDA USMONIYLAR IMPERIYASI. Mustafoyev Mardon Panji o‘g‘li	337
TOSHKENT VOHASINING QADIMGI VA O’RTA ASRLARDAGI TARAQQIYOTI Muxamedov Shaxzod Shuxrat o’g’li	342
CHO‘LPON SHE'RIYATIDA ADABIY-ESTETIK QARASHLAR. Muxtorova Asaloy Yo‘ldasheva Yulduz	345
XIII -XVII ASRLARDA HINDISTON. Narzulloyeva Shahzodabonu Sobirjon qizi	350
TOSHKENT VOHASINING QADIMGI DAVR VA O‘RTA ASRLARDAGI SIYOSIY-MA’MURIY TUZILISHI VA SAVDO YO‘LLARIDAGI O‘RNI.. Nazarova Gulsevar Qahramon qizi	354
QADIMGI TOSHKENT TARIXI.Ne’matov Saidaxmad Aliqul o’g’li	357
O‘ZBEKISTON VA BELORUSIYA O‘RTASIDAGI IKKI TOMONLAMA ALOQALAR: Norboyev Quvondiq Xayrulla o‘g‘li	360
TOSHKENT AHOLISINING MAISHIY-MADANIY HAYOTI YUJIN SKAYLER TAVSIFIDA (XIX ASRNING IKKINCHI YARMI) Norqobilova Durdona Shabonovna	362
O‘ZBEKISTON–UKRAINA MUNOSABATLARI: TARIXIY ILDIZLAR VA ZAMONAVIY GEOSIYOSIY JARAYONLAR (1991–2024). Nurmamatov Odil Sherali o‘g‘li	366
TOSHKENT VOHASI TAMADDUN TARIXI (QADIMGI VA O‘RTA ASRLARDA) Normuhammedov Shahriyor	371
QADIMIY SHOSHTEPA. Nurmuhammedova Nozima Nodir qizi	378
CHIRCHIQ SHAHRI TARIXI, BUGUNI VA ISTIQBOLLARI.Omonboyeva Sevinch Shokirjon qizi	382
O‘ZBEKISTON TARIXINING DOLZARB MASALALARI . Oripova Shahnoza	384
TOSHKENT BEKLIGI. Otamuratova Dilrabo	389
XIX-XX ASRLARDA TOSHKENT VOHASI:RAUF PARFI IJODIYOTI. Oygul To‘ychiyeva	392
TOSHKENT HOKIMLIGI TASHKIL TOPISHIDA BO‘LGAN SIYOSIY JARAYONLAR Po‘latov Sherzod Odilxon o‘g‘li	396
QADIMGI VA O’RTA ASRLARDA TOSHKENT VOHASI. Qalabayev Akbarshoh Farhod og’li	399
KO’LBULOQ MAKONI TARIXI. Qosimova Ruxshona Sardorbek qizi	403
TOSHKENTNNING ZABT ETILISHI. Qozoqboyeva Sevinch Ajimjonqizi	407
MUSTAQILLIK DAVRIDA TOSHKENT. Qulboyev Samandar	410
AMIR TEMURNING HARBIY MAHORATI VASARKARDALARI. Quldoshev Sultonbek Nizomiddin o’g’li	415
AHMAD ZAKI VALIDIYNING “XOTIRALAR” ASARIDA TURKISTON TARIXIY-MADANIY MEROSINING AKS ETTIRILISHI BO`YICHA MULOHAZALAR Quldosheva Shahrizoda Nurali qizi	420
TOSHKENT VOHASI SHAHARSOZLIK AN'ANALARI TARIXI. Qurbonova Uldona Nordavlat qizi	426
TARIX DARSLARIDA MANTIQIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHGA YO’NALTIRILGAN ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR. Sa’dulloyeva Dilobar Nurullo qizi	430
TOSHKENT VILOYATIDAGI URF-ODATLAR VA TO‘Y MAROSIMLARI. Saidxo‘jayeva Robiya	433
YUNUSOBOD OQTEPASI O‘RGANILISHI. Samandarova Ruxshona Ro‘zmamat qizi	435
XIX–XX ASRLARDA TOSHKENT VOHASI: ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA YONDASHUVLAR Saydullayev Umidbek Saidmurod o‘g‘li.	438
BO‘STONLIQ TUMANINING MUQADDAS QADAMJOLARI VA ZIYORATGOHLARI Saydullayeva Lola	442
XI-XV ASRLARDA TURKIYA. Mehritdinova Kumush Husniddin qizi	445

TOSHKENT VOHASI TARIXIGA DOIR ZAMONAVIY TADQIQOTLAR

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya

Mas'ul muharrir:

G.I.Muxamedov – kimyo fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

R.A.Ikramov - yuridik fanlari nomzodi, professor

Y.X.Gaffarov – tarix fanlari nomzodi, professor

D.B.Axmadjanov - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

O.M.Normatov - tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Sh.B.Jumayeva - tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

O.H.Jaynarov - tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

S.A.Toshtemirova - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

O.A.Maxmudov - tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

I.S.Joldasov - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

A. N. Gorin - tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

S.A.Toshev – katta o'qituvchi

Sh.A. Sulaymonova – katta o'qituvchi

Z. N. Xaydarova - katta o'qituvchi

F.B.Kamoliddinov - o'qituvchi

Sh. Sh. Parmonov - o'qituvchi

A. X.Nigmatov - o'qituvchi

A. M.Toshtemirov - o'qituvchi

Mazkur to'plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlar to'g'riligi hamda tanqidiy fikrmulohazalarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

© Chirchiq davlat universiteti, 2025.

© «Zebo print» nashriyoti, 2025.